Хулоса қилиб айтганда, XX аср 20-30-йилларида Ўзбекистон ССРда диний уламолар "босмачилик"ка кўмаклашгани, уларни яширгани, аксилинқилобий ҳаракатларда иштирок этгани, совет ҳокимиятига қарши тарғибот юритгани, колхозлар тузишга қарши чиққани, қўпорувчилик қилгани, диний маросимда қатнашиб солиқ тўламагани, яширин ташкилотларда иштирокчилиги, диний маросимларни бошқаргани кабилар рўкач қилиниб, қатағонлик гирдобига тортилди.

Диний уламоларнинг бир қисми юқорида таъкидланган даврда отувга ҳукм қилинди, яна бир қисми узоқ ўлкаларга қулоқ сифатида сургун қилиб юборилди, анча қисми эса вазият тақозосига кўра ўз оилалари билан хорижга чиқиб кетишга мажбур бўлди.

Совет ҳокимиятининг диний уламоларга нисбатан ноинсоний ва зўравонликка асосланган сиёсати туфайли республикада ислом илми ва маънавиятидан мукаммал хабардор бўлган уламолар бутунлай йўқотилиб, уларнинг ўрнига кўр-кўрона ижрочилар, диний илмдан юзаки хабардор бўлган шахслар диний муассасалар раҳбарлигини эгаллашди. Бундай кимсалар расмангина ўз вазифасини бажариб, юқоридан берилган буйруқларнинг ижрочиси эди, холос. Диний уламоларни қатағон қилиш жараёнида маънавий қадриятларимиз оёқости қилинди. Уламолар томонидан сақланиб келинган диний ва дунёвий илмлар ҳамда юртимиз ўтмишидан хабар берувчи нодир қўлёзмалар мусодара қилинди ёки йўқотиб юборилди.

Хуллас, ўзбек халқи ана шундай катта йўқотишлар ва улкан фожиалар билан 1939 йилга етиб келди. Совет ҳокимияти мажбуран ўрнатилгандан кейин туғилган ёш авлод ҳа бу пайтда 21-22 ёшни тўлдирди. Коммунистик мафкура ҳукм сурган совет жамиятида бутунлай янги авлод шаклланди. Жадид тараққийпарварлари, миллий раҳбар ходимлар, уламолар ва қўрбошилар оммавий равишда қатли ом ва қатағон қилингандан сўнг большевик

пропагандистларининг фикрича, совет давлатига содиқ янги авлод вояга етди. Бу пайтда Европада телба фюрер Гитлер аллқачон уруш оловини ёққан ҳолатда кўҳна қитъани деярли бутунлай ўзига бўйсундирган, олдинда эса Иккинчи жаҳон муҳорабасининг бошланиши муқаррар бўлиб қолган эди. Ўзбек халқини 1939 йилдан бошлаб яна ҳам улкан машаққатлар ва синовлар кутиб турар эди. Вақт эса бир жойда тўхтамай тобора олдинга одимлар, халқимиз ҳам оғир йўқотишлар ўрнини тезроқ тўлдириш учун Ўзбекистонда бунёдкорлик фаолиятини тўхтатмай ғайрат билан каналлар қазир, янги шаҳар ва қишлоқларга асос солиб, завод-фабрикалар ҳамда пахта майдонларида фидокорона меҳнат қилар эди. Ниҳоят, 1939 йил сентябрь ойи ҳам кириб келди.

O‘ZBEKISTONDA AYOL VA QIZLARNING TA’LIM OLISHI: TARIXIY RIVOJLANISH, HOZIRGI HOLAT VA XALQARO TAQQOSLASH

Xasanova Nargiza Maxsatjonovna,
Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, t.f.f.d. (PhD).

Annotatsiya Ushbu maqolada O‘zbekistonda qizlar va ayollarning ta’lim olish masalasining tarixiy taraqqiyoti, o`tgan davrda uarning ta’lim olishi masalalalridagi muammolar tahlili, mustaqillik yillaridagi yutuq va o`zgarishlar Yangi O`zbekiston sharoitida ayol-qizlarga berilayotgan imkoniyatlar, shu bilan birga xalqaro taqqoslash orqali gender tengligini ta’minlash borasida mamlakatning olib borayotgan siyosati va bu boradagi istiqbollari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so’zlar: Mustaqillik, Ilm-fan, “Avesto”, zardushtiylik, islom dini, sovet davri, “Talim to`g`risida” gi Qonun, BMT, YUNESKO, Deklaratsiya, Konvensiya, Xalqaro ayollar yili, Jadidchilik harakati, texnologiyalar, ayol-qizlar, gender tenglik, ilmiy rivojlanish, STEM, ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, innovatsiyalar, texnologik taraqqiyot, ilmiy kashfiyotlar, grantlar, ilm-fanga jalb qilish, texnologik yutuqlar.

ОБРАЗОВАНИЕ ЖЕНЩИН И ДЕВОЧЕК В УЗБЕКИСТАНЕ: ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ, СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ АНАЛИЗ

Хасанова Наргиза Максатжоновна,
заведующая кафедрой, «Методологии социально-экономических наук» Андижанского областного педагогического центра, доктор философских наук (PhD).

Аннотация. В статье представлен исторический анализ проблемы образования девочек и женщин в Узбекистане, анализ проблем их образования в прошлом, достижений и изменений за годы независимости, возможностей, предоставляемых женщинам и девочкам в условиях нового Узбекистана, а также политика и перспективы страны по обеспечению гендерного равенства посредством международного сопоставления.

Ключевые слова: Независимость, Наука, «Авеста», зороастризм, ислам, советское время, Закон «Об образовании», ООН, ЮНЕСКО, Декларация, Конвенция, Международный женский год, движение джадидизма, технологии, женщины и девочки, гендерное равенство, научное развитие, STEM, социально-экономическая политика, инновации, технический прогресс, научные открытия, гранты, приобщение к науке, технологические достижения.

EDUCATION OF WOMEN AND GIRLS IN UZBEKISTAN: HISTORICAL DEVELOPMENT, CURRENT STATUS AND INTERNATIONAL COMPARISON

Khasanova Nargiza Maksatjonovna,
Head of the Department of «Methodology of Social and Economic Sciences» of the Andijan Regional Pedagogical Center, Doctor of Philosophy (PhD).

Abstract: This article presents the historical development of the issue of education of girls and women in Uzbekistan, an analysis of the problems of their education in the past, achievements and changes in the years of independence, opportunities provided to women and girls in the conditions of new Uzbekistan, as well as the country’s policy and prospects for ensuring gender equality through international comparison.

Keywords: Independence, Science, «Avesta», Zoroastrianism, Islam, Soviet era, Law «On Education», UN, UNESCO, Declaration, Convention, International Women’s Year, Jadidism movement, technologies, women and girls, gender equality, scientific development, STEM, socio-economic policy, innovations, technological progress, scientific discoveries, grants, involvement

in science, technological achievements.

Kirish Ta’lim – insonning asosiy huquqlaridan biri bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining eng muhim poydevoridir. Ta’lim hozirgi kungacha insoniyat tafakkuri ila barcha zamonlarda to‘plangan bilimlarni umumlashtirish bilan mashg‘ul bo‘lgan murakkab jarayondir. Jamiyat hayotining tobora o‘zgarib borishi, zamonaviylashivu ta’lim-tarbiyani harakatlantiruvchi kuchdir, muvaffaqiyatli ta’limning eng muhim belgisi esa jamiyat va insoniyat taraqqiyoti talablariga javob bera olishidir. Ta’lim sifati oshishining yana bir muhim bosqichi va zamonaviy talabi bugun aholining barcha qatlami shuningdek ayolu-erkakning birdek ta’lim olishi, bir hil huquq va erkinliklarga ega bo`lishi hamma sohada tenglasha olishidadir.

Ma’lumki BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG 4) da ayollar va qizlarning sifatli ta’lim olishini ta’minlash global ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Shuninigdek xalqaro miqyosda ayol va qizlarning haq-huquqlari, shuningdek ta’lim olishi, ilm izlanishi, tadqiqotlar olib borishi borasida ko`plab xujjatlar qabul qilingan.

Adabiyotlar tahlili

Sharqda jamiyatning turli davrlarida ham ayollar, oila masalasidagi qarashlar, jinslar o`rtasida teng huquqlilik olimlarning diqqat markazida bo`lib kelgan. Jumladan, sharq mutafakkirlari - Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Margiloniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Maxmudxuja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat va boshqalarning asarlarida ayollar, oila-nikox munosabatlari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, ota-onaning vazifalari, farzandlar tarbiyasi, ayol-qizlarning bilim olishi haqida g`oyatda ibratli maslaxat va o`gitlar bayon etilgan...

Mamlakatimizda aynan bu masalada zamonaviy ilmiy tadqiqotlar sovet tuzumining barbod bo‘lishi bilan kommunistik mafkura ta’siridan xoli bo‘lgan xolda mustaqillik yillarida to‘laqonli o‘rganila boshlandi. Hozirda tarixiy voqeliklarni yoritishda yangicha yondashuv va qarashlarga keng yo‘l ochib berilgan bo‘lib, ayniqsa, o‘zbek xotin-qizlar, ta’lim-tarbiya, ilm-fandagi xotin-qizlar faolligi, oila, masalalari doirasida ijtimoiy fanlarning barcha sohalarida tadqiqot ishlari olib borish uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Ijtimoiy fanlarning turli sohalarida mamlakat xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotdagi ishtiroki va faoliyatlari bilan bog‘liq qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, ular xotin-qizlar muammolarini o‘rganish, mavjud muammolarning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qilish va ularni hal qilishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishda muhimdir.

O‘zbekiston xotin-qizlarining jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy-siyosiy faolliklari, ayollarning gender va reproduktiv huquqlarining milliy va xalqaro jihatlari hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida ayollarning ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida shakllanish jarayonlariga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqot ishlari mavjud. [11].

O‘zbekiston xotin-qizlarining o‘zbek modeliga asosan bozor munosabatlariga o‘tish sharoitidagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardagi faol ishtiroki rossiyalik olimlar M.Gafarli va A.Kasayev tomonidan ham ijobiy o‘rganilgan. [13]. Xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy maqomini oshirish va ularning muammolarini hal etishga qaratilgan tadqiqotlarda, ularning zamonaviy intelektual qobiliyatlari va uni rivojlantirish, XXI asr oilasining muhim funksional vazifalari, ayol-qizlarning qadimdan bugunga qadar ta’lim olishi, ijtimoiy faolligini rivojlantirish muammosi yaxlit tarzda o‘rganilmagan, lekin amalga oshirilgan ba’zi tadqiqotlarda muammoning muayyan jihatlariga e’tibor qaratilgan, mazkur muammoning ayrim jihatlariga bag‘ishlangan maqolalar chop etilgan[14].

Maqolaning ilmiy yangiligi, avvalo, mavzuning mustaqillik mafkurasi asosida tadqiq etilib, manbalarga tanqidiy tarixiy jihatdan yondashilib, ilk marotaba muomalaga kiritilayotgan yangi ma’lumotlar va davriy matbuot va arxiv materiallari asosida ilmiy-nazariy xulosalar, yangicha qarashlar, milliy g‘oya va yangi metodologiya asosida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan dolzarb manbalarga asosan birinchi bor o‘rganilganligidadir.

Muhokama Xotin-qizlar huquqlari masalasi inson huquqlarining ajralmas qismi bo`lib, jahon

sivilizatsiyaning eng muhim yutuqlaridan biridir.

Inson huquqlari shuningdek xotin-qizlar haq-huquqlarining tan olinishidagi xalqaro miqyosdagi asosiy harakatlar asosan ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda boshlandi. Dastlab Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948 yilning 10 dekabrida qabul qilingan inson huquqlari xartiyasi bo`lmish Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi har bir insonning jumladan, ayollarning ham huquqlari doirasida milliy va xalqaro antidiskriminatsion qonunchilikka asos bo`ldi. Keyinroq o`tgan asrning 70-yillari dunyo miqyosida ayollar teng huquqliligi masalalarida uyg'onish, jadallashuv davr bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, 1975 yilning BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Xalqaro ayollar yili, deb atalishi, 1976-1985 yillar oralig'i "Tenglik, taraqqiyot, tinchlik" shiori ostida BMT Ayollar O'n Yilligi e'lon qilinishi, 1979 yil 18 dekabrda Nyu-Yorkda qabul qilingan "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiya, 1993 yilning 20 dekabrida Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurash haqida deklaratsiya qabul qilinishi, ayollar huquqlarini yanada himoya qilishga qaratilgan ijobiy harakatlar bo`ldi.

Umuman olganda bugunga qadar ayol-qizlarning haq-huquqlari doirasida ko`plab xujjatlar xalqaro miqyosda qabul qilindi va davlatlar tomonidan rativikatsiya qilindi. Xususan O'zbekiston respublikasida bugungi kunga qadar ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan 100 ga yaqin xalqaro huquqiy xujjatlar ratifikatsiya qilingan [1].

Konvensiyaga muvofiq, xotin-qizlarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun barcha sohalarda uning normalarini milliy qonunchilikka tatbiq etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rildi. Respublikada ayollar va erkaklarning jamiyat hayotidagi tengligiga doir konstitutsiyaviy prinsipni amalga oshirish uchun institutsional muhit yaratildi [2].

Respublikamizda ayollarning huquq va erkinliklarini ta'minlash yuzasidan 20 dan ziyod Qonun va 30 dan ziyod me'yoriy huquqiy hujjatlarning e'lon qilinganligi mazkur soha davlatning ustuvor vazifalaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Ayollar huquqlari orasidagi eng asosiylaridan biri bu ularning ta'lim olishi, ilmiy izlanishlar olib borishi alohida o`rin tutadi. Mahsus jarayon asrlar davomida shaklanib, ayollarning ilm olishi har bir jamiyat uchun qanchalik zarur ekanligi tan olingan.

O'zbekiston tarixida ayollar ta'limi turli davrlarda turlicha yondashuvlarga ega bo'lib, ijtimoiy, madaniy va siyosiy omillar ta'sirida shakllangan. Qadimdan sivilizatsiya rivojlanishi o`laroq bu masalaga ham e'tibor kuchaya boshlagan. Ayol-qizlarning ta'lim olishi masalasiga tarixiy davrlarda turlicha yondashilgan bo`lib o`ziga xos tarzda shakllanib borgan. O'zbekistonda ayollar va qizlarning ta'lim olishi tarixi juda qadimiy va shu bilan birga murakkab jarayonlarni bosib o'tgan. Mazkur jarayonni quyidagi bosqichlarda ko`rib chiqish mumkin.

Eng qadimgi davrdan to islom dini kirib kelganugi qadar bo`lgan davr.

Manbalarda keltirilishicha Markaziy Osiyo qadimda ilm-fan markazi bo'lgan. Ba'zi tarixiy manbalarda zodagon oilalardan chiqqan qizlarning o'qishi va diniy, adabiy bilimlarga ega bo'lgani haqida yozilgan.

Jumladan Zardushtiylik dini qonunlariga ko'ra, oilada farzand tarbiyasi jamiyatning ma'naviy rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Aholi o`rtasida oilaga ega bo'lganlar to'g'ri va yaxshi hayot kechirishadi degan tushuncha shakllangan. Shuning uchun oila bolib yashash, oilada farzand tarbiyasi bilan shug`ullanish muqaddas ish deb hisoblangan. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblangan "Avesto"da bolalarni yoshligidan tarbiyalash va o'qitish bo'yicha ba'zi pedagogik qoidalar o'z aksini topgan. Masalan, "Avesto"ga ko'ra, bola o'sishi bilanoq, ota-onalar uni o'qish uchun maktabga berishga majbur edilar. Agar ular buni qilmagan bo'lsalar, ularning qilmishlari katta gunoh qilish bilan tenglashtirilar edi. Shu o'rinda ayollarning zimmasiga yuklangan vazifa bolani tom ma'noda maktabga tayyorlash edi, ya'ni bolani savodini chiqarishda o'qituvchi bilan birgalikda mehnat qilishi talab qilinar edi. Yetti yoshga qadar, bola asosan onasi bilan birga tarbiyalangan. So`ng otasi uni maktabga berishi shart bo`lgan. "Avesto"da

yozilishicha: “Agar sizda voyaga etmagan bolangiz bo‘lsa, uni maktabga yuboring, chunki bilim ko‘zning nuridir” [18] degan qoidaga qat’iy rioya qilishgan.

Sosoniylar davrida ritorika, mantiq, falsafa, adabiyot va boshqa ko‘plab fanlarni mukammal biladigan o‘qituvchilar ko‘p bo‘lgan. Eng yaxshi o‘qituvchilar ko‘pincha qirol maktablarida o‘qitilgan va hukmdorning o‘zi tomonidan tayinlangan. Ushbu fanlarni biladigan ayol o‘qituvchilari oddiy maktablarda ham o‘qitilganligi to`g`risada ma’lumotlar keltiriladi [15].

Bundan ko`rinib turibdiki qadimdan farzand tarbiyasida onalar muhim rol o`ynagan, ayollar buning uchun yaxshigina tajribaga ega bo’lgan. Demak, o‘z-o‘zidan ma’lumki ayollar ta’limdan xabardor ekanliklarini taxmin qilsak mantiqan xato bo‘lmaydi. Lekin keng xalq ommasida qizlarning ta’lim olishi juda cheklangan edi, asosan uyda, oilaviy tarbiya doirasida bilim berilgan.

Islom dini kirib kelganidan keying davrlar (IX–XIX asrlar)

Har bir insonning o‘rganishga, atrofdagilar bilan muloqotdagi ilmlarga ehtiyoji bor. Islom dini – ilm dini hisoblanadi. Shuning uchun ham ilk nozil bo‘lgan oyati karima “iqro” so‘zidan boshlanadi, ya’ni “o‘qi” deyilgan. Shu bois islom dini ilm olishni erkak va ayol uchun farz deb belgilagan. Shunigdek muqaddas xadisi shariflarda keltirilishicha ayollarning o`qishga va o`qitishga haqli ekanliklari haqida ham fikrlar bayon etilgan.

Islom dini kirib kelgandan so`ng dastlab ayrim qizlar madrasalarda yoki uy sharoitida diniy ta’lim olgan. Tarixda mashhur ayol olimalar ham bo‘lgan. (Ko‘pgina islom ta’lim muassasalarining barpo etilishida ayollar muhim rol o‘ynagan, masalan, Fotima al-Fihriy 859-yilda Al-Qaravin universitetiga asos solgan. XII asrda yashagan Ibn Asakirning yozishicha, Islom olamida ayollarning bilim olishi uchun katta imkoniyatlar mavjud edi. U ayollarning o‘qishi, ilmiy darajalarga ega bo‘lishi, olim va o‘qituvchi bo‘lishlari mumkinligini yozgan [15]. Biroq ayollarning ta’lim olishida hech qanday qonuniy cheklovlar bo‘lmasa-da, ko`plab mahalliy aholi (xususan erkaklar) tomonidan ayollarning ta’lim olishiga qarshiliklar bo`lgan. O`sha kezlarda ayol-qizlarning ta’lim olish jarayoni asosan diniy bilimlar bilan chegaralangan, keng tarqalmagan. (Lekin shunga qaramasdan musulmon olamida XV asrda yashagan Al-Shaxavi o‘zining butun o‘n ikki jildlik tarjimai hol lug‘atini olima ayollarga bag‘ishlaydi; lug‘atda ulardan 1075 tasi haqida ma’lumotlar mavjud).

Movarounnahr hududlarida ham ayollarning bilim olishiga bo`lgan e’tibor asta sekin ortib borgan. Xatto mashhur ziyoli xonimlar tarixda ilm cho`qqilarini zabt etganligi haqida tarixiy faktlar mavjud. Bu jarayon asosan Temuriylar hukmronligi yillari va O`rta Osiyo xonliklari davrida (ayniqsa Qo`qon xonligi adabiy muhitida) yaqqol ko`zga tashlanadi. Birgina temuriylar sulolasiga mansub malikalar orasida ham ko`plab iste’dodli siyosatdon, suxandon, yetuk olima va xassos shoiralar yetishib chiqqan Xatto ular orasida davlat boshqaruvidagi siyosat bilan bog`liq faolliklari alohida ta’kidlanadi [7]. Ular o`z bilim va tafakkurlari orqali tarix zarvaraqlarida o‘zlaridan o‘chmas iz qoldirganlar.

O‘zbekiston hududida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ta’lim olish jarayonlari jadidchilik davri

O‘zbekiston hududida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida qizlarning rasmiy ta’lim olish imkoniyati juda cheklangan edi. Asosan o‘g‘il bolalar maktab va madrasalarda o‘qigan, qizlar esa uy sharoitida yoki otin-oyilar qo‘lida Qur’on, yozish-o‘qish va ahloq-odob saboqlarini olgan. Savodxonlik darajasi past bo‘lib, an’anaviy qarashlar qizlarning maktabga qatnashini ta’qiqlar edi. Ayollarning erk-ozodligi, ilm-ma’rifatga qiziqishi, biroq ota-onasi ra’yidan chiqolmay taqdir hukmiga bo‘yin egishi o`sha davr muhitidagi oddiy holat edi.

Jadidchilik harakati (XX asr boshida) qizlar ta’limi rivojida burilish yasadi. Ilg‘or o‘zbek ma’rifatparvar ziyolilari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon kabi jadidlar jamiyatning intellektual darajasi ayollarga bog‘liq ekani haqida mulohazalar yuritdi, davriy matbuotda xotin-qizlarni bilim olishga chaqiruvchi murojaatlar bilan chiqishdi, yangi usul maktablarini ochib, qizlar uchun dunyoviy fanlarni ham o‘qitishni yoqladilar. Ular qizlarning ham zamonaviy bilim olishini targ‘ib qildi. So`ng qizlar maktablari

(dastlab Toshkent, Andijon, Qo`qonda) ochildi, yangi usulda o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Bunday tartibotdagi qizlar maktablarida ayol muallimlar Solixaxon Muhammadjonova, Muharrama Qodirova, Gulso’m Kopayeva, Fotima Burnasheva, Zebiniso Razzpqova, Zaynab Sadriddinova, Maryam Sharipova va boshqalar ta’lim- tarbiya ishlarini olib borganligi haqida manbalarda keltiriladi [16].

Bu davr O‘zbekistonda ayollar ta’limi tarixida burilish nuqtasi bo‘ldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarining etakchi ma’rifatparvari A. Fitrat uzining “Oila” asarida xotin-kizlarning jamiyatdagi urni haqida — “ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi milliy ozodlik, erk uchun zarur: ayollar faqat uy-ruzg`or, bola tarbiyasi bilan band kolmasligi kerak”, shuningdek farzandlarning qanday shaxs bo`lib voyaga etishiga, ularga onalari nima bera olganliklariga bog`lik - deb yozadi. Atoqli ma’rifatparvar olim Abdulla Avloniy esa: “Qizlar hammadan ko‘ra bilim olishga intilishi kerak, chunki bu bilim bilan kelajak avlodni tarbiyalaydi”, deb uqtirgan edi. Umuman olganda Turkistonda xotin-qizlar ta’limi masalasi XX asrning boshida qizg‘in muhokamalarga sabab bo‘lgan.

Sovet davri (1920–1991)

1920-yillardan boshlab savodsizlikka qarshi davlat miqyosidagi kompaniyalar faoliyatini boshladi. Ayollar ham majburiy ta’lim tizimiga jalb qilindi. Muhim o‘zgarishlardan: 1920-yillardan boshlab ayol-qizlar uchun (maxsus va aralash ta’lim muassasalari) maktablar, texnikumlar, institutlar ochildi. “Hujum” siyosati (1927-yil) doirasida pardoz (paranji)dan voz kechish, ayollarning erkin ta’lim olishi targ‘ib qilindi (ammo bu siyosat ayol-qizlarga ko`plab muammolar keltirib chiqarganligi to`g`risida tariximizning qora sahifalari ham mavjud…).

Manbalarda keltirilishicha 1920 yil Namangan, Qo`qon, Samarqanda alohida qizlar maktablari bo`lib ularning birida 170 nafar qizlar ta’lim olib, mahalliy aholining qizlari turmush sharoitidan kelib chiqib rus maktablari va ayollar gimnaziyalarida o`qiy olmayotganligi haqida Xalq maorifi yig`ilishida aytib o`tilgan [20]. Chunki ularda asosan rus millatiga mansub ayol-qizlar tahsil olgan.

Sho`ro davriga kelib ta’lim sohasida olib borilgan islohotlar tufayli qizlar va o‘g‘il bolalarni bir sinfda o‘qitish joriy qilingan. Buning natijasida 1924-1925-yillarda sovet maktabida 34 ming 735 nafar (26,1 %) qizlar o‘qigan, qishloq joylarida esa ularning soni 6 ming 235 nafarni (11,5%) tashkil etgan.

Respublikada 1927-28 yillarda maktablarda 35 ming qiz (shundan 6 mingga yaqini qishloq joylarida) ta’limga jalb etilganligi to`g`risida ma’lumotlar keltiriladi. 30 yillarga kelib savodsizlikni tugatish maqsadida o`qituvchilik kurslari ham tashkil etilganligi haqida arxiv materiallarida keltiriladi [21]. 1929-yilda o’ndan ortiq xotin-qizlar pedagogika va meditsina texnikumlari mavjud edi.

O‘zbekiston SSRda 1945–1953 yillarda ta’limga jalb etilgan ayollar soni sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, qizlar uchun alohida tashkil etilgan pedagogika bilim yurtlari va tibbiyot texnikumlari ta’limning feminzatsiyalashuvini jadallashtirdi. Keyinroq Pedagogika, tibbiyot, muhandislik sohalarida ayollar ulushi oshdi [17]. Gender tengligi siyosati rivojlana boshlandi. Bu siyosat o‘zining ilk natijalarini 1950- yillarning o‘rtalariga kelib bergan bo‘lsa-da, erkaklar va ayollar o‘rtasida oliy ta’limdagi vakillik mutanosibligi hamon teng bo‘lmagan.

1970–80-yillarga kelib ayollar savodxonligi yuqorilab, oliy ta’limdagi ayollar ulushi sezilarli darajada oshdi. Sovet hukumatining asosiy siyosatlaridan biri ayollarni savodsizlikdan qutqarish va ularni ijtimoiy hayotga jalb qilish shiori ostida ayollarni turli ishlarga hatto og`ir mehnat faoliyatiga ham jalb etila boshlandi.

Mustaqillik davri (1991 – Bugungi holat, so‘nggi yillardagi asosiy tashabbuslar.)

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ta’lim tizimida tub islohotlar o‘tkazildi, dastlab 1992 yili 2 iyulda “Ta’lim to`g`risida” gi Qonun qabul qilindi [3]. 11 yillik majburiy ta’lim joriy etildi. Mazkur Qonun(4-moddasi)ga muofiq O‘zbekiston Respublikasi kelib chiqishi, jinsi, tili, yoshi, irqi, millati, e’tiqodi va dinga munosabatidan, ijtimoiy ahvoli, mashg‘ulotining turi, turar joyi,

respublika hududida qanchadan beri yashayotganligidan qat’iy nazar, barchaning ta’lim olishi uchun teng huquqlarni kafolatlashishi belgilandi. 1992-yildagi qonun asosida umumiy ta’lim quyidagi bosqichlar bo‘yicha amalga oshirila boshlandi.

I bosqich – boshlang‘ich ta’lim (1–4 sinf);

II bosqich – asosiy (tayanch) maktab (4–9 sinf);

III bosqich – yuqori o‘rta maktab (10–11 sinf).

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil dekabrdagi qarori bilan 1-oktabr – “O‘qituvchilar va murabbiylar kuni” deb belgilandi hamda bu kun bayram sifatida dam olish kuni deb e’lon qilindi.

O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi siyosati 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o‘z aksini topdi. 1996–1997-o‘quv yilidan boshlab maktablarning birinchi sinfl arida o‘qish yangi alifboda olib borildi. Yangi imlo, alifboda o‘qitish uchun zarur dastur, qo‘llanma va darsliklar yaratildi

Qizlarning ilm olishiga bo`lgan e’tibor kuchaytirildi. Qizlarni ta’limga qamrab olinishi yildan-yilga oshirildi.

2017-yil umumta’lim va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimida tub islohotlar yili bo‘ldi. Xalq qabulxonalari va Prezidentning virtual qabulxonasiga tushgan taklif va mulohazalar, shuningdek, respublika maktablaridagi bitiruvchilarning ota-onalari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalaridan kelib chiqib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 9+3, ya’ni 12-yillik majburiy ta’limdan 11-yillik ta’limga qaytildi. 2017-yilning o‘zida 10-sinf o‘quvchilari uchun 9 mln. nusxa darsliklar chop etildi va 10 mingga yaqin umumta’lim maktabida 11-yil-lik ta’limga o‘tilgan holda o‘qitish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

2020 yil 23 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni, qabul qilindi. Ta’lim olish shakllari sifatida ishlab chiqarishdan ajralgan xolda ta’lim olish (kunduzgi), ishlab chiqarishdan ajralmagan xolda ta’lim olish (sirtqi, kechki masofaviy), dual ta’lim, oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish, kaftJ yoshdagilarm o‘qitish va ularga ta’lim berish, inklyuziv ta’lim, ekstemat tartibidagi ta’lim, mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasda kadrlar tayyorlash kabi shakllariga ajratildi.

O`tgan vaqt mobaynida ayollar ta’limini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. O‘zbekistonda xotin-qizlar uchun yaratilayotgan sharoitlar va imkoniyatlar ularning ilm-fan va texnologiyalarda qo‘shgan hissasi va bu sohalarda erishgan yutuqlari izchil o‘sib bordi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda qizlarning maktab ta’limi 100% ga yaqin (maktab o`quvchilarida qizlar ulishi 48.7%) qamrab olingan [23].

Oliy ta’limda ham ayollar soni yil sayin oshmoqda (2024-2025 o`quv yilida talabalarning qariyb yarmidan ko`pi qizlar jami 54.3%, bakalavriyat 50.3%, magistratura 60.6% tashkil etadi) [24].

Qizlar nafaqat ta’lim olmoqda, balki fan, siyosat, diplomatiya, biznes (deyarli barcha) sohalarida muvofaqqiyatli faoliyat yuritmoqda.

“Ayollar daftari”, dasturi – ijtimoiy himoyaga muhtoj ayol-qizlarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida joriy etildi [4].

O‘zbekiston Respublikasida Davlat statistika agentligining ma’lumotlariga ko‘ra oliy ta’limning ilmiy, texnologik, muhandislik-matematika dasturlari bitiruvchilari orasida ayollar ulushi o‘sib bormoqda. Misol uchun, 2017 yilda bu 32,6 foizni, 2021 yilda 40,2 foizni tashkil etdi. 2023 yilga ma’lumotlarga ko‘ra 2022 yilda O‘zbekistonda tabiiy fanlar, matematika va statistika, ijtimoiyta’minot, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, muhandislik, mexanik ishlov berish va qurilish sohalaridagi oliy ta’lim bitiruvchilarining ulushi 27,3 foizni tashkil etdi [22].

Oliy ta’limda qizlar uchun maxsus grant va stipendiyalar joriy etilishi.

Mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash hamda barcha sohalarda munosabatlarni tartibga solish maqsadida Gender siyosati to`liq amalga

oshirish belgilandi [2].

Bugungi kunda ayol-olimalar ulushi O‘zbekistonda esa 48%ni tashkil qiladi Hozirgi vaqtda 6 ming 200 dan ortiq xotin-qizlar ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgani, ilmiy ishlanmalarning 25 foizini olima ayollar yaratayotgani ham, jamiyatda ularning o‘rni mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi [5].

Xalqaro taqqoslash. YUNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda ayollar savodxonligi darajasi 99% dan yuqori. Biroq oliy ta’limda qizlar ulushi rivojlangan mamlakatlarga qaraganda pastroq – 45– 47% atrofida. Masalan, Finlyandiya, Kanada va Janubiy Koreyada bu ko‘rsatkich 55–60% ni tashkil etadi. Bu esa yuqori ta’limdagi gender tengligini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Ammo ba’zi G‘arb mamlakatlarida ayollar ta’limi erkaklar ta’limidan yuqori darajaga chiqqan. Masalan, AQSHda 2005-2006-yillarda ayollar dotsentlarning 62%, bakalavriatning 58%, magistrlarning 60% va doktorlik darajasini olganlarning 50% ni tashkil etgan [25].

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki: O‘zbekiston ayollar ta’limi uzoq tarixiy yo‘lni bosib o‘tdi: ya’ni qadimiy an’anaviy cheklovlardan uyg`onish davrigacha bir bosqich, jadidchilik islohotlariga ko`ra burilish hosil qildi, sovet davrida majburiy ta’limda ishtirok etib, mustaqillik yillarida milliy dasturlar asosida qizlar ta’limi mustahkam tomir ortdi, Yangi O`zbekiston sharoitida esa sifat va imkoniyat jihatidan jahon standartlariga mos ravishda yangi bosqichga ko`tarildi.

Mulohaza yuritilsa ta’lim ayollar uchun nima bera oladi, eng avvalo, o`zining sog`ligi, o`z-o`zini anglashi, fikrlarini aniqligi, farzand tarbiyasi oldidagi ma’sulyatli eng muhim vazifasi, qolaversa jamiyatda o`z o`rniga ega bo`lishida asosiy o`rinni egallaydi. Shuningdek ta’lim ayolning oila qurishi, farzand ko`rishi, insonlar bilan erkin muloqot qilishiga, o`z haq-huquqlarini bilishiga kuch beradi, tug‘ish yoki umuman turmush qurmaslik, farzand ko‘rmaslik, rasmiy nikohga ega bo‘lmaslik kabi nohush holatlarni oldini oladi, oilaviy munosabatlarni esa mustahkamlaydi, shaxsiy chagarasini qo`ya olishiga bilim saviyasi yeterlicha shakllanadi. Shuningdek, ta’lim ayollarning hamkorlar va ish beruvchilar bilan muloqotini va jamiyatda fuqarolik ishtiroki darajasini yaxshilaydi. Xotin-qizlar ilm-ma’rifatli, izlanuvchan, ilm-fan va texnologiyalar sohasida muvaffaqiyatli karyeralar qurishni istasachi?, nafaqat ularning shaxsiy imkoniyatlarini kengaytiradi, balki butun jamiyat va ijtimoiy-iqtisodiyotga katta foyda keltiradi.

Bugungi kunga kelib jamiyat tomonidan ayollarni ilm-fan va texnologiyalar sohasiga jalb qilinish, birinchi navbatda, gender tengligi nuqtai nazaridan juda muhim hisoblanmoqda. Agar xotin-qizlar bu sohalarga etarli darajada jalb qilinmasa, ilmiy kashfiyotlar va texnologik rivojlanish jarayoni to’liq amalga oshirilmaydi.

Tadqiqotlar xulosasiga ko`ra ayollarning mehnat bozorida va ilmiy ishlarda ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishning tezlashishiga olib kelar ekan. Ushbu strategiya nafaqat yalpi ichki mahsulot yiliga 5.3% o‘sishini ta’minlashga yordam beradi, balki ijobiy ijtimoiy o‘zgarishlarga ham hissa qo‘sha oladi.

Maqola xulosasidan kelib chiqib, ilm-fan va ta’limda ayollar faolligini oshirishning yanada muffaqiyatli kelajagi uchun kelgusidagi ustuvor vazifalar sifatidagi tavsiyalar:

Yurtimizning ayrim qishloq hududlarda erta nikoh, iqtisodiy qiyinchiliklar va madaniy cheklovlar sabab, qizlarning ta’limni tark etish holatlarining oldini olish;

Qishloq va shahar o‘rtasidagi ta’lim imkoniyatlari tengligini ta’minlash;

STEM sohalarida qizlar ulushini, imkoniyatlarini oshirish;

Ayollar uchun oliy ta’limda qo‘shimcha rag‘batlantirish choralarini kengaytirish;

Aholi o`rtasida ayol-qizlar ta’limiga qo`yilayotgan cheklovlarni, ayniqa ularga salbiy munosabatlarni bartaraf etish;

Ta’limda imtiyozlar bo‘lishiga qaramay mehnat bozorida saqlanib qolayotgan erkaklar va ayol xodimlarning topayotgan daromadlarida farqni muofiqlashtirish;

Jamiyatda ilm-fanda ayollarga bo‘lgan munosabat, ularni qabul qilish, ularga nisbatan xatti-harakatlar, ijtimoiy me’yorlar va stereotiplarni bartaraf etish.

Muxtasar qilib aytganda ayol-qizlarning ta’lim-tarbiyasi bu – kelajak masalasi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Инсонҳуқуқлариумумжаҳондекларацияси,Фуқароликвасиёсийҳуқуқлартўғрисидаги Халқаро пакт, Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги Халқаро пакт, Одам савдосига ва учинчи шахслар томонидан танфурушликдан фойдаланилишига қарши кураш тўғрисидаги Конвенция (1949 й.); Хотин-қизларнинг сиёсий ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция (1952 й.); Хотин-қизлар ҳуқуқлари камситилишининг барча шаклларига барҳам бериш тўғрисида Конвенция, Пекин декларацияси ва Ҳаракатлар Платформаси (1995 й.); Қийноқларга солишга ва муомалада бўлиш ҳамда жазолашнинг бошқа шафқатсиз, ғайриинсоний ёки қадр-қимматни таҳқирловчи турларига қарши Конвенция (1984 й.); Таълим соҳасидаги камситишларга қарши кураш тўғрисидаги Конвенция (1960 й.); Бир хил қийматга эга бўлган меҳнат учун эркаклар ва хотин-қизларни тенг рағбатлантириш тўғрисидаги Конвенция (1951 й.); Оналикни муҳофаза қилиш тўғрисидаги Конвенция (1956 й.); Меҳнат ва машғулотлар соҳасидаги камситишлар тўғрисидаги Конвенция (1958 й.) ва бошқалар.

2. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 сентябрдаги ЎРҚ-561-сон “Хотин-қизларни тазйиқлар ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги қонуни //https://www.lex.uz/docs/4494709; Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 сентябрдаги ЎРҚ-562-сон “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги қонуни // https: //lex.uz/docs/4494849;

3. TA’LIM TO‘G‘RISIDA. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.07.1992 yildagi 636-XII-son. Hujjat kuchini yo‘qotgan 30.09.1997. https://lex.uz/docs/-56418

4. Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.03.2022 yildagi PF-87-son. https://lex.uz/docs/-5899498?ONDATE=29.12.2023

5. Oqila va mehribon ayollar – zamonamiz qahramonlari. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o`tkazilgan tadbirdagi nutqidan. 07.03.2025 https://president.uz/oz/lists/view/7929

6. Ўзбекистон Хотин-қизлар қўмитаси (1991 й.), Инсон ҳуқуқлари бўйича парламент вакили (Омбудсман) институти (1995 й.), Инсон ҳуқуқлари бўйича Олий Мажлис вакили ҳузуридаги Фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликларига риоя этиш комиссияси (1995 й.). Инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш билан боғлиқ барча давлат ва нодавлат ташкилотлари фаолиятини мувофиқлаштириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Инсон ҳуқуқлари бўйича Миллий маркази тузилди (1996 й.).

7. Турғун Файзиев ТЕМУРИЙ МАЛИКАЛАР А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти 1994.,26 б.

8. Беруний. Минерология. – М., 1963. –С. 256 (Beruniy. Mineralogy. – M. 1963, - 256 p). Ризоуддин ибн Фахруддин. Оила. / Таржимон: Т.Зиёев. – Т.: «Меҳнат», 1991. – 11-б.

9. Rizouddin ibn Fahruddin. Family. / Translator: T.Ziyoyev. - T. «Mehnat», 1991 – 11 p).

10. Алишер Навоий. Маҳбуб-ул-Қулуб. – Т., 1966. 13-жилд. –244-б. (Alisher Navoi. Mahbubul-Qulub. – T., 1966, 13 vol. – 244 p.)

11. Мусурмонова О. Аёлларга давлат ғамхўрлиги. Аёлга эҳтиром – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 320 б.; Сафаева С. Аёллар масаласи: умумижтимоий ва миллий жиҳатлари. Фалсафа фан номз.дисс...–Тошкент, 2002.–186 б.; Маткаримова Г. Гендерные и репродуктивные права женщин в международном и национальном праве. Автореф. дис. ... доктора юрид.наук. – Ташкент, 2002. –41 с.

12. Султонова Э. Аёл давлатнинг ривожланиш стратегиясида (Глобал муаммо сифатида). – Тошкент: ЖИДУ, 2005.– 250 б. (Sultanova E. Women in the development strategy of the state (as a global problem) - Tashkent: UWED, 2005 – 250 pages.)

13. Гафарли М., Касаев А. Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик

– тараққиёт асоси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б.252. (Gafarli M., Kasayev A. The Uzbek model of development: peace and stability - the basis of development. - Tashkent: Uzbekistan, 2001. 252 p.)

14. Муравьёва Н. Ўзбекистон хотин-қизлари ижтимоий мақомини юксалтириш. – Тошкент, 2004.–121 б.; Холматова М. Аёлларнинг нодавлат ташкилотлари: муаммо ва ечимлар // Фуқаролик жамияти. – Тошкент, 2004. №1. – Б.15.(Muravyova N. Raising the social status of women in Uzbekistan. - Tashkent, 2004, 121 p; Holmatova M. Women's non-governmental organizations: problems and solutions // Civil society - Tashkent, 2004, 15 p.)

15. Saidova. B.., & Botirxonova U. (2024). Turli davrlarda xotin-qizlar ta'limining shakllari va vositalari. Modern Science and Research, 3(5), 610 –617. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/33301 (resursga murojaat qilingan sana 09.08.2025)

16. M. Rasulova, X.Toshtemirova 1917-1991-yillarda va mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji. https://cyberleninka.ru/article/n/1917-1991-yillarda-va-mustaqillik-yillarida-pedagogik-fikrlar-rivoji (resursga murojaat qilingan sana 04.08.2025)

17. Тожибоев Ф.Э. 1945–1953 йилларда Совет ҳукумати аграр сиёсати // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Т. 2. – №12. – Б. 755–762.

18. Ходжаева Н. Статус женщины Средней Азии в период функционирования шелкового пути //Мат.науч.-теор.конф. // Сборник докладов, Ташкент, 2006. – 171 б.

19. Lindsay, James E. (2005), Daily Life in the Medieval Islamic World, Greenwood Publishing Group, p. 197

20. O`zbekiston markaziy arxivi, R-34jamg`arma, 1-ro`yxat, 461-iish, 101-102 varaqlar.

21. O`zbekiston markaziy arxivi, R-2748 jamg`arma, 1-ro`yxat, 2514-iish, 19-20 varaqlar.

22. Олий таълимдаги илм-фан,технология, муҳандислик ва математика йўналишлари дастурларини битирган хотин-қизларнинг улуши // Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлигининг расмий сайти. URL: https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/social-protection (resursga murojaat qilingan sana 01.06.23)

23. Umumtalim muassasalarida o'quvchilarning jinsi bo'yicha ulushi o'quv yili boshiga, https://gender.stat.uz/uz/asosiy-ko-rsatkichlar/ta-lim (resursga murojaat qilingan sana 05.08.2025)

24. Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha ulush. https://gender.stat.uz/uz/asosiy-ko-rsatkichlar/ta-lim (resursga murojaat qilingan sana 05.09.2025)

25. Ayollar ta'limi. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ayollar_ta%CA%BClimi

IX-ASR BIRINCHI CHORAGIDA XIVA XONLIGI VA ROSSIYA IMPERIYASI MUNOSABATLARI TARIXI XORIJIY TARIXCHILAR TOMONIDAN TADQIQ ETILISHI

Saparbayev Bunyod Xurrambek o’g’li,
Osiyo Xalqaro Universiteti «Xorijiy til va ijtimoiy fanlar» kafedrasi dotsenti, Ph.D.

Annotatsiya: Maqolada Xiva xoni Muhammad Rahimxon I (1806-1825) hukmronlik yillarida Xiva xonligi va Rossiya davlatining aloqalari tarixi chet el tarixchilari tarafidan o’rganilishi va tadqiq qilinishi to’g’risida so’z yuritiladi. Xorijiy olimlarning bu davrga bag’ishlangan asarlari tahlil etilib, ikkala mlakat munosabatlari haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so’zlar: Xiva xonligi, Rossiya imperiyasi, Muhammad Rahimxon I, Yu.Bregel, N.Muravyov, Gr.Hilmersen, R.Shekspir, A.Vamberi.

ИССЛЕДОВАНИЯ ЗАРУБЕЖНЫХ ИСТОРИКОВ ПО ИСТОРИИ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРВОЙ ЧЕТВЕРТИ XIX ВЕКА

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы,
Доцент кафедры “Иностранного языка и социальных наук” Азиатского Международного Университета, Ph.D.

Аннотация: В статье рассматривается изучение и исследование зарубежными историками истории взаимоотношений Хивинского ханства и Российского государства в период правления хивинского хана Мухаммада Рахимхана I (1806-1825). Анализируются труды зарубежных ученых, посвященные этому периоду, и дается информация об отношениях двух стран.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Российская империя, Мухаммад Рахимхан I, Ю.Брегель, Н.Муравьев, Гр.Хильмерсен, Р.Шекспир, А.Вамбери.

RESEARCHES OF FOREIGN HISTORIANS ON THE HISTORY OF RELATIONS BETWEEN THE KHIVA KHANATE AND THE RUSSIAN EMPIRE IN THE FIRST QUARTER OF THE 19TH CENTURY

Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli,
Doctor of philosophy (PhD) in Historical sciences,
Associate Professor of the Department of “Foreign Languages and Social Sciences” of the Asian International University

Abstract: The article examines the study and research by foreign historians of the history of relations between the Khiva Khanate and the Russian state during the reign of the Khiva Khan Muhammad Rahimkhan I (1806-1825). The works of foreign scientists dedicated to this period are analyzed and information is provided about the relations between the two countries.

Key words: Khiva Khanate, Russian Empire, Muhammad Rahimkhan I, Yu.Bregel, N.Muravyov, Gr.Hilmersen, R.Shakespeare, A.Vambery.

KIRISH. Xiva xonligi va Rossiya davlati o’rtasidagi munosabatlar tarixiga mansub ilmiy adabiyotlarni quyidagi guruhlarga bo’lish mumkin: Xiva xonligidagi tarixnavislik asarlari; Rossiya imperiyasiga qaramlik davridagi (1873-1917) tarixiy asarlar; sovetlar davridagi adabiyotlar (1917-1991); mustaqillik davridagi tarixshunoslik (1991-yildan hozirgacha), xorijiy tarixshunoslik (XIX-XXI-asr boshlari).

Shermuhammad ibn Avazbiy Munis (1778-1829-yy.) tarixiy voqealar va Xiva xonlari shajarasini 1812-yilgacha yoritgan [1]. Uning qo’lyozmalari voqea va hodisalar bayoniga xolisona

yondoshganligi va yoritilayotgan voqealarning haqqoniyligiga erishganligi bilan ajralib turadi.

Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy (1809-1873-yy.) asarlarida 1813-1872-yillar oralig'idagi xonlik hayoti, yirik siyosiy arboblar to'g'risidagi ma'lumotlar xronologik tarzda mohirona joylashtirilgan [2].

"Firdavs ul-iqbol" asari muqaddima va besh bobdan iborat. 1806-yili boshlangan va 1840-yili yozib tamomlangan. Beshinchi bob Xiva xonligining 1804-1825-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi. Asar turli mavzudagi daliliy ma'lumotlarga nihoyatda boy. Kitobda, masalan, Xorazm (Xiva xonligi) hududida istiqomat qilgan turkman, qoraqalpoq va qozoq xalqlari va ularning mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni, katta yer egaligi, mehnatkash xalq ahvoli, soliq va jarimalar, xiroj, zakot, peshkash, tansuqot va hokazo, o'n to'rt urug'ning tarqatib yuborilishi, Xorazm shaharlari Urganch, Kot, Vazir, Yangi shahar, Tirsak, Gandumkon, Hazorasp, Shohobodlarning umumiy ahvoli, turkmanlar va o'zbeklarning etnik tarkibi, Xiva xonligining boshqa mamlakatlar, xususan, Eron, Buxoro xonligi va Rossiya bilan bo'lgan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari xususida qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz.

ASOSIY QISM. "Firdavs ul–iqbol" asari rus olimlari tomonidan nisbatan kengroq o'rganilgan. Asar V.Bartold, Yu.Bregel, P.P.Ivanov, V.P.Yudin, A.N.Samoylovich kabi sharqshunoslar tomonidan yuqori baholangan, hamda bebaho tarixiy va adabiy manba sifatida tan olingan [3].

P.P.Ivanovning ta'kidlashicha, asar o'ziga xos tilda, ya'ni arabu forsiy jilvador sifatlashlar, xilma-xil nafis iboralar, she'riy talqin tilida bitilgan bo'lib, bu narsa mualliflarning "viqorli saroy tili" uslubidan yaxshi xabardor ekanligini ko'rsatadi [4].

Muhammad Rahimxon I davridagi Xiva xonligi va Rossiya munosabatlari tarixini o'rganish va yoritishga rus harbiysi N.Muravyov ham katta hissa qo'shgan [5].

N.Veselovskiy va V.Jukovskiy o'z asarlarida N.Muravyovning Xiva xonligiga elchi bo'lib kelishi ustida to'xtab, ular N.Muravyovning Xivaga yuborilishi kutilgan darajada foydali natija bermasdan, faqat bir-birlariga do'stlik va ishonch bildirishdan iborat bo'ldi xolos, deb yozadilar [6].

N.Muravyov o'ziga topshirilgan vazifaning deyarlik hammasini Xiva xoni Muhammad Rahim I bilan olib borgan muzokaralarida amalga oshira olmagan bo'lsa ham, yuqoridagi mualliflarning aytganlaridek do'stlik aloqasini bog'lash va bir-birlariga ishonch bildirish bilan kifoyalandi, deyish butunlay noto'g'ri. Chunki, Xiva xoni Muhammad Rahimxon I ning N.Muravyovga nisbatan ochiqdan-ochiq dushmanlik muomalasida bo'lishga jur'at qila olmasdan, uni qabul qilib, Rossiya bilan yaqin aloqada bo'lish uchun uning qilgan taklifiga o'z roziligini izhor etib, N. Muravyov bilan Rossiyaga elchi qo'shib yuborishi Rossiya va Xiva munosabatlarining tarixida ahamiyatli natijalardan biri edi. Hatto, Kaspiy dengizi atroflaridagi yashovchi turkman qabilalarining Rossiyaga nisbatan hayrixohliklari orqasida, N.Muravyovning Xivagacha salomat borishining o'zi Muhammad Rahimxonni ancha tashvishga solib qo'ygan edi.

Xon o'z amaldori ishtiroki bilan o'tkazgan maxfiy kengashida N.Muravyovni qabul qilish to'g'risida: "Elchini yo'lda turkmanlar o'ldirib qo'yganda yaxshi bo'lar edi, endilikda u Xivaga kelib holdi, uni qabul qilish lozimdir", deb aytgan edi [7].

Biz yuqorida aytib o'tganimizdek, N.Muravyovning bu asari XIX-asrning birinchi choragida Xiva xonligining Rossiya va boshqa qo'shni davlatlar bilan olib borgan savdo munosabatlari haqida ancha ma'lumotlar beradi. N.Muravyov o'z asarida Xiva va Rossiya o'rtasidagi savdo haqida so'zlar ekan, u Rossiyaning Qozog'iston cho'llari orqali Xiva xonligi bilan olib boradigan savdo aloqalariga juda katta ahamiyat berib shunday deydi: "Agar bu cho'llarda mustahkam tartib o'rnatilib, bu yerdagi talovchilarning hujumlaridan savdo karvonlarining xavfsizligi ta'minlansa, u vaqtda butun Sharqning jumladan Hindistonning savdosini Shimolga yo'naltirish mumkin bo'lar edi" [7].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. N.Muravyovning bu fikri umuman to'g'ri, agar Qozoq cho'llaridagi tartibsizlikka xotima berilsa, savdo karvonlarining xavfsizligini ta'minlansa, u

vaqtda shubhasiz, Rossiyaning Sharq bilan va aksincha Sharqning Rossiya bilan olib borgan savdo aloqasi yanada taraqqiy qilar edi. Biroq, savdo karvonlarining ko’chmanchi Xiva va qozoq olamonlari tomonidan talanib turilishi savdoning taraqqiyotiga to’sqinlik qilib keldi.

XIX-asr boshida yuqoridagi olamonlar tomonidan rus savdogarlarining 178.127 so’mlik mollari talangan [8].

N.Muravyov o’z asarida Xiva xonligining Rossiya bilan olib boradigan savdo yo’llari to’g’risida ham ko’pgina ma’lumot beradi.

I. Qozoq cho‘llari orqali Orenburgga o‘tgan savdo yo‘li.

Bu yo‘l asosiy savdo yo‘li hisoblanib, Urganchdan savdo karvonlari Orenburggacha 33 kunda yetib borar edilar.

II. Manqishloq orqali Astraxanga o‘tgan savdo yo‘li.

Bu yo‘l orqali savdo qilish uchun muayyan bir vaqtda rus savdogarlari Astraxandan Kaspiy dengizi orqali paroxodda suzib Mang’ishloqqa kelardilar. Ruslar bilan savdo qilish uchun Xiva savdogarlari ham Mang’ishloqqa to‘planardilar.

N.Muravyovning yozishicha, Xiva savdogarlari bu yerda o‘z mollarini rus mollariga ayirboshlar va ayrim hollarda rus savdogarlari bilan kelishib, ularning paroxodlarida Astraxanga o‘z mollarini olib borar edilar [7].

III. Savdo yo‘li N.Muravyov tomonidan Xiva xoniga taklif etilgan Krasnovodsk bandargohi orqali olib boriladigan savdo yo‘li edi. Yuqoridagi ikki yo‘lga qaraganda, Krasnovodsk bandargohi orqali olib boriladigan savdo yo‘li Rossiya bilan savdo qilishda juda qulay va yaqin yo‘l hisoblangan. N.Muravyovni Xiva xonligiga yuborishdan asosiy maqsad ham, ikki o‘rtadagi savdoni shu Krasnovodsk orqali olib borishga Xiva hukumatini ko‘ndirishdan iborat bo‘lgan. Garchi N.Muravyovning taklifi Xiva hukumati uchun juda foydali bo‘lsa ham, -ammo Muhammad Rahimxon asossiz bahonalar bilan uni qabul qilmadi. Agar Xiva hukumati Rossiya taklifini qabul qilganda edi, Kaspiy dengizining sharqiy qirg‘og‘i va Krasnovodsk bandargohi Kaspiy dengizi orqali Rossiya, Xiva, Kavkaz va Eron o‘rtasida olib boriladigan savdoning markaziga aylangan bo‘lar edi. Biroq, Xiva hukumati tomonidan Rossiya taklifining qabul etilmasligi, Krasnovodsk rayonining turkman qabilalarining qo‘l ostida bo‘lishiga bog‘liq edi. Chunki, Xiva va Eron hukumatlarining jabr, zulm va talovlari ostida qolgan, bu yerda yashovchi turkman qabilalari orasida Rossiyaning ta’siri va Mang’ishloqda esa, Xiva xonligining ta’siri kuchli edi. Krasnovodsk bandargohi orqali savdo aloqasi olib borilganda, bu yerda yana Rossiyaning ta’siri oshib ketishi bilan o‘z qo‘lidan savdo monopoliyasini berib qo‘yishdan qo‘rqqan Xiva hukumati Rossiya taklifini qabul qilmagan edi.

N.Muravyov o‘z asarida Xorazmning Rossiya bilan olib borgan savdo aloqalari tarixi ustida to‘xtamaydi. Shuningdek, Xivadan Rossiyaga chiqariladigan mollar to‘g‘risida hech narsa yozmaydi. Uning so‘zicha, Xiva xonligining ichki va tashqi savdosi sartlarning qo‘llarida bo‘lib, Xiva savdogarlari Buxorodan: yigirilgan ip, har turli gul bosilgan bo‘z, turli xildagi ip va ipak gazlamalar, kashmir sholisi, Xitoy chinnisi, choy, shohi belbog‘lar, jun, qorako‘l va boshqa mollarni olib, u mollarning bir qismini Xivada sotganlar va qolganini Rossiyaga olib borganlar [7].

Bundan ma’lum bo‘lishicha, Xiva savdogarlari Buxoro bilan Rossiya o‘rtasidagi savdoda qisman bo‘lsa ham vositachilik rolini o‘ynaganlar.

Xiva xonligi va Rosssiya imperiyasi diplomatik aloqalari tarixini yoritishda N. I. Veselovskiyning xizmatlari alohida diqqatga sazovordir [9]. Veselovskiyni Xorazm aholisining etnik tarkibi qiziqtirgan. Xivaning XVI-asrdan boshlangan tarixini Veselovskiy asosan siyosiy tomonini yoritib, birinchi navbatda bir sulolaning boshqa bir sulola bilan almashishi, o’zaro urushlarga urg’u beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, uning ushbu tadqiqoti bir tomonlama ekanligini ko’rsatadi va Xivaning ijtimoiy–iqtisodiy tarixini tasvirlash chetda qolib ketadi.

1914-yili Toshkent o’qituvchilar seminariyasining bitiruvchisi, keyinchalik buyuk rus olimi, sharqshunos, tarix fanlari doktori, Pavel Petrovich Ivanovning xizmatlarini alohida ta’kidlab

ko’rsatish joizdir.

XULOSA. Bizning fikrimizcha, aynan o’sha 1873-yilda Peterburgga jo’natilgan Xiva xonlari arxivi qo’lyozmalari, Astraxan va Orenburg guberniyalari, Qalmoq viloyat arxivi ma’lumotlari va avvalgi maxfiy boshqa manbalar Xorazm va Qoraqalpog’iston tarixshunosligi uchun o’rganilmagan manbalar hisoblanadi. O’sha yerdan Pavel Petrovich tomonidan qoraqalpoqlar tarixi va etnografiyasi bo’yicha amalda barcha materiallar yig’ib olingan, tizimlashtirilgan, fors tilidan zamonaviy rus tiliga o’girilgan va mahalliy tadqiqotchilar uchun metodik qo’llanma ko’rinishida nashr qilingan.

P.P.Ivanovning ilmiy ishlari orasida keng mashhur bo’lgan asarlaridan biri 1935-yilda Moskva-Leningradda akademik A.N.Samoylovich rahbarligida chop qilingan “Qoraqalpoqlar tarixi bo’yicha materiallar” to’plamidir. To’plamda tadqiqotchining “Qoraqalpoqlar tarixi ocherklari” bilan birga Xiva xonlari arxividan olingan Xiva tarixchilari Muhammad mirob Munis va Muhammadrizo mirob Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol”, “Riyoz ud-davla” va “Gulshani davlat” asarlarining qisqartirilgan tarjimalari, boshqa rus sharqshunos – olimlari N.N.Palmov va A.N.Ponomaryovning turli xil manbalardan to’plagan “Rus tilidagi qoraqalpoqlar haqida bosma va qo’lyozma tarixiy xabarlari” va boshqa ilovalar ham joy olgan. Chunonchi, to’plamda ko’rilayotgan muammoning tahlilida muallifning chuqur bilimga egaligi, birinchi darajali manbalar keng qamrab olinganligi, gaplarining lo’ndaligi va o’z fikrlarini bayon qilishda axloq-odob doirasida bo’lganligi tezda kitobxonlar ko’ziga tashlanadi [10].

P.P.Ivanovning “Qoraqalpoqlar tarixi ocherki” maqolasida L.N.Sobolevning [11] ma’lumotlari beriladi, unda muallif Qoraqalpog’istonga tashrif buyurib, Chimboyda Qoraqalpoq biyi Irijab (to’g’rirog’i: Erijep tentak Qulshim o’g’li, qoraqalpoqlarning jadik-qipchoq urug’idan) bilan suhbatlashib, tasodifan, deyarli uch asrdan ham ko’proq, qoraqalpoqlarning avval noma’lum kashfiyotini kashf qiladi. Irijabning so’zlariga ko’ra, qoraqalpoqlar, 64 yil burun, ommaviy tarzda Sirdaryoning quyi qismidan Amu-deltasiga ko’chib o’tadilar. O’sha paytda Xiva xoni Muhammad Rahim bo’ladi, Irijabning o’zi 9 yoshda bo’lgan. Yangi joylarga kelib, qoraqalpoqlar u yerda bir qancha miqdordagi qarindosh-urug’larini uchratadilar. O’sha vaqtlarda deltaning aholisi ko’p bo’lmagan, bundan so’ng asosiy o’zak aynan bu yerda to’la-to’kis xo’jayin qoraqalpoqlardan iborat bo’ladi” [12].

Muhammad Rahimxon I davridagi Xiva xonligi tarixi haqida taniqli tadqiqotchi olim Yu.E.Bregelning tahlil va mulohazalari ham muhim ahamiyatga molikdir. Xiva xonlari arxivini batafsil o’rgangan Yu.E.Bregel mazkur arxivdan biylarni tayinlash bo’yicha bir qator hujjatlarni o’rgandi [13].

Xiva xonligi va Rossiya o’rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixi chet el tarixshunosligida ham katta o’rin egallaydi. Ushbu mavzuga ozmi-ko’pmi e’tibor bergan g’arb olimlari orasida Gr.Hilmersen[14], R.Shekspir[15], A.Vamberi[16], F.Barnabi[17], J.Abbot[18], G.Landesdell[19], X.Mozer[20], X.Kollet[21], E.Zaxau[22] kabi mutaxassislar ham bor. Ularning rang-barang albomlari va qiziqarli kitoblari dunyodagi ko’pgina mamlakatlar o’quvchilarida Xorazm vohasi va Rossiya davlati munosabatlari tarixi haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirishga yordam berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Shir Muhammad Mirab Munis and Muhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden – New York –Kobenhavn – Koln, 1988; Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммадризо Огахий. “Фирдавс ул-иқбол”. Бахтлар боғи. Энг кадимги даврдан 1825 йилгача бўлган Хоразм тарихи. Нашрга тайёрловчилар: Нусратилло Жумахўжа, Сафарбой Рўзимбоев. Масъул муҳаррир Нусратилло Жумахўжа. – Тошкент: Ўқитувчи: 2010.

2.Мунис. Фирдавс ал-иқбол // Материалы по истории казахских ханств XVI–XIX вв. — Алма-Ата: Гылым, 1969; Муҳаммад Ризо Огаҳий. Асарлар. 6 жилдлик. — Ташкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1971-1977.

3.В.В. Бартольд. Сочинения. Москва. I том 1963, II том 1964, III том 1965, VIII том 1973,

IX том, 1977; Лунин Б.В. Прошлое и настоящее Хорезма в науке// История Хорезма. – Ташкент: Фан,1976.

4. П.П. Иванов Хивинские хроники XIX в. Муниса-Агехи как источник по истории туркмен// Материалы по истории туркмен и Туркмении. – Москва, 1935. -С. 23-25.

5.Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. гвардейского Генерального штаба капитана Николая Муравьева, посланного сию страну для переговоров. – М., 1819-1820. Т. 1-2; Записки Н.Н. Муравьева–Карского «Путешествия в Хиву» // Русский архив, 1887. - №3. –С. 5-42; Муравьев Н. Хива тижорати. 1819-1820 йилларда Ўрта Осиёга сайёҳат // Ҳаёт ва иқтисод. –Тошкент, 1993. - №3. – Б.74-75.

6.Н.Веселовский. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настояшего. СПб. 1877, 288-289-стр; В. Жуковский. Сношения России с Хивой и Бухорой за последнее трехсотлетие. СПб, 1915, 99-стр.

7.Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. гвардейского Генерального штаба капитана Николая Муравьева, посланного сию страну для переговоров. – М., 1819-1820. Т. 1. С.99; С.94; С.95; С.92-93.

8.Л.М е й е р. Киргизская степь Оренбургского ведомства, СПб, 1855, 34-стр.

9.Н.И. Веселовский. Очерки историко–географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. – СПб., 1877.

10.Материалы по истории каракалпаков. Труды Института востоковедения Академии наук СССР. Под ред. академика А.Н. Самойловича. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1935.

11.“Русский инвалид”. 1874. №213-216.

12.П.П. Иванов. Очерк истории каракалпаков // Материалы по истории каракалпаков. Труды Института востоковедения Академии наук СССР. Под ред. академика А.Н. Самойловича. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1935. С.77; П.П. Иванов Архив хивинских ханов. Л, 1940. Иванов П.П. Новые данные о каракалпаках //Советское востоковедение. Т.III. М., 1945.

13.Ю.Э. Брегель. Документы архива хивинских ханов по истории и этнографии каракалпаков. (Подбор документов, введение, перевод, примечания и указатели). - М.: Наука, 1967; Брегель Ю.Э. Хорезмские туркмены в XIX в. -М., 1961.

14.Hilmersen Gr. Nachrichten über Chiwa, Buchara, Chokand und den nordwesten Theil des chinesischen Statees, gessemmelt von dem Prasidenten der asiatischen Grenx–Cjmmision in Orenburg, General–Major Gens, bearbeitet und mit Fmmerkungen versehen von Gr. Hilmersen. Neudruck der 1839. Osnabruck, 1968 (Beitrage zir Kenntnis dts Russischen Reiches und der angranzenden Lander Asens).

15.Shakespeare E.R. A personal narrative of a Journey from Heart to Orenburg, in the Caspian, in 1840.Blacwood’s Magazine, N 320.Vol. LI (1842).

16.Vambery A. Travels in Central Asia being account of a journey from Teheran across the turkoman desert on the on the eastern of the Caspian to Khiva, Bukhara and Samarkand performed in the Year 1863. London, 1864 (Repr. New York, 1970). Вамбери Арминий. Путешествие по Средней Азии из Тегерана в Хиву, Бухару и Самарканд. — М., 1867.

17.Barnaby F. A ride to Khiva: Travels and adventures in Central Asia. 4th ed. – London–Paris–New York, 1976.

18.Abbot J. Narrative of a journey from Heraut to Khiva, Moscow and St. Petersburgh, during the late Russian invasion of Khiva: With some account of the court of Khiva and the Kingdom of Khaurism. 3 rt el. Vol. I–II. – London, 1884.

19.Landesdell H. Russian Central Asia including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv. Vol. 1–2. – London, 1885 (Repr. New York, 1970).

20.Moser H. A travels IN’Asie Centrale. Impressions de voyage. – Paris, 1885.

21.Collet H. Contribution rowars the better Knowledge of the topography, ethnographe, resources and history of the Khanat of Khiva, compiled (for political and millitary reference) by H.Collet. Calcutta: Foreing Departament Press, 1873. II (Central Asia. Ed. By C.M. Mag Gregor. Ol. 6. Section 1).

22.Sahnau E. Zur Geschichte und Chronologie von Khwarizm. Theil I–II. – Wien, 1873.

ANDIJON VILOYATIDAGI YENGIL SANOAT KORXONALARIDA ISHCHILARNING MEHNAT MUHOFAZASIDA 1985-1991- YILLARDA YUZ BERGAN O'ZGARISHLAR

(Andijon viloyati Davlat arxivi fondlari hujjatlari va 1985-1991- yillarda Andijon viloyatida chop etilgan vaqtli matbuot nashlarida e'lon qilingan maqolalar tahlili asosida)
Turg'unov Sherzod Abduvositovich Farg'ona davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya:Ushbu maqolada o'tgan asrning 1985-1991 yillarida Andijon viloyatida faoliyat olib borgan yengil sanoat korxonalarida mehnat faoliyati bilan shug'ullangan ishchilarning mehnat muhofazasi doirasida amalga oshirilgan tadbirlarning haqiqiy ahvoli haqida xususan,ularning sog'liklarini saqlash jarayonida muhim o'rin tutuvchi ishchilarni sanatoriyalar, dam olish olish uylari va sanatoriya-profilkatoriyalarga yuborishni haqidagi ma'lumotlar, shuningdek xotin-qizlarning ijtimoiy muhofaza qilish borasida amalga oshirilgan jarayonlarning ahamiyati haqida ma'lumotlar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: Mehnat muhofazasi,Tarandubitel fabrikasi,Andijon tikuvchlik ishlab chiqarish birlashmasi,Sanoat qurilish sug'urta kassasi.Kommunist gazetasi

ИЗМЕНЕНИЯ В ОХРАНЕ ТРУДА РАБОТНИКОВ ПРЕДПРИЯТИЙ ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ В 1985-1991 ГГ

(На основе анализа документов Андижанского областного государственного архива и статей, опубликованных в периодических изданиях, издававшихся в Андижанской области в 1985-1991 гг.)
Тургунов Шерзод Абдувоситович
Докторант кафедры Истории Узбекистана Ферганского государственного университета

Аннотация: В данной статье приведены сведения о фактическом состоянии мероприятий, проводимых в рамках охраны труда работников, осуществляющих трудовую деятельность на предприятиях легкой промышленности, функционирующих на территории Андижанской области в 1985-1991 годах прошлого столетия, в частности, сведения о направлении работников в санатории, дома отдыха и санатории-профилактории, которые играют важную роль в сохранении их здоровья, а также сведения о значимости процессов, реализуемых в сфере социальной защиты женщин.

Ключевые слова:Охрана труда, фабрика Тарандубитель, Андижанское производственное швейное объединение,Страховой фонд промышленного строительства. Газета «Коммунист»

CHANGES IN LABOR PROTECTION OF WORKERS IN LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES IN ANDIJAN REGION IN 1985-1991

(Based on the analysis of documents from the Andijan Regional State Archive and articles published in periodicals published in Andijan Region in 1985-1991)
Turg'unov Sherzod
Doktoral student at the department of History of Uzbekistan Ferhgana State Universiity

Abstrakt; This article presents information about the actual state of measures taken within the framework of labor protection of workers engaged in labor activities at light industry enterprises operating in the Andijan region in 1985-1991 of the last century, in particular, information about sending workers to sanatoriums, rest homes and sanatorium-dispensaries,which play an important

role in maintaining their health, as well as information about the importance of the processes implemented in the field of social protection of women.

Key words: Labor protection, factory Tarandubitel, Andijan Garment Production Association, Industrial Construction Insurance Fund. Communist Newspaper

Kirish. XX asrning oxirgi choragida O’zbekiston yengil sanoati,xususan Andijon viloyati to’qimachilik va tikuv–trikotaj korxonalari,terini qayta ishglash korxonlari sobiq Sovet Ittifoqi iqtisodiyotida muhim o’rin tutgan.Sobiq Sovet Ittifoqida 1985 yilda boshlangan “qayta qurish” siyosati ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda mehnat muhofazasi masalalariga ham bevosita ta’sir ko’rsatdi.

Jumladan,1985-1991-yillarda Andijon viloyatidagi yengil sanoat korxonalarida ishchilarnng mehnat muhofazasida muhim o’rin tutuvchi jarayon bo’lgan ishchilarning ishlab chiqarish jarayonida yo’qotilgan sog’liklarini tiklash va ularning mehnat qobiliyatlarini yanada oshirish uchun sihatgohlar, dam olish uylariga yuborish masalasida bir qator amaliy ishlar bajarilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ushbu maqolada asosan Andijon viloyat Davlat arxivi fonlarida saqlanayotgan Andijon viloyat Kasaba uyushmalari kengashi tarkibidagi Andijon yengil sanoat va to’qimachilik sanoati xodimlari kasaba uyushmalari viloyat qo’mitasi faoliyatiga oid 618- fond tarkibiga kiritilgan hujjatlardan va shuningdek Andijon viloyat partiya qo’mitasi va viloyat Kengashining rasmiy nashri bo’lgan “Kommunist” gazetasida e’lon qilingan maqolalardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

-Tarixiy-deskriptiv yondashuv-mavjud arxiv hujjatlari va matbuot materiallarini tavsiflash

-Qiyosiy tahlililiy metod- Andijon viloyatida1985-yilda va undan keyingi davrda faoliyat olib borgan yengil sanoat tarmog’iga oid korxonalardagi ishchilarning mehnat muhofazasining holatini sobiq Sovet Ittifoqining boshqa hududlaridagi huddi shunday sanoat korxonalaridagi holatlar bilan qiyosalash.

Tadqiqotning amalga oshirilishi. Tadqiqot jarayonida Andijon viloyatida 1985-yilda va keyingi davrda faoliyat olib borgan yengil sanoat sanoat korxonalarining xususan oziq ovqat sanoati va to’qimachilik korxonalarining muhandis va texnik xodimlariga,ishchi va xizmatchilariga va ushbu korxonalarda tibbiy –sog’lomlashtirish xizmatining holatini yaxshilash asnosida ushbu korxonalarda mehnat faoliyati bilan shug’ullanayotgan muhandis va texnik xodimlar,ishchi va xizmatchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilashda, ularning mehnat muhofazasini ta’minlash borasida mavjud holat bo’yicha erishilgan yutuqlar va kamchiliklar to’g’risida Andijon viloyati Davlat arxivida saqlanayotgan sanoat korxonalarining faoliyatiga oid fondlarni va bundan tashqari Andijon viloyati partiya qo’mitasi va viloyat Kengashining rasmiy nashri hisoblanagan “Kommunist“ gazetasining 1985-1991-yillarda nashr qilingan sonlarida e’lon qilingan maqolalarni o’rganish va tahlil qilish natijasida zarur ma’lumotlar qo’lga kiritildi.Bu jarayonda maqolaga oid ma’lumotlarni to’plash jarayonlari Andijon shahridagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomli Axborot Kutubxona markazining fondlarida saqlanayotgan o’tgan asrning 80-90-yillariga oid vaqtli matbuot nashrlari o’rganildi va ilmiy tadqiqot ishiga oid muhim ma’lumotlar qo’lga kiritildi.Bu jarayonda ‘Kommunist” gazetasining 1985-1991- yillarda nashr etilgan sonlari va Andijon viloyat Davlat arxivlarining fondlari xronologik tartibda ko’rib chiqildi.Ushbu gazetaning deyarli barcha sonlarida sanoat yangiliklari rukni mavjud bo’lgan.Ushbu rukndda viloyatda sanoat sohasida yuz berayotgan muhim yangiliklar, sanoat korxonalarida ishchilar va xizmatchilar uchun yaratilayotgan mehnat sharoitlarida erishilayotgan yutuqlar va shu bilan bir qatorda mavjud kamchilklar haqida, ,mehnatkashlarning sog’liklarini saqlash va mehnat qilish qobilyatini qayta tiklash va ish unumdorligini oshirish yuzasidan bajarilgan tadbirlar hususan sanatoriyalar, kurortlar va dam olish uylarida mehnatkashlarni o’z sog’liklarini tiklash va mustahkamlash bo’yicha bajarilgan amaliy ishlar va sanoat korxonalarining moddiy-texnik holati , ishlab chiqarish jarayonlariga tadbiq etilayotgan yangiliklar, sanoat korxoanlaridagi novatorlik, ratsionalizatorlik faoliyatlari

haqida va shuningdek viloyatdagi zavod va fabrikalarning davlat tamonidan qo'yilgan mehnat majburiyatlarini bajarish sohasidagi yutuqlari va kamchiliklari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ma'lumotlarni o'rganish jarayonida qiyosiy taqqoslash usullaridan ham foydalanildi.Bu jarayonda huddi shu davrda Sovet Ittifoqining markaziy hududlarida xususan,RSFSRdagi sanoat korxonalari yoki Sovet Ittifoqining markaziy hududlarida joylashgan Ukaraina SSR ,Belorusiya SSR kabi respublikalardagi sanoat korxonalarida ishchilar uchun yaratilgan mehnat sharoitlari va mehnatkashlarning mehnat muhofazasi haqida va ushbu hududlardagi zavod va fabriklarda ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilgan eng yangi jihozlar va uskunalar va ularning afzalliklari, ishchilarning mehnat muhofazasini ta'minlashdagi ahamiyati haqida ushbu gazetada berilgan ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1985-yilda Andijon viloyatidagi yengil sanoat korxonalarida ishchilarnng mehnat muhofazasida muhim o'rin tutuvchi jarayon bo'lgan ishchilarning ishlab chiqarish jarayonida yo'qotilgan sog'liklarini tiklash va ularning mehnat qobiliyatlarini yanada oshirish uchun sihatgohlar, dam olish uylariga yuborish masalasida bir qator amaliy ishlar bajarilgan.

Masalan, Andijon viloyatidagi to'qimchilik va tikuvchilik korxonalarida faoliyat olib borayotgan ishchi va xizmatchilar uchun 1985- yil uchun sanatoriyalar va dam olish uylari,turistik bazalarga yo'llanmalar berish holatini o'rganish jarayonida quyidagilar aniqlandi:

Andijon paxtadan mato ishlab chiqarish kombinatining ishchi xizmatchilari uchun: sanatoriyalarga 123 ta,sanatoriya-profilaktoriyalarga 81 ta,dam olish uylariga 26 ta turistik bazalarga 26 ta yo'llanma taqdim etilgan.

2.Andijon trikotaj fabrikasi ishchi xizmatchilari uchun: sanatoriyalarga54 ta, dam olish uylariga 14 ta,turistik bazalarga 50 ta yo'llanmalar berilgan . 3.Andijon tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmasi ishchi xizmatchilari uchun(umumiy ishchi xizmatchi soni 3700 nafar): sanatoriyalarga 63 ta,dam olish uylariga 13 ta,turistik bazalarga 59 ta yo'llanma taqdim qilingan.

Shuningdek 1985–yil mobaynida ushbu korxonalarning ishchi xizmatchilari uchun bepul yo'llanmalar ham berilgan.Xususan,Andijon paxtadan mato ishlab chiqarish kombinati ishchi va xizmatchilari uchun sanatoriyalarda dam olish va davolanish uchun 27 ta,dam olish uylari uchun 2 ta,turistik bazalar uchun 2 ta bepul yo'llanmalar berilgan bo'lsa,Andijon trikotaj fabrikasining ishchi xizmatchilari uchun sanatoriyalarga 15ta,dam olish uylari uchun3ta,turistik bazalar uchun 2 ta bepul yo'llanma bepul berilgan.Bundan tashqari bunday bepul yo'llanmalar Andijon tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmasi ishchi xizmatchilari uchun ham taqdim etilgan bo'lib jumladan, sanatoriyalarga 13ta,dam olish uylariga 1ta,sanatoriya-profilaktoriyalar uchun 380 ta yo'llanma bepul berilgan[1.65-bet].

Shuningdek viloyatda faoliyat olib borayotgan yengil sanoat tizimidagi terini qayta ishlash korxonalarning ayol ishchi xizmatchilari uchun ko'rsatilgan ijtimoiy yordam turlari boshqa sanoat korxonalaridagi holatdan farq qilmagan. O'rganilayotgan davrda Andijon viloyatida faoliyat olib borgan yengil sanoat tarmog'ining yana bir muhim sohasi terini qayta ishlash korxonalarida mehnat qilgan ishchilarning ijtimoiy muhofazasini amalga oshirish borasida ham bir qator amaliy ishlar bajarilgan.Xususan, ushbu tarmoqqa mansub korxonalarda mehnat faoliyati bilan shug'ullangan ayol ishchilarga quyidagi tartibda ijtimoiy yordam ko'rsatilgan:

№	Sanoat korxonasining nomi	Amalga oshrilgan ijtimoiy yordam turi	1985 yil uchun sarflangan mablag’lar(ming so’m)	
			Reja bo’yicha	Amalda
1	Andijon poyafzal fabrikasida	Homiladorlik va tug’ruq ta’tili nafaqalariga	120 ming so’m	139 ming so’m
		Farzand ko’rganligi uchun beriladigan pul mukofotlariga	10 ming so’m	17 ming so’m
		Bola parvarishi uchun nafaqalarga	55 ming so’m	71ming so’m
		Kam taminlangan oila farzandlari uchun nafaqalarga	83 ming so’m	89 ming so’m
2	Tarandubitel fabrikasida	Homiladorlik va tug’ruq ta’tili nafaqalariga	80 ming so’m	96 ming so’m
		Farzand ko’rganligi uchun beriladigan pul mukofotlariga	5 ming so’m	10 ming so’m
		Bola parvarishi uchun nafaqalarga	40 ming so’m	50 ming so’m
		Kam taminlangan oila farzandlari uchun nafaqalarga	25 ming so’m	26 ming so’m

Terini qayta ishlash va bo’yash korxonalarida va poyafzal fabrikalarida ish jarayonida inson sog’lig’i uchun zararli bo’lgan kimyoviy moddalardan ko’p foydalanilishi natijasida ishchi xizmatchilar orasida oshqozon ichak kasalliklari va jigar kasalliklari bilan kasallanish holatlari ko’p uchrab turgan.Bunda albatta bunday turdagi korxonalarda ishchilar uchun yaratilgan

mehnat muhofazasi va mehnat sharoitlari katta ahamiyat kasb etgan. Bu jarayonni Andijon viloyatining Xonabod shahrida joylashgan Tarandubitel- terini bo'yash va charm mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonasi misolida ko'rishimiz mumkin.1985-yilda ushbu korxonada jami 1100 nafar ishchi xizmatchi faoliyat olib borgan bo'lib yil davomida ularning 386 nafari yoki umumiy ishchilarning 35% turli kasalliklar bilan kasallanib tibbiy muolaja olishga majbur bo'lgan.Ishchi xizmatchilarning sog'lig'ini tiklash maqsadida rejadagi 700 ta yo'llanma o'rniga 750 ta yo'llanma taqdim etilgan.Bu yo'llanmalardan fabrikaning oddiy ishchilari uchun 25 tasi ajratilgan. Shuningdek ishchilar uchun sanatoriyalarda davolanish uchun 7 dona,sanatoriya – profilaktoriyalar uchun 112 ta dam olish uylari uchun 1 ta yo'llanma,tibbiy davolanish uchun 77 ta yo'llanma bepul taqdim etilgan.Ushbu sanoat korxonasida qayd etilgan ushbu ko'rsatkichning fabrikaning ishchi xizmatchilarining umumiy soniga qiyoslaganda ancha past ko'rsatkich ekanligi ma'lum bo'ladi[2.23-bet].

Andijon tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmasida ham 1985-yil davomida ischilarning sog'liklarini tiklash va ularga ihjtimoiy muhofaza tadbirlarini amalga oshirish va shuningdek ularning mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha salmoqli tadbirlar amalga oshirilgan .1985-yilda ushbi sanoat korxonasida jami 3700 nafar ishchi xizmatchi faoliyat olib borgan bo'lib ushbu yil davomida ishchilarga tibbiy davolanish 685 ta yo'llanma taqdim etilgan. Homiladorlik va tug'ruq ta'tili uchun 370 nafar ayol ishchi xizmatchiga,bola parvarishi uchun154 nafar ayol ishchi xizmatchilarga,44 ta ayol ischi xizmatchiga farzand ko'rganda suyunchi pullari to'langan bo'lsa,kam ta'minlanga oilalarning 202 tasiga qo'shimcha yordam pullari berilgan.Bundan tashqari sanatoriyalar va sanatoriya-profilaktoriyalar uchun rejada ko'rsatilgan 1400 ta yo'llanma o'rniga amalda 1614 ta yo'llanmalar taqdim etilganBu yo'llanmalardan aynan birlashmada faoliyat olib borayotgan ishchilarga :

1. Sanatoriyalar uchun 63 ta
2. Dam olish uylari uchun 13 ta
3. Turistik bazalarga sayohatlar uchun 59 ta
4. Sanatoriya-profilaktoriyalarda davolanish uchun 1480 ta
5. Tibbiy maqsadda ovqatlanish uchun 686 tasi taqdim etilgan.

Shuningdek, birlashmada ishchilar uchun bepul yo'llanmalar ham taqdim etilgan.Jumladan, sanatoriyalar uchun 13 ta ,dam olish uylari uchun 1 ta , sanatoriya –profilaktoriyalar uchun 38 ta , tibbiy maqsadda ovqatlasnish uchun 137 ta yo'llanmalar taqdim etilgan[3.32].

Garchi SSSR kasaba uyushmalari Ittifoqining 1987 –yilda bo'lib o'tgan XVIII syezdida qabul qilingan qarorlarda "Inson omili" diqqat markaziga qo'yilib Ittifoqdagi barcha sanoat korxonalarida faoliyat olib borayotgan ishchi xizmatchilar uchun qulay mehnat sharoitlari yaratish masalasi eng dolzarb mavzu sifatida ilgari surilgan bo'lsa ham lekin bu shiorbozliklar hech qanday amaliy natijalar bermaganligini ko'rish mumkin bo'ladi Masalan,Andijon viloyatida faoliyat olib borayotgan ba'zi fabrika yoki kombinatlar qoshida ishchi –xizmatchilarni sog'lig'ini qayta tiklash maqsadida sanatoriya- profilaktoriyalar tashkil etilgan bo'lib afsuski bu sanatoriya-profilaktoriyalar katta mablag'lar hisobiga qurilgan bo'lsada ular deyarli to'la quvvat bilan faoliyat olib bormagan.Xususan,1985 yilda Andijon tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmasi qoshida tashkil etilgan "Tekstilshik" sanatoriya- profilaktoriyasi faoliyatida ham bunday jarayonni kuzatish mumkin.Ushbu sanatoriya –profilaktoriya 1986 yilda yillik rejani zo'rg'a 70 % ga bajara olgan. Bunga sanatoriya-profilaktoriya bosh shifokori T.Isoqov bergan ma'lumotlarga ko'ra sanatoriya-profilaktoriyani jihozlash ishlari to'la yakunlanmaganligi, ushbu tibbiyot muassasini elektr quvvati bilan ta'minlash talab darajasida emasligi,sanatoriya –profilakoriya oshxonasiga sut va go'sht mahsulotlarini o'z vaqtida yetkazib berish tog'ri yo'lga qo'yilmaganligi va shungdek kuz –qish mavsumida sanatoriya–profilaktoriya xonalarining talab darajasida issiqlik manbalari bilan ta'minlanmasligi kabi salbiy holatlar sabab bo'lgan.Bundan tashqari Andijon tikuvchilk ishlab chiqarish birlashmasi qoshida ikkita tibbiyot punkti faoliyat olib borgan bo'lsada ushbu tibbiyot punktlari ttibbiyot xodimlari tamonidan tibbiy parvarishga muhtoj ishchilar uchun

sanatoriya –profilaktoriyalarga yo’llanmalar berish jarayoniga sovuqqonlik va e’tiborsizlik bilan munosabatda bo’linganligini ko’rish mumkin[4.41-bet].

1991-yilga kelib, Andijon viloyatida faoliyat olib borgan ko’plab sanoat korxonalarida ishchilarga sifatli tibbiy xizmat ko’rsatish yuzasidan bir qator kamchiliklar aniqlangan. Bundan tashqari, ba’zi sanoat korxonalarida ishchilar uchun tashkil etilgan mehnat sharoitlarining talab darajasida emasligi natijasida ularning ishlab chiqarish jarayonlarida turli xastaliklar bilan kasallanish holatlari ko’payib borgan. Ana shunday salbiy holatlardan biri “Kommunist” gazetasining 1991-yil 10-yanvarda 19-sonida e’lon qilingan“Bosh yerda oyog’i osmonda” deb nomlangan maqolada tasvirlangan. Ushbu maqoladagi ma’lumotlarga ko’ra, Andijon ip-gazlama ishlab chiqarish birlashmasida mehnat qilib kelayotgan ko’plab ishchilar orasida 1991-yilning qishida revmatizm (bod) bilan kasallanish holatlari ko’p kuzatilgan. Bunday salbiy holatlar sonining ortishiga birlashmaning ishlab chiqarish sexlarini kuz-qish mavsumiga talab darajasida tayyorlanmaganligi natijasida yetarlicha isitilmasligi, ishlab chiqarish sexlarining pol qismlarini beton mahsulotlari bilan qoplanganligi bo’lgan. Bunday sifatsiz mehnat sharoitlari natijasida o’z sog’lig’ini yo’qotgan ishchilardan biri birlashmada bichuvchi lavozimida mehnat qilgan N. To’xtasinov bo’lgan. Ushbu ishchi tikuvchilk sexida beton polli sovuq mehnat sharoitlarida mehnat qilganligi natijasida revmatizm kasalligi bilan kasallangan[5.3-bet] .

XULOSA. Andijon viloyat Davlat arxivlari fondalarida saqlanayotgan o’tgan asrning 1985-1991- yillariga oid bo’lgan viloyatda faoliyat olib borgan sanoat korxonalarining arxiv hujjatlarini va shuningdek Andijon viloyat Kasaba uyushma ittifoqlari viloyat Kengashining arxiv hujjatlarini o’rganish va tahlil qilish jarayonida shunday xulosalar shakllandi.Sovet Ittifoqidagi yakkahukmron partiya KPSS dasturlarida , ko’rsatmalarida kommunistik partiyaning zarbdor kuchi deb hisoblangan ishchilar va xizmatchilar uchu qulay mehnat sharoitlari , farovon moddiy turmush tarzi yaratish bo’yicha katta va’dalar berilgan bo’lsada amalda 1985 –1991-yillarda sanoatning turli tarmoqlarida jumladan , yengil sanoatning to’qimachilik, tikuvchilik, terini qayta ishlash kabi sohalariga mansub korxonalarda mehnat qilayotgan muhandis va texnik xodimlar,ishchi va xizmatchilar uchun ko’rsatilgan tibbiy xizmat va ularning sog’liklarini tiklash uchun turli sanatoriyalar va sog’lomlashtirish kurortlariga yuborish jarayonlari talab darajasida bo’lmaganligi,zavod va fabrikalarda tibbiy xizmat va tibbiy uskunalar uchun ko’p miqdorda mablag’lar ajratilgan bo’lsada,tibbiy-sog’lomlashtirish yuzasidan belgilangan vazifalar asosan rasmiy hujjatlardagina talab darajasida bo’lganligi ma’lum bo’ldi.Ayniqsa Andijon viloyatidagi to’quvchilik va sun’iy kimyoviy tola mahsulotlar ishlab chiqaruvchi zavod va fabrikalarda ishchilarning ishlab chiqarish jarayonlarida jarohatlanishi, kasbiy kasalliklar bilan kasallanish kabi salbiy holatlarning miqdori kamaymaganligi viloyatdagi sanoat korxonalarida ishchilarning mehnat muhofazasining muhim jihati hisoblangan tibbiy-sog’lomlashtirish tadbirlarining talab darasida bo’lmaganligini ko’rsatadi.To’g’ri 1985-yildan boshlab Andijon viloyatidagi sanoat korxonalarida ishchi va xizmatchilar uchun ko’rsatilayotgan tibbiy xizmat va ularning sog’lomlashtirish muassalariga yuborish orqali ularning sog’liklarini yaxshilash va buning natijasida ularning mehnat qilish qobiliyatini rivojlantirish bo’yicha ba’zi ijobiy o’zgarishlar yuz bergan. Lekin sanoat korxonalarida mavjud ishlab cjhiqarish jihozlarining ma’nan eskirganligi,zavod va fabrikalardagi havoni tozalash uskunalarining talab darajasida ishlamasligi,sanoat korxonalarida sanoat sanitariyasi talablarini qoniqarsiz holatda ekanligi, ishchi va xizmatchilarga berilayotgan shahsiy himoya vositalarining sifatsiz darajada ekanligi natijasida ayol ishchi va xizmatchilarning texnogen avariyalar natijasida jarohat olishi va buning natijasida mehnat qilish qobiliyatini vaqtincha yoki butunlay yo’qotish jarayonlari,ularning revmatizm, nafas olish yo’llari kasalliklari bilan kasalllanishi,kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi zavodlarda ishchilarning jigar faoliyati buzilishi kasalligining og’ir ko’rinishi kabi kasalliklar bilan kasallanishi singari salbiy jarayonlar davom etib kelgan.

Maqolada tadqiq etilgan jarayonlarni bugungi kunda O’zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan sanoat korxonalarida xususan, Andijon viloyatida faoliyat olib borayotgan

zavod va fabrikalarda mehnat qilayotgan ishci ximatchilar jumladan, xotin-qizlar uchun amalga oshirilayotgan tibbiy-sog'lomlashtirish tadbirlari bilan qiyoslash orqali bugungi kunda O'zbekiston Resbublikasida davlat rahbari va hukumat tamonidan mehnatkashlarni sog'liklarini saqlash va ularga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni amalga oshirish va shuningdek xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish yuzasidan juda ko'plab ijobiy tadbirlar amalga oshirilayotganlini guvohi bo'lamiz. Albatta bu jarayonda bugungi kunda mamlakatimiz davlat rahbari va hukumati tamonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosatda inson omili yuksak o'ringa qo'yilganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI(REFERENCES):

1. Andijon viloyat Davlat arxivi.618-fond 1-ro'yhat 53-ish 65-bet.
2. Andijon viloyat Davlat arxivi. 618-fon 1-ro'yhat 53- ish 23-bet
3. Andijon viloyat Davlat arxivi. 618- fond 1-ro'yhat. 53-ish 32 bet
4. Andijon viloyat Davlat arxivi. 618-fond 1-ro'yhat 627- ish 41 -bet
5."Boshi yerda oyog'i osmonda " .Kommunist gazetasi.10.01.1991.19-son 3-bet.

EKOLOGIK QADRIYATLAR ETNOGRAFIYASI

Egamberganova Matluba Jobborgonovna
Urganch innovatsion universiteti dotsenti
https://orcid.org/0009-0004-9607-3948

Annotatsiya:Ushbu maqolada o’zbek xalqining mavsumiy bayram va marosimlari — “Xosil bayrami” va “Yaldo kechasi” misolida xalq turmush tarzidagi ekologik va etnografik qadriyatlar tahlil qilingan. Tadqiqotda xalq an’analari orqali tabiatga munosabat, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish g’oyalari yoritilgan. Shu bilan birga, bayramlardagi ramzlar va marosimlar xalqning tabiat bilan uyg’un hayot kechirish tafakkurini ifodalashi ta’kidlangan.

Kalit so’zlar: Xosil bayrami, Yaldo kechasi, etnografiya, ekologik madaniyat, xalq an’analari, barqaror rivojlanish.

ЭТНОГРАФИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ

Эгамберганова Матлуба Джабборгоновна
Доцент кафедры «Истории» Ургенчского инновационного университета (PhD)

Аннотация: В статье рассматриваются этнографические и экологические ценности узбекского народа на примере сезонных праздников — «Праздника урожая» и «Ночи Ялдо». В исследовании анализируется отношение человека к природе через народные традиции, рациональное использование природных ресурсов и идеи устойчивого развития. Особое внимание уделено символике и ритуалам, отражающим гармонию человека с природой.

Ключевые слова: Праздник урожая, Ночь Ялдо, этнография, экологическая культура, народные традиции, устойчивое развитие.

ETHNOGRAPHY OF ECOLOGICAL VALUES

Egamberganova Matluba Jobborgonovna
Associate Professor, Department of History, Urgench Innovation University (PhD)

Abstract: This article analyzes the ethnographic and ecological values of the Uzbek people through the examples of seasonal celebrations — the “Harvest Festival” and “Yaldo Night.” The study highlights how traditional practices reflect the relationship between humans and nature, the rational use of natural resources, and the concept of sustainable development. Particular attention is given to the symbolism and rituals representing harmony between humans and the environment.

Keywords: Harvest Festival, Yaldo Night, ethnography, ecological culture, folk traditions, sustainable development.

KIRISH. O‘zbek xalqi tarixi davomida tabiat bilan chambarchas bog’liq hayot tarzini shakllantirgan. Bu munosabat xalqning turmush tarzi, mehnat an’analari va bayram-marosimlarida yaqqol namoyon bo’ladi. Xususan, mavsumiy bayramlar va urf-odatlar insonning tabiatga bo’lgan ehtiromi, minnatdorlik hissi hamda ekologik tafakkurining ifodasi hisoblanadi. “Xosil bayrami”, “Yaldo kechasi”, “Qishki chilla” kabi an’anaviy tadbirlar xalqning dehqonchilik madaniyati, ijtimoiy birdamligi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tajribasini yorqin aks ettiradi. Ushbu maqolada mazkur bayram va marosimlarning etnografik hamda ekologik ahamiyati tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mavsumiy bayramlar va marosimlarning etnografik hamda ekologik ahamiyati masalalari bo’yicha ilmiy tadqiqotlar asosan xalq og’zaki ijodi, tarixiy manbalar va etnografik kuzatuvlarga tayanadi. U.Qoraboev, A.Ashirov, H.Xoshimov, SH.Rahimov kabi olimlar o’z asarlarida xalq bayramlarining kelib chiqishi, ularning ijtimoiy va madaniy vazifalarini yoritib berishgan. Xususan, ularning ishlarida “Xosil bayrami” va “Yaldo

kechasi” kabi marosimlarning qadimgi dehqonchilik madaniyati bilan uzviy bog’liqligi, tabiat sikllariga mos tarzda shakllangani ta’kidlanadi.

Shuningdek, zamonaviy etnoekologik tadqiqotlarda milliy urf-odatlarning ekologik tarbiya va barqaror rivojlanishdagi o’rni tahlil qilingan. Ushbu ilmiy ishlar xalq bayramlarini faqat madaniy yoki diniy an’ana sifatida emas, balki tabiatga munosabatning ilk ekologik ko’rinishi sifatida baholash zarurligini ko’rsatadi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida etnografik tahlil, tarixiy qiyosiy usul va madaniy-semiotik yondashuvlar qo’llanildi. Etnografik tahlil orqali bayram va marosimlarning mazmun-mohiyati, o’tkazilish tartibi hamda jamoaviy ahamiyati o’rganildi. Tarixiy qiyosiy usul yordamida mavsumiy bayramlarning zamonlar davomidagi o’zgarishlari, ularning hozirgi hayotdagi ifodalari tahlil etildi. Madaniy-semiotik yondashuv esa bayramlardagi ramzlar — anor, tarvuz, yorug’lik va qorong’ilik, hosil va hayot kabi obrazlarning ma’naviy va ekologik ma’nolarini ochib berdi.

MUHOKAMA. Xalq orasida har bir meva yoki sabzavotga bag’ishlangan alohida sayillar bilan bir qatorda, ularning barchasiga bag’ishlab, umumlashtirilgan holda o’tkaziladigan umumxalq bayram ham mavjud. Bu “Xosil bayrami”, “Xosil to’yi” yoki “Hirmon to’yi” deb ataladi. Ushbubayramning ham ildizlari qadimgi dehqonchilik va hosildorlik marosimlariga borib taqaladi[1; B.18]. Ya’ni, insonning tabiat bilan munosabati, yerdan olinadigan ne’matlar va ularni jamoa bilan baham ko’rish g’oyasi asos bo’lib xizmat qilgan.

“Xosil bayrami” dehqonchilik mavsumi yakunlanib, el-yurtda turmush bir oz yengillashgan, odamlar mehnatdan ozod bo’lib, ko’ngilochar tadbirlarga vaqt topgan davrda tashkil etilgan. Bu bayram nafaqat mehnatning yakunlovchi marosimi, balki kishilar orasida birlik va hamjihatlikni kuchaytiruvchi ijtimoiy hodisa ham bo’lgan.

“Xosil bayrami” odatda keng maydonlarda, qishloq aholisining barchasini qamrab olgan holda o’tgan. Erta tongdanoq maydonda turli o’yinlar va tomoshalar boshlangan. Eng katta tomosha “uloq” (ko’pkari) o’yini bo’lib, unda yigitlarning quvvati, chaqqonligi va otbozlik mahorati sinovdan o’tgan. Shu bilan birga, “Xosil bayrami”da turli xalq o’yinlari, masalan, “kurtak-ko’tarish”, “arqon tortish”, “quloqma-quloq” kabi bellashuvlar ham o’tkazilgan.

Kech kuz - qish boshida yog’ingarchilik boshlanib, yer yumshaganda qoziq, oshiq, tosh o’yinlar odat tusiga kirgan. «Uloq» ham kech kuzda dehqonchilik ishlari tugaganidan so’ng avjiga chiqqan, bu esa dehqonlarning qish kirishiga tayyorgarligini ko’rsatadi. Qish davrida yurtimiz aholisi «Birinchi qor», «G’ap-g’ashtak» (Xorazmda “Gurung”)[2; B.56], «Sandal o’yinlari», «Yaldo kechasi», «Qishki chilla» («Chillaning boshlanishi», «Kichik chilla», «Chillaning tugashi») kabi tadbirlarni o’tkazadi.

Albatta, qishda ham turli o’yinlar tashkil etiladi. «Uloq» kech kuzdan bahorning o’rtasigacha davom etadi. Qor yoqqanda «Qorbo‘ron», yomg’ir yog’ganda «Yomg’ir yog’aloq», qishki shamolda «Bo‘ron-bo‘ron» o’yinlari o’ynaladi. Uzoq qishki kechalarda esa bolalar olov atrofida to’planib, «Topishmoq top», «Tez ayt», «Kim aytdi» kabi o‘yinlarni o’ynashadi. 21-dekabr`dan 22-dekabr`ga o’tar kecha yilning eng uzun tuni va eng qisqa kuni hisoblanadi. Astronomik nuqtai nazardan, bu hodisa Qish kirar paytida Shimoliy yarimsharda sodir bo’ladi. Yer o’qi Quyoshdan uzoqlashgan holatda bo’lib, kunduz nurining davomiyligi qisqaradi va tun uzoqlashadi[2; B.55]. Bu vaqtda tun o’rtacha 17 soatga yaqin davom etadi, bu esa qadimgi o’zbek adaniyatida “Yaldo kechasi” deb nomlangan bayramning asosiy ilmiy-astronomik negizidir. Yaldo qadimgi Zardushtiylikdan meros qolgan an’ana bo’lib, qorong’ilik ustidan yorug’likning g’alabasini ramziy ifodalaydi[1; B.18].

Yaldo kechasi tabiat bilan hamohanglikni va mavsumiy davrlarga hurmatni aks ettiradi. Qish hodisasi astronomik o’zgarishlarning ramzi sifatida qaralib, insonning tabiat ritimlariga moslashishini ta’kidlaydi. Bayram tabiatning qayta tirilish ramzi sifatida qaraladi qishning eng qorong’i damlarida ham hayot va hosildorlikning davom etayotganini eslatadi, bu

insonlarni atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatga undaydi[3; B.18].

Qish faslida hafta sayin gurunglar o’tkazilib, odamlar davraga to’planib, shirin suhbatlar qilishgan. Bu kechalarda jamoaviylik va ijtimoiy bog’liqlik muhim o’rin tutgan. Sandal atrofida jam bo’lib, palov, norin, sho’rva kabi milliy taomlar iste’mol qilingan. Xonadon egalari mehmonlarni to’kis dasturxon bilan kutib olar, quyi suvitilgan, tandir nonlari pishirilardi. Qishga saqlangan qovun-tarvuz, uzum, anor, olma va boshqa mevalar omborlardan olib chiqarilib, dasturxonga tartib bilan joylashtirilardi. Bu mevalarning ramziy ahamiyati katta. Misol uchun, tarvuz quyoshning shakli va rangini ifodalaydi, anor esa hayot va tug’ilishning ramzi sifatida qaraladi. Qadimgi o’zbek an’analarida tarvuz iste’mol qilish qish kasalliklaridan himoya qilishiga ishonilgan[4].

Yoz faslida yetishtirilgan mevalarni qishga saqlash (masalan, qovun-tarvuzning maxsus omborlarda hifz etilishi) oziq-ovqat isrofining oldini oladi va mavsumiy mahsulotlardan foydalanishni rag’batlantiradi. Anor va tarvuz kabi mevalar hosildorlik, hayot va yangilanishning ramzi sifatida qaralib, tabiatning hosildorlik sikliga hurmatni ifodalaydi.

Tabiat resurslarini saqlash orqali qishning qiyin sharoitlarida hayotni davom ettirish amaliyoti o’zbek jamiyatining qadimgi ekologik donishmandligini ko’rsatadi. Ayollar ham o’z tengdoshlari bilan qo’ngil yozgan, gazalxonlik qilgan, bahru bayt aytishgan, mushoiralar o’tkazishgan, raqs tushgan, qo’shiqlar ijro etgan, dutor-doira chalib, o’yin-kulgini oshirgan. Qadimgi o’zbek ayollarining bu faoliyati gender rollarining har xilligini ko’rsatadi, ular nafaqat uy ishlari bilan shug’ullangan, balki madaniy tadbirlarda faol ishtirok etgan. Qo’shiq va she’riy amaliyotlar tabiat elementlari (gullar, mevalar) haqida bo’lib, insonning atrof-muhitga hurmatini targ’ib qiladi, bu esa madaniy meros orqali ekologik ongni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mahalla choyxonalarida ham Yaldo kechasi o’tkazilib, gal-tukma tashkil etilgan. Bunday majlislarga sayyohlar, boshqa viloyatdan kelgan mehmonlar, olim-fozillar, shoir-qallamdorlar ishtirok etgan. Odamlar ularning suhbatlaridan dunyoda ro’y berayotgan yangiliklarni bilib olishgan[5].

Umuman olganda, Yaldo kechasi o’zbek etnografiyasida qish faslining ramziy o’tishi sifatida qaraladi. U qorong’ilikdan yorug’likka o’tishni, jamoaviylikni va madaniy merosni saqlashni ifodalaydi. Ekologik madaniyat nuqtai nazardan, bu bayram tabiat sikllariga hurmat, resurslardan oqilona foydalanish va hayotning davomiyligini tarannum etadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Xorazm aholisi turmushida mavsumiy bayram va marosimlar tabiat bilan uyg’un yashash, uning qonuniyatlariga moslashish hamda ekologik tartib-intizomni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Navro’z, Sada, Mehrjon, Guli Surx kabi xalqona an’analar orqali insonning tabiatga munosabatida mehr, ehtirom va minnatdorlik tuyg’ulari shakllangan. Bu bayramlar faqat madaniy-ma’naviy hayotning bir ko’rinishi emas, balki suv, yer va havo resurslarini avaylash, tuproq va hosildorlikka e’tibor berish, obodonchilik va poklikni ta’minlashga qaratilgan ekologik amaliyot sifatida ham xizmat qilgan. Shu bois, milliy urf-odat va marosimlar nafaqat tarixiy-madaniy meros sifatida, balki bugungi ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish jarayonlarida ham o’rnak va ilhom manbai bo’lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Аширов А. Авестодан мерос маросимлар (Ўзбек халқи турмуш тарзида зардуштийлик диний маросимлар анъанаси). Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001.18- бет.

Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. Тошкент: Шарқ, 2002.

Тураев, Ш. Ўзбек этнографияси: анъаналар ва урф-одатлар. Тошкент: Ўқитувчи нашриёти. 2010.

Dala materiali. Bobojonova O’g’iljon. Xiva tumani. 2025-yil.

Dala materiali. Boltayeva Qurvonoy. Xonqa tumani. 2025-yil.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

FRANSUZ SHARQSHUNOSLIK MAKTABIDA BOBUR SHAXSI VA IJODI TADQIQI

Axmedova Shaxnoza Nasimovna,
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, University of Business and Science o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola fransuz sharqshunoslarining «Boburnoma» asariga oid ishlarini tahlil qiladi. Maqolada Boburning shaxsiy xususiyatlari – jasorat, adolatparvarlik, o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyati yoritiladi. «Boburnoma»ning adabiy qiymati, uning avtobiografik janri va tarixiy hujjat sifatidagi ahamiyati alohida e'tibor markazida bo'lib, fransuz maktabining sharqiy adabiyotni evroosiyo madaniy merosi bilan bog'lashdagi hissasi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Bobur, Fransuz sharqshunosligi, Boburnoma, shaxs tadqiqi, ijodiy meros, avtobiografiya, Klaprot, de Kurtey, sharqiy adabiyot, tarixiy hujjat.

RESEARCH ON BABUR'S PERSONALITY AND CREATIVITY IN THE FRENCH SCHOOL OF ORIENTAL STUDIES

Akhmedova Shakhnoza Nasimovna,
Independent Researcher at Namangan State University, Lecturer at the University of Business and Science

Annotation : This article analyzes the works of French Orientalists on the «Baburnama.» It highlights Babur's personal qualities—courage, justice, and self-analysis. The literary value of the «Baburnama,» its autobiographical genre, and its significance as a historical document are given special attention, while the contribution of the French school in connecting Eastern literature with the Eurasian cultural heritage is emphasized.

Keywords: Babur, French Orientalism, Baburnama, personality study, creative legacy, autobiography, Klaproth, de Courteille, Eastern literature, historical document.

ИССЛЕДОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ И ТВОРЧЕСТВА БАБУРА ВО ФРАНЦУЗСКОЙ ШКОЛЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

Ахмедова Шахноза Насимовна,
Независимый исследователь Наманганский государственный университет, Преподаватель UBS

Аннотация: Статья анализирует работы французских востоковедов, посвящённые «Бабурнаме». В ней освещаются личные качества Бабура — мужество, справедливость и способность к самоанализу. Особое внимание уделяется литературной ценности «Бабурнамы», её автобиографическому жанру и значению как исторического документа, а также подчёркивается вклад французской школы в связывание восточной литературы с евразийским культурным наследием.

Ключевые слова: Бабур, французское востоковедение, Бабурнама, исследование личности, творческое наследие, автобиография, Клапрот, де Куртей, восточная литература, исторический документ.

1.Kirish (introduction). Bugun zamonaviy O'zbekiston yangi yuksalish bosqichiga qadam qo'ygan ushbu davrda xalqimiz ulug' ajdodlari boy ilmiy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish, uni dunyoga tarannum etish asnosida eng so'nggi ilm-fan hamda kasb-hunar sirlarini o'rganishga

katta e’tibor qaratmoqda. Ishonamizki, ushbu yo‘nalishdagi davlatimiz investitsiyasi yurtimizda Uchinchi Renessans davrining bo‘y ko‘rsatishiga poydevor bo‘lajak. Shu ma’noda, davrning turli taloto‘plari, ixtiloflariga duch kelsa-da, yuksak insoniy tuyg‘ularni saqlab qola olgan, dunyo ilm-fani, madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan shoh va shoir – Zahiriddin Muhammad Bobur nomi abadiy. Shoir qoldirgan boy ilmiy-ma’naviy meros, muhtasham me’moriy obidalar asrlar osha yosh avlodlarni ulug‘ maqsadlarga da’vat etib, ma’naviy kuch-quvvat manbai bo‘lib qoladi.

Yurtimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida tariximizni, buyuk ajdodlarimiz merosini o‘rganish va ularni yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu yoshlarni buyuk ajdodlar qoldirgan meros va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilyapti. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari tomonidan qoldirilgan bebaho ilmiy va ma’naviy-madaniy meros esa buyuk bobokalonlarimiz bilan faxrlanish, yurtni, Vatanni sevish tuyg‘ularini yanada jo‘sh urdiradi.

Fransuz sharqshunosligi XIX asrdan boshlab sharqiy adabiyot va tarixni o‘rganishda muhim rol o‘ynagan. Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) – Buyuk Mo‘g‘ullar imperiyasining asoschisi, shoir va mutafakkir sifatida fransuz olimlarining diqqat markazida bo‘lgan. Uning “Boburnoma” asari nafaqat tarixiy hujjat, balki o‘zbek va jahon adabiyotidagi noyob avtobiografik asar sifatida e’tirof etilgan. Ushbu maqola fransuz sharqshunoslarining Bobur shaxsi va ijodiga qaratilgan tadqiqotlarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, ularning sharqiy adabiyotni Evropa ilmiy an’analari bilan bog‘lashdagi hissasini ko‘rsatadi. Tadqiqotning maqsadi – fransuz olimlarining metodologiyasini O‘zbekistonning zamonaviy Bobur shunoslik tadqiqotlariga integratsiya qilish imkoniyatlarini aniqlash.

2. Metodlar (Methods). Tadqiqot sifatli tahlil usuliga asoslanadi. Asosiy manbalar sifatida fransuz sharqshunoslari Genri Yul Klaprot (1824-yilgi tarjimasi), Per de Kortey (1871-yilgi to‘liq tarjimasi) va J.L. Baké-Grammon (1980-yilgi nashr)ning “Boburnoma”ga oid asarlari tanlandi. Arxiv hujjatlari, ilmiy maqolalar va monografiyalar tahlil qilindi. Tadqiqotda kontent-tahlil va qiyosiy usullar qo‘llanilib, Boburning shaxsiy xususiyatlari va ijodiy merosining fransuz olimlari tomonidan talqini o‘rganildi. Ma’lumotlarni tahlil qilishda tematik guruhlash va tarixiy-kontekstual yondashuvlardan foydalanildi.Boburiylarning adabiyot va ilm sohasidagi ishlari o‘zlarining aniq va boy mazmuni bilan ajralib turadi. Masalan, Boburning shaxsiy hayoti, siyosiy faoliyati va adabiy ijodi, uning o‘z zamonlaridagi muhim tarixi va ijtimoiy muhiti bilan bog‘liq murakkab masalalarni qamrab oladi. Fransiyada bu asarlar tarjima qilingani va yozilgani, ularning mo‘’jizaviy chuqurligini va haqiqiyligini yanada anglashga yordam beradi.

Shuningdek, Boburiylar davridagi adabiyotning yuksalishi, uning ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish g‘arb olimlari uchun ayniqsa qiziqarli bo‘lgan. Fransuz olimlari olib borayotgan tadqiqotlar va tarjimalar orqali boburiylar adabiyotining bunyodkorligi, uning xususiyati va o‘ziga xos tili hamda ifodalari bilan tanishish imkoni yaratilmoqda[1].

Tarjima va tadqiqotlar orqali Fransiyada boburiylarning adabiy va ilmiy merosi, nafaqat o‘z vaqtidagi, balki o‘sha davrdan keyingi zamonlarda ham o‘zaro ta’sirga ega bo‘lganini anglash mumkin. Boburiylar asarlarining farqi, ularning tarixi va madaniyati, ularning o‘zbek va turk tilidagi ilmiy-adabiy leksikasini yoritish, ularning dunyoviy va ma’naviy ahamiyatini aniqlash hamda ularning davlatchilik, falsafiy va ijtimoiy masalalarga bo‘lgan munosabatini tushunish o‘ta muhimdir[2].

Boburiylar davrining ilmiy va adabiy merosining Fransiyada o‘rganilishi va tarjima qilinishi, har ikki madaniyatning umumiy merosini boyitishga, shundan kelib chiqib, til va adabiy muvozanatni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Bu tadqiqotlar orqali boburiylar davrining ilmiy va adabiy merosi jahon adabiyotida o‘z o‘rnini egallamoqda va bu sa’y-harakatlar orqali ularning umumiy ahamiyati yanada yoritilmoqda.

O‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur umrining ko‘p qismini jangu jadallarda kechirgan bo‘lsa-da, o‘zining asarlarida ilm-fanning ko‘plab yo‘nalishlari: ijtimoiy-gumanitar fanlar, adabiyot, tarix, falsafa, fiqh, din ta’limoti,

tilshunoslik, tabiatshunoslik, ma’danshunoslik, dehqonchilik, bog‘dorchilik va boshqa sohalarga oid aniq va hanuzgacha o‘z tarixiy hamda ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan ma’lumotlarni meros qilib qoldirgan[3].

Zahiriddin Muhammad Boburning ma’naviyat va insoniylikni qayta tiklash uchun xizmat qiladigan moddiy va ma’naviy yodgorliklarini qidirib topish, ularni xalqimizning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish yo‘lida safarbar qilish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. O‘zbek adabiyotshunosligida Bobur she’riyat va uning badiiy nafosati, «Boburnoma» asari qator tadqiqotlarda o‘rganilgan. Bu borada endigi amalga oshirilishi muhim vazifalar ham talaygina. Negaki, Bobur she’riyatining hamda «Boburnoma»ning bugungi kun nuqtai nazaridan baholash, o‘quvchilar qalbiga yetkazish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

3.Natijalar (results)

Tahlil natijasida fransuz sharqshunoslari Boburni faqat harbiy sarkarda sifatida emas, balki shoir, botanik va insonparvar mutafakkir sifatida tasvirlaganlari aniqlandi. Yevropa ilm ahliga Bobur haqida ilk bor ma’lumot bergan fransuz sharqshunosi Bartolome d’Erbelo Molenli hisoblanadi. Bartolome D’Erbelo Molenli “Sharq kutubxonasi” (1697) turkumini tashkil etgan hamda unda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi haqida ilk bor fransuz kitobxonlariga ma’lumotlar bergan. D’Erbelo o‘zining ”Sharq kutubxonasi” ensiklopediyasidagi “Bobur yoki Bobar” nomli maqolasida Boburning hayoti, uning davlati va sarkardalik mahorati, adabiyot va san’atga qiziquvchi ilg‘or fikrli kishi bo‘lgani haqida ma’lumot berib o‘tadi: “Bobur yoki Baber - Temurlang, Temur avlodi. Uning otasi hijriy 837, milodiy 1433 yili 37 yoshida vafot etgan. Undan 3 farzand Mirza Aladdular, Mirzo Muhammad va Mirzo Bobur qoldi. Biz shu Mirzo Bobur haqida so‘z yuritamiz. Ularning otalarining erta vafoti bobolari Shohruhga juda qattiq zarba bo‘ldi. Endi u barcha hukumat ishlarini Aladdularga topshirdi. Boburga kelsak, u bobosi uning uchun ajratib bergan tortiq va ulush bilan qanoatlanib yashashga majbur edi. Hijriy 850 milodiy 1446 yilda ularning bobosi Shohruh vafot etdi. O‘sha paytda Gurjiston viloyatida hukm surayotgan Mirzo Bobur Xurosonga kirib keldi.”. (“BABUR ou BABOR, fils de Baifancor, petit-fils de Scharokh, arriéré petit-fils de Timur ou Tamerlan. Son père qui mourut à l’âge de trente-sept ans, l’an 837 de l’hégire, de J. C. 1433 il laissa trois fils, Mirza Alaëddoulat, Mirza Mohammed, Mirza Babur, celui-ci, dont nous parlons, eut beaucoup d’affaires à démêler avec ses frères. II convint avec Alaëddoulat que le pays de Khabuschan serviroit de limites entre leurs états. Après cette paix Alaëddoulat s’en retourna à Herat, et Babur à Asterabad capitale de la province de Giorgian.” [4].

1697 yili nashr qilingan d’Erbeloning “Sharq kutubxonsi” asari Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona fondida saqlanadi va tadqiqotlar uchun foydalanib kelinmoqda. Asarda 8558 ta turli hajmdagi maqolalar alifbo tarzida joylashtirilgan. Uning hajmi 1080 sahifadan iborat.

Ushbu asarni yozish uchun olim butun umrini bag‘ishlaydi. 1697 yili asar haqida ilk bor Fransiyadagi “Olimlar” ilmiy-ma’rifiy jurnlida e’lon qilinadi va u haqida ma’lumotlar beriladi.

Kognitiv ong esa insonning dunyoni idrok etishi, qayta ishlashi va uni badiiy obrazlar orqali ifoda etish qobiliyatini anglatadi. Adabiy jarayon kognitiv ongning mahsuli bo‘lib, unda ijodkorning ruhiy dunyosi, dunyoqarashi va milliy tafakkuriga oid tushunchalar mujassam bo‘ladi. Kognitiv ong orqali yozuvchi yoki shoir voqelikni o‘zicha talqin qiladi va uni ramzlar, metaforalar hamda konseptlar orqali kitobxon ongiga yetkazadi.

Masalan, Alisher Navoiy o‘z asarlarida kognitiv ongning chuqur qatlamlarini ochib bergan ijodkor sifatida alohida o‘rin tutadi. Uning “Xamsa”sidagi ramziy obrazlar va murakkab g‘oyalar nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki falsafiy va ma’naviy tafakkurning yuksak namunasi sifatida ham xizmat qiladi. Navoiy asarlaridagi “ishq”, “ma’rifat”, “haqiqat” kabi konseptlar

uning kognitiv ongi va milliy tafakkur uyg‘unligidan dalolat beradi.

Abdulla Qodiriy ijodida esa kognitiv poetika tarixiy xotira va ijtimoiy ong orqali namoyon bo‘ladi. “O‘tgan kunlar” romanida “erkinlik”, “vatan”, “adolat” kabi konseptlar syujetning markazida turadi. Ushbu konseptlar orqali yozuvchi o‘z davrining ma’naviy qiyofasini, milliy ongning rivojlanish jarayonlarini aks ettiradi. Bu esa kognitiv ongning jamiyatdagi muhim rolini yaqqol ko‘rsatadi.

Cho‘lponning asarlari ham kognitiv poetika nuqtai nazaridan o‘rganilganda uning shaxsiy dunyoqarashi va milliy uyg‘onish g‘oyalari aniq ko‘rinadi. Shoirning “Kecha va kunduz” romani hamda she’riy to‘plamlarida erkinlik va mustaqillik konseptlari markaziy o‘rin tutadi. Cho‘lponning kognitiv ongi orqali yaratilgan badiiy obrazlar nafaqat adabiy-estetik hodisa, balki milliy tafakkur taraqqiyotining aks sadosi sifatida baholanadi.

Kognitiv poetikaning asosiy tahlil vositalaridan biri metaforadir. Metafora nafaqat badiiy bezak, balki ongning ichki strukturalarini aks ettiruvchi kuchli kognitiv vositadir. Usmon Azimning she’riyatida “qush”, “yo‘l”, “suv” kabi obrazlar kognitiv konseptlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ular orqali shoirning dunyoni qanday idrok etishi va uni kitobxon bilan qanday muloqotda ifodalashi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Kognitiv poetika o‘zbek adabiyotshunosligida nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Bugungi globalizatsiya sharoitida milliy tafakkur va kognitiv ongni chuqur tadqiq etish yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun muhimdir. Badiiy matnni kognitiv poetika nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali biz nafaqat adabiy asarning ichki mazmunini, balki xalqning ruhiy olami va tafakkur tarixi haqida ham chuqur bilimga ega bo‘lamiz.

Kognitiv poetika ma’lum bir asarni boshqa kognitiv ong – o‘quvchi tomonidan idrok etilishi va talqin qilinishiga sabab bo‘luvchi mental hodisalarni o‘rganadi.

Kognitiv poetikada, birinchi navbatda, matnning shakllanishi va talqini asosidagi kognitiv strategiya va jarayonlar, poetik matn tilida ifodalangan mental tuzilmalarga e’tibor beriladi. Kognitiv poetikada poetik matnga individual ijodiy tafakkurning konseptual tuzilmalari lingvistik reprezentatsiyasi sifatida qaraladi.

Kognitiv poetika ham o‘zidan oldingilar – aristotelchilar, universalistik poetikadan tortib semiotik poetikaga qadar – quyidagi savollarga javob berishga harakat qiladi: dunyoning badiiy adabiyotda reprezntatsiyalashuvi haqidagi; ijod va ijodning tabiati haqidagi; badiiy adabiyot tili bilan kundalik til o‘rtasidagi munosabat haqidagi.

O‘z navbatida, odamlarga xos bo‘lgan homo sapiens va homo loquens kabi kognitiv jarayonlarni bilish, shu jumladan, sof lingvistik jihatlarni aniqlash samarali filologik o‘qish va badiiy matnlarni adekvat talqin qilish uchun zarur shartdir.

Ma’lum bo‘ladiki, rus tilshunoslari poetik matnning tushunilishi, idrok etilishi, shuningdek, individual ijodiy tafakkurning yuzaga chiqishini lisoniy reprezentatsiya hodisasi bilan bog‘liq holda tadqiq qilish o‘rinli ekanini qayd etadilar.

Til va adabiyot shunday bog‘liqki, tilsiz adabiyot, adabiyotsiz tilning mavjudligini his etish qiyin. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, poetik matnlarning kognitiv xususiyatlarini o‘rganish ijodkor individual tafakkuri bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. Bu yerda til va adabiyotning chegarasini aniqlash murakkablik tug‘diradi, chunki “yozuvchi uslubini adabiy tadqiq qilish qayerda tugashini va uning lingvistik talqini qayerda boshlanishini hech kim bilmaydi”. Shu sababdan ham kognitiv poetika fanlararo xususiyatga ega yo‘nalish sifatida kognitologiya, tilshunoslik va adabiyotshunoslik o‘zaro kesishgan nuqtada namoyon bo‘ladi.

Kognitiv lingvistika va poetikani o‘zaro birlashtirish orqali kognitiv poetikachilar badiiy matnlarni kognitiv o‘qishni taklif qilishni va badiiy matnlarni kognitiv konstruksiyalash va qayta ishlashda estetik ma’no effektlari va qoliplari o‘rtasidagi munosabatlarga oid aniq farazlarni shakllantirishni maqsad qilgan.

O‘zbek tilshunosligida ham kognitiv poetika rus tilshunosligida qo‘llaniladigan ma’noda talqin qilinadi: “Shu nuqtayi nazardan qaraganda, kognitiv, adabiyot va lingvistik fanlarning

birlashishi mutlaqo tabiiy bo‘lib chiqadi, chunki u badiiy asarning tabiati bilan belgilanadi, buning iloji bo‘lmagan joyda, ushbu obyektning ontologik holati nuqtayi nazaridan uni tafakkur (ong), adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan bir butun sifatida alohida tushuniladi. Bunday bo‘linish faqat tadqiqotning maqsadga muvofiqligi nuqtayi nazaridan mumkin, agar obyektni biron bir jihatda batafsil o‘rganish asarning ushbu tarkibiy qismlarining har birining qonuniyatlari va rivojlanishini badiiy bir butunlik sifatida yanada chuqurroq tushunish va tavsiflash imkonini beradi. Binobarin, bizning fikrimizcha, poetika fanlararo fan bo‘lib, uning predmeti she’riy (badiiy) matnni, birinchi navbatda, bilish, adabiy ijod va til nuqtayi nazaridan o‘rganish tamoyillari va usullaridan iborat”. Bizningcha ham, kognitiv poetika poetik matnning kognitiv xususiyatlarini, shoir tomonidan qo‘llangan fikrlar, konseptlarning verballashuvi masalasini tadqiq qiladi.

“Badiiy matn ijodiy shaxsning kundalik tajribasini aks ettirishning o‘ziga xos shakli sifatida namoyon bo‘ladi, uni o‘rganish kognitiv amaliyotning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi, uning asosida o‘quvchi nafaqat matnni idrok etadi, balki obyektiv dunyoning namoyon bo‘lishini ham tushunadi”.

“Zamon o‘zgarib borar ekan, she’riyatdagi shartliliklarning ham asta-sekin yo‘qolishi tabiiy jarayon deb hisoblanmoqda. Bu jarayon ko‘z o‘ngimizda ro‘y bermoqda. Hozirgi she’rxonlar yaratilayotgan asarlarni o‘ziga xos tarzda idrok qilmoqda. Dunyo adabiyotida yaratilayotgan yangicha poetik tasvirlar, yangicha poetik ifodalar kitobxon tomonidan odatdagiday faqat bir sezgi organi asosida emas, balki bir necha sezgi organlari orqali idrok qilinmoqda. O‘quvchi tassavvurining kengayishi va ijodkor poetik olami manzarasining zamonaviy tasviri o‘zaro muvofiqlashmoqda”.

Kognitiv poetikaning predmeti, eng avvalo, kognitiv funksiyaning tavsifi bo‘lib, u kommunikativ va akkumulyativ (gnosemik) funksiya bilan birgalikda she’riyatda badiiy qayta yaratilgan dunyoni konsepsiyalash va kategorizatsiyalash kabi jarayonlarni tushunishga va ularning matnda reprezentatsiyalashuviga imkon beradi. Shuningdek, eng muhimi, yozuvchi yoki shoirning idiostili (idiolekt)ni o‘quvchining talqin qiluvchi ongi tomonidan idrok etilishini hisobga olgan holda aniqlash va tavsiflash nuqtayi nazaridan psixik tuzilmalarning til tuzilmalari bilan aloqasi va o‘zaro ta’sirini o‘rnatishdir. Demak, shoirlar individual tafakkurining poetik matnda aks etishi, ya’ni reprezentatsiyalashuvi masalasi aynan kognitiv poetikaning o‘rganish obyektlaridan biri sanaladi.

Tafakkur qilish o‘zaro milliy va individual xususiyatlarga ko‘ra farqlanar ekan, tafakkurda mavjud konseptlarni lisoniy voqelantirish ham farqlanishi tabiiy. Kognitiv tilshunoslik sohasi vujudga kelgach, olamning lisoniy manzarasi tushunchasi keng qo‘llana boshladi. Bu dunyoni anglash, tushunish, tafakkur qilish va tafakkur natijalarini til vositalari yordamida aks ettirish jarayonini anglatib, olamning lisoniy manzarasi tushunchasi milliy lisoniy manzara, individual lisoniy manzara kabi terminlarning ham vujudga kelishi va tilshunoslar tomonidan keng qo‘llanishiga turtki bo‘ldi.

Shaxs individual lisoniy manzarasi olamni individual tarzda qabul qilish, individual tarzda aks ettirish, ya’ni reprezentatsiya xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Shu asnoda tilshunoslikda muallif tafakkurining reprezentatsiyasini ifodalovchi “poetik tafakkur”, “olamning poetik manzarasi”, “olamning badiiy manzarasi” kabi terminlar paydo bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, kognitiv poetika va kognitiv ong bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar bo‘lib, ular o‘zbek adabiyotining nazariy asoslarini boyitadi. Buyuk adiblarimizning asarlarini ushbu yondashuv asosida o‘rganish milliy adabiyotshunoslikni yangi bosqichga olib chiqadi va milliy ongni yanada rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2011. – 624 b.

Qodiriy A. O‘tgan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2019. – 288 b.

Cho‘lpon A. Kecha va kunduz. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 336 b.

Юнусова Х. Визуал поэтик матнларнинг прагма-когнитив тадқиқи//Фарғона прагмалингвистика мактаби. Коллектив монография. II қисм. – Фарғона, 2022. – Б..272

Hakimov M., Djuraboyeva X. Kognitiv poetika // ”Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. –B.137-140.

Воробьева О. Художественная семантика: когнитивный сценарий // С любовью к языку: сборник научных трудов. Посвящается Е.С.Кубряковой. – Воронеж, 2002. – С.329.

DUONING NUTQIY JANR SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI

Karimova Vasila Vaxobovna, f.f.f.d., dotsent
Qo‘qon davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada duo tushunchasining izohli lug‘atlardagi ma’nolari, uning ijtimoiy, diniy va lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Duo birlik va ko‘plik shakllarida qo‘llanishi, o‘ziga va o‘zgaga qaratilishi, personallik, temporallik va lokallik belgilarining ifodalanishi misollar asosida ochib beriladi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodida va diniy rivoyatlarda duoning kuchi, uning ijobati, shukr masalalari hikoyatlar vositasida yoritiladi. Tadqiqot natijasida duo nutqiy janr sifatida yaxlit lingvistik butunlik ekanligi, uning shakllanishida maqsad, uslub va kompozitsiyaning muhim o‘rin tutishi isbotlandi.

Kalit so‘zlar: duo, nutqiy janr, lingvistik butunlik, personallik, ijobat, birlik, ko‘plik.

Аннотация. В статье анализируются значения понятия «дуа» в толковых словарях, а также его социальные, религиозные и лингвистические особенности. Рассматриваются дуа в формах единственного и множественного числа, обращённые к себе и к другим, а также выражение персональности, темпоральности и локальности. На примере народного творчества и религиозных преданий раскрывается сила молитвы, её принятие и благодарность. В результате исследования установлено, что дуа как речевой жанр представляет собой целостное лингвистическое явление, формирующееся на основе цели, стиля и композиции.

Ключевые слова: дуа, речевой жанр, лингвистическая целостность, персональность, молитва, единственное и множественное число.

Abstract. This article analyzes the meanings of the concept of “dua” in explanatory dictionaries as well as its social, religious, and linguistic features. The study discusses dua in singular and plural forms, directed to oneself and to others, with an emphasis on markers of personhood, temporality, and locality. Based on folklore and religious narratives, the power of supplication, its acceptance, and the importance of gratitude are illustrated. The research concludes that dua, as a speech genre, represents a holistic linguistic phenomenon shaped by purpose, style, and composition.

Keywords: dua, speech genre, linguistic integrity, personhood, supplication, singular, plural.

Kirish. Duo — inson qalbining Ollohga murojaati, ichki kechinmalarining ilohiy kuchga qaratilgan ifodasidir. U nafaqat diniy, balki ijtimoiy va lingvistik hodisa sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Izohli lug‘atlarda duo “so‘rab iltijo qilish, Ollohdan tilash” tarzida talqin qilinadi. Sharq xalqlari madaniyatida duo qadimdan odamlar hayotining ajralmas qismi bo‘lib kelgan.

Duoning izohli lug‘atda uchta ma’nosi berildan:

Xudoga yolvorib, unda iltijo qilib, ozi yoki boshqalar uchun yaxshi, ezgu tilak tilash;
fotihada o‘qiladigan Qur’on surasi;
umuman kimsaga tilanadigan yaxshiliklar, yaxshi niyatlar.

Duo eng ko‘p uchinchi ma’nosida ishlatiladi, ya’ni umuman kimsaga tilanadigan yaxshiliklar, yaxshi niyatlar bildirish uchun duo qilinadi.

Duo so‘zi bilan assosiativ bog‘langan tusunchalar (duoyi jon, duoyi xayr, duoyi salom, duo demoq, duogo‘y, duoxon, duoda bo‘lmoq kabi, duobaddan tashqari) asosan ijobiy ma’noda ishlatiladi.

Natijalar va Munozara. Hayotimizda duoning ahamiyati haqida quyidagicha fikrlar bildiriladi:

Duo qilish orqali yordam so‘ranglar va musibat va qiyinchilik paytlarida Allohga iltijo qilinglar. Chunki, duo — cho‘kmaydigan kemadir. Duo — mag‘lub bo‘lmaydigan qo‘shin. Duo — qochmaydigan askardir.

Sizlar uchun duodan boshqa yo‘l bor deb o‘ylash yoki boshqa vositalarga suyangan holda Allohdan yuz o‘girish — halokat va din hamda dunyodagi ziyondir.

Gohida, duo qilib turib, ba’zi musibatlarga uchrashinglar mumkin. Lekin, bu holatlar avvalgi gunohlaringiz yoki yomon amallaringiz sababli keladi. Shunda ham duodan qaytmanglar. Balki, yanada ko‘proq duo qilinglar, ixlos bilan, inoyat bilan, yig‘lab iltijo qilinglar. Chunki, sizlarga duoni ilhom qilgan Zot — oxirini ham yaxshilik bilan tugatadi.

Alloh taolo duo orqali sizlarni ko‘p musibatlardan asragan va katta ofatlarni sizlardan qaytargan.

Ko‘rinadiki, insonlarning musibat va qiyinchiliklar paytida duo qilish orqali Allohga iltijo qilishadi. Aniqki, Alloh oxirini yaxshilik bilan tugatadi. Bunga faqat sabr va ishonch kerakdir. Eng asosiysi, duolar ijobat bo‘lgandan keyin, juda kam insonlar shukr aytadi. Bu haqda quyidagicha hikoyat bor:

Insonlarning duolarida o‘ziga xos belgilar mavjud bo‘ladi va bu belgilar integral va differensial belgilarga ajratiladi. Duoning lokallik, personallik, semasiologik belgilari bilan birga jins belgisi ham namoyon bo‘ladi. Bu har bir belgi vaziyatga qarab integral yoki differensial bo‘lishi mumkin. Yuqorida biz ayollarga xos bo‘lgan duolarni ko‘rib chiqqan edik. Erkaklar nutqiga xoslangan duolarning ham o‘ziga xosliklari mavjud.

Yer yuzida duodan ko‘ra quvvatliroq narsa yoqdir. Sodiq qalbdan chiqqan duo hayot tarozularini ham o‘zgarib, aylantirib yuboradigan kuchga ega. Duoning kuchi haqida juda ko‘p hikoya va rivoyatlar mavjud. Masalan,

Misrlik yuragi xasta kishi Ovrupaga — Britaniyaga o‘zini tekshirtirgani bordi. Uni ko‘rikdan o‘tkazib: “Kasalligingiz og‘ir, jarrohlik amaliyotini o‘tkazish kerak. Lekin natijaga ham, to‘liq kafolat yo‘q, yuragingiz zaif!” — deyishdi.

“Unday bo‘lsa, yurtimga qaytib, farzandlarim bilan vidolashib kelaman” —dedi. Vataniga qaytib, bolalarini jamladi. Ularni sabrga chaqirdi. Bu uchrashuv oxirgisi bo‘lishi, amaliyotdan sog‘ chiqmasligi mumkinligini, aytdi. So‘ng ba’zi do‘stlarini ziyorat qilib, Allohga yo‘liqish uchun taraddudini ko‘rmoqchi bo‘ldi.

U kishining o‘zi aytadi: “Bir do‘stimni ko‘rishgani idoraga bordim. Idora yaqinida qassobxona ham bor edi. Atrofga nazar solib qarasam, bir keksa ayol yerga tushgan va axlat qutisidan go‘sht, suyak, yog‘ parchalarini terib, xaltaga solayotgandi. Do‘stimga “Qara”, dedim. Uning oldiga bordim. Ishidan hayron edim.

— Nima qilyapsiz? — dedim.

— Beshta kichik yoshli qizlarim bor. Bir yildan beri umuman go‘sht yeyishmaydi. Yeyishmasa ham, hidini hidlashsin dedim! — dedi.

Uning bu gaplaridan ko‘zlarimga yosh keldi. Uni qassobning oldiga olib kirib:

— Bu ayolga har hafta mening hisobimdan go‘sht berasiz! — dedim.

Ayol tinmay:

— Yo‘q, yo‘q, kerakmas, — derdi.

— Har hafta kelib, sizga qancha go‘sht kerak bo‘lsa, shu yerdan olasiz! — dedim.

— Menga bir kilo yetadi, — dedi.

— Yo‘q, ikki kilo qilib olasiz! — dedim.

Oldindan bir yillikning pulini to‘ladim. Buni ko‘rgan ayol, haqqimga yig‘lab duo qildi. Kayfiyatim ko‘tarildi. O‘zimni baxtiyor sezdim, qilgan ishimdan mamnun, qalbimda huzur bilan uyga qaytdim. Meni qizalog‘im qarshi oldi.

— Dadajon, juda xursand ko‘rinasiz, — dedi.

Unga voqeani aytib berdim. Qizim aqlli edi, yig‘lab qo‘llarini ochib:

— Ey Allohim, dadajonim o‘sha ayolga yordam qilganlaridek, Sen ham ularga yordam ber! Dardlariga shifo ber! — dedi.

Qolgan ishlarimni ham bitirib, bolalarim bilan xayrlashib, amaliyot uchun Ovrupaga qaytdim. Doktor meni tekshirdi. Hayrat bilan:

— Qaerda davolandingiz, qaysi shifoxonada? — dedi.

— Nimani nazarda tutyapsiz? — dedim.
— Qaerga bordingiz, deb so‘rayapman. Kim sizni muolaja qildi? — dedi.
— Allohga qasam, hech qaerga bormadim. Farzandalarim bilan xayrlashib qaytdim — dedim.
— To‘g‘risini so‘zlang! Yuragingizdagi kasallik umuman qolmabdi! — dedi.
— Nimalar deyapsiz, doktor? — dedim.
— Huddi u bemor siz emas, boshqa odam bo‘lgandek. Qaysi shifoxona u? Sizni qanday davoladi? Qanday dorilar iste’mol qildingiz? Ro‘yxati bormi? Bering, iltimos! — dedi.
— Hech qayerda davolanmadim! — dedim-u, ayolning duolari yodimga keldi. Ichimda, Alloh uning holi haqiqatda ham g‘arib bo‘lganidan, meni samimiy solih amalim, uning va soliha qizimning qalbdan qilgan duolari, ijobat bo‘lganidan, menga sihatimni qaytarib berdi, deb o‘yladim.

Bu kabi hikoyalarning ko‘pchiligi hayotiy voqealardan olingan bo‘lib, duoning kuchi haqidagi ma’ruzalarda foydalaniladi.

Yuqorida ta’kidlanganday, nutqiy janrlardan biri bo‘lgan duo yaxlit lingvitik butunlikdir. Harqanday butunlik esa bo‘laklarga bo‘linadi yoki bo‘laklar birlashib ma’lum butunlikni tashkil qiladi. Masala shundaki, bu bo‘laklar qanday tartibda va qanday vositalar orqali birlashishi butunlukning mohiyatini ochishga yordam beradi.

Duo butunlik sifatida uchta jarayon orqali vujudga keladi. Birinchisi maqsad, ikkinchisi uslub, uchinchisi kompozitsiya. To‘g‘ri har bir duo qilishda niyat, yani maqsad bo‘ladi, birinchi navbatda persona belgilanadi, keyin sabab aniqlanadi. Shundan keyingina uslub tanlanadi. Natijada duo vujudga keladi.

Duolar personallik jihatidan, avvalo, birlik va ko‘plikka qaratilgan bo‘ladi. Birlikka qaratilgan duolar ham ikki xil bo‘ladi: o‘ziga qaratilgan va o‘zgaga qaratilgan. Masalan,

“Yo Allohim! Men Sendan ishda sobitqadam bo‘lish, hidoyat yo‘lida barqaror bo‘lishni so‘rayman. Sendan rahmatingni vojib qiladigan, mag‘firatingga haqli bo‘ladigan narsalarni so‘rayman. Sendan ne’matingga shukr qilishni va go‘zal ibodatingni ado etishni so‘rayman. Sendan sog‘lom qalb va to‘g‘ri so‘zlovchi tilni so‘rayman. Sendan Sen yaxshi deb bilgan narsalarni so‘rayman. Sendan Sen yomon deb bilgan narsalardan panoh tilayman. Sen yomon deb bilgan narsadan meni kechirishingni so‘rayman. Albatta, Sen g‘aybni bilguvchi Donosan”.

Ushbu misolda keltirilgan duo matni o‘ziga qaratilgandir. Buni duo matnida ishlatilgan men (birinchi shaxs, birlik) kishilik olmoshidan foydalanganidan bilamiz. O‘ziga qaratilgan duolar odatda sajdada, namozdan keyin aytiladi va ko‘pchilik oldida ochiqlanmaydi. Yoki duo ijobat qilinishi ko‘proq bo‘lgan quyidagi vaqtlarda: tunning yarmida, ma’lum bir fursatda, yomg‘ir yog‘ayotgan paytda, bemorlik paytida, musofirlikda, xo‘roz qichqirgan paytda, farz namozlari so‘ngida, qadr kechasida va ro‘zador og‘zini ochayotgandagi duo.

O‘zgaga qaratilgan duolar esa o‘z-o‘zidan ochiq aytiladi. Bunday holat duo qaratilgan insonga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Masalan,

Bir zamonlar bir boy bo‘lgan ekan. U har doim uyiga kelgan mehmonlarga yaxshilab ziyofat berar va so‘ngida do‘pposlatib yuborar ekan. Kunlardan bir kun bir odam uning uyiga mehmon bo‘lib boribdi. Mehmondorchiligiga sherik bo‘libdi va turishidan avval ehson sohibining haqqiga duo qilibdi. Boy esa unga sovg‘a-salom berib, kuzatib qo‘yibdi. Shunda mehmon: – Odatda siz boshqalarni mehmon qilib bo‘lib, do‘pposlatar ekansiz. Nimaga meni ham shunday qildirmadingiz? – deb so‘rabdi.

– Boshqalar mening ehsonimni yeb, dasturxon uchun o‘zimga duo o‘qittirishardi. Siz bo‘lsangiz haqqimga duo qildingiz. Sababi shu edi, deb javob qilibdi boy.

O‘zgaga qaratigan duolar ma’lum vaziyat va ma’lum sababga ko‘ra aytiladi. Ayniqsa, g‘oyibdan birodarining haqqiga qilgan duo. Ko‘pincha emotsional xususiyatga ega bo‘ladi. Bunday vaziyatda aytilgan duolar Alloh dargohida qabul bo‘ladi.

Ko‘pchilikka qaratilga duolarning yana bir turi o‘zi bilan birgalikda boshqalarga ham qaratilgan duodir. Bunday duoda Allohdan rizqiga baraka, halol daromad, yaxshiliklarni yog‘dirishni

so‘raydi. Masalan,

Yo Alloh, molu dunyo bersang, qalbimizga emas, qo‘limizga ber.

Yo Alloh, molu dunyoni bersang, uni qo‘llarimizga bo‘ysungan holida jamla. Senga toat-ibodatdan to‘sib qo‘ymasin!

Yo Alloh, Senga gunoh-ma’siyat qilgan holimizda molu dunyo ketidan quvishdan asragin!

Yo Alloh, bizlarga taqsimlagan rizqqa baraka berib, qalbimizni unga rozi qildir!

Yo Alloh, Oxiratni eng katta tashvishimiz va orzuimizga aylantir!

Ey Karamli Robbim, boshimiz uzra yaxshiliklaringni yog‘dir!

(Shayx Muhammad Rotib Nobulsiy)

Ushbu duo matnida qalbimizga, qo‘limizga, holimizda, bizlarga, qalbimizni, tashvishimiz va orzuimizga kabi leksemalarda -imiz qo‘shimchasi ishlatilishi birinchi shaxs ko‘plikni bildiradi. Demak, bunday grammatik vositalar duoning ko‘pchilikka qaratilganligini bildiradi.

Shunday duolar borki, ularning ijoboti ma’lum darajada aniq deyiladi. Ular quyidagichadir:

duolar ijobat bo‘lish imkoniyati katta bo‘lgan paytlar;

duosi ijobat bo‘ladigan shaxslar.

Duolar ijobat bo‘lish imkoniyati katta bo‘lgan paytlar alohida ta’kidlanadi. Bunday vaqtlar: namozda, sajda asnosida qilingan duo, azon bilan iqomat orasidagi duo, arafa kunidagi duo, mayyitni ko‘zi yumilgan paytdagi duo.

Bu boradi ya’ni shuni ham ta’kidlash kerakki, Kabatillohda inson nafaqat tili bilan Allohdan duo qilib so‘ragan narsalar, balki dilidan o‘tkazgan narsalar ham ijobat bo‘ladi. Ko‘rinadiki, Alloh har narsani ko‘rguvchi, har narsani bilguvchi va har narsaga qodirdir.

Duosi ijobat insonlar quyidagilardir: otaning farzandga qilgan duosi, hojining duosi, Alloh yo‘lida yurganning duosi, umrachining duosi. Masalan, Boburmirzoning Xumoyunga qilgan duosi.

Kundalik hayotimizda ko‘p duo qilamiz, ko‘p duo eshitamiz, ba’zan qalbimiz bilan his qilamiz. Ba’zan o‘rganilgan odat bo‘yicha duo qilinadi. Jumladan, dasturxon atrofida, mehmon kelganda, ko‘chaga chiqqanda, transportga o‘tirganda va h.z. Jumladan, mehmon kelganda, ketayotganda ham duo qilinadi. Masalan,

Qani amiyn, - qo‘lini duoga ochdi,- tinchlik-hotirjamlik, bag‘ri-butunlik barchamizni tark etmasin. Barchamiz Allohimning suyukli bandalari bo‘lib, orzu-niyatlarimizga yetishib yuraveraylik.

Ushbu duo umumiylik xususiyatiga ega bo‘lib, kundalik hayotimizda ko‘p ishlatiladigan duolardan biridir.

Duolar ko‘p aytiladi, lekim hammasi ham Alloh dargohida qabul bo‘lmaydi. Ba’zan esa kechikib duolar ijobat bo‘ladi. Ayrim hollarda qo‘shimcha aziyatlar kelib chiqadi.

Ba’zi duolar nima uchun qabul bo‘lmasligi haqida quyidagicha hikoyat bor:

Ibrohim Adhamga savol berdilarkim, “Ne uchun duolarimiz qabul bo‘lmas?” deb.

“Haqni bilib, amrlarini tutmasangiz, payg‘ambarning sunnatlarini bajarmasangiz, Qur’on o‘qib, amal qilmasangiz, Xoliqimizning ne’matlarini yeb, shukr qilmasangiz, jannatni bilganingiz holda talab etmasangiz, jahannamdan ‘qo‘rqmasangiz, Uning hukmi bilan o‘lim bor deb, hozirlanmasangiz, ona va otangizning jasadlarini o‘z qo‘lingiz bilan qabrga qo‘ygan holda, ibrat olmasangiz, bunday qabohatlar bilan duo qabul bo‘lurmi?!” deb javob berdi.

(Fariduddin Attor, «Tazkiratul-avliyo»dan)

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan ma’lum bo‘ldiki, duolar personallarning miqdoriga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: birlik va ko‘plikda. Birlikdagi duolarning o‘zi ham ikkiga bo‘linadi: o‘ziga qaratilgan va o‘zgaga qaratilgan. Ko‘plikdagi duolar ham ikki xil bo‘ladi: ko‘pchilikning bir kishiga qaratilgan duolari va bir kishining ko‘pchilikka qaratilgan duolar.

Xulosa qilib aytish mumkimki, duo nutqiy janr sifatida ijtimoiy, diniy va lingvistik jihatdan muhim o‘rin tutadi. Uning shakllanishida maqsad, uslub va kompozitsiya asosiy element bo‘lib, duo birlik va ko‘plik, o‘ziga va o‘zgaga qaratilgan shakllarda ifodalanadi. Shuningdek, duoning

qabul bo‘lishi va shukr masalalari xalqning diniy qarashlari va nutqiy madaniyatida o‘z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Attor, F. Tazkiratul-avliyo. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2000.
Muhammad Rotib an-Nobulsiy. Duo va ibodatlar. – Qohira, 2015.
Tarixu Dimashq. – Damashq, 1999.
Qur’oni Karim. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2012.
Karimov, A. O‘zbek nutqiy janrlari. – Toshkent: Fan, 2018.
Ismoilov, B. O‘zbekiston xalqining diniy madaniyati. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2016.
Sobirov, T. Nutq va kommunikatsiya: lingvistik tahlil. – Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti, 2014.
Rahmonov, S. O‘zbek tilida duo va qarg‘ishlarning semantikasi. – Toshkent: Fan, 2019.
Jalolov, M. Lingvistik tadqiqot metodlari. – Toshkent: Akademnashr, 2017.
Karimova, V. Ayol nutqidagi ijobiy lingvistik formulalar. – Toshkent: Fan, 2021.
Duolar, https://t.me/xazon_rezgi [04.07.2025 21:15]

BAHO KATEGORIYASI VA UNING OLAM LISONIY MANZARASIDA VOQELANISHINING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI

Toshtonov Soyibjon Abdusami o‘g‘li,
AndDCHTI, Ingliz tili o‘qitishning integrallashgan kursi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotasiya: Mazkur maqola tilshunoslikdagi kognitiv yo‘nalish doirasida shakllangan emotsional konsept tushunchasining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil etishga bag‘ishlangan. Unda emotsiya hodisasi va u bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan baho kategoriyasining lingvistik mohiyati tadqiq etiladi. Shuningdek, emotsiyalarni nomlovchi leksik birliklarning konnotativ tarkibi turli lingvomadaniyatlarda qanday mazmuniy farqlar kasb etishi ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kognitiv, emotsional konsept, leksik-frazeologik, baho mezonlari, lingvoma daniyat, intensivlik va baholash darajasi, metaforik maydon, kommunikativ faoliyat.

ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КАТЕГОРИИ ОЦЕНКИ И ЕЕ РАСПРОСТРАНЕНИЕ В МИРОВОМ ЯЗЫКОВОМ ЛАНДШАФТЕ

Аннотация: Данная статья посвящена анализу теоретических и практических аспектов понятия эмоционального концепта, сформировавшегося в рамках когнитивного направления лингвистики. В ней исследуется лингвистическая сущность эмоции и тесно связанной с ней категории оценки. Кроме того, проводится научный анализ того, каким образом коннотативная структура лексических единиц, называющих эмоции, приобретает различное семантическое содержание в разных лингвокультурах.

Ключевые слова: когнитив, эмоциональный концепт, лексико–фразеологичес кий, критерии оценки, лингвокультура, интенсивность и скорость оценки, метафорическое поле, коммуникативная деятельность.

LINGUICOGNITIVE FEATURES OF THE GRADING CATEGORY AND ITS OCCURENCE IN THE WORLD LINGUISTIC LANDSCAPE

Annotation: This article is devoted to the analysis of the theoretical and practical aspects of the concept of emotional concept, which has emerged within the framework of the cognitive approach in linguistics. It studies the linguistic nature of emotion and the category of evaluation that is closely related to it. Furthermore, the study provides a scientific analysis of how the connotative structure of lexical units denoting emotions acquires different semantic meanings across various linguocultures.

Key words: cognitive, emotional concept, lexico-phraseological, evaluation criteria, linguistic culture, intencity and rate assessment, metaphorical field, communicative activity.

Kirish. Kognitiv lingvistika doirasida shakllangan emotsional konsept nazariyasi emotsiya va baho kategoriyalarining lingvistik tahlilida sifat jihatidan yangi yondashuvni boshlab bergan konseptual burilish sifatida talqin etilishi mumkin. Emotsional konsept, N.A.Krasavskiyning ta’rificha, etnik va madaniy jihatdan xoslangan, odatda, leksik-frazeologik voqelangan murakkab mazmuniy-struktura va mental tuzilma bo‘lib, u o‘z tarkibiga obraz, madaniy qadriyat hamda kommunikatsiya sharoitida insonning alohida munosabatini uyg‘otuvchi predmetlarni qamrab oladi.

Birinchi darajali emotsiyalarning universalligi haqidagi fikrni inobatga olgan holda, emotsional konseptlar ham kognitiv universaliyalar tarkibiga kiradi, deb taxmin qilish mumkin. Chunki emotsiya insoniyatga xos umumiy tajriba sifatida madaniyatlararo muloqotni ta’minlaydi. Biroq emotsional konseptlarning milliy-madaniy determinatsiyalanganligi ularning to‘liq universallashuviga to‘sqinlik qiladi. Bu holatning ildizi har bir madaniyatning o‘ziga xos baholash

mezonlari va qadriyatlar tizimi bilan belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. A.Verjbitskaya “Til. Madaniyat. Bilish” nomli kitobida emotsional konseptlarning odamzot uchun universal xarakterga ega ekanligini turli millat vakillari olamni bir xilda idrok etishi va ularning tafakkur usullari bir xil ekanligi bilan isbotlamoqchi bo‘ladi. Ammo voqelik idroki turli madaniyatlarda bir tekisda kechmasligi barchaga ma’lum, bu yerda madaniyatlararo paralellar mavjudligi bilan bir qatorda, butunlay farqli holatlar borligini inkor etib bo‘lmaydi. Buni, hatto emotsiyalarni atovchi lug‘aviy birliklarning konnotativ bo‘laklari turli lingvomadaniyatlarda turlicha mazmunga ega bo‘lishida ham ko‘rish mumkin. Masalan, individual self konsepti bilan bog‘liq “dunyodan kechish” yoki “ajralish” kabi emotsional holatlar amerikalik shaxs uchun tabiiy va tushunarli bo‘lsa, o‘zbek madaniy muhitida bunday holat begona va tushunarsiz sifatida qabul qilinadi. Xuddi shuningdek, family self va spiritual self kabi emotsional konseptlar ham asosan amerikaliklarning madaniy-psixologik tipiga xos bo‘lib, oilaviy ahillik, ota-ona va farzand o‘rtasidagi mehr-muhabbat tamoyillariga asoslangan o‘zbek dunyoqarashi uchun ular qabul qilish yoki idrok etish nuqtayi nazaridan murakkab bo‘lishi mumkin. Shunga o‘xshash misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin. Shunday ekan, tushunchalarning xalqaro yoki madaniyatlararo universalligini e’tirof etish bilan birga, ularning milliy-madaniy hamda idioetnik xususiyatlarini ham nazardan qochirmaslik zarur. Chunki millat ruhi va milliy ong mavjud madaniy konseptlarda o‘z ifodasini topadi.

V.I.Shaxovskiy ta’kidlaganidek, etnomadaniy bilim kommunikativ kompetensiyani shakllantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. “Inson his tuyg‘ulari, madaniyat ko‘satkichi sifatida turli lingvomadaniyatlar vakillarining turli xatti-harakatlari usul va amallarida voqelanadi. O‘z va o‘zga madaniyatiga xos emotsiyalar o‘rtasida farqlarni anglash emotsional shaxs xotirasini shakllantiradi”.1

Emotsional konseptlar, boshqa turdagi konseptlardan farqli ravishda, keng miqyosda o‘rganilgan emas. Ushbu tushuncha A.Vejbitskaya, S.G.Vorkachev, E.Y.Balashova, A.P.Babushkin, V.N.Teliya kabi olimlarning ishlarida ta’kidlanishiga qaramasdan, emotsional konsept ta’limoti yaxlit bir nazariya sifatida shakllantirilmadi. Mazkur hodisa birmuncha batafsilroq N.V.Krasavskiyning monografiyasida yoritilgan bo‘lib, unda qo‘rquv, xursandchilik, g‘azab, qayg‘u, emotsional konseptlari rus va nemis lingvomadaniyatlarida qiyosiy o‘rganilgan. Mazkur bo‘limda emotsional konseptlarning etimologik-madaniy tahlili lug‘atlarda keltirilgan misollar asosida izohlangan bo‘lib, bu yondashuv konseptlarning madaniy semantik qatlamlarini aniqlashga xizmat qiladi.

I.S.Bajenova tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda ham ayrim birlamchi emotsiyalarning rus badiiy matnlarida faollashuv xususiyatlari o‘rganilgan. Mualliflarning fikricha, emotsional konseptning asosiy tarkibi bir necha tarkibiy qismlardan obraz, assotsiatsiya, baho va shaxsning emotsional konsept haqidagi kognitiv tasavvuridan iborat bo‘lib, ular orasida baho komponenti markaziy o‘rin tutadi. Aynan ushbu baho qismi konseptning muayyan lingvomadaniyatdagi o‘rni, unga nisbatan lisoniy ongda shakllangan emotsional munosabat va assotsiativ tarmoqlarni ifodalaydi. Obrazga oid qismi esa milliy lisoniy ongdagi mavhumlashtirish jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi kognitiv metaforalarni shakllantiradi. Shu jihatdan, emotsional konseptlar inson tafakkuridagi kognitiv, baho va obrazli qatlamlarning o‘zaro integratsiyasini ifodalovchi murakkab mental birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, V.I.Karasik va I.A.Sternin tahriri ostida nashr qilingan “Антология концептов” tezaurusida ham emotsional konseptlarga izohlar berilib, insonlarning lisoniy ongida va kommunikativ faoliyatida aks etuvchi “madaniy mazmunlar” yoritilgan. Mazkur lug‘atda qo‘rquv, muhabbat, nafrat, hayratlanish, sog‘inch kabi emotsional konseptlar ikki tilda qiyoslanib tavsiflanadi, bu esa emotsional konseptlarning milliy-madaniy tafovutlarini aniqlash imkonini beradi.

Muhokama. Shu asosda, ushbu maqolada hayrat/surprise emotsional konseptining o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatlarida namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil etilib, ularning leksik, semantik va madaniy aspektlari qiyosiy tahlil asosida yoritiladi.

Mazkur konsept ingliz tilida ot turkumiga kiruvchi surprise so‘zi bilan nomlanadi va “the feeling caused by an unexpected event (LDCE)” ma’nosini anglatadi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi hayrat oti ham “hayronlik, tong qolish, dovdirab, gangib qolish. Kuchli darajadagi taajjub, hayronlik” ma’nolarini ifodalaydi. Mazkur emotsional konseptni ifodalovchi nominatorlar tizimi ingliz tilida wonder, amazement, astonishment, be surprised, marvelous, be amazed, magic kabi birliklarni, o‘zbek tilida esa hayratlanish, taajjublanish, taajjub, hayron qolish, mahliyo bo‘lish, tong qolish, sehrgarlik, maftunkorlik, mo‘jiza kabi leksik vositalarni o‘z ichiga oladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, hayrat va taajjub leksik birliklari konseptual nominativ maydonning markazida joylashgan bo‘lishiga qaramay, ularning ma’no ifoda darajasi sezilarli darajada farqlanadi. O‘zbek lisoniy ongida hayrat biror voqea yoki hodisaning kutilmaganligi, noodatiyligi yoki favqulodda xususiyati natijasida paydo bo‘ladigan his-hayajon sifatida talqin etiladi. Taajjub esa bu holatning yuqori darajadagi, kuchaytirilgan emotsional shakli bo‘lib, hayratning cho‘qqisini ifodalaydi.

Ingliz tilidagi nominativ maydon markazida joylashgan surprise, wonder, amazement, astonishment kabi birliklar esa intensivlik va emotsional baholash darajasi bilan bir-biridan farqlanadi. Surprise asosan kutilmagan voqea-hodisani bildiradi va semantik jihatdan nisbatan betaraf emotsional ohangga ega. Wonder esa anglamaslik yoki tushunmaslik holatidan kelib chiqadigan hayratni ifodalaydi va ko‘pincha obyektning ijobiy xususiyatiga ishora qiladi.

J.Sh.Jumaboyeva ta’kidlaganidek, emotsional konseptlarning bunday semantik gradatsiyasi ularning lingvomadaniy konnotatsiyalarini ham belgilaydi. Shu tariqa, hayrat/surprise konsepti har ikkala til madaniyatida umumiy emotsional tajriba sifatida mavjud bo‘lsa-da, ularning mazmunan boyligi va baho yo‘nalishi madaniy tafakkur tizimiga xos tarzda farqlanadi, ya’ni “tabiatning fundamental qonunlariga asoslangan holatlar o‘xshashlik va farqlilik hamisha hamda hamma joyda mavjud. Insoniyat taraqqiyoti, xususan, har bir fanning rivojlanishi ham ularga bevosita bog‘liq. So‘z, ibora, frazeologik birlik va gaplardagi mazmun va ma’no o‘xshashligi hamda farqli jihatlar matnlarda namoyon bo‘ladi”. Olima ingliz tilidagi good-looking, beautiful, attractive, pretty, charming, graceful, elegant, lovely, gorgeous hamda o‘zbek tilidagi chiroyli, go‘zal, sohibjamol, parivash graduonimik qatoridagi birliklar bir-biridan intensivlik darajasiga va ishlatilish ko‘lamiga ko‘ra farqlanuvchi leksemalar ekanligini qayd etadi.

Rus tadqiqotchisi N.V.Dorofeeva ingliz tilidagi surprise/wonder/ amazement/astonishment qatorining rus tilidagi udivlenie/izumlenie leksemalariga nisbatan muqobilligi qisman ekanligi nafaqat lug‘atlardagi tavsiflarda, balki matnda ham namoyon bo‘lishini ta’kidlab o‘tadi. Bizning kuzatishimizcha, o‘zbek lingvomadaniyatidagi hayrat birligi ingliz tilidagi wonder yoki amazement yoki astonishment elementlari bilan moslashadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, hayrat/surprise emotsional konsepti doirasida oy, oho, vah, ura, ana xolos, adh, oh, ha-ha, wow kabi ekspressiv undovlarning faol qo‘llanilishi tabiiy hodisadir. Taajjub va amazement leksemalari orqali ifodalanadigan hayrat konsepti ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatlari uchun umuminsoniy emotsional tajribani aks ettiradi. Shu bilan birga, metaforik nominatorlar tizimi bu konseptning bevosita nominatorlariga tayanadi hamda semantik va struktur jihatdan ularning modelini takrorlaydi. Natijada, metaforik maydon hayrat emotsiyasini inson organizmi va ichki kechinmalaridagi holatlar bilan tenglashtiruvchi obrazlar orqali ifodalaydi. Bular, gobstruck, to freeze, to dumbfound hamda ajablantirmoq, dovdirab qolmoq, esankiratmoq, qotib qolmoq, lol qolmoq kabilardir. Bundan tashqari, tahlil qilinayotgan emotsional konsept doirasidan qator frazeologik iboralar ham o‘rin topadi.

Masalan, To work/do wonders/marvels; To be out one mind; What a wonder/marvel/miracle; Magic: Wonders never cease; Mo‘jiza yaratmoq; Aqldan ozish mumkin; Hayrat barmog‘ini tishlamoq; Ushbu emotsional konseptning metaforik maydoni boshqa birliklar hisobidan kengayib boradi: It hit me like a ton of bricks; It knocked me for a loop/sideways/for six; Have you been eating soap? It beets me, it’s beyond me; Out of the blue sky.

Shuningdek, ba’zi undovlar ham shu maydonda metaforalashadi: Oh/my god! Holy Mother!

Virgin! God fathers! Ey xudo! Ollohim! Yo robbim!

Emotsional konseptlarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, muayyan hissiyotlarning konseptuallashuvi turli obrazlar va ramzlar vositasida amalga oshadi. Shunga ko‘ra, bu konseptlarning til tizimidagi ifodalanishida tilning barcha sathlariga oid fonetik, leksik, morfologik va sintaktik birliklar ishtirok etadi. Bunday holatning sababi shundaki, emotsiyalar voqelik obyektlari bilan keng qamrovli assotsiativ aloqalarga ega bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, lisoniy ongning ijodiy imkoniyatlari cheksiz ekanligini namoyon etadi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, hozirgi davrga qadar emotsional konseptlarning tavsifiy va tahliliy o‘rganilishi nisbatan kam bo‘lsa-da, ularning mohiyati aslida insonning ichki kechinma va tuyg‘ularining konseptuallashuvi natijasida shakllanadigan mental tuzilmalar sifatida talqin etilishi mumkin. Shu jihatdan, emotsional konseptlarni tahlil qilish bo‘yicha tadqiqotlar istiqboli keng bo‘lib, ayniqsa matnlarning konseptual mazmunidagi emotsional qatlamlarni o‘rganish masalasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Антология концептов. – М.: “ Гнозис”, 2007. – с. 52.

2. Баженова М. Эмоции, прагматика, текст. – М.: Менеджер”, 2003. – с. 392. 3. Вербицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: “Гнозис”, 1996.

4. Дорофеева Н.В. Удивление как эмоциональный концепт (на материале русского и английского языков). Автореферат диссерт. канд.филолог.наук, –Волгоград, 2002. – с. 19. 77

5. Jumaboyeva J.Sh. O‘zbek va ingliz tillarida leksik hamda stilistik graduonimiya. Filol. fanlari... dokt. diss. avtore ferati, – Toshkent, 2016. – 19-bet.

6. Красавкин Н.А. Эмоциональные концепты в немецкой и русской лингвокультурах. – М., “ Гнозис”, 2008. – с. 59.

7. Сорокин Я.А. Межличностное общение и его этнокультурная специфика. Герменевтика и риторика в России: www.hermineuticsonline. Net 2002, № 1.

8. Шаховский В.И. Эмоции. Лингвистика. Лингвокультурология. – М., URSS, 2010. – с. 95.

9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2008, 5-jild. – 485 b.

INFORMATIKANI O‘QITISHDA IMITATSIYALARGA ASOSLANGAN AXBOROTLARNI MODELLASHTIRISHNING NAZARIY KO’RINISHI

Qahramonova Xumora Qahramonovna,
Qarshi davlat texnika universiteti, Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Informatikani o‘qitishda imitatsiyalarga asoslangan axborotlarni modellashtirishning nazariy ko’rinishini oliy ta’limda o‘qishning dastlabki bosqichida samarali amalga oshirishga imkon bermasligini hisobga olib, bu bo‘shliqlarni to‘ldirishga imkon beradigan murakkablik darajasi oshib boradigan maxsus vazifalardan foydalanilgan hamda o‘quv jarayonida ular maxsus ishlab chiqilgan qator vazifalarni hal etishlari, bir tomondan mustaqil fikrlagan holda tanqidiy yondashuvni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bo‘lajak mutaxassislarni ehtimoliy bajarishi kerak bo‘lgan faoliyatni sifatli bajarishga qaratilganligi haqidagi ma’lumotlar keltirib o’tilgan.

Kalit so`zlar: imitatsiya, modellashtirish, metodika, imitatsion xarakter, diskret ielement, uzluksiz element, tamoyillar.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ МОДЕЛИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИИ, ОСНОВАННОГО НА ИМИТАЦИЯХ В ОБУЧЕНИИ ИНФОРМАТИКЕ

Кахрамонова Хумора Кахрамоновна,
Доцент кафедры информационных систем и технологий Каршинского государственного технического университета

Аннотация. В данной статье учитывается, что при преподавании информатики теоретические аспекты моделирования информации на основе имитаций не могут быть эффективно реализованы на начальном этапе высшего образования. Для заполнения этих пробелов использовался ряд специально разработанных заданий с постепенно возрастающим уровнем сложности. В процессе обучения выполнение этих заданий направлено, с одной стороны, на развитие самостоятельного и критического мышления, а с другой — на подготовку будущих специалистов к качественному выполнению потенциально необходимых им профессиональных действий.

Ключевые слова: имитация, моделирование, методика, имитационный характер, дискретный элемент, непрерывный элемент, принципы

THEORETICAL ASPECTS OF INFORMATION MODELING BASED ON SIMULATIONS IN TEACHING INFORMATICS

Kahramonova Khumora Kahramonovna,
Associate Professor, Department of Information Systems and Technologies, Karshi State Technical University

Annotation. This article presents information indicating that, in teaching informatics, the theoretical aspects of information modeling based on simulations cannot be effectively implemented at the initial stage of higher education. To address this gap, a series of specially designed tasks with increasing levels of complexity were used. In the learning process, these tasks not only aim to develop independent and critical thinking skills but also focus on preparing future specialists to perform their potential professional activities with high quality.

Key words: imitation, modeling, methodology, imitative character, discrete element, continuous element, principles

Kirish. Jahonda rivojlangan davlatlarning ta’lim tizimi taqdim etilayotgan har qanday

materiallarni qayta ishlashda ta’lim oluvchilarni axborot modellari bilan ishlashga o‘rgatmasdan turib erishib bo‘lmasligini qayd etadi. Axborotlar bilan ishlashga yo‘naltirilgan pedagogik metodikalarni izlash va rivojlantirishning ustuvor vazifasi uni obrazli idrok etishga asoslanganligi sir emas. Ma’lumki, axborotlarni imitatsion modellashtirish nafaqat o‘qituvchi tomonidan foydalaniladigan samarali didaktik vosita sifatida, balki shakllantiriladigan ko‘nikmalar ko‘rinishida hamda ishlab chiqilgan axborot modellarini tanqidiy tahlil qilishga o‘rgatish, ularni shu kabi modellarni mustaqil ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Turli muammolar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish va ularni model ko‘rinishiga keltirish, ko‘rgazmali tarzda tasavvur etish - ularni hal etish imkoniyatini yaratadi. Shu nuqtai nazardan talabalar bunday tasavvur etish ko‘nikmlaraiga ega bo‘lishi kerak. Masalan, talabalarni axborot tayyorgarligi jarayonida ularning umumiy o‘rta ta’lim maktabilarida kerakli darajada axborot texnologiyalaridan fundamental bilimga ega ekanliklariga tayanamiz. Imitatsiyalarga asoslangan axborot modellashtirishni oliy ta’limda o‘qishning dastlabki bosqichida samarali amalga oshirishga imkon bermasligini hisobga olib, bu bo‘shliqlarni to‘ldirishga imkon beradigan murakkablik darajasi oshib boradigan maxsus vazifalardan foydalanamiz .

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Talabalarda imitatsion modellar shakllantirishga oid bir qancha izlanishlar olib borilgan bo‘lib, M.A. Fayziyev talabalarning bilim va ko‘nikmalarini kompyuter imitatsion modeli asosida shakllantirish metodikasi, tushunchalarni mantiqiy sxemasiga doir kompyuter imitatsion modelni yaratish masalalarini tadqiq etgan.

J.Y.Suyumov esa kompyuter imitatsion modellari asosida faol o‘qitish texnologiyasining nazariy asoslari, imitatsion xarakterli xususiyatlar, imitatsion modellarning o‘yinli o‘qitish, kasb-hunarga o‘qitish (informatika, kompyuter texnologiyalari va kompyuter texnologiyalari) ixtisosligi bo‘yicha o‘qituvchilarni kompyuter imitatsion modellar yordamida o‘qitish, asosan, bilimlarning turli sohalardagi o‘yinlardan tashqari imitatsiya usullari asosida olib borilishi haqida o‘z tadqiqotlarida keltirib o‘tgan.

Tahliliy modellashtirishga nisbatan imitatsion modellashtirishning asosiy afzalligi murakkabroq masalalarni yechish imkonining mavjudligi hisoblanadi. Imitatsion modellar diskret va uzluksiz elementlarning mavjudligi, tizim elementlarining egri chiziqli xarakteristikalari, ko‘plab tasodifiy ta’sirlar va boshqa tahliliy tadqiqotlarda qiyinchiliklarni tez-tez yuzaga keltiradigan omillarni hisobga olish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda imitatsion modellar - katta tizimlarni tadqiq qilishda eng samarali bo‘lib, ba’zida tizim haqida, ayniqsa, uni loyihalash bosqichida axborotni olishda yagona amaliy ommabop usul hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. “Shaxsning rivojlanish sur’ati va darajasi irsiyatga, ta’lim-tarbiya muhitiga, ta’lim faoliyatiga qo‘shilish, qo‘llaniladigan pedagogik ta’sirning vositalari va usullariga bog‘liq”.

Imitatsiyalarga asoslangan axborotlarni modellashtirish strategiyasida oliy kasbiy ta’lim tizimida samarali foydalanilishi mumkin bo‘lgan vazifalarni shakllantirish va faollashtirish bankining bir qator vazifalari ishlab chiqilgan.

Ta’lim-tarbiyani boshqarishning o‘ziga xos jihatlari. Ushbu jihatlar shundan iboratki, “pedagogik ta’sirning samaradorligi talabalar va pedagoglar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning intensivligiga, shuningdek, talabalardagi korreksiyalovchi harakatlarning hajmi, tabiati va asosliligiga bog‘liq”. Imitatsiyalarga asoslangan axborotlarni modellashtirish strategiyasi talabalarning doimiy harakatlarini o‘z ichiga oladi.

Hissiy, mantiqiy va amaliyotning pedagogik jarayonda birligi, uning samaradorligi sezgi idrokining intensivligiga, sifatiga, mantiqiy qabul qilinadigan amaliy foydalanishni mantiqiy tushunish hamda o‘zlashtirilishiga bog‘liqdir. Ta’lim jarayonida xatti-harakatlarning meyorlari va qoidalari, bilim va ko‘nikmalarini aniq o‘zlashtirishni ta’minlash uchun hissiyot, aql va harakatni uyg‘unlashtirish kerak. Agar o‘quvchi o‘qituvchini unga o‘rgatmoqchi bo‘lgan narsasini his etmasa, befarq va passiv bo‘lsa, unda ta’lim berishning muvaffaqiyati haqida gapirish o‘rinli emas. Faqat

barcha holatni bitta harakatga birlashtirgan holdagina, pedagog muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Talabalarning axborot modellashtirishdagi faoliyati pedagogik jarayonda mantiq va amaliyotni uyg‘unlashtirish talablariga javob beradi, imitatsiyalarga asoslangan axborotlarni modellashtirish strategiyasi ushbu ikki komponentga emotsionallikni taqdim etadi.

O‘quv materialining hissiy idrok etishni yaxshilash uchun turli shakl va o‘quv qo‘llanmalardan foydalanamiz. Xususan, multimediyada qo‘llanilgan va video yoki modulli darslar yaxshi jihatlari bilan ko‘zga tashlanadi, pedagogik faoliyatda hazil-mutoyibadan foydalanish talabalarning hissiy sohasiga ta’sir ko‘rsatadi.

Tashqi-pedagogik va ichki bilish faoliyatning birligi qonuniyati. Pedagogik jarayonning samaradorligi pedagogik faoliyatning sifati - o‘quvchilarning shaxsiy o‘quv faoliyati sifati bilan shartlanadi.

Pedagog qanchalik yaxshi bo‘lmasin, o‘z predmetini qanchalik yaxshi bilmasin va o‘qitishga qanchalik intilmasin, agar uning harakatlari befarqlik va beparvolikka olib keladigan bo‘lsa, hech qanday muhim natijani kutib bo‘lmaydi. Xuddi shu tarzda, qiziquvchan, izlanuvchan, iqtidorli talaba “o‘z istagan o‘qituvchisini topa olmasligi mumkin”. Har bir talaba o‘z o‘qituvchisini topishi kerak, har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini topishi kerak” deb aytilishi haqiqatdir. Tasodifiy yoki ixtiyoriy eslab qolish - oldindan aytib bo‘lmaydigan maqsadsiz, hech qanday usullardan foydalanmasdan eslab qolishdir. Bu insonga ta’sir qilgan narsalarni oddiy aks etishi va miya qobig‘ida hayajon izlarini saqlanib qolishidir. Ixtiyoriy eslab qolish, beixtiyor eslab qolishdan farqli o‘laroq, inson o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yganligi – belgilangan narsani eslab qolish va buning uchun maxsus eslab qolish texnikasidan foydalanishi bilan tavsiflanadi. Boshqa teng sharoitlarda ixtiyoriy eslab qolish, beixtiyor eslab qolishga qaraganda sezilarli tarzda mahsuldordir. Ammo, eslab qolish muammosida ixtiyoriy va beixtiyor eslab qolish o‘rtasida bir qiymatli bog‘liqlik yo‘q. Eksperimentlar quyidagi xulosalar chiqarishga imkon berdi: «eksperimentlarda eslab qolishni aniqlaydigan asosiy shart bu fanlarning asosiy yo‘nalishi, mazkur faoliyatga yo‘naltirgan motiv, sabab. Faoliyatdagi qiyinchiliklarda nima to‘siq sifatida paydo bo‘lganini yaxshi eslab qolinadi”

Tahlil va natijalar. Har bir hodisa va obektlarni modellashtirish ta’lim oluvchilar qiziqishlariga sabab bo‘lishi tabiiydir. Bu ham o‘quv jarayonida ular maxsus ishlab chiqilgan qator vazifalarni hal etishlari, bir tomondan mustaqil fikrlagan holda tanqidiy yondashuvni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bo‘lajak mutaxassislarni ehtimoliy bajarishi kerak bo‘lgan faoliyatni sifatli bajarishga qaratilganligidir.

Қодиров П. Тил ва дил. – Т.: Ўзбекистон, 1972. – 40 б.

Қодиров П. Тил ва эл. – Т.: Ғафур Ғулом, 2005. – 248 б.

Қодиров П. Тил, тарих, муҳаббат.//Ёшлик журнали, 1989-йил 5-сон, 41-бет

Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза.–Т.: Фан, 1973.–Б.4

Қодиров П. Яшашнинг маъноси. //Шарқ юлдузи1990-йил, 12-сон

Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. –М.:Аспект пресс, 1996.–С. 29

ERKALASHNI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MASALALARI

Xodjayeva Shoira Rustamovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada Uilyam Shekspirning “Romeo va Julyetta” hamda “Hamlet” asarlaridagi erkalashni ifodalovchi frazeologik birliklarning o‘zbekcha tarjimalari tahlil qilinib, qo‘llanilgan tarjima strategiyalari va madaniy moslik omillari o‘rganilgan. Erkalashni ifodalovchi frazeologik birliklar insoniy his-tuyg‘ular, mehr va samimiyatni aks ettiruvchi badiiy vosita sifatida tarjimada muhim o‘rin tutadi. Ular nafaqat lingvistik, balki madaniy komponentlarga ega bo‘lgani sababli, o‘zbek tiliga tarjima qilishda ularning ekvivalentini topish, ma’nosini yo‘qotmaslik va milliylikni saqlab qolish masalalariga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, maqolada erkalash iboralarining tarjimasida kontekst va madaniyatlararo tafovutlarning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari tarjima amaliyotida erkalovchi frazeologik birliklarni to‘g‘ri tarjima qilishga ilmiy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: erkalash, frazeologik birliklar, badiiy tarjima, tarjima strategiyasi, ekvivalent, analog, madaniy kontekst, Shekspir.

ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, ВЫРАЖАЮЩИХ ЛАСКУ, НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Ходжаева Шоира Рустамовна
Независимый исследователь Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Аннотация: В статье рассматриваются переводы фразеологических единиц, выражающих ласку, в узбекских интерпретациях произведений Уильяма Шекспира «Ромео и Джульетта» и «Гамлет». Проанализированы используемые переводческие стратегии и факторы культурной адаптации. Фразеологизмы, передающие ласку, играют важную роль в художественном переводе как средство выражения человеческих чувств, нежности и искренности. Поскольку они обладают не только лингвистической, но и культурной составляющей, внимание уделяется вопросам поиска эквивалентов, сохранения значения и национальной окраски при переводе на узбекский язык. Также подчеркивается значимость контекста и межкультурных различий. Результаты исследования послужат научной основой для адекватной передачи таких фразеологических единиц в практике художественного перевода.

Ключевые слова: ласка, фразеологические единицы, художественный перевод, переводческая стратегия, эквивалент, аналог, культурный контекст, Шекспир.

CHALLENGES IN TRANSLATING PHRASEOLOGICAL UNITS EXPRESSING ENDEARMENT INTO THE UZBEK LANGUAGE

Khodjaeva Shoira
Independent researcher Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

Abstract: This article analyzes the Uzbek translations of phraseological units expressing endearment found in William Shakespeare’s ‘Romeo and Juliet’ and ‘Hamlet’. It examines the translation strategies employed and the role of cultural adaptation. Endearment-related idioms serve as an important artistic tool in conveying human emotions, tenderness, and sincerity, making them vital in literary translation. Since such expressions encompass both linguistic and

cultural components, the study focuses on identifying appropriate equivalents in Uzbek, preserving meaning, and maintaining cultural identity. The article also highlights the importance of context and cross-cultural differences in translation. The research provides a scholarly foundation for the accurate and culturally sensitive translation of endearment-related phraseological units in literary practice.

Keywords: endearment, phraseological units, literary translation, translation strategy, equivalent, analogue, cultural context, Shakespeare

Kirish. Tarjimashunoslikda frazeologik birliklarning tarjimasi murakkab va nozik masalalardan biri hisoblanadi va tarjimondan alohida ijodiy yondashuv talab qiladi. Frazeologik birliklarni tashkil etuvchi idioma, maqol, matal, qanotli so‘zlar, barqaror metafora va kollokatsiyalar (so‘z birikmalari) ma’noviy yaxlitlikka ega bo‘lgani bois, ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish semantik noaniqlikka olib kelishi mumkin. Frazeologizmlarning tarjimasida nafaqat ularning ko‘chma ma’nosini aniqlash, balki shu mazmunni tarjima tilida aks ettiruvchi uslubiy va madaniy jihatdan ekvivalent vositani topish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa badiiy tarjimada frazeologik birliklar obrazlilik, ekspressivlik va estetik ta’sirni kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qilgani bois, badiiy tarjimondan manba va maqsad tillarini chuqur bilish, ularning madaniyati va hayot tarzini anglash, mos tarjima strategiyalarini puxta qo‘llagan holda ularni maromiga yetkazib tarjima qilish talab etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ingliz frazeologiyasining yirik mutaxassisi A.V. Kuninning yozishicha, ingliz tiliga kiritilgan frazeologizmlarning soni bo‘yicha Shekspir asarlari Injildan keyin ikkinchi o‘rinni egallar ekan (Kunin, 1996). Darhaqiqat, Shekspir o‘z asarlari orqali ingliz tiliga green-eyed monster (“Otello”), break the ice (“Qiyiq qizning quyilishi”), heart of gold (“Henry V”), love is blind (“Venetsiya savdogari”), it’s Greek to me (“Yuliy Sezar”), wild-goose chase (“Romeo va Julyetta”), a fool’s paradise (“Romeo va Julyetta”), have an itching palm (“Yuliy Sezar”), midsummer madness (“O‘n ikkinchi kecha”), the observed of all observers (“Hamlet”) kabi ko‘plab frazeologizmlarni kiritgan. Asarlardagi aksariyat iboralar (Masalan, To be, or not to be, that is the question; Something is rotten in the state of Denmark; All the world’s a stage, And all the men and women merely players…) qanotli iboralarga aylanib, hozirgi kunda ham turli vaziyatlarda keng qo‘llaniladi.

Turli tarjimashunos va tilshunos olimlar frazeologik birliklarning tasnifi va tarjimasi borasida ilmiy izlanishlar olib borib, ularni tarjima qilish bo‘yicha usul va strategiyalarni taklif qilganlar. V. Komissarov frazeologik birliklarning tarjima qilishning eng ma’qul usullaridan frazeologik ekvivalent va frazeologik analoglar topish va kalkalashni ajratib ko‘rsatadi (Komissarov, 2001).

P. Nyumark metaforalarni oltita guruhga ajratib, ularning turiga qarab madaniy ekvivalent, so‘zma-so‘z tarjima, qisqartirish, tushirib qoldirish, perifraza kabi tarjima usullarining afzalligini misollar yordamida ko‘rsatadi. Olim vaziyat taqozo qilganda (masalan, boshqa hech bir tarjima usuli orqali matndagi xabarning emotsionalligini va undovini uzatish imkoni bo‘lmaganda) qavs ichida tasviriy tarjima yoki izoh berish ma’qulligini ta’kidlaydi (Newmark, 1988).

Tarjimashunos olim M. Beyker idiomalarning tarjimasida ularning ekvivalentini tanlash, analogini topish, perifraza qilish va tushirib qoldirish (omission) usullarini ustuvor deb belgilaydi (Baker,1992).

I. G‘afurov, O. Mo‘minov, N. Qambarovlarning bu boradagi qarashlariga ko‘ra, frazeologik birliklar bir tildan boshqa tilga: 1. Grammatik, semantik va uslubiy moslashishlar orqali; 2. Semantik ekvivalentlar orqali; 3. Kalka orqali; 4. Tasviriy (bayon) tarjima orqali tarjima qilinadi (Gofurov, Mominov & Qambarov, 2012).

Bizning fikrimizcha, badiiy tarjimada frazeologik ekvivalent va analog tanlashga ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak va tanlangan tarjima usuli muallifning maqsadini to‘liq aks ettirmog‘i lozim. Shuningdek, frazeologik birliklar tarjimada madaniy, pragmatik va funksional jihatdan

mos bo‘lishi ham maqsadga muvofiq. Buning uchun tarjimon frazeologik birlikni matnda aniqlab bilishi va ularning ma’nosi oydin bo‘lgan taqdirda ham, frazeologik lug‘atlar yordamida ko‘chma ma’nosini yana bir bor tekshirib olishi kerak. Badiiy tarjimon tarjima mas’uliyatini to‘liq his qilib yondashgan taqdirdagina, go‘zal va adekvat tarjima mahsuli yaratiladi.

Natijalar. Tadqiqotimizning obyekti bo‘lmish Shekspirning “Romeo va Julyetta” va “Hamlet” asarlaridan tanlab olingan erkalashni ifodalovchi frazeologik birliklarning tarjimalari va qo‘llangan tarjima usullarini tahlilga tortamiz. Quyidagi parcha mashhur balkon sahnasidan olingan:

U. Shekspir *(Act 2 Scene 2)*	*JULIET* *Three words, dear Romeo, and good night indeed.* *…* *And **all my fortunes at thy foot I’ll lay*** *And follow thee my lord throughout the world.*
M.Shayxzoda tarjimasi *(73-bet)*	*JULYETTA* *Ikki og‘iz gap: undan so‘ng, xayr Romeo.* *…* *Undan so‘ngra, **oyog‘ingga poyondoz bo‘lay** –* *Egamsan, – deb boray sen-la qayerga desang*
J. Kamol tarjimasi *(53-bet)*	*JULYETTA* *Ikki og‘iz so‘z, Romeo, so‘ng xayrli tun,* *…* ***Butun borlig‘imni so‘ngra ayamam sendan**,* *Shu dunyoda qayga desang, borgum izingdan.*

Navbatdagi parchamiz “Hamlet” asaridagi Ofeliyaning dafn marosimida Malika Gertruda nutqidan:

U. Shekspir *(Act 5 Scene 1)*	*QUEEN GERTRUDE* ***Sweets to the sweet**: farewell!* *(Scattering flowers)* *I hoped thou shouldst have been my Hamlet’s wife;*
M.Shayxzoda tarjimasi *(216-bet)*	*MALIKA (tobut ustiga gullar sochib)* ***Nafosat nafisaga qismat bo‘lsin**, ol!* *Tinch uxlagin. O‘ylardim bir kuni seni –* *Hamletga qallig‘ qilib arkka keltirsam.*
J. Kamol tarjimasi *(359-bet)*	*MALIKA (tobut ustiga gullar sochib)* ***Gulga gul joiz.*** *Xayr, jonim, yotgan yering jannatda bo‘lsin.* *Seni kelin qilarman, deb orzu etgandim.*

Muhokama. Birinchi parchadagi “all my fortunes at thy foot I’ll lay” inversiv frazeologik ibora tarkibida lay something at one’s feet – to hold someone responsible for something (6), ya’ni biror kimsaning zimmasiga mas’uliyat yuklamoq; mas’ul qilmoq (– bizning tarjima); something o‘rnida fortune – 1) position, worth, means, assets, holdings, wealth, property, estate, possessions; wealth, riches, affluence, opulence, treasure, money, prosperity: 2) luck, chance, fortuity; lot, fate, destiny, karma; future (7), ya’ni, umumiy qilib aytganda, boylik, omad, baxt, taqdir, mulk

ma’nolarini anglatuvchi polisemantik so‘z qo‘llangan. Shunday ekan, ushbu ibora tom ma’noda borini kimningdir poyiga tashlamoqni anglatadi.

Ushbu sahnada Julyetta nikohdan keyin Romeoga qayga desa izidan ergashishini izhor aylab, borini berishga tayyorligini aytadi. Demak, yuqoridagi frazeologik iboraning kontekstual ma’nosi – borini bermoq va ixtiyorini topshirmoqdir.

Tarjimaga kelsak, M. Shayxzoda taqdim qilgan “oyog‘ingga poyondoz bo‘lay” variantida mayinlik hissi va erkalash ohangi nihoyatda yuqori bo‘lib, ibora o‘zbek madaniyati va mentalitetiga moslashtirilganligini kuzatishimiz mumkin. Tarjimadagi ibora asliyatga qisman analogik va madaniy jihatdan ekvivalent desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunda tarjimonning maqsadi – ma’noni yetkazish bo‘lsa, tarjimon shu bilan bir qatorda obrazlilikni saqlashni ham uddalagan. Biroq, asardagi voqealar Italiyaning Verona shahrida sodir bo‘layotganini va poyandoz so‘zi o‘zbek madaniyatiga xos so‘z (poyandoz – ostonaga, oyoq ostiga to‘shaladigan gilam yoki ipak mato; alohida hurmatga sazovor kishini yoki kelin, kuyovni kutib olish uchun uning yo‘liga, oyog‘i ostiga solingan yoki solinadigan gilam, palos yoki mato (8)) ekanligini inobatga olsak, Julyetta tomonidan bunday iboraning ishlatishi biroz notabiiy tuyuladi.

Vaziyatdan kelib chiqib, ushbu parchada “oyog‘ingga poyondoz bo‘lay” o‘rniga “senga bo‘lsin jonim sadaqa” yoki “senga bo‘lsin jonim fido”, “senga bo‘lsin jonim tasadduq”, “senga borim, jonim tasadduq”lardan birini ishlatgan ma’qul deb o‘ylaymiz. Ushbu jumlalarda iboraning nafaqat ohang va metrik tuzilishi, balki inversiv strukturasi ham saqlangan.

J. Kamolning tarjimasida asliyatdagi frazeologik iboraning semantik ekvivalenti taqdim qilingan. Nazariy jihatdan, borini bermoq va borlig‘ini ayamaslikning ma’nolari juda yaqin bo‘lgani bois, ushbu tarjima varianti kitobxonda savol tug‘dirmaydi.

Ikkinchi parchada keltirilgan “sweets to the sweet” erkalash frazeologizmi Ofeliyaning dafn qilish marosimida Hamletning onasi tomonidan marhumaga qarata qo‘llaniladi. A.V. Kuninning Большой англо-русский фразеологический словарь lug‘atida sweets to the sweet – разг. прекрасное – прекрасной [шекспировское выражение; см. цитату(9)] deb keltirilgan, ya’ni go‘zalga go‘zal narsalar bo‘lsin (– bizning tarjima) degan ma’noda ishlatiladi.

O‘zbek tilida aynan shunday kontekstda ishlatiladigan ekvivalent yoki analogik frazeologik ibora aniqlanmadi. Tarjimalarda ham buni aksini ko‘rishimiz mumkin. M. Shayxzoda B. Pasternakning: “Королева (расбрасывая цветы): Нежнейшее – нежнейшей. Спи с миром!” jumlasiga tayanib, erkin tarjima usulidan foydalangan va jozibador hamda poetik tarjima taqdim qilgan.

“Qismat bo‘lsin” iborasi esa nazarimizda, asliyat matnida mavjud bo‘lmasa-da, qismat – 1) taqdir, qazo, ulush; 2) umuman, boshga tushgan ko‘rgilik, kechmish hayot; ahvol; 3) hayot-mamot masalasi, taqdir; belgilangan umr, nasiba (8) – so‘zining konnotatsiyalari, jumladan salbiylari ham, vaziyatning fojiaviyligiga to‘liq mos keladi.

“Nafisa” so‘zi “nafis” – 1) go‘zal va nafis, latif; 2) nozik va yoqimli (8) so‘ziga -a qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalib, ma’nosi – yuqoridagi xislatlarga ega qiz ekanligini anglasak-da, ushbu so‘z tinglovchida tushunmovchilik keltirib chiqarishi mumkin, chunki “nafisa” so‘zi – go‘zal va latofatli qiz ma’nosidan ko‘ra atoqli ot sifatida keng ommalashgan.

Taxminimizcha, tarjimon asliyatdagi alliteratsiyani saqlab qolishga uringan va shu so‘zni qo‘llagan.

J. Kamol tarjimaning klarifikatsiya, ya’ni ma’noni oydinlashtirish, usulidan foydalangan. Ushbu sahnada Malika Gertruda tobutga gul sochib, “sweets” deb gullarni nazarda tutadi. Demak, vaziyatdan kelib chiqib, “gul qizga gullar bo‘lsin” degan ma’noda gulga gul joiz deb asliyatdagi kabi qisqa va lo‘nda qilib tasviriy tarjima usuli yordamida ma’noni yoritgan. Ushbu jumlaning tarjimasi tabiiy eshitiladi va yuqori darajada adekvat desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xulosa. Erkalash metaforalarining o‘zbek tiliga tarjima qilinishi faqat lingvistik jarayon emas, balki madaniy moslashtirish amaliyoti hamdir. Erkalash metaforalarini tarjima qilish jarayonida

kuzatiladigan asosiy muammolar: semantik noaniqlik, madaniy va erkalash haroratining darajasidagi tafovutlardir. Tarjimon nafaqat so‘zning ma’nosini, balki undagi kayfiyat va obrazni ham uzatishi zarur. “Romeo va Julyetta” asarining o‘zbek tarjimalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli tarjimalar aynan madaniy va hissiy uyg‘unlikni ta’minlaydi. Erkalash metaforalarining tarjimasida, asosan, adaptatsiya, (madaniy) ekvivalent va kontekstual kengaytirish kabi tarjima strategiyalari qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Kunin, A.V. (1996). Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazyka (2nd edition). Vysshaya shkola, Dubna.

Komissarov, V.N. (2011). Sovremennoye perevodovedenie (2nd edition). R.Valent.

Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.

Baker, M. (1992). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge.

Gofurov, I., Mominov, O. & Qambarov, N. (2012). Tarjima nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. Tafakkur-Bo‘stoni.

Spears, R.A. (2005). McGraw-Hill’s Dictionary of America Idioms. McGraw-Hill.

Urdang, L. (1992). The Oxford Thesaurus: An A-Z Dictionary of Synonyms. Clarendon Press.

Madvaliyev, A. (Ed.). (2021). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston nashriyoti.

Kunin, A.V. (1984). Bolshoy anglo-russkiy frazeologicheskiy slovar. Russkiy yazyk.

Shakespeare, W. (1984). Romeo and Juliet (Edited by G. Blakemore Evans). Cambridge University Press.

Shakespeare, W. (1954). The Tragedy of Hamlet, Prince of Denmark. The Folio Society.

Shekspir, V. (1981). Tanlangan asarlar. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

Shekspir, V. (2008). Saylanma. Uch jildlik. Fan nashriyoti.

BRITANIYA AFSONALARIDAGI MIFOLOGIK MAVJUDOTLAR MILLAT MADANIYATI VA MENTALITETINING IFODASI SIFATIDA

Murodova Marjona Muxtorovna
BuxDU Ingliz tilshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Britaniya afsonalarida keng tarqalgan mifologik mavjudotlar; ularning kelib chiqishi, tavsifi, diskurslardagi roli va madaniy mazmuni haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: mifologiya, afsona, madaniyat, ramz, fantaziya, ajdaho, peri, goblinlar, suv parilari, selkies, devlar, qora itlar.

МИФОЛОГИЧЕСКИЕ СУЩЕСТВА В БРИТАНСКИХ ЛЕГЕНДАХ КАК ВЫРАЖЕНИЕ КУЛЬТУРЫ И МЕНТАЛИТЕТА НАЦИИ

Муродова Маржона Мухторовна
БухГУ, докторант кафедры английского языкознания

Аннотация: В данной статье рассматриваются распространенные мифологические существа британских легенд; их происхождение, описание, роль в легендах и культурное значение.

Ключевые слова: мифология, легенда, культура, символ, фэнтези, дракон, феи, гоблины, русалки, шелки, блуждающие огоньки, великаны, черные псы.

MYTHOLOGICAL CREATURES IN BRITISH LEGENDS AS THE EXPRESSION OF CULTURE AND MENTALITY OF THE NATION

Murodova Marjona Mukhtorovna
PhD researcher of Department of English linguistics of BukhSU

Abstract: The given article is about common mythological creatures of British legends; their origination, description, roles in legends and cultural meaning of them.

Keywords: mythology, legend, culture, symbol, fantasy, dragon, fairies, goblins, mermaids, selkies, Will-o'-the-Wisps, giants, black dogs.

Introduction. British mythology is rooted solidly in the island's cultural and historical background, drawing on Celtic, Anglo-Saxon, Roman, and Norse. Intrinsic to the myths are the mythological creatures, which are representative of fears, hopes, and ethical lessons. These beings are not only components of fantasy but are charged with symbolism, representing human struggles, nature, and cultural values (Briggs, 1976; Simpson & Roud, 2000).

Dragons

Dragons and dragon-like creatures have been central to world mythos, legends, and literature for millennia – in fact, they are part of the oldest human stories. While they were generally revered and respected in Eastern myth and literature, they were feared and condemned in most Western mythologies and literatures, especially after the Christianization of Europe. Much of Indo-European mythology portrayed dragons as monstrous serpents who needed to be slain by a hero. Calvert Watkins states that the hero slays the dragon because "The dragon symbolizes Chaos, in the largest sense, and killing the dragon represents the ultimate victory of Cosmic Truth and Order over Chaos" (Watkins 299). Furthermore, the dragon represents particular kinds of chaos in various cultures, including chaos that blocks "life-giving forces" in Indo-Iranian cultures and anti-hierarchical and anti-hospitality chaos in the cultures of ancient Ireland, Anatolia, and Greece (300). This fear and condemnation carried over into English folklore, and later English

literature. For over a thousand years, dragons have commonly appeared in English literature as forces of nature, villainous figures within the worlds of various works, and symbols of both great power and great evil. Over time, the Dragon in English literature has evolved into not only a bestial force and a symbol of power or vice, but a character in and of itself with personal drives and influences over other characters.Faced with a dragon is to symbolize the struggle of the hero against great evil. They are often large, fire-breathing, serpent-like beasts with wings, claws, and huge strength; occasionally wise and treasure guardians. Red and white dragons in Geoffrey of Monmouth's Historia Regum Britanniae symbolize the Britons' and Saxons' struggle; St. George slays a dragon famously, becoming England's patron saint (Lacy, Ashe & Mancoff, 1997).

Fairies

The oldest fairies on record in England were first described by the historian Gervase of Tilbury in the 13th century. Fairies originated from Celtic mythology and are among the longest enduring characters in Scottish and English tradition. While the term fairy goes back only to the Middle Ages in Europe, analogues to these beings in varying forms appear in both written and oral literature, from the Sanskrit gandharva (semidivine celestial musicians) to the nymphs of Greek mythology and Homer, the jinni of Arabic mythology, and similar folk characters of the Samoans, of the Arctic peoples, and of other indigenous Americans. The common modern depiction of fairies in children's stories represents a bowdlerization of what was once a serious and even sinister folkloric tradition. The fairies of the past were feared as dangerous and powerful beings who were sometimes friendly to humans but could also be cruel or mischievous. They symbolize forces of nature—at times benevolent, instilling blessings, and at times malevolent, bringing misfortune. They are described small, human-like beings possessing magical powers, sometimes associated with woods, hills, or streams. Fairies in A Midsummer Night's Dream by Shakespeare adhere to set folklore. Cornish folklore mentions fairies living in barrows and protecting holy places (Briggs, 1976; Westwood & Simpson, 2005).

Giants

Giants, huge humanoid creatures with great power but little intelligence, often cruel or brutal, appear in many British creation myths, believed to be descendants of ancient creatures. They are symbolic of the ancient, wild land and are often the enemies of heroic figures. Gogmagog, killed by Brutus of Troy, is representative of Britain's early mythical inhabitants; the Giant's Causeway is linked to Finn McCool (Ashe, 1990).

Black Dogs (Barghests)

Barghest, in folklore of northern England (especially Yorkshire), a monstrous, goblin dog, with huge teeth and claws, that appears only at night. It was believed that those who saw one clearly would die soon after, while those who caught only a glimpse of the beast would live on, but only for some months. The Demon of Tidworth, the Black Dog of Winchester, the Padfoot of Wakefield, and the Barghest of Burnley are all related apparitions. Their Welsh counterparts were red-eyed Gwyllgi, the Dog of Darkness, and Cwn Annwn, the Dogs of Hell. In Lancashire the monster was called Trash, Skriker, or Striker; its broad, sometimes backward-pointing feet made a splashing noise, and it howled horribly. In East Anglia, where it was thought to be amphibious, the dog had only one eye and was known as Black Shuck, or Shock. It was called Mauthe Doog on the Isle of Man. The Manchester Barghest was said to be headless. (Simpson & Roud, 2000).

Selkies and Mermaids

They are Celtic sea gods of seashore mythology, especially Scottish and Irish legends and highlight danger and mysteries of the sea; show lessons about desire, betrayal, and change. Selkies are seal-like beings who shed their skin to become human; mermaids are half-fish, half-female. Selkies are referred to as ronmara, meaning «sea seals,» or maighdean mhara, meaning «sea maidens.» The tales of Selkies have their roots in the deep cultural connection between coastal communities and the sea. In ancient Ireland, the sea was both a source of sustenance and a symbol of danger and mystery. It represented both life and death, with countless sailors lost to its depths,

leaving behind families and communities grieving for their loved ones. This duality of the sea—its nurturing and destructive nature—is mirrored in the Selkie myth, where the creatures exist in a liminal space, neither fully human nor fully seal. Both are beautiful but dangerous. Scottish folktales of selkies marrying men, disappearing when reclaiming their sealskin; English mermaid tales include sailors charmed to oblivion (Briggs, 1976; Knight, 2003).

Goblins

They are originated from medieval English belief, with dark woods and devastated locations and described like small, ugly, troublesome creatures, often ugly and unpleasant, but cunning. They symbolize chaos, deceit, and terror; sometimes warnings against greed or night roaming for examples: Cornish «knockers» haunt mines, warning miners of danger—or luring miners deeper into danger (Westwood & Simpson, 2005).

Will-o'-the-Wisps

Having appeared from boggy ground, explained as ghost lights or spirits they are symbols of deception, leading travelers astray. They are supernatural, ghostly lights over swamps and marshes, thought to be dead spirits or mischievous ghosts. One can see it numerous English rural legends; character in Milton's Paradise Lost as false lights (Simpson & Roud, 2000).

Mythical creatures in British folklore are carriers of cultural meaning. Dragons symbolize strife between order and chaos; fairies and goblins symbolize the human complex relationship with nature. Giants symbolize raw land and ancient past, while selkies and mermaids symbolize sea mysteries. Black dogs and will-o'-the-wisps symbolize death fear and false guidance, informing us of forces that are unseen.

They represent Britain's cultural imagination, linking myth and topography. They reveal concepts in society about power, morality, and the mysterious. Through medieval manuscripts, Shakespeare, and fantasy in the modern era, these creatures enthrall writers, artists, and popular media. In science, they illustrate how myths explain nature, impose moral values, and consolidate community identity. Their enduring presence attests legends are live cultural forces that grapple with British identity throughout history (Briggs, 1976; Knight, 2003).

References

Ashe, G. (1990). Mythology of the British Isles. Methuen.

Briggs, K. M. (1976). An encyclopedia of fairies. Pantheon Books.

Knight, C. (2003). Blood Relations: Menstruation and the origins of culture. Yale University Press.

Lacy, N. J., Ashe, G., & Mancoff, D. N. (1997). The Arthurian handbook (2nd ed.). Garland.

Simpson, J., & Roud, S. (2000). A dictionary of English folklore. Oxford University Press.

Westwood, J., & Simpson, J. (2005). The lore of the land: A guide to England's legends. Penguin Books.

“MIRZO ULUG’BEK” – TRAGEDIYA JANRINING NODIR NAMUNASI

Ruziyeva Dilfuza Salimboyevna
Buxoro davlat pedagogika instituti o’qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada, buyuk ingliz dramaturgi Vil’yam Shekspir va o`zbek adaibyotining yorqin siymolaridan biri Maqsud Shayxzoda ijodi jahon hamda o`zbek adabiyotshunosligida o`ziga xos tarzda bahosini olgan. Shekspir asarlari o`tgan asrning boshlaridayoq o`zbek kitobxonlari qiziqishiga sabab bo`lgan va tarjima qilinib, kitobxonlar qo`liga etkazilgan. Uning asarlari Sobiq Ittifoq davrida ham tarjima qilinib, bir necha bor nashr qilingan. Mustaqillikdan keyin ham Shekspirning o`lmas asarlari qayta nashrdan chiqdi (shoir va tarjimon Jamol Kamol tarjimasida). Shekspir asarlarining bu darajadagi ommalashuvi, tabiiyki, o`zbek adabiyotida adabiy ta`sir va aloqalarning betakror qirralirni namoyish etishi, ayni paytda adabiyotshunoslarning ham diqqat markazida bo`lishi tabiiy bir holdir.

Kalit so’zlar: tragediya, syujet, kontseptsiya, antik, janr, ekspozitsiya, estetik, tragik qahramon, ekspozitsiya, adabiyotshunos.

«HAMLET» AND «MIRZO ULUG’BEK» ARE RARE EXAMPLES OF THE TRAGEDY GENRE

Ruziyeva Dilfuza Salimboyevna
Teacher of Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation. In this article, the works of the great English dramatist William Shakespeare and one of the bright figures of Uzbek literature, Maqsud Shaikhzoda, have been evaluated in a unique way in the world and Uzbek literary studies. Shakespeare’s works attracted the interest of Uzbek readers at the beginning of the last century and were translated and made available to readers. His works were translated and published several times during the time of the former Soviet Union. Even after independence, Shakespeare’s immortal works were reprinted (in translation by poet and translator Jamal Kamal). The popularization of Shakespeare’s works at this level, of course, shows the unique aspects of literary influences and connections in Uzbek literature, and it is natural that it is the center of attention of literary scholars.

Key words: tragedy, plot, concept, antique, genre, exposition, aesthetic, tragic hero, exposition, literary critic.

«ГАМЛЕТ» И «МИРЗО УЛУГБЕК» — РЕДКИЕ ПРИМЕРЫ ТРАГЕДИЧЕСКОГО ЖАНРА

Рузиева Дилфуза Салимбоевна
Преподаватель Бухарского государственного педагогического института

Аннотация. В данной статье произведения великого английского драматурга Уильяма Шекспира и одного из ярких деятелей узбекской литературы Максуда Шайхзоды получили уникальную оценку в мировом и узбекском литературоведении. Произведения Шекспира вызвали интерес узбекских читателей в начале прошлого века, были переведены и предоставлены читателям. Его произведения переводились и издавались несколько раз во времена бывшего Советского Союза. Даже после обретения независимости бессмертные произведения Шекспира переиздавались (в переводе поэта и переводчика Джамаля Камаля). Популяризация произведений Шекспира на этом уровне, безусловно, показывает уникальные стороны литературных влияний и связей в узбекской литературе и закономерно, что она находится в центре внимания ученых-литературоведов.

Ключевые слова: трагедия, сюжет, концепция, антиквариат, жанр, экспозиция,

эстетика, трагический герой, экспозиция, литературный критик.

Tragediya shiddatli voqealar oqimiga, qiziqarli syujetga, o`lmas badiiy g'oyalarga asoslaniladigan, va ayni paytda, yozuvchi badiiy kontseptsiyasini o`zida ifoda etishda keng imkoniyatlarga ega bo`lgan adabiy janrdir. Mavzuga yondashishdan oldin targediyaning janriy xususiyatlari masalasiga oydinlik kiritib olish, maqsadning yanada aniqroq va teranroq ochilishida yordam beradi.Fojia janri adabiyotning dramatik turiga mansubdir. Tragediya – yunoncha so`z bo`lib, kelib chiqishidagi asl lug'aviy ma`nosi – tragos – echki, oda – qo`shiq, ya`ni "echki qo`shig'i" demakdir. Bugungi kunda u o`zining qadimiy lug'aviy ma`nosidan butunlay uzoqlashib ketgan. Xo`sh, nega endi "echki qo`shig'i"? Bu atama qanday kelib chiqqan?Yunonistonda antik davrda har yili fevral' oyida hosil xudosi Dionis kiyimidagi kishi tushgan aravaning orqasidan bir to`p qiziqchilar ergashib yurishgan. Ular mavjud odatga ko`ra echki terisini yopinib olishgan. Bularni tragoslar deb atash rasm bo`lgan. Keyinchalik bu termin adabiyotga qo`yib, o`zining asl asarlarga nisbatan ishlatilgan.Eng birinchi tragediyaning vatani Yunoniston bo`lib, bu janrning "otasi" antik adabiyot namoyandasi Esxil (eramizdan oldingi VI – V asr) sanaladi. Uning zamondoshlari va izdoshlari Safokl, Evripid kabilar bo`lib, ular yaratgan fojialar bugungi kungacha tamoshabinlarni qiziqtirib keladi.Odatda, tragediya deganda oxiri o`lim bilan yakunlanadigan yasarlar tushuniladi. Bu xususiyat ko`pchilik fojia asarlariga xos bo`lsa ham, birdan-bir va asosiy belgi emas.Tragediya – qahramonlarning boshiga tushadigan eng og'ir holatlarni bo`rttirib ko`rsatish yo`li bilan hayotda hamisha mavjud bo`lgan fojiaviylikni yorqin tasvirlaydigan asarlardir. Fojia inson hatidagi eng qaltis, eng shiddatli, halokatli holatlar tasvirga asos qilib oladi va ularni dahshatli to`qnashuvlar, tashqi yoki ichki kurashning shiddatli silsilasida tasvirlaydi. Shekspirning "Otello", "Hamlet", Pushkinning "Boris Godunov", Abduratif Fitratning "Abulfayzxon", Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" fojialarida xuddi ana shunday holatlarni ko`ramiz. Aynan "Mirzo Ulug'bek" asarida Shayxzoda bosh qahramonning hayotiy fojiasini uning o`z zamonasidan juda ham ilgarilab ketgani bilan izohlaydi. Ulug'bek ideallari bilan mavjud jamiyat tarixiy sharoiti o`rtasida hal qilib bo`lmaydigan qarama-qarshilik mavjud va xuddi mana shu qarama-qarshilik qahramon fojiasining asosini tashkil etadi.Fojia janridagi asarlar aksariyat falsafiy ruh bilan yo`g'rilgan, romantik bo`yoqlarga boy, dramatizm eng yuqori nuqtaga olib chiqilganligi bilan ajralib turadi. Bunday asar yaratish oson emas. Shuning uchun ham mukammal fojia asarlari adabiyotimizda kam uchraydigan hodisadir.Tragediya janri namunasida xarakterlarning ulug'vorligi, o`ta mushkul azob o`qubatli jarayonlarni yangi bobida qalblarni fojiali tug'yonlar qa`riga tortuvchi iztiroblarning ikkilanish onlari, noiloj holatlardan chiqish uchun butun vujudi bilan qarshi kurashishlari, o`lim dahshatlaridan tap tortmasliklari kitobxon va tomoshabin qalbini larzaga soladi, hayajonlantiradi, bir olam unutilmas estetik ta`sir ko`rsatadi. Ko`pincha, qahramonlik ruhi bilan omuxta bo`lib keluvchi fojia ruhi hayajonlantiruvchi kuchi, ta`siri bilan turmushning xunuk va yovuz ko`rinishlaridan uzoq yurishga unday hollarga qarshi beomon kurashishga undaydi, ulug'vorlikka chorlaydi. San`atkorona ko`rsatilgan bunday holatlarni ko`zdan kechirgan qalbidan his etgan tomoshabin va kitobxon o`zini avvalgidan bardamlashgan, ma`naviy kuchi oshgan, yangi kurashlarga chog'langan his etadi. Tragediyaning tarbiyaviy-ta`limiy kuchi, illat va yovuzliklardan qalblarni forig' etuvchi, fojiaviy larzaga solib ta`sir o`tkazuvchi estetik qudrati xuddi shundadir.

Bu janr namunasida, avvalo, tragik g'oya yotishi zarur. U yuksak badiiylik bilan yaxlitlikda namoyon bo`lishi kerak. Unda g'oya chinakam fojiaviy ruh darajasiga ko`tarilishi shart. Bunga tragik koliziyaning murakkab tus olishi orqali erishiladi. O`z navbatida, tragik g'oya qirralarini ifodalovchi xarakterlarining murakkab qismatida faqat uning yakka o`zigagina, uning sha`niga, manfaatiga tegishli mohiyat mavjud bo`lolmaydi. Aksincha, tragik qahramonga qarshi turgan kuch yoki kuchlar uning o`zidan ham boshqalarga – oila manfaatiga, jamiyat axloqiga, el-yurt oldidagi burchga, bir so`z bilan aytganda, ko`pchilikka, uning manfaatiga daxldor bo`ladi. Ana shunday manfaatlar birlashgan echish, hal etish mushkul nuqtada turgan xarakter kurashda

mardonavor turib, ikkilanish azoblarini bosib o`tadi va muayyan hayotiy ne`matlardan mahrum bo`ladi, baxtsizlikka yo`liqadi yoki o`zi jisman halok bo`ladi. Uning shunday fojiaviy, o`zidan boshqalar uchun ham nafli kurash jarayonlarida chekkan azob-uqubatlari, iztiroblari, kurash alamlari kitobxonni estetik tug’yonga soladi. Mana shunday keng qamrovga, tragik holatga molik bo`lgan hayot ko`rinishlarigina tragediyaning mavzui va mazmuni doirasini belgilaydi. Aks holda tragediya uchun maydon zohir bo`lishini tasavur etish qiyin.

“Hamlet” tragediyasi 1601-1602 yillarda yozilgan bo`lib, u Vil’yam Shekspir ijodining cho`qqisidir. Daniya shahzodasi Hamletning hayoti tragediya syujetini tashkil etadi. Asarda Daniyaning o`tmishiga doir voqealar aks ettirilgan bo`lsa ham, muallif unga o`z zamonasining ruhini singdirdi, zamondoshlarning tipik obrazlarini yaratdi. Dramaturg «chirigan Daniya davlati»ni tanqid qilar yoki “izdan chiqqan dunyo” hiqida so`zlar ekan, u o`z zamonasidagi Angliyani nazarda tutadi.

Asarda tasvirlanayotgan voqealar Daniya qirollarining qadimgi qasri – sovuq va haybatli el’sinorda bo`lib o`tadi.Zim-ziy tun. Qasr devorlari tagida soqchilar daydib yuribdi. Ularni vahima bosgan, chunki ularga marhum qirolning arvohi ko`ringan. Qadimgilar naqliga ko`ra, go`yo arvohning ko`rinishi bexosiyat, davlat boshiga balo keltiruvchi alomat emish. Haqiqatan ham, yurt notinch. Daniya qirolligida allaqanday yovuzliklar. el’sonor qasrida esa qandaydir mudhish sirlar bor.Ikkinchi ko`rinishda dramaturg qasrning ichki xonalari va bosh qahramonlar bilan tanishtiradi. Bir tomonda motam libosiga o`ralgan qayg’uli Hamlet, ikkinchi tarafda esa kibr-havoli, ko`rinishdan muloyim va betashvish Daniya qiroli – Hamletning o`gay otasi Klavdiy, onasi Gertruda va saroy ahllari. Motam marosimi bilan to`y tantanalari aralashib ketgan. Hamlet vafot etgan otasining motasida qayg’u chekadi. Bu qayg’uni onasining beqarorligi yanada orttirgan. Chunki u sevgan erining tobutini kuzatib, “oyoqqa kiygan boshmog’i” to`zimasdanoq erining ukasi Klavdiyga tegib olgan. Yaqinlaridan bezgan Hamlet ilgarigidek quvnoq va g’ayratli emas, balki g’amgin va o`z fikrlari bilan band. “Butun dunyo o`zining harakatidan naqadar to`ng, bema`ni va to`mtoq...” bo`lib ko`rinadi unga.

Uchinchi ko`rinishda vazir Poloniy hamda uning o`g’li Laert va qizi Ofeliya bilan tanishamiz. Poloniy Frantsiyaga ketayotgan o`g’liga pand-nasihat qiladi. Otais bilan akasi Ofeliyani unga oshiq bo`lgan Hamletning va`dalariga ishonmaslikka, tadbirli va ehtiyotkor bo`lishga undaydilar. Itoatkor qiz otasining izmidan chiqmaslikka va`da beradi.Tragediyaning ekspozitsiyasi to`rtinchi ko`rinishda tugaydi. Voqealar o`rni yana qasr oldidagi maydonga ko`chiriladi. Soqchilar arvohning paydo bo`lishini kutadilar, ularning orasida do`sti Goratsio bilan Hamlet ham bor edi. Tun qorong’usida zambaraklar gumburlashi yanada qattiqroq eshitiladi. Buyruqqa ko`ra, maishat qilayotgan qirolning har bir qadah ko`tarishi to`p otish bilan nishonlanayotgan edi.

Shu vaqtda arvoh ko`rinib qoladi. Soqchilardan birining “Daniya davlatga bir balo yuqqan” degan luqmasi ekspozitsiyani tugallaydi.Birinchi pardaning beshinchi sahnasi dramatik harakatining tugunini tashkil etadi. Hamlet otasining arvohiga duch keladi. Arvoh Klavdiyning dahshatli jinoyati haqida so`zlab, Hamletni o`ch olishga undaydi. Hamletning shubhalari oydinlashadi. Shu sahnadan boshlab voqealar shiddat bilan rivojlanib ketadi. el’sinorda Hamlet bilan qirol o`rtasida yashirin kurash ketadi. Qirol Hamletdan xavotirlanadi, qo`rqadi, butun vositalar bilan uning ichki sirlarini bilib olishga intiladi. Bu yo`lda unga Poloniy hamda Hamletning sobiq do`stlari Rozenkrants va Gil’densternlar yordam beradilar. Hatto Hamletning sevgilisi Ofeliya va onasi Gertruda ham qirol nayranglariga xizmat qiladilar. Hamlet tomonida uning sadoqatli do`sti Goratsio turadi. Hamlet arvohning so`zlarini tasdiqlovchi dalillar izlaydi, o`zini telbalikka solib, saroydagi nayranglarni va ikki yuzlamachilarni chuqurroq bilib olishga intiladi.Hamlet el’sinorga kelgan teatr truppasidan o`z shubhalarini isbotlash uchun foydalanadi. Klavdiyning jinoyatiga o`xshash voqeani aks ettiruvchi “Qopqon” o`yinini sahnaga qo`yadi. Tomoshadan sarosimagan tushib qolgan qirol tamomila fosh etiladi. endi Hamlet o`z niyatini amalga oshirishi, ya`ni qirodan o`ch olishi mumkin edi, lekin u shaxsiy qasosdan ko`ra buyukroq maqsad yo`lidagi fikrlar bilan band bo`lib, qiroldan o`ch olishni kechiktiradi. To`g’rirorg’i, qotilni jinoyat ustida qo`lga tushirishni mo`ljallaydi. Shu

jihatdan Hamletning onasi bilan suhbati aks ettirilgan sahna juda keskin va hayajonlidir. Hamlet onasi bilan suhbatlashayotganda parda orqasiga bekinib turgan Poloniyni qirol gumon qilib, o`ldirib qo`yadi. Shundan so`ng voqealar yanada keskinlashib boradi. Klavdiy Hamletning o`zi uchun xavfli dushman ekaniga ishonch hosil qiladi va uni o`lditirish uchun yashirin maktub bilan Angliyaga jo`natadi. Bu esa Hamletning qasos olishini yanada kechiktiradi, lekin u sezgirlik bilan dushmanni yo`q qilishning eng muvofiq paytini kutadi:

Mayli, mayli, ko`ramiz – choh qazgan o`zi
Chohga tushib ketish g'alati bo`lar.
Ular yomon niyatni o`ylashgan menga,
Men ulardan ham chuqur quduq qazaman.

Qasrdagi hayot tobora mudhish va fojiali yo`l bilan rivojlanib, dramatik harakat voqealar echimiga yaqinlashib boradi. Otasining o`limi Ofeliyani aqldan ozdiradi va u fojiali ravishda halok bo`ladi. Xaloyiq orasida el'sonordagi yovuz ishlar haqida tobora ko`p gap tarqaladi, norozilik kuchayadi. Laert Frantsiyadan qaytib kelib, otasining qasosini olish harakatida bo`ladi, g'azablangan olomonga bosh bo`lib, el'sonorga bostirib kiradi. Klavdiy Laertni uning otasi Poloniyni Hamlet o`ldirganiga ishontiradi. Hamlet ham Angliyaga qaytadi. U Angliyaga ketayotganda, yo`lda qirolning maktubini o`qib, Klavdiyning yovuz niyatini payqaydi. Shuning uchun uning maktubini yangi maktub bilan almashtirib, o`limga sotqin Rozenkrants va Gil'densternlarni yo`llaydi.

ADABIYOTLAR

1. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san`aat nashriyoti, 2000. – 298 b.
2. Adabiyot nazariyasi. I tom. – T.: Fan, 1978, 416 b; II tom. – T.: Fan, 1979, - 448 b.
3. V.G.Belinskiy. Sobr. Soch., Moskva, 1953, t. II
4. Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar, Toshkent, O`zbekiston Davlat nashriyoti. 1955, 199-bet.
5. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. - T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san`aat nashriyoti, 1969.
6. Imomov B. Hayot va dramatik konflikt. – T.: Fan, 1968. – 180 b.
7. Imomov B. Tragediya va xarakter. Dramaturgiya janrlari. – T.: Alabiyot va san`at, 1977. -176 b.

INGLIZ VA O‘ZBEK ERTAKLARIDA ONA OBRAZINING AKSIOLOGIK TADQIQI

Jumayeva Umida Abdurahim qizi
O‘zDJTU «Umumiy tilshunoslik» kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek xalq ertaklarida ona obrazining aks ettirilish xususiyatlari aksiologik (qadriyatlar tizimi) nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ona timsolining tarbiyaviy, ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy vazifalari qiyosiy tahlil qilinib, ikki xalqqa mansub folklor namunalari asosida umumiylik va farqlar yoritiladi. Ingliz ertaklarida ona siymosi ko‘pincha yo‘q yoki o‘rinini o‘gay ona egallagan bo‘lsa, o‘zbek ertaklarida ona mehribon, oqila, farzand tarbiyasiga mas’ul va jamiyatda qadrlanadigan oliy fazilat timsoli sifatida gavdalanadi. Aksiologik yondashuv asosida ertaklarda ona obrazining farzand ongini shakllantirishdagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: ona obrazi, ertak, aksiologiya, ingliz folklori, o‘zbek folklori, qadriyatlar, tarbiya, o‘gay ona motivi, ona timsoli, folklyorshunoslik, oila.

АКСИОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ОБРАЗА МАТЕРИ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ СКАЗКАХ

Джумаева Умида Абдурахим кизи
Преподаватель кафедры «Общего языкознания» УзГУМЯ

Аннотация: В данной статье анализируются особенности отражения образа матери в английских и узбекских народных сказках с точки зрения аксиологического (ценностного) подхода. В ходе исследования сопоставлены воспитательные, духовные, нравственные и социальные функции материнского образа, выявлены общие черты и различия на основе фольклорных материалов двух народов. Если в английских сказках образ матери часто отсутствует или заменён мачехой, то в узбекских сказках мать предстает как любящая, мудрая, ответственная за воспитание ребенка и обладающая высокими нравственными качествами. В рамках аксиологического анализа раскрывается роль материнского образа в формировании сознания ребенка.

Ключевые слова: образ матери, сказка, аксиология, английский фольклор, узбекский фольклор, ценности, воспитание, мотив мачехи, фигура матери, фольклор, семья.

AXIOLOGICAL RESEARCH OF THE IMAGE OF THE MOTHER IN ENGLISH AND UZBEK FAIRYTALES

Jumayeva Umida Abdurahim kizi
Teacher of the Department of «General Linguistics» of UzSWLU

Annotation: This article analyzes the representation of the mother figure in English and Uzbek folk tales from an axiological (value-based) perspective. The study compares the educational, spiritual, moral, and social functions of the maternal image and highlights similarities and differences based on the folklore of both nations. While the mother figure is often absent or replaced by a stepmother in English fairy tales, in Uzbek folk tales the mother is depicted as loving, wise, responsible for raising children, and endowed with highly respected virtues. Through an axiological approach, the article reveals the role of the maternal image in shaping a child’s consciousness.

Keywords: mother figure, fairy tale, axiology, English folklore, Uzbek folklore, values, upbringing, stepmother motif, mother model, folk-lore, family.

Kirish. Har bir xalqning folklori — bu uning ma’naviy olami, dunyoqarashi, qadriyatlari va

ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi bebaho merosdir. Ertaklar esa folklorning eng qadimiy va keng tarqalgan janrlaridan bo‘lib, ular nafaqat badiiy tasvir yaratadi, balki tarbiyaviy vazifani ham bajaradi. Ertaklar orqali avloddan avlodga ezgulik, sadoqat, halollik, mehr-muruvvat kabi qadriyatlar yetkaziladi. Ayniqsa, ertaklarda ona obrazining tutgan o‘rni alohida e’tiborga loyiqdir. Chunki xalq ongida «ona» — hayot manbai, mehr, tarbiya va madaniyat davomiyligining ramzidir.

Turli xalqlarda ona obrazining tasvirlanishi o‘sha xalqning madaniy an’analari, tarixiy tajribasi va ijtimoiy qadriyatlariga bog‘liq. Ingliz va o‘zbek ertaklaridagi ona obrazini qiyosiy o‘rganish, har ikki xalq mentalitetida onaga berilgan aksiologik bahoni aniqlash imkonini beradi.

Tahlil va muhokama. Ingliz ertaklarida ona obrazining talqini. Ingliz ertaklarining aksariyatida ona obrazi ko‘pincha yo‘q yoki ertak boshida vafot etgan holatda tasvirlanadi. Bu holat folklorshunoslar tomonidan oilaviy tuzilma o‘zgarishlari, tarixiy urushlar davrida yetim qolgan bolalar ko‘pligi, shuningdek, xristian dini ta’siridagi “sinov orqali yetuklikka erishish” g‘oyasi bilan izohlanadi [1, 45-b.].

Masalan, “Jack and the Beanstalk” ertagida (XVIII asr) ona obrazi mehnatkash, ammo kambag‘al ayol sifatida beriladi. U o‘g‘liga yordam berishga intiladi, biroq uning tarbiyasi ko‘proq mustaqillikka yo‘naltirilgan. Ona farzandni himoya qilishi cheklangan, u asosan o‘g‘lining o‘zi to‘g‘ri yo‘l tanlashiga ishonishga majbur bo‘ladi [2, 112-b.].

“Cinderella” (ingliz varianti) va boshqa ko‘plab ertaklarda esa o‘gay ona motivi ustuvordir. O‘gay ona obrazi odatda zulm, befarqlik, loqaydlik, adolatsizlik timsoli sifatida gavdalanadi. Bu tasvir shaxsiy manfaat ustuvor bo‘lgan jamiyatlarda ijtimoiy tanazzul xavfini ko‘rsatish vositasi sifatida baholanadi [3, 203-b.].

Demak, ingliz ertaklarida ona obrazi ko‘proq ijtimoiy hayot realiyalari ta’sirida shakllangan bo‘lib, u ma’lum darajada betaraf yoki yo‘qlik orqali sinovlar maydonini yaratadi. Bu holat ingliz xalqining hayot falsafasi va tarbiyaviy qarashlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki ingliz ertaklarida onaning yo‘qligi yoki uning faol ishtirok etmasligi ko‘pincha bosh qahramonning mustaqillikka, ichki kuchini kashf etishga va hayot sinovlaridan o‘tishga undovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Masalan, ko‘plab ingliz ertaklarida ona obrazi erta vafot etgan, yoki hikoya davomida mavjud emas. Bu esa bola yoki qahramonning o‘z kuchiga tayanib, to‘siqlarni yengib o‘tishini ta’minlaydi. Shu orqali ertaklar orqali “inson o‘z taqdirini o‘zi yaratadi” degan g‘oya ilgari suriladi. Bunday yondashuv ingliz xalqining individualizm, mustaqil fikrlash va hayotiy sinovlarga bardosh berish kabi qadriyatlarini ifodalaydi.

Boshqa tomondan, onaning yo‘qligi o‘z navbatida mehr, g‘amxo‘rlik va oilaviy issiqlik kabi qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Natijada, bunday ertaklar o‘quvchini onalik mehrining beqiyos ahamiyatini anglashga undaydi. Shu tarzda, ingliz ertaklaridagi ona obrazi bevosita ishtirokchi emas, balki bilvosita tarbiyaviy va aksiologik ahamiyat kasb etuvchi ramz sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek ertaklarida ona obrazining talqini. O‘zbek ertaklarida ona timsoli ilk qadimiy turkiy dunyoqarashga borib taqaladi. Ona – oilaning yuragi, jamiyatning axloqiy ustuni, farzand tarbiyasining bosh mas’uli sifatida qadrlanadi. Bu obraz xalq orasida: “Onaning o‘rnini dunyoda hech kim bosolmaydi” degan qadriyatda o‘z aksini topgan.

Masalan, mashhur “Zumrad va Qimmat” ertagida mehribon ona fazilatlari Zumrad orqali davom etadi. O‘gay ona esa zulm va hirs ramzi sifatida tasvirlanadi. Ammo bu ertak yakunida adolat tantana qiladi — mehr-muruvvatli qiz baxtga erishadi, yovuzlik esa jazolanadi. Bu yerda ona obrazining ma’naviy merosi asosiy qadriyat sifatida davomiylik kasb etadi [4, 78-b.].

“Bo‘ri bilan echki” ertagida esa ona farzand uchun jonini tikishga tayyor ekanligi ko‘rsatiladi. Echki obrazi oilani himoyalash, hushyorlik va fidoyilik timsolidir. Bu obraz o‘zbek xalqining ona siymosini nafaqat mehribon, balki aqlli, jasur va oilaning bosh himoyachisi sifatida tasvirlaydi [5, 55-b.].

O‘zbek ertaklarida ona obrazi ko‘proq axloqiy me’yorlarni shakllantiruvchi, mehr tarbiyalovchi, oilani birlashtiruvchi kuch sifatida gavdalanadi.

Asosiy ko‘rsatkich	Ingliz ertaklari	O‘zbek ertaklari
Ona brazi holati	Ko‘pincha yo‘q yoki passiv	Faol, tarbiyaviy markaz
O‘gay ona motivi	Keskin salbiy	Salbiy, lekin adolat tantanasi bilan yakunlanadi
Qadriyatlar	Mustaqillik, sinov orqali o‘sish	Mehr, birlik, fidoyilik
Tarbiyaviy xulosa	Farzand hayot sinovlarida mustaqil	Farzand tarbiya va mehr bilan kamolga yetadi

Aksiologik nuqtayi nazardan, ingliz ertaklarida “inson o‘z hayotini o‘zi quradi” g‘oyasi ustun bo‘lsa, o‘zbek ertaklarida “insonning tarbiyasi oilada shakllanadi” qadriyati asosiy o‘rinda turadi. Bu farq har ikki xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy tuzilmasi va ma’naviy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Ingliz xalq og‘zaki ijodida ko‘proq individualizm, shaxsiy mas’uliyat va mustaqillikka urg‘u beriladi. Ertaklarda bosh qahramon ko‘pincha onasiz yoki ota-onasidan uzoqda hayot sinovlarini mustaqil yengadi. Bunday holatlar ingliz madaniyatidagi “self-made man” — ya’ni o‘z mehnati, aql-zakovati va qat’iyati bilan muvaffaqiyatga erishuvchi inson idealining ifodasidir. Bu qadriyat o‘z navbatida jamiyatda shaxs erkinligi, mustaqil qaror qabul qilish va o‘z hayoti uchun javobgarlikni his etish kabi fazilatlarni targ‘ib etadi. Shu bois ingliz ertaklarida ona obrazi ko‘pincha yo‘q yoki betaraf bo‘lib, u bola uchun mustaqil sinovlar maydonini yaratadi.

O‘zbek ertaklarida esa vaziyat mutlaqo boshqacha. Bu yerda oilaviy birlik, o‘zaro hurmat, ota-ona duosi va onaning tarbiyaviy roli markaziy o‘rinda turadi. O‘zbek xalqining qadimiy mentalitetida “farzand – ota-onaning soyasi” degan tushuncha mavjud bo‘lib, bu ertaklarda ham yaqqol aks etadi. Onaning mehribonligi, oqilligi, farzandni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishi o‘zbek ertaklarining asosiy g‘oyaviy tayanchlaridan biridir. Shu orqali xalq “yaxshi farzand yaxshi tarbiya mahsuli” degan qadriyatni singdiradi.

Demak, ingliz ertaklarida individualizm qadriyati ustunlik qilsa, o‘zbek ertaklarida kollektivizm va oilaviy tarbiya qadriyati yetakchilik qiladi. Bu esa har ikki xalqning aksiologik tizimi – ya’ni qadriyatlar iyerarxiyasi – o‘ziga xos madaniy, tarixiy va ijtimoiy asosga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Ingliz va o‘zbek ertaklarida ona obrazining talqini har ikki xalqning madaniy qadriyatlari, tarixiy tajribasi va ijtimoiy tuzilmasi bilan bevosita bog‘liq. Ingliz ertaklarida ona ko‘pincha yo‘qlik orqali qahramonning mustaqillik va o‘z-o‘zini anglash jarayonini kuchaytiradi. O‘zbek ertaklarida esa ona hayotiy donolik, ma’naviy poklik va mehr-muruvvat timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, ona obrazi universal qadriyat bo‘lsa-da, uning badiiy talqini xalqlarning o‘ziga xos madaniy olamida turlicha mazmun kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Briggs, K. The Oxford Dictionary of English Folklore. Oxford University Press, 2000. — 45-bet.

Opie, I & Opie, P. The Classic Fairy Tales. Oxford University Press, 1974. — 112-bet.

Dundes, A. Interpreting Folklore. Indiana University Press, 1980. — 203-bet.

O‘zbek xalq ertaklari. 1-jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2008. — 78-bet.

Rasulov, A. O‘zbek folklorining poetikasi. Toshkent: Fan, 1992. — 55-bet.

Propp, V. Morphology of the Folktale. Texas University Press, 1968. — 89-bet.
Thompson, S. Motif-Index of Folk Literature. Indiana University Press, 2004. — 34–37-betlar.
Mirzayev, T. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent: O‘qituvchi, 1990. — 142-bet.
Tokarev, S.A. Miflar va ertaklarning kelib chiqishi. Moskva: Nauka, 1986. — 64-bet.
Rahimov, B. Folklor va qadriyat. Toshkent: Universitet, 2015. — 98-bet.
Saidov, M. O‘zbek xalq ertaklarida tarbiyaviy g‘oyalar. Toshkent: Fan, 2005.
Rahmatullayeva, T. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ayol obrazi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
Xudoyberdiyeva, N. O‘zbek ertaklarining aksiologik tahlili. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
Karimov, I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
Crystal, David. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press, 2010.

TILSHUNOSLIKDA QARINDOSHLIK TERMINLARINING MADANIY KOD SIFATIDA O‘RGANILISHI

Rahmatov Bekzod Uktam o’g’li
O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada qarindoshlik terminlari tilshunoslikda madaniy kod sifatida o‘rganiladi. Qarindoshlik tizimi jamiyatning ijtimoiy, tarixiy va madaniy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, til orqali xalqning qadriyatlari va mentalitetini ifodalaydi. Tadqiqotda qarindoshlik terminlarining qon-qarindoshlik, qaynichilik va o‘gay qarindoshlik asosida tasnifi, ularning semantik va funksional xususiyatlari hamda konnotativ jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, qarindoshlik terminlarining qiyosiy-tipologik tadqiqi ularning universal va milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash imkonini berishi ko‘rsatiladi. Qarindoshlik terminlari shunchaki leksik birlik sifatida emas, balki xalqning ma’naviy qadriyatlari va an’analari haqida ma’lumot beruvchi madaniy markerlar sifatida talqin qilinadi. Xulosa o‘rnida, qarindoshlik terminlari tilning eng qadimiy qatlamlaridan biri sifatida insoniyat jamiyatida madaniy va ijtimoiy aloqalarni ifodalovchi muhim lingvokulturologik hodisa ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: qarindoshlik terminlari, madaniy kod, semantik tizim, qaynichilik, o‘gay qarindoshlik, lingvokulturologiya, qiyosiy-tipologik tahlil, mentalitet, qadriyatlar, an’ana.

Abstract. The article examines kinship terms as cultural codes within linguistics. The kinship system is closely connected to the social, historical, and cultural development of society, reflecting national values and mentality through language. The study analyzes the classification of kinship terms into consanguinity, affinity, and step relations, focusing on their semantic and functional features as well as connotative aspects. It is also emphasized that the comparative-typological study of kinship terminology makes it possible to reveal both universal and culture-specific characteristics. Kinship terms are considered not merely as lexical units but as cultural markers encoding information about a people’s values and traditions. In conclusion, kinship terminology is identified as one of the most ancient lexical layers of language, functioning as an important linguocultural phenomenon that expresses cultural and social relations in human society.

Keywords: kinship terms, cultural code, semantic system, affinity, step-kinship, linguoculturology, comparative-typological analysis, mentality, values, tradition.

Аннотация: В статье рассматриваются термины родства как культурные коды в лингвистике. Система родства тесно связана с социальным, историческим и культурным развитием общества, отражая национальные ценности и менталитет через язык. В исследовании анализируется классификация терминов родства на кровнородственные, свойства и родственные связи, с акцентом на их семантические и функциональные особенности, а также коннотативные аспекты. Также подчеркивается, что сравнительно-типологическое изучение терминологии родства позволяет выявить как универсальные, так и культурно-специфические характеристики. Термины родства рассматриваются не просто как лексические единицы, а как культурные маркеры, кодирующие информацию о ценностях и традициях народа. В заключение отмечается, что терминология родства определяется как один из древнейших лексических пластов языка, функционирующий как важное лингвокультурное явление, выражающее культурные и социальные отношения в человеческом обществе.

Ключевые слова: термины родства, культурный код, семантическая система, свойство, неродственность, лингвокультурология, сравнительно-типологический анализ, менталитет, ценности, традиция.

Kirish. Qarindoshlik aloqalari va insonlar o‘rtasidagi munosabatlar har qanday jamiyat

hayotida muhim rol o‘ynaydi va o‘z aksini tilda maxsus so‘zlar – qarindoshlik terminlari orqali topadi. Qarindoshlik terminlari qon-qarindoshlik, nikoh aloqalari yoki ma’naviy bog‘liqlik belgilari bo‘yicha insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Qadim zamonlardan, barcha tillarning leksik fondi shakllanishining dastlabki bosqichlaridanoq, qarindoshlik terminologiyasi jamiyat hayotida paydo bo‘lgan madaniy hodisa – qarindoshlik, oila, urug‘ tizimining og‘zaki ifodasi sifatida shakllangan. Insonlar o‘rtasidagi qarindoshlik munosabatlari jamiyatning o‘zi tarixiy rivojlanishi bilan birga shakllanganligi qarindoshlik terminlari milliy rivojlanishning, tilning, demak, butun xalq mentalitetining o‘ziga xosligini aks ettiradi, deb aytishga asos beradi.[1:C.30] Bizningcha, bu yana shuni ham anglatadiki, qarindoshlik terminlari shunchaki lingvistik birliklar emas, balki xalqning qadriyatlari va an’analari haqidagi ma’lumotni o‘zida mujassam etgan o‘ziga xos madaniy markerlardir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Eng keng ma’noda, qarindoshlik terminologiyasi o‘zaro qon-qarindoshlik, nikoh yoki ma’naviy aloqalar bilan bog‘langan shaxslarning barcha nomlarini, shuningdek, bunday aloqa va munosabatlarning o‘zini tizimlashtirilgan to‘plamidir. Ushbu tizim qarindoshlik nomenklaturasi [2: C.110] deb ham ataladi. Shunday qilib, ushbu tizimning asosiy vazifasi muayyan jamiyat a’zolari o‘rtasidagi turli xil qarindoshlik munosabatlarini belgilashdir. Qarindoshlik termini tushunchasini aniqlashda asosiy parametr, so‘zlovchi, tinglovchi yoki uchinchi nomlangan shaxsning o‘zini belgilashdan ko‘ra, uning muayyan nutq subyekti bilan turli xil qarindoshlik aloqalarini ko‘rsatish hisoblanadi. Buning sababi, qarindoshlik termini shaxsni emas, balki uning boshqa shaxsga nisbatan munosabatini, shuningdek, ushbu boshqa shaxsning birinchi shaxsga nisbatan munosabatini belgilaydi.[3:C.42] Bundan kelib chiqadiki, qarindoshlik termini ma’nosini to‘g‘ri aniqlash uchun har doim kontekst va insonlar o‘rtasidagi aniq munosabatlarni hisobga olish kerak.

Qarindoshlik terminlari asosida ikkita tamoyil yotadi: 1) qarindoshlarni ota va ona liniyalari bo‘yicha farqlash; 2) so‘zlovchi va uning ota-onasi avlodlarida to‘g‘ri va yon qarindoshlik liniyalarini farqlash.[4;C.303] Bu tamoyillar ko‘pgina qarindoshlik tizimlari uchun universal bo‘lib, qarindoshlik aloqalarining murakkab o‘zaro bog‘liqligini tartibga solishga yo‘naltirilgan.

Qarindoshlik aloqalari muammosi etnografiya, tibbiyot, genetika, yurisprudensiya kabi turli ilmiy fanlar doirasida faol o‘rganiladi va bu ba’zi tadqiqotchilarga qarindoshlik terminlarini ushbu fanlarning maxsus terminologiyasi birliklari sifatida ko‘rib chiqishga asos beradi.[5:C.122.] Biroq, bizningcha, bunday da’vo asossizdir. Muayyan hodisaning turli fanlar tomonidan o‘rganilishi, ushbu hodisaning nomlarini avtomatik ravishda ushbu fanlarning maxsus terminologiyasi sohasiga kiritish uchun asos bermaydi. Maxsus terminlar faqatgina ma’lum fanlar tiliga xizmat qilishi va maxsus ma’noni anglatishi kerak. Aks holda, umumilmiy terminlar yoki umumiy iste’molda bo‘lgan so‘zlar haqida gapirish to‘g‘riroq bo‘ladi. Qarindoshlik terminlari, turli bilim sohalari uchun muhimligiga qaramay, birinchi navbatda, tilning madaniy jihatiga chuqur singib ketgan umumiy iste’moldagi leksikaning bir qismidir.

Qarindoshlik terminlari ikkilamchi nominatsiya nuqtai nazaridan ham faol o‘rganiladi. Ular shaxsning qarindoshlikka bo‘lgan qadriyat munosabatini aks ettiradi: o‘z ajdodlariga, ota-onasiga, yaqin katta yoshli qarindoshlariga. Shuning uchun, qarindoshlik terminlarida mustahkamlangan ma’nolarni yosh avlodga o‘tkazish jarayonida xalqning chuqur donoligi ham o‘tkaziladi, va shu orqali insonning o‘z xalqining madaniy kodini tashuvchisi sifatidagi ma’naviy-axloqiy tarbiyasining barcha qirralarini qamrab olinadi. Bolalarga avvalgi qarindoshlarning nomini berishda chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan ma’lum bir muqaddas ma’no mavjud[6:C.193.] ligi nafaqat lingvistik, balki madaniy-antropologik jihatdan ham qarindoshlik terminlarining ahamiyatini ta’kidlaydi.

Muhokama. Qarindoshlik terminlarining tasnifi turli mezonlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Bularga quyidagilar kiradi: jins; qarindoshlik xususiyati: qon-qarindoshlik/qaynon-qaynichilik; qarindoshlik darajasi: birinchi avlodda / ikkinchi avlodda va h.k.; urug‘iy nisbat erkak yoki ayol

jinsi bo‘yicha; yosh. [7:C.31] Mezonlarning xilma-xilligidan ko‘rinib turganidek, qarindoshlik terminologiyasining ichki tashkil etilishi murakkabdir.

Qarindoshlik xususiyati asosida qon-qarindoshlik terminlari va qaynichilik terminlari ajratiladi. Ushbu turlarni ajratishda erkak va ayol jinsli oila a’zolarining yagona umumiy ajdodga borib taqaladigan o‘zaro bog‘liqligi hisobga olinadi. Qon-qarindoshlik ajdod yagona bo‘lsa, tan olinadi. Bu to‘g‘ri qarindoshlikdir. Masalan, o‘g‘il va ota, bobo va nabira, evara va katta bobo kabi bog‘liqliklar misol bo‘lishi mumkin. Qon-qarindoshlik yuqori, pastki va yon liniyalar bo‘yicha farqlanadi. Bir urug‘ning nikoh orqali boshqa urug‘ bilan aloqa qilishi holatida qarindoshlik qaynon-qaynichilik deb ataladi.[8:C.150] Bu qarindoshlik tizimlarining ko‘pchiligi biologik va ijtimoiy aloqalar o‘rtasidagi fundamental farqni aks ettiradi.

Qon-qarindoshlik terminlari, qon-qarindoshlik (genetik, urug‘iy) qarindoshligini anglatuvchi terminlar, qarindoshlik aloqalarining umumiy tizimida asosiy rol o‘ynaydi, bu tizim genetik, nikoh, yuridik, cherkov, ma’naviy va boshqa qarindoshliklarni o‘z ichiga oladi, ular biologik bog‘langan qarindoshlik tizimini ifodalaydi, unda barcha a’zolar yagona umumiy ajdoddan kelib chiqqan bo‘lib, bu a’zolarning ijtimoiy o‘zaro bog‘liqlikka bog‘liqligi mavjud emas. [9:C.72] Qon-qarindoshlik terminlari quyidagilarga bo‘linadi: a) asosiy qon-qarindoshlik terminlari; b) yuqori liniya bo‘yicha qarindoshlik terminlari; v) pastki liniya bo‘yicha qarindoshlik terminlari; g) yon liniya bo‘yicha qarindoshlik terminlari.

Qaynichilik (nikoh) qarindoshligi terminlari ijtimoiy aloqalar bo‘yicha qarindoshlikni anglatadi. Qaynichilik qarindoshligi ijtimoiy o‘zaro munosabatlar jarayonida paydo bo‘ladi.[10:C.115] Qaynichilik qarindoshligi terminlari erkak liniyasi bo‘yicha va ayol liniyasi bo‘yicha qaynichilik qarindoshligi terminlaridan iborat.[11:C.162]. Nikohga nisbatan qarindoshlik terminlari va nikohdan keyingi munosabatlar terminlari farqlanadi. Bu nikoh aloqalari qon-qarindoshlikdan farqli o‘laroq, yangi bir qarindoshlik qatlamini yaratishini anglatadi.

Qarindoshlik va qaynichilik terminlaridan tashqari, o‘gay qarindoshlik terminlari yoki sun’iy qarindoshlik terminlari [12:C.185] ham ajratiladi. O‘gay qarindoshlik deganda asrab olingan ota-onalar va bolalarni belgilashga xizmat qiladigan so‘zlar tushuniladi. Bularga o‘gay ota, o‘gay ona, o‘gay o‘g‘il, o‘gay qiz, o‘gay bolalar kabi so‘zlar kirishi mumkin.[12:C.5.] Ko‘rib turganimizdek, o‘gay qarindoshlik terminlarini ajratish mezoni ota-onalar va bolalarning asrab olinganligi fakti bo‘lib xizmat qiladi, oilaning shakllanishining ijtimoiy va yuridik jihatlarini aks ettiradi.

Shuningdek, qon-qarindoshlik terminlari; bolalar tilidan olingan qarindoshlik terminlari; qaynichilik terminlari [13:C.114-142] ajratiladi. Bolalar tilidan olingan qarindoshlik terminlarini ajratish uchun asos, bizningcha, terminning kelib chiqishi mezoni hisoblanadi. Bu tilning bolalar nutqidan olingan so‘zlarni qarindoshlik aloqalarini belgilash uchun o‘zlashtirishi va moslashtirishi mumkinligini ko‘rsatib, terminlarga o‘ziga xos hissiy tus beradi.

Qarindoshlik terminlarining qiyosiy-tipologik tahlili odatda ularning tipologik tahlili bilan birga olib boriladi va ikki yo‘nalishga bo‘linadi: 1) qarindosh tillar, masalan, hind-evropa, ural yoki oltoy tillarining qarindoshlik terminologiyasini taqqoslash; 2) qarindosh bo‘lmagan tillar, masalan, bizning holimizda – ingliz va o‘zbek tillarining qarindoshlik terminologiyasini chog‘ishtirish. Qarindosh tillarda qarindoshlik terminologiyasini taqqoslashga misol sifatida M. Nikovich, N.V. Novospasskaya, N.V. Bhatti, E.Yu. Xaritonova [14: C. 74-78]. va boshqalarning ilmiy ishlarni sanab o‘tish mumkin. Qarindosh bo‘lmagan tillarda qarindoshlik terminologiyasining chog‘ishtirma tahliliga bag‘ishlangan ilmiy ishlar qatoriga V. Karimova, A.R. Beysembayev, A.A. Anuarbekova, R.Z. Muryasov [15: C. 98-107] va boshqalarning tadqiqotlari misol bo‘laoladi. Qiyosiy-tipologik yondashuv turli tillar va madaniyatlarda qarindoshlik terminologiyasining ham universal, ham o‘ziga xos xususiyatlarini, umumiy qonuniyatlar va milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlashga yo‘naltirilgandir.

Shunday qilib, biz olib borgan qarindoshlik terminologiyasi muammolari bo‘yicha lingvistik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda uni o‘rganishga etimologik, tizimli-struktural, diaxronik, etnografik (etnomadaniy), lingvokulturologik, gender, funksional-stilistik, qiyosiy kabi

turli yondashuvlarni ajratish mumkin.

Umuman olganda, hozirgi kunda tilshunoslarning ilmiy qiziqishi madaniyatning tilda aks etishi; milliy-madaniy dunyoqarashlarning va stereotiplarning eksplikatsiyasi; milliy dunyoqarashning etnomadaniy o‘ziga xosligi kabi muammolarga tobora ortib bormoqda.[16:C.348] Shu munosabat bilan, lingvokulturologik tahlil usullarini qo‘llash qarindoshlik terminlarini tadqiq qilishning yangi istiqbollarini ochadi.[16] Zero, qarindoshlik terminologiyasini chuqur tahlil qilish uchun nafaqat lingvistik, balki madaniy jihatlarni ham hisobga olish zarurdir.

Shuningdek, bizningcha, biror xalqning milliy ongida qarindoshlik terminologiyasining aks etishini o‘rganish bilan bir qatorda, turli muloqot vaziyatlarida qarindoshlik terminlari ma’nolar tizimida sodir bo‘ladigan funksional-semantik o‘zgarishlarni tadqiq qilish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Leksik-semantik, grammatik va funksional-stilistik xususiyatlarini genealogik jihatdan qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillardagi qarindoshlik terminlarining qiyosiy-tipologik tahlili muhim hisoblanadi, zero turli lisoniy olam manzarasida qarindoshlik terminologiyasining universal va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Shunday qilib, lingvistik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, qarindoshlik terminlari deganda o‘zaro qon-qarindoshlik, nikoh yoki ma’naviy aloqalar bilan bog‘langan insonlarni belgilashga xizmat qiladigan maxsus so‘zlar tushuniladi. Ular tilning leksik tizimida muhim rol o‘ynaydi, chunki ular har qanday tilning leksik fondining eng qadimgi, arxaik qatlamlaridan biridir. Biz buni inson jamiyatida qarindoshlik aloqalarining fundamental rolini tasdiqlovchi dalil deb bilamiz.

Xulosa. Jamiyat hayotida oila va urug‘ning qarindoshlik tizimi sifatida paydo bo‘lishi madaniy hodisa bo‘lib, shu munosabat bilan zamonaviy tilshunoslikda qarindoshlik terminlari ularda tilning milliy o‘ziga xosligi va shu tilda so‘zlashuvchi xalq mentalitetining aks etishi prizmasi orqali ko‘rib chiqiladi. Qarindoshlik terminining o‘zi bir ma’noli emasligini tasdiqlash mumkin, chunki qarindoshlik terminologiyasida o‘zaro qarindoshlik (qon-qarindoshlik, nikoh yoki ma’naviy) aloqalari bilan bog‘langan insonlarning barcha nomlari, shuningdek, muayyan jamiyat a’zolari o‘rtasidagi qarindoshlik aloqalari belgilari tizimlashtirilgan. Bu shuni anglatadiki, qarindoshlik terminlari shunchaki insonlarni atamaydi, balki ijtimoiy va madaniy o‘zaro bog‘liqliklarning murakkab tizimini kodlaydi, bu esa xalq madaniyati haqida eng qimmatli ma’lumot manbai hisoblanadi.

Shunday qilib, biz olib borgan adabiyotlar tahlili natijasida qarindoshlik terminlarini o‘rganishda etimologik, tizimli-struktural, diaxronik, etnografik (etnomadaniy), lingvokulturologik, gender, funksional-stilistik, qiyosiy yondashuvlar qo‘llanilishi aniqlandi. Qarindoshlik terminlarini tasniflashning eng keng tarqalgan mezonlari qarindoshlik xususiyati, jinsiy nisbat erkak yoki ayol jinsi bo‘yicha, yosh mezonlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Бхатти Н.В., Харитонова Е.Ю. Сравнительно-типологический анализ терминов родства в индоевропейских языках (на примере английского, немецкого, русского и урду) // Вестник ВГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2020. № 2. С. 30.

Конгу А.А. Номенклатура родства у тувинцев России, Монголии и Синьцзянь-Уйгурского автономного района Китая (по материалам полевых исследований) // Вестник Московского университета. Серия 8. История. 2014. № 1. С. 110.

Крюков М.В. К методике сбора полевого материала по системам родства // Советская этнография. 1972. № 4. С. 42.

Попов В.А. Системы терминов родства // Большая российская энциклопедия. Т. 30. М.: БРЭ, 2015. С. 303.

Оздоева Э.Г. Генезис терминов, обозначающих некровное родство в ингушском языке // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2016. № 3-2 (57). С. 122.

Файзуллина Г.Ч., Сулямова Р.М. Роль традиции имянаречения сибирских татар в

формировании вторичной номинации терминов родства // Вестник ЮУрГГПУ. 2016. № 10. С. 193.

Бхатти Н.В., Харитонова Е.Ю. Сравнительно-типологический анализ терминов родства в индоевропейских языках (на примере английского, немецкого, русского и урду) // Вестник ВГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2020. № 2. С. 31.

Цюй Юян Лингвокультурологический анализ систем терминов родства в русском и китайском языках // Педагогическое образование в России. 2016. №12. С. 150. Николенко О.Ю. Номинации кровного родства в древнерусском языке // Вестник Омского государственного педагогического университета. Гуманитарные исследования. 2018. № 4 (21). С. 72.

Конгу А.А. Номенклатура родства у тувинцев России, Монголии и Синьцзянь-Уйгурского автономного района Китая (по материалам полевых исследований) // Вестник Московского университета. Серия 8. История. 2014. № 1. С. 115.

Чертыкова М.Д. Базовые термины кровного родства в хакасском языке // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2019. №7-1. С. 162.

Бурыкин А.А., Попов В.А. Русская терминология родства и свойства: историческая динамика, аксиологические поля, коммуникативный дискурс. СПб.: Петербургское Востоковедение, 2020. С. 185.

Качинская И.Б. Термины заместительного родства в архангельских говорах // Вестник Пермского университета. 2016. Вып. 4 (36). С. 5.

Алгебра родства: Родство. Системы родства. Системы терминов родства / Сост. и отв. ред. В.А. Попов. СПб.: СПбНЦ РАН; АНО «КИО», 2019. Вып. 17. С. 114-142.

Николич М., Новоспасская Н.В. Термины родства в русском и сербском языках // Вестник РУДН. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. 2013. № 1. С. 74-78; Новоспасская Н.В., Лазарева О.В., Николич М. Особенности номинации родства-свойства в современном сербском литературном языке // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2018. № 2-2 (80). С. 350-355; Бхатти Н.В., Харитонова Е.Ю. Сравнительно-типологический анализ терминов родства в индоевропейских языках (на примере английского, немецкого, русского и урду) // Вестник ВГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2020. № 2. С. 29-38.

Каримова В. Краткий обзор по историю изучения терминов родства в узбекских и английских языках // Научный вестник НамГУ. 2019. № 12. С. 156-162; Бейсембаев А.Р., Ануарбекова А.А. Терминология родства в китайской, казахской и русской лингвокультурах // Вестник Инновационного Евразийского университета. 2012. С. 104-107; Мурясов Р.З. Термины родства в контрастивно-типологическом видении // Вестник Башкирск. ун-та. 2017. № 1. С. 98-107.

Афанасьева Е.Н. Этнокультурная специфика терминов родства в тексте якутского эпоса-олонхо «Дьулуруйар Ньургун Боотур» // Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2019. Т. 12. Вып. 6. С. 348.

Афанасьева Е.Н. Osha asar, 348-b.

Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980. — 242 p.

Wierzbicka A. Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. — Oxford: Oxford University Press, 1992. — 496 p.

Evans V., Green M. Cognitive Linguistics: An Introduction. — Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006. — 830 p.

Lyons J. Linguistic Semantics: An Introduction. — Cambridge: Cambridge University Press, 1995. — 376 p.

Апресян Ю. Д. Избранные труды. Т. 1: Лексическая семантика. — Москва: Школа «Языки русской культуры», 1995. — 472 с.

Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. — Москва: Языки славянской культуры, 2004. — 560 с.

Маслова В. А. Лингвокультурология. — Москва: Академия, 2001. — 208 с.

Азимова А. Til va madaniyat integratsiyasi masalalari // Filologiya masalalari. — Тошкент, 2019. — № 4. — Б. 70–78.

Жабборов Ш. Қариндошлик терминларининг лексик-семантик хусусиятлари // Филология масалалари. — Тошкент, 2020. — № 2. — Б. 75–82.

Махмудов Н. Til millat ma’naviyatining tayanchi sifatida // O‘zbek tili va adabiyoti. — Тошкент, 2005. — № 3. — Б. 15–22.

Назаров Х. Семасиология асослари. — Тошкент: Universitet нашриёти, 2012. — 190 б.

Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. — Тошкент: Fan, 2006. — 210 б.

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

KIMYO FANIDAN O‘QUV YUTUQLARINI SINASH METODOLOGIYASINING SAMARADORLIGINI EKSPERIMENTAL TEKSHIRISH

Allayarova Zilola Baxtiyor qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti II- bosqich magistranti

Komilov Qamariddin O‘rinovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Kimyo” kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Annotatsiya. Ushbu maqolada kimyo fanidan o‘quv yutuqlarini baholashning an’anaviy (test, og‘zaki so‘rov) va innovatsion (loyiha asosidagi vazifalar, elektron portfel) metodlarining samaradorligi eksperimental tadqiqot asosida solishtirmali tahli qilinadi. Tadqiqot 8-9-sinf o‘quvchilari guruhlarida olib borilgan bo‘lib, nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni egallash darajasi aniqlandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, innovatsion metodlardan foydalangan guruh an’anaviy metodlar qo‘llanilgan guruhga nisbatan murakkab tushunchalarni yaxshiroq tushunish va amaliy muammolarni hal qilishda yuqori natijalarga erishdi. Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘quv yutuqlarini sinashning zamonaviy metodologiyasi o‘quvchilarning fan bilan integratsiyasini oshirish va kritik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: o‘quv yutuqlari, baholash metodologiyasi, eksperimental tadqiqot, innovatsion usullar, an’anaviy usullar, loyiha asosidagi ta’lim, elektron portfel, kritik fikrlash, samaradorlik, kimyo ta’limi.

ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ ПРОВЕРКА ЭФФЕКТИВНОСТИ МЕТОДОЛОГИИ ТЕСТИРОВАНИЯ УЧЕБНЫХ ДОСТИЖЕНИЙ ПО ХИМИИ

Аллаярова Зилола Бахтиёровна
Магистрант II этапа Чирчикского государственного педагогического университета

Комилов Камариддин Уринович
Доцент кафедры «Химия» Чирчикского государственного педагогического университета, к.т.н.

Аннотация. В данной статье на основе экспериментального исследования проводится сравнительный анализ эффективности традиционных (тесты, устный опрос) и инновационных (проектные задания, электронное портфолио) методов оценки учебных достижений по химии. Исследование проводилось среди групп учащихся 8-9 классов, где определялся уровень усвоения теоретических знаний и практических навыков. Результаты показали, что группа, использовавшая инновационные методы, достигла более высоких результатов в понимании сложных понятий и решении практических задач по сравнению с группой, в которой применялись традиционные методы. В заключение можно сказать, что современная методология тестирования учебных достижений эффективна для повышения интеграции учащихся с наукой и развития критического мышления.

Ключевые слова: учебные достижения, методология оценивания, экспериментальное исследование, инновационные методы, традиционные методы, проектное обучение, электронное портфолио, критическое мышление, эффективность, химическое образование.

EXPERIMENTAL TESTING OF THE EFFECTIVENESS OF THE METHODOLOGY FOR ASSESSING LEARNING ACHIEVEMENTS IN CHEMISTRY

Allayarova Zilola Bakhtiyor qizi
Master's Student of Stage II, Chirchik State Pedagogical University

Komilov Kamariddin Urinovich
Associate Professor of the «Chemistry» Department, Chirchik State Pedagogical University, Ph.D. (Technical Sciences)

Abstract. This article provides a comparative analysis of the effectiveness of traditional (tests, oral surveys) and innovative (project-based tasks, e-portfolios) methods for assessing learning achievements in chemistry, based on experimental research. The study was conducted among groups of 8th-9th-grade students, determining the level of acquisition of theoretical knowledge and practical skills. The results showed that the group using innovative methods achieved higher results in understanding complex concepts and solving practical problems compared to the group where traditional methods were applied. In conclusion, the modern methodology for testing learning achievements is effective in enhancing students' integration with science and developing critical thinking skills.

Keywords: learning achievements, assessment methodology, experimental research, innovative methods, traditional methods, project-based learning, e-portfolio, critical thinking, tffectiveness, chemical education.

Kirish. Kimyo fanini o‘qitishda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash tizimi ta’lim sifatining asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Zamonaviy ta’limda baholash nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini aniglash, balki ularning intellektual rivojlanishiga yo‘naltirilgan, mustaqil izlanish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Biroq, amaliyotda baholashning asosan an’anaviy shakllari – markazlashtirilgan testlar, og‘zaki so‘rovlar va yozma nazorat ishlaridan keng foydalanilmoqda. Ushbu usullar, o‘zining soddaligi va o‘lchanuvchanligiga qaramay, o‘quvchilarning kreativlik, amaliy muammolarni hal qilish va ilmiy tadqiqot ko‘nikmalarini to‘liq aks ettirishda cheklovchiliklarga ega.

O‘quvchilarningsamaralirivojlanishiuchunbaholashningzamonaviy,faolusullarinijoriyetilishi dolzarb masaladir. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’limda an’anaviy yondashuvlardan kompetensiyaga asoslangan yondashuvga o‘tish zarur. V.V. Kraevskiy ta’kidlaganidek, “Ta’lim mazmuni nafaqat bilimlar, balki turli faoliyat turlari va unga xos tajribani egallashdir” [3, 45-bet]. Bu esa baholash metodlarini ham qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Zamonaviy pedagogikada loyihalar, elektron portfeliolar, eksperimentlarni bajarish va tahlii qilish, jamoaviy masalalarni hal qilish kabi faol baholash usullari tobora keng qo‘llanilmogda. J. Deweyning ta’limning amaliy va faol xususiyatini ta’kidlashi [1] va L.S. Vygotskiyning “o‘zlashtirish jarayoni – bu ijtimoiy faoliyatning ichki shakllarining paydo bo‘lishi” degan fikri [2, 112-bet] baholashning faol shakllarining ahamiyatini nazariy asoslaydi. M.S. Soipovaning tadqiqotlarida kimyo ta’limida loyiha usulidan foydalanish o‘quvchilarning bilim sifati va faniga bo‘lgan qiziqishini oshirishini isbotlaydi [4].

Shu bilan birga, kimyo faniga xos bo‘lgan murakkab tushunchalar va amaliy ko‘nikmalarni baholashda an’anaviy va innovatsion metodlarning samaradorligi haqida tizimli, eksperimental asoslangan solishtirma tadqiqotlar hali yetarli emas. Ko‘pincha yangi metodlar qo‘llaniladi, ammo ularning aniq ta’siri chuqur o‘rganilmay qoladi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotning maqsadi kimyo fanidan o‘quv yutuqlarini baholashning an’anaviy va innovatsion metodologiyalarining samaradorligini eksperimental yo‘l bilan solishtirma o‘rganish va ularning o‘quvchilarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish,

amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishdagi ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqotning metodologik asosini solishtirmali eksperiment tashkil etdi, chunki u an’anaviy va innovatsion baholash metodlarining samaradorligini qiyosiy tahli qilish imkonini beradi. Tadqiqot 2024-2025 o‘quv yilida Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi umumta’lim maktabining 9-sinf o‘quvchilari orasida olib borildi. Tadqiqot guruhlari namunasini shakllantirishda N.E. Pears va boshq. tomonidan ishlab chiqilgan guruhlarni tenglashtirish tamoyiliga asoslanildi [5]. Xususan, 50 nafar o‘quvchi (har biri 25 nafardan) ikkita guruhga – nazorat guruhi (NG) va eksperimental guruh (EG)ga ajratildi. Guruhlarning dastlabki bilim darajasi, o‘rtacha bahosi va kimyo faniga bo‘lgan motivatsiyasi jihatidan statistik jihatdan ahamiyatli farqga ega emasligi aniqlandi ($p>0.05$).

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Diganostika bosqichi: Ikkala guruh ham “Kimyoviy reaktsiyalar va ularning turlari” mavzusi bo‘yicha boshlang‘ich bilimlarni aniqlash uchun bir xil kirish testidan o‘tkazildi. Shuningdek, L.A. Regush [6] metodikasiga asoslangan “Kimyo faniga bo‘lgan qiziqish darajasi” so‘rovnomasi o‘tkazildi.

Eksperimental ta’sir ko‘rsatish bosqichi: Nazorat guruhida o‘quv yutuqlarini baholashning an’anaviy usullari – standart yopiq va ochiq shakldagi testlar, og‘zaki so‘rov va mustaqil yozma ishlar qo‘llanildi. Eksperimental guruhda esa J. Biggs tomonidan taklif etilgan “Konstruktiv muvofiqlashtirish” tamoyiliga asoslanib [7], quyidagi innovatsion baholash metodlari joriy etildi: Loyiha asosidagi baholash: O‘quvchilar “Uy-ro‘zg‘or kimyosi”, “Atrof-muhit muammolari va kimyo” kabi mavzular bo‘yicha 2-3 kishidan iborat guruhlarda loyihalar ishlab chiqdilar va himoya qildilar. Baholash A.V. Xutorskoy [8,11] tavsiyalariga asosan loyihaning dolzarbligi, amaliy ahamiyati, himoya qilish sifatiga qo‘yilgan me’yoriy talablar asosida amalga oshirildi. Elektron portfel (E-portfel) asosida baholash: Har bir o‘quvchi o‘zining Google Sites platformasida laboratoriya hisobotlari, loyiha tajribalari videolari, veb-questlar natijalari va o‘zini-o‘zi baholash refleksiv eslatmalaridan iborat raqamli kolleksiyani yuritdi. Baholash portfelning mazmuni, tizimliligi va rivojlanish dinamikasi asosida amalga oshirildi. Amaliy (kriterial) baholash: “Kislota va asoslarning identifikatsiyasi” kabi mavzular bo‘yicha laboratoriya ishlari bajarildi. Bunda M.N. Satiyeva [9,12] tomonidan taklif etilgan aniq ko‘rsatkichlar (usullarni to‘g‘ri tanlash, jihozlardan foydalanish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, natijalarni tahli qilish) asosida baholash amalga oshirildi.

Natijalarni qayta ishlash bosqichi: 6 oylik eksperimentdan so‘ng, ikkala guruh ham bir xil yakuniy nazorat ishiga tortildi. Yakuniy test J.B. Biggs va K.F. Collis tomonidan ishlab chiqilgan “SOLO-taksonomiyasi” [10,13] asosida tuzilib, savollar tushunish darajasi (1-bosqich), tadbiq etish (2-bosqich) va ijodiy qo‘llash (3-bosqich) darajalarini o‘lchaydigan qilib ishlab chiqilgan. Olingan ma’lumotlar SPSS 26.0 dasturiy majmuasida statistik tahli qilindi. Natijalarning ishonchliligi $p<0.05$ ahamiyatlilik darajasida Student t-testi va Mann-Whitney U-testi yordamida tekshirildi.

Natijalar. Tadqiqot davomida to‘plangan ma’lumotlarni statistik tahli qilish natijasida eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasida boshlang‘ich holatga nisbatan sezilarli farqlar aniqlandi. Quyida tadqiqotning asosiy natijalari keltirilgan.

1-jadval

Boshlang‘ich va yakuniy nazorat ishlari bo‘yicha o‘rtacha ballarning solishtirmali ko‘rsatkichlari

Guruh	O'quvchilar soni	Boshlang‘ich test (o‘rtacha ball)	Yakuniy test (o‘rtacha ball)	O‘sish (%)
Nazorat guruhi (NG)	25	58.4	71.5	22.4%
Eksperimental guruh (EG)	25	59.1	84.2	42.5%

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, boshlang‘ich testda ikkala guruhning o‘rtacha ballari o‘rtasida statistik ahamiyatli farq kuzatilmagan ($p>0.05$). Biroq, 6 oylik eksperimentdan so‘ng o‘tkazilgan yakuniy testda eksperimental guruhning o‘rtacha balli (84.2) nazorat guruhining o‘rtacha balidan (71.5) ancha yuqori bo‘ldi. O‘sish sur’ati EGda 42.5% ni tashkil etib, bu NGdagi 22.4% lik o‘sishdan deyarli ikki baravar yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

2-jadval

SOLO-taksonomiyasi asosidagi bilim darajalari bo‘yicha yakuniy test natijalari (%)

Bilim darajasi (SOLO)	Nazorat Guruhi (NG)	Eksperimental Guruh (EG)
1. Bir bosqichli / tuzilishsiz (Prestructural)	8%	0%
2. Bir tomondi / oddiy (Unistructural)	24%	12%
3. Ko‘p tomondi / murakkab (Multistructural)	52%	38%
4. Bog‘langan / munosabatli (Relational)	14%	35%
5. Abstrakt / kengaytirilgan (Extended Abstract)	2%	15%

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, EG o‘quvchilari eng muhim jihati – yuqori darajali fikrlash ko‘nikmalarini namoyish etishda ancha ustunlik qilgan. Xususan, EGda “Bog‘langan” (Relational) va “Abstrakt” (Extended Abstract) darajalarda javob bergan o‘quvchilar ulushi (50%) NGdagi ulushdan (16%) sezilarli darajada yuqori. Bu EG o‘quvchilarining kimyo tushunchalari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni chuqurroq tushunishlari va yangi, noma’lum vaziyatlarda o‘z bilimlarini qo‘llay olish qobiliyatlarini ko‘rsatadi. Aksincha, NGda “Oddiy” (Unistructural) va “Murakkab” (Multistructural) darajadagi javoblar ustunlik qilgan (76%), bu esa ularning asosan faktik ma’lumotlarni eslab qolish va oddiy qo‘llash bilan chegaralanganligini anglatadi.

Motivatsiya va qiziqish o‘zgarishlari. Tadqiqot boshida va oxirida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, EGda “kimyo faniga qiziqish bildiradi” va “kimyoni kelajakda o‘z kasbim sifatida ko‘raman” degan savollarga ijobiy javob bergan o‘quvchilar ulushi mos ravishda 36% dan 68% gacha va 20% dan 44% gacha o‘sdi. NGda esa bu ko‘rsatkichlar sezilarli o‘zgarishsiz qoldi (mos ravishda 40% dan 45% ga va 24% dan 26% ga).

Amaliy ko‘nikmalarning rivojlanishi. “Kislotalar va asoslar” mavzusidagi standart laboratoriya ishini bajarishda EG o‘quvchilarining 88% i eksperiment rejasini to‘g‘ri tuzdi, xavfsizlik qoidalariga to‘liq rioya qildi va olingan natijalarga asoslangan xulosa chiqardi. NG o‘quvchilarining atigi 60% i xuddi shu vazifani xatosiz bajarishga muvaffaq bo‘ldi. Eksperimental guruh o‘quvchilari nafaqat an’anaviy testlarda yuqoriroq ball to‘plab, balki muhimrog‘i – mavzuni chuqurroq tushunish, bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash va fanga bo‘lgan ijobiy munosabatda sezilarli yutuqlarga erishdilar.

Muhokama. Olingan eksperimental natijalar aniq ko’rsatadiki, kimyo fanidan o’quv yutuqlarini baholashning innovatsion metodologiyasi an’anaviy usullarga nisbatan sezilarli afzalliklarga

ega. Bu natijalarni chuqurroq tahli qilish va ularning pedagogik ahamiyatini muhokama qilish maqsadga muvofiq.

Nazariy bilimlarning chuqurlashuvi. Eksperimental guruhda kuzatilgan yuqori o'rtacha ball (84.2) va SOLO-taksonomiyasining yuqori darajalarida ko'proq javoblar berish, birinchi navbatda, konstruktivistik yondashuv bilan izohlanishi mumkin. J. Biggs ta'kidlaganidek, «o'qitish metodlari va baholash usullari o'quvchilarning o'rganish uslubiga bevosita ta'sir ko'rsatadi». Loyiha va elektron portfel kabi metodlar o'quvchilarni bilimni passiv qabul qiluvchidan uni faol konstruktoriga aylantiradi. Masalan, «Atrof-muhit muammolari va kimyo» loyihasini himoya qilish jarayonida o'quvchilar nafaqat kimyoviy reaktsiyalarni o'rganishdi, balki ekologik jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishga majbur bo'ldilar. Bu esa ularning bilimlarini «Relational» darajada shakllantirishga olib keldi. An'anaviy baholash esa asosan «Multistructural» darajada to'xtab qoladi, ya'ni faktlarni alohida-alohida eslab qolishni rag'batlantiradi.

Amaliy kompetensiyalarning rivojlanishi. Laboratoriya ishlaridagi yuqori ko'rsatkichlar (EGda 88% va NGda 60%) innovatsion baholash usullarining amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. M.N. Satiyeva ta'kidlaganidek, «kriterial baholash tizimi o'quvchiga nafaqat xatolarni, balki erishgan muvaffaqiyatlarini ham aniq ko'rish imkoniyatini beradi». Elektron portfel orqali o'quvchi o'tkazgan har bir tajribaning raqamli yozuvini saqlab, o'zining rivojlanish dinamikasini kuzatishi mumkin. Bu esa o'z-o'zini baholash va o'z faoliyatini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu zamonaviy ta'limning asosiy talablaridan biridir.

Motivatsion omil. Qiziqish va motivatsiyaning sezilarli o'sishi (EGda 36% dan 68% gacha) L.S. Vygotskiyning «o'quv faoliyatining motivatsion sohasi» haqidagi g'oyalarini amalda tasdiqlaydi. Innovatsion metodlar o'quvchilarga shaxsiy qiziqishlarini ifodalash, jamoada ishlash va o'z bilimlarining amaliy natijasini ko'rish imkoniyatini beradi. Bu esa ichki motivatsiyaning kuchayishiga olib keladi. Aksincha, an'anaviy testlar tashqi motivatsiya (bahoga erishish) bilan chegaralanadi, bu esa uzoq muddatda samarali emas.

Potensial cheklovlar va yechimlar. Shu bilan birga, innovatsion metodologiyani joriy etish muammolarsiz emas. Bu talab qiladi:

O'qituvchilardan qo'shimcha vaqt va metodologik tayyorgarlik (V.V. Kraevskiy ta'kidlagan «o'qituvchining yangi rolidagi o'zgarishi»).

Maktablarni zamonaviy texnologik resurslar (kompyuterlar, internet) bilan ta'minlash.

Baholash mezonlarini aniq ishlab chiqish va ularni o'quvchilarga oldindan ma'lum qilish (J. Biggsning «Shaffof baholash» tamoyili).

Muhokama qilinayotgan natijalar shuni ko'rsatadiki, kimyo ta'limida baholash tizimini isloh qilish nafaqat o'quvchilarning akademik yutuqlarini oshirish, balki ularning butun shaxsini kompententlik yondashuviga muvofiq rivojlantirish imkoniyatini beradi. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu metodlarning uzoq muddatli ta'siri va turli o'quvchilar guruhlarida qo'llash imkoniyatlarini o'rganishga qaratilishi kerak.

Xulosa. Tadqiqot natijalari kimyo fanidan o'quv yutuqlarini sinashda innovatsion metodologiyaning an'anaviy usullarga nisbatan samaradorroq ekanligini isbotladi. Faol baholash usullari o'quvchilarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va fan bilan qiziqishlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O'quv jarayoniga loyihalar, elektron resurslar va amaliy ishlarni keng joriy etish ta'sirchanlikni sezilarli darajada oshiradi. Kelajakda turli ta'lim bosqichlari va fanlar uchun innovatsion baholash modellarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlarni olib borish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

Dewey J. Democracy and Education. — The Macmillan Company, 1916.
Vygotskiy L.S. Mishleniye i rech. — M.: Labirint, 2005. — 352 s.

Kraevskiy V.V., Xutorskoy A.V. Osnovi obucheniya: Didaktika i metodika. — M.: Akademiya, 2007. — 352 s.

Soipova M.S. Metodika ispolzovaniya proyektnoy texnologii v obuchenii ximii. — Toshkent: Fan, 2020. — 150 b.

5. Pears, N.E., et al. Experimental Design in Educational Research. — London: Academic Press, 2019. — 245 p.

6. Регуш, Л.А. Практикум по педагогической диагностике. — СПб.: Питер, 2020. — 178 с.

7. Biggs, J. Teaching for Quality Learning at University. — SRHE & Open University Press, 2020. — 335 p.

8. Хуторской, А.В. Современная дидактика. — М.: Высшая школа, 2018. — 456 с.

9. Сатиева, М.Н. Современные методы оценки учебных достижений по химии. — Ташкент: Укитувчи, 2021. — 215 с.

10. Biggs, J.B., & Collis, K.F. Evaluating the Quality of Learning: The SOLO Taxonomy. — New York: Academic Press, 2019. — 278 p.

11. To‘xtaniyozova F.O. Sport maktablarida kimyo darslarini olib borishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish usullari// Kasb-hunar ta’limi, 2025, №1 (6), 149-153 betlar.

12. Buzrukxodjaev A., Komilov K.U. Kimyodan masalalar yechishda o‘ziga xos yondoshuv// Scientific and technical journal of NamIET, 2024, 1 (Special Issue), 45-47 betlar.

13. Komilov K.U. Muammoli o’qitish orqali kimyo fanlaridan talabalarning tajribaviy ko’nikmalarini shakllantirish/ «Sarbon LLS» MCHJ bosmaxonasi, Toshkent, 2024, 135 b.

7E MODELI ASOSIDA TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING SAMARALI METODIKASI

Amirullayeva Barno Abdulhaqovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, “Pedagogika” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada konstruktiv yondashuvga asoslangan 7E modelining tarixiy asosi, 7E o‘quv siklining bosqichlari, bu modeldagi o‘qituvchi va o‘quvchining roli, 7E o‘quv modelining afzalliklari hamda uni o‘qitish va o‘rganishni samarali tashkil etish uchun qo‘llashning ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar. 7E o‘quv sikli modeli, konstruktiv yondashuv, samarali ta’lim olish jarayoni.

Аннотация. В данной статье рассматривается историческая основа модели 7E, основанной на конструктивистском подходе, этапы учебного цикла 7E, роль учителя и учащихся в данной модели, преимущества модели 7E и значение её применения для эффективной организации процесса обучения и преподавания.

Ключевые слова. Модель учебного цикла 7E, конструктивистский подход, эффективный процесс.

Annotation. This article discusses the historical background of the 7E model based on the constructivist approach, the stages of the 7E learning cycle, the roles of teachers and students within this model, the advantages of the 7E learning model, and the importance of its application for effective teaching and learning organization.

Keywords. 7E learning cycle model, constructivist approach, effective learning process.

Kirish. So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida o‘quvchi faoliyatini markazga qo‘yuvchi metodlarga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortmoqda. Shunday yondashuvlardan biri sifatida konstruktiv ta’lim nazariyasi e’tirof etiladi. Mazkur yondashuv nuqtai nazaridan, inson bilim va tushunchalarni shaxsiy tajriba orttirish hamda ushbu tajribalarni tahlil qilish asosida shakllantiradi. Konstruktiv yondashuv ta’lim oluvchilarning yangi bilimlarni mavjud bilimlar asosida shakllantirishini asosiy tamoyil sifatida ilgari suradi. Shu boisdan, pedagog uchun yangi mavzuni o‘rgatishdan avval o‘quvchilarning mavjud bilimlar darajasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda, ta’lim oluvchilar o‘rganilishi mo‘ljallangan tushunchalardan farqli va noto‘g‘ri tasavvurlarni rivojlantirib olishlari ehtimoldan xoli emas [1].

O‘rganilgan adabiyotlar tahlili. Konstruktiv ta’lim nazariyasi asosida bir qator samarali o‘qitish strategiyalari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular orasida o‘quv sikli tadqiqotga asoslangan yondashuv sifatida ajralib turadi. Mazkur model konstruktivizm tamoyillariga tayangan holda shakllantirilgan bo‘lib, amaliyotda 3E dan 7E gacha bo‘lgan turli xil o‘quv sikllari shaklida qo‘llanilmoqda.

Ta’lim sikli modelining dastlabki uch bosqichdan iborat varianti Karplus va Their tomonidan Tabiiy fanlar o‘quv dasturini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot (SCIS) doirasida ilgari surilgan [2]. Ushbu uch bosqichli o‘quv sikli tadqiq qilish (Exploration), yangi tushuncha hosil qilish (Invention) va kashfiyot (Discovery) bosqichlarini o‘z ichiga olgan. Uch bosqichli o‘quv sikli asosida turli darajadagi o‘quv sikl modellari shakllanib, to‘rt, besh, yetti va to‘qqiz bosqichli variantlar ishlab chiqilgan.

1987 yilda Biologiya fanlari dasturi tadqiqoti (BSCS) doirasida ishlab chiqilgan 5E modeli keng qo‘llanilayotgan strukturalardan biri bo‘lib, u beshta asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi: jalb qilish (Engage), tadqiq qilish (Explore), tushuntirish (Explain), chuqurlashtirish (Elaborate) va baholash (Evaluate). Artur Ayzenkraft (Arthur Eisenkraft) tomonidan ishlab chiqilgan 7E modeli asosan 5E modelining kengaytmasi hisoblanadi [3]. 7E modeli o‘quv sikli doirasida yetti bosqichdan iborat – bilimlarni aniqlash (Elicit), jalb qilish (Engage), tadqiq qilish (Explore), tushuntirish (Explain),

chuqurlashtirish (Elaborate), baholash (Evaluate) va kengaytirish (Extend) (3-rasm).



3-rasm. Ta’lim siklining 7E modeli

Tadqiqot metodologiyasi. Aniqlash - o‘quv siklining dastlabki bosqichi bo‘lib uning asosiy maqsadi o‘quvchilarning o‘rganilishi rejalashtirilgan mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarini aniqlashdan iborat. Pedagog o‘quvchilarda avvaldan mavjud bilimlarini savol-javob, BBB (bilaman, bilib oldim, bilmoqchiman) jadvali, ochiq savollar, “sherigini top” kartochkalari kabi turli diagnostik usullar orqali aniqlashi mumkin. Shu bilan birga o‘qituvchi o‘quvchilarning mavzuga oid noto‘g‘ri tushunchalarini aniqlashga ham e’tibor qaratadi. Masalan, “Yerning aylanish orbitasi” mavzusi bo‘yicha o‘quvchilardagi mavjud bilimlarni aniqlash uchun o‘qituvchi quyidagi savollarni berishi mumkin:

Yer qanday harakatlanadi?

Yer Quyosh atrofida aylanadimi? yoki Quyosh Yer atrofida aylanadimi?

Yurtimizda yil fasllari qanday almashinib turadi?

O‘quvchilardan keladigan javoblar ularning Yer va uning aylanish orbitasi haqidagi bilimlarini ochib beradi.

Jalb qilish bosqichining asosiy maqsadi - o‘quvchilarning e’tiborini yangi o‘quv mavzusiga yo‘naltirishdan iborat. Ushbu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otish, ularni bilim olish jarayoniga jalb etish hamda keyingi o‘quv faoliyatiga psixologik va intellektual jihatdan tayyorlashga intiladi. Masalan, “Yerning aylanish orbitasi” mavzusiga o‘quvchilar e’tiborini jalb qilish uchun o‘qituvchi ularga bir voqea aytishi, video ko‘rsatishi, diagramma yoki kichik bir ilmiy amaliyot namoyish qilishi va taqdim etilgan material asosida bir necha savollar berishi mumkin. Shu tarzda o‘quvchilar yerning aylanish orbitasi mohiyatini tushunib, tabiiy ravishda o‘rganishga rag‘batlanadilar.

Tadqiq qilish bosqichining maqsadi - o‘quvchilarga mustaqil izlanish va tajriba asosida yangi tushunchalarni shakllantirish imkonini berishdir. Bu jarayonda o‘quvchilar faol ishtirok etib, kuzatish, muhokama va hamkorlik orqali o‘z bilimlarini rivojlantiradilar. O‘qituvchi esa yo‘naltiruvchi va maslahatchi rolini bajaradi. Guruhda ishlash, fikr almashish va muloqot qilish orqali o‘quvchilar konseptual tushunishni chuqurlashtiradilar hamda ijtimoiy-ta’limiy ko‘nikmalarni egallaydilar. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarni “bahor”, “yoz”, “kuz” va “qish” nomli to‘rt guruhga ajratishi mumkin. Har bir guruh o‘ziga biriktirilgan fasl doirasida ma’lumot to‘plab, uning davomiyligi, boshlanish va tugash sanalari hamda ushbu faslning Yerning Quyosh atrofidagi harakatiga bog‘liq jihatlarini tahlil qiladi. Biroz vaqt o‘tgach, har bir guruh o‘z mavzusini boshqa guruhlar oldida qisqacha taqdim etishi mumkin. Har bir taqdimotdan so‘ng guruhlar

o‘rtasida munozara olib borilishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarni taqdim etilgan ma’lumotlarga asoslanib savollar berishga undaydi, bu esa ularning tushunishini aniqlash va tushunchaga oid noto‘g‘ri fikrlar mavjudligini ochib berishga yordam beradi.

Tushuntirish - bosqichida o‘quvchilar o‘z fikr va tushunchalarini o‘qituvchi hamda sinfdoshlari bilan muhokama qiladi. O‘qituvchi savollar orqali ularning bilim darajasini aniqlaydi, fikrlashga yo‘naltiradi va tushunchalarni hayotiy misollar bilan bog‘lab tushuntiradi. Masalan, o‘quvchilardan yerning aylanish orbitasini o‘z so‘zlari bilan izohlash so‘raladi, so‘ngra o‘qituvchi yerning o‘z o‘qi va quyosh atrofida aylanishi, bunga bog‘liq holda fasllarning almashinuvini ilmiy asosda yoritadi.

Chuqurlashtirish: Ushbu bosqichda o‘quvchilar “Tushuntirish” bosqichida o‘rgangan ma’lumotlarini amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu ularning tushunchalarni yanada chuqurlashtirishiga yordam beradi. O‘quvchilarga tushunchani yanada yaxshiroq anglash uchun tegishli faoliyatlar yoki tajribalar ko‘rsatilishi mumkin. Oldingi bilimlar yordamida o‘quvchilar ko‘proq savollar berishadi, yechimlar topishadi va dalillardan oqilona xulosa chiqarishadi.

Masalan, bu bosqichda o‘quvchilar “Orbitamiz – fasllar sirini ochuvchi kalit” mavzusida topshiriq beriladi. Topshiriq yuzasidan rangli qog‘ozlar, plastilin, chiroq, kichik globus yoki tennis to‘pi kabi kerakli jihozlar guruhlarga tarqatiladi. Guruhlar qog‘ozga ellips orbitasini chizishadi. Yer sifatida tennis to‘pi orbitaga qo‘yiladi. Markazga quyosh sifatida chiroq joylashtiriladi. Har bir guruh quyidagi savollarga javob topish uchun modelda tajriba o‘tkazishadi:

Quyosh nurlari doimo yer yuzasining biror nuqtasiga perpendikulyar ravishda tushadimi?
Yerning Quyoshga nisbatan yaqinlashishi va uzoqlashishi o‘rtasida qanday farqlar bor?
Agar yerning aylanish o‘qi og‘ma bo‘lmaganida, fasllar hosil bo‘larmidi?

Quyidagi jadvalni to‘ldiradilar:

Holati	Quyoshga yaqin bo‘lganida	Quyoshdan uzoqlashganida	O‘q tik bo‘lsa
Yer yuzasi qizib ketadimi?			
Fasllar o‘zgaradimi?			

Har bir guruh o‘z kuzatishlariga ko‘ra to‘rt faslni ifodalovchi rasm chizadi.

Bir necha daqiqadan so‘ng har bir guruh o‘z tajribalarini boshqa guruhlar va o‘qituvchi bilan bo‘lishadi. Ushbu faoliyat ularga Yerning Quyosh atrofida aylanishi, uning fasllar almashinishiga qanday bog‘liqligini o‘rganishga va tanqidiy tahlil qilishga yordam beradi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak shifokorlarda divergent tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslari, usullari va amaliy yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqotda divergent tafakkur — bu talabalarda mustaqil, erkin va original fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim kognitiv jarayon sifatida talqin etiladi. Maqolada tibbiy ta'limda ushbu tafakkur turini rivojlantirish uchun pedagogik sharoitlar, innovatsion metodlar, muammoga asoslangan o'qitish (PBL), klinik simulyatsiyalar va muammoli topshiriqlarning ta'siri ko'rib chiqilgan. Shuningdek, bo'lajak shifokorlarning kasbiy refleksiyasi, klinik holatlarga moslashuvchan yondashuvi va kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda divergent tafakkur alohida o'rin tutishi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari pedagogik jarayonda ijodiy fikrlashga yo'naltirilgan yondashuvlarning dolzarbligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. divergent tafakkur, tibbiy ta'lim, pedagogik yondashuv, bo'lajak shifokor, ijodiy fikrlash, muammoli topshiriq, masalaga asoslangan ta'lim, klinik tafakkur, pedagogik shart-sharoit, kasbiy kompetensiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ДИВЕРГЕНТНОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ

Бекчанова Солиха Давлатназаровна
Докторант Бухарского государственного медицинского института

Аннотация. В данной статье проанализированы педагогические основы, методы и практические направления развития дивергентного мышления у будущих врачей. В исследовании дивергентное мышление рассматривается как важный когнитивный процесс, способствующий формированию у студентов навыков самостоятельного, свободного и оригинального мышления. В статье освещаются педагогические условия и инновационные методы, направленные на развитие данного типа мышления в медицинском образовании, в том числе обучение, основанное на проблемах (PBL), клинические симуляции и проблемные задания. Также обоснована особая роль дивергентного мышления в формировании профессиональной рефлексии, гибкого подхода к клиническим ситуациям и креативного мышления у будущих врачей. Результаты исследования подчёркивают актуальность творчески ориентированных подходов в педагогическом процессе.

Ключевые слова: дивергентное мышление, медицинское образование, педагогический подход, будущий врач, креативное мышление, проблемное задание, обучение на основе проблем, клиническое мышление, педагогические условия, профессиональная компетентность.

PEDAGOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING DIVERGENT THINKING IN FUTURE DOCTORS

Bekchanova Soliha Davlatnazarovna
Doctoral student of the Bukhara State Medical Institute

Abstract. This article analyzes the pedagogical foundations, methods, and practical directions for developing divergent thinking in future physicians. The study considers divergent thinking as an essential cognitive process that fosters the formation of independent, free, and original thinking skills in students. The article highlights pedagogical conditions and innovative methods aimed at cultivating this type of thinking in medical education, including problem-based learning (PBL),

clinical simulations, and open-ended tasks. The special role of divergent thinking in developing professional reflection, a flexible approach to clinical situations, and creative reasoning in future physicians is substantiated. The research findings emphasize the relevance of creativity-oriented approaches in the pedagogical process.

Keywords: divergent thinking, medical education, pedagogical approach, future physician, creative thinking, problem-based task, problem-based learning, clinical thinking, pedagogical conditions, professional competence.

KIRISH. Tibbiy ta’lim jarayonida divergent tafakkurni rivojlantirish – bu talabalarni fikrlashga, muammoga turlicha yondashishga va mustaqil qaror qabul qilishga o’rgatish demakdir. Mazkur jarayonni samarali amalga oshirishda ta’limning bir qator pedagogik jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bular ta’lim mazmuni, ta’lim-tarbiya jarayonining mohiyati va metodik yondashuvlar orqali namoyon bo’ladi.

Pedagogik jihatlar – ta’lim jarayonida ma’lum bir maqsad, mazmun, munosabat va axloqiy tamoyillar asoslanishi lozimligini belgilaydi.

Pedagogik imkoniyatlar esa, mavjud metodlar, texnologiyalar va resurslar orqali divergent tafakkurni amaliy rivojlantirish sharoitlarini mujassam etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Bo‘lajak shifokorlarda divergent tafakkurni shakllantirish masalasi psixologiya, pedagogika va tibbiy ta’lim metodikasi chorrahasida joylashgan muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Ushbu mavzuga doir adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, divergent tafakkur tushunchasi ilm-fan muomalasiga XX asrning o‘rtalarida amerikalik psixolog J. Guilford tomonidan kiritilgan bo‘lib, u tafakkurning ikki asosiy shaklini – konvergent va divergent fikrlashni farqlab bergan. Unga ko‘ra, divergent tafakkur erkin, moslashuvchan va original fikrlar oqimini anglatadi.

E. Torrance tomonidan divergent tafakkur mezonlari (fluency, flexibility, originality, elaboration) ishlab chiqilgan bo‘lib, aynan uning test tizimi (TTCT – Torrance Tests of Creative Thinking) bugungi kunda ijodiy fikrlashni baholashning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi [1]. Bu yondashuvlar talabalarda ijodiy tafakkurni shakllantirish uchun mustahkam ilmiy asos yaratdi.

Yevropa va AQShda tibbiy ta’lim kontekstida divergent tafakkur klinik tafakkur, refleksiya va murakkab qaror qabul qilish ko‘nikmalari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Jumladan, J. Epstein, S. Cooke va M. Eva [2-4] kabi mualliflar o‘z ishlarida klinika-simulyatsion metodlar, muammo asosidagi o‘qitish (PBL), reflektiv yozuvlar orqali bo‘lajak shifokorlarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilganlar.

Rus pedagogikasida V.V.Davidov, D.B. Elkonin, L.V. Zankov singari olimlar faoliyatga asoslangan o‘qitish modeli orqali ijodiy tafakkur va muammoli yondashuvni rivojlantirish yo‘llarini taklif etganlar. N.B.Shumakova va A.G. Asmolovlar esa, tafakkurning strukturaviy va psixologik asoslarini tahlil qilish orqali ijodiy fikrlash rivojining sotsiokognitiv jihatlarini yoritib bergan.

O‘zbekiston pedagogikasida esa, bu mavzu so‘nggi yillarda alohida e’tibor qozonmoqda. I.Axmedov, Z.Toirova, M.To‘xtasinov kabi olimlar ta’lim jarayonida ijodiy fikrlashni shakllantirish, talabaning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va kasbiy yondashuvga asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqishga alohida urg‘u bermoqdalar.

Umumlashtirib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, divergent tafakkur bo‘lajak shifokorlar uchun zarur bo‘lgan reflektiv, moslashuvchan va kreativ fikrlash asosidir.

Hali ham ushbu masalada empirik asoslangan metodik ishlanmalar va milliy kontekstda tadqiqotlar yetarli emas, bu esa yangi izlanishlar uchun imkoniyat yaratadi.

METOD VA METODOLOGIYA. Ushbu tadqiqotda bo‘lajak shifokorlarda divergent tafakkurni rivojlantirish jarayonini o‘rganish uchun nazariy, tahliliy, tizimli, kontekstual metodlar qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kreativ pedagogika, kognitiv psixologiya hamda

kompetensiyaviy yondashuv tashkil etdi.

MUHOKAMA. Ma’lumki, hozirgi kunda jahonda tibbiyot sohasida innovatsiyalar va moslashuvchanlikka bo’lgan talab ortib borayotgani sababli, ko’plab mamlakatlar tibbiyot talabalari va tibbiyotga oid yo’nalishlarda tahsil oluvchi talaba yoshlarda divergent tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim tashabbuslarini ishlab chiqmoqdalar va joriy etmoqdalar. Bu, o’z navbatida, turli madaniy va institutsional sharoitlarda samarali strategiyalar va natijalarni namoyon qilayotganligi bilan diqqatga sazovordir. Jumladan, Amerika Qo’shma Shtatlarida bir qator tibbiyot maktablari kreativlik va tanqidiy fikrlashni asosiy o’quv dasturlariga uyg’unlashtiruvchi faol ta’lim strategiyalarini qabul qilgan. Stenford universiteti tibbiyot maktabi o’zining «Sog’liq uchun dizayn» dasturi orqali yangicha ijodiy tafakkurni joriy etgan. Bu bilan fanlararo jamoaviy loyihalar amalga oshirilib, innovatsiyalar ilgari surilmoqda. Michigan universiteti esa, talabalarda ochiq mulohaza yuritish va ijodkorlikni rag’batlantirishga juda katta e’tibor beradi. Buning uchun refleksiv yozish, modellashtirish asosidagi improvizatsiya va stsenariy asosida rejalashtirish usullarini qo’llab kelmoqda va yuqori natijadorlikka erishmoqda [5].

Yevropada Niderlandiyaning Maastrixt universiteti tibbiy ta’limda muammoga asoslangan ta’lim (PBL) modeli bo’yicha dastlabki tashabbuskor oliy ta’lim muassasasi hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, talabalar tomonidan mustaqil tadqiqot o’tkazish va klinik holatlarni har tomonlama chuqur tahlil qilishga asoslanadi. Mazkur institut tajribasi butun Yevropa bo’ylab ommalashtirilgan. Bu model moslashuvchan fikrlash va hamkorlikda qaror qabul qilish ko’nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Yana bir pedagogik imkoniyatga e’tibor qaratish lozim. Buyuk Britaniyada Londondagi Imperiya kolleji tibbiyot sohasida innovatsiyalarga bag’ishlangan modullarni joriy etgan. Bunda talabalar real muammolarga yechimlar yaratishga ilhomlantirilishi maqsad qilib olingan.

Osiyoda Singapur Milliy universiteti (NUS) va Yaponiyaning Kioto universiteti kabi oliy ta’lim muassasalari tibbiy tayyorgarlik jarayoniga kreativlikni oshiruvchi amaliy yondashuvlarni joriy etgan.

Mazkur tashabbuslar, o’z navbatida, divergent tafakkurning bemorlarga kompleks yondashuv va tibbiy etikadagi ahamiyati naqadar ortib borayotganidan dalolat beradi. Dunyo bo’ylab samarali hisoblangan dasturlar ko’p hollarda quyidagi asosiy pedagogik xususiyatlarni namoyon etadi:

Fanlararo hamkorlik. Bu taalabalarni turli sohalar, jumladan muhandislik, gumanitar fanlar vakillari bilan hamjihatlikda tibbiyot muammolari ustida ishlashga rag’batlantirish orqali ularning dunyoqarashini kengaytirishga e’tibor beriladi.

Refleksiv amaliyotlar. Bu kundalik yozish, narativ tibbiyot (hikoya orqali davolash) va o’z-o’zini baholash kabi usullar metakognitiv onglilik va ochiqlikni bevosita rivojlantiradi.

Modellash va improvizatsiya. Bu metodlar klinik noaniqlikni qayta yaratib, talabalarni bosim ostida moslashuvchan fikrlashga o’rgatishni maqsad qiladi.

Ijodiy baholash formatlari. Bular, albatta, portfolio, dizayn-loyihalar va og’zaki taqdimotlar bo’lib, talabalarga o’z g’oyalarini original tarzda ifodalash imkonini yaratadi [6].

Ta’kidlash joizki, mazkur usullar natijasida juda ko’p ijobiy natijalarga erishilgan. Jumladan, tashhislashdagi moslashuvchanlik yaxshilanadi, Empatiya (boshqalarni tushunish qobiliyati) ortadi. Jamoada ishlash ko’nikmalari rivojlanadi. Davolashga yangicha va innovatsion yondashuvlar yaratish qobiliyati yanada kuchayadi.

Eng muhimi, ushbu davlatlar tajribasi shuni ko’rsatadiki, divergent tafakkurni rivojlantirish akademik qat’iyatni kamaytirmaydi, aksincha, talabalarning o’qishga jalb etilganligini, moslashuvchanligini va kasbiy rivojlanishini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ta’kidlash joizki, mazkur xalqaro tajriba boshqa tibbiyot ta’lim muassasalari uchun asos bo’lib xizmat qilishi, tabiiy. Albatta, buning uchun strategiyalar mahalliy shart-sharoitlar va talabalar ehtiyojlariga moslashtirilishi talab etiladi. Bunda asosiy maqsad o’zgarmasdan qolaveradi. Har bir davlat barkamol, ilg’or fikrlaydigan tibbiyot mutaxassislarini tayyorlashni o’zining asosiy

maqsadi deb biladi.

O’zbekiston sharoitida tibbiyot oliy ta’lim muassasalari talabalarida divergent tafakkurni rivojlantirishning pedagogik jihatlarini to’liq va tizimli tasniflash uchun quyidagi asosiy yo’nalishlar bo’yicha tahlilni amalga oshirish zarur. Ushbu jihatlar ta’limning mazmuni, shakli, metodikasi, muhiti va natijalari bilan bevosita chambarchas bog’liqdir.

Didaktik jihatlar. Bunda, albatta, birinchi navbatda, o’quv mazmunidagi imkoniyatlar hisobga olinadi. Tibbiy ta’limda didaktik jihatlar faqat bilim berish emas, balki talabalarning fikrlash qobiliyatini shakllantirish va ijodiy yechimlar topishga yo’naltirilgan tizim nazarda tutiladi. Yuqorida ta’kidlab o’tilanidek, divergent tafakkur — bu muammoga turlicha yondashish, yangi va original g’oyalar yaratish qobiliyatidir. Uni rivojlantirish uchun didaktik yondashuvlar mos va maqsadli bo’lishi talab etiladi.

Ikkinchidan, o’qitish shakllariga e’tiborni qaratish. Bular muammoga asoslangan ta’lim (Problem-Based Learning — PBL); ta’limni individuallashtirish va shaxsga yo’naltirish; simulyatsiya va klinik holatlar asosida o’qitish talab etiladi [7].

Divergent tafakkurni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlariga ta’sir qiluvchi yana bir omil bu metodik jihatlardir. Bunda divergent tafakkurni rag’batlantiradigan metodlar: Breynstorming, sinektika, «6 ta shlyapa» usuli; keys-stadi va klinik stsenariylar tahlili; tahlil-taqqoslash va alternativ yechimlarni izlash usullari; refleksiv yozish va narrativ metodlarga e’tibor qaratish talab etiladi [8].

Divergent tafakkurni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlariga o’qituvchi roli ham asosiy o’rin egallaydi. Bunda mutaxassis emas, fasilitator sifatida faoliyat yuritish; yordamchi savollar orqali talabaning mustaqil fikrlashini qo’llab-quvvatlash; divergent fikrlarning turli variantlarini tan olish va muhokama qilish talab etiladi. Buning uchun o’qituvchilarning divergent tafakkur va ijodkorlik pedagogikasi bo’yicha qayta tayyorgarligi va malakasini muntazam oshirib borishi asosiy o’rin egallaydi.

Uchinchidan, tarbiyaviy jihatlarga ham e’tibor qaratish joiz. Bunda eng asosiy jihatlar sifatida intizom va tanqidiy yondashuvni rivojlantirish; axloqiy masalalarda murakkab va nomuayyan qarorlarni qabul qilish qobiliyatini shakllantirish; empatiya va gumanizm kabi shaxsiy sifatlarning ijodiy fikrlashga ta’sirini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

To’rtinchidan, fanlararo va bevosita amaliyotga bog’liq jihatlarni qo’llash, ya’ni tibbiy informatika, bioinjeneriya, sotsiomeditsina, etika fanlari bilan bog’liq ijodiy loyihalar; amaliyotda yangiliklar taklif qilish, jumladan, klinikadagi mavjud muammolarni ijodiy hal qilish takliflari; interfaol seminarlar va fanlararo guruhlarda ishlash tajribasini qo’llash talab etiladi.

Beshinchidan, milliy an’analar va mentalitetga mos jihatlarni qo’llash maqsadga muvofiq. Bunda, albatta, o’zbek xalqining qadriyatlari va madaniyati bilan uyg’unlashgan tarbiyani amalga oshirish; axloq va insonparvarlikka asoslangan muammoli vaziyatlarni tahlil qila olish; milliy o’zlikni saqlagan holda, global yondashuvni singdirish talab etiladi.

Oltinchidan, ta’lim muhiti va infratuzilmaviy jihatlarni e’tiborga olish. Bunda yaratilgan ijodiy muhit (simulyatsion markazlar, innovatsion laboratoriyalar, axborot-resurs markazlari); elektron ta’lim platformalarida individual va ijodiy topshiriqlar mavjudligi; ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlari (yosh olimlar uchun grantlar va tanlovlar) asosiy rol o’ynaydi.

Yettinchidan, baholash tizimidagi jihatlarga e’tibor qaratilishi, ya’ni ijodkorlik va fikrlash kengligiga bag’ishlangan portfolio, loyiha, prezentatsiya, esse va tahliliy hisobotlar; test orqali emas, muammoli vazifalar orqali bilish va fikrlash faoliyatini baholash; savollar tuzilishida bir to’g’ri javobdan ko’ra, bir necha muqobil yondashuvlarini qabul qilish nazarda tutiladi.

Ma’lumki, hozir Yangi O’zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan sog’liqni saqlash sohasidagi keng qamrovli islohotlar, mavjud muammolarni hal qilishdagi innovatsion yondashuvlar va tashhislash hamda davolashdagi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot oliy tibbiy ta’lim muassasalariga yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashda fikrlashning yangi sifatini joriy etishni talab etmoqda. Bo’lajak shifokor hozirgi zamon sharoitida murakkab, ziddiyatli va noaniq vaziyatlarda mustaqil

qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lmog'i davr talabidir. Ta'kidlash joizki, mazkur qobiliyatni shakllantirishda muhim pedagogik vazifa bu - divergent tafakkurni rivojlantirish hisoblanadi.

Bizningcha, divergent tafakkur sog'liqni saqlashda klinik noaniqlikka tayyorgarlik, ehtimoliy muammolarni bartaraf qilish va shu vaziyatda bemorning holatini chuqur tushunish asosidagi qaror qabul qilish salohiyatini namoyon qiladi. Bu boradagi tadqiqotlar ilmiy tahlili asosida shu aniqlandiki, mazkur tadqiqotlarda bunday yondashuv yetarlicha nazariy asoslanmagan hamda divergent tafakkur ko'p hollarda ijodkorlik yoki muammo yechimi doirasida tadqiq qilingan. Biroq tibbiyot sohasida divergent tafakkur qobiliyatining boshqa bir xususiyatlariga ham e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bular emotsional, refleksiv va interdistsiplinar xarakterlar hisoblanadi.

Tibbiy ta'limda divergent tafakkurni rivojlantirish — mutaxassisning moslashuvchan, ijodiy, tanqidiy va mulohazali shaxs sifatida shakllanishi uchun zaruriy shart hisoblanadi. Bu jarayonni didaktik jihatdan ta'minlash:

- ta'lim mazmunining tubdan qayta ko'rib chiqilishi;
- maqsadlarning faol kognitiv va ijodiy funktsiyalarga yo'naltirilishi;
- o'qitish va baholash shakllarining interfaollikka asoslanishi orqali amalga oshadi;

Bu jihatlar J.P. Guilford, E. de Bono, K. Rodjers, D. Kolb va o'zbek pedagoglari A.U. Ismoilov, F.A. Hakimova, D.Q. Yuldasheva kabi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan asoslangan g'oyalarga tayanadi.

O'zbekiston sharoitida divergent tafakkurni rivojlantirish ta'limdagi ijodiy, fanlararo, shaxsga yo'naltirilgan va amaliy faoliyatga asoslangan yondashuvlar bilan bog'liqdir. Buni amalga oshirish uchun pedagoglar, ta'lim dasturlari, muhit va baholash usullari bir-biri bilan uyg'un ravishda ishlashi maqsadga muvofiqdir.

XULOSA. Didaktik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ular, asosan, reproduktiv bilimlarga asoslanadi. Ushbu yondashuvlarda talaba yoshlarning har qanday muammoli vaziyatlarga ijodiy yechim topish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladigan mexanizmlar yetarli darajada aniq emasligi aniqlandi. Shuning uchun ham tadqiqotda tibbiy ta'lim jarayonida faol kreativ ta'limni tizimli tatbiq etish zarur degan xulosaga kelindi.

Ikkinchidan, respublikamiz tibbiy oliy ta'lim muassasalarida fanlararo uyg'unlashuv va mustaqil tahlilga tayangan didaktik model yetishmaydi. Shu sababli PBL, simulyatsiya va refleksiv yozish kabi uslublarni milliy ta'lim an'analari bilan integratsiyalashish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, yangi maqsadni o'zida mujassam etgan ko'nikmalarni ta'lim mazmuniga qo'shish maqsadga muvofiq. Chunki, ko'p hollarda, ta'lim mazmuni biotibbiyot bilimlar bilan cheklanib qolayotganligi kuzatilmoqda. Shuning uchun ham ta'lim mazmuniga kreativlik, muammoga turli yondashuvli tahlil, emotsional intellekt kabi kompetentsiyalarni alohida modullar sifatida kiritish yaxshi natija beradi. Elektron ta'lim platformalari orqali onlayn simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar, interaktiv testlar orqali ko'proq imkoniyatlar yaratish. Raqamlashtirish va axborot texnologiyalari, xususan, divergent tafakkurni rivojlantirishda juda katta roль o'ynaydi. AI, AR/VR, hamda axborot-tahlil tizimlari yordamida muqobil klinik stsenariylarni ishlab chiqish juda katta natija beradi. Qolaversa, hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda, divergent tafakkurni rivojlantirish uchun ilmiy-ijodiy loyihalar, start-up g'oyalar, tibbiyotda innovatsiyalar bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirish, bunday tadbirlarga ko'proq talaba yoshlarni jalb etish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, akademik baholash tizimi juda ko'p hollarda an'anaviy testlarga tayanadi. Unga divergent yondashuvni uyg'unlashtirish lozim. Bunga ijodiy topshiriqlarni kiritish maqsadga muvofiq, ya'ni portfolio, esse, innovatsion loyihalar asosida talaba yoshlarning fikrlash darajasini baholash hozirgi kun talablariga juda mos keladi.

Beshinchidan, ta'lim jarayonida divergent tafakkurni rivojlantiruvchi muhitni shakllantirish lozim. Ta'lim muhitini shunday tashkil qilish kerakki, talaba erkin bo'lishi, xato qilishdan qo'rqmaydigan, ijodkor shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishiga imkon yaratishi kerak.

Bugungi kunda “Yangi O’zbekiston – yangi ta’lim” tamoyili barcha ta’lim sohalariga keng qo’llanilmoqda. Mazkur tamoyil innovativ va ijodiy ta’limga o’tishni kun tartibiga qo’yayotgani bejiz emas, albatta. Bizningcha, tibbiy oliy ta’lim muassasalarida simulyatsiya markazlari, fanlararo turli seminarlar va kreativ diskussiya maydonlarini yaratish lozim. Bu, o’z navbatida, divergent tafakkurni rivojlantirishning muhim sharti sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Torrance E.P. Guiding creative talent. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1962.

2.Bohmer R.G. Designing Care: Aligning the Delivery of Health Services with the Needs of the Patients. — Boston: Harvard Business Press, 2009. — 288 p

3. Kolb, D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development / D. A. Kolb. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984. – 256 p.

4. Barrows, H. S. Problem-based learning in medicine and beyond: A brief overview / H. S. Barrows // New Directions for Teaching and Learning. – 1996. – Vol. 68. – P. 3–12.

5. Flavell, J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry // American Psychologist. – 1979. – Vol. 34(10). – P. 906–911.

6.Юлдашева, Д. Қ. Тиббий таълимда кейс-технологиялар / Д. Қ. Юлдашева // Инновацион педагогика. – 2020. – № 5(41). – Б. 77–81.

7. Шермухамедов, Ш. А. Тиббий таълимда фанлараро ёндашувни шакллантириш / Ш. А. Шермухамедов. – Тошкент: Ilm Ziyo, 2022. – 198 б.

8. Мирзаев Ш. Э. Тиббий таълимда симуляцион технологиялар / Ш. Э. Мирзаев. – Тошкент: Istiqlol, 2021. – 220 б.

НОВЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ ПЕДАГОГОВ: ПРЕИМУЩЕСТВА И ЭФФЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕКСТОВЫХ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ

Бояркина Юлия Анатольевна
Тюменский государственный университет, доцент департамента педагогики

Сохибов Акрам Рустамович
Шахрисабзский государственный педагогический институт, Республика Узбекистан, кандидат педагогических наук. профессор, заведующий кафедрой педагогики

Аннотация. В статье рассматриваются возможности использования текстовых нейронных сетей в подготовке будущих педагогов. Описан эксперимент, в котором сравниваются образовательные результаты студентов, полученные с помощью традиционного подхода и в условиях обучения с применением нейросетей (YandexGPT и GigaChat). Эксперимент показывает значительные улучшения когнитивных навыков, эмоциональной вовлечённости и мотивации студентов, использовавших нейросети. Выводы подчёркивают необходимость активного внедрения цифровых технологий в образовательный процесс для повышения качества подготовки педагогов.

Исследование выполнено при поддержке Министерства науки и высшего образования Российской Федерации в рамках проекта «Фундаментальные проблемы методики разработки и связанного с ней правового и этического регулирования в сфере применения систем и моделей искусственного интеллекта» (FEWZ-2024-0016).

Ключевые слова. Искусственный интеллект, нейронные сети, повышение мотивации, результаты обучения

Abstract: Annotation. The article discusses the possibilities of using text neural networks in the training of future teachers. An experiment is described in which the educational results of students obtained using the traditional approach and in the learning environment using neural networks (YandexGPT and GigaChat) are compared. The experiment shows significant improvements in cognitive skills, emotional engagement, and motivation of students who used neural networks. The conclusions emphasize the need for active implementation of digital technologies in the educational process to improve the quality of teacher training.

This study was supported by the Ministry of Science and Higher Education of the Russian Federation, project FEWZ-2024-0052.

Keywords. Artificial intelligence, neural networks, motivation enhancement, learning outcomes

ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION. Исследование посвящено актуальной проблеме модернизации образовательного процесса в свете стремительного развития технологий искусственного интеллекта (ИИ). Современные тенденции требуют изменений в подходе к образованию, особенно в подготовке будущих педагогов, чьи компетенции должны соответствовать реалиям цифровой экономики. Интеграция инновационных технологий в процесс обучения будущих педагогов, таких как текстовые нейронные сети, открывает широкие перспективы для качественного преобразования образовательного процесса и связано с необходимостью адаптации образовательных программ к новым условиям, в цифровую эпоху.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДЫ / LITERATURE REVIEW

Анализируя научную литературу, можно заметить, что проблема применения нейронных сетей в образовательном пространстве изучена недостаточно полно. Большинство исследователей сосредоточены на формировании фундаментальных оснований цифровой культуры и её влиянии на человеческое мышление и поведение. Например, исследователи

Дроздова А.В. и Кириллова Н.Б. детально рассмотрели феномен цифровой культуры, выявив её влияние на образовательные процессы [1, 2]. Галкин Д.В. предложил концепцию цифровой культуры как совокупности символов и структур, встроенных в социальную жизнь и образующих основу человеческого познания [3]. Французский философ Пьер Леви подчеркнул особую роль киберкультуры в создании пространства свободного и бесконечного познания [4].

Несмотря на богатый теоретический пласт, практические аспекты применения нейронных сетей остаются малоизученными. Наше исследование стремится восполнить этот пробел, обратившись непосредственно к опыту студентов педвузов и их восприятию преимуществ и недостатков использования текстовых нейронных сетей.

Подходы к обучению будущих педагогов претерпевают серьёзные изменения благодаря активному развитию цифровых технологий. Исследователи Китикарь О.В. и Уваров А.Ю. выделяют необходимость пересмотра целей и содержания обучения, перехода к новым методикам и технологиям [5, 6]. Особое внимание уделяется вопросам информатизации и цифровизации образования, которые рассматриваются в работах В.В. Гриншкуна, И.В. Роберт, С.Л. Атанасьяна и О.Ю. Заславской [7-10]. Эти учёные подчеркивают значимость реформирования традиционной системы подготовки педагогов, обращаясь к проблемам компетентностного подхода и необходимости развития инновационного мышления. Всё это создаёт предпосылки для интенсивного развития исследований в области эффективного применения нейронных сетей в педагогическом образовании, делая данную тему крайне актуальной и значимой для современности.

ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION

Интересным для исследования мы видим изучение влияния применения сервисов нейросети на уровень сформированности профессиональных компетенций будущих учителей. Спорным, требующим дополнительного изучения является аспект качества коммуникации и получение обратной связи студентом от персоны курса, созданной на основе ИИ и реального преподавателя, отличается ли обратная связь или же для студента разницы?

Также важно исследовать вопрос о том, смогут ли студенты в рамках своей педагогической практики применить данные методики? Повлияет ли применение нейросетей на знаниевый компонент, отражающийся именно в качестве знаний учителя предметника? Не снизит ли системное и целенаправленное применение ИИ в учебном процессе знаний русского языка и литературы у будущих учителей начальной школы или гуманитарных дисциплин? На все эти вопросы нам только предстоит найти ответы, продолжив наше исследование.

РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS

Анализ образовательных достижений студентов по результатам обучения на профессиональных дисциплинах педагогического ядра показал, что требуемые профессиональные компетенции формируются недостаточно полно, а недостаток базовых знаний отрицательно сказывается на усвоении материалов профильных курсов последующего периода обучения.

Так, нами было выявлено преобладание традиционных методик обучения, ориентированных преимущественно на механическое воспроизведение материала: чтение объемных педагогических текстов, написание конспектов и последующая проверка выполненных заданий. Большинство обучающихся подчеркнули, что выполнение подобных заданий снижает мотивацию и интерес к предмету, что негативно отражается на качестве приобретаемых знаний, умений и навыков, затрудняет понимание важных аспектов классических педагогических трудов, теорий и концепций.

Кроме того, учебный процесс характеризуется низкой степенью взаимодействия преподавателя и студентов: отсутствуют полноценные дискуссии, углубленное обсуждение содержания изучаемого материала, совместный разбор больших объемов текста. Это привело нас к выводу о наличии недостатков, которые возможно устранить путем внедрения технологий ИИ: значительное количество поступающей информации, трудности выделения главного смысла; отсутствие глубокого осмысления и детального анализа педагогического наследия, понимания

главных тезисов; дефицит повторных обращений к исходным материалам и первоисточникам; слабые знания основ педагогики.

Опытно-экспериментальная работа выстраивалась исходя из предположений о том, что внедрение ИИ в образовательный процесс, позволит решить следующие задачи: поддерживать продуктивную дискуссии, стимулируя активное участие студентов на глубокое обсуждение педагогических текстов, вовлекая студентов в изучение данного курса; организовывать продуктивное взаимодействие студентов.

В исследовании приняли участие студенты контрольной и экспериментальной групп. В контрольной группе характер учебных встреч не менялся, обучение проходило в традиционном формате. В экспериментальной группе изучение сложных текстов происходило при помощи искусственного интеллекта.

Процесс проходил в два этапа. Сначала студенты объединялись в группы, каждая группа выбирала тему теоретического раздела согласно изучаемого модуля курса. Им было необходимо использовать текстовые нейронные сети, правильно формулируя запросы, получать ответы от ИИ и дополнять их проверенной информацией из оригинальных источников. Затем полученные знания загружались в чат-бот («Персона курса»), и на следующем этапе происходило распространение полученной информации среди участников эксперимента.

После завершения основной части эксперимента мы заметили, что студенты регулярно обращались к оригиналам текстов, активно работали с ними, стремясь глубже понять содержание. Это способствовало повышению показателей мотивации, заинтересованности и развитию познавательных способностей.

Так как в эксперименте участвовало достаточно большое количество студентов, то они имели возможность создавать различный по стилям и содержанию контент. Однако, вне зависимости от того над каким именно заданием работали студенты, мы отметили высокий потенциал применения текстовых нейросетей в качестве методического инструментария организации деятельности студентов на учебных занятиях при изучении дисциплины.

В таблице 1 представлена сравнительная характеристика по исследуемым показателям, по результатам анализа проведенного в процессе исследования.

Таблица 1

Результаты опытно-экспериментальной работы по оценке педагогического потенциала применения текстовых нейросетей

Показатели	Констатирующее исследование, %		Контрольное исследование, %		Динамика показателя в ЭГ
	ЭГ	КГ	ЭГ	КГ	
Когнитивный аспект	12	13	76	56	+64%
Эмоциональная вовлеченность	36	37	82	47	+46%
Мотивационный аспект	41	44	82	50	+41%

Из таблицы видно, что начальные данные по когнитивному показателю, эмоциональной вовлеченности и мотивационному аспекту у студентов контрольной и экспериментальной группы практически не отличаются. Все студенты обучаются по направлению «Педагогическое образование» и позитивно настроены на изучение профессиональных

дисциплин по теории педагогики. Прирост показателей произошел как в контрольной группе, так и в экспериментальной. Мы не ограничивали преподавателей контрольной группы в применении разнообразных продуктивных педагогических технологий, логично что при освоении программы будет наблюдаться некий прирост показателей, так как этого требует программа. Однако, видно, что, в группах, где применялись сервисы нейросети, включая ИИ, динамика каждого показателя более ощутимая.

Эмоциональная вовлеченность была оценена нами по ряду индикаторов: процент посещения занятий студентов, процент студентов, разработавших методические материалы по курсу (чат-боты, телеграмм каналы), (авторская карта оценки вовлеченности студентов в учебную деятельность).

На рисунке 1, наглядно представлена динамика изменения показателей в сравнении данных, полученных на этапе констатирующего и контрольного исследований в контрольной и экспериментальной группе.



Рисунок 1. Динамика изменения показателей в сравнении данных, полученных на этапе констатирующего и контрольного исследований

(июнь, 2025 г.; nк=46 чел., nэ=57 чел.)

Из диаграммы видно, что в экспериментальной группе прирост по когнитивному показателю составил - 64%, эмоциональный аспект показал положительную динамику и увеличился практически вдвое - 46%, мотивационная составляющая увеличилась на 41%, что свидетельствует о повышении вовлеченности и принятии студентами содержания данной дисциплины, осознании ее важности для своей будущей профессии.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ /CONCLUSION

В данной статье мы представили лишь незначительную часть результатов нашего исследования по применению нейронных сетей и инструментов искусственного интеллекта в образовательном процессе подготовки будущих учителей и ограничились лишь узким набором показателей. В дальнейшем планируется расширить спектр дисциплин, в рамках

которых будет исследован педагогический потенциал нейронных сетей и сервисы ИИ будут включаться как методический инструментарий в различные форматы работы. Таким образом, важно подчеркнуть необходимость введения современных цифровых инструментов в образовательный процесс для повышения эффективности обучения будущих педагогов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ / REFERENCES

Дроздова А.В. Концептуализация повседневности в эпоху цифровой культуры. Вестник Гуманитарного университета. 2018;2(21):96-104.

Кириллова Н.Б. Цифровая культура как новая социально-антропологическая реальность и проблемы идентичности. Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Серия: Познание. 2023;7:13-18. doi: 10.37882/2500-3682.2023.07.04.

Галкин Д.В. Цифровая культура: горизонты искусственной жизни. Томск: Изд-во ТГУ, 2013:301.

Teixeira A.C., Beutler D.L., M. Antonio, M. Trentin. Complexities of Cyberculture in Pierre Lévy and Developments in Education. Creative Education. 2017; 8(01):119-130. doi: 10.4236/ce.2017.81010.

Китикарь О.В. Информатизация и цифровизация педагогического образования: проблемы и перспективы развития. Вестник РУДН. Серия: Информатизация образования. 2023; 1(20): 63–77. doi: 10.22363/2312-8631-2023-20-1-63-77.

Уваров А.Ю. Образование в мире цифровых технологий: на пути к цифровой трансформации. Изд. дом ГУ-ВШЭ, Москва: 2018: 168.

Grinschkun V. Cloud technologies as a basis for the integration of teacher training systems for the international baccalaureate schools. Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Информатизация образования. 2020; 3(17): 210–219. doi: 10.22363/2312-8631-2020-17-3-210-219.

Роберт И.В. Подготовка будущих учителей в области проектирования иммерсивных образовательных технологий. Педагогическое образование в современной России: стратегические ориентиры развития. 2020:25.

Атанасян С.Л., Григорьев С.Г., Гриншкун В.В. Проектирование структуры информационной образовательной среды педагогического вуза. Информатика и образование. 2009; 3:90-96.

Заславская О.Ю. Информатизация образования: новое понимание места и роли учителя в учебном процессе // Вестник МГПУ. Серия: Информатика и информатизация образования. 2007; 2(9): 81–83.

REFERENCES

Drozdova A.V. Conceptualization of everyday life in the era of digital culture. Bulletin of the Humanitarian University. 2018;2(21):96-104. (In Russ.)

Kirillova N.B. Digital culture as a new socio-anthropological reality and problems of identity. Modern science: current problems of theory and practice. Series: Cognition. 2023;7:13-18.(In Russ.) doi: 10.37882/2500-3682.2023.07.04.

Galkin D.V. Digital culture: horizons of artificial life. Tomsk: TSU Publishing House, 2013:301. (In Russ).

Teixeira A.C., Beutler D.L., M. Antonio, M. Trentin. Complexities of Cyberculture in Pierre Lévy and Developments in Education. Creative Education. 2017; 8(01):119-130. doi: 10.4236/ce.2017.81010.

Kitikar O.V. Informatization and digitalization of teacher education: problems and development prospects. Bulletin of RUDN University. Series: Informatization of education. 2023; 1(20): 63–77. (In Russ). doi: 10.22363/2312-8631-2023-20-1-63-77.

Uvarov A.Yu. Education in the world of digital technologies: towards digital transformation.

Ed. House of the State University Higher School of Economics, Moscow: 2018: 168. (In Russ).

Grinschkun V. Cloud technologies as a basis for the integration of teacher training-ing systems for the international baccalaureate schools. Bulletin of the Peoples’ Friendship University of Russia. Series: Informatization of education. 2020; 3(17): 210–219. doi: 10.22363/2312-8631-2020-17-3-210-219.

Robert I.V. Training future teachers in the field of designing immersive educational technologies. Teacher education in modern Russia: strategic guidelines for development. 2020:25. (In Russ).

ERKIN KURASH SPORT TURI BO‘YICHA XORVATIYANING ZAGREB SHAXRIDA O‘TKAZILGAN JAXON CHEMPIONATINING TAHLILI

Djumanov Shaxzod Mirzoxid o‘g‘li
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Sport kurashlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi o‘qituvchisi O‘zbekiston, Chirchiq shaxri

Annotatsiya. Ushbu maqolada yilining eng nufuzli musoboqasi erkin kurash bo‘yicha Xorvatiyaning Zagreb shaxrida o‘tkazilgan jaxon chempionatining natijalari taxlil qilingan. Erkin kurash vazn toifalarida yangi chempionlarning muvaffaqiyatlari va amaldagi chempionlarning muvaffaqiyatsizliklari haqida so‘z boradi. Bundan asosiy ko‘zlangan maqsad kelgusi musoboqalarga puxta tayyorgarlik ko‘rish va g‘alabaga erishgan sportchilarni mashg‘ulot hamda tayyorgarlik jarayonlari bilan tanishib borish orqali ularga kelgusida Olimpia o‘yinlariga munosib qarshilik ko‘rsatish.

Kalit so‘zlar. Natijalar, jaxon chempionati, g‘alaba, mag‘lubiyat, taxlil, murabbiy, musobaqa faoliyati.

АНАЛИЗ ЧЕМПИОНАТА МИРА ПО ВОЛЬНОЙ БОРЬБЕ, ПРОШЕДШЕГО В ГОРОДЕ ЗАГРЕБ, ХОРВАТИЯ

Узбекский Государственный Университет Физической Культуры и Спорта
Преподаватель кафедры Теории и Методики Спортивной Борьбы
Джуманов Шахзод Мирзохид угли
Узбекистан, г. Чирчик

Аннотация. В данной статье анализируются результаты самого престижного соревнования года – чемпионата мира по вольной борьбе, проведенного в городе Загреб, Хорватия. Речь идет об успехах новых чемпионов в весовых категориях по вольной борьбе и о неудачах действующих чемпионов. Основная цель этого – обеспечить тщательную подготовку к будущим соревнованиям и, путем ознакомления с тренировочными и подготовительными процессами спортсменов, одержавших победу, подготовить их к оказанию достойного сопротивления на будущих Олимпийских играх.

Ключевые слова. Результаты, чемпионат мира, победа, поражение, анализ, тренер, соревновательная деятельность.

ANALYSIS OF THE WORLD CHAMPIONSHIP IN FREESTYLE WRESTLING HELD IN ZAGREB, CROATIA

Djumanov Shakhzod Mirzokhid ogli
Lecturer at the Department of Theory and Methodology of Sport Wrestling, Uzbekistan State University of Physical Education and Sport Uzbekistan, Chirchik city

Annotation. This article analyzes the results of the most prestigious competition of the year – the World Championship in freestyle wrestling held in Zagreb, Croatia. It discusses the successes of new champions in freestyle wrestling weight categories and the failures of current champions. The main purpose is to prepare thoroughly for upcoming competitions and, by studying the training and preparation processes of the victorious athletes, to provide adequate resistance to them in future Olympic Games.

Keywords. Results, World Championship, victory, defeat, analysis, coach, competition activity.

Kirish: Mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan kundan boshlab jismoniy tarbiya va sport xususiyatlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishga e’tibor kuchaydi. Hozirgi kunda jismoniy

tarbiya va sportni rivojlantirishga doir bir qancha Qaror va Farmonlarni imzoladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2022-yil 29-iyuldagi PQ-336-son Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, 2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida Olimpiya va paralimpiya sport turlarini rivojlantirish orqali nufuzli xalqaro sport musobaqalari, shu jumladan, 2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o‘yinlarida (keyingi o‘rinlarda - Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari) sportchilarimizning har tomonlama muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash maqsadida qaror, 2021-yil

5-noyabrda qabul qilingan PQ-5281-sonli “2024 yil Parij shahrida (Fransiyada) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi olimpiya va XVII paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi qarorlari va bir qancha qonun hujjatlarini aytib o‘tish mumkin.

O‘zbekistonning davlat siyosatida mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning yanada rivojlanishi, sog‘lom avlodni tarbiyalash ustuvor yo‘nalishga aylandi. Zamonaviy sport inshootlari qurildi, yangi sport turlari rivojlanib bormoqda, turli miqyosdagi musobaqalar va turnirlar o‘tkazilmoqda hamda aholining turli qatlamlari vakillari ishtirok etmoqda, sportchilarimiz xalqaro maydonlarda yuksak natijalarni qo‘lga kiritishmoqda. Soha rivojlanishining huquqiy bazasi yaratildi. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, sport kurashlari va boshqa sport turlarini rivojlantirish to‘g‘risidagi hukumat qarorlari shular jumlasidandir.

Xorvatiyaning Zagreb shaxrida 13-sentabrdan 21-sentabrgacha sport kurashlari bo‘yicha o‘tkazilgan jaxon chempionatida erkin kurash bo‘yicha 62 ta davlat qatnashib O‘zbekiston terma jamoa a’zolaridan 5 nafar quyidagi hamyurtlarimiz ishtirok ettishdi:

G‘ulomjon Abdullayev; 57 kg
Umidjon Jalolov; 65 kg
Begijon Qo‘ldoshev; 70 kg
Mirzo Xayitov; 74 kg
Hasanboy Raximov; 125 kg

Umum jamoa hisobida 2 ta bronza medali bilan terma ja’moamiz 10-o‘rinda yakunladi. Xususan erkin kurash bo‘yicha -57 kg vazn toifasida G‘ulomjon Abdullayev Parij-2024 Olimpiya o‘yinlarining bronza medalini qo‘lga kiritgan bo‘lsa oradan 1 yil o‘tib jaxon chempionatida ham ishonchli tarzda kurash olib bordi va bronza medalini qo‘lga kiritdi. Yana bir umidli sportchimiz o‘smirlar o‘rtasida olimpiya o‘yinlari, yoshlar o‘rtasida osiyo va jaxon chempionatlari g‘olibi Umidjon Jalolov xam muaffaqiyatli ishtirok etip bronza medaliga sazovor bo‘ldi.

Jaxon chempionati kutilmagan natijalarga boy bo‘ldi. Ya’ni amaldagi olimpiya o‘yinlari g‘oliblari kutilmaganda mag‘lubiyatga uchradi. Masalan Kotaro Kiyoka, Ahmed Tajudinov. Erkin kurash bo‘yicha erkaklar o‘rtasida jaxon chempionatining g‘olib va sovrindorlarini jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

Erkin kurash bo‘yicha Xorvatiyaning Zagreb shaxrida o‘tkazilgan jaxon chempionatining natijalari

1-jadval

Vazn Toifalari	Oltin	Kumush	Bronza
-57 Kg	Chongsong Han Shimoliy Korea	Bekzat Almaz Uluu Qirg‘Iziston	G‘ulomjon Abdullayev O‘zbekiston
			Arsen Harutyunyan Armaniston
-61 Kg	Zavur Uguev UWW	Ahmad Masoud Mohammadnezhadjavan Eron	Nuraddin Novruzov Ozarbayjon
			Assylzhan Yessengeldi Qozog‘Iston
-65 Kg	Rahman Amouzadkhalili Eron	Kotaro Kiyooka Yaponiya	Real Marshall Ray Woods Amerika Qo‘Shma Shtatlari
			Umidjon JALOLOV O‘zbekiston
-70 Kg	Yoshinosuke Aoyagi Yaponiya	Tulga Tumur Ochir MONGOLIYA	Nurkozha Kaipanov Qozog‘Iston
			Ernazar Kubatbekovich Akmataliev Qirg‘iziston
-74 Kg	Kota Takahashi Yaponiya	Chermen Valiyev Albaniya	Taimuraz Salkazanov SLOVAKIYA
			Zaurbek SIDAKOV UWW
-79 Kg	Georgios Kougioumtsidis Gresiya	Levi David Haines Amerika Qo‘shma Shtatlari	Mohammad Ashghar Nokhodilarimi Eron
			Khidir Kurban A Saipudinov Baxrayn
-86 Kg	Zahid Valencia Amerika Qo‘shma Shtatlari	Hayato Ishiguro Yaponiya	Arsenii Dzhioev Ozarbayjon

Xamyurtimiz G‘ulomjon Abdullayev musobaqani juda a’lo darajada boshladi o‘tish bahslarida Jazoirlik (ALG) Salah Èddine Kateb Ustidan ishonchli tarzda 2:13 hisobida texnik ustunlik bilan g‘alaba qozongan bo‘lsa 1/8 final bahsida esa UWW nomidan chiqayotgan Belarusiyalik Aryan Tsiutryn ustidan 1:4 hisobida mag‘lub etdi. 1/4 final bahsida yana bir musobaqa favoriti hisoblangan UWW bayrog‘i ostida chiqayotgan Rossiya Federatsiyasi a’zosi Musa Mekhtikhanov ustidan 2:3 hisobida g‘alabaga erishdi va 1/2 final bahsiga yo‘l oldi. 1/2 final bahsida Parij 2024 Olimpiya o‘yinlarida 3/5 bosqichida g‘alabaga erishgan G‘ulomjon Abdullayev bu safargi jaxon chempionatida U-23 jaxon chempionati sovrindori, U-23 Osiyo chempionati g‘olibi Begzat Almaz uluuga (KGZ) 8:0 hisobida imkoniyatni boy berdi va final yo‘llanmasini qo‘ldan chiqardi, Qirg‘izistonlik sportchi finalga chiqqanligi sababli G‘ulomjon Abdullayev 3/5 final bahsida Vladimir EGOROV (MKD) bilan bahs olib borib 1:3 hisobida g‘alaba qozondi, shu tariqa erkin kurash sport turi bo‘yicha jaxon chempionatining -57kg vazn toifasida G‘ulomjon Ozodovich Abdullayev bronza medaliga sazovor bo‘ldi.

Umidjon Jalolov 1/16 final bahsida Shvetsariyalik Nino Leutert bilan kurash olib bordi qayirish usuli bilan 4 ballni qo‘lga kiritdi va shu xujumning o‘zida qo‘lini qo‘shib olib aylantirib to‘ntarish uslubi bilan 10:0 hisobida g‘alabaga erishdi, hakamlar bergan balldan norozi bo‘lgan Shvetsariya terma jamoasi murabbiyi chelenjni bosdi chelenjni korish chog‘da hakamlar to‘g‘ri qaror qilganligi sababli vakilimizga yana 1 ball qo‘shib beririldi va 11:0 hisobi bilan Shvetsariyalik sportchi ustidan juda ajoyib tarzda g‘alabaga erishdi. 1/8 final bahsida Tojikistonlik asli kelib chiqishi (Rossiya Dog‘iston)lik bo‘lgan sportchi 2024-yil Albaniyaning Tirana shaxrida o‘tkazilgan jaxon chempionati bronza medali soxibi Abdulmazhid Kudiev bilan bahs olib borip 4:8 hisobida g‘alabaga erishib keying bosqichga yo‘l oldi.

1/4 final bahsida yana bir sport davlatini o‘zgartirgan Puerto-Riko vakili kelib chiqishi (AQSH) bo‘lgan sportchi bilan bahs olib bordi Parij 2024 Olimpiya o‘yinlari bronza, Belgrad 2023 Jahon chempionati kumush, Panamerika chempionatining bir necha bor sovrindori Sebastian Rivera, raqibi favorit bolishiga qaramasdan Umidjon o‘ziga bo‘lgan ishonch bilan gilamga chiqib 5:3 hisobida raqibdan ustun keldi. 1/2 final bahsida Yaponiyalik Kotaro Kiyoka Tokiyo 2020 olimpiya o‘yinlari g‘olibi Takuto Otoguroni mag‘lubiyatga uchratib hamda Osiyo Olimpiya saralash turnirida finalga chiqqan holda 2024-yilgi Yozgi Olimpia o‘yinlarida Yaponiya vakili bo‘lish huquqini qo‘lga kiritdi. Parij 2024 olimpiya o‘yinlari g‘olibi Kotaro Kiyoka ushbu bahsda g‘alaba qozonish imkoniyati baland edi lekin shunga qaramasdan Umidjon Jalolov yaxshi kurash olib bordi afsuski ikki marotaba ham oyoqqa o‘tish usuli bilan ikki baldan to‘rt ball berdi va sust kurashganligi uchun yana bir ballni berip qoydi va 0:5 hisobida mag‘lubiyatga uchradi. 3/5 final yani uchinchi o‘rin uchun kurashda Rossiyalik (UWW) bayrog‘i ostida chiqayotgan yevropa chempioni, MDH o‘yilari g‘olibi, U-23 yoshlar o‘rtasida jaxon chempioni Ibragim Ibragimov bilan bahs olib bordi ushbu uchrashuvda 3:7 hisobida g‘alaba qozonib Umidjon O‘tkirovich Jalolov Zagreb-2025 jaxon chempionatining bronza medaliga sazvor bo‘ldi. Bu O‘zbekiston uchun Zagrebdagi ikkinchi bronza medali bo‘ldi.

Begijon Qo‘ldoshev o‘tish bahslarida juda ajoyib bahs olib borip Hindistonlik Rohi Rohit ustidan 4:5 hisobida g‘alabaga erishdi. 1/8 final bahsida Begijon Gruziyalik kurashchi Akaki Kemertelidzega 0:4 hisobida imkoniyatini boy berdi va jaxon chempionatidagi yurishlarini to‘xtatti.

-74 kg vazn toifasida yurtimiz sharafini ximoya qilgan o‘quv yig‘in mashg‘ulotlarini AQSH da olib borayotgan Mirzo Hayitov 1/16 final bahsida Gruziylik Giorgi Elbakidzega qarshi bahs olib borib 1:7 hisobida mag‘lubiyatga uchradi. Gruziyalik sportchi ham keyingi bahsda 74 kg vazn toifasida g‘olib bolgan Yaponiya sharafini himoya qilayotgan Kota Takahashiga imkoniyatni boy berdi.

Eng og‘ir vaznda yurtimiz sharafini himoya qilgan Hasanboy Raximov birinchi davra uchrashuvida Ukrainalik Murazi Mchedlidze bilan bahs olib bordi va 0:4 hisobida g‘alabaga

erishdi. 1/8 final bahsida Ozarbayjonlik Parij 2024 olimpiya oyinlari bronza medali soxibi, Yevropa chempioni, bir necha bor Gran-prilar g‘olibi va sovrindori Giorgi Meshvildishvili bilan bahs olib bordi va 7:0 hisobida mag‘lubiyatga uchradi. Ozrbayjonlik sportchi finalga qadar yetib borganligi sababli hamyurtimiz bronza medali uchun kurashish imkoniyatini qolga kiritdi

3/5 o‘tish bahslarida Hasanboy Vengriyalik Murazi Mchedlidze bilan bahs olib bordi va afsuski 2:3 hisobida mag‘lubiyatga uchrab musobaqa bilan hayirlashdi.

Jaxon chempionatidan ba’zi bir bahslari xaqida: -65 kg vazn toifasida finalda olimpiya o‘yinlari finalida uchrashishgan Kataro Kiyoka (JRN) va jaxon chempioni (2022-Belgrad) Rahman Amuzadhalili (IRI) bilan bahs olib bordi. Olimpiya o‘yinlarida qo‘li baland kelgan Kiyoka bu safargi jaxon chempionati finalida juda faol kurash olib borgan Amuzadhaliliga 10:0 hisobida alamli tarzda mag‘lubiyatga uchradi.

-97 kg vazn toifasida kutilmagan sinsotsion natijalarga boy bo‘ldi

2023-yildan beri mag‘lubiyat nimaligini bilmay kelayotgan 2024-yilgi Olimpiya chempioni, 2023–2024-yilgi ikki karra Osiyo chempioni, 2023-yilgi jahon chempioni, 2023-yilgi Osiyo o‘yinlari chempioni Bahrayn sharafini himoya qilayotgan asli Rossiya Federatsiyasidan bo‘lgan Akhmed Tazhudinov 1/2 final bahsida Eronlik Amirali Hamid Azarpiraga ikki yarim yil deganda 5:2 hisobida mag‘lubiyatga uchradi.

Zagreb-2025 jaxon chempionatida erkin kurash bo‘yicha terma jamoalari quyidagicha o‘rin egallashdi:

Zagreb-2025 jaxon chempionatida erkin kurash bo‘yicha terma jamoalari quyidagicha o‘rin egallashdi:

2-jadval

T/r	Jamoa	57kg	61kg	65kg	70kg	74kg	79kg	86kg	92kg	97kg	125kg	Jami
1	Eron		20	25		10	15	15	15	20	25	**145**
2	AQSH	4	10	15		10	20	25	25	25		**134**
3	Yaroniya	6		20	25	25		20		15		**111**
4	Ozarbayjon		15		8		10	15	15		20	**83**
5	Bahrayn					8	15			15	15	**53**
6	Qozog‘iston		15	4	15			4	10			**48**
7	Qirg‘iziston	20	6		15							**41**
8	Shimoliy Korea	25	10									**35**
9	Mangoliya				20		10					**30**
10	**O‘zbekiston**	15		15								**30**

Xulosa: qilib aytganda Mamlakatimizda erkin kurashni yanada rivojlantirish uchun o‘quv jarayonining ilmiy-uslubiy yondashuvini takomillashtirish zarur.

Sport zahiralarini tayyorlash tizimini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash zarurati kelib chiqadi.

Xalqaro sport musobaqalarida mahalliy kurashchilar bilan birgalikda yuqori reytingga ega bo‘lgan xorijiy kuchli kurashchilar, xalqaro darajadagi murabbiylar va hakamlarning ishtirokini ta’minlash maqsadga muvofid bo‘ladi.

Sportchilarning professional mahoratini va trenerlarning kasbiy malakasini oshirish uchun erkin kurash bo‘yicha xorijiy maktablar bilan hamkorlikni rivojlantirish va tajriba almashish, erkin kurashni rivojlangan mamlakatlar bilan raqobat qila oladigan darajaga yetkazish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Sport kurashlari bo‘yicha mahalliy va xalqaro musobaqalarni tizimli ravishda tashkil qilish, xalqaro musobaqalarda ishtirok etish, shu jumladan Olimpiya va Osiyo o‘yinlarida qatnashish huquqini beruvchi lisenziyalarni qo‘lga kiritish va har Olimpiya va Osiyo o‘yinlari siklida ularning sonini ko‘paytirib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PQ-336-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. PQ-221-son 2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–201-son qarori bilan 2023-yil 1-martdan boshlab olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalarini o‘tkazish tizimi joriy etish to‘g‘risida.
4. Olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha yuqori malakali hamda zamonaviy bilim va texnologiyalarni o‘zlashtirgan trener, hakam, selesioner va boshqa mutaxassislarni tayyorlash maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “Sport ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5279-son qarori.
5. Bakiyev Z.A. Kerimov F.A. Innovasionniye texnologii v podgotovke kvalifisirovannix borsov na osnove sistemnogo analiza deyatelnosti sportsmenov i trenerov s uchetom urovnya ix sportivnogo masterstva// //Shag v nauku// Materialы IV nauchno-prakticheskoy konferensii molodix uchenix (II vserossiyskoy) g. Moskva, 18 dekabrya 2020. – S. 328-334.
6. Adilov S.Q. Sport kurashida koordinasion qobiliyatlar va texnik-taktik tayyorgarliklarni maxsus mashqlar orqali takomillashtirishning samaradorligini oshirish // Fan-sportga ilmiy-nazariy jurnali 2022/5, Issn: 2181-7804 B. 10-12. [13.00.00 № 5].
7. Kerimov F.A. Kurash turlari nazariyasi va usuliyati/ -Toshkent: O‘zDJTI. Nashriyot bo‘limi, 2005.
8. Adilov S.Q. Sport kurashida mashg‘ulot jarayonini optimallashtirish // Nam-DU ilmiy axborotnomasi – 2022-yil 11-son. Issn: 2181-0427. B. 731-736. [13.00.00 № 11].
9. Adilov S.Q. Sport kurashida sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash texnologiyasi // Ta’limda innovasion tadqiqotlar 2023/10, Issn: 2181-1709 (P). B. 73-78. [13.00.00 № 10].
10. Lyax V. Koordinatsionnie sposobnosti: diagnostika i razvitie. Moskva: TVT Divizion.
11. Salamov R.S. Sport mashg‘ulotlari nazariyasi va asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent -2005 y.

AYOLLAR KURASHI BO‘YICHA KATTALAR O‘RTASIDA O‘TKAZILGAN 2025-YILGI JAHON CHEMPIONATI NATIJALARI VA ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Ismatullayeva Sangina Ravshanovna
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Sport kurashlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi katta o‘qituvchisi p.f.d. (PhD).

Annotatsiya. Ushbu maqolada yilning eng nufuzli musobaqasi ayollar kurashi bo‘yicha Xorvatiyaning Zagreb shahrida o‘tkazilgan jahon chempionatining tahlil natijalari keltirib o‘tilgan. Ayollar kurashi vazn toifalarida yangi chempionlarning muvaffaqiyatlari va amaldagi chempionlarning muvaffaqiyatsizliklari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Natijalar, Zagreb Xorvatiya, Jahon chempionati, ayollar kurashi, kattalar o‘rtasida, g‘alaba, mag‘lubiyat, tahlil, murabbiy.

РЕЗУЛЬТАТЫ ЧЕМПИОНАТА МИРА 2025 ГОДА ПО ЖЕНСКОЙ БОРЬБЕ СРЕДИ ВЗРОСЛЫХ И ИХ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Исматуллаева Сангина Равшановна
Старший преподаватель кафедры «Теория и методика спортивной борьбы», Узбекский Государственный университет физической культуры и спорта, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам.

Аннотация. В данной статье приведены результаты анализа самого престижного соревнования года — чемпионата мира по женской борьбе, прошедшего в городе Загреб (Хорватия). Рассматриваются успехи новых чемпионов в весовых категориях женской борьбы и неудачи действующих чемпионов.

Ключевые слова: результаты, Загреб (Хорватия), чемпионат мира, женская борьба, среди взрослых, победа, поражение, анализ, тренер.

RESULTS OF THE 2025 WORLD CHAMPIONSHIP IN WOMEN’S WRESTLING AMONG ADULTS AND THEIR SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS

Ismatullayeva Sangina Ravshanovna
Senior Lecturer, Department of «Theory and Methodology of Sports Wrestling» Uzbek State University of Physical Culture and Sports, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Annotation. This article presents the results of the analysis of the most prestigious competition of the year — the World Women’s Wrestling Championship held in Zagreb, Croatia. It discusses the successes of the new champions in the women’s wrestling weight categories and the failures of the reigning champions.

Keywords: results, Zagreb (Croatia), World Championship, women’s wrestling, adults, victory, defeat, analysis, coach.

Dolzarbligi. So‘nggi o‘n yilliklarda ayollar sporti, xususan, ayollar kurashi jadal sur’atlarda rivojlanmoqda. Xalqaro sport tashkilotlarining gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan siyosati, Olimpiya o‘yinlarida ayollar kurashining doimiy sport turi sifatida mustahkamlanishi hamda qit’a va jahon chempionatlarining muntazam o‘tkazilishi ushbu sport turining xalqaro miqyosda tobora keng ommalashib borayotganidan dalolat beradi. Shu jihatdan 2025-yilda o‘tkazilgan kattalar o‘rtasidagi ayollar kurashi bo‘yicha Jahon chempionati global sport harakatida tarixiy ahamiyat kasb etdi. Musobaqa davomida ko‘plab mamlakat vakillari yuqori natijalarni qo‘lga kiritishi, ayrim davlatlarning ilk bor jahon chempionatida medal olishga muvaffaq bo‘lgani va

texnik-taktik uslublarning yanada boyib borishi ushbu tadqiqotning ilmiy asosda tahlil qilinishini dolzarb masalaga aylantirmoqda.

2025-yilgi Jahon chempionati ayollar kurashi sport turida bir qator yangi tendensiyalarni yuzaga chiqardi. Avvalo, an’anaviy kuchli terma jamoalar – AQSH, Yaponiya va Xitoy o‘z yetakchilik mavqeini saqlab qolgan holda yuqori sport yutuqlarini namoyon etgan bo‘lsa, O‘zbekiston, Ekvador kabi davlatlarning medallar qo‘lga kiritishi global sport maydonida yangi geografik markazlarning shakllanayotganini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, texnik-taktik yondashuvlarda xilma-xillik, sportchilarning yuqori darajadagi tayyorgarligi hamda ayollar sporti nufuzi oshib borayotgani kuzatildi. Ayollar kurashidagi yutuqlar nafaqat sport rivojlanishining yangi bosqichini aks ettiradi, balki sportchi ayollarning jahon miqyosida raqobatbardoshligini, ijtimoiy rolini ham mustahkamlaydi. Bundan tashqari, ilmiy tahlil orqali musobaqa natijalarini o‘rganish kelgusida sportchilarni tayyorlash metodikasini takomillashtirish, murabbiylar faoliyatini ilmiy asoslash hamda xalqaro sport maydonida milliy terma jamoalarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu boisdan, ushbu mavzuning chuqur ilmiy o‘rganilishi zamonaviy sport fanida dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

13-21-sentabr kunlari Xorvatiyaning Zagreb shahrida kattalar o‘rtasida Ayollar kurashi bo‘yicha Jahon chempionati bo‘lib o‘tdi. Dunyoning 90 dan ortiq davlatidan 250 nafardan ziyod ayol kurashchilarning ishtiroki rasman tasdqilangan. Jumladan ayollar kurashi bo‘yicha musobaqalarda medallar uchun 10 ta vazn toifasida bellashuvlar bo‘lib o‘tdi. Mazkur musobaqada -50 kg, -53 kg, -55 kg, -57 kg, -59, kg, 62 kg, -65 kg, -68 kg, -72 kg, -76 kg vazn toifalarida bellashuvlarni olib borishdi. Zagrebda bo‘lib o‘tgan 2025-yilning nufuzli musobaqasi kutilmagan natijalarga boy bo‘ldi. Amaldagi olimpiya va jahon chempionlari kutilmaganda mag‘lubiyatga uchradilar. Ayollar kurashi bo‘yicha o‘tkazilgan Jahon chempionatining g‘olib va sovrindorlarini quyidagi jadvallarda ko‘rishingiz mumkin.

-50 kg vazn toifasi ayollar kurashida odatda eng engil va dinamik vazn kategoriyasi sifatida ajralib turadi. Bu vaznda sportchilar yuqori tezlik, chaqqonlik va qisqa muddatli hujum kombinatsiyalaridan keng foydalanadilar. Shu bois, bu toifadagi bellashuvlar ko‘proq harakatlarga boy, samarali qarshi hujum va “teskari olish” kabi texnik usullarning ko‘pligi bilan e’tiborga molikdir.

1-jadval

Ayollar kurashi bo‘yicha Jahon chempionatining -50 kg vazn toifasidagi natijalari

Rank	Team	Wrestler	CP	VT	ST	TP	TP Gvn	Team Rank Pts
1	PRK	Myonggyong WON	17	0	2	43	12	25
2	CHN	Yu ZHANG	13	1	1	31	10	20
3	TUR	Evin DEMIRHAN	7	0	0	11	17	15
3	UWW	Elizaveta SMIRNOVA	10	0	0	26	14	0
5	MGL	Munkhnar BYAMBASUREN	7	0	0	8	14	10
5	JPN	Remina YOSHIMOTO	9	0	1	26	10	10

Un Myon Gyon finalda Xitoy vakili Chjan Yuyni 5:0 hisobida mag‘lub etib, g‘alaba qozondi. Uning texnika va taktika tayyorgarligi kurash maydonida ustunligini namoyish etishga imkon berdi. Chjan Yuy esa finalda Un Myon Gyon qarshisida mag‘lub bo‘lib, kumush medalni qo‘lga kiritdi. Uning ishtiroki yuqori tayyorgarlik darajasi va strategik fikrlash qobiliyatini ko‘rsatdi. Elizaveta Smirnova Belarus vakili Nataliya Varakina ustidan g‘alaba qozonib, bronza medalini

qo‘lga kiritdi. Uning yutug‘i Rossiyaning xalqaro ayollar kurashidagi mavqeini mustahkamladi. Turkiya vakili Evin Demirxan Yavuz ham bronza medalini qo‘lga kiritdi, u uchrashuvda Nataliya Varakinani mag‘lub etdi. Uning g‘alabasi Turkiyaning xalqaro ayollar kurashidagi pozitsiyasini mustahkamladi.

2-jadval

Ayollar kurashi bo‘yicha Jahon chempionatining -53 kg vazn toifasidagi natijalari

Rank	Team	Wrestler	CP	VT	ST	TP	TP Gvn	Team Rank Pts
1	JPN	Haruna MURAYAMA OKUNO	17	0	2	36	1	25
2	ECU	Lucia Yamileth YEPEZ GUZMAN	11	1	0	14	14	20
3	PRK	Hyogyong CHOE	14	1	2	30	2	15
3	IND	Antim ANTIM	11	0	1	31	14	15
5	SWE	Emma Jonna Denise MALMGREN	8	0	0	17	15	10
5	UZB	Shokhida AKHMEDOVA	8	1	0	16	24	10

-53 kg vazn toifasi ayollar kurashida eng raqobatbardosh va tezkor kategoriyalardan biridir. Bu vazn sportchilardan tezkorlik, yuqori texnik mahorat va chidamlilikni talab qiladi. Zagreb–2025 jahon chempionatida ushbu vaznda raqobat nihoyatda yuqori bo‘ldi. Dunyoning yetakchi kurash maktablari vakillari ishtirok etib, texnik va taktika jihatdan bir-biriga qarshi kurash olib bordi. Haruna Murayama finalda Ekvador vakili Lusisiya Yepisni 5:0 hisobida mag‘lub etib, oltin medalni qo‘lga kiritdi. U ishonchli texnika va taktika yetukligini namoyish etib, ushbu raqobatbardosh vazn toifasida g‘alaba qozondi. Lusisiya Yepis esa finalda Haruna Murayama bilan raqobatda mag‘lub bo‘lib, kumush medalni qo‘lga kiritdi. Uning ishtiroki Ekvador uchun tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi, chunki u mamlakatga ayollar kurashi bo‘yicha jahon chempionatidagi birinchi medallarini olib keldi. Antim Panghal Shvetsiya vakili Emma Malmgrennni 9:1 hisobida mag‘lub etib, bronza medalini qo‘lga kiritdi. Ushbu natija 2025-yilgi jahon chempionatidagi Hindiston uchun yagona medal bo‘lib, mamlakat kurashi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shimoliy Koreya vakili Cho Hyo-gyon ham bronza medalini qo‘lga kiritdi, u uchrashuvda O‘zbekiston vakili Shohida Ahmedovani mag‘lub etdi. Uning g‘alabasi Shimoliy Koreyaning xalqaro ayollar kurashidagi mavqeini mustahkamladi.

3-jadval

Ayollar kurashi bo‘yicha Jahon chempionatining -55 kg vazn toifasidagi natijalari

Rank	Team	Wrestler	CP	VT	ST	TP	TP Gvn	Team Rank Pts
1	PRK	Kyong Ryong OH	16	1	2	40	9	25
2	UWW	Ekaterina VERBINA	11	1	0	19	17	0
3	JPN	Sowaka UCHIDA	14	0	2	38	13	15
3	ROU	Andreea Beatrice ANA	14	0	1	30	14	15
5	TUR	Elvira SULEYMAN KAMALOGLU	10	1	1	27	26	10
5	CUB	Yaynelis SANZ VERDECIA	8	0	0	19	12	10

-55 kg vazn toifasi ayollar kurashida texnika va jismoniy kuch uyg‘unlashgan vazn toifalaridan biridir. Ushbu vazn toifasida sportchilar odatda baland intensivlikdagi harakatlarni amalga oshirish bilan birga, raqibni to‘liq nazorat ostida ushlab turish qobiliyatini namoyon etadilar. 55 kg vazn toifasida sportchilar texnik jihatdan mukammal usullarni jismoniy kuch bilan uyg‘unlashtirish orqali yuqori natijaga erishdilar. O Kyon Ryon finalda Rossiya vakili Yekaterina Verbina ustidan g‘alaba qozondi. Uning texnika va taktika tayyorgarligi kurash maydonida ustunligini namoyish etishga imkon berdi. Yekaterina Verbina esa finalda O Kyon Ryon qarshisida mag‘lub bo‘lib, kumush medalni qo‘lga kiritdi. Uning ishtiroki yuqori tayyorgarlik darajasi va strategik fikrlash qobiliyatini ko‘rsatdi. Yaponiya vakili Sovaka Uchida bronza medalini qo‘lga kiritdi, u uchrashuvda Ruminiya vakili Andreya Anani mag‘lub etdi. Uning g‘alabasi Yaponiya ayollar kurashidagi xalqaro mavqeini mustahkamladi. Ruminiya vakili Andreya Ana ham bronza medalini qo‘lga kiritdi, u uchrashuvda Sovaka Uchidani mag‘lub etdi. Uning yutug‘i Ruminiyaning xalqaro ayollar kurashidagi mavqeini mustahkamladi.

4-jadval

Ayollar kurashi bo‘yicha Jahon chempionatining -57 kg vazn toifasidagi natijalari

Rank	Team	Wrestler	CP	VT	ST	TP	TP Gvn	Team Rank Pts
1	USA	Helen Louise MAROULIS	18	3	0	18	2	25
2	PRK	Il Sim SON	19	1	2	35	5	20
3	CHN	Kexin HONG	13	0	3	42	20	15
3	UWW	Olga KHOROSHAVTSEVA	10	0	1	20	11	0
5	JPN	Himeka TOKUHARA	13	1	1	27	13	10
5	UWW	Iryna KURACHKINA	10	0	1	25	28	-

-57 kg vazn toifasi ayollar kurashida eng mashhur va raqobatbardosh kategoriyalardan biri sanaladi. Ushbu vazn Olimpiya dasturiga kiritilgan bo‘lib, dunyoning deyarli barcha kuchli maktablari bu toifada yuqori darajadagi sportchilarni tayyorlaydi. Shuning uchun Zagreb–2025 jahon chempionatida ham mazkur vazn toifasi eng ko‘p e’tibor qaratilgan kategoriyalardan biri bo‘ldi. Helen Marulis finalda Shimoliy Koreya vakili Son Il-simni mag‘lub etib, g‘alaba qozondi. Uning texnika va taktika tayyorgarligi kurash maydonida ustunligini namoyish etishga imkon berdi. Son Il-sim esa finalda Helen Marulis qarshisida mag‘lub bo‘lib, kumush medalni qo‘lga

kiritdi. Uning ishtiroki yuqori tayyorgarlik darajasi va strategik fikrlash qobiliyatini ko‘rsatdi. Rossiya vakili Olga Xoroshavtseva uchrashuvda Xitoy vakili Xong Kësinni mag‘lub etib, bronza medalini qo‘lga kiritdi. Uning g‘alabasi Rossiyaning xalqaro ayollar kurashidagi mavqeini mustahkamladi. Xitoy vakili Xong Kësin ham uchrashuvda g‘alaba qozonib, bronza medalini qo‘lga kiritdi. Uning yutug‘i Xitoyning xalqaro ayollar kurashidagi pozitsiyasini mustahkamladi.

5-jadval

Ayollar kurashi bo‘yicha Jahon chempionatining -59 kg vazn toifasidagi natijalari

Rank	Team	Wrestler	CP	VT	ST	TP	TP Gvn	Team Rank Pts
1	JPN	Sakura MOTOKI	17	1	1	31	5	25
2	PRK	Ok Ju KIM	16	1	1	38	8	20
3	MGL	Orkhon PUREVDORJ	11	0	1	22	21	15
3	UWW	Amina TANDELOVA	13	1	1	21	16	0
5	BUL	Bilyana Zhivkova DUDOVA	7	0	0	14	12	10
5	NGR	Esther Omolayo KOLAWOLE	9	0	0	8	17	10

-59 kg vazn toifasi Olimpiya dasturiga kiritilmagan bo‘lsa-da, jahon chempionatlarida doimo yuqori darajadagi raqobat kuzatiladi. Ushbu kategoriyada sportchilar ko‘proq kuch va texnika uyg‘unligiga tayangan holda kurash olib boradilar. Zagreb–2025 chempionatida ham bu vaznda Yevropa, Osiyo va Amerika maktablari vakillari keskin bellashuvlar olib bordilar. Sakura Onisi finalda Ukraina vakili Mariya Vinnikni 17:8 hisobida mag‘lub etib, g‘alaba qozondi. Uning texnika va taktika tayyorgarligi kurash maydonida ustunligini namoyish etishga imkon berdi. Ukraina vakili Mariya Vinnik esa finalda Sakura Onisi qarshisida mag‘lub bo‘lib, kumush medalni qo‘lga kiritdi. Uning ishtiroki yuqori tayyorgarlik darajasi va strategik fikrlash qobiliyatini ko‘rsatdi. Mongoliya vakili Altjin Togtoh uchrashuvda Kanada vakili Lorens Buregarni mag‘lub etib, bronza medalini qo‘lga kiritdi. Uning g‘alabasi Mongoliya ayollar kurashidagi xalqaro mavqeini mustahkamladi. Kanada vakili Lorens Buregar ham uchrashuvda g‘alaba qozonib, bronza medalini qo‘lga kiritdi. Uning yutug‘i Kanadaning xalqaro ayollar kurashidagi pozitsiyasini mustahkamladi. 59 kg vazn toifasida texnik jihatdan mukammallik va kuchli bardoshlilik uyg‘unlashganda yuqori natijaga erishish mumkinligi yana bir bor isbotlandi.

-62 kg vazn toifasi Olimpiya dasturiga kiritilgan va ayollar kurashida eng yuqori raqobat kuzatiladigan kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ushbu vaznda kuch, texnika va taktik moslashuvchanlik bir-birini to‘ldiradi. Zagreb–2025 jahon chempionatida ham dunyoning eng kuchli sportchilari ishtirok etdi va keskin bellashuvlar o‘tkazildi. Sakura Motoki, 2024-yilgi Olimpiya chempioni, 62 kg vazn toifasida finalda Shimoliy Koreya vakili Kim Ok-juni mag‘lub etib, oltin medalni qo‘lga kiritdi. Uning g‘alabasi Yaponiya ayollar kurashidagi xalqaro mavqeini mustahkamladi.

6-jadval

Ayollar kurashi bo‘yicha Jahon chempionatining -62 kg vazn toifasidagi natijalari

Rank	Team	Wrestler	CP	VT	ST	TP	TP Gvn	Team Rank Pts
1	JPN	Sakura MOTOKI	17	1	1	31	5	25
2	PRK	Ok Ju KIM	16	1	1	38	8	20
3	MGL	Orkhon PUREVDORJ	11	0	1	22	21	15
3	UWW	Amina TANDELOVA	13	1	1	21	16	0
5	BUL	Bilyana Zhivkova DUDOVA	7	0	0	14	12	10
5	NGR	Esther Omolayo KOLAWOLE	9	0	0	8	17	10

Shimoliy Koreya vakili Kim Ok-ju esa finalda Sakura Motoki qarshisida mag‘lub bo‘lib, kumush medalni qo‘lga kiritdi. Uning ishtiroki yuqori tayyorgarlik darajasi va strategik fikrlash qobiliyatini ko‘rsatdi. Mongoliya vakili Pürevdorjiin Orxon uchrashuvda Qozog‘iston vakili Amina Tandelovani mag‘lub etib, bronza medalini qo‘lga kiritdi. Uning g‘alabasi Mongoliya ayollar kurashidagi xalqaro mavqeini mustahkamladi. Qozog‘iston vakili Amina Tandelova ham uchrashuvda Pürevdorjiin Orxon ustidan g‘alaba qozonib, bronza medalini qo‘lga kiritdi. Uning yutug‘i Qozog‘istonning xalqaro ayollar kurashidagi pozitsiyasini mustahkamladi.

7-jadval

Ayollar kurashi bo‘yicha Jahon chempionatining -65 kg vazn toifasidagi natijalari

Rank	Team	Wrestler	CP	VT	ST	TP	TP Gvn	Team Rank Pts
1	JPN	Miwa MORIKAWA	14	0	2	34	2	25
2	UWW	Alina KASABIEVA	12	1	1	29	20	0
3	MGL	Enkhjin TUVSHINJARGAL	13	1	1	21	17	15
3	MDA	Irina RINGACI	11	0	2	34	19	15
5	USA	Macey Ellen KILTY	7	1	0	15	11	10
5	UKR	Iryna KOLIADENKO	11	1	1	25	12	10

-65 kg vazn toifasi ayollar kurashida o‘rta og‘irlik vazn toifasiga kiradi. Ushbu toifa sportchilardan kuch, chidamlilik va yuqori texnik mahoratni talab qiladi. Zagreb–2025 jahon chempionatida mazkur vazn toifasida raqobat nihoyatda yuqori bo‘ldi. Dunyoning yetakchi kurash maktablari vakillari ishtirok etib, texnik va taktika jihatdan o‘zaro raqobatlashdilar. Miua Morikava finalda Ozarbayjon vakili Alina Kasabiyevani mag‘lub etib, g‘alaba qozondi. Uning texnika va taktika tayyorgarligi kurash maydonida ustunligini namoyish etishga imkon berdi. Ozarbayjon vakili Alina Kasabiyeva esa finalda Miua Morikava qarshisida mag‘lub bo‘lib, kumush medalni qo‘lga kiritdi. Uning ishtiroki yuqori tayyorgarlik darajasi va strategik fikrlash qobiliyatini ko‘rsatdi. Moldova vakili Irina Ryngachi uchrashuvda Mongoliya vakili Tuvshinjargalyn Enxjin ustidan g‘alaba qozonib, bronza medalini qo‘lga kiritdi. Uning yutug‘i Moldovaning xalqaro ayollar kurashidagi mavqeini mustahkamladi. Mongoliya vakili Tuvshinjargalyn Enxjin ham uchrashuvda g‘alaba qozonib, bronza medalini qo‘lga kiritdi. Uning yutug‘i Mongoliyaning xalqaro ayollar kurashidagi pozitsiyasini mustahkamladi.

8-jadval

Ayollar kurashi bo‘yicha Jahon chempionatining -68 kg vazn toifasidagi natijalari

Rank	Team	Wrestler	CP	VT	ST	TP	TP Gvn	Team Rank Pts
1	JPN	Ami ISHII	19	0	4	48	3	25
2	BUL	Yuliana Vasileva YANEVA	15	1	0	30	16	20
3	USA	Kennedy Alexis BLADES	12	0	2	33	15	15
3	CHN	LONG Jia	14	0	1	33	14	15
5	TUR	Buse CAVUSOGLU TOSUN	9	1	0	8	26	10
5	PRK	Sol Gum PAK	10	1	0	21	17	10

-68 kg vazn toifasi Olimpiya dasturidagi eng kuchli va raqobatbardosh kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ushbu vaznda kuch, chidamlilik va texnik mahorat uyg‘unlashgan bo‘lib, Zagreb–2025 jahon chempionatida ham dunyoning yetakchi kurashchilari qatnashdi. Mazkur vaznda asosan Yevropa va Osiyo vakillari ustunlik qildilar. Ami Ishi finalda Bolgariya vakili Yuliana Yanevani mag‘lub etib, g‘alaba qozondi. Uning texnika va taktika tayyorgarligi kurash maydonida ustunligini namoyish etishga imkon berdi. Bolgariya vakili Yuliana Yaneva esa finalda Ami Isii qarshisida mag‘lub bo‘lib, kumush medalni qo‘lga kiritdi. Uning ishtiroki yuqori tayyorgarlik darajasi va strategik fikrlash qobiliyatini ko‘rsatdi. AQSh vakili Kennedi Bleyds uchrashuvda Xitoy vakili Lon Jiani mag‘lub etib, bronza medalini qo‘lga kiritdi. Uning g‘alabasi AQShning xalqaro ayollar kurashidagi mavqeini mustahkamladi. Xitoy vakili Lon Jia ham uchrashuvda g‘alaba qozonib, bronza medalini qo‘lga kiritdi. Uning yutug‘i Xitoyning xalqaro ayollar kurashidagi pozitsiyasini mustahkamladi.

9-jadval

Ayollar kurashi bo‘yicha Jahon chempionatining -72 kg vazn toifasidagi natijalari

Rank	Team	Wrestler	CP	VT	ST	TP	TP Gvn	Team Rank Pts
1	UKR	Alla BELINSKA	20	4	0	25	8	25
2	TUR	Nesrin BAS	11	1	0	21	16	20
3	KGZ	Nurzat NURTAEVA	9	0	0	22	18	15
3	CHN	Zelu LI	11	0	1	30	15	15
5	ROU	Alexandra Nicoleta ANGHEL	10	1	1	25	10	10
5	FRA	Pauline Denise LECARPENTIER	7	0	1	16	11	10

-72 kg vazn toifasi Olimpiya dasturiga kiritilmagan bo‘lsa-da, ayollar kurashida juda muhim o‘rin tutadi. Ushbu kategoriyada asosan kuch va jismoniy tayyorgarlik ustunlik qiladi. Zagreb–2025 jahon chempionatida ham bu vazn toifasi qizg‘in kurashlarga boy bo‘ldi. Ukrainaning tajribali sportchisi kuchli usullar va taktikasidan foydalanib, barcha raqiblarini tezkor hisoblar bilan mag‘lub etdi. Alla Belinskaya finalda Turkiya vakili Nesrin Bashni mag‘lub etib, g‘alaba qozondi. Uning texnika va taktika tayyorgarligi kurash maydonida ustunligini namoyish etishga imkon berdi. Turkiya vakili Nesrin Bash esa finalda Alla Belinskaya qarshisida mag‘lub bo‘lib, kumush medalni qo‘lga kiritdi. Uning ishtiroki yuqori tayyorgarlik darajasi va strategik fikrlash

qobiliyatini ko‘rsatdi. Qirg‘iziston vakili Nurzat Nurtaeva uchrashuvda Xitoy vakili Li Tseluni mag‘lub etib, bronza medalini qo‘lga kiritdi. Uning g‘alabasi Qirg‘izistonning xalqaro ayollar kurashidagi mavqeini mustahkamladi. Xitoy vakili Li Tselu ham uchrashuvda Nurzat Nurtaevani mag‘lub etib, bronza medalini qo‘lga kiritdi. Uning yutug‘i Xitoyning xalqaro ayollar kurashidagi pozitsiyasini mustahkamladi.

10-jadval

Ayollar kurashi bo‘yicha Jahon chempionatining -76 kg vazn toifasidagi natijalari

Rank	Team	Wrestler	CP	VT	ST	TP	TP Gvn	Team Rank Pts
1	ECU	Genesis Rosangela REASCO VALDEZ	13	0	1	24	7	25
2	KGZ	Aiperi MEDET KYZY	11	0	1	30	12	20
3	CUB	Milaimy De La Caridad MARIN POTRILLE	13	0	3	33	5	15
3	USA	Kylie Renee WELKER	13	1	1	25	10	15
5	UKR	Anastasiya ALPYEYEVA	11	1	1	22	18	10
5	IND	Priya PRIYA	6	1	0	6	14	10

-76 kg vazn toifasi ayollar kurashidagi eng og‘ir va nufuzli kategoriyalardan biri hisoblanadi. Bu vaznda kuch, chidamlilik va katta tajriba asosiy hal qiluvchi omillardan sanaladi. Zagreb–2025 jahon chempionatida ushbu toifa alohida e’tiborni tortdi, chunki unda Olimpiya chempionlari, dunyo yetakchi sportchilari ishtirok etishdi. Genezis Reasko finalda Qirg‘iziston vakili Aiperu Medet Qizini mag‘lub etib, oltin medalni qo‘lga kiritdi. Uning g‘alabasi tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi, chunki Ekvador o‘z tarixi davomida birinchi marta jahon chempionatida oltin medalni qo‘lga kiritdi. Qirg‘iziston vakili Aiperu Medet Qizi esa finalda Genezis Reasko qarshisida mag‘lub bo‘lib, kumush medalni qo‘lga kiritdi. Uning ishtiroki yuqori tayyorgarlik darajasi va strategik fikrlash qobiliyatini ko‘rsatdi. AQSh vakili Kayli Uelker uchrashuvda Kuba vakili Milaymis Marinani mag‘lub etib, bronza medalini qo‘lga kiritdi. Uning g‘alabasi AQShning xalqaro ayollar kurashidagi mavqeini mustahkamladi. Kuba vakili Milaymis Marin ham uchrashuvda Kayli Uelker ustidan g‘alaba qozonib, bronza medalini qo‘lga kiritdi.

Xulosa. Turnir g‘oliblari yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorgarlikni, shuningdek, raqib va bellashuv bosqichini hisobga olgan individual taktika usullarini muvaffaqiyatli qo‘llash qobiliyatini namoyish etdilar. Bu, o‘z navbatida, tayyorgarlik jarayonida jismoniy chidamlilik, texnika-taktika ko‘nikmalari va strategik qaror qabul qilishni rivojlantirishni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvning zarurligini tasdiqlaydi. Olingan tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, turli kurashchilarda faol harakatlar intensivligi va dinamikasi sezilarli darajada farq qiladi, bu esa ularning faoliyat ko‘rsatish uslubi va bellashuv strategiyasidagi individual xususiyatlarni aks ettiradi. Ushbu individual xususiyatlarni hisobga olgan holda tayyorgarlik mikrosikllarini optimallashtirish musobaqalarda natijadorlikni oshirishga yordam beradi. Olingan ma’lumotlar ayollar kurashchilarning tayyorgarlik metodikasini takomillashtirish, individual mashg‘ulot dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek mavjud tayyorgarlik yondashuvlari hamda jismoniy va maxsus tayyorgarlikni baholash usullarining samaradorligini tahlil qilishda foydalanilishi mumkin. Tadqiqot natijalari murabbiylar va sport tayyorgarligi mutaxassislariga tayyorgarlik jarayonini aniqroq rejalashtirish, yuklamalarni optimal taqsimlash, shuningdek sportchilarning individual xususiyatlari va organizmning yuklamaga reaksiyasini hisobga olgan holda ularning musobaqa taktikasini moslashtirish imkonini beradi. Shu tariqa, bellashuv natijalarini ilmiy tahlil qilish va zamonaviy tayyorgarlik rejalashtirish metodlarini integratsiya qilish ayollar kurashchilarning tayyorgarlik jarayonini optimallashtirish, sport faoliyatining samaradorligini oshirish va xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishish imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar.
www.teamusa.org
www.japan-wrestling.jp
www.uww.org/news
С.ҚАдилов. Спорт курашлари бўйича париж-2024 олимпия ўйинларининг илмий-назарий таҳлили // “FAN – SPORTGA” илмий-назарий журнали, 2025 №1, 13-17 бет.
Ismatullayeva S.R. Dzyudo sport turi bo‘yicha kattalar o‘rtasida Toshkent “GRAND SLAM” 2023-taxlil natijalari // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar Xalqaro-ilmiy metodik jurnal 2023/4. - B. 182-189. [13.00.00 № 4].
Ismatullayeva S.R. Fundamentals of increasing the efficieny of competition activity and developing technical and tactical training // Mental enlightenment scientific – methodological journal 2024/1. - pp. 2181-6131.

DZYUDOCHILARNING YILLIK SIKLDA MA’LUM BIR MUSHAK GURUHLARINI TEZKOR-KUCH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Jo’raqobilov Navruz Axmadovich.,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Dzyudo, Sambo nazariyasi va uslubiyati kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Malakali dzyudochilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini yillik siklda mashg‘ulot jarayonlaridagi harakat tezkorligi yuqori bo‘lgan ma’lum bir mushak guruhlarini rivojlantirishga qaratilgan kuchni rivojlantiruvchi mashqlar majmumosini ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tezkor-kuch qobiliyati, tiklanish, ish qobiliyati, jismoniy yuklama, sportchilarni tayyorlash.

РАЗВИТИЕ СКОРОСТНО-СИЛОВЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ОТДЕЛЬНЫХ МЫШЕЧНЫХ ГРУПП ДЗЮДОИСТОВ В ГОДИЧНОМ ЦИКЛЕ

Журакобилов Навруз Ахмадович,
Государственный университет физической культуры и спорта Узбекскистана,
преподаватель кафедры теории и методики Дзюдо и Самбо

Аннотация. Разработан комплекс упражнений, направленный на развитие силы определённых мышечных групп с высокой скоростью движений в процессе тренировок в годичном цикле у квалифицированных дзюдоистов.

Ключевые слова: скоростно-силовые способности, восстановление, работоспособность, физическая нагрузка, подготовка спортсменов

DEVELOPMENT OF SPEED-STRENGTH ABILITIES OF CERTAIN MUSCLE GROUPS IN JUDOISTS DURING THE ANNUAL CYCLE

Jo‘raqobilov Navruz Akhmadovich,
Lecturer, Department of Judo and Sambo Theory and Methodology
Uzbek State University of Physical Culture and Sports

Abstract. A set of exercises aimed at developing the strength of specific muscle groups with high movement speed during the annual training cycle of qualified judoists has been developed.

Keywords: speed-strength abilities, recovery, working capacity, physical load, athletes’ training.

Dolzarbligi: Respublikamizda dzyudoni aholi o‘rtasida ommaviy sport turlaridan biriga aylantirish, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Dzyudoning olimpiya sport turi sifatida ommaviyligini oshirish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish tizimini takomillashtirish, milliy terma jamoalarimizning nufuzli sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishini ta’minlash” kabi vazifalarni amalga oshirish belgilangan. Hozirda, sport amaliyotida ko‘p yillik tayyorgarlikning maqbul tizimini ishlab chiqish, musobaqa faoliyatida yuqori natijalarni qo‘lga kiritish va o‘quv-mashg‘ulot jarayonini bellashuv faoliyati talablariga muvofiqlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab etmoqda. Bu, mashg‘ulotlarga samarali vosita va uslublarni kiritish muammosini ko‘lamdorligidan darak beradi, o‘smir yoshdagi dzyudochilarning maxsus qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy jihatlardan biri bo‘lib, musobaqalarda yuqori natijalarni qo‘lga kiritishning muhim vazifasi hisoblanadi. Sport takomillashuv guruhidagi sportchilar jismoniy tayyorgarligini hisobga olgan holda o‘quv-mashg‘ulot jarayonini tashkil etish hamda aynan shu bosqichda kuch

va tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish masalalarining ilmiy o‘rganilmaganligi soha olimlari va mutaxassislari oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi

PF-5924-son «O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»

Farmoni, 2021 yil 5 noyabrdagi PQ-5281-son «2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida», 2022 yil 20 iyundagi PQ-286-son «Dzyudo sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», Qarorlari, dzyudoning Olimpiya sport turi sifatida aholi orasida ommaviyligini oshirish, yoshlar o‘rtasida iqtidorli sportchilarni tanlash tizimini takomillashtirish hamda sohadagi bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, sport amaliyotiga muvaffaqiyatli joriy qilinayotgan bir qator muhim tadqiqot ishlarida dzyudochilarning o‘quv-mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsada, ularni jismoniy tayyorgarligini va maxsus jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish yoki kuch va tekor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar yetarlicha olib borilmagan. Malakali dzyudochilarni tayyorlash tizimida maxsus jismoniy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ishlanmalar yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Tadqiqotning maqsadi: sport takomillashuv guruhidagi turli vazn toifalaridagi 15-17 yoshli malakali dzyudochilar kuch va tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishning tabaqalashtirilgan metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot usullari: maxsus ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, so‘rovnomalar, pedagogik kuzatuvlar, pedagogik test, pedagogik tajriba, matematik statistika tahlili va tadqiqot natijalarini qayta ishlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotni tashkillashtirish: Dzyudochilarning potensial imkoniyatlarini katta ehtimollik bilan aniqlash uchun nafaqat ularni tayyorgarligining boshlang‘ich darajasini, balki o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlarning o‘sish sur’atlarini ham aniqlash maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, kuchning turlicha namoyon bo‘lishini inobatga olgan holda, eng muhimi tezkor-kuch qobiliyatlari bo‘lib, uning yordamida raqibning sezilarli qarshiligida yuqori samarali hujum harakatlarini amalga oshirishning asosiy mazmunli vazifalaridan biri hal qilinadi.

Dzyudo bo‘yicha ilmiy va uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, kuch va tezkor-kuch tayyorgarligini rejalashtirish masalalari, ayniqsa, sport takomillashuvi bosqichida kuch sifatlarining yanada intensiv rivojlanishi kuzatilgan vaqtda tezkor-kuch tayyorgarligini rejalashtirish yetarlicha o‘rganilmagan. Birobarin, ushbu yoshdagi dzyudochilarning yillik mashg‘ulotida tezkor-kuch tayyorgarligi markaziy o‘rinda bo‘lishi lozim.

Keltirilgan va tavsiflangan 15 ta nazorat me’yorlari bo‘yicha dastlabki natijalar bo‘yicha nazorat guruhi va tajriba guruhi dzyudochilari o‘rtasida sezilarli statistik farqlar aniqlanmadi. Bu tadqiqot guruhlariga jismoniy tayyorgarligi bir xil bo‘lgan shug‘ullanuvchilar tanlanganligini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tahlil natijasida pedagogik tajriba yakunida tajriba va nazorat guruhlarining malakali dzyudochilarida o‘rganilayotgan parametrlar o‘rtasida sezilarli statistik farqlar aniqlandi. Ikkala guruhdagi nazorat me’yorlarining o‘rtacha ko‘rsatkichlarini qiyosiy statistik tahlil natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Pedagogik tajriba yakunida nazorat va tajriba guruhidagi malakali dzyudochilarining UJT va MJT ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili (n=21)

№	UJT va MJT ko‘rsatkichlari	Nazorat guruhi		Tajriba guruhi		t	P
		$\overline{X} \pm \sigma$	V%	$\overline{X} \pm \sigma$	V%		
1	30 m ga yugurish (soniya)	4,7±0,4	8,51	4,5±0,3	6,66	2,42	<0.05
2	20 soniya davomida ustunda tortilish (marta)	12,2±1,3	10,65	15,3±1,4	9,15	9,15	<0.05
3	20 soniya davomia qo‘llarga tayanib yotgan holatda qo‘llarni bukish va yozish (marta)	25,2±2,1	8,33	28,4±1,8	6,33	2,27	<0.05
4	20 soniya davomida ustunda qo‘llarda osilib turgan holatda oyoqlarni ko‘tarish (marta)	12,3±1,2	9,75	15,2±1,3	8,55	2,39	<0.05
5	Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm)	197,4±18,3	9,27	214,7±16,4	6,78	3,01	<0.05
6	Joyidan turib balandlikka sakrash (sm)	49,6±3,8	6,04	56,8±4,1	7,21	2,87	<0.05
7	3×10 m ga mokkisimon yugurish (soniya)	6,9±0,7	10,14	6,7±0,5	8,95	2,19	<0.05
8	Oldinga 10 marta o‘mbaloq oshish (soniya)	17,1±1,6	9,35	16,2±1,4	8,64	1,92	>0,05
9	Ko‘prik holatiga turish va istalgan tomonga joyidan yugurish bilan ketish 5 marta (soniya)	11,8±0,9	7,62	10,4±0,8	7,69	1,84	>0,05
10	Ko‘prik holatida 5 marta chapga va 5 marta o‘ng tomonga yugurish (soniya)	16,8±1,4	8,33	16,0±1,2	7,5	1,75	>0,05
11	Ko‘prik holatida burilishlar 10 marta (soniya)	25,2±2,4	9,52	23,3±2,1	9,01	2,22	<0.05
12	Beldan oshirib uloqtirish 10 marta (soniya) (seo-nage)	24,5±2,3	9,38	22,1±2,1	9,50	2,28	<0.05
13	10 marta egilib uloqtirish (soniya) (ura-nage)	26,6±2,2	8,27	24,1±2,3	9,54	2,21	<0.05
14	10 marta old tomondan chalish bilan uloqtirish (soniya) (tay-otoshi)	21,8±2,4	11,0	18,7±1,9	10,16	2,42	<0.05
15	10 marta orqadan chalish bilan uloqtirish (soniya) (osoto-otoshi)	22,5±2,2	9,77	17,3±1,5	8,67	2,33	<0.05

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajriba oxirida 30 m ga (soniya) yugurishdagi ko‘rsatkichlar o‘rganilayotgan guruhlarning dzyudochilarida sezilarli o‘zgarishlarni namoyon etdi. Nazorat guruhidagi dzyudochilarning o‘rtacha ko‘rsatkichlari 4,7±0,4 soniyani, tajriba guruhida esa 4,5±0,5 soniyani (t=2,42; P<0,05) tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkichda sezilarli statistik farqlar aniqlandi. 20 soniya davomida ustunda tortilishda nazorat guruhi dzyudochilarida ko‘rsatkichlar 12,2±1,3 marta, tajriba guruhida esa 15,3±1,4 martani tashkil qildi (t=2,33; P<0,05). 20 soniya davomida qo‘llarga tayangan holatda yotib qo‘llarni bukish va yozish ko‘rsatkichlari nazorat guruhi dzyudochilarida 25,2±2,1 marta, tajriba guruhida esa 28,4±1,8 martani tashkil etdi (t=2,27; P<0,05). 20 soniya davomida ustunga qo‘llar bilan osilgan holatda oyoqlarni ko‘tarish me’yori natijalariga ko‘ra, nazorat guruhi dzyudochilarida 12,3±1,2 marta, tajriba guruhida esa 15,2±1,3 martani tashkil etdi (t=2,39; P<0,05). Joyidan turib uzunlikka sakrash me’yorida guruhlar o‘rtasida sezilarli statistik farqlar aniqlandi.

Nazorat guruhi dzyudochilarining natijalari 197,4±18,3 sm, tajriba guruhida esa 214 ,7±16,4 sm (t=3,01; P<0,05) ni tashkil etdi. Joyidan turib balandlikka sakrash me’yorida quyidagi ma’lumotlar olindi: nazorat guruhining dzyudochilarida 49,6±3,8 sm, tajriba guruhida – 56,8±4,1 sm (t=2,87; P<0,05).

Ushbu ko‘rsatkichda sezilarli statistik farqlar aniqlandi. 20 soniya davomida ustunda tortilishda nazorat guruhi dzyudochilarida ko‘rsatkichlar 12,2±1,3 marta, tajriba guruhida esa 15,3±1,4 martani tashkil qildi (t=2,33; P<0,05). 20 soniya davomida qo‘llarga tayangan holatda yotib qo‘llarni bukish va yozish ko‘rsatkichlari nazorat guruhi dzyudochilarida 25,2±2,1 marta, tajriba guruhida esa 28,4±1,8 martani tashkil etdi (t=2,27; P<0,05). 20 soniya davomida ustunga qo‘llar bilan osilgan holatda oyoqlarni ko‘tarish me’yori natijalariga ko‘ra, nazorat guruhi dzyudochilarida 12,3±1,2 marta, tajriba guruhida esa 15,2±1,3 martani tashkil etdi (t=2,39; P<0,05). Joyidan turib uzunlikka sakrash me’yorida guruhlar o‘rtasida sezilarli statistik farqlar aniqlandi. Nazorat guruhi dzyudochilarining natijalari 197,4±18,3 sm, tajriba guruhida esa 214,7±16,4 sm (t=3,01; P<0,05) ni tashkil etdi. Joyidan turib balandlikka sakrash me’yorida quyidagi ma’lumotlar olindi: nazorat guruhining dzyudochilarida 49,6±3,8 sm, tajriba guruhida – 56,8±4,1 sm (t=2,87; P<0,05).

3×10m ga mokkisimon yugurishda, nazorat guruhi dzyudochilarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari 6,9±0,3 soniyani, tajriba guruhida esa 6,7±0,6 soniyani tashkil etdi (t=2,19; P<0,05). 10 marta oldinga o‘mbaloq oshish me’yorida ko‘rsatkichlar nazorat guruhi dzyudochilari 17,1±1,6 soniyani, tajriba guruhi esa 16,2±1,4 soniyani tashkil etdi, sezilarli farqlar aniqlanmadi (t=1,92; P>0,05). Dastlabki holatdan qo‘prik holatida turish va istalgan tomonga joyidan yugurish bilan ketish 5 marta me’yorida, dastlabki ma’lumotlar guruhlar o‘rtasida sezilarli farqlar yo‘qligini ko‘rsatdi. Nazorat guruhi dzyudochilarining natijalari 11,8±0,9 soniyani tashkil etdi va tajriba guruhida – 10,4±0,8 soniyani tashkil etdi (t=1,84; P>0,05).

Ko‘prik holatida 5 marta chapga va 5 marta o‘ngga yugurish me’yorida nazorat guruhi dzyudochilarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari 16,8±1,4 soniyani, tajriba guruhida esa - 16,0±1,8 sek (t=1,76; P>0,05) ni tashkil etib, dastlabki ma’lumotlar guruhlar o‘rtasida sezilarli farqlar yo‘qligini ko‘rsatdi.

Vaktni belgilagan holda 10 marta ko‘prik holatida burilishlar me’yorida nazorat guruhi dzyudochilarida ko‘rsatkich – 25,2±2,4 soniyani, tajriba guruhida esa – 23,3±2,1 sek (t=2,22; P<0,05) soniyani tashkil etdi va guruhlar o‘rtasida sezilarli statistik farqlar aniqlandi. Keyingi dzyudochilarning texnik tayyorgarligini tavsiflovchi to‘rtta nazorat mashqlarida dastlabki ma’lumotlar ham guruhlar o‘rtasida sezilarli statistik farqlar aniqlanganligini ko‘rsatdi. 10 marta orqadan oshirib uloqtirish (seo-nage) me’yorida natijalar nazorat guruhida 24,5±2,3 soniyani, tajriba guruhida esa 22,1±2,1 soniyani (t=2,28; P<0,05) tashkil etdi. 10 marta burilish bilan uloqtirish (ura-nage) me’yorida quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlandi: nazorat guruhida – 26,6±2,2 soniya, tajriba guruhida esa – 24,1±2,3 soniya (t=2,21; P<0,05). 10 marta old tomondan chalib uloqtirish (tay-otoshi) me’yorida nazorat guruhi dzyudochilarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari

21,8±2,4 soniyani, tajriba guruhida esa 18,7±1,9 soniyani tashkil etdi (t=2,42; P<0,05).

Orqadan chalish bilan 10 marta uloqtirish oxirgi nazorat me’yorida (osoto-otoshi) o‘rtacha ko‘rsatkichlarning qiyosiy tahlili nazorat guruhi dzyudochilarida 22,5±2,9 soniyani, tajriba guruhida esa 17,3±1,5 soniyani tashkil etdi (t=2,33;

P<0,05).

Pedagogik tajriba ishlari yakunida o‘tkazilgan statistik tahlil natijasida yuqorida keltirilgan va tavsiflangan 15 ta nazorat standartidan 12 tasida nazorat guruhi va tajriba guruhi dzyudochilarida sezilarli statistik farqlar aniqlandi. 10 marta oldinga o‘mbaloq oshish, turish holatidan orqaga egilib qo‘llarga tayanib turish (ko‘prik holati), 5 marta istalgan tomonga yugurish bilan joyidan ketish, ko‘prik holatida chap tomonga 5 marta va o‘ng tomonga 5 marta yugurish nazorat me’yorlarida sezilarli statistik farqlar aniqlanmadi. Bu kuch va tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha taklif qilingan metodika tajriba guruhi kurashchilarining kuch sifatlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi, deb xulosa qilish imkonini beradi.

O‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari 1-rasmda keltirilgan bo‘lib, unda nazorat va tajriba guruhlari dzyudochilarida o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlari yaxshilanishi foizining qiyosiy diagrammalari ko‘rsatilgan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhi dzyudochilari nazorat guruhi dzyudochilaridan sezilarli darajada ustun keldi va ko‘rsatkichlar foizi oshdi.



1-rasm. Nazorat va tajriba guruhlari dzyudochilarida o‘rganilgan ko‘rsatkichlari yaxshilanishining qiyosiy taxlillari

Sportchida mavjud harakat salohiyatini oshirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish va uni takomillashtirish va uning rivojlanishi uchun yangi yondashuvlarni izlash, hozirgi bosqichda sport nazariyasining asosiy muammolaridan biridir. Bu, yuqori malakali sportchilarning funksional imkoniyatlari chegara qiymatlaridan oshgani va natijalarning keyingi o‘sishida faqat ularga tayanib qolmaslik bilan bog‘liq.

Xulosa.Tadqiqotda 12 nafar oliy ma’lumotli, 5 yil va undan ortiq ish tajribasiga ega bo‘lgan, ulardan 12 nafari dzyudo bo‘yicha sport ustasi toifasiga ega bo‘lgan malakali murabbiylar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma hamda 14 ta mahalliy, MDH va chet el mutahassislarini ilmiy ishlarini o‘rganish natijasida tezkor-kuch tayyorgarligi bo‘yicha o‘quv-mashug‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha hali ham umumiy bir fikr mavjud emasligi aniqlandi. Shu sababli ushbu muammoni o‘rganish dolzarb hisoblanib, yanada keng qamrovli tadqiqotlarni talab qiladi. Oliy o‘quv yurtlarida dzyudo bo‘yicha murabbiylarni tayyorlash tizimi ham kelgusida

takomillashtirishni talab qiladi.

Pedagogik eksperiment yakunida nazorat va eksperimental guruhlardagi malakali dzyudochilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi va maxsus jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulot usulidan foydalanish tufayli bu boradagi malakali dzyudochilarning jismoniy tayyorgarligi va maxsus jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatilgan. 30 m yugurishda natijalarning oshishi, bunda tajriba guruhining o‘rtacha ko‘rsatkichi 4,5±0,5 soniya, tirgakda 20 soniya ichida ustunda tortinishlar, o‘rtacha 15,3±1,4 marta, qo‘llar bilan to‘singa osilgan holda va oyoqlarni to‘singa ko‘tarish, tajriba guruhining o‘rtacha ko‘rsatkichi 15,2±1,3 martaga oshgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Abdullaev A., Xonkeldiev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. Darslik. T., 2005. 34-b

Aliev I.B. Kurash bilan shug‘ullanuvchi talaba-sportchilarni mashg‘ulot yuklamalarining optimal nisbatlari. / Ped.fan.nomzodlik diss., T., 2012. – 30 b.

Arslonov Sh.A. Tangriev A.J. - Sport pedagogik mahoratini oshirish (Dzyudo kurashi bo‘yicha). Darslik – 2017 y 35-b

Артемьев В.П., Шутов В.В. Теория и методика физического воспитания. Двигательные качества: Учеб. Пособ. – Могилев: МГУ им: А.А. Кулешова, 2004. – 284 с.

Qodirov S.E. Sport takomillashuv guruhlarida malakali dzyudochilarning kuch sifatini rivojlantirish uslubiyati “Fan-sportga” ilmiy-nazariy jurnal. 2022/7 № 2181 7804. B. 75-77.

Axmatov M.S. Uzluksiz ta’lim tizimida ommaviy kurashning -sog‘lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. T., 2005. 35-b

Abdullaev Sh.A. Yosh kurashchilarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslari. / O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T., 2012, b.32-35

Qodirov S.E. Development of strength and operational strength skills of qualified judoists aged 15-17 years in спорть improvement groups. Eurasian Journal of sport Science 2021; 1(2): P. 160-164.

Timility D. Protocols for Physiological assessment of male and tamale soccer players. In Physiological tests for Elite Athletes, Human Kinetics, 2000, 17, 356-362.

TA’LIMDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI

Kilichev Nurilla Abbosovich
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Zamonaviy jamiyatning asosiy xususiyatlaridan biriga ijtimoiy hayotning turli sohalarida, ishlab chiqarish faoliyatida, shu jumladan informatika sohasida tashabbuskor, raqobatbardosh, kompetentli mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj kiradi. Talab qilib olinadigan mutaxassis bo‘lish uchun yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lish kerak. Ma’lumot darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, kasbiy va ijtimoiy mobillik ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Zamonaviy hayotning murakkab sharoitlarida mustaqil qaror qabul qilish va o‘zgarishlarga tez javob bera olish kerak. Demak, mustaqil fikr yuritish, tahlil qilish, rejalar tuzish va loyihalar yaratish qobiliyati bugungi kunda muhim hayotiy ahamiyat kasb etmoqda

Tayanch so‘zlar: axborot, texnologiyalar, Individual, pedagogik, bilish, mustaqil, rivojlanish, tamoyil, tavsif, talaba, shaxs.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ

Киличев Нурилла Аббосович
Каршинский государственный технический университет

Аннотация. Одной из главных особенностей современного общества является потребность в предприимчивых, конкурентоспособных, компетентных специалистах в различных сферах общественной жизни, в производственной деятельности, в том числе в области информатики. Чтобы стать востребованным специалистом, необходимо иметь достаточное образование. Чем выше уровень образования, тем выше профессиональная и социальная мобильность. В сложных условиях современной жизни необходимо уметь принимать самостоятельные решения и быстро реагировать на изменения. Поэтому умение самостоятельно мыслить, анализировать, строить планы и создавать проекты приобретает сегодня всё большую значимость.

Ключевые слова: информация, технологии, индивидуальный, педагогический, знание, самостоятельный, развитие, принцип, описание, студент, личность.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF PERSON-CENTERED APPROACH IN EDUCATION

Kilichev Nurilla Abbosovich
Qarshi State Technical University

Annotation. One of the main features of modern society is the need for enterprising, competitive, competent specialists in various spheres of social life, in production activities, including in the field of informatics. To become a sought-after specialist, one must have sufficient education. The higher the level of education, the higher the professional and social mobility. In the complex conditions of modern life, one must be able to make independent decisions and quickly respond to changes. Therefore, the ability to think independently, analyze, make plans and create projects is becoming increasingly important today.

Keywords: information, technologies, Individual, pedagogical, knowledge, independent, development, principle, description, student, person..

Kirish: Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda ta’lim oluvchi ta’limiy o‘zaro ta’sirning subyekti emas,

balki pedagogik ta’sir obyekti hisoblanadi, bunda o‘qituvchining barcha harakatlari har bir ta’lim oluvchi imkoniyatlarini o‘rganish hamda uning jamiyatda kelajakda bajaradigan funksiyalariga qaratilgan. Bunday ta’limda o‘zaro so‘zlashuv (dialog), individual ta’lim trayektoriyasini erkin tanlash haqida gap ketmaydi, hammasi o‘qituvchining ta’lim oluvchiga nima kerakligini yaxshiroq bilishiga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Markazida shaxs turgan ta’lim esa shaxs atrofida quriladi va so‘zlashuv (dialog) ta’lim jarayonining to‘la huquqli subyektlari o‘rtasida kechadi. O‘qituvchi ta’lim oluvchini ta’lim jarayonida pedagogik jihatdan olib boradi .

Akademik erkinlik tamoyili — talabalarga oliy ta’lim federal davlat ta’lim standartlari talablariga rioya qilish sharti bilan o‘z ta’limi mazmunini shakllantirishda ishtirok etish huquqi beriladi. Ushbu tamoyil kasbiy tanlovni mustaqil amalga oshirish, ushbu tanlovning yakuniy natijasini ko‘rish va uning uchun javob berish ko‘nikmasining shakllanishiga yordam beradi.

Ta’lim darajalarining birligi va vorisiyligi tamoyili — shaxs rivojlanishi bosqichlari o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘zda tutadi, uzluksiz ta’limning bosqichlari va darajalarini belgilaydi va butun hayot davomida ta’lim olish imkoniyati berilishi, ya’ni “hayot orqali ta’lim olish” yo‘li bilan ta’minlanadigan uzluksizligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metadologiyasi.

Ta’limning ochiqligi tamoyili – mazmunni o‘zlashtirish uchun subyekt usul, shakl va vositalarni mustaqil tanlashi mumkin, bunda ochiqlik ochiq ta’limning quyidagi xususiyatlari bilan ta’minlanadi:

ta’lim tizimining xilma-xil, ko‘p modelli tizimini yaratishni ko‘zda tutadigan variativlik;

ta’lim dasturini rejalashtirish, ta’lim olish uchun joy, muddat va uning sur’atini tanlashda o‘quvchiga ko‘proq erkinlik berish yo‘li bilan ta’limni individuallashtirish;

butun hayot davomida ta’lim olish imkoniyati berilishi yo‘li bilan ta’minlanadigan uzluksizlik.

Individual ta’lim trayektoriyasisini tanlash tamoyili — ta’lim oluvchi o‘z ta’limining asosiy komponentlarini tanlash imkoniyatiga ega. Ta’lim dasturi salohiyatini ro‘yobga chiqarish ta’lim faoliyatining elementlarini erkin tanlash sharoitidagina mumkin. Ta’lim oluvchiga maqsadlariga erishish yo‘llari, ijodiy ish mavzusini, uni bajarishning shakllarini tanlash imkoniyatini berish, muammoga nisbatan o‘z fikriga ega bo‘lishini taqdirlash, uning dalillangan xulosalari va o‘zini o‘zi baholashini rag‘batlantirish zarur.

Markazida shaxs turgan ta’lim jarayonida yetakchi rolni talaba shaxsi o‘ynaydi, unga ta’limning individual yo‘l haritasini ishlab chiqish, ta’lim jarayonining mazmuni va shakllarining xilma-xilligi bilan shartlab berilgan bilish va amaliy faoliyat usullarini tanlash huquqi berilgan, o‘qituvchi esa mashg‘ulotlarda tashkilotchi, maslahatchi, ijod jarayonida nazoratchi emas, sherik bo‘lishi kerak.

Ushbu jarayonda o‘qituvchining ustunligi ahamiyatli darajala kamayadi, u ta’lim oluvchining to‘la qonli sherigiga aylanadi, ta’lim oluvchining bilishga oid mustaqil faoliyatining roli kuchayadi. Ta’lim oluvchi o‘z ta’limining maqsadlarini qo‘yish, maslahat olish va undan yordam so‘rash uchun o‘qituvchiga murojaat qilish orqali ularga erishish yo‘llarini tanlash imkoniyatiga ega [2,86].

Markazida shaxs turgan ta’lim texnologiyasi jamiyatning meyorlarga mos faoliyat sifatida tushuniladigan ta’limning alohida ta’lim subyektining yakka tartibda ahamiyatga ega ta’limi bilan birga qo‘shilishini ifodalaydi Uning mazmuni, usullari, yo‘llari, asosan, har bir ta’lim oluvchining subyektiv tajribasini ochib berish va undan foydalanish, yaxlit bilishga oid mustaqil faoliyatni tashkil qilish yo‘li bilan shaxs uchun ahamiyatga ega bilish usullarining shakllanishiga yordam berishga qaratilgan[3,46].

Adabiyotlat tahlili.

Ta’limga markazida inson turgan yondashuv (K. Rojers, A. X. Maslou), psixologik-didaktik konsepsiya (I.S.Yakimanskaya), pozitsion-didaktik konsepsiya (S.L.Rubinshteyn, V.V.Serikov),

shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning loyihaviy modeli (N.A.Alekseyev), madaniyatshunoslik bilan bog‘liq konsepsiya (YE.V.Bondarevskaya) kabi zamonaviy insonparvarlik (gumanistik) ta’lim konsepsiyalarining tahlili ushbu ta’limning uning quyidagilarga yo‘naltirilganligi bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash imkonini berdi:

ta’limning har bir subyektining noyobligini tan olishga;

subyekt tomonidan o‘quv topshiriqlar turini, ularni bajarish sur’atlari va muddatlarini, ta’lim natijalarini taqdim qilish shakllarini tanlash erkinligini aks ettiradigan ta’lim subyektining individual ta’lim trayektoriyasini qurishga;

ta’lim jarayonida ta’lim oluvchini pedagogik qo‘llab-quvvatlashga.

Tahlil va natijalar.

Ta’lim jarayoni ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchining ta’limga oid dialogiga (so‘zlashuv) qurilgan bo‘lib, bu dialog bilishga oid mustaqil faoliyatni birgalikda konstruksiyalashga qaratilgan. Bunda ta’lim oluvchining o‘quv materialning mazmuni, ko‘rinishi va shakliga nisbatan individual tanlash qobiliyati, uning motivatsiyasi, olgan bilimlaridan o‘z tashabbusiga ko‘ra, ta’limda belgilanmagan vaziyatlarda mustaqil foydalanishga intilishi hisobga olinadi. Ushbu texnologiyaning metodik asosini ta’lim jarayonini individuallashtirish tashkil qiladi.

Talabalarning ushbu jarayondagi algoritmi quyidagilarni ko‘zda tutadi:

ta’limda o‘z maqsadlarini aniqlab olish;

ularni o‘z imkoniyatlari bilan solishtirish;

ta’limning individual yo‘l xaritasini tanlash;

tanlangan dasturda ko‘zda tutilgan shartlarni bajarish;

qilingan ishlarni shaxsan baholash imkoniyati;

tanlangan individual yo‘l xaritasi bo‘yicha yoki u almashgan holda ta’lim to‘g‘risida qaror qabul qilish.

Talaba o‘qituvchi yordamida o‘z ta’lim faoliyatini ongli ravishda loyihalashtirib, o‘z ta’limining tashkilotchisi bo‘ladi. Taklif qilingan talabalarning bilishga oid mustaqil faoliyatini rivojlantirish taktikasi kompetensiyaviy va markazida shaxs turgan yondashuvlar g‘oyalariga tayanadi.

Markazida shaxs turgan ta’lim jarayonining texnologiyasi pedagogga harakatlarining yangilangan ketma-ketligini beradi, ya’ni:

talabalarni tayyorlash darajasidan kelib chiqib, ta’limning individual yo‘l xaritalarini ishlab chiqish;

o‘quv materialni talabalarning ta’lim darajasiga moslashtirish;

individual ta’lim yo‘l xaritalarini tuzishda talabalarga maslahat berish;

o‘quv loyihalarga rahbarlik qilish;

ta’lim jarayonini didaktik materiallar bilan ta’minlash.

Shuning uchun markazida shaxs turgan ta’lim jarayonida taklif qilingan harakatlar algoritmini qo‘llab-quvvatlaydigan o‘qituvchining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

pedagogik qo‘llab-quvvatlash funksiyasi — individual ta’lim yo‘l xaritasini olib borish, ATTda talabalar faoliyatining turli yo‘nalishlarini taqdim qilish;

yo‘naltiruvchi — ta’lim oluvchilarda jahon axborot makonida yo‘nalish olish ko‘nikmasini rivojlantirish;

rivojlantruvchi — ijodiy tafakkurni rivojlantirish.

An’anaviy ta’limdan farqli o‘laroq markazida shaxs turgan ta’lim jarayonida o‘qituvchi roli o‘zgaradi: u ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning rahbari va yordamchisiga aylanadi. Markazida shaxs turgan ta’lim jarayoni talaba raqobatbardoshligini ijodiy mustaqil rivojlantirishni rag‘batlantiruvchi ta’lim subyektlari ta’limiy o‘zaro ta’sirini tashkil qilishga qaratilgan.

N. A. Alekseyev ta’kidlashicha, markazida ta’lim oluvchi turgan ta’limning o‘ziga xos xususiyati nafaqat ta’lim jarayonida ta’lim oluvchini noyobligini tan olish, balki pedagog shaxsining takrorlanmasligini ham tan olish bilan bog‘lik [4,96].

Adabiyotlarni o‘rganish natijalarini umumlashtirish markazida shaxs turgan ta’lim – bu erkin,

majburlanmaydigan ta’lim, ta’limga motivatsiyani, ta’lim oluvchi shaxsini rivojlantirishni, ta’lim oluvchiga insonparvar munosabatda bo‘lishni ta’minlaydigan shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan tizim ekanligi haqidagi xulosaga olib kelgan. U talabadan o‘z ta’lim trayektoriyasini qurishda, mustaqilligini shakllantirishda, o‘ziga o‘zi ta’lim berishda, o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarishda, ta’lim sur’atini, ta’lim natijalariga erishish vosita va usullarini tanlashda faol bo‘lishni talab qiladi [4,112].

S. L. Bratchenko, E. N. Gusinskiy, A. B. Orlov, K. R. Rojers, O. L. Podlinyayev, V. E. Frankl kabi insonparvar psixologik-pedagogik fanning mamlakatimiz va xorijiy vakillari ishlarini tadqiq qilish asosida biz tomondan markazida shaxs turgan ta’limning eng ahamiyatli tamoyillari sifatida quyidagilar ajratib ko‘rsatilgan:

Insonparvarlik tamoyili — shaxsning shaxsiy o‘sishi va o‘zini o‘zi rivojlantirishiga yo‘nalganlik, ta’lim oluvchiga mustaqil ish va ijod subyekti sifatida munosabat bildirish, ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida hamjihatlik, ishonch va o‘zaro hurmat kayfiyatini yaratish hisobiga amalga oshiriladi.

Demokratlashtirish tamoyili — ta’lim jarayonining barcha subyektlari shaxsiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish va o‘z ta’lim faoliyati uchun shaxsan javogar bo‘ladigan shart-sharoitlarni yaratish.

Ta’lim makonining birligi tamoyili — asosiy ta’lim dasturlari tuzilishiga va ularning o‘zlashtirilishi natijalariga qo‘yiladigan talablarni belgilaydigan federal davlat ta’lim standartlari (FDTS) hisobiga amalga oshiriladi. FDTS ta’lim dasturlari vorisiyligini va ayni vaqtda mazmunining variativligini ta’minlashi lozim.

Guruhlarda va yakka tartibda o‘qitish birligi tamoyili — hamkorlik, shaxslararo muloqot, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi munosabatlarning “subyekt-obyekt” munosabatlaridan “subyekt-subyekt” munosabatlariga o‘zgarishi va bunda ularning faoliyati “barcha narsa hamma uchun” tamoyili orqali erishiladi.

Ta’limning paritetligi (tomonlarning tengligi) tamoyili — ta’lim jarayonida markazida shaxs turgan yondashuvni amalga oshirish jarayonida shakllanadigan yangi sharoitlarda pedagog va ta’lim oluvchining o‘zaro ta’sirini tavsiflaydi.

Xulosa va takliflar.

Talaba va o‘qituvchi subyekt-subyekt tarzda o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Markazida shaxs turgan ta’limda paritetlik tamoyili quidagi pedagogik qoidalarga rioya qilishni talab qiladi: markazida shaxs turgan axborot-ta’lim tizimi (ATT) muayyan darajagacha ta’lim oluvchilar bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishi uchun imkoniyatni ta’minlashi kerak; u pedagoglarni sof axborot berish funksiyasidan ozod qilishi va maslahat berish-muvofiqlashtirish funksiyasini namoyon qilish uchun shart-sharoitlar yaratib berishi keark; pedagog va ta’lim oluvchi tomonidan birgalikda optimal ta’limning individual yo‘l xaritasini tanlash uchun sharoit yaratib berishi kerak; ATTni o‘quv-metodik ta’minlash talabaning ta’limni tashkil qilish va bajarishda mustaqilligi salohiyatini shunchalik oshiradiki, ta’limning yakunida u butunlay o‘ziga o‘zi ta’lim berishga o‘tishi mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Алексеева Т. Е. Реализация традиционных дидактических принципов в условиях информатизации образования / Т. Е. Алексеева // СИСП. – 2015. – № 5 (49). – С. 393-405.

Мультимедиа в образовании : специализированный учебный курс /Бент Б. Андресен, Катя ван ден Бринк ; авторизованный пер. с англ. — 2-е изд., испр. и доп. — М. : Дрофа, 2007. 224 с.

Петрова И.А. Организация самостоятельной работы студентов в личностно-центрированной информационно-образовательной среде вуза //Современные наукоемкие технологии. – 2016. – № 2-3. – С. 552-556; URL: https://www.top-technologies.ru/ru/article/view?id=35672

Полат Е. С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования : учеб. пособие для студ. вузов / Е. С. Полат, М. Ю. Бухаркина. – 2-е изд., стер. – М: Академия, 2008. – 368 с.

TEXNOLOGIYA FANINING TO‘GARAK ISHLARIDA O‘QUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Mardonov Ruslanjon Boymurod o`g`li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti San’atshunoslik kafedrasi katta o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi ta’lim tizimining asosiy maqsadi har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi, zamonaviy kasb- hunar egallagan ijodkor shaxsni shakllantirish, ayniqsa, umumta’lim maktablarida va kasb-hunar yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarida texnologiya fani katta ahamiyat kasb etayotgani, texnologiya fanining to‘garak ishlari esa o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishi bilan birga, ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim tizimi, kasb-hunar, ijodkor shaxs, to‘garak, texnologiya, o‘qituvchi, o‘quvchi, loyiha, qo‘l mehnati, hunarmandchilik, metod, bilim, ko‘nikma, innovatsion, asbob-uskunalar, startap, milliy hunarmandchilik, integratsiya, zardo‘zlik, kashtachilik, gilamdo‘zlik, kulollik, yog‘och o‘ymakorligi, misgarlik, motivatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается тот факт, что главной целью современной системы образования является формирование всесторонне развитой, самостоятельно мыслящей, творческой личности, овладевшей современной профессией, а также то, что технологии приобретают большое значение, особенно в средних школах и профессиональных училищах, а технологические кружки развивают у учащихся практические навыки и творческие способности.

Ключевые слова: Система образования, профессия, творческая личность, кружок, технология, учитель, ученик, проект, ручной труд, ремесло, метод, знания, умения, инновационный, оборудование, стартап, народные промыслы, интеграция, ювелирное дело, вышивка, ковроткачество, гончарное дело, резьба по дереву, медничество, мотивация.

Abstract: This article discusses the fact that the main goal of today’s education system is to form a well-rounded, independent-thinking, creative individual who has mastered a modern profession, and that technology is gaining great importance, especially in secondary schools and vocational schools, and that technology clubs develop students’ practical skills and creative abilities.

Keywords: Education system, profession, creative person, circle, technology, teacher, student, project, manual labor, craft, method, knowledge, skills, innovative, equipment, startup, national crafts, integration, goldsmithing, embroidery, carpet weaving, pottery, woodcarving, coppersmithing, motivation.

Kirish. Texnologiya faniga oid to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilar turli loyihalar, qo‘l mehnatiga asoslangan buyumlar, milliy hunarmandchilik turlari bilan tanishib boriladi. Bu esa o‘quvchilarda nafaqat amaliy ko‘nikma, balki yangilik yaratishga, mavjud narsalarga yangicha yondashishga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Asosiy qism

To‘garak faoliyatida quyidagi yo‘llar orqali ijodkorlikni rivojlantirish mumkin.

Loyihaviy ishlash metodi. Bu o‘quvchilarga kichik guruhlar bo‘lib, mustaqil loyiha tayyorlash topshiriladi. Bu ularda mas’uliyat tashabbuskorlik va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Loyihaviy ishlash metodi asosan o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodkorligini va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim metodi hisoblanadi. Bu metodda o‘quvchilar real muammolarini hal qilishga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar.

Loyihaviy metodning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1. Muammo asosida o‘rganish: o‘quvchi o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan bilimlar real hayotiy

muammo yoki topshiriq asosida beriladi.

2. Amaliyotga yo‘naltirilganlik: o‘quvchilar amaliy loyihalar ustida ishlash orqali bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlaydi .

3. Hamkorlikda ishlash: Ko‘pincha guruh bilan ishlashni talab qiladi, bu esa muloqot va jamoaviy faoliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

4. O‘quvchi faolligi: O‘qituvchi yunaltiruvchi rolini bajaradi, asosiy faoliyat o‘quvchining zimmasiga bo‘ladi.

5. Natijaviylik: har bir loyiha oxirida aniq mahsulot yoki hisobot bo‘ladi.

Texnologiya fanida loyihaviy metodni qo‘llash:

Masalan: “Uy -ro‘zg‘or buyumlarini yasash” mavzusida o‘quvchilar:

- kerakli materiallarni tanlaydi;
- chizmalarni tayyorlaydi;
- buyumlarni yasaydi;
- tayyor mahsulotni taqdim etadi.

Innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash. Bunda yangi dizayn ekologik toza mahsulot yaratish, raqamli texnologiyalarni tadbiq etishga yo‘naltirilgan topshiriqlar ijodiy fikrlar yuritishga undaydi.

Bugungi kunda jamiyatning barqaror taraqqiyoti texnologik yutuqlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa texnologiya fanining rivojlanishi zamonaviy hayotning ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, uni innovatsion g‘oyalarsiz tassavur etib bo‘lmaydi. Shu bois texnologiya sohasida ilg‘or fikrlarni qo‘llab-quvvatlash dolzarb masalaga aylangan. Innovatsion g‘oyalar-bu mavjud muammolarga noodatiy, samarali yechimlar taklif etuvchi yangicha yondashuv hisoblanadi. Ular orqali yangi texnologiyalar yaratiladi, mavjudlari takomillashtiriladi va shu bilan bir qatorda ishlab chiqarish samaradorligi oshadi. Texnologiya fanida bunday g‘oyalarni ahamiyati juda katta bo‘lib, ular o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga mustaqil izlanishga undaydi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, yoshlarning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish yo‘lida keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan professional ta’lim tizimida texnologiya fanida katta e’tibor qaratilib, zamonaviy asbob-uskunalar, tajriba darslari va startap loyihalar orqali o‘quvchilarning innovatsion g‘oyalari qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Shuningdek, o‘quvchilarning texnologik loyihalar ustida ishlashi, turli tanlov va ko‘rgazmalarda ishtirok etishi ularning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Bu esa, o‘z navbatida, texnologiya fanini real hayot bilan bog‘lash, amaliyotga yo‘naltirish imkonini beradi.

Milliy hunarmandchilik elementlarini o‘rgatish. Bu qadimiy san’at turlarini zamonaviy uslubda qayta yaratish orqali o‘quvchilar milliy merosni anglash bilan birga, yangi g‘oyalarni ilgari suradilar.

Milliy hunarmandchilik - bu xalqning boy madaniy merosi, asrlar davomida shakllangan amaliy san’at turlarining jamlanmasidir. Bugungi kunda texnologiya fanining mazmunini boyitishda milliy hunarmandchilik elementlarini o‘quv jarayonida integratsiya qilish muhim o‘rin tutmoqda. Bu orqali o‘quvchilarda nafaqat kasbiy ko‘nikmalar, balki milliy qadriyatlarga hurmat hissi ham shakllanadi.

Texnologiya darslarida milliy hunarmandchilik elementlaridan foydalanish o‘quvchilarga amaliy mashg‘ulotlar orqali qadimiy kasb - hunarlarni o‘rganish imkonini beradi. Masalan zardo‘zlik, kashtachilik, gilamdo‘zlik, kulollik, yog‘och o‘ymakorligi, misgarlik kabi hunar turlari texnologiya darslari orqali yosh avlodga yetgaziladi. Bu ularda ijodiy fikrlash, sabr toqat, estetik did va mehnatsevarlik fazilatlarini rivojlantiradi.

Tanlov va ko‘rgazmalar tashkil etish. Bunda o‘quvchilarning ishlari ko‘rgazmalarda namoyish qilinib, ularning motivatsiyasi va ijodiy izlanuvchanligi kuchayadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashda turli ijodiy tanlovlar va ko‘rgazmalar muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa texnologiya fanida bunday tadbirlarni tashkil etish

nafaqat amaliy bilimlarni chuqurlashtiradi, balki o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini ochishga, ularni mehnatsevarlik, tashabbuskorlik va mas’uliyatlilik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Texnologiya fanining asosiy maqsadlaridan biri - o‘quvchilarni hayotga tayyorlash, ularni kasbga yo‘naltirish va amaliy ko‘nikmalar bilan qurollantirishdir. Shu bois, fan doirasida o‘tgaziladigan tanlovlar va ko‘rgazmalar o‘quvchilarning qiziqishini oshirishga, yangi g‘oyalar bilan ishlashga undaydi. Masalan, “Eng yaxshi hunarmand”, “Yosh dizayner”, “Amaliy san’at ustasi” kabi tanlovlar orqali o‘quvchilar o‘zlarining amaliy ishlari, loyihalari va innovatsion yondashuvlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda - Texnologiya fanining to‘garak mashg‘ulotlari o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, amaliy ko‘nikmalari va mustaqil ishlash malakalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. To‘garaklar orqali o‘quvchilar o‘z qiziqishlariga mos loyihalar ustida ishlash, yangi bilimlarni amalda qo‘llash va kasbga yo‘naltirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, bunday faoliyatlar ularda mas’uliyat, mehnatsevarlik, jamoaviy ishlash va ijodkorlik kabi muhim fazilatlarni shakllantiradi. Shu sababli, texnologiya fanida to‘garak ishlarini samarali tashkil etish - o‘quvchilar salohiyatini ro‘yobga chiqarish va ularni hayotga tayyorlash yo‘lidagi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

O‘ZBEKISTON Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston - maktab oshxonasidan boshlanadi. - Toshkent: O‘ZBEKISTON 2022-yil.

O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi. Umumta’lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitish bo‘yicha metodik qo‘llanma - Toshkent: Maorif 2021-yil.

Qodirov R, Mamatqulov I. Texnologiya darslarini tashkil etish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya 2019-yil.

Sodiqov A. Kasb- hunar ta’limida innovatsion yondashuvlar. - Samarqand: Zarafshon nashriyoti 2020-yil.

Umarov B. Jurayev N. To‘garak ishlarini tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari.- Toshkent: Yangi asr avlodi: 2018-yil.

Karimova Z. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash metodikasi.- Toshkent: O‘qituvchi 2021-yil.

Texnologiya fani bo‘yicha dasturi (5-9-sinflar uchun).- Toshkent: Xalq ta’limi vazirligi nashriyoti 2020-yil.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING MAXSUS KOMPETENSIYALARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Milinorov Xusniddin Xushmatovich.
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Pedagogika” kafedrasi assistent-o’qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning maxsus kompetensiyalarini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimida pedagogik faoliyatni modernizatsiya qilish, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va zamonaviy mehnat bozoriga moslashtirish zaruriyati tahlil qilinadi. Maqolada UNESCO, OECD va DigCompEdu kabi xalqaro tajribalar hamda O‘zbekiston ta’lim tizimidagi islohotlar o‘rganilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar, multimedia vositalari va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari ko‘rib chiqilgan. Xulosa qismida pedagogik ta’limda raqamli texnologiyalarni integratsiyalash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchilar, maxsus kompetensiyalar, raqamli texnologiyalar, raqamli pedagogika, metodika, ta’lim sifati.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Милиноров Хусниддин Хушматович
Ассистент кафедры «Педагогика» Шахрисабзского государственного педагогического института

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования методики развития специальных компетенций будущих учителей с использованием цифровых технологий. В условиях цифровой трансформации анализируется необходимость модернизации педагогической деятельности, повышения профессионального мастерства учителей и их адаптации к современному рынку труда. В работе изучены международный опыт (UNESCO, OECD, DigCompEdu) и образовательные реформы в Узбекистане. Освещены методические основы применения цифровых платформ, виртуальных лабораторий, мультимедийных средств и технологий искусственного интеллекта в процессе подготовки будущих педагогов. В заключении представлены научно-практические рекомендации по интеграции цифровых технологий в педагогическое образование.

Ключевые слова: будущие учителя, специальные компетенции, цифровые технологии, цифровая педагогика, методика, качество образования.

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE SPECIAL COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES

Milinorov Khusniddin Khushmatovich
Assistant teacher of the Department of «Pedagogy», Shahrisabz State Pedagogical Institute

Abstract. This article discusses the issues of improving the methodology for developing the special competencies of future teachers through digital technologies. The need to modernize pedagogical activities in the education system in the context of digital transformation, improve the professional skills of teachers and adapt to the modern labor market is analyzed. The article studies international experiences such as UNESCO, OECD and DigCompEdu, as well as reforms

in the education system of Uzbekistan. The methodological foundations of the use of digital platforms, virtual laboratories, multimedia tools and artificial intelligence technologies for future teachers are considered. The conclusion provides scientific and practical recommendations for the integration of digital technologies in pedagogical education.

Keywords: future teachers, special competencies, digital technologies, digital pedagogy, methodology, quality of education.

Kirish. XXI asr ta’limi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lajak o‘qituvchilarning maxsus kompetensiyalarini raqamli texnologiyalar yordamida shakllantirish va rivojlantirishdir. Raqamli transformatsiya jarayoni nafaqat ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya vositalarining keng qo‘llanishini, balki pedagogik faoliyatning yangi metodologiyasini ham talab qilmoqda. Jahon miqyosida o‘qituvchining raqamli savodxonligi, pedagogik dizayni va innovatsion yondashuvlari kasbiy kompetensiyaning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida belgilanmoqda.

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda zamonaviy metodik yondashuvlardan biri sifatida TPACK modeli (Technological Pedagogical Content Knowledge) keng e’tirof etilgan bo‘lib, u o‘qituvchining texnologik, pedagogik va mazmuniy bilimlari integratsiyasini ifodalaydi [Mishra, Koehler, 2006: 1019]. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu ramkasi o‘qituvchilar raqamli kompetensiyasini rivojlantirishda universal mezon sifatida qo‘llanmoqda. UNESCO ham o‘zining ICT Competency Framework for Teachers hujjatida pedagoglarning raqamli kompetensiyasi ta’lim sifatini belgilovchi muhim omil ekanini ta’kidlaydi.

So‘nggi yillarda xalqaro tajribalar o‘zbek ta’lim tizimida ham joriy etilmoqda. Masalan, raqamlashtirish siyosati doirasida o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida raqamli muhitdan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar an’anaviy pedagogik dizayn bilan raqamli dizaynni uyg‘unlashtirish zaruratini ko‘rsatib o‘tmoqda[1,1020].

Shuningdek, zamonaviy ta’limda virtual laboratoriyalar, masofaviy platformalar, multimedia vositalari va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu esa o‘qituvchining kasbiy faoliyatida yangi sifat darajasini ta’minlaydi, o‘z navbatida, ta’lim tizimining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshiradi.

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish nafaqat ta’lim sifatini yuksaltiradi, balki pedagoglarning zamonaviy mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ham ta’minlaydi. Mazkur maqolaning maqsadi - bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamli texnologiyalar yordamida kasbiy jihatdan tayyorlashning nazariy asoslarini ochib berish va amaliy metodik yo‘nalishlarini aniqlashdan iboratdir.

Adabiyotlar sharhi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi xalqaro va milliy ilmiy tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Jahon pedagogik tafakkurida ushbu yo‘nalishdagi konseptual asoslardan biri TPACK modeli (Technological Pedagogical Content Knowledge) hisoblanadi. Mishra va Koehler o‘z tadqiqotida pedagogik bilim, predmet mazmuni va texnologik savodxonlikning uzviy integratsiyasini ta’minlash o‘qituvchilarning professional tayyorgarligida markaziy o‘rin tutishini asoslab bergan. Bu yondashuv bo‘lajak pedagoglar uchun metodik tayyorgarlikda raqamli texnologiyalarni puxta egallash zarurligini ko‘rsatadi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu ramkasi raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning tizimli modelini taqdim etadi. Redecker ushbu hujjatda o‘qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyalarini olti asosiy sohada — kasbiy faoliyat, raqamli resurslardan foydalanish, o‘quvchilar bilan ishlash, baholash, o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish va innovatsion rivojlanishda aks ettiradi. Bu yondashuv nafaqat raqamli texnologiyalardan foydalanishni, balki ta’lim jarayonini moslashuvchan, ijodiy va interaktiv tashkil etishni ham nazarda tutadi.

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan ICT Competency Framework for Teachers esa ta’lim

jarayonida o‘qituvchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash bo‘yicha global strategiyani belgilaydi. Unda o‘qituvchi kompetensiyasining uch darajasi (bilimlarni qo‘llash, bilimlarni chuqurlashtirish, bilimlarni yaratish) aniqlanadi. Bu yondashuv o‘qituvchilarni raqamli iqtisodiyot sharoitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlashda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda xorijiy tadqiqotchilar ham raqamli davrda pedagoglarni tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda. Masalan, Starkey o‘z maqolasida raqamli asr uchun o‘qituvchilarni tayyorlashda nazariy va amaliy asoslarni tahlil qilib, pedagoglarning raqamli dizayn va refleksiya qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Engeness esa o‘qituvchining raqamli identitetini shakllantirishga oid tadqiqotida talabalarning o‘quv jarayonida shaxsiylashtirilgan raqamli muhitlardan foydalanishning afzalliklarini ko‘rsatadi[2,63].

Yangi tadqiqotlar orasida Jurāne-Brēmane raqamli baholash tamoyillari asosida pedagogik dizaynni rivojlantirish masalalarini tahlil qilib, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini nazorat qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni taklif etadi. Bu yondashuv bo‘lajak pedagoglar uchun kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida baholashning shaffof va obyektiv bo‘lishini ta’minlaydi.

Milliy ilmiy adabiyotlarda ham bu masalalar faol o‘rganilmoqda. Xolmatov o‘z maqolasida raqamlashtirish jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini ochib beradi va ta’lim jarayonida elektron resurslar, masofaviy platformalardan foydalanishning afzalliklarini ko‘rsatadi. Niyozov esa an’anaviy va raqamli ta’limning o‘zaro aloqadorligi, pedagogik dizayn va uning xavfsizligini tahlil qilib, o‘qituvchining metodik faoliyatida xavfsiz raqamli muhitni yaratish zarurligini asoslaydi.

Jurayev esa raqamli ta’lim sharoitida bilimlarni baholashning interaktiv usullarini ishlab chiqib, axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalar faoliyatini monitoring qilish samaradorligini asoslagan. Shu bilan birga, Oqnazarov masofaviy ta’lim sharoitida o‘qituvchilarning virtual texnologiyalar bo‘yicha axborot kompetentligini rivojlantirish muammolarini DSc darajasidagi tadqiqotida keng qamrab olgan.

O‘zbekiston olimlari orasida Djurayeva raqamli savodxonlikni bugungi o‘qituvchining asosiy kompetensiyasi sifatida baholab, uni pedagogik faoliyatda uzluksiz rivojlantirish zarurligini ta’kidlagan. Bu fikrlar raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash o‘qituvchining maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishda fundamental ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Metodlar. Mazkur tadqiqot metodologiyasi kompetensiyaviy yondashuv, tizimli tahlil va qiyosiy-pedagogik tahlil usullariga tayangan holda ishlab chiqilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida o‘rganilib, uning tarkibiy qismlari – nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, raqamli savodxonlik va innovatsion pedagogik faoliyat integratsiyasi sifatida belgilandi.

Tadqiqotning nazariy asosini UNESCO va OECD kabi xalqaro tashkilotlarning metodik hujjatlari tashkil etadi. Jumladan, UNESCO ICT Competency Framework for Teachers raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning global modeli sifatida tanlab olindi. OECD Digital Education Outlook hamda DigCompEdu hujjatlarida keltirilgan tamoyillar pedagogik jarayonda raqamli texnologiyalarni qo‘llash metodikasini tahlil qilishda qo‘llanildi[3,42].

Metodologiyada quyidagi yondashuvlar asosiy hisoblanadi:

1. Qiyosiy-pedagogik tahlil – xorijiy va milliy tajribalarni solishtirish orqali samarali metodlarni aniqlash.
2. Tizimli yondashuv – ta’lim jarayonini yagona pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqib, raqamli texnologiyalarning undagi o‘rnini.
3. Model yaratish usuli – bo‘lajak o‘qituvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini “raqamli ta’lim muhiti – metodik yondashuv – natija” zanjiri asosida modellashtirish.
4. Diagnostik yondashuv – kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligini aniqlash uchun

raqamli baholash usullari va onlayn monitoring vositalaridan foydalanish.

Tadqiqot jarayonida kontent-tahlil usuli yordamida ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va xalqaro hujjatlar o‘rganildi. Shuningdek, O‘zbekiston ta’lim tizimidagi islohotlar (masofaviy ta’lim, raqamli platformalar, pedagoglarning malaka oshirish kurslari) amaliy tajribaga asos bo‘ldi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi nazariy asoslarning qiyosiy tahliliga, xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirishga va pedagogik amaliyotda samarali metodik yechimlarni ishlab chiqishga tayangan holda tashkil etildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tahlil asosida ishlab chiqilgan struktura-funksional model besh asosiy blokdan tashkil topdi: ta’lim muhiti, metodik vositalar, innovatsion texnologiyalar, baholash va monitoring, hamda kasbiy rivojlanish.

Ta’lim muhiti sifatida Moodle, Google Classroom, MS Teams kabi onlayn platformalardan foydalanish o‘quv jarayonining interaktivligini oshirdi, talabalar uchun mustaqil ta’lim imkoniyatlarini kengaytirdi.

Metodik vositalar sifatida multimedia taqdimotlar, videodarslar va virtual laboratoriyalarning qo‘llanilishi fanlarni o‘zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshirdi.

Innovatsion texnologiyalar - VR/AR va sun’iy intellekt asosida yaratilgan vositalar - talabalarda kasbiy vaziyatlarni hal qilish, ijodiy va moslashuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirdi. Baholash va monitoringda esa elektron portfoliolar, onlayn testlar va reyting tizimlaridan foydalanish natijasida o‘quv yutuqlarining shaffofligi va obyektivligi ta’minlandi[7,515] .

Kasbiy rivojlanish bloki doirasida o‘qituvchilarni DigCompEdu va UNESCO standartlari asosida tayyorlash hamda malaka oshirish kurslari orqali raqamli savodxonlikni muntazam rivojlantirish imkoniyatlari aniqlandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni metodik jihatdan to‘g‘ri integratsiyalash bo‘lajak o‘qituvchilarning maxsus kompetensiyalarini shakllantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayonining samaradorligini, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini va pedagoglarning mehnat bozoridagi raqobatdoshligini ta’minlaydi.



1-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishning raqamli texnologiyalar asosidagi struktura-funksional modeli.

Rasmda bo‘lajak o‘qituvchilar maxsus kompetensiyalarini shakllantirish jarayonining asosiy bloklari ifodalangan. Ta’lim muhiti (Moodle, Google Classroom, MS Teams) markaziy nuqta sifatida o‘quv jarayonining interaktivligini ta’minlaydi. Undan kelib chiqib, metodik vositalar

(videodarslar, multimedia taqdimotlar, virtual laboratoriyalar) va innovatsion texnologiyalar (VR/AR, sun'iy intellekt) bo'lajak pedagoglarning bilim va ko'nikmalarini kengaytiradi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etishda baholash va monitoring (onlayn testlar, portfoliolar, reyting tizimlari) natijalarni aniqlash va nazorat qilish imkonini beradi. Oxirgi bosqich - kasbiy rivojlanish bloki bo'lib, UNESCO va DigCompEdu standartlari asosida o'qituvchilarning uzluksiz malaka oshirishini va mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Muhokama. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar bo'lajak o'qituvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shunga qaramay, natijalarni tahlil qilish jarayonida bir qator cheklovlar va muammolar ham aniqlandi.

Birinchidan, raqamli texnologiyalardan foydalanishda infratuzilma va texnik resurslar yetarli darajada ta'minlanmagan holatlar mavjud. Jumladan, ayrim ta'lim muassasalarida yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy kompyuter sinflari yoki virtual laboratoriyalar yetarli emasligi o'qituvchilar va talabalar faoliyatini cheklaydi.

Ikkinchidan, bo'lajak o'qituvchilarning o'zlari ham raqamli savodxonlik bo'yicha turlicha tayyorgarlikka ega. Bu esa metodik jarayon samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ayrim talabalar multimedia vositalaridan faol foydalanishga tayyor bo'lsa, boshqalari an'anaviy metodlardan chiqib ketishda qiynalmoqda[8,290].

Uchinchidan, raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogik dizayn masalasi yetarlicha e'tibor talab qiladi. VR/AR yoki sun'iy intellekt kabi innovatsion texnologiyalarni samarali joriy etish uchun puxta metodik reja zarur. Aks holda, texnologiya o'quv jarayoniga qo'shilsa-da, kutilgan samarani bermasligi mumkin.

To'rtinchidan, baholash va monitoring tizimlarida ham ayrim kamchiliklar mavjud. Onlayn testlar yoki elektron portfoliolar samarador bo'lsa-da, ularning sifatli kontent bilan to'ldirilishi va talabalarning shaxsiy rivojlanishiga moslashuvi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar asosida maxsus kompetensiyalarni rivojlantirish samarali bo'lishi uchun quyidagi shartlar muhim:

- ta'lim muassasalarini zamonaviy texnik resurslar bilan ta'minlash;
- bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli savodxonlikni oshirish kurslarini yo'lga qo'yish;
- pedagogik dizayn tamoyillariga asoslangan metodik qo'llanmalar yaratish;
- baholash va monitoring tizimlarini xalqaro standartlarga moslashtirish.

Shunday qilib, natijalarni tahlil qilish raqamli texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega ekanini, biroq uni tatbiq etishda metodik va tashkiliy muammolarni hal qilish talab etilishini ko'rsatdi[10,102].

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning maxsus kompetensiyalarini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish dolzarb va istiqbolli yo'nalish ekanini ko'rsatdi. Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi pedagoglardan yuqori darajadagi raqamli savodxonlikni, metodik moslashuvchanlikni va innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Tahlil asosida ishlab chiqilgan struktura-funksional model — ta'lim muhiti, metodik vositalar, innovatsion texnologiyalar, baholash va monitoring hamda kasbiy rivojlanish bloklari bo'yicha - bo'lajak pedagoglarning kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar (texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, raqamli savodxonlik darajalaridagi tafovut, pedagogik dizaynning sustligi va baholash tizimlaridagi muammolar) shuni ko'rsatdiki, mavjud jarayonni takomillashtirish zarur.

Asosiy takliflar quyidagilardan iborat:

1. Pedagogika oliygohlarida "Raqamli pedagogika" va "Pedagogik dizayn" kabi modullarni majburiy o'quv dasturiga kiritish.

2.Ta'lim muassasalarini yuqori tezlikdagi internet, multimedia laboratoriyalari va virtual ta'lim platformalari bilan ta'minlash.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun raqamli savodxonlik bo‘yicha maxsus kurslar va treninglar tashkil etish.

4. Raqamli baholash tizimlarini (portfoliolar, adaptiv testlar, reyting tizimlari) xalqaro standartlar asosida ishlab chiqish.

5. O‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va ularni UNESCO hamda DigCompEdu kompetensiya ramkalari asosida tayyorlash.

Umuman olganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning maxsus kompetensiyalarini raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish metodikasini takomillashtirish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki kelajak pedagogining mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlaydi hamda O‘zbekiston ta’lim tizimini global standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mishra P., Koehler M. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, № 6. – P. 1017–1054.

2. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 101 p.

3. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. – Paris: UNESCO, 2018. – 68 p.

4. Starkey L. A review of research exploring teacher preparation for the digital age // Cambridge Journal of Education. – 2020. – Vol. 50, № 1. – P. 37–56.

5. Engeness I. Developing teachers’ digital identity: towards the pedagogic design principles of digital environments to enhance students’ learning in the 21st century // European Journal of Teacher Education. – 2021. – Vol. 44, № 1. – P. 96–114.

6. Jurāne-Brēmane A. Developing Pedagogical Principles for Digital Assessment // Education Sciences. – 2024. – Vol. 14, № 10. – Article 1067. – P. 1–13.

7. Xolmatov P. Q. Ta’limni raqamlashtirish asosida bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari // Academic Research in Educational Sciences. – 2022. – № 1(4). – P. 511–516.

8. Niyozov S. R. An’anaviy va raqamli ta’limda pedagogik dizayn va uning xavfsizligi // Academic Research in Educational Sciences. – 2023. – № 2(1). – P. 285–293.

9. Jurayev T. N. Interactive methods of assessment of knowledge on the basis of digital education on the subject “Information technology in education” // International Journal Papier Public Review. – 2020. – Vol. 1, № 2. – P. 71–77.

10. Oqnazarov T. T. Masofaviy ta’lim sharoitida o‘qituvchilarning virtual texnologiyalar sohasidagi axborot kompetentligini rivojlantirish: DSc diss. ... ped. fan. – Samarqand: Sharof Rashidov nomidagi SamDU, 2023. – 190 p.

11. Djurayeva P. S. Raqamli savodxonlik – bugungi o‘qituvchi kompetensiyasi // Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Navoiy, 2023. – P. 3–7.

MUSIQA TA’LIMI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Mustafayev Baxtiyor Ibragimovich,
Buxoro davlat universiteti, Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi professori

Annotatsiya: maqolada maktab musiqa ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion axborot texnologiyalarning roli va ahamiyati, ushbu texnologiyalar vositasida o‘qituvchilarni kasbiy rivojlanishi, kompetentligi hamda ularning pedagogik faoliyatining samaradorligiga ta’siri xususida fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy jamiyat, musiqa ta’limi, innovatsion axborot texnologiyalar, musiqa yozish dasturlari, multimedia tizimilari, kreativlik, tahliliy fikrlash, malaka va ko‘nikma, ta’lim amaliyoti.

РОЛЬ ИННОВАЦИИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПЕДАГОГОВ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Мустафаев Бахтиёр Ибрагимович,
профессор кафедры музыкального исполнительства и культуры
Бухарского государственного университета

Аннотация: в статье рассматривается роль и значение инновационных информационных технологий в развитии профессиональной компетентности школьных учителей музыки, влияние этих технологий на профессиональное развитие учителей, их компетентность, эффективность педагогической деятельности.

Ключевые слова: современное общество, музыкальное образование, инновационные информационные технологии, программы записи музыки, мультимедийные системы, креативность, аналитическое мышление, компетенции и умения, образовательная практика.

THE ROLE OF INNOVATIVE INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF MUSIC EDUCATION TEACHERS

Mustafaev Bakhtiyor Ibragimovich,
professor of the department musical performance and culture
Bukhara State University

Abstract: the article expresses the role and importance of innovative information technologies in the development of professional competence of school music teachers, the influence of these technologies on the professional development of teachers, their competence, and the effectiveness of teaching activities.

Key words: modern society, music education, innovative information technologies, music recording programs, multimedia systems, creativity, analytical thinking, competencies and skills, educational practice.

KIRISH. Zamonaviy musiqa ta’limi jarayoniga ilg‘or innovatsion texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifalardan biridir. Musiqiy ta’lim sohasiga kompyuterlashtirish va axborotlashtirish jarayonlarining kirib kelishi natijasida ta’lim sifati, mazmuni va samaradorligi oshib bormoqda.

Musiqa ta’limini innovatsion axborot texnologiyalari vositasida o‘qitish shakl va uslublari ta’lim jarayonlaridagi ayrim muammolarning yechimini topishga, o‘quv jarayonini

takomillashtirishga yordam beradi. Shu nutayi nazardan innovatsion-axborot texnologiyalari zamonaviy musiqa san’ati va ijrochiligi amaliyotida tobora ko‘proq foydalanilmoqda hamda zamonaviy musiqiy madaniyatning bir qismiga aylanmoqda.

Musiqa adabiyotini o‘rganish, ayniqsa musiqa o‘qitish metodikasida alohida ahamiyatga ega. Musiqiy adabiyotini o‘rganish bo‘yicha dasturlarda kitoblar, ensiklopediyalar, musiqiy lug‘atlar MIDI fayllari ko‘rinishidagi musiqiy asarlar to‘plamini o‘z ichiga olgan turli musiqiy asarlarga oid kichik hajmda tasviri ifodalangan qo‘llanmalar, muayyan kompozitor, bastakorlarning qisqacha tarjimayi hollari, ijodiy uslublari, ular yaratgan musiqiy asarlar, to‘g‘risida ma’lumotlar o‘z aksini topadi.

Musiqa ta’limi o‘qituvchilari kasbiy tayyorgarligini ta’minlashda musiqa adabiyoti va milliy musiqa san’ati tarixiga doir matnlar, slaydlar va musiqiy asarlardan parchalar, videokliplar bilan tasvirlangan bo‘lib, tanlangan musiqiy asarlar, maqolalar slayd-shou bilan birga mazmun bayonini ham o‘z ichiga olishi mumkin.

Bugungi kunda kompyuter o‘quv dasturlarining elektron darslik, elektron musiqa ensiklopediyasi, kutubxona axborot-qidiruv tizimlari, bilimlarni nazorat qilish uchun kompyuter dasturlari kabi turlari mavjud.

Ushbu dasturlar yordamida o‘quvchilarni turli mamlakatlar va davrlar kompozitor, bastakorlarining hayoti va ijodi bilan tanishtirish, uning yaratgan musiqiy asarlari to‘g‘risida ma’lumotlar olish, ayrim parchalarni notalar bo‘yicha saralash, musiqa san’atining turli janrlari, mashhur xonanda va sozandalar, musiqa asboblari xususida to‘laqonli tasavvurni shakllantirish imkonini beradi.

Milliy musiqa ijrochiligida esa elektron musiqa cholg‘u asboblarining kirib kelishi va amaliyotda keng qo‘llanilishi musiqa ta’limiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Maktabda musiqa ta’limi jarayonida o‘quvchilar elektron cholg‘ular, ularning ijrochiligiga qiziqishlari ortib, sekin-asta ayrim o‘quvchilar bunday cholg‘ularda chalish malakalarini ham o‘zlashtira boshladilar.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Musiqa ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga molik masalalardan biri bo‘lib, tushuncha tarkibining kengligi, “professionallik”, “malaka”, “kasbiy malakalar” kabi ommalashgan tushunchalarni birlashtiradigan integral xususiyatlar bilan ajralib uradi. Kompetentlik – bu shaxsiy xususiyatga ega, va malakali professional yoki funksional xususiyatlar majmuasidir”[1].

Zamonaviy musiqa ta’limida kasbiy kompetentlik sifati yosh avlod ta’lim- tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan o‘qituvchilar uchun kasbiy mas’uliyatni yanada oshiradi. Chunki, “o‘qituvchi malakali o‘qituvchi bo‘lishi uchun muayyan pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishi kerak”[2].

Kasbiy-pedagogik kompetentlikning muhim sifatlaridan biri – o‘qituvchining innovatsion axborot texnologiyalaridan ta’lim jarayonida samarali foydalanishidir. Zero, ushbu texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘qituvchilar nafaqat o‘quvchilarni yanada samarali tarzda ta’lim olishga undaydilar, balki o‘z kasbiy mahoratini oshiradilar.

Musiqiy ta’limda Davlat standartlari[3] ilg‘or mamlakatlar andozasiga mos tarzda ta’lim oluvchilarning egallashlari lozim bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalari darajasini belgilab beradi. Zero, ta’lim jarayoni - o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim va o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, shuningdek, o‘quv jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga, yagona interaktiv ta’lim axborot makonini yaratishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi[4].

Mamlakatimizda maktab musiqa ta’limini rivojlantirishda innovatsion axborot texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishning dolzarbligi o‘qituvchining kasbiy mahorati va kompetentligi bilan belgilanadi. Bu yo‘nalishda mazkur sohada faoliyat ko‘rsatayotgan mutaxassislar hamda bo‘lajak ta’lim beruvchi kadrlarning yuksak ma’naviy-ahloqiy sifatlarga ega bo‘lishlari, ilg‘or innovatsion texnologiyalardan oqilona foydalana olishlari alohida ahamiyatga ega. Barcha

fanlar qatori musiqa fani bo‘yicha ta’lim va tarbiya borasida yangi zamonaviy talablarga mos va xos bo‘lgan barcha ilg‘or tajriba va yangiliklardan oqilona foydalanish mazkur sohada olib borilayotgan ishlarni mazmun va sifatini ko‘tarishga xizmat qiladi[5].

MUHOKAMA

Musiqa ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar, jumladan, kompyuter texnologiyalari, multimedia vositalari, interfaol ta’lim tizimlari, elektron resurslar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o‘qituvchilarga masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, interfaol va multimedia vositalarini tatbiq etish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Musiqa ta’limi o‘qituvchilari uchun zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish asosida ularning o‘zlarini innovatsion yondashuvlarga tayyorlash imkoniyatini yaratadi. Masalan, kompyuter asosida o‘tkaziladigan darslar, internet va raqamli texnologiyalar yordamida musiqiy ta’lim jarayoni rivojlantirilmoqda.O‘qituvchilar interfaol o‘quv platformalari, elektron resurslar va masofaviy ta’lim tizimlaridan samarali foydalanishni o‘rganishlari kerak. Bu texnologiyalar o‘quvchilarga interaktiv va vizual tarzda musiqiy ma’lumot va axborotni o‘zlashtirishga yordam beradi. Masofaviy ta’lim texnologiyalari o‘qituvchilarga o‘z malakalarini rivojlantirish, darslarni masofadan turib o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘qituvchilarga masofaviy ta’limda darslarni samarali tashkil etishni o‘rgatish, elektron o‘quv materiallarini yaratish va ularni boshqarish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish zarur.

Musiqa ta’limi o‘qituvchilari uchun ko‘plab onlayn kurslar, treninglar, vebinarlar mavjud bo‘lib, ular muntazam ravishda o‘z kasbiy malakalarini oshirishi, yangi metodlarni o‘rganishi mumkin. Shu bilan birga, pedagogik va innovatsion texnologiyalar musiqa o‘qituvchilariga o‘z darslarini ilg‘or metodlar bilan boyitish, bilimlarni yuqori darajada yetkazish imkoniyatini beradi.

Innovatsion axborot texnologiyalarini musiqa ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirish maqsadida qo‘llanilishi quyidagi metodik yondashuvlar asosida amalga oshiriladi:

Birinchidan, musiqa ta’limini zamonaviy axborot texnologiya vositasida amalga oshirish darslarni samarali o‘tkazish va o‘quvchilarning musiqiy-savodxonlik malakalarini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ikkinchidan, o‘qituvchilarni yangi metodlarga moslashishi, dasturlash va tizimlar yaratish kabi ko‘nikmalarini o‘zida rivojlantirishi orqali uning kasbiy malakasi takomillashadi.

Mutaxassislik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni ta’minlaydigan dasturlar o‘quvchilarning ijodiy hamda ijroviy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlar bo‘lib, ular, muayyan darajada, istalgan va keng ommalashgan Yevropa musiqa cholg‘u asboblarini ham o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari musiqa o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish (malaka oshirish) bilan shug‘ullanuvchi kurslarning o‘quv dasturida ham “Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish” blokida “Ta’limda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt” modulini o‘zlashtirish ko‘zda tutilgan bo‘lib, o‘qituvchilarning zamonaviy musiqa ta’limi bo‘yicha qo‘yilgan kasbiy talablarga tayyorgarligini oshiradi.

Kompyuterda musiqa yozish dasturlarini o‘rganishda viloyatlardagi pedagogik mahorat markazlari o‘quv mashg‘ulotlarining ahamiyati katta. Ular o‘zlari ijod etgan asarlarni yozib, ularni tinglab musiqiy-badiiy ifodaliligi, ustida ijodiy ishlar olib borish imkoniyatlariga ega bo‘lishadi. Musiqa ta’limi o‘qituvchisi amaliyotda qaysi dastur o‘quvchilar idrok etishi va o‘zlashtirishi uchun qulay bo‘lsa o‘sha dasturdan foydalanishi maqsadga muvofiq. Ayniqsa, musiqa ta’limi yo‘nalishidagi musiqa o‘qitish metodikasi, maktab bolalar repertuari, musiqa adabiyoti, solfedjio, musiqaning elementar nazariyasi fanlarini o‘qitishda ta’lim samaradorligini

oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu jarayonda o‘quvchining musiqiy qobiliyatlari har tomonlama rivojlanadi. Bunda ta’lim oluvchining ko‘rgazmali, mazmunli musiqiy fikrlash, tinglash, idrok etib tahlil qilish qobiliyatlari, musiqiy xotirasi, ko‘nikma va malakalari rivojlanadi.

Musiqa ta’limida innovatsion axborot texnologiyalarni tatbiq etishda kompyuterda musiqa yozish uchun yaratilgan dasturlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar musiqa asarlari notalarini yozish, musiqani aranjirovka qilish, transpozitsiya qilish va juda ko‘plab imkoniyatlarga ega bo‘lgan dasturlar bor. Ularning har birini o‘zlashtirish uchun musiqa ta’limi o‘qituvchisidan muayyan vaqt, musiqiy nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish talab etiladi. Ayniqsa, mashg‘ulotlarda elektron musiqa cholg‘u asboblarining qo‘llanilishi ijodiy muhitni yaratishda muhim ahamiyatga egadir. Zero, ta’lim jarayonida o‘quvchilarda musiqiy-badiiy did shakllantirilib, his-tuyg‘ular, ijodkorlik asoslari rivojlantirilib boriladi

Musiqa ta’limida multimedia tizimlaridan foydalanish musiqa ensiklopediyalari, kitoblar, ma’lumotnomalar, lazer kompakt disklarga yozilgan turli antologiyalardan o‘quv maqsadlarida foydalanish imkonini beradi. O‘qituvchilar uchun bu texnologiyalar o‘z malakalarini oshirish va ularni yangilash imkoniyatini yaratadi. Shu tarzda o‘qituvchilar faqat dars berish bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yangi va zamonaviy texnologiyalar yordamida yanada boyitadilar.

Bunday maqsadlarga erishish yo‘lida pedagogik mahorat markazlari oldiga o‘quv-metodik bazasini yanada mustahkamlash, tinglovchilarning har tomonlama kasbiy tayyorgarliklarini takomillashtirishlari uchun sharoitlarni yanada yaxshilash, ularning ilmiy-uslubiy salohiyatini, kasbiy kompetentligini rivojlantirishlarini ta’minlashga yordamlashishi lozim bo‘ladi.

XULOSA. Hozirgi kunda innovatsion axborot texnologiyalari doirasida kompyuterda musiqa yozish, kompyuterda musiqa notalarini yozish, kompyuterda aranjirovka qilish, ovoz ustida ishlash kabi dasturlar yaratilgan. Biroq, maktab musiqa o‘qituvchilari tomonidan ularni o‘rganish, o‘zlashtirish hamda ta’lim jarayoniga tatbiq etish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Ilg‘or axborot texnologiyalarini o‘rganish va ulardan samarali foydalanish bugungi kundagi mutaxassislar uchun nihoyatda muhim. Bu ularning kasbiy faoliyatini takomillashtirib, zamonaviy texnologiyalarni amaliyotda samarali qo‘llay olishlarini ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Введенский В.Н. Моделирование профессиональной компетентности педагога. // Педагогика. – 2003. – №10.–С. 51-55.

2.Коджаспирова Г.М.. Педагогика. Учебник для студентов высших учебных заведений. – М.: “Гардарики”, 2004.– С.528.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori, 2017-yil 6-aprel.

4. Бекенова, Д. У. Информационные технологии в музыкальном образовании / Д. У. Бекенова, Ж. А. Мухатаева. — Текст : непосредственный // Актуальные задачи педагогики : материалы III Междунар. науч. конф. (г. Чита, февраль 2013.)-Т.0.—Чита:Издательство Молодой ученый, 2013. — URL:https://moluch.ru/conf/ped/archive/67/3328/

5. Нурматов Х.Н. Мусиқанинг долзарб назарий муаммолари. Тошкент-2002. 2-бет.

6. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To‘rayev A. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. -Toshkent.-2015. -208 b.

QATTIQ JISM AYLANMA HARAKAT DINAMIKASINING ASOSIY QONUNI TADBIQIGA OID VIRTUAL LABORATORIYALAR

Muxtarov Erkinjon Kobiljonovich
Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti, Umumiy fizika kafedrasi dotsenti
https://orcid.org/0009-0001-5057-4905

Annorasiya. Mazkur maqolada qattiq jism aylanma harakat dinamikasining asosiy qonunini o‘rganishga oid laboratoriya ishlarini virtual muhitda tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Virtual laboratoriyalarning afzalliklari, ularning nazariy bilimlarni mustahkamlashdagi o‘rni hamda o‘quv jarayonidagi samaradorligi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, Visual Basic muhiti asosida ishlab chiqilgan dasturiy vositalar yordamida “G‘ildirakning inertsiya momentini aniqlash”, “Oberbek mayatnigi yordamida aylanish harakati uchun dinamikaning asosiy qonunini o‘rganish” va “Maksvell mayatnigida inertsiya momentini aniqlash hamda energiyaning saqlanish qonunini tekshirish” kabi laboratoriya mashg‘ulotlarini virtual shaklda bajarish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so’zlar: virtual laboratoriya, fizika ta’limi, qattiq jism dinamikasi, aylanish harakati, inertsiya momenti, Visual Basic, animatsiya, interaktiv ta’lim.

ВИРТУАЛЬНЫЕ ЛАБОРАТОРИИ ПО ПРИМЕНЕНИЮ ОСНОВНОГО ЗАКОНА ДИНАМИКИ ВРАЩАТЕЛЬНОГО ДВИЖЕНИЯ ТВЁРДОГО ТЕЛА

Мухтаров Эркинжон Кобилжонович
Андижанский государственный университет имени З.М.Бабура, доцент кафедры общей физики

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы организации лабораторных работ по изучению основного закона динамики вращательного движения твёрдого тела в виртуальной среде. Показаны преимущества виртуальных лабораторий, их роль в закреплении теоретических знаний и повышение эффективности учебного процесса. На примере разработанных с использованием Visual Basic программных средств описываются возможности выполнения таких лабораторных работ, как «Определение момента инерции колеса», «Изучение основного закона динамики вращательного движения с помощью маятника Обербека» и «Определение момента инерции тел и проверка закона сохранения энергии на маятнике Максвелла».

Ключевые слова: виртуальная лаборатория, преподавание физики, динамика твёрдого тела, вращательное движение, момент инерции, Visual Basic, анимация, интерактивное обучение.

VIRTUAL LABORATORIES ON THE APPLICATION OF THE FUNDAMENTAL LAW OF RIGID BODY ROTATIONAL DYNAMICS

Mukhtarov Erkin Kobilzhonovich
Associate Professor, Department of General Physics, Andijan State University named after Z. M. Bobur

Abstract. This paper discusses the organization of laboratory works on the application of the fundamental law of rigid body rotational dynamics in a virtual environment. The advantages of virtual laboratories, their role in consolidating theoretical knowledge, and their contribution to improving the effectiveness of the learning process are highlighted. Using software tools developed in Visual Basic, the study demonstrates the implementation of laboratory works such as “Determination of the Moment of Inertia of a Wheel,” “Study of the Fundamental Law of

Rotational Dynamics with the Oberbeck Pendulum,” and “Determination of the Moment of Inertia of Bodies and Verification of the Law of Conservation of Energy with the Maxwell Pendulum.”

Keywords: virtual laboratory, physics education, rigid body dynamics, rotational motion, moment of inertia, Visual Basic, animation, interactive learning.

KIRISH. Hozirgi davrda oliy ta’lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish, talabalarda mustaqil fikrlash va ilmiy tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. An’anaviy laboratoriya ishlari talabalarga nazariy bilimlarni mustahkamlash va tajribaviy ko‘nikmalar hosil qilish imkonini bersa-da, moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi, xavfsizlik talablarining yuqoriligi hamda moliyaviy cheklovlar ba’zan ularning samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli zamonaviy ta’lim jarayonida virtual laboratoriyalar tobora keng qo‘llanilmoqda.

Fizikaning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lgan mexanika, xususan, qattiq jism aylanma harakat dinamikasining asosiy qonuni o‘qitishda ham virtual laboratoriyalardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur qonun jismning kuch moment va burchak tezlanishi orasidagi bog‘liqlikni ifodalab, real hayotdagi ko‘plab texnik jarayonlarni tushuntirishga xizmat qiladi. Ammo bu qonunni amaliy tajribada ko‘rsatish uchun murakkab va qimmat jihozlar talab etiladi.

Shu nuqtai nazardan, elektron ta’lim muhiti imkoniyatlaridan foydalangan holda yaratiladigan virtual laboratoriyalar ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ular yordamida talabalar tajribalarni xavfsiz, ko‘p marotaba va erkin sharoitda bajarishlari, turli parametrlarni o‘zgartirib natijalarni solishtirishlari, shuningdek, nazariy qonuniyatlarning amalda qanday ishlashini chuqurroq anglashlari mumkin.

Mazkur maqola qattiq jism aylanma harakat dinamikasi qonunini o‘qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanish metodikasini tahlil qilish, ularning o‘quv jarayonidagi afzalliklari va amaliy ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Fizika fani o‘z mohiyatiga ko‘ra nazariy va eksperimental jihatlarni o‘zida uyg‘unlashtirgan murakkab fandir [1]. Har bir nazariy natija va xulosani amaliy tajriba orqali tekshirish, talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va fizik qonuniyatlarning mohiyatini chuqur anglash uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois bo‘lajak mutaxassislarning tajriba o‘tkazish malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, fizik hodisalarni kuzatish, o‘lchash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi [2].

Biroq amaliyotda ko‘plab laboratoriya ishlarini bajarishda turli qiyinchiliklar yuzaga keladi. Jumladan, yuqori aniqlikdagi o‘lchov uskunalari yetishmasligi, tajribalarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik sharoitlarning cheklanganligi hamda ba’zi tajribalarning xavfsizlik nuqtai nazaridan murakkabligi bunga misol bo‘la oladi [3]. Ayniqsa, kvant fizikasi, atom va yadro fizikasi kabi murakkab bo‘limlarga oid laboratoriya ishlarini an’anaviy sharoitda tashkil etish qiyin yoki imkonsiz bo‘lib qoladi.

So‘nggi yillarda mazkur muammolarni bartaraf etish va laboratoriya mashg‘ulotlarini yanada samarali tashkil etish maqsadida innovatsion texnologiyalardan foydalanish keng yo‘lga qo‘yildi. Shulardan eng muhim yo‘nalishlardan biri - virtual laboratoriya mashg‘ulotlarini yaratish va ularni o‘quv jarayoniga joriy etishdir [4]. Virtual laboratoriyalar elektron ta’lim muhiti va masofaviy ta’lim konsepsiyalariga mos bo‘lib, moddiy-texnik ta’minot muammolarini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Raqamli texnologiyalarini fizika o‘qitish jarayonida qo‘llash bir qator yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Bular jumlasiga fizik masalalarni yechish, fizik hodisalarni modellashtirish, elektron darsliklar va o‘quv-uslubiy majmualar yaratish kiradi [5]. Biroq ular orasida aynan virtual laboratoriyalar alohida ahamiyatga ega, chunki ular orqali talabalar laboratoriya ishlarini xavfsiz, qulay va interaktiv muhitda bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘quv jarayonida laboratoriya mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish masalasi murakkab

va ko‘p qirrali hisoblanadi [6]. Uni hal etish uchun laboratoriya ishlarini tashkil etishning turli shakllariga xos xususiyatlarni hisobga olish lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda, virtual laboratoriyalar talabalarda nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish, ilmiy izlanishlarga qiziqishni oshirish hamda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

METODOLOGIYA. Ushbu tadqiqotda qattiq jism aylanma harakat dinamikasining asosiy qonunini talabalarga tushuntirishda virtual laboratoriya vositalaridan foydalanish metodikasi ishlab chiqildi. Virtual laboratoriya modeli yaratilishida nazariy asoslar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar ham keng joriy etildi.

Material sifatida Visual Basic dasturlash muhitidan foydalanilib, virtual modellar yaratildi. Ushbu modellar yordamida kuch momenti, burchak tezlanish va inertsiya momenti o‘zaro bog‘lanishi vizual shaklda namoyish qilindi. Virtual laboratoriya elektron ta’lim muhitiga joylashtirilib, talabalar uchun onlayn foydalanish imkoniyati yaratildi.

Metod jihatdan tadqiqot uch bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda nazariy asoslar, ya’ni qattiq jism dinamikasining asosiy qonuni, kuch momenti vektorining yo‘nalishi va burchak tezlanish orasidagi bog‘liqlik o‘quv moduli shaklida ishlab chiqildi. Ikkinchi bosqichda virtual laboratoriya dasturi orqali jarayonlar modellashtirilib, talabalar uchun interaktiv tajribalar taqdim etildi. Uchinchi bosqichda pedagogik tajriba o‘tkazilib, nazorat guruhi an’anaviy laboratoriya usulida, tajriba guruhi esa virtual laboratoriya yordamida dars jarayonida qatnashdi.

Natijalarni baholashda test topshiriqlari, amaliy mashqlar va kuzatuv metodlari qo‘llanildi. Shuningdek, talabalar faoliyati, mavzuga bo‘lgan qiziqishi hamda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish ko‘nikmalari sifat tahlili asosida o‘rganildi. Statistik qayta ishlash natijasida virtual laboratoriyaning samaradorligi aniqlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Qattiq jismlarning mexanik harakati klassik mexanikada alohida o‘rin tutadi. Mexanikada jismlarning ilgarilanma va aylanma harakatlari farqlanadi. Translatsion harakatda jismning barcha nuqtalari bir xil yo‘lni bosib o‘tadi, aylanma harakatda esa jismning barcha nuqtalari umumiy o‘q atrofida aylanish trayektoriyasiga ega bo‘ladi. Qattiq jismning aylanma harakatini tavsiflovchi eng muhim qonunlardan biri bu aylanma harakat dinamikasining asosiy qonunidir [7].

Mazkur qonunga ko‘ra, jismning burchak tezlanishi unga ta’sir etuvchi kuch momentining inertsiya momentiga nisbatiga teng bo‘ladi, yoki [8]:

$$\vec{M} = I\vec{\varepsilon}$$

bu yerda M - jismga ta’sir etayotgan kuchlar momenti, J - jismning inertsiya momenti, ε - burchak tezlanish.



1–rasm.

Ushbu qonun Nyutonning ikkinchi qonunining aylanma harakatdagi analogi hisoblanadi. Agar

kuchning chiziqli ta’siri (F=ma) shaklida ifodalansa, aylanma harakat uchun uning teng analogi yuqoridagi (1) ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Kuch momenti vektor kattalik bo‘lib, uning yo‘nalishi o‘ng qo‘l qoidasi yordamida aniqlanadi. Uch o‘lchamli fazoda kuch momenti radius vektor va kuch vektori yotgan tekislikka perpendikulyar bo‘ladi. Ikki o‘lchamli tasvirlarda esa kuch momentining yo‘nalishi shartli belgilar orqali (• – tashqariga, × – ichkariga) ifodalanadi. Ushbu holatning 3D va 2D o‘lchamdagi tasviri 1-rasmda keltirilgan [9].

Didaktik nuqtai nazardan, aylanma harafat dinamikasining asosiy qonunini o‘qitish talabalarda bir nechta muhim tushunchalarni shakllantiradi:

1. Kuch momenti va inertsiya momentining mazmuni.
2. Burchak tezlanish va chiziqli tezlanish orasidagi bog‘liqlik.
3. Nyuton qonunlarining umumiyligi va tabiatdagi universal qo‘llanishi.

An’anaviy laboratoriya ishlarida bu qonunni tekshirish uchun murakkab qurilmalar - dinamometr, disklar, rotatsion stendlar, inertsiya asboblari zarur bo‘ladi. Bunday jihozlarning yetishmasligi yoki ularni sozlashdagi qiyinchiliklar ko‘pincha o‘quv jarayonini cheklab qo‘yadi. Shu sababli virtual laboratoriyalar bu borada muhim yechim vazifasini bajaradi.

Virtual muhitda yaratilgan modellar orqali talabalar:

- kuch momentining qiymatini o‘zgartirib, burchak tezlanish qanday o‘zgarishini kuzatishlari;
- inertsiya momentini turlicha tanlab, qonunning universalligini tahlil qilishlari;
- natijalarni grafik va jadval ko‘rinishida qayta ishlashlari mumkin.

Bunday yondashuv nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki talabalarni amaliy tajriba va mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalariga ham o‘rgatadi. Bundan tashqari, virtual tajribalar cheksiz miqdorda takrorlanishi va xavfsizlik jihatidan qulayligi bilan ham afzaldir.

Oliy ta’lim muassasalarining fizika bakalavr ta’lim yo‘nalishlari o‘quv dasturida qator laboratoriya ishlari mavjud bo‘lib, ular an’anaviy sharoitda maxsus jihozlar yordamida bajariladi. Xususan, fan dasturida quyidagi laboratoriya mashg‘ulotlari mavjud:

– “G‘ildirakning inertsiya momentini aniqlash”

– “Oberbek mayatnigi yordamida aylanish harakati uchun dinamikaning asosiy qonunini o‘rganish”

– “Maksvell mayatnigida qattiq jismlarning inertsiya momentini aniqlash va mexanik energiyaning saqlanish qonunini tekshirish”

Mazkur mavzulardagi laboratoriya ishlarini virtual muhitda qayta yaratish talabalarga qulayliklar tug‘diradi [10]. Chunki bu laboratoriya ishlarida zarur bo‘ladigan jihozlar har doim ham mavjud emas, shuningdek, real tajribada yuzaga keladigan texnik nosozliklar yoki vaqt chegaralari jarayonni to‘liq kuzatishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Virtual laboratoriyalar esa mazkur muammolarni bartaraf etadi va jarayonni soddalashtirgan holda talabalarning bilimlarini boyitadi.

Bunday virtual laboratoriyalarni ishlab chiqishda WINDOWS muhitida ishlovchi zamonaviy dasturlash tillaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Jumladan, Visual Basic muhiti dasturiy ta’minotni ishlab chiqishda qo‘llanilgan. Ushbu dasturlash tili grafik interfeys yaratish, jarayonlarni interaktiv boshqarish, animatsiyalarni qo‘shish va foydalanuvchi bilan muloqotda bo‘lish imkoniyatlarini taqdim etadi. Natijada yaratilgan virtual laboratoriyalar foydalanuvchi uchun qulay, didaktik jihatdan samarali va ilmiy asoslangan elektron ta’lim vositasi sifatida xizmat qiladi.

2–rasmda “G‘ildirakning inersiya momentini aniqlash” mavzusiga oid virtual laboratoriya ishining ishchi oynasi tasvirlangan. Oyna ikki asosiy qismdan iborat: chap tomonda tajriba qurilmasining soddalashtirilgan grafik modeli va hisoblash uchun kiritiladigan parametrlar bo‘lsa, o‘ng tomonda nazariy qism hamda formulalar keltirilgan [11].

Chap qismda g‘ildirak, unga ulanadigan yuk va o‘lchash moslamalari tasvirlangan bo‘lib, talabalar tajribani “Tajriba boshlash” yoki “Boshlang‘ich holat” tugmalari orqali ishga tushirishlari

mumkin. Shuningdek, yuk massasi (200 g, 300 g, 400 g) turli ranglar bilan farqlangan holda berilgan. Tajriba jarayonida vaqt, balandlik, massa kabi kattaliklar o‘lchanib, maxsus jadval oynasiga kiritiladi. Shu asosda inersiya momentini aniqlash uchun zarur bo‘lgan I, I_0, ΔI, ε% kabi kattaliklar hisoblanadi.



2–rasm. “Maxovik g’ldirakning inersiya momentini aniqlash” virtual laboratoriyaning ishchi oynasi

O‘ng qismda esa laboratoriya ishining nazariy asosi keltirilgan.

Oynaning pastki qismida qo‘shimcha tugmalar joylashgan bo‘lib, ular orqali hisobot, nazariy ma’lumot, sinash savollari va adabiyotlar bo‘limlariga o‘tish mumkin. Ushbu virtual laboratoriya talabalarga amaliyot jarayonida inersiya momentini aniqlashni o‘rganish, tajribani qayta takrorlash hamda olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi.

3–rasmda “Maksvell mayatnigi yordamida mexanik energiyaning saqlanish qonunini tadqiq qilish” mavzusiga oid virtual laboratoriya ishining ishchi oynasi keltirilgan. Oynaning chap qismida tajriba qurilmasining soddalashtirilgan grafik modeli joylashgan bo‘lib, unda disk va uning harakati animatsiya tarzida tasvirlanadi. Shuningdek, “birinchi tajriba”, “ikkinchi tajriba”, “uchinchi tajriba” hamda “boshlang‘ich holat” tugmalari yordamida tajribalarni turli sharoitlarda qayta bajarish mumkin. Yuqorida vaqtni aniqlash uchun virtual sekundomer mavjud.

Oynaning o‘ng qismida esa laboratoriya ishining nazariy va hisoblash qismi aks etgan. Bu yerda boshlang‘ich va olingan ma’lumotlar - mayatnik massasi (m), shkiv radiusi (r), mayatnikning tushish masofasi (h), tushish vaqti (t) kiritiladi va shu asosda fizik kattaliklar hisoblab chiqiladi. Ular orasida potensial energiya (Ep), kinetik energiya (Ek), inersiya momenti (I), hamda ularning o‘rtacha qiymatlari, mutlaq va nisbiy xatoliklar aniqlanadi. “Hisoblash” tugmasi orqali barcha natijalar avtomatik tarzda hisoblanib, natijaviy jadvalda ko‘rinadi.

Pastki qismda esa qo‘shimcha bo‘limlarga o‘tish tugmalari berilgan: “Asosiy menyu”, “Real qurilmaning ko‘rinishi”, “Nazariy qism”. Bu bo‘limlar yordamida talaba nafaqat virtual tajribani bajaradi, balki nazariy asoslarni o‘rganadi va haqiqiy laboratoriya qurilmasi bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Mazkur virtual laboratoriya mexanik energiyaning saqlanish qonunini tadqiq etishda qulay metodik vosita bo‘lib, talabalarga nazariy bilimlarni mustahkamlash, hisoblash ko‘nikmalarini shakllantirish va tajribaviy natijalarni tahlil qilish imkonini beradi.



3–rasm. “Maksvell mayatnigida qattiq jismlarning inertsiya momentini aniqlash va mexanik energiyaning saqlanish qonunini tekshirish” virtual laboratoriyaning ishchi oynasi

4–rasmda qattiq jism aylanma harakat dinamikasining asosiy qonunini tajriba asosida o‘rganishga mo‘ljallangan virtual laboratoriya dasturi interfeysi tasvirlangan [12]. Chap tomonda jismga ip orqali osilgan yuk yordamida aylanishga keltiriladigan disk va shkiv tizimi ko‘rsatilgan. Turli massaga ega bo‘lgan yuklar (55 g, 110 g, 165 g) tanlab qo‘llanilishi mumkin. O‘ng tomonda esa hisob-kitoblar uchun zarur bo‘lgan kattaliklar – jism massasi, harakat masofasi, vaqt, shkiv radiusi, kinetik va potensial energiya, inertsiya momenti hamda xatoliklarni aniqlash formulalari keltirilgan.



4–rasm. “Qattiq jism aylanma harakat dinamikasining asosiy qonunini Oberbek mayatnigida tekshirish” virtual laboratoriyaning ishchi oynasi

“G‘ildirakning inertsiya momentini aniqlash”, “Oberbek mayatnigi yordamida aylanish harakati uchun dinamikaning asosiy qonunini o‘rganish” hamda “Maksvell mayatnigida qattiq

jismlarning inertsiya momentini aniqlash va mexanik energiyaning saqlanish qonunini tekshirish” kabi virtual laboratoriyalar oliy ta’lim tizimida fizika fanini o‘qitishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ular yordamida qattiq jismlarning aylanma harakati qonuniyatlari, inertsiya momentining massaga va shaklga bog‘liqligi, mexanik energiyaning saqlanish qonuni va dinamikaning asosiy qonunlari talabalar tomonidan bevosita virtual tajribalar orqali o‘rganiladi. Mazkur laboratoriyalar nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uzviy bog‘lash imkonini yaratadi, shuningdek, talabalarni fizik kattaliklarni hisoblash, tahlil qilish va olingan natijalarni ilmiy izohlashga yo‘naltiradi.

Virtual laboratoriyalarning muhim afzalliklari sifatida xavfsizlikning ta’minlanishi, tajriba natijalarining yuqori aniqligi, ko‘p marotaba qayta bajarish imkoniyati hamda hodisalarning grafik va animatsion ko‘rinishda ko‘rgazmali tarzda ifodalanishini keltirish mumkin.

Amaliy qulayliklari esa murakkab va qimmatbaho asbob-uskunalarsiz, faqat kompyuter vositasida tajribalarni tashkil etish imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Tajribalar vaqt va makondan qat’i nazar bajarilishi, masofaviy ta’lim jarayonida qo‘llanishi, hisob-kitoblarning avtomatik tarzda amalga oshirilishi talabaning asosiy e’tiborini jarayon mohiyatini tushunishga yo‘naltiradi. Natijalarni jadval, grafik yoki animatsion ko‘rinishda taqdim etish esa o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Pedagogik-metodik tavsiyalar

– fizika kursining har bir bo‘limiga moslab ishlab chiqilgan virtual tajribalar o‘quv dasturiga integratsiya qilinishi kerak;

– virtual tajribalarda hodisalarning dinamik modellarini, grafik va animatsiyalarni qo‘llash talabalar uchun murakkab tushunchalarni soddalashtiradi va o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi;

– virtual laboratoriyalar talabalar tomonidan darsdan tashqari vaqtda ham qo‘llanishi mumkin, bu esa ularni mustaqil tadqiqot olib borishga va yangi ilmiy savollar qo‘yishga yo‘naltiradi.

– virtual laboratoriyalarda murakkablik darajasini o‘zgartirish imkoniyati mavjud, natijada undan tayyorgarlik darajasidagi talabalarga moslab individual ta’limni amalga oshirishga imkon beradi.

– virtual laboratoriya mashg‘ulotlarini an’anaviy amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish, o‘zlashtirish darajasini testlar, masalalar va onlayn nazorat vositalari orqali baholash samarali natija beradi.

XULOSA. Fizika fanida nazariya va amaliyotning uzviy bog‘liqligi laboratoriya mashg‘ulotlarining ahamiyatini yanada oshiradi. An’anaviy sharoitda laboratoriya ishlarini bajarishda moddiy-texnik muammolar, xavfsizlik talablarining yuqoriligi va tajribalarning murakkabligi ko‘plab to‘siqlar tug‘diradi. Shu nuqtai nazardan, virtual laboratoriyalar ta’lim jarayonida samarali yechim sifatida qaralmoqda.

Virtual laboratoriyalar nafaqat talabalarda nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga, balki ularni ilmiy izlanishlarga jalb qilishga, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ularning qo‘llanilishi o‘quv jarayonini interaktiv, samarali va innovatsion qilish bilan birga, talabalarda fanga bo‘lgan qiziqishni oshiradi va ularning bilim saviyasini yuqori darajaga ko‘taradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmadjonov O.I. Fizika kursi. Mexanika va molekulyar fizika. –T.: O‘qituvchi, 1985.

2. Muxtarov E. “Phet interactive simulations” dasturida Fizika fanidan virtual laboratoriya ishlarini bajarish. –Namangan: Usmon Nosir Media, 2022. –214 b.

3. Смирнов А.В. Методика применения информационных технологий в обучении физике: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр

«Академия», 2008. – 240 с.

4. Губский Е.Г. Виртуальный лабораторный комплекс по физике. Разделы механика и термодинамика // Энергобезопасность и энергосбережение. – 2009. – № 1. – С. 41-43.

5. Hamidov J.A. Main Components of information Culture in Professional Teacher education in Informatization of Society// Eastern European Scientific Journal.-Germany, 2016. №1. –P.102-105.

6. Иванчук О.В., Плащевая Е.В. Виртуальный эксперимент как метод активизации познавательной деятельности при изучении по физики // Мир науки. Педагогика и психология. 2023. Том 11, № 2. -С. 82-91.

7. Gaibov A.G. Fizika. –T.: “Book Trade 2022”, 2022. –461 b.

8. Jearl Walker, David Hallidey, R.Remnick. Fundamentals of physics. ISBN 978–8808–08797–3. 2014.

9. Трофименко В.Е. Microsoft Visual Studio. Учебный курс. – М.: Диалектика, 2021. – 320 с.

10. Philiip Conrod. Learn Visual Basic. Kidvare Software, 2012. –P. 880.

11. Muxtarov E.K. Maxovik g‘ldirakning inersiya momentini aniqlash. DGU 05949. 08.01.2019.

12. Muxtarov E.K. “Qattiq jism aylanma harakat dinamikasining asosiy qonunini Oberbek mayatnigida tekshirish” fizik tajribaning virtual modeli. № DGU08946. 04.09.2020

TALABALARNING SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI

Nadirxanova Nozima Alisherovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola sotsiolinvistik kompetensiya, uning tarkibiy qismlari, chet tili ta'limida talabalar sotsiolinvistik kompetensiyasini rivojlantirish zarurati, bu jarayonda zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarni qo'llash, mazkur metod va vositalardan foydalanish yo'llari tahlil qilingan. Talabalar sotsiolinvistik kompetensiyasini rivojlantirish hayotiy, jonli vaziyatlarni talab etadi. Shuning uchun, bunda dars va darsdan tashqari vaziyatlarda mazkur layoqatni shakllantirish usullari haqida mulohazalar ilgari suriladi. Tadqiqot davomida talabalarning tilning leksik tarkibini va uning grammatik tuzilmasini o'zlashtirishdan ko'ra turli, ijtimoiy, madaniy muloqot jarayonlarida muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy-madaniy jihatlari, dunyoqarashi, kundalik turmush tarzi, milliy urf-odatlarini tezroq o'zlashtirishlariga e'tibor qaratildi. Bundan kelib chiqadiki, talabalar jonli suhbat, muloqot, shuningdek, yozishmalar bilan shug'ullanganda tili o'rganilayotgan mamlakat vakillarining ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini samarali o'zlashtirishi ancha oson kechadi. Shuningdek, bu kabi faoliyatni doimiy mashq qilish natijasida talabalarda mantiqiy (Logical thinking) hamda tanqidiy fikrlash (Creative thinking) va tahlil, sintez, deduksiya, induksiya, taqqoslash, aniqlashtirish va boshqa murakkab tafakkur amaliyotlarini bajarish qobiliyati ham rivojlanib boradi.

Kalit so'zlar: Sotsiolingvistika, kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, muloqot modeli, nutqiy vaziyat, kommunikativlik., til registri, nutq etiketi, innovatsion ta'limiy va axborot texnologiyalari, metod va vositalar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются социолингвистическая компетенция, её составные части, необходимость развития социолингвистической компетенции студентов в процессе обучения иностранному языку, а также анализируются пути применения современных образовательных и информационных технологий, методов и средств в этом процессе. Развитие социолингвистической компетенции студентов требует жизненных, реальных ситуаций. Поэтому в статье выдвигаются идеи о методах формирования данной компетенции как на уроках, так и во внеурочной деятельности. В ходе исследования основное внимание уделено тому, чтобы студенты быстрее усваивали не только лексический состав и грамматическую структуру языка, но и социально-культурные особенности, мировоззрение, образ жизни и национальные традиции носителей изучаемого языка в процессе различных социальных и культурных взаимодействий. Из этого следует, что студентам гораздо легче эффективно усваивать социально-культурные особенности представителей изучаемого языка при живом общении, беседах и переписке. Кроме того, регулярная практика таких видов деятельности способствует развитию у студентов логического мышления (Logical thinking), критического мышления (Creative thinking), а также способностей к анализу, синтезу, дедукции, индукции, сравнению, уточнению и выполнению других сложных мыслительных операций.

Ключевые слова: социолингвистика, компетенция, межкультурная коммуникация, модель общения, речевая ситуация, коммуникативность, языковой регистр, речевой этикет, инновационные образовательные и информационные технологии, методы и средства.

Annotation. This article examines sociolinguistic competence, its components, and the necessity of developing students' sociolinguistic competence in the process of foreign language learning. It also analyzes the ways of applying modern educational and information technologies, as well

as methods and tools, in this process. The development of students’ sociolinguistic competence requires real-life, authentic situations. Therefore, the article presents ideas on methods for forming this competence both during lessons and in extracurricular activities.

During the research, special attention was paid to ensuring that students not only master the lexical and grammatical structure of the language but also quickly acquire the socio-cultural characteristics, worldview, lifestyle, and national traditions of the speakers of the target language through various social and cultural interactions. It follows that students can more effectively assimilate the socio-cultural features of the target language community through live communication, conversations, and correspondence.

Moreover, regular practice of such activities contributes to the development of students’ logical thinking, critical thinking, and their abilities in analysis, synthesis, deduction, induction, comparison, clarification, and performing other complex cognitive operations.

Keywords: sociolinguistics, competence, intercultural communication, communication model, speech situation, communicativeness, language register, speech etiquette, innovative educational and information technologies, methods and tools.

Kirish.Ma’lumki, til ijtimoiy xarakterga ega, chunki u jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Til faqat jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo‘ladigan ijtimoiy quroldir. Tilning taqdiri, uning yashashi, rivojlanishi faqat shu tilda gaplashuvchi jamiyatga bog’liq. Sotsiolingvistika tilning, aniqrog’i, til qurilishining til jamoasining tarixi, kasb-kori, intilishi, boshqa til jamoalari bilan aloqasi va ularga munosabati, qiziqishi, turmush tarzi, adabiyoti, madaniyati, ma’naviyati, diniy e’tiqodi va boshqa bir qator xususiyatlari bilan bevosita yoxud bilvosita bog’liq tomonlarini o’rganuvchi yangi fandir. Bu yo’nalish tilning ichki qurilishini o’rganuvchi intralingvistika bilan uning xalq tarixi, turmush tarzi, diniy va ma’naviy e’tiqodini o’rganuvchi jamiyatshunoslik fani oralig’ida paydo bo’lgan. Sotsiolingvistikaning yana bir muhim jihati – til o‘zgarishlari va vaqt mobaynida uning evolyutsiyasini tadqiq etishdir. Til doimo sotsiomadaniy va tarixiy o‘zgarishlar ta’sirida rivojlanib boradi. Tadqiqotchilar til o‘zgarishlariga qanday omillar sabab bo‘lishini va ular jamiyatda qanday tarqalishini tahlil qiladilar. Qur’oni karim, Hujurot surasi, 13-oyatida Alloh marhamat qiladi: “Ey insonlar! Darhaqiqat, biz sizlarni bir erkak (Odam) va bir ayol (Havvo)dan yaratdik hamda bir-birlaringizni (va o‘zlaringizni) bilishlaringiz uchun sizlarni (turli-tuman) xalqlar va qabila (elatlar) qilib qo‘ydik”. Darhaqiqat, sotsiolingvistika tilning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, uning variatsiyasi, me’yorlari va ijtimoiy guruhlar faoliyatidagi ahamiyatini o‘rganar ekan, ushbu yo‘nalishda muayyan tilning xususiyatlari alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Aytish joizki, sotsiolingvistik leksika va frazeologiyaning differensiasiyasi so‘z boyligi - leksikani va barqaror nutq birliklarini, ya’ni frazeologiyani ijtimoiy omillarga qarab guruhlarga ajratishni anglatadi. Bunday omillarga ijtimoiy mavqe, kasb, yosh yoki so‘zlovchining yashash hududi kiradi. Bu holat umumiste’mol leksikasi va professionalizmlar, jargonizmlar, dialektizmlarning mavjudligida namoyon bo‘ladi. Ular ma’lum ijtimoiy guruhlar tomonidan yoki muayyan sharoitlarda qo‘llaniladi.

Jahonda globallashuv jarayoni jadal kechayotgan hozirgi davrda xalqaro malaka talablariga mos raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlash mazmuni va ilmiy metodik bazasini mustahkamlash va innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yo‘nalishidagi tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ingliz tilini o‘qitishda sotsiolingvistik kompetensiyaning ilmiy-amaliy mohiyatini tahlil qilish va umumlashtirishda zamonaviy, ilg‘or metodlarni joriy etish va qo‘llashda AQSH, Kanada, Angliya, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Turkiya kabi bir qator rivojlangan mamlakatlar chet til o‘qitish tizimida yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda ham bugungi kunda zamonaviy talablar asosida ta’lim sifatini oshirish, jumladan, o‘quvchilarning sotsiolingvistik kompetensiyasini xalqaro malaka talablari asosida rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta’lim

muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasini yaratish" kabi vazifalar belgilanib, bu borada bugungi kunda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida ijtimoiy kommunikativlikni faollashtirish, ijtimoiy lingvistik tayyorgarligini oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot obyekti: Tadqiqotning obyekti sifatida OTM talabalarining ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasini yozma madaniyatlararo muloqot jarayonida rivojlantirish jarayoni tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz tili o‘qitishda talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda turli ta'limiy texnologiyalardan foydalanish mazmuni, shakl va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda qiyosiy-taqqoslash, diagnostik (so‘rovlar, test o‘tkazish, kuzatish), prognostik (baholash, baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik statistik metodlar (natijalarni grafik tasvirlash) kabi usullar qo‘llanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili.Tilni o‘rganishning sotsiolingvistik jihati tilshunoslik fanining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka e'tibor qaratadi. Ushbu jihat tilning sotsiokultural kontekstdagi faoliyatini, uning o‘zgarishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni hamda ijtimoiy tuzilmalar va munosabatlarni qanday aks ettirishini o‘rganadi. Sotsiolingvistikaning asosiy jihatlaridan biri ijtimoiy dialektlar va til variantlarini tadqiq etishdir. Turli xil dialektlarga boy tillarda ular talaffuz, leksika, grammatika va hatto tarqalish hududi jihatidan farq qilishi mumkin. Sotsiolingvistika olimlari bu farqlarni o‘rganib, ularning sotsiokultural va tarixiy ildizlarini tahlil qiladilar. Sotsiolingvistik jihat, shuningdek, jamiyatda tildan foydalanishga ta'sir qiluvchi ijtimoiy o‘zgaruvchilarni o‘rganish bilan ham shug‘ullanadi. Bunday o‘zgaruvchilar qatoriga yosh, jins, ma'lumot darajasi, kasb va ijtimoiy maqom kiradi. Ushbu parametrlar asosida tilning turli xil ko‘rinishlarini tahlil qilish tilning ijtimoiy voqeliklar bilan qanday bog‘langanini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Keyingi yillarda sotsiolingvistik kompetensiyaga oid masalalar tadqiqotchilar e'tiborini ko‘proq jalb etmoqda va tildan ijtimoiy vaziyatlarda amaliy maqsadlarda foydalanishni o‘rgatish masalasi keng muhokama etilmoqda. Aytish joiz, XXI asrda ta'lim jarayonining globallashuvi chet tili o‘qituvchisi faoliyatiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Endilikda til o‘rgatish nafaqat fonetik, grammatik va leksik bilimlarni berish, balki madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini ham shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Yozma muloqotda bunday kompetensiyaning ahamiyati yanada ortadi, chunki xalqaro yozishmalarda xatoliklar faqat til jihatidan emas, balki sotsiolingvistik va madaniy jihatdan ham noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin. Shu boisdan chet tili o‘qituvchisi sotsiolingvistik kompetensiyani ifodalash va uni talabalar ongida shakllantirishda samarali usul va uslublardan foydalanishi zarur. Shuningdek, sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish zarurati BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlarida ham global maqsadga aylangan bo‘lib, unga ko‘ra, 2030- yilga kelib barcha ta'lim oluvchilar barqaror rivojlanishga ko‘maklashish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta'minlash, global fuqarolik va madaniy xilma-xillikni va madaniyatning barqaror rivojlanishga qo‘shgan hissasini qadrlanishini nazarda tutadi.

Sotsiolingvistik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi bo‘lib, uni birinchi marta Dell Hymes (1972) o‘z tadqiqotlarida tilning "to‘g‘ri" qo‘llanishi tushunchasi sifatida izohlagan. Keyinchalik M. Canale va M. Swain (1980) kommunikativ kompetensiya modelida sotsiolingvistik bilimlarni alohida komponent sifatida ajratib ko‘rsatdilar.

Sotsiolingvistik kompetensiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Pragmatik moslik – nutqiy aktlarning vaziyatga qarab to‘g‘ri tanlanishi; Til registri – rasmiy va norasmiy uslublarni to‘g‘ri qo‘llash; Madaniyatlararo bilim – turli xalqlarning yozma odob me'yorlarini bilish; Nutq etiketi – xushmuomalalik, murojaat, tabrik, minnatdorchilik kabi stereotiplarni qo‘llash.

Kompetensiyaga asoslangan ta'limning rivojlanish bosqichlari: 1-bosqich: 1960-1970-yillar (N.A.Xomskiy (kompetensiya), N.Gishanova, I.Zimnyaya, V.Baydenko, R.Vayt, J.Raven); 2-bosqich: 1970-1990-yillar (D.Xayms (kommunikativ kompetensiya), J.Raven, S.Makeshnen, R.Borns); 3-bosqich: 1996-2004-yillar (A.Markova, L.Alekseeva, G.Sivkova, L.Mitina) global

ommalashuvi; 4-bosqich: 2005-yil – hozirgacha. Mamlakatimiz ta’lim tizimiga “kompetensiya” tushunchasi 90-yillardan kirib kela boshlagan va mutaxassislar tomonidan turlicha, asosan, layoqat, omilkorlik, mahorat (pedagogikada), malaka (psixologiyada) kabi tushunchalar bilan nomlanib kelinmoqda . 2012-yili O‘zbekiston chet tillar o‘qitish tizimiga kommunikativ chet til o‘qitish metodi kirib kelganidan so‘ng o‘rta ta’lim o‘quv rejasiga va darsliklariga bir qancha o‘zgartirishlar kiritildi. Bunda sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan ilg‘or ta’limiy texnologiyalarning chet til darslariga tatbiq etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

M.Sh. Ruzmetovaga ko‘ra: “Sotsiolingvistik kompetensiya kundalik hayotga, ijtimoiy hayotga, ta’limga va madaniyatga oid mavzular orqali o‘zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlari, qadriyatlari, marosimlari va boshqa milliy-madaniy o‘ziga xos barqarorlashgan urf-odatlari, rasm-rusumlari bilan taqqoslagan holda og‘zaki va yozma nutqida fikrlarini taqdim eta olish qobiliyatini nazarda tutadi” . Demak, sotsiolingvistik kompetensiya ostida tili o‘rganilayotgan jamiyatning yashash tarzi, urf odatlari, madaniyati, hududining geografik xususiyatlari va axloqiy normalaridan xabardor bo‘lgan holda ularning o‘ziga xos standart va substandard (nostandart) so‘zlashuv uslubi, shevasi, noverbal harakatlari, turg‘un birikmalari, turli yosh qatlamlari suhbat etiketida foydalaniladigan ibora va so‘z birikmalaridan o‘ziga xos kontekstda ham yozma ham og‘zaki nutqda to‘g‘ri va oqilona foydalana olish qobiliyati tushuniladi. Ingliz tilini chet til sifatida o‘rganayotgan o‘quvchilarning sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi jihatlarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq: 1. Ingliz tilining qaysi hududga xos turini o‘rgatishni aniqlash. 2. Tili o‘rganilayotgan millat vakillarining madaniyati, urf-odatlari, axloq normalari va stereotiplari haqidagi bilimlarga ega bo‘lish va o‘zi yashaydigan jamiyatning shu jihatlaridagi farq va o‘xshashliklarni tahlil qila olish. 3. Standart va substandart til birliklarini farqlay olish. 4. Rasmiy va norasmiy so‘zlashuv uslublarini farqlash (Register). 5. Noverbal xatti-harakatlar haqida tushunchaga ega bo‘lish. 6. O‘rganilayotgan til madaniyatiga xos til uslublari haqida xabardor bo‘lish (o‘xshatish, metafora, jonlantirish, alliteratsiya, giperbola va h.k.).

Yozma madaniyatlararo muloqotning xususiyatlari haqida gap ketar ekan, yozma muloqotda sotsiolingvistik kompetensiyaning ahamiyati og‘zaki nutqqa qaraganda ko‘proq sezilishini ta’kidlash o’rinlidir. Chunki: 1. Xat, ilmiy maqola yoki elektron xat kabi yozma janrlarda madaniy odob qoidalari muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, yozma nutqda vaqt masofasi mavjud bo‘lib, fikrni aniq, lo‘nda va izchil ifodalash talab etiladi. Shuni ham aytish joizki, turli madaniyatlarda xat boshlash va tugatish shakllari turlicha: masalan, ingliz tilida “Best regards” yoki “Sincerely” qo‘llansa, o‘zbek yozishmalarida “Hurmat bilan” shakli keng tarqalgan. Bu o‘rinda, chet tili o‘qituvchisining sotsiolingvistik kompetensiyasini yozma muloqotda ifoda etish usullari muhim rol o‘ynaydi. Ifoda usullarining mohiyati quyidagicha namoyon etiladi:

1.Didaktik usullar. Jumladan, model matnlar asosida ishlash: rasmiy va norasmiy xat, ilmiy maqola, biznes yozishmalarni tahlil qilish; nutqiy stereotiplarni o‘rgatish: salomlashish, murojaat qilish, rad etish va tabrik shakllarini yozma nutqda qo‘llash; xatolar ustida ishlash: talabalarning sotsiolingvistik xatolarini tahlil qilib, ularni to‘g‘rilash.

2.Kommunikativ usullar: rol o‘yinlari: talabalar turli millat vakili sifatida yozma muloqot olib boradilar; simulyatsiya: xalqaro yozishmalar sharoitini modellashtirish; real case metodi: mavjud rasmiy yozishmalarni o‘rganish va tahlil qilish.

3.Integrativ usullar: til va madaniyatni taqqoslash: o‘zbek yozma an’analari bilan ingliz yozishmalarini qiyoslash; multimedia resurslardan foydalanish: xalqaro forum va ijtimoiy tarmoqlardagi yozma muloqot namunalarini o‘rgatish.

O‘z navbatida chet tili o‘qituvchisi o‘zining sotsiolingvistik kompetensiyasini quyidagi uslublarda ifodalaydi: Didaktik uslub – nazariy tushuntirish va misollar orqali o‘rgatish; Kommunikativ uslub – real muloqot sharoitlariga yaqin yozma mashqlarni tashkil etish; Madaniyatlararo uslub – turli madaniy yozma odob qoidalarini solishtirish orqali ta’lim berish; Ilmiy-uslubiy yondashuv – zamonaviy tilshunoslik va metodika tadqiqotlariga tayanish.

Sotsiolingvistik kompetentsiyaning tarkibiy qismlari milliy-madaniy komponentli leksika,

milliy-madaniy semantikaga ega bo'lgan frazeologik birliklar, og'zaki muloqot formulalari, maqollar, matallar, kinoya so'zlar va h.k.lar kabi ijtimoiy mavqe, ijtimoiy-psixologik masofa va muloqot ishtirokchilari holatidagi tengsizlikni ifodalashga xizmat qiluvchi til birliklarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarning turli lingvistik belgilaridir .Talabalarning ijtimoiy-lingvistik kompetentsiyasini shakllantirishda haqiqiy material bilan ishlash algoritmi quyidagilardan iborat: 1) kirish bosqichi. Bu bosqichda talabalar yangi ijtimoiy belgilangan lingvistik vositalar bilan tanishadilar va ularni birlamchi qayta ishlashni amalga oshiradilar; 2) mashg'ulot bosqichi. Talabalar audiovizual materialda ijtimoiy belgili til vositalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini kuzatadilar; 3) ijodiy bosqich. Talabalar nutqida audiovizual materialni aktuallashtirish amalga oshiriladi . Ijtimoiy lingvistik kompetentsiyani shakllantirish samaradorligi talabalarning auditoriya, darsdan tashqari va mustaqil nazorat qilinadigan ishlarining kombinatsiyasi bilan ta'minlanadi. Ijtimoiy psixologik kompetentlik deganda esa odamlar bilan samarali ravishda ishlash uchun qo'llaniladigan, ilmiy jihatdan asoslangan psixologik usullarni egallaganlik, boshqa odamlar bilan muvaffaqiyatli ravishda o'zaro muloqotga kirishishga tayyorlik darajasi tushuniladi.

Sotsiolingvistik kompetensiya ikki xil qoidalar majmuidan: ijtimoiy-madaniy va muloqot normalaridan tashkil topgan bo'lib, muayyan taklif va kommunikativ qoidalarning muayyan ijtimoiy-madaniy kontekstga mos kelishiga qaratilgan.Nihoyat, strategik kompetensiya so'zlovchining etarli kompetensiyaga ega emasligi sababli murojaat qilishi mumkin bo'lgan og'zaki va noverbal muloqot usullaridan tashkil topadi. Ushbu strategiyalar gramatik kompetensiya (parafraziya, soddalashtirish, va boshqalar) yoki sotsiolingvistik kompetensiya (masalan, notanish shaxsga qanday murojaat etish) bilan bog'liq bo'lishi mumkin.Keyinchalik Van Ek kommunikativ kompetensiyani chet tilini o'zlashtirish maqsadlari uchun yangi modelini ishlab chiqdi.U kommunikativ kompetensiyaning olti komponentini o'z ichiga olgan asosini taqdim etdi, ya'ni lingvistik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, diskurs kompetensiya, strategik kompetensiya, sotsiomadaniy kompetensiya va ijtimoiy kompetensiya . Lingvistik kompetensiya: til qoidalariga muvofiq shakllangan va an'anaviy ma'nosini anglatadigan mazmunli so'zlardan foydalanish va talqin qilish layoqatidir. Sotsiolingvistik kompetensiya: muloqot ishtirikchilari o'rtasidagi munosabatlar, muloqot maqsadi va boshqalar kabi shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Bu kompetensiya lisoniy signallar bilan ularning kontekstual yoki vaziyatli ma'nosi o'rtasidagi munosabatni qamrab oladi. Diskurs kompetensiya: matnlarni tuzish va talqin qilishda tegishli strategiyalardan foydalanish layoqati. Strategik kompetensiya: muloqot jarayonida qiyin va tushunarsiz vaziyatlarda zaruriy strategiyalardan foydalangan holda muloqotni davom ettirish. Sotsiomadaniy kompetensiya: har bir til muayyan bir sotsiomadaniy kontekstda joylashgan va chet til o'rganuvchisidan qisman farq qiladigan muayyan ma'lumotdan foydalanishni nazarda tutadi; sotsiomadaniy kompetensiya bu madaniy kontekst bilan ma'lum darajada tanishishni nazarda tutadi. Ijtimoiy kompetensiya: motivatsiya, munosabat, o'ziga ishonch, empatiya va ijtimoiy vaziyatlarni boshqarish qobiliyatini o'z ichiga olgan holda, boshqalar bilan muloqot qilish irodasini va malakasini o'z ichiga oladi.

Sotsiolingvistik kompetensiyaning tarkibiy qismlari so'zlovchining nutq madaniyatining me'yoriy tomoni normalarini bilishi va ularni muloqot jarayonida muvaffaqiyatli qo'llash layoqatini nazarda tutadi. Ya'ni muloqot jarayonida adresant quyidagi normalarga amal qilishi: – to'g'rilik (appropriacy) – til va madaniyat me'yorlariga rioya qilishi; – aniqlik – so'z va iboralarning belgilangan tushunchalarga, so'zlar orasidagi bog'lanishlarning hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarga mos kelishi; – izchillik – rasmiy, mantiqiy qonunlarga rioya qilish; – soflik – nutqda xalq tili, shevaga xos so'zlar, behayo so'zlar, o'zlashtirish (keraksiz) kabi lingvistik elementlarning yo'qligi; – boylik – muloqotda lug'at, frazeologiya, grammatikaning maksimal xilma-xilligi; – ekspressivlik – tinglovchining nafaqat intellektiga, balki uning his-tuyg'ulariga ham ta'sir qilish qobiliyati. Ekspressivlik ham lingvistik, ham nolingvistik vositalar yordamida hosil bo'ladi: imo-ishoralar, mimika, xatti-harakatlar va munosabat. Tilda ekspressivlikni

jamiyatning stilistik belgilari, intonatsiya, nutq tezligi, tembr, pauza, kompozitsiya hosil qiladi; – muvofiqlik – muloqot sharoiti va vaziyatiga hamda tinglovchilarning xususiyatlariga muvofiqligi, tinglovchining induvidual, intellektual, hissiy xususiyatlarini hisobga olish, o‘rganilayotgan chet tilida so‘zlashuvchilar tilning funksional turlarini yaxshi bilishlari kerak bo‘ladi.Sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish zarurati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: Sotsiolingvistik tadqiqotlar natijasida quyidagi jihatlar ochib beriladi: Ma’lumki, tilda me’yoriy standart mavjud bo‘lsa-da, turli ijtimoiy qatlamlar tomonidan qo‘llaniladigan ko‘plab variantlar ham mavjud. Sotsiolingvistik tadqiqotlar bu me’yorlarning jamiyatda qanday shakllanishini va amal qilishini tahlil qiladi. Til aloqalari va boshqa tillarning ta’siri masalalari oydinlashtiriladi.Til egasi bo‘lgan xalq o‘z tarixi davomida turli xalqlar bilan madaniy aloqada bo‘lganligi natijasida, bu hodisa uning tilida o‘z aksini topadi. Demak, bu o‘rinda boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar va ularning moslashuv jarayonlari madaniy almashinuvning muhim ko‘rinishi sifatida o‘rganiladi.

Sotsiolingvistika til me’yorlari va normativlarini, ularning shakllanishi hamda o‘zgarishini ham o‘rganadi. Til siyosati, tartibga solish va ta’lim tizimi bu jarayonda muhim o‘rin tutadi.

Til ijtimoiy identifikatsiya vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Turli ijtimoiy guruhlar tilning ayrim variantlarini o‘zini ajratib ko‘rsatish vositasi sifatida qo‘llaydi. Bu esa tilning madaniy va ijtimoiy-madaniy aloqalarni shakllantirishdagi o‘rnini ko‘rsatadi.Sotsiolingvistik tadqiqotlar tilda me’yoriy standart va variatsiyalarni, boshqa tillarning ta’sirini, til siyosati hamda ijtimoiy identifikatsiyani chuqur anglash imkonini beradi. Til jamiyatning madaniy hamda ijtimoiy-madaniy aloqalarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash asosida (bilim olishga ehtiyoj, erkin fikrlash, motivatsiya va qiziqish) ularning ichki olami, ijodiy tanlovining erkinligi, idealizatsiya, stimul va reaktsiyasining yuzaga kelishi, bunda turli rolli o‘yinlarning ustuvorligi ilgari surilgan; talabalarning ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasini madaniyatlararo muloqot jarayonida rivojlantirishga oid maxsus ko‘rsatmalar, talabalarning kasbga bo‘lgan qiziqishi, qobiliyati, imkoniyatlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda sotsiolingvistik bilimlarni madaniyatga oid umumiy bilimlar, madaniyatga oid umumiy qarashlar, madaniyatga oid umumiy normalarga rioya etish shartlari tavsiya qilingan; talabalarning ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan auditoriya, auditoriyadan tashqarida maqsadli faoliyatining samaradorligini ta’minlashga qaratilgan takliflar ilgari surilgan; talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan darslarda standart mavzularni ijodiy idrok etish samaradorligini ta’minlashda ularning ijodiy fikrlashining rivojlanishi, shaxslararo munosabatga kirishishi va kommunikatsiyada kinetik bilim olish imkoniyati empirik baholash (mavzu doirasi, ijodiylik, erkin fikrlash) darajasi barqarorligini ta’minlash orqali amalga oshishi isbotlangan; sotsiolingvistik kompetensiyaga doir mashg‘ulotlar ko‘lamini kengaytirish asosida dars jarayonlariga innovatsion ta’lim texnologiyalarini kiritish zarurati isbotlangan.

Xulosa. Aytish joizki, kompetensiya o‘z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo‘lgan mutaxassis muammolarni yechishda o‘zi o‘zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va yo‘llardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo‘lgan metodlarni tanlab olib qo‘llashi, to‘g‘ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko‘z bilan qarashi kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Shu bois kompetensiya masalasi dolzarbligicha qoladi. Demak, yuqoridagi fikrlardan kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari quyidagilardan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin: - ta’lim jarayonini monosubyektlidan polisubyektli paradigmaga aylantirish; - ta’lim jarayonini shaxsning kasbiy kompetentlikka erishishida betakror individualligini rivojlantirishga qaratish; - bo‘lajak mutaxassisning o‘quv-bilish, imitatsion-modellashtirish va kasbiy-amaliy faoliyatining o‘zaro to‘ldiruvchanligi va izchilligi; - kasbiy kompetentlikni insonparvarlikka qaratilgan

holda tashxis qilish va o‘z-o‘zini tashxis qilish; - kasbiy kompetentlikning subyektli, obyektli va predmetli tarkibiy qismlarini shakllantirish vositalari sifatida subyektli amaliy, mazmuniyt exnologik va predmetli natijaviy vazifalar tizimidan foydalanish. Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllanishining tuzilmasi individuallikning shakllanish va rivojlanish maqsadlarini tasavvur qilish, ya’ni ijodiy faoliyat maqsadini belgilash hamda ijodiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishga intilish, ijodiy tasavvurning rivojlanishi, ijodiy faoliyat sharoitida o‘z hissiy holatlarini boshqarish, shuningdek, ijodiy faoliyatni amalga oshirishdagi qat’iyatlilik, maqsadga intiluvchanlik, yechimini topilishi qiyin bo‘lgan vaziyatlarni yengib o‘ta olish, izlanuvchanlik holatida o‘z-o‘zini boshqara olish, o‘z ijodiy yechimlarini tahlil qila olish qobiliyatlarini rivojlantira olish, ijodkor individual shaxs sifati tasavvurlarning, mustaqil fikrlashning rivojlanishi kabilardan iborat ekan. Mutaxassisning kasbiy kompetentligi shaxsning murakkab tuzilmasi bo‘lib, uning faoliyatini aniqlab beradi va umummadaniy, kasbiy bilimlar, mahorat, ko‘nikmalar, kasbiy ijodiy yondashuv, shaxsning ijtimoiy yo‘naltirilganligi, umuman, kasbiy vazifalar samarasi yechim topishni ta’minlovchi majmuadir.

Chet tili o‘qituvchisi sotsiolingvistik kompetensiyaga ega bo‘lishining amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: Chunonchi, chet tili o‘qituvchisining sotsiolingvistik kompetensiyasi yozma muloqotda: xalqaro hamkorlikda xat yozish malakalarini shakllantirishga; talabalarni akademik yozuvga tayyorlashga; xalqaro biznes aloqalarda samarali ishtirok etishiga; madaniyatlararo noto‘g‘ri tushunishlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Demak, yozma madaniyatlararo muloqotda chet tili o‘qituvchisi sotsiolingvistik kompetensiyasi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Uni ifoda etishda didaktik, kommunikativ va integrativ usullardan foydalanish samarali hisoblanadi. Shuningdek, madaniyatlararo yozma an’analarni taqqoslash, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash va talabalarni real yozishma vaziyatlariga jalb etish o‘qituvchi faoliyatining ajralmas qismiga aylanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida” 2017- yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.

2. БМТнинг Барқарор Ривожланиш Мақсадлари: https://www.undp.org/sustainable-development-goals

3. Жалолов Ж.Ж. Бўлажак мутахассиснинг касбий компетенциясининг шакллантириш устувор таълимий муаммо сифатида // Бўлажак чет тил ўқитувчисининг касбий йўналтириш технологияси. Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2009. − Б.3.

4.Рузметова М.Ш., Умумий ўрта таълим 5-7-синф ўқувчиларига инглиз тилини ўқитишда компетенцияларни ривожлантириш технологиялари: пед.фан.дисс.автореф. – Тошкент, 2021. 13-б.

5. Зуева Л.Ф. Формирование социолингвистической компетенции студентов вузов физической культуры / Автореф. дисс. … канд. пед. наук. – Малаховка, 2002. – 24 с.

6. Бобрикова О.С. Формирование социолингвистической компетенции будущи переводчиков / Автореф. дисс. … канд. пед. наук. –Тула, 2014. – 15 б.

7. Van Ek, J. (1986). Objectives for Foreign Language Learning. Strasbourg: Council of Europe. 22-44

8. Муродова В.И., Волкова, Т.Р., Саттарова М.М., Шин А.А. Культура речи. Секреты эффективных коммуникаций . – М.: КноРус, 2020. С.8.

9.Вайсгербер Й.Л. Язык и философия // Вопросы языкознания, -М.,1993, № 2, с. 111-112.

10.Гак В. Г. Пространство мысли (опыт систематизации слов ментального поля) // Логический анализ языка. Ментальные действия. -М., 1993. С. 26.

11.Почепцов Г.Г. Теории коммуникации .- М.: «Рефл-бук», 2001. - 656 с.

12. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence. In: J. B. Pride, J. Holmes (eds.) Sociolinguistics. Penguin.

13. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1(1), 1–47.

14. Halliday, M. A. K. (1994). An Introduction to Functional Grammar. London: Edward Arnold.

15. Kramsch, C. (1998). Language and Culture. Oxford: Oxford University Press.

16. Crystal, D. (2003). English as a Global Language. Cambridge: Cambridge University Press.

17. Xudoyberganova, D. (2020). Chet tillarini o‘qitishda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish. Toshkent: Fan va texnologiya.

18. Raxmonov, S. (2022). Yozma nutqni rivojlantirish metodikasi. Samarqand: SamDU nashriyoti.

AYOL PEDAGOGLARNING INKLYUZIV TA’LIM MUHITINI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI: HAMKORLIK, EMPATIYA VA PEDAGOGIK YETAKCHILIK OMILLARI

Nazarova Dildora Asatovna,
Oriental universiteti «Uzluksiz ta’lim pedagogikasi» kafedrasi professori, p.f.n.

Annotatsiya. Mazkur maqolada ayol o‘qituvchilarning inklyuziv ta’lim muhitini rivojlantirishdagi o‘rni, ularning pedagogik va rahbarlik faoliyati, shuningdek, oila bilan samarali hamkorlik masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda ayollar empatiya, ijtimoiy mas’uliyat va moslashuvchanlik kabi fazilatlari bilan ta’limda teng imkoniyatlar yaratish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish va ijtimoiy integratsiyasini ta’minlashdagi muhim omil sifatida yoritiladi. Shuningdek, maqolada ayol pedagoglarning inklyuziv qadriyatlarni targ‘ib etishdagi rahbarlik uslublari, ularga to‘sqinlik qiluvchi omillar - resurs tanqisligi, gender stereotiplari va kasbiy rivojlanishdagi cheklovlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, ayol pedagoglar, gender tengligi, pedagogik yetakchilik, empatiya, oila va maktab hamkorligi, ijtimoiy integratsiya.

Annotation: This article analyzes the role of female teachers in promoting an inclusive educational environment, focusing on their pedagogical leadership, empathy, and cooperation with families. It highlights women’s contributions to creating equitable learning opportunities, addressing individual student needs, and fostering social inclusion through their emotional intelligence, adaptability, and social responsibility. The paper discusses leadership styles that enhance inclusivity and examines barriers such as resource shortages, gender stereotypes, and limited professional development opportunities.

Keywords: inclusive education, female teachers, gender equality, pedagogical leadership, empathy, family-school collaboration, social inclusion.

Аннотация: В статье рассматривается роль женщин-педагогов в развитии инклюзивной образовательной среды, их педагогическое лидерство, эмпатия и взаимодействие с семьёй. Подчеркивается вклад женщин в создание равных образовательных возможностей, удовлетворение индивидуальных потребностей учащихся и укрепление социальной интеграции. Анализируются особенности женских стилей руководства в контексте инклюзивных ценностей, а также препятствия, такие как нехватка ресурсов, гендерные стереотипы и ограниченные возможности профессионального роста.

Ключевые слова: инклюзивное образование, женщины-педагоги, гендерное равенство, педагогическое лидерство, эмпатия, сотрудничество семьи и школы, социальная интеграция.

Ta’limda alohida e’tiborga muhtoj o‘quvchilar uchun o‘quv-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish qator tamoyillarni hisobga olishni talab etadi. Ta’lim jarayoni barcha bolalarning individual ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bu tamoyil asosida moslashuvchan o‘quv dasturlari, o‘quv materiallarini diversifikatsiya qilish va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish zarur.

Shuningdek, ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvni qo‘llash ta’lim sifatini oshiribgina qolmay, balki bolalarning ijtimoiy integratsiyasi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini ham mustahkamlaydi (Singh, 2013).

Zamonaviy ta’lim tizimi insonparvarlik, adolat va teng imkoniyatlar tamoyillariga asoslanib, har bir bolaning individual ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan yondashuvni talab etadi. Bunday tizimda inklyuziv ta’lim konsepsiyasi nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarni, balki turli madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy qatlamlardan kelgan barcha o‘quvchilarni o‘z ichiga oladi. Inklyuziv ta’lim —

bu har bir o‘quvchi uchun qulay, moslashuvchan va adolatli o‘quv muhitini yaratishga qaratilgan jarayon bo‘lib, u o‘qituvchilarning kasbiy mahorati, shaxsiy qadriyatlari va ijtimoiy mas’uliyatiga bevosita bog‘liqdir.

Mazkur jarayonda ayol pedagoglarning o‘rni beqiyosdir. Ular o‘zining empatiyasi, mehr-muruvvati va rahbarlik salohiyati bilan inklyuziv qadriyatlarni ta’lim amaliyotiga tatbiq etishda muhim rol o‘ynaydi. Ayol o‘qituvchilar bolalarning shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirish, oilalar bilan hamkorlikda individual yondashuvni shakllantirish va sinfdagi ijtimoiy muhitni uyg‘unlashtirish orqali ta’lim sifatini oshiradi. Shuningdek, ularning rahbarlik faoliyati gender tengligi, ijtimoiy integratsiya va inson qadr-qimmatini hurmat qilish tamoyillarini mustahkamlaydi.

Ayol o‘qituvchilar ko‘pincha o‘z o‘quvchilari bilan hissiy aloqani rivojlantirishda yuqori natijaga ega bo‘ladilar. Ularning empatiya va sabr-bardoshi bolalarning o‘ziga xos ehtiyojlarini qondirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, ayol o‘qituvchilar bolalar bilan o‘zaro munosabatda reflektiv pedagogik usullardan foydalanib, har bir bolaning imkoniyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayol o‘qituvchilar erkak o‘qituvchilarga nisbatan ko‘proq inklyuziv qadriyatlarga ega bo‘lib, farzandlarning turli ehtiyojlarini qondirishga ijobiy hissa qo‘shadi (Saxena, 2021).

Inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oilaviy qo‘llab-quvvatlash va jamiyatning ijobiy ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilalar va jamiyat a’zolari bolalar uchun inklyuziv muhitni mustahkamlashda faol o‘rin egallashlari lozim. Shuningdek, o‘qituvchilarni maxsus ehtiyojli bolalarga yordam berishda oilalar bilan hamkorlik qilishga o‘rgatish samaradorlikni oshiradi (Dorji et al., 2019). Jamiyatning ta’lim jarayoniga jalb qilinishi ham farzandlarning ijtimoiy integratsiyasini mustahkamlaydi va inklyuziv ta’limning samaradorligini oshiradi (Boyle va b., 2013).

Ta’limda alohida ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilar uchun inklyuziv ta’lim muhitini yaratish bugungi kunda jamiyat rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday muhitni tashkil etish bolalarning teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash, ularning shaxs sifatida o‘sishi va jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga yordam beradi. Inklyuziv ta’lim nafaqat alohida ehtiyojli bolalar, balki butun jamiyat uchun ijobiy o‘zgarishlarni olib keladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan ayollarning roli muhim ahamiyatga ega.

Ayollarning jamiyat va ta’limdagi o‘rni tarixan muhim bo‘lib kelgan. Xotin-qizlar, ayniqsa, o‘qituvchi va rahbar sifatida bolalarning ta’lim olishidagi individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ularga maxsus pedagogik yondashuvlarni qo‘llashda yetakchi rol o‘ynaydi. Ularning empatiyasi, qayg‘uruvchanligi va ijtimoiy mas’uliyat hissi ta’limda alohida ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilar uchun qulay muhit yaratishda alohida ahamiyatga ega. Shu sababli, ayol o‘qituvchilar va rahbarlarning inklyuziv ta’limni rivojlantirishdagi hissasini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — ayol pedagoglarning inklyuziv ta’lim tizimidagi o‘rni va ularning oila hamkorligidagi ta’sirini tahlil qilish, shuningdek, bu jarayonda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlashdir. Tadqiqot natijalari jamiyatda inklyuziv qadriyatlarni rivojlantirish, teng imkoniyatlar yaratish va ayollar pedagogik yetakchiligini kuchaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishda ayol pedagoglarning o‘rni, ularning rahbarlik uslublari va oilalar bilan hamkorlikdagi faoliyati alohida e’tiborga loyiqdir. Ayollar o‘zining empatiyasi, ijtimoiy mas’uliyati hamda insonparvarlik fazilatlari orqali nafaqat o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondiradi, balki inklyuziv qadriyatlarni ta’lim muassasasi madaniyatiga singdiradi. Shuning uchun quyida ayol o‘qituvchilarning inklyuziv ta’lim jarayonidagi o‘rni, pedagogik yondashuvlari hamda duch kelayotgan to‘сиқ ва имкониятлар tizimli tarzda tahlil qilinadi. Ayol o‘qituvchilarning ta’lim jarayonida empatiya va qayg‘uruvchanlik kabi xususiyatlari maxsus ehtiyojli bolalarning individual ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayol o‘qituvchilar inkluziv ta’lim muhitida o‘z o‘quvchilari bilan yaqinroq va hissiy jihatdan barqaror munosabatlar o‘rnatishga moyil bo‘lib, bu ularga o‘z o‘quvchilarining ijtimoiy va ta’limiy ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish imkonini beradi.

Shuningdek, ayol o‘qituvchilar, ayniqsa, ta’limda alohida ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilar bilan ishlashda o‘zlarining ona sifatidagi tajribalaridan foydalanib, ta’limni yanada moslashtirishga va bolalar uchun qulay muhit yaratishga muvaffaq bo‘ladi.

Ta’lim muassasalarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yurituvchi ayollar jamoani inklyuziv qadriyatlarga yo‘naltirishda katta hissa qo‘shadi. Ayol rahbarlarning rahbarlik uslublari ko‘pincha «insonparvarlik», «ijtimoiy ramziy» va «ta’limiy rahbarlik» sifatida ta’riflanib, bu jamoani birlashtirish va o‘quvchilarning turli ehtiyojlariga javob beruvchi muhitni yaratishda muvaffaqiyat keltiradi.

Bundan tashqari, ayol rahbarlar ko‘pincha gender tengligini targ‘ib qilish va jamiyatda ayollarning mavqeini ko‘tarish borasida tashabbuskor bo‘ladi. Bu esa, nafaqat ta’limda alohida ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilar uchun, balki butun jamoa uchun ijobiy natijalar keltiradi.

Ayollarning inklyuziv ta’limda faol ishtirok etishi ko‘pincha turli xil to‘siqlar bilan cheklangan bo‘lib, bu holat ta’lim tizimining umumiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, resurslarning yetishmasligi inklyuziv ta’limni rivojlantirishdagi asosiy muammo hisoblanadi. Maxsus ehtiyojli bolalarga moslashgan vositalar, o‘quv materiallari va infratuzilmaning mavjud emasligi ta’lim jarayonini murakkablashtiradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, ta’lim muassasalarida resurs yetishmasligi natijasida o‘qituvchilar bolalarning ehtiyojlarini qondirishda qiyinchiliklarga duch keladi (Sánchez va b., 2019).

Ikkinchidan, gender stereotiplari va ijtimoiy me’yorlar ayollarning inklyuziv ta’limdagi rolini cheklaydi. Jamiyatda ayollar uchun an’anaviy rollar, ayniqsa, ularning rahbarlik lavozimlarida kam ishtirok etishiga olib keladi. Ayol o‘qituvchilar gender stereotiplari va ijtimoiy bosimlar tufayli kasbiy rivojlanishda to‘siqlarga duch keladi.

Uchinchidan, pedagogik va rahbarlik malakalarini oshirish uchun imkoniyatlarning cheklanganligi inklyuziv ta’limni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Ayol o‘qituvchilarning ta’limda alohida ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilar bilan ishlash bo‘yicha malaka oshirish dasturlariga kirishi qiyin bo‘ladi, bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi strategiyalar taklif etiladi. Birinchidan, ta’lim muassasalarida resurslar va infrastrukturani rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari kengaytirilishi lozim. Shuningdek, o‘qituvchilarning ta’limda alohida ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilar bilan ishlashga oid malakalarini oshirish uchun zamonaviy va inklyuziv treninglar tashkil etish zarur (Woodcock & Woolfson, 2019).

Bundan tashqari, gender tengligini ta’minlashga yo‘naltirilgan siyosatlarni kuchaytirish, ayol o‘qituvchilarni rahbarlik lavozimlariga tayinlashni rag‘batlantirish muhimdir. Bu o‘z navbatida inklyuziv ta’limda innovatsion tashabbuslarni amalga oshirishga imkon yaratadi.

Ayollar jamiyatda inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi. Ularning empatiyasi, ijtimoiy mas’uliyat hissi va moslashuvchanligi ta’limda alohida ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilaruchun qulay va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishda alohida ahamiyatga ega. Ayol o‘qituvchilar va rahbarlar o‘zining pedagogik yondashuvlari orqali bolalarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini yanada samarali qilishga intiladi. Bu nafaqat ta’lim sifati, balki jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni mustahkamlash uchun ham muhimdir.

Shu bilan birga, ayollarning inklyuziv ta’limdagi faoliyati qator muammolarga duch kelmoqda. Gender stereotiplari va ijtimoiy me’yorlar ayollarning rahbarlik lavozimlaridagi ishtirokini cheklab, ularning potensialidan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qiladi. Resurslarning yetishmasligi, ta’limda alohida ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilaruchun mos material va infratuzilmaning cheklanganligi ta’lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi. Shuningdek, ayollarning malakasini oshirish va ularni inklyuziv yondashuvlar bilan tanishtirish uchun imkoniyatlarning yetarli emasligi ham muhim muammo bo‘lib qolmoqda.

Ushbu to‘siqlarga qaramay, ayollar inklyuziv ta’limning asosiy tayanchi sifatida o‘z hissasini qo‘shishda davom etmoqda. Ularning rahbarlik qobiliyatlari va pedagogik mahorati nafaqat bolalarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki jamiyatda tenglik, adolat va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Inklyuziv ta’limni rivojlantirish orqali jamiyatda har bir bola uchun teng imkoniyatlar yaratish va ayollarning bu jarayondagi muhim rolini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

Boyle, C., Topping, K., & Jindal-Snape, D. (2013). Teachers’ attitudes towards inclusion in high schools. Teachers and Teaching, 19, 527–542.

Ching Shum, L., & Cheong Cheng, Y. (1997). Perceptions of women principals’ leadership and teachers’ work attitudes. Journal of Educational Administration, 35(2), 165-184.

Dorji, R., Bailey, J., Paterson, D. J., Graham, L., & Miller, J. (2019). Bhutanese teachers’ attitudes towards inclusive education. International Journal of Inclusive Education, 25, 545–564.

Elder, B., Damiani, M. L., & Oswago, B. O. (2016). From attitudes to practice: Utilising inclusive teaching strategies in Kenyan primary schools. International Journal of Inclusive Education, 20, 413-434.

Forlin, C., & Chambers, D. (2011). Teacher preparation for inclusive education: increasing knowledge but raising concerns. Asia-Pacific Journal of Teacher Education, 39, 17 - 32.

Gannerud, E. (2001). A Gender Perspective on the Work and Lives of Women Primary School Teachers. Scandinavian Journal of Educational Research, 45, 55 - 70.

Kalaitzi, S., Czabanowska, K., Fowler-Davis, S., & Brand, H. (2017). Women leadership barriers in healthcare, academia and business. Equality, Diversity and Inclusion, 36, 457-474.

Oplatka, I. (2006). Women in educational administration within developing countries. Journal of Educational Administration, 44, 604-624.

Potgieter-Groot, L., Visser, M., & Lubbe-de Beer, C. (2012). Emotional and behavioural barriers to learning and development in the inclusive education classrooms in South Africa: Developing a training programme for teachers. Journal of Child & Adolescent Mental Health, 24, 59-71.

Sari, M. (2012). Exploring gender roles’ effects of Turkish women teachers on their teaching practices. International journal of educational development, 32(6), 814-825.

Saxena, Y. (2021). IS THE GENDER OF A TEACHER A DETERMINANT OF ATTITUDE TOWARDS INCLUSION?: A CASE STUDY IN SELECTED SCHOOLS OF BHOPAL. BSSS Journal of Education.

Singh, S. (2013). A study on Perception of teacher trainees towards inclusive education.

Sánchez, P. A., Haro-Rodríguez, R. D., & Maldonado Martínez, R. M. (2019). Barriers to Student Learning and Participation in an Inclusive School as Perceived by Future Education Professionals. Journal of New Approaches in Educational Research.

Triviño-Amigo, N., Barrios-Fernández, S., Mañanas-Iglesias, C., Carlos-Vivas, J., Adsuar, J., Acevedo-Duque, Á., & Rojo-Ramos, J. (2022). Differences among male and female Spanish teachers on their self-perceived preparation for inclusive education. International Journal of Environmental Research and Public Health.

Woodcock, S., & Woolfson, L. (2019). Are leaders leading the way with inclusion? Teachers’ perceptions of systemic support and barriers towards inclusion. International Journal of Educational Research.

PEDAGOGIK MEHNATNI ILMIY TASHKIL ETISH SHARTLARI VA TAMOYILLARI

Nurullayeva Shaxlo Uktamovna
Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya. Maqolada o‘qituvchi faoliyatining murakkabligi nuqtai nazaridan uni ilmiy tashkil etishga doir tahlillar bayon etilgan. Jumladan, o‘qituvchi mehnatining samaradorlik omillari, pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish tamoyillari, shartlari haqidagi nazariy va metodik tahlillar o‘z ifodasini topgan. O‘qituvchi mehnatini to‘g‘ri rejalashtirish, tashkil etish hamda boshqarish jarayoniga doir ilmiy-metodik tavsiyalar keltirib o‘tilgan.

Bundan tashqari, o‘qituvchi mehnati ijodiy kasblar turiga kirishi, pedagogik faoliyat mazmuni ijodkorlikni talab qilishi, mahoratli pedagog o‘quvchi shaxsini shakllantirishi, kutilmagan vaziyatda mustaqil qaror qabul qilishi asoslangan.

Pedagogik muammolar original yechimlar topa biladi va o‘quv jarayonini mustaqil boshqaradi. Bir xil pedagogik vaziyat bo‘lmaganligi kabi, muammolar yechimida standart usullardan foydalanishning imkoni yo‘qligi va pedagogik mehnatning mohiyati va uning o‘ziga xosliklari tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: mehnat, pedagogik mehnat, mehnatni ilmiy tashkil etish, mehnat ilmiy tashkil etish tamoyillari, shartlari, usullari va boshqalar.

УСЛОВИЯ И ПРИНЦИПЫ НАУЧНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ТРУДОВОГО ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Нуруллаева Шахло Уктамовна
Профессор Каршинского государственного университета, доктор педагогических наук

Аннотация. В статье представлен анализ научной организации педагогического труда с точки зрения его комплексности. В частности, дан теоретико-методологический анализ факторов эффективности педагогического труда, принципов и условий научной организации педагогического труда. Даны научно-методические рекомендации по организации, планированию и управлению педагогическим трудом.

Кроме того, исходят из того, что педагогический труд – это вид творческой профессии, содержание педагогической деятельности требует творческого подхода, квалифицированный педагог формирует личность ученика, принимает самостоятельные решения в нестандартных ситуациях.

Способен находить оригинальные решения педагогических задач и самостоятельно управлять образовательным процессом. Описаны отсутствие единообразной педагогической ситуации, невозможность использования стандартных методов решения задач, сущность педагогического труда и его специфика.

Ключевые слова: труд, педагогический труд, научная организация труда, принципы, условия, методы научной организации труда и др.

CONDITIONS AND PRINCIPLES OF SCIENTIFIC ORGANIZATION OF PEDAGOGICAL WORK

Nurullayeva Shakhlo Uktamovna
Professor of Karshi State University, Doctor of Pedagogical Sciences

Abstract. The article presents an analysis of the scientific organization of a teacher’s work from the perspective of its complexity. In particular, theoretical and methodological analyses of the factors of effectiveness of a teacher’s work, principles and conditions of scientific organization

of pedagogical work are expressed. Scientific and methodological recommendations are given on the process of proper planning, organization and management of a teacher's work.

In addition, it is based on the fact that a teacher's work is a type of creative profession, the content of pedagogical activity requires creativity, a skilled teacher forms the personality of a student, and makes independent decisions in unexpected situations.

Able to find original solutions to pedagogical problems and independently manage the educational process. The lack of a uniform pedagogical situation, the impossibility of using standard methods in solving problems, and the essence of pedagogical work and its specifics are described.

Keywords: work, pedagogical work, scientific organization of work, principles, conditions, methods of scientific organization of work, etc.

Kirish. Har qanday mehnatning muvaffaqiyati va samarasi uni tashkil etishga, bu mehnatni uyushtirishga ta'sir etadigan shart-sharoitlarga, faoliyatni amalga oshirish yo'llariga bog'liq. Demak, pedagogik faoliyatning samarasi ham o'qituvchi o'z ishini qanday tashkil etishiga hamda bunga ta'sir etadigan shart-sharoitlar qandayligiga bog'liq. Xar qanday mehnatni bajaruvchi shaxs o'qituvchi ham o'z ishini tashkil etishda o'ziga ma'qul bo'ladigan, o'zi yaxshi egallagan mahorat bilan bajara oladigan uslublarni tanlaydi. Biz ilmiy texnika taraqqiyoti davrida yashamoqdamiz. Demak, o'z ishimizni tashkil etishda ham fan-texnika yutuqlariga asoslanishimiz kerak bo'ladi. Xususan, o'qituvchi ham o'z mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishi lozimdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mehnat shaxsning bir maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy-foydali faoliyati bo'lib, u aqliy, jismoniy kuch, mas'uliyat va g'ayratni talab etadi.

O'qituvchi mehnati - ijodiy kasblar turiga kiradi. Pedagogik faoliyat mazmuni ijodkorlikni talab qiladi. Mahoratli pedagog o'quvchi shaxsini shakllantiradi, kutilmagan vaziyatda mustaqil qaror qabul qiladi, pedagogik muammolar original yechimlar topa biladi va o'quv jarayonini mustaqil boshqaradi. Eng asosiysi, aynan bir xil pedagogik vaziyat bo'lmaganligi kabi, muammolar yechimida standart usullardan foydalanishning imkoni ham yo'q.

Pedagogik mehnatning mohiyati va uning o'ziga xosligi shundaki:

a) jarayon ikki yoqlama xarakterga ega;

b) o'qituvchi faqat bir o'quvchi bilan emas, balki jamoa bilan ishlaydi;

c) o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyat yuritadilar.

Mehnatni ilmiy tashkil etishda, avvalambor, ilm-fan yutuqlarini faoliyatga joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, ilmiy asosda tashkil etiladigan mehnatning quyidagi muhim belgilari qayd etiladi:

1. Vaqtdan imkon qadar samarali foydalanish;

2. Mehnat va dam olish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlardan samarali foydalanish, uni tashkil etish;

3. Barcha imkoniyatlarni ishga solgan holda mehnat qilish uchun sog'lig'i va har tomonlama g'amxo'rlik qilish.

Tadqiqot metodologiyasi. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish deganda pedagogik jarayonni boshqarish uchun pedagogika va psixologiya fanining eng so'nggi yutuqlaridan foydalangan holda o'z ishini ijodiy tashkil etib, yangiliklar yaratish tushuniladi. O'qituvchi mehnati uning vaqt sarfi bilan bog'liq. Ishning muvaffaqiyati vaqtdan unumli foydalalish, o'zining imkoniyatlarini to'la hisobga olish, qulay mehnat sharoiti yaratish, o'quv-tarbiya jarayonida o'zini namoyish etish va o'zining imkoniyatlarini to'la namoyon etishi bilan bog'liq.

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish birinchi navbatda o'zining ijodiy imkoniyatlariga ishonish demakdir. O'qituvchi ta'lim jarayonini to'la tasavvur etishi kerak, uning mexanizmini, qonuniyatlarini, o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini yaxshi anglashi kerak.

Tahlil va natijalar. Pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etishda quyidagi tamoyillarga

amal qilish talab etiladi:

1. Rejalashtirish.
2. Tashkil etish
3. Boshqarish.
4. Nazorat qilish.

Qonuniyat va tamoyillarning bajarilishi o‘qituvchi mehnatining yo‘nalishiga bog‘liq:

1. Ish tajribasi.
2. O‘rganish va tushuntirish tajribasi.
3. Ishlash uchun sharoitning yaratilishi va ish joyining jihozi.

1-yo‘nalish. O‘qituvchi kasbiga oidlari:

o‘z ishiga, kasbiga oid chuqur bilimlarni egallash;
davlat tomonidan qabul qilingan hujjatlar, qonunlarni bilish;
pedagogika, psixologiya va xususiy metodikani o‘rganish;
bolalar jamoasi va shaxsi haqidagi bilimlarni o‘rganish;
ilg‘or tajribani o‘rganish va o‘z ishida tadbiq etish;
o‘z ustida ishlash va o‘z-o‘zini tarbiyalash.

2-yo‘nalish. O‘z mahorat elementlarini xosil qilish:

o‘z ishiga kerakli bo‘lgan va pedagogik mahoratini oshirishdagi ko‘nikma va malakalarni egallash;
o‘z kuchi va qobiliyatinn to‘g‘ri ishlata olishi;
o‘z vaqtida kerakli va to‘g‘ri qaror qabul qilish.

3-yo‘nalish:

ishlash sharoiti va jamoadagi ma’naviy holat;
jamoadagi psixologik holat;
ijodiy yondashuv;
insonparvarlik;
rag‘batlantirish;
gigiyena qoidalariga rioya qilish;
kunni to‘g‘ri tashkil etish.

4-yo‘nalish. O‘qituvchining o‘z mehnatini ilmiy asosda tashkil etish uchun unda ma’lum darajada pedagogik fazilatlar bo‘lishi kerak:

kim bilan ishlayotganini aniq bilishi uchun ular hayoti haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish;
o‘z xohish va maqsadini aniq bilish;
o‘z oldiga vazifa qo‘ya olish;
kerakli mazmun, shakl, metodlarni tanlay olish;
har ishning holatini tahlil qila olish;
metodik qo‘llanmalarni o‘rganish va ularni to‘play olish;
vaqtni to‘g‘ri taqsimlash.

Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishda o‘qituvchiniig kun tartibi va ish joyi muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi o‘zi uchun eng optimal, yuqori unum beradigai kun tartibini topa olishi kerak. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

ilm-fan yangiliklaridan boxabar bo‘lish va o‘z faoliyatiga joriy etish;
mehnat faoliyatini obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarni inobatga olgan holda puxta rejalashtirish hamda ushbu reja asosida faoliyat yuritish;
qulay mehnat sharoiti yaratish va texnik vositalardan samarali foydalanish;
har bir daqiqadan unumli foydalanish va faoliyatni nazorat qilish;
rag‘batlantirish va o‘z vaqtida dam olish, salomatlik uchun qayg‘urish;

Pedagogik faoliyat o‘z mazmuni va maqsadiga ko‘ra ilm-fan yutuqlarini doimiy ravishda o‘rganib borishni hamda amaliyotga tadbiq etishni taqozo etadi. Mehnatni ilmiy tashkil etishda

ham ushbu shart muhim bo‘lib, o‘qituvchi faoliyat mazmunini doimiy ravishda xorijiy va respublikamiz olimlari, pedagoglari yutuqlari, yangiliklari bilan boyitib borishi talab etiladi.

Ishni rejalashtirishdagi asosiy masala uyushtiriladigan barcha faoliyat turlarini unda qatnashayotgan jamoa a’zolarini umumiy pedagogik maqsadga bo‘ysundirishni ko‘zda tutadi, bunda yaqin, o‘rta, uzoq maqsadlarni inobatga olish ko‘zda tutiladi. Demak, o‘qituvchining kun tartibi uning faoliyati va hayotini tartibga soluvchi asbobdir. U yo‘q joyda mehnat unumi ham past bo‘ladi, salomatlik yo‘qolib boradi. Natijada o‘qituvchi sarf qilgan kuchini qayta tiklay olmaydi, ish qobiliyati yo‘qoladi, oqibatda sifati kasayadi, Ilmiy asoslangan kun tartibi o‘qituvchilarning o‘z mehnatini almiy tashkil etish vazifasini hal etishga qo‘yilgan qadam bo‘ladi.

Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish shartlaridan yana biri ish o‘rnini tartibga solish va qulay mehnat sharoitini tashkil etishdir. O‘qituvchining ish joyi ish jarayonining bir qismi bo‘lib, mehnat unumining yuqori bo‘lishiga ta’sir etadi. O‘qituvchining ish joyi, xususiyati, pedagogik mehnatning mazmuni va xususiyati bilan belgalanadi.

Mehnat sharoiti tushunchasi kompleks tushuncha. Mehnatni ilmiy tashkil etish tajribasida mehnat sharoiti deganda insonning mehnat qilayotgan joyi, konkret vaziyat ko‘zda tutiladi. Yana unga psixofiziologik, ijtimoiy, psixologik va gigiyenik omillar ham ta’sir etadi.

Pedagogik mehnatning samarasi, maqsadi va faoliyat vazifasiga ko‘ra bilishda va aniqlay olishdadir. Shundagina ishni ilmiy tashkil etish mumkin bo‘ladi.

Pedagogik mehnatni nazorat qilish va hisobga olish prinsipi o‘qituvchi ishini muntazam va rejali kuzatib borish, yutuq va kamchiliklarni aniqlash, muhimlarini ajratib olish ko‘zda tutiladi. Hisobga olishning eng maqbul yo‘li statistik hisobga olishdir. Pedagogik nazorat esa obyektivlilik, omilkorlik, samaradorlik, muntazamlilik va oshkoralikni talab qiladi.

O‘qituvchi mehnatini nazorat qilish va xisobga olishning muntazamliligi, izchilligi quyidagilardan tashkil topadi:

o‘quv materiallari va tarbiyaviy tadbirlarga tayyorarlikda o‘z-o‘zini nazorat qilish;
darsdan tashqari vaqtlarda ta’lim-tarbiyani nazorat qilish va o‘z-o‘zini kuzatish;
o‘qituvchining darsdan tashqari vaqtda nazorat qilish;
ota-onalar va jamoatchilik bilan bajariladigan ishlarni nazorat qilish;
o‘z ustida ishlashni nazorat qilish.

Xulosa va takliflar. Inson pedagogik faoliyatda ham eng oliy qadriyat hisoblanadi. o‘qituvchining salomatligi ham pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishda muhim shartlardan biri hisoblanadi. Shu sababli o‘qituvchi faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishda dam olish hamda salomatligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratishi lozim. Dam olish uchun kunlik amalga oshiriladigan ish turlari oralig‘ida, kunlik ish faoliyati yakunida, ish haftasi yakunida va yillik ta’til davomida o‘qituvchi dam olish va salomatligini tiklashga alohida e’tibor qaratishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Андреев В. И. Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития. Казань: Центр инно- вац. технологий, 2003. 608 с.

Гришина И.В. Профессиональная компетентность руководителья школы как объект исследования. – Москва: Наука, 2002. – 231 с.

Зверева В.И. Диагностика и экспертиза педагогической деятельности аттестуемых учителей. –Москва: УЦ Перспектива, 1999. –с.112.

Karimova N.N. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish: ped. bo‘y. fal. dok. (Phd) diss... . Toshkent, 2017. – 135 b.

Nurullayeva Sh.U. Zamonaviy pedagogik ta’limni modellashtirish muammolari // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. № 11. 2020 y. 305-308-betlar.

Ситаров В.А. Формирование методической компетентности будущего учителя. – Москва: МПГУ, 1989. – 81 с.

O‘QUVCHILARIDA BADIIY QADRIYATLARGA QIZISHNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Ostonova Gulrux Shahrisabz
davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistri

Annotatsiya: Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan olamshumul voqealardan biri – bu milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi bo‘ldi. Binobarin, milliy qadriyatlar millat vakillari tomonidan o‘zlikning anglanishi, ularning milliy g‘urur va iftixorga ega bo‘lishlarida muhim omil sanaladi.

O‘quvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish, ular tomonidan islomiy qadriyatlarga to‘g‘ri baho bera olish layoqatini tarbiyalashda respublika miqyosida Islom olamida o‘zlarining alohida o‘rinlariga ega bo‘lgan buyuk allomalarning yubiley yillarini nishonlash yo‘lida amalga oshirilgan tadbirlar ham muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik, O‘zbekiston, milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, milliy iftixor tuyg‘usi, o‘zlikning anglanish,Islom olamida, buyuk allomalar, Milliy tarbiya,

SCIENTIFIC-THEORETICAL BASIS OF FORMING STUDENTS’ INTEREST IN ARTISTIC VALUES

Abstract: One of the most significant events that took place in Uzbekistan during the years of independence was the revival of national values. Consequently, national values are considered an important factor in the awareness of identity by representatives of the nation, their national pride and honor.

The events held at the republican level to celebrate the anniversaries of great scholars who hold a special place in the Islamic world are also important in fostering a sense of national pride in students and in cultivating their ability to correctly assess Islamic values.

Keywords: Independence, Uzbekistan, revival of national values, sense of national pride, sense of identity, in the Islamic world, great scholars, National education,

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К ХУДОЖЕСТВЕННЫМ ЦЕННОСТЯМ

Аннотация: Одним из значимых событий, произошедших в Узбекистане за годы независимости, стало возрождение национальных ценностей. В связи с этим национальные ценности рассматриваются как важный фактор осознания представителями нации своей идентичности, национальной гордости и чести.

Мероприятия, проводимые на республиканском уровне в честь юбилеев великих ученых, занимающих особое место в исламском мире, также важны для воспитания у студентов чувства национальной гордости и формирования у них способности правильно оценивать исламские ценности.

Ключевые слова: Независимость, Узбекистан, возрождение национальных ценностей, чувство национальной гордости, чувство идентичности, в исламском мире, великие ученые, национальное образование,

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan olamshumul voqealardan biri – bu milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi bo‘ldi. Binobarin, milliy qadriyatlar millat vakillari tomonidan o‘zlikning anglanishi, ularning milliy g‘urur va iftixorga ega bo‘lishlarida muhim omil sanaladi.

– Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir, – dedi Shavkat Mirziyoyev yig‘ilishda. – Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli

iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat.

Ma’naviy hayotimizni yuksaltirishda ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan ana shunday muhim vazifalarni kompleks hal qilish, kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, o‘zbek va dunyo adabiyotining eng yaxshi namunalarini internet tarmoqlariga joylashtirish va ularni targ‘ib qilish hamda keng kitobxonlar ommasiga etkazish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida o‘quvchi yoshlarni badiiy qadriyatlarga qizishni shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalasi ekanligi, kitobxonlik madaniyatini oshirish orqali yoshlar ma’naviyati, o‘z millati qadriyatlarini tarixi haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish orqali yangi O‘zbekistonni istiqbolida yuqori maqsadlarga erishishga chorlaydi..

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi qarori. 2017 yil 13 sentabr [1].dagi qarori ham ayni muddo bo‘lib xizmat qiladi chunki ma’naviy etuklikka kitob o‘ish orqali erishiladi.

Bu haqida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezident I.A.Karimov quyidagi fikrlarni ilgari suradi: «O‘zbekistonning milliy-madaniy jihatdan g‘oyat rang-barangligi, milliy o‘zligini anglash va ma’naviy qayta tiklanishning kuchayib borishi bilan uzviy birlikda jamiyatni yangilash, uni ochiq jamiyatga aylantirish uchun qudratli omil bo‘lib xizmat qiladi va respublikaning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi» [2].

O‘zbek xalqi asrlar davomida kelayotgan yil dehqonchiligining xayrli, barakali bo‘lishi uchun ekin ekish, dalaga ulov chiqarish va urug‘ qadashga tayyorgarlik, yangi niyatlarning tug‘ilishi ayyomi sifatida Navro‘zni ulug‘lab, uni katta tantana sifatida nishonlab kelgan. Navro‘z bayramini nishonlashda millatning o‘zligi, uning tabiatga bo‘lgan muhabbati namoyon bo‘lgan.

Totalitar davrda noto‘g‘ri mafkuraviy qarashlar, diniy g‘oyalarning inkor etilishi ta’sirida, shuningdek, «din millatchilik va shovinizmga har doim yo‘l ochishini, iqtisodiy, sotsial taraqqiyotiga to‘sqinlik qilishini, sotsialistik turmush tarzi, kommunistik ma’naviyatning qaror topishiga to‘sqinlik qilishini» nazarda tutgan holda islom dinining shakllanishiga hech qanday aloqasi bo‘lmagan Navro‘zning milliy bayram sifatida nishonlanishi dastlab ta’qiqlab qo‘yildi, so‘ngra sun’iy ravishda «Navbahor» bayramiga aylantirildi. 1986 yil yanvar-fevralda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Kommunistik partiyaning XXI s’ezdida bu boradagi ilk qaror qabul qilgan bo‘lsa, shu yilning oktyabr oyida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Kommunistik partiya Markaziy Komitetining III Plenumi yakuniy qaror chiqardi. Natijada ezgu umidlar, pok niyatlar bilan nishonlanadigan «Gul bayrami», «Lola sayli», «Qovun sayli» va «Hosil bayrami» kabi milliy an’analar unutila boshlandi.

Bu kabi harakatlar zaminida millatni milliy o‘zligidan, milliy tuyg‘ularidan, borliqqa bo‘lgan an’anaviy yondoshuvidan mahrum etishdek qabih niyat bor edi.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi bilan birga millatning asriy qadriyati sanalgan Navro‘z bayramini nishonlash an’anasi qayta tiklandi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentning «Navro‘z umumxalq bayramini o‘tkazish choralari to‘g‘risida»gi Farmoniga muvofiq 1991 yildan boshlab har yili 21 mart Navro‘z bayrami sifatida ommaviy ravishda nishonlanib kelinmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatda Islom dini omilidan unumli foydalanish, uning boy ma’naviy va madaniy qadriyat sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish choralari ko‘rildi. Ana shu yo‘lda amalga oshirilgan xayrli ishlardan biri Islom dinining ikki muqaddas ayyomi – Iydi-Ramazon va Iydi-Qurbon ayyomlariga bo‘lgan munosabatning o‘zgartirilishi bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentning alohida Farmonlariga ko‘ra Ramazon (1992 yil 27 mart) va Qurbon hayitlari dam olish kuni sifatida nishonlana boshlandi. Natijada kishilar hayit kunlarida yaqinlarining holidan xabar olish, yordamga muhtoj kishilardan hol-ahvol so‘rash, xayrli, savob

ishlarni bajarishdek tarixiy an’anaga amal qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Binobarin, «Qur’oni Karim»ning Alouddin Mansur tomonidan tayyorlangan, «Hadis» asarining Abdulg‘ani Abdulloh tomonidan qilingan tarjimalarining chop etilishi ham asrlar davomida o‘zbek xalqining e’tiqodi sifatida ulug‘lanib kelayotgan qadriyatlar qayta tiklanganligining yana bir yorqin namunasidir.

Sobiq Ittifoq davri bu kabi muqaddas manbalarni o‘zbek tilida o‘qish u yoqda tursin, ularning nomlarini ham tilga olish «qoloqlik», «ilmiy haqiqatlarni inkor etish», «johillik» deya qoralanar edi.

«Qur’oni Karim»[4]. va «Hadis» [5]. asarlarining tarjimalari yoshlar, jumladan, o‘quvchilarga muqaddas manbalarda ilgari surilgan ezgu g‘oyalar (tinchlikni ulug‘lash, insonni inson tomonidan qadrlanishi, iymonli, e’tiqodli, bilimli bo‘lishning ahamiyati, kibr, boylikka berilmaslik, harom va halolning farqiga borish, mavjud moddiy ne’matlarni asrash, ularni isrof, uvol qilmaslik, beva-bechora, etim-yesirlarning haqqiga xiyonat qilmaslik va boshqalar)ning asl mohiyati bilan tanishish, ularning mazmunini o‘rganish imkonini yaratadi. Manbalarning asl mohiyati bilan tanishishning pedagogik ahamiyati shundan iboratki, ular buzg‘unchi g‘oya tarafdorlarining tashviqotlariga ishonish, ularning ko‘rsatmalariga so‘zsiz quloq solishdan avval mulohaza yuritish, ularning fikrlarini tahlil qilish layoqatiga ega bo‘lishlariga yordam beradi.

Sho‘ro tuzumining mafkuraviy yondoshuvi tufayli Qur’oni Karim va Hadis asarlarining millat taraqqiyotida tutgan o‘rni, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati borasida tadqiqotlarning olib borilishi ham ta’qiqlangan edi. Mustaqillik sharofati bilan bunday ta’qiqlar olib tashlandi hamda muqaddas manbalar, ularda ilgari surilgan g‘oyalarning falsafiy, ijtimoiy, badiiy va pedagogik ahamiyatining tahliliga bag‘ishlangan qator ilmiy izlanishlar olib borildi. Ana shunday ilmiy izlanishlardan birining natijasi sifatida H.Karomatovning «Qur’on va o‘zbek adabiyoti» nomli asari chop etildi.

Shuningdek, Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-jome’ as-sahih» («Ishonarli to‘plam»), «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari»), Imom Iso at-Termiziyning «Al-jome’ as-sahih» («Ishonarli to‘plam»), «Ash-Shamoil an-Nabaviya» («Payg‘ambarlarning alohida fazilatlari»), «Alisher Navoiyning totalitar tuzum davrida «diniy g‘oyalarni targ‘ib etuvchi» asar sifatida o‘rganilishi ta’qiqlangan «Munojot», «Arba’in» hamda «Tarixi anbiyo va hukamo» («Payg‘ambarlar va hokimlar haqida» nomli asarlari nashrdan chiqarildiki, bu holat yoshlar tomonidan islomiy qarashlarni «soxta bilimdonlar» tomonidan qilinayotgan talqin emas, balki xolis yondoshuv asosida yoritilgan ma’lumotlar, mulohazalar yordamida o‘rganilishi uchun zamin yaratdi.

Islom dini g‘oyalarini ilmiy asosda o‘rganish, ularni aslicha yosh avlodga etkazish borasida 1995 yil 19 mayda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan Qarorga muvofiq tashkil etilgan Xalqaro islom tadqiqot markazi o‘ziga xos o‘rin tutadi. Zero, ushbu markazning asosiy vazifasi respublika aholisi, xususan, yoshlarga «milliy qadriyatlarimizni va haqiqiy islom ta’limotini etkazish, mavjud islomiy osori-atiqalar tarixini o‘rganish, nodir qo‘lyozma asarlarni tadqiq etish, ular bilan keng jamoatchilikni tanishtirish, darslik va qo‘llanmalar, lug‘atlar tayyorlash va nashr qilishdan iboratdir» [3]. Shuningdek, ko‘plab madrasalarning faoliyati qayta yo‘lga qo‘yildi. «Ayni paytda mamlakatimizning har bir viloyatida kamida bittadan diniy Madrasa, Toshkent shahrida esa Toshkent Islom Universiteti, Xalqaro Islom tadqiqotlar markazi, Imom al-Buxoriy nomidagi Islom ma’hadi, Eshon Boboxon nomidagi ayollar madrasasi, Abulqosim va Ko‘kaldosh madrasalari ishlab turibdi [3].

Islom dini farzlaridan biri – bu haj ziyoratini ado etish hisoblanadi. O‘zbek xalqi mustabid tuzum davrida uzoq yillar garchi islom diniga e’tiqod qilsak-da, bu farzni ado etish imkoniyatidan mahrum bo‘lib yashadi. Respublika hukumati rahbariyatining shijoati bilan 1990 yilning hijriy yil hisobi bilan Ramazon oyida musulmonlarning haj amalini ado etishlari uchun sharoit yaratildi. «Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga haj qilishi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezident Farmonining e’lon qilinishi katta hodisa bo‘ldi.

O‘quvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish, ular tomonidan islomiy qadriyatlarga to‘g‘ri baho bera olish layoqatini tarbiyalashda respublika miqyosida Islom olamida o‘zlarining

alohida o‘rinlariga ega bo‘lgan buyuk allomalarning yubiley yillarini nishonlash yo‘lida amalga oshirilgan tadbirlar ham muhim ahamiyatga ega. Imom Abu Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud az-Zamahshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bahovuddin Naqshbandning 675 yilligi, Xoja Ahrori Valiyning 600 yilligi, Imom Ismoil al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy tavqim bo‘yicha 1225 yilligining keng ko‘lamda nishonlanishi» [3] yoshlar uchun o‘zga xos tarbiya namunasi bo‘ldi. Binobarin, bunday tadbirlar orqali ulug‘ allomalarga bo‘lgan cheksiz hurmat va ularning Islom ta’limotini rivojlantirishga qo‘shgan hissalari oldidagi ehtiromni namoyish etildi. O‘tganlarni yodlash, ularning faoliyatidan xabardor bo‘lish hamda mehnatlariga nisbatan ehtirom bildirish o‘zbek xalqining o‘zligiga xos fazilatdir.

Milliy-madaniy meros, shu jumladan, adabiyot va san’at barcha davrlarda ham yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularga ajdodlar an’analarini etkazish vositasi bo‘lib kelgan. Ayni vaqtda ular yoshlarga milliy o‘zlikni anglatish, ularda Vatan va millatga bo‘lgan mehr-muhabbatni qaror toptirish, milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Biroq, totalitar tuzum davrida milliy ozodlik harakatlarining qayta yuzaga kelishidan qo‘rqqan ayrim ideologlar milliy-madaniy merosni o‘rganishda qat’iy cheklovlar bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi taklifni ilgari surdilar. Jumladan, 1986 yil 4 oktyabrda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston KPMKning III Plenumida shu haqida alohida so‘z yuritilib, unda quyidagi mulohazalar ilgari surildi: «O‘tmishni ideallashtirish, nosinfiy va notarixiy yondoshuv shunga olib keldiki, Temur kabi feodal zolimlar teatr sahnalarida, kino ekranlarida, kitob sahifalarida shu vaqtga qadar ko‘zga tashlanib turibdi, ayrim yozuvchilarning e’tiborida tarix haqiqatiga zid ravishda u insonparvar va uzoqni ko‘ra biluvchi siyosatchi qilib ko‘rsatilgan. Bu borada tipik o‘rta asrga xos jihatlarni ko‘ra olish uchun Pirimqul Qodirovda sinfiy etuklik etishmadi. Yozuvchi Boburning haqiqiy bosqinchilik faoliyatlarini sezmay, uning go‘yo ma’rifatparvar podsholigi, nozik didli lirik shoir va ulkan tarixchiligiga qoyil qolib, erib ketadiyu, ko‘z yoshi qiladi.

Bunday kaltabinlik dastlab qaraganda beozor ko‘rinsada, aslo bunday emas. Uning zamirida tarixni qaytadan yozishga urinish, patriarxal davrni qo‘msashni targ‘ib qilish, islomni milliy madaniyatning xazinachisi qilib ko‘rsatishga urinish yotadi».

Millat tarixi, uning madaniyati va taraqqiyotiga nisbatan bunday yondoshuv aslida uni tobe qilish, o‘zligini anglay olmaydigan zombiga aylantirishga intilish edi. Biroq, asrlar silsilasida toblangan, mus’hamkam ildizga ega bo‘lib borgan milliy-madaniy merosni millat tarixidan o‘chirib yuborishga qaratilgan harakat samarasiz yakun topdi. Pirimqul Qodirovning Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar sulolasi vakillarining hayoti, faoliyati, shuningdek, ijodi haqida hikoya qiluvchi «Yulduzli tunlar», keyinroq esa mazkur romanning davomi sanaluvchi «Avlodlar davoni» asarlari chop etildi.

«Qizil imperiya» Amir Temurga, u orqali o‘zbek xalqiga nisbatan tahqirlash siyosatini olib borgan bir paytda xorijda bu benazir zotga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy, ilmiy-ommabop, badiiy, san’at asarlari yaratildi, xalqaro anjumanlar o‘tkazildi, uning nomi bilan bog‘liq ommaviy tashkilotlar tuzildi, muzeylar ochildi»

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan eng xayrli ishlardan biri – bu akademik I.Mo‘minov tomonidan boshlangan, biroq mafkuraviy ta’ziqqa uchragan harakatning o‘z samarasini berganligi bo‘ldi. Aynan shu yillarda «qonxo‘r», «zolim» deya sifatlangan Amir Temur shaxsi o‘zining munosib bahosiga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezident tomonidan 1996 yilning «Amir Temur yili» deb e’lon qilinishi, shu yili mard sarkarda tavalludi 660 yilligining nishonlanishi sohibqiron shaxsi, uning hayoti va faoliyatini o‘rganishga keng imkoniyatlar ochdi. Sohibqironning «Temur tuzuklari» asari e’lon qilindi. «Go‘ri Amir» maqbarasi ta’mirlandi. Shu yilning oktyabr oyida Toshkent shahrida «Temuriylar tarixi» davlat muzeyining ochilishi yoshlar o‘rtasida sohibqiron tomonidan amalga oshirilgan va o‘zbek davlatchiligining shakllanishida beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlar to‘g‘risida batafsil ma’lumotlarni berish, ularni tasviriy-obrazli tarzda etkazib

berish imkoniyatini yaratdi.

Mustaqillikdan so‘ng o‘tgan o‘n besh yil ichida Amir Temur hayoti va faoliyati to‘g‘risida ma’lumotlar beruvchi bir qator ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Jumladan, A.Hayitmetovning «Amir Temur va o‘zbek adabiyoti», B.Ahmedovning «Amir Temur», B.Ahmedov, A.Aminovlarning «Amir Temur o‘gitlari», H.Karomatovning mas’ul muharrirligidagi «Amir Temur jahon tarixida» nomli asarlari, shuningdek, A.Oripovning «Sohibqiron» va M.Jalilning «Sohibqiron Temur» dramalari yaratildi. «O‘zbekfilm» tomonidan ko‘p qismli «Amir Temur» filmi suratga olindi.

E’tiqodsizlik ulug‘langan davrda «o‘zida mistik qarashlarni yoritgan, xalq o‘rtasida jaholat, razolatni targ‘ib etuvchi» asarlar deya baholangan va milliy adabiyotdan majburan olib tashlangan asarlarning nashr etilishi yo‘lida ham samarali ishlar amalga oshirildi. Natijada Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Abulqosim Mahmud ibn Umar az-Zamahshariy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshbandiy, Husayn Boyqaro, Feruz (Sayid Muhammad Rahimxon Bahodirxon soniy) kabilarning o‘zbek mumtoz adabiyotining durdonalariga aylangan asarlarini o‘qib-o‘rganish imkoniyati yuzaga keldi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan yana bir xayrli ish – bu jadidchilik harakatining etakchilari bo‘lgan va «xalq dushmani» deya qatog‘on qilingan Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori Abdurashidxon o‘g‘li, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy va Usmon Nosir kabi o‘zbek millatining otashqalb o‘g‘lonlari asarlarining xalqqa qaytarilishi bo‘ldi. «Qatog‘on qurbonlari» jamg‘armasining tashkil etilishi, mazkur jamg‘armaning qo‘llab-quvvatlashi bilan jadidchilik harakati rahbarlari va namoyandalarining hayoti va ijodining o‘rganilishi, asarlarining qayta tiklanishi va chop etilishi, ular hayotining so‘nggi kunlarini yorituvchi arxiv materiallarining o‘rganilishi, shuningdek, «Qatog‘on qurbonlari» nomli xotira maydonining barpo etilishi yosh avlodni vatanparvar etib tarbiyalash, ularda milliy adabiy merosga nisbatan hurmatni qaror toptirish va vatandoshlarining vatan ozodligi, millat hurligi yo‘lida olib borgan kurashlaridan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirishga katta yordam beradi.

Qayta tiklangan milliy qadriyatlar orasida o‘zbek tili mavqeini ko‘tarishga qaratilgan ijtimoiy harakat alohida ahamiyatga ega. Garchi 1989 yilning 21 oktyabrida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentning farmoniga ko‘ra o‘zbek tili davlat tili maqomini olgan bo‘lsa-da, bu farmonning ahamiyati mustaqillik yillaridagina to‘la namoyon bo‘ldi. Ayni vaqtda respublika uzluksiz ta’lim tizimida o‘qitish ishlari, ishlab chiqarishda ish yuritish o‘zbek tilida amalga oshirilmoqda. Ish o‘rinlarida va jamoat joylarida ham o‘zbek tilida murojaat etish, shu tilda muloqot qilish, asarlar yaratish imkoniyati yuzaga keldi. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘rtasida milliy til imkoniyatlarini targ‘ib qilish, uning ijtimoiy ahamiyati va milliy ruhiyatning namoyon bo‘lishidagi rolini ochib berish asosida ularda o‘zbek tiliga bo‘lgan hurmatni qaror toptirish, til sofligini ta’minlash vazifasi turibdi.

Yuqorida bildirilgan fikrlar o‘quvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda milliy qadriyatlarni qayta tiklanishining ahamiyati quyidagi holatlarda ko‘zga tashlanishini isbotladi:

O‘quvchilar tomonidan milliy qadriyatlar, ularning mohiyati va ijtimoiy ahamiyati to‘g‘risidagi bilimlarning o‘zlashtirilishi.

Ularga islomiy g‘oyalarning asl mohiyatini to‘g‘ri anglashlari, Islom ta’limoti rivojiga ulkan hissa qo‘shgan vatandoshlarimiz, ularning hayotlari va faoliyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishlari uchun zarur shart-sharoitning yaratilganligi.

Ularning milliy urf-odat, marosim va an’analarda ilgari surilgan ezgu insoniy qarashlardan xabardor bo‘lishlari.

O‘quvchilarning o‘zbek milliy davlatchiligining asoschisi – sohibqiron Amir Temur shaxsini anglashlari, u tomonidan boshlangan ezgu ishning davomchilari bo‘lishga ruhlanishlari, uning mamlakatni adolat bilan boshqarish g‘oyalariga sadoqatli bo‘lishlari.

O‘z Vatanlarida milliy tilda so‘zlashish, kasbiy faoliyatni olib borishda o‘zbek tilidan foydalanish huquqiga ega bo‘lish.

O‘quvchilarning Turkistonda yo‘lga qo‘yilgan jadidchilik faoliyati, uning maqsad va

vazifalari, harakat faollarining shaxsi, hayoti va faoliyatlaridan xabardor bo‘lishlari, ularning fidoiyliklaridan namuna o‘zlashtirishlari.

Pedagogika kollejlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yo‘lga qo‘yishda milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi natijasida yuzaga kelgan imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanish, ular to‘g‘risida o‘quvchilarni xabardor etish kutilgan natijalarni bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Mirziyoyev Sh.M. «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi qarori. 2017 yil 13 sentabr.

2. Каримов И.А. Ўзбекистон миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1 - жилд. – Т:. Ўзбекистон, 1996. – 364 б.

3.Мухсиева А. Оилада миллий тарбияни ташкил этишнинг методик асослари. – Т.: Фан, 2009. – 116 б.

4. Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима /Таржима ва изоҳлар муаллифи: А.Мансур. – Т.: Шарқ нашриёт-матбаа концерни, 1992 йил. – 494 б.

5.Ҳадис. IV. Ал-жомеъ ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам) /Арабчадан А.Абдуллоҳ тарж. – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1992. – 527 б.

6.Амир Темур ва темурийлар даврида маданият ва санъат. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – 88 б.

7.Чорийев А., Сохибов А. “Педагогика в художественных образах”. Методик тавсиянома. Қарши 1992 й.26 б.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI JAHON AXBOROT OQIMLARIDA MUSTAQIL VA TANQIDIY FIKRLASHGA TAYYORLASHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Pardayev Asror Ikromvich
Samarqand davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini jahon axborot makonida mustaqil va tanqidiy fikrlashga tayyorlash jarayonining dolzarbligi, ilmiy-nazariy asoslari hamda innovatsion yondashuvlari keng tahlil etiladi. Global informatsion muhitda faoliyat yurituvchi pedagoglar uchun axborotga tanqidiy yondashuv, mantiqiy tahlil, asosli xulosa chiqarish va ijtimoiy mas’uliyat bilan fikr bildirish kompetensiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda inquiry-based learning, problem-based learning, refleksiya, Socratik suhbat, raqamli texnologiyalar va media tahlil vositalari asosidagi interaktiv metodlar samaradorligi asoslab beriladi. Shuningdek, mediasavodxonlik va raqamli pedagogika orqali o‘qituvchilik faoliyatida yuzaga kelayotgan yangi chaqiriqlar va imkoniyatlar ko‘rib chiqilib, ularni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari yoritiladi.

Tadqiqot natijalari pedagogik ta’lim muassasalarida innovatsion metodik yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, mediasavodxonlik, innovatsion yondashuvlar, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, axborot oqimi, raqamli pedagogika, interaktiv metodlar.

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К САМОСТОЯТЕЛЬНОМУ И КРИТИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ПОТОКОВ

Аннотация. В данной статье проводится всесторонний анализ актуальности, научно-теоретических основ и инновационных подходов к подготовке будущих учителей начальных классов к самостоятельному и критическому мышлению в глобальном информационном пространстве. В современном информационном окружении для педагогов крайне важны компетенции критической оценки информации, логического анализа, обоснованного принятия решений и социально ответственной коммуникации. В статье обосновывается эффективность интерактивных методов, основанных на обучении через исследование (inquiry-based learning), проблемном обучении (problem-based learning), рефлексии, сократическом диалоге, цифровых технологиях и инструментах медиаанализа для развития критического мышления. Кроме того, рассматриваются новые вызовы и возможности, возникающие в педагогической деятельности через медиаграмотность и цифровую педагогику, а также педагогические условия для их практической реализации.

Результаты исследования подчеркивают необходимость системного формирования навыков критического мышления у будущих учителей посредством инновационных методических подходов в педагогических образовательных учреждениях.

Ключевые слова: критическое мышление, медиаграмотность, инновационные подходы, учителя начальных классов, информационные потоки, цифровая педагогика, интерактивные методы.

INNOVATIVE APPROACHES TO PREPARING FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR INDEPENDENT AND CRITICAL THINKING IN GLOBAL INFORMATION FLOWS

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the relevance, scientific-theoretical foundations, and innovative approaches to preparing future primary school teachers for independent and critical thinking in the global information space. For educators operating in the global information environment, competencies such as critical information evaluation, logical analysis, evidence-based reasoning, and socially responsible communication are of great importance. The article substantiates the effectiveness of interactive methods based on inquiry-based learning, problem-based learning, reflection, Socratic dialogue, digital technologies, and media analysis tools in developing critical thinking. Furthermore, new challenges and opportunities arising in teaching activities through media literacy and digital pedagogy are examined, along with the pedagogical conditions necessary for their practical implementation.

The research findings emphasize the necessity of systematically developing critical thinking skills in future teachers through innovative methodological approaches within pedagogical education institutions.

Keywords: critical thinking, media literacy, innovative approaches, primary school teachers, information flow, digital pedagogy, interactive methods.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimi shiddat bilan rivojlanayotgan global axborot makoni, raqamli texnologiyalar ta’siridagi o‘zgaruvchan media muhit va informatsion bosim sharoitida faoliyat yuritadigan pedagoglarni, xususan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini nafaqat o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga, balki shaxsiy axborot madaniyati va tanqidiy fikrlash salohiyatiga ega bo‘lgan holda axborot oqimlarini mustaqil tahlil qilishga tayyorlash dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylangan[1]. Bugungi kunda jamiyatning barcha qatlamlariga, shu jumladan ta’lim sohasi vakillariga bo‘layotgan axborotlar oqimi – an’anaviy va ijtimoiy media, sun’iy intellekt asosida shakllanayotgan algoritmik kontent, feyk (soxta) xabarlar va manipulyativ ma’lumotlar bilan to‘yingan bo‘lib, bu holat pedagogik tayyorgarlik jarayonida innovatsion yondashuvlar asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirishni taqozo etadi[2].

Tanqidiy fikrlash bugungi kunda shaxsning axborotga asoslangan qarorlar qabul qilish, muqobil fikrlarni tahlil qilish, baholash, asoslash va mantiqiy xulosalarga kelish qobiliyatini ifodalovchi asosiy kognitiv kompetensiyalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda[3]. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun bu ko‘nikma nafaqat o‘z faoliyatida axborotni to‘g‘ri saralash va uzatish, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirishda ham asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini jahon axborot makonidagi turli manbalar bilan ishlashga, ulardagi ma’lumotlarni tahlil qilish, baholash va mustaqil xulosa chiqarishga o‘rgatish innovatsion pedagogik yondashuvlar orqali amalga oshirilishi zarur[4].

Innovatsion yondashuvlar deganda, bir tomonlama bilim berish emas, balki talabaning axborot bilan faol, tanqidiy va ijodiy ishlashini ta’minlovchi o‘quv metodlari, texnologiyalari va strategiyalar tizimi tushuniladi. Xususan, “so‘rovga asoslangan o‘rganish” (inquiry-based learning), “muammoli ta’lim” (problem-based learning), “reflektiv yondashuv”, “Sokratik suhbat” kabi metodlar orqali bo‘lajak pedagoglarni axborot muhitida fikr yuritishga, dalillar asosida qaror qabul qilishga, muqobil nuqtai nazarlarni ko‘rib chiqishga o‘rgatish mumkin[5]. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, masalan, interaktiv media resurslar, vizual va audio materiallar, sun’iy intellekt orqali generatsiyalangan kontentlar, onlayn muhokamalar va simulyatsion darslar vositasida talabalarda axborot tahliliga asoslangan tanqidiy yondashuvni shakllantirish mumkin[6].

Bunday yondashuvlarning afzalligi shundaki, ular o‘quvchini faol subyektga aylantiradi.

O‘qituvchi bilim manbai emas, balki yo‘naltiruvchi, murabbiy, tahliliy fikrlashga undovchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa o‘z navbatida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida metakognitiv faollikni, axborotga nisbatan tanqidiy va mas’uliyatli munosabatni, kommunikativ madaniyatni va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiradi[7]. Innovatsion yondashuvlar, shuningdek, o‘qituvchilik kasbining ijtimoiy funksiyalarini – axborot filtrlash, ishonchli manbalarni aniqlash, yosh avlodda raqamli xavfsizlik va media madaniyatni shakllantirish kabi jihatlarini amalga oshirishga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun pedagogik ta’lim muassasalarida tegishli infratuzilma va metodik ta’minot zarur. Ya’ni, o‘quv dasturlarida mediasavodxonlik, raqamli pedagogika, axborot madaniyati, tanqidiy tahlil metodikasi bo‘yicha mustaqil fanlar joriy etilishi, malakali mutaxassislar ishtirokida seminar, trening va interaktiv mashg‘ulotlar o‘tkazilishi lozim. Shuningdek, talabalarning tanqidiy fikrlash salohiyatini baholash uchun an’anaviy testlardan tashqari, reflektiv esse, portfoliolar, loyiha ishlari, muhokama asosidagi baholash mexanizmlari qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir[8].

Globallashuv va raqamli axborot makonining jadallik bilan kengayib borayotgan sharoitida ta’lim sohasining zamonaviy muammolaridan biri bu — axborotga to‘g‘ri, tanqidiy va mas’uliyatli yondasha oladigan pedagog shaxsini shakllantirish masalasidir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim tizimi uchun kadrlar tayyorlovchi pedagogik oliy ta’lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mustaqil fikrlash, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish, axborotni tahlil qilish va baholash, turli nuqtai nazarlarni solishtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir[9]. Ushbu jarayon bevosita tanqidiy fikrlash kompetensiyasining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, u faqatgina shaxsiy tafakkurni emas, balki kasbiy yondashuv va pedagogik faoliyatni takomillashtiruvchi omil sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Olib borilgan tahlil va ilmiy kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, an’anaviy bilimga asoslangan o‘qitish usullari bo‘lajak pedagoglarning jahon axborot oqimlarida faol, tanqidiy va selektiv fikrlashiga yetarli zamin yarata olmaydi[10]. Shu bois, ta’limda innovatsion yondashuvlar — muammoli ta’lim, reflektiv metodlar, tadqiqotga yo‘naltirilgan yondashuv, kollegial tahlil va raqamli texnologiyalar integratsiyasi orqali o‘qituvchilarni axborotga tanqidiy yondashishga o‘rgatish zarurati yuzaga kelmoqda[11]. Ayniqsa, soxta axborot, manipulyatsion media va algoritmik kontentlar sharoitida mediasavodxonlikni rivojlantirish tanqidiy fikrlashni shakllantirishning ajralmas komponentiga aylanmoqda. Mediasavodxonlik esa o‘z navbatida, shaxsning raqamli madaniyatini, axborot bilan ishlashdagi ijtimoiy mas’uliyatini va demokratik qarashlarga ochiqligini belgilovchi mezon sifatida e’tirof etiladi.

Ta’lim jarayoniga zamonaviy interaktiv va innovatsion metodlarni joriy qilish orqali, xususan, real hayotiy misollar asosida ishlovchi case-study metodikasi, Sokratik dialoglar, tahliliy esse va reflektiv baholash texnologiyalari orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning tafakkur doirasini kengaytirish, ularni turli nuqtai nazarlarga ochiq bo‘lgan, dalillar asosida fikr yurita oladigan va o‘z qarashlarini asosli tarzda himoya qila oladigan mutaxassis sifatida shakllantirish mumkin[12]. Shu bilan birga, ushbu yondashuvlar orqali o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlarni sinfda amaliy qo‘llay oladigan pedagoglarni tayyorlash ham ta’lim sifati oshishining muhim kafolatidir.

Innovatsion yondashuvlar faqat didaktik vosita bo‘lib qolmay, balki o‘qituvchi shaxsini rivojlantirishning, uni doimiy o‘zgarib borayotgan media va axborot muhitiga moslashuvchan, mos fikr yurituvchi va mas’uliyatli ijtimoiy subyekt sifatida shakllantirishning strategik yo‘nalishidir[13]. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun bu ko‘nikmalar ularning kelgusidagi professional faoliyatida yosh avlodga tanqidiy fikrlash va axborotga ongli munosabatni singdirishda asosiy pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikrlar negizida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarni asoslash mumkin:

Tanqidiy fikrlash – zamonaviy pedagogik kompetensiyaning tarkibiy qismi bo‘lib, u bo‘lajak o‘qituvchilarning global axborot muhitida o‘z pozitsiyasini mustahkamlashiga xizmat qiladi.

Mediasavodxonlik – tanqidiy fikrlashni shakllantirishdagi muhim pedagogik resurs bo‘lib, uni integratsiyalash orqali ta’lim jarayonining mazmuni va samaradorligini oshirish mumkin.

Innovatsion yondashuvlar – an’anaviy bilimga asoslangan yondashuvlarni yangilashga, o‘quvchi-shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni kuchaytirishga va reflektiv tahlilni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlovchi pedagogni tayyorlash – faqat bir martalik o‘quv jarayoni emas, balki bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan, doimiy ravishda yangilanadigan tizimli, kompleks metodik faoliyatni talab qiladi.

Xulosa. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini jahon axborot oqimlari sharoitida mustaqil va tanqidiy fikrlashga tayyorlash masalasi bugungi pedagogik ilm-fanning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu borada amalga oshirilayotgan innovatsion yondashuvlar mazkur maqsadga erishishda ilmiy-nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, pedagogik ta’lim tizimida tanqidiy fikrlash va mediasavodxonlikni integratsiyalashgan holda rivojlantirish, axborotga nisbatan ongli va mas’uliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiluvchi strategik muhim yo‘nalish sifatida e’tirof etilishi lozim.

Adabiyotlar

Xudoyberdiyev M. A. «Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi». Pedagogika va psixologiya, 2021. 3(45), 12-25.

Jalilov A.T. «Mediasavodxonlik va boshlang‘ich ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish». O‘zbekiston pedagogik ilmiy jurnali, 2022. 2(11), 56-70.

Oripova N. S. «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish». Zamonaviy ta’lim, 2020.1(7), 33-45.

Saidova D. R. «Boshlang‘ich sinf pedagoglarining mediasavodxonlik asosida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish». Ilmiy izlanishlar, 2023. 5(14), 102-116.

Nurmuhammadova G. X. «Raqamli pedagogika va innovatsion yondashuvlar yordamida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish». Pedagogik texnologiyalar, 2021. 4(9), 87-99.

Bilotserkovets M., Lushchyk Y., Fomenko T., Klochkova, T. Encouraging Students’ Critical Thinking Skills in the Midst of Information Wars.Tréma, 2023. 60, pp. 15-29.

Roth C., Bender-Salazar R., Pitt B. Stories and Systems: Educational Interactive Storytelling to Teach Media Literacy and Systemic Thinking. pp. 1-20. 2025.

Vehrer A., Palfalusi Z. The Application of Virtual Environments and Artificial Intelligence in Higher Education: Experimental Findings in Philosophy Teaching. 2025. pp. 5-23.

Hanč J., Štrauch P., Paňková E., Hančová M. Teachers’ Perception of Jupyter and R Shiny as Digital Tools for Open Education and Science. 2020. pp. 12-34.

Ali M. Developing Augmented Reality Based Gaming Model to Teach Ethical Education in Primary Schools. 2020. pp. 6-28.

Anggriani M.D., Haryanto H., Atmojo S. E. The Impact of Problem-Based Learning Model Assisted by Mentimeter Media in Science Learning on Students’ Critical Thinking and Collaboration Skills. Diversitas Journal, 2024. 9(3), pp. 45-61.

Levanon M. An Analog Teacher in a Digital World: Dialogic Pedagogy and Distance Learning. Inquiry: Critical Thinking Across the Disciplines, 2025. 34(1), pp. 57–78.

Emdin C. Reality Pedagogy. 2025. Wikipedia. pp. 1-22.

O‘QITUVCHINING IJTIMOIY VA PROFESSIONAL IMIDJINI RIVOJLANTIRISHDA METODIK USULLARNING AHAMIYATI

Saidova Ozoda Toxirovna
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘qituvchining ijtimoiy va professional imidjini rivojlantirishda metodik yondoshuvlar o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga, shuningdek, uning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va jamiyatdagi obro‘-e’tiboriga katta ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada o‘qituvchining professional imidjini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan metodik yondoshuvlar tahlil qilinadi. O‘qituvchining kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z ishiga ijodiy yondashuvni qo‘llash, o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va pedagogik etikani saqlash kabi omillar o‘qituvchining imidjini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit So‘zlar: O‘qituvchining ijtimoiy imidji, professional imidj, metodik yondoshuvlar, kommunikativ ko‘nikmalar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik etika, ijtimoiy rivojlanish, professional rivojlanish, ta’limda innovatsiyalar.

ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДИЧЕСКИХ ПРИЁМОВ В РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНОГО И ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ИМИДЖА УЧИТЕЛЯ

Саидова Озода Тохировна
Каттакурганский государственный педагогический институт,
ассистент кафедры дошкольного и начального образования

Аннотация: Методические подходы к развитию социального и профессионального имиджа учителя оказывают значительное влияние на его успех в образовательном процессе, а также на его уверенность в себе и репутацию в обществе. В статье анализируются методические подходы, которые имеют важное значение для формирования профессионального имиджа учителя. Развитие коммуникативных навыков учителя, творческий подход к своей работе, внедрение инновационных технологий в образовательный процесс и соблюдение педагогической этики играют ключевую роль в укреплении его имиджа.

Ключевые слова: социальный имидж учителя, профессиональный имидж, методические подходы, коммуникативные навыки, инновационные технологии, педагогическая этика, социальное развитие, профессиональное развитие, инновации в образовании.

THE IMPORTANCE OF METHODOLOGICAL APPROACHES IN THE DEVELOPMENT OF A TEACHER’S SOCIAL AND PROFESSIONAL IMAGE

Saidova Ozoda Tokhirovna
Kattakurgan State Pedagogical Institute,
Assistant Lecturer at the Department of Preschool and Primary Education

Annotation: Methodological approaches to developing a teacher’s social and professional image have a significant impact on their success in the educational process, as well as on their self-confidence and reputation in society. This article analyzes the methodological approaches that are important for shaping a teacher’s professional image. Developing the teacher’s communicative skills, applying a creative approach to their work, introducing innovative technologies into the teaching process, and adhering to pedagogical ethics play a crucial role in strengthening their image.

Keywords: Teacher’s social image, professional image, methodological approaches, communicative skills, innovative technologies, pedagogical ethics, social development, professional development, innovations in education.

Kirish. O‘qituvchining ijtimoiy va professional imidji nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi omil, balki jamiyatdagi o‘qituvchiga bo‘lgan hurmat va e’tiborni ham shakllantiradi. O‘qituvchining imidji uning pedagogik faoliyatining ko‘rinishi bo‘lib, ta’lim tizimining muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiladi. O‘qituvchi, nafaqat bilimdonlik, balki o‘z ishiga bo‘lgan javobgarlik, ijtimoiy muloqotdagi ko‘nikmalar va pedagogik axloqiy normalarga rioya qilish orqali jamiyatda o‘z o‘rnini topadi. Shu sababli, o‘qituvchining ijtimoiy va professional imidjini rivojlantirish muhim pedagogik masala hisoblanadi.

Bugungi kunda o‘qituvchining professional imidji shunchaki kasbiy mahorat bilan cheklanmay, balki uning muloqot qobiliyati, pedagogik etikasi, kreativligi, innovatsion yondoshuvlarni qo‘llashdagi tajribasi va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlarining sifatiga bog‘liq. O‘qituvchilar, doimiy ravishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini oshirishi, yangi metodik yondoshuvlar va pedagogik texnologiyalarni o‘z faoliyatlariga joriy etishi lozim. Shu bois, maqolada o‘qituvchining ijtimoiy va professional imidjini shakllantirishda metodik yondoshuvlarning o‘rni va ahamiyati, o‘qituvchining jamiyatdagi roli va ta’lim tizimiga bo‘lgan ta’siri tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. O‘qituvchining ijtimoiy va professional imidjini rivojlantirishga doir adabiyotlar tahlili ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan metodik yondoshuvlarni o‘rganishga imkon beradi. O‘qituvchi imidji nafaqat uning kasbiy mahoratiga, balki uning jamiyatdagi o‘rni, pedagogik axloqiy normalarga rioya qilishi, kommunikativ ko‘nikmalariga, ijodiy yondashuvga va o‘zgaruvchan ta’lim sharoitlariga moslashish qobiliyatiga ham bog‘liqdir.

Bir nechta tadqiqotlar (Sharipova, 2017; Islomov, 2019) shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining professional imidji uning kasbiy faoliyatida o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va jamiyatda uning hurmatini oshiradi. O‘qituvchining tashqi ko‘rinishi, muloqotdagi odobi va pedagogik etikaga rioya qilishi ham ijtimoiy imidjini shakllantiradi. Bundan tashqari, o‘qituvchining ilmiy izlanishlar va metodik ishlanmalar orqali ta’limdagi sifatni oshirishga bo‘lgan intilishi ham professional imidjini rivojlantiradi.

O‘qituvchining kommunikativ ko‘nikmalari jamiyat bilan o‘zaro muloqotda muhim rol o‘ynaydi. Zohidov (2020) o‘qituvchining muloqotdagi mahorati uning ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchining suhbat va muloqotga bo‘lgan yondoshuvi, ta’limdagi rollarni yaxshi tushunishi, shuningdek, talabalar bilan muloqotda bo‘lishdagi qat’iyligi uning ijtimoiy imidjini mustahkamlaydi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘qituvchining professional imidjini rivojlantirishda samarali vosita sifatida qaraladi. Daminov (2021) o‘z asarida pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning o‘qituvchining pedagogik malakasini oshirishga, shuningdek, jamiyatda uning obro‘-e’tiborini yaxshilashga ta’sirini ko‘rsatadi. Ta’lim texnologiyalarining joriy etilishi o‘qituvchining yangiliklarga ochiqligini va yangi yondoshuvlarga tayyorligini aks ettiradi, bu esa uning ijtimoiy va professional imidjini mustahkamlaydi.

O‘qituvchining ijtimoiy imidji uning pedagogik etikaga rioya qilishi, talabalar va hamkasblar bilan o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni o‘rnatishiga bog‘liqdir. O‘qituvchining yuqori darajadagi etikasini ko‘rsatadigan adabiyotlar (Isakov, 2018) uning jamiyatdagi o‘rni va obro‘-e’tiborini mustahkamlashga yordam beradi. Pedagogik etika o‘qituvchining ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi va uning ishiga bo‘lgan hurmatni kuchaytiradi.

O‘qituvchining o‘zgaruvchan ta’lim sharoitlariga moslashuvchanligi, yangi metodlar va texnologiyalarni o‘z faoliyatida qo‘llash qobiliyati uning professional imidjini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalarning qo‘llanishi, yangi o‘qitish metodlarini o‘zlashtirish va ularni samarali joriy etish o‘qituvchining ijtimoiy obro‘-e’tiborini oshiradi (Murodov, 2020).

Muhokama. O‘qituvchining ijtimoiy va professional imidjini rivojlantirishda metodik yondoshuvlar muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini belgilab bermaydi, balki jamiyatda uning obro‘-e’tiborini shakllantiradi. Pedagogik faoliyatda metodik yondoshuvlar va texnologiyalarni joriy etish o‘qituvchining sifatli va samarali faoliyat ko‘rsatishiga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘qituvchining ijtimoiy imidji uning muloqotdagi qobiliyatiga, pedagogik

etikaga, o‘ziga bo‘lgan ishonchiga va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatiga ham bog‘liqdir.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va yangi o‘qitish metodlarini o‘zlashtirish o‘qituvchining professional imidjini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu, o‘qituvchining yangiliklarga ochiq bo‘lishi, zamonaviy pedagogik yondoshuvlarni qo‘llashga tayyorligi, va ta’lim tizimining o‘zgarishlariga moslashish qobiliyati uning jamiyatdagi obro‘-e’tiborini oshiradi. Biroq, bu jarayonda shunchaki yangi texnologiyalarni qo‘llash emas, balki o‘qituvchining o‘zining pedagogik etikasini saqlashi va ta’limda ijtimoiy mas’uliyatni his qilishi ham zarur. O‘qituvchi o‘z faoliyatida yuqori axloqiy me’yorlarga rioya qilishi, talabalar bilan muloqotda bo‘lishda hurmatni saqlashi, ularning fikrlarini inobatga olish va barcha ta’lim jarayonida adolatni ta’minlashi kerak.

Shuningdek, o‘qituvchining ijtimoiy imidji va professional mavqeyi ham pedagogik yondoshuvlarning samaradorligi bilan bevosita bog‘liq. Yaxshi o‘qituvchi nafaqat bilimlarni samarali taqdim etadi, balki u o‘zining kommunikativ ko‘nikmalari, ijtimoiy munosabatlardagi malakasi, o‘z ishiga bo‘lgan javobgarligi va talabalar bilan ijobiy aloqalar o‘rnatishdagi muvaffaqiyati orqali ham jamiyatda hurmat va obro‘ga ega bo‘ladi.

O‘qituvchining o‘z ishiga ijodiy yondashishi, yangi usullarni ishlab chiqishi va ta’lim jarayonida innovatsiyalarni amalga oshirishi ularni professional rivojlanishga olib keladi. Bunda o‘qituvchining ijtimoiy va professional imidjining rivojlanishi, albatta, butun ta’lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ularning professional va shaxsiy rivojlanishi, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirib, jamiyatda o‘qituvchilarga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, o‘qituvchining imidjini rivojlantirishda hamma metodik yondoshuvlar hamda texnologiyalarni birgalikda va to‘g‘ri qo‘llash zarur. Bunday yondoshuvlarni rivojlantirish va o‘qituvchining shaxsiy va professional xususiyatlarini uyg‘unlashtirish o‘qituvchining ijtimoiy va pedagogik roli uchun katta ahamiyatga ega.

Xulosa. O‘qituvchining ijtimoiy va professional imidjini rivojlantirish ta’lim tizimining sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi nafaqat bilimdon, balki yuqori kommunikativ ko‘nikmalarga ega, innovatsion yondoshuvlarni qo‘llashga tayyor va pedagogik etika me’yorlariga rioya qiladigan shaxs bo‘lishi zarur. Uning professional imidji, jamiyatdagi obro‘si va e’tibori uning ishiga bo‘lgan ishonchini oshiradi, shuningdek, ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlaydi.

Pedagogik innovatsiyalar, metodik yondoshuvlar, va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali o‘qituvchi o‘zining imidjini mustahkamlashi, jamiyatda ta’limning sifati va o‘qituvchiga bo‘lgan hurmatni oshirishga erishishi mumkin. Shu bilan birga, o‘qituvchining ijtimoiy va professional imidji doimiy o‘sishni talab qiladi, shuning uchun o‘qituvchilar o‘z malakalarini oshirish, yangi metodlarni o‘rganish va ta’limdagi yangiliklarga ochiq bo‘lishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

Axmetova, N. (2017). O‘qituvchining professional imidjini rivojlantirish. Toshkent: O‘zbekiston Xalq Ta’limi Vazirligi.

Sharipova, Z. (2018). Komunikativ ko‘nikmalar va o‘qituvchining ijtimoiy roli. Toshkent: Ta’lim va rivojlanish.

Islomov, A. (2019). O‘qituvchining pedagogik etikasi va ijtimoiy imidji. Toshkent: O‘qituvchi.

Daminov, F. (2020). Innovatsion pedagogik texnologiyalar va o‘qituvchining imidjini shakllantirish. Toshkent: Fan va texnologiya.

Murodov, T. (2021). O‘qituvchining ijtimoiy imidjini rivojlantirishdagi metodik yondoshuvlar. Toshkent: Pedagogika.

Isakov, R. (2020). O‘qituvchining professional va shaxsiy imidjini shakllantirishda etik yondoshuvlar. Toshkent: O‘zbek universiteti.

Zohidov, M. (2021). Pedagogik innovatsiyalar va ta’limdagi o‘qituvchining rolini rivojlantirish. Toshkent: Ta’lim tizimi.

Rasulov, A. (2022). O‘qituvchining professional imidji va uning ta’limdagi ahamiyati. Toshkent: Xalq ta’limi va pedagogika.

Mirkhanov, B. (2018). O‘qituvchi va jamiyat: O‘qituvchining ijtimoiy mas’uliyati. Toshkent: Ta’lim.

Turaeva, G. (2020). O‘qituvchining shaxsiy va professional rivojlanishi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti.

THE VIRTUAL CLASSROOM EFFECT: ONLINE EDUCATION AND STUDENT LEARNING OUTCOMES

Umida Shakarova Qaxramon qizi
Public correspondent of
"Yangi hayot" social-political, legal newspaper

Annotation: The widespread adoption of online learning during the COVID-19 pandemic has had a profound impact on the activities, psychological well-being, and behavioral patterns of adult learners. This shift towards technology-based learning has become increasingly prevalent in higher education institutions. The implications of this transition are significant and far-reaching, affecting a diverse range of individuals within the adult learner demographic. As we continue to navigate these changes, it is crucial to understand and address the multifaceted effects of this educational transformation.

This study aims to examine the impact of integrating virtual classes with collaborative learning approaches on student engagement and the associated challenges encountered in online learning, and their collective effect on learning outcomes. The aim is to provide a comprehensive analysis of the potential benefits and drawbacks of this educational approach, shedding light on its influence on student learning outcomes. Moreover, this article compares the data on students' achievements acquired through learning in virtual classrooms and in-person teaching.

Keyword: Virtual classrooms, Covid-19 pandemic, self-paced learning, flexibility, face-to-face interaction, academic achievements, in-person teaching.

VIRTUAL SINF TA'SIRI: ONLAYN TA'LIM VA TALABALARNING O'QUV NATIJALARI

Umida Shakarova Qahramon qizi
"Yangi hayot" ijtimoiy-siyosiy va huquqiy gazetasining jamoatchi muxbiri

Annotatsiya: COVID-19 pandemiyasi davrida onlayn ta'limning keng qo'llanilishi balog'atga yetgan o'quvchilarning faoliyati, psixologik holati va xulq-atvoriga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Texnologiyaga asoslangan ta'limga bu o'tish oliy ta'lim muassasalarida tobora keng tarqalmoqda. Uning oqibatlari muhim va keng qamrovli bo'lib, balog'atga yetgan o'quvchi demografiyasining turli guruhlariga ta'sir etmoqda. Ushbu o'zgarishlar davom etar ekan, ushbu ta'limiy transformatsiyaning ko'p qirrali ta'sirini tushunish va hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot virtual darslarni hamkorlikda o'qitish yondashuvlari bilan integratsiya qilishning talabalar faolligiga ta'siri, shuningdek, onlayn ta'lim jarayonida uchraydigan muammolar va ularning o'quv natijalariga qo'shma ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Maqsad – ushbu ta'limiy yondashuvning afzalliklari va kamchiliklarini atroficha tahlil qilish hamda uning o'quv yutuqlariga ta'sirini yoritishdir. Bundan tashqari, maqolada virtual sinf xonalarida va an'anaviy auditoriyalarda o'quvchilarning erishgan natijalari taqqoslanib, har ikkala usulning nisbiy samaradorligi bo'yicha xulosalar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: Virtual sinfxonalar, Covid-19 pandemiyasi, Mustaqil tezlikda o'qish, Moslashuvchanlik, Yuzma-yuz muloqot, Akademik yutuqlar, An'anaviy ta'lim.

ЭФФЕКТ ВИРТУАЛЬНОГО КЛАССА: ОНЛАЙН-ОБУЧЕНИЕ И УЧЕБНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ СТУДЕНТОВ

Шакарова Умида Кахрамон кизи
Общественный корреспондент
социально-политической и правовой газеты «Янги хаёт»

Аннотация: Широкое внедрение онлайн-обучения в период пандемии COVID-19 оказало глубокое влияние на деятельность, психологическое состояние и поведенческие модели взрослых обучающихся. Этот переход к технологиям обучения становится всё более распространённым в учреждениях высшего образования. Последствия данного процесса значительны и многообразны, затрагивая широкий круг представителей взрослой аудитории. По мере того как эти изменения продолжают развиваться, крайне важно понимать и учитывать многоаспектные эффекты этой образовательной трансформации.

Данное исследование направлено на изучение влияния интеграции виртуальных занятий с подходами к совместному обучению на вовлечённость студентов, а также связанных с онлайн-образованием трудностей и их совокупного воздействия на результаты обучения. Цель работы заключается в предоставлении всестороннего анализа потенциальных преимуществ и недостатков этого образовательного подхода с акцентом на его влияние на академическую успеваемость. Кроме того, в статье проводится сравнение данных об успеваемости студентов, обучающихся в виртуальных классах, с результатами, достигнутыми в условиях традиционного очного обучения.

Ключевые слова: Виртуальные классы, Пандемия Covid-19, Обучение в собственном темпе, Гибкость, Очное взаимодействие, Академические достижения, Очное обучение.

Introduction: At the beginning of 2020, the world faced a major challenge with the outbreak of the coronavirus (COVID-19), which quickly spread to almost every country around the globe. The virus was first identified in Wuhan, Hubei Province, at the end of 2019, and its impact has been significant. While this was not the first global crisis to be experienced, the COVID-19 pandemic has had far-reaching effects, particularly in the education sector. To prevent the spread of the virus, governments at central and regional levels have implemented policies to temporarily close all educational institutions [1]. As a result, online or virtual learning has become the norm, with educational institutions transitioning to virtual classrooms to ensure continuity in learning while minimizing the risk of COVID-19 transmission. In response to the need for effective online learning, teachers and professors have had to adapt by designing online learning materials and utilizing virtual learning processes [2]. This has involved the implementation of virtual classes using platforms such as Google Classroom, WhatsApp, and Zoom meetings. Even as the global health situation has improved and in-person learning has resumed, the virtual learning model continues to be maintained after three years of implementing distance learning due to lockdowns [3]. This steady continuation of virtual learning reflects the ongoing commitment to ensuring the safety and well-being of students and educators while providing uninterrupted access to education. As we navigate the ongoing challenges posed by the COVID-19 pandemic, it is essential for everyone to stay informed and adaptable in order to support the continued success of virtual learning initiatives.

In this context, the incorporation of innovative educational technologies is widely recognized as a significant factor impacting various aspects of the educational system. These include improved teaching efficiency, enhanced teaching strategies, greater student engagement, and increased commitment to learning [4].

Lari’s research emphasizes that the integration of technology into the teaching and learning process not only enhances attentiveness during learning but also cultivates students’ motivation to explore the subject matter in greater depth [5]. This underscores the potential of technology to positively influence the learning experience and outcomes for students. Building on this perspective, online learning offers several advantages, such as flexibility in time and location, accessibility of diverse learning resources,

opportunities for personalized learning, and the development of digital competencies that are essential in the 21st century.

Benefits of virtual classrooms

Self-paced learning

The benefits of online learning are numerous. One of the key advantages is the ability for individuals to engage in self-paced learning while also having access to high levels of interactivity. This combination can greatly enhance memory retention and overall understanding of the material being presented. Additionally, online learning offers a more diverse educational experience as it incorporates various mediums such as text, audio, video, and animations to convey information. This not only caters to different learning styles but also provides a more engaging and immersive learning environment.

Furthermore, online platforms facilitate easy and efficient delivery of information, allowing for quick content updates and downloads. Students also have the opportunity to interact with each other through features such as email, discussion forms, chat rooms, and video conference links, enabling direct communication and collaboration.

Flexibility

Virtual classes offer the flexibility to be conducted from any location and at any time, providing students with the opportunity to review learning materials independently. Platforms such as Google Classroom allow teachers to share resources that students can access whenever they require additional enrichment [6]. This flexibility in scheduling and access enables a more customized learning experience for all individuals.

Interaction opportunities

Online education provides students with increased opportunities for interaction. This is especially beneficial for introverted students who may feel too timid to ask questions in a traditional classroom setting. When given the option to engage through asynchronous or private channels means such as email, these students often feel more comfortable and are more likely to participate [7].

Wider reach

Online education offers a myriad of benefits that contribute to the balance of educational disparities between different age groups. It also serves to expand educational access geographically, making it possible for individuals from all corners of the world to pursue learning opportunities. The online platform allows for the provision of education to large audiences, while also enabling individuals to seamlessly combine their educational pursuits with work or family life. Moreover, it plays a significant role in fostering the development of students' self-motivation, self-discipline, and critical thinking skills. The flexibility of online education empowers students to learn at their own pace, ultimately resulting in the improvement of their technical skills [8].

Limitations of online education

Distractions and low self-discipline

Online education also necessitates strong self-motivation and effective time management skills [9]. The lack of self-motivation among students continues to be a primary obstacle leading

to incomplete online courses. Therefore, developing a sense of discipline and self-motivation is crucial for success in online learning.

Lack of face-to-face interaction

In traditional classrooms, numerous factors actively guide students towards their learning objectives. Direct interaction with professors, collaborative activities with peers, and structured timetables collectively steer students back on track throughout their academic journey. The immediacy of feedback is a significant advantage in traditional education. In face-to-face settings, instructors can promptly provide personalized feedback to students. This enables students to address any learning difficulties swiftly and directly, either in class or during dedicated study sessions. Personalized feedback plays a pivotal role in facilitating the learning process, enriching the educational experience, and imbuing it with greater significance, thereby bolstering students' motivation levels [10]. In contrast, online education has limitation in providing instant feedback.

Isolation and mental health concerns

Many students and teachers who dedicate a significant amount of their time to online activities may find themselves vulnerable to social isolation as a result of limited human interaction. This social isolation, compounded by a lack of communication, can contribute to the development of various mental health issues, including heightened stress, anxiety, and negative thought patterns. It is important to recognize the potential consequences of prolonged online engagement and to prioritize flexibility in finding a balance that includes meaningful in-person interactions.

Academic achievements: in-person vs online learning

The rapid integration of technology in education has been primarily driven by its emphasis on student performance [11]. Over the past decade, several studies have compared student academic achievement in online and in-person settings. This section provides a brief overview of the difference in academic achievement between college students engaged in in-person and online learning, as identified in existing research.

Several studies have indicated that traditional in-person education generally yields better academic outcomes compared to online learning. For instance, Kaupp's [12] research on California community colleges found that students in online programs experienced lower completion and success rates in comparison to their counterparts in traditional in-person classes. In addition, in a comprehensive study by Fischer et al. [2020], which involved 72000 university students across 433 subjects, it was revealed that online students generally achieve slightly lower academic results compared to their in-class counterparts. This suggests that while online learning offers flexibility, it may also present challenges that impact academic performance.

In contrast, alternative research demonstrates that online students surpass their in-person counterparts. For instance, Iglesias-Pradas et al. [13] conducted a comparative analysis of 43 bachelor courses at Telecommunication Engineering College in Malaysia, revealing that online students achieved superior academic outcomes compared to their in-person peers. This evidence highlights the potential for online learning to provide greater flexibility and opportunities for academic success.

In-depth exploration of this subject reveals that the comparison of academic performance between online and in-person students has yielded varied findings across several studies. These investigations have highlighted the influence of a range of student and instructor factors on the outcomes. For instance, Chesser et al. [2020] observed that student traits such as conscientiousness, agreeableness, and extraversion significantly impact academic success, regardless of the learning environment. This implies that these traits are equally influential in traditional in-person classrooms as they are in online settings.



Comparison of Final Exam Results for the Five Courses Mandatory Freshman Courses in King Saud University by Year (2020 and 2021). The figure compares student achievement in the final tests in the five courses by year, using independent-samples t-tests; the results show a statistically, significantly drop in test scores from 2020 (in person) to 2021 (online) for all courses except CT_101.

Conclusion: In conclusion, the COVID-19 pandemic has necessitated the widespread adoption of distance teaching as an effective measure to prevent the spread of the virus. While public health conditions have improved in the subsequent years, the demand for online education has continued to rise due to its inherent flexibility, accessibility, and interactive opportunities. It is important to acknowledge that virtual teaching offers both advantages and drawbacks, including issues such as low self-discipline, isolation, and the lack of face-to-face interaction. However, with adequate technical support and strong cooperation between lecturers and students, these challenges can be successfully overcome.

Overall, the evolution of distance teaching has underscored its significance in the education landscape. As we navigate the evolving digital future, it is evident that online education will remain an integral part of the learning experience, offering a valuable complement to traditional in-person instruction.

Reference:

Onyema, E. M., Eucheria, N. C., Obafemi, F. A., Sen, S., Atonye, F. G., Sharma, A., & Alsayed, A. O. (2020). Impact of Coronavirus pandemic on education. Journal of Education and Practice, 11(13), 108–121

Yumnah, S. (2021). E-Learning Based Islamic Religious Education of Learning Media: Alternative Solutions for Online Learning During Covid-19. Nazhruna: Jurnal Pendidikan Islam, 4(2), 249–260

Nashir, M., & Laili, R. N. (2021). English teachers' perception toward the switch from offline to online teaching during lockdown in the midst of COVID-19 outbreak. Edukatif: Jurnal Ilmu Pendidikan, 3(2), 250–260

Permatasari, I., Hidayat, D., & Ahmad, Y., (2022). The impact of information and technology in education. INTERACTION: Journal Pendidikan Bahasa, 9(2), 418-423. https://doi.org/10.36232/jurnalpendidikanbahasa.v9i2.2917

Lari, F., (2014). The impact of using power point presentations on students' learning and motivation in secondary schools. Procedia Social and Behavioral Sciences, 98 (pp. 1672-1677).

Reflianto, S. (2021). P., Kuswandi, D., & Widiati, U. 2021. Reading comprehension skills: The effect of online flipped classroom learning and student engagement during the COVID-19 pandemic. European Journal of Educational Research, 10(4), 1613–1624

Faulconer, E. K., Griffith, J., Wood, B., Acharyya, S., & Roberts, D. (2018). A comparison of online, video synchronous, and traditional learning modes for an introductory undergraduate physics course. Journal of Science Education and Technology, 27(5), 404–411. doi:10.1007/s10956-018-9732-6

Allen, M., Bourhis, J., Burrell, N., & Mabry, E. (2002). Comparing student satisfaction with distance education to traditional classrooms in higher education: A meta-analysis. American Journal of Distance Education, 16(2), 83–97. doi:10.1207/S15389286AJDE1602_3

Mizrak, F., & Culduz, M. (2023). Application of Analytic Hierarchy Process (AHP) in Evaluating Educational Leadership Theories for Effective School Management. Avrasya Sosyal ve Ekonomi Araştırmaları Dergisi, 10(4), 137–164.

Afrouz, R., & Crisp, B. R. (2021). Online education in social work, effectiveness, benefits, and challenges: A scoping review. Australian Social Work, 74(1), 55–67. doi:10.1080/0312407X.2020.1808030

Lai JW, Bower M (2019) How is the use of technology in education evaluated? Asystematic review. Comput Educ 133:27–42

Kaupp R (2012) Online penalty: the impact of online instruction on the Latino-White achievement gap. J Appli Res Community Call 19(2):3-11 https://doi.org/10.46569/10211.3/99362

Iglesias-Pradas S, Hernández-García Á, Chaparro-Peláez J, Prieto JL (2021) Emergency remote teaching and students’ academic performance in higher education during the COVID-19 pandemic: a case study. Comput HumBehav 119:106713. https://doi.org/10.1016/j.chb.2021.106713

KELAJAK TA’LIMIDA INTERFAOL YONDASHUVLAR, YANGI PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Shokirova Dilnoza Olimjon qizi
Qarshi davlat texnika universiteti, “Oziq-ovqat muhandisligi texnologiyalari kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchilarning innovatsion faoliyati va kelgusi avlodlarga jamiyat talablari asosida bilim berishda interfaol usullardan samarali foydalanish masalalari muhokama qilinadi. O‘quvchilar bilimini mustahkamlash, fanlarga qiziqishini oshirish, ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va yangi pedagogik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi.

Bundan tashqari, darsni o‘tkazishda didaktik vazifalarga mos keladigan usullarni tanlash va darslarda qo‘llaniladigan rolli o‘yinlar, ishbilarmonlik o‘yinlari, bahs-munozaralar, talabalarning ma’ruzalari hamda taqdimotlari, ma’ruzalar, dialoglar, reninglar, hamkorlikda kognitiv o‘qish, taqlid qilish texnikasi kabi usullar yuqori faollikni rivojlantirishning usulining ko‘rsatkichlari ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion ta’lim, interfaol usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o’qituvchisining innovatsion faoliyati, o’quvchilarning faolligi, zamonaviy dars, ta’lim, tanqidiy fikrlash va boshqalar.

ВАЖНОСТЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ ПОДХОДОВ, НОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ БУДУЩЕГО

Шокирова Дилноза Олимджон кизи
Каршинский государственный технический университет, «Технологии пищевой инженерии старший преподаватель кафедры

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы инновационной деятельности педагогов в современной системе образования и эффективного использования интерактивных методов в передаче знаний будущим поколениям на основе требований общества. Анализируется значение информационно-коммуникационных технологий и новых педагогических подходов в укреплении знаний учащихся, повышении их интереса к предметам, развитии способности к творческому и самостоятельному мышлению.

Кроме того, в основе проведения урока лежит выбор методов, соответствующих дидактическим задачам, и использование на уроках таких методов, как сюжетно-ролевые игры, деловые игры, дискуссии, лекции и презентации учащихся, лекции, диалоги, рендеринг, совместное познавательное чтение, техника подражания, являются показателями метода развития высокой активности.

Ключевые слова: инновационное обучение, интерактивные методы, инновационная деятельность учителя ИКТ, активность учащихся, современный урок, воспитание, критическое мышление.

THE IMPORTANCE OF INTERACTIVE APPROACHES, NEW PEDAGOGICAL APPROACHES AND INFORMATION TECHNOLOGIES IN FUTURE EDUCATION

Shokirova Dilnoza Olimjon qizi
Karshi State Technical University,
Senior Lecturer, Department of “Food Engineering Technologies”

Annotation: This article discusses the issues of innovative activity of teachers in the modern education system and the effective use of interactive methods in providing knowledge to future generations based on the requirements of society. The importance of information and communication technologies and new pedagogical approaches in consolidating students’ knowledge, increasing their interest in subjects, and developing their creative and independent thinking skills is analyzed.

In addition, it is based on the fact that the selection of methods that correspond to didactic tasks when conducting a lesson and the use of such methods as role-playing games, business games, debates, student lectures and presentations, lectures, dialogues, trainings, cooperative cognitive reading, imitation techniques are indicators of the method of developing high activity.

Keywords: Innovative education, interactive methods, innovative activity of the teacher of information and communication technologies, student activity, modern lesson, education, critical thinking.

Kirish. O‘qituvchilarning kelajak avlodga jamiyat talablari asosida ta’lim-tarbiya berish, ularning har tomonlama bilimini oshirish borasidagi innovatsion faoliyati bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Binobarin, navqiron avlodni yuksak bilim va ko‘nikma bilan qurollantirishga xizmat qiladigan yangi ta’lim mazmunini yaratish ta’lim tizimidagi dolzarb masalalardan biridir. O‘qituvchilar rahbarligida o‘quvchilar nafaqat bilim olishlari, balki uni istalgan vaqtda o‘z hayotida samarali qo‘llay olishlari kerak. Hozirgi vaqtda turli xil o’qitish usullarini qo’llash orqali o’qitishning maqsadli natijalariga erishish mumkin. O‘qituvchining dars oldidan asosiy maqsadi o‘quvchilarning fanga qiziqishini uyg‘otadigan sifatli, mustahkam bilim berishdir.

O‘qituvchi doimiy izlanish orqaligina bunga erishishi aniq. O‘quvchilarni zeriktirmaslik, qiziqishlarini oshirish uchun darslarni turli usullarda olib borishga jiddiy e’tibor qaratish zarur. Turli metod va yondashuvlardan unumli foydalanish o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishi mumkin. Har bir texnologiya talabalarni o’ziga xos yangi usul va yondashuvlar bilan o’ziga jalb qiladi. Bu metodlar o`qituvchi tomonidan olib boriladigan tadqiqot ishlari orqali takomillashtiriladi va rivojlantiriladi. Qiziqarli dars o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va o‘qituvchi metodikasi orqali ular qalbidan joy oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Bugungi kunda nafaqat shaxsni, balki uning rivojlanish jarayonini ham boshqarish zarurati tobora oydinlashib bormoqda. Bu o’qituvchi faoliyatida bilvosita pedagogik ta’sirga ustunlik berishni anglatadi: to’g’ridan-to’g’ri usullar, shiorlar va murojaatlardan voz kechiladi, haddan tashqari didaktiklik cheklangan; o‘rniga dialogik usullar, real yechimlarni birgalikda izlash, zamonaviy ta’lim sharoitlarini yaratish turli ijodiy faoliyatni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda[3,1601].

Axborot texnologiyalari yordamida o‘tkaziladigan darslarda o‘quvchilar o‘qituvchi bilan birga faol va erkin fikr bildira oladilar. Axborot texnologiyalarini darsga joriy etish orqali darsning faolligini oshirish, ularning ijodiy g‘oyalarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish, darslarni tez va samarali o‘tkazish, mustaqil ish hajmini oshirish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi: AKTdan foydalangan holda turli darslar uchun taqdimotlar tayyorlash va interfaol doska imkoniyatlaridan mohirona foydalanish orqali darslar yanada jozibali va qiziqarli bo‘lib, o‘quvchilar faolligini oshirishi mumkin. Har bir darsda o’qituvchi internet, elektron pochta, elektron darsliklar va global axborot tizimlaridan foydalanishi kerak. Interfaol usullarning asosiy xususiyati ishtirokchilarning o’zaro ta’siri, hissiy va ma’naviy birlikdir. Interfaol usullardan foydalanganda talabalar tushunish jarayonining to’laqonli ishtirokchisiga aylanadilar va ularning

tajribalari bilim olishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi tayyor bilim bermaydi, balki o'quvchilarga ma'lumotni o'zlari qidirishni o'rgatadi. An'anaviy ta'lim shakllariga nisbatan interfaol ta'lim o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartiradi: o'qituvchining darsdagi faolligi pasayadi, o'quvchining mustaqil ravishda topshiriqlarni bajarishda tashabbuskor bo'lishi uchun sharoit yaratiladi.

Ta'lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biri o'quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikasion texnologiyalarni, shu jumladan multimediyali o'quv kurslarini qo'llash, o'qituvchi va o'quvchining interfaol o'zaro aloqalarini ta'minlash, multimediali o'quv kurslari va darsliklarini ishlab chiqishda yuqori malakali kadrlarni jalb etishdan iborat bo'ladi. Multimedia axborotlarni har xil ko'rinishlarda tasvirlash va dinamik obrazlarini yaratish, uni ko'rish va eshitish organlari orqali qabul qilish va tasavvur etish imkoniyatlarini yaratadi.

Tahlil va natijalar: Multimedia texnologiyalarida an'anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko'rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko'rinishida ifodalanilishi o'quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziquvchan bo'lishga o'rgatadi, chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiroki va harakati orqali amalga oshiriladi. Ta'lim tizimida multimedia texnologiyalari nazariy, amaliy, ko'rgazmali, ma'lumotli, trenajyorli va nazorat qismlarini birlashtirish yo'li bilan o'quvchilarga ijobiy va samarali ta'sir etuvchi vosita hisoblanadi. Bundan tashqari ta'lim tizimida multimediali o'quv kurslaridan foydalanish nazariy materiallarning namoyishlarini sifatli video yozuvlari, virtual laboratoriya ishlari va amaliyotlarni, turli jarayonlarning imitasion animasiyali modellarini yaratish imkonini beradi, bu uchun o'quvchilarning o'quv sinflari, kompyuter sinflari, o'qitishning texnik vositalari xonasida, uslubiy xonalarda, kutubxonalarda amaliy shug'ullanishlarini tashkillashtirish lozim bo'ladi[4,32].

Ta'lim tizimida foydalaniladigan barcha multimediali o'quv kurslari amaliy tadbiqdan va tajribadan o'tgan bo'lishi bilan birga, o'ziga xos pedagogikpsixologik xususiyatlarga ham ega bo'lishi kerak. Multimediali o'quv kurslarining pedagogik-psixologik xususiyatlari bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun foydalaniladigan o'quv materiallarining tasvirlanish hamda ifodalanish formasiga va ko'rinishiga bog'liq bo'ladi. Ular faqatgina misol va masalalar yechish, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish jarayonidagina emas, balki butun o'quv jarayonida o'quvchilarni bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Ta'lim tizimida yaratilayotgan multimedia o'quv kurslarining asosiy xususiyatlaridan biri, shu mavzuni o'rganishning ma'lum bir nozik jihatlari bilan aniqlanadi, ular esa o'z navbatida katta sondagi ko'rgazmali materiallarni talab qiladi, chunki ularning ishtirokisiz jonli dunyoning turli tumanligini, uni qurishni zarurligini, biologik, ximik va fizika jarayonlarning hosil bo'lish mexanizmini va rivojlanishini to'liq namoyish qilib bo'lmaydi.

Darsni o'tkazishda didaktik vazifalarga mos keladigan usullarni tanlash juda muhimdir. Darslarda qo'llaniladigan rolli o'yinlar, ishbilarmonlik o'yinlari, bahs-munozaralar, talabalarning ma'ruzalari va taqdimotlari, ma'ruzalar, dialoglar, reninglar, hamkorlikda kognitiv o'qish, taqlid qilish texnikasi kabi usullar yuqori faollikni rivojlantirishning ushbu usulining ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Ko'p interaktiv usullar mavjud. Darslarimda foydalanadigan usullarga e'tibor qaratadigan bo'lsak:

- Juftlikda ishlash
- Davralar
- Kichik guruhlarda ishlash
- Akvarium usuli
- Aqliy hujum
- Hisoblash daraxtlari
- Mavqeni egallash
- Debatlar va boshqalar.

Yangi darsni tushuntirishda mazmunni tayyor shaklda bermaslikka harakat qilamiz. Biz talabalarning bilim qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beramiz va yangi mavzular bo’yicha ta’riflar va qoidalarni shakllantirishga yordam beramiz. Buning uchun darsda o’qitishning interfaol shakllaridan foydalanamiz. Bularga quyidagilar kiradi:

- Ijodiy vazifalar va loyihalar
- Blok sxemalar, identifikatsiya, diagrammalar, xaritalar
- Yordamchi jadvallar, ko‘rgazmali qo‘llanmalar va axborot vositalari
- O’yinlar orqali o’rganish
- Og’zaki boshqotirmalar va rebuslar
- Mantiqiy vazifalar
- Testlar va baholashlar va boshqalar.

“Aqliy hujum” har qanday o‘quvchiga berilgan savolga javob berishga imkon beruvchi usuldir. Muhimi, fikrlarni darhol baholamaslik; hamma narsa qabul qilinishi kerak va har bir fikrni doska yoki qog’ozga yozib qo’ygan ma’qul. Ishtirokchilar o’z javoblarini asoslash yoki tushuntirish talab qilinmasligini tushunishlari kerak. Fanni o`qitishda “Aqliy hujum” usulining ahamiyati katta. Bu metodni qo‘llash o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ijodkorligini rivojlantiradi, o‘zaro munosabat darajasini oshiradi[7,22].

«Doira» deb nomlangan usul talabalar orasida juda mashhur:

Ikki doira yaratiladi, ichki va tashqi doira. Ichki davra o‘tirgan o‘quvchilardan iborat bo‘lsa, tashqi davradagi o‘quvchilar navbat bilan ichki davradagilarga savol beradilar. Ushbu usul muammolarni muhokama qilish uchun qulaydir. Misol uchun, bu o’rnatishda tashqi doira savollar beradi va ichki davradagi o’quvchilar javoblarini daftarlarida ko’rsatgan holda javob berishadi. Bu usul har bir talaba mavzuni qanchalik yaxshi o‘zlashtirganini yaqqol ko‘rsatib beradi.

Shuningdek, darsimizda “Akvarium” usulidan ham tez-tez foydalanamiz, bu esa o‘quvchilardan matndan olgan bilimlarini umumlashtirish, amaliyot bilan bog‘lash va asoslab berishni talab qiladi. Talabalar berilgan baliq skeleti asosida muammolarning sabablarini aniqlaydilar, dalillar keltiradilar va xulosalar chiqaradilar. Masalan, o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha muammo va uning yechimlarini aniqlash bo‘yicha topshiriqlar beriladi. Ular o’z fikrlarini kundalik hayot bilan bog’laydilar va har tomonlama javob beradilar[9,110].

Xulosa va takliflar: Darslarda “Bilaman, bilmoqchiman” strategiyasidan foydalanish juda muhimdir. Jumladan, dars boshida jadvalning “Bilaman” bo‘limiga oldingi jadval bo‘yicha o‘zlari bilganlarini yozadilar, “O‘rgandim” bo‘limiga o‘rganganlarini qayd etadilar, “Bilmoqchiman” bo‘limiga esa kelajakda o‘rganmoqchi bo‘lgan savollarni yozadilar. Amaliy darslarda “Mantiqiy topshiriqlar” usulidan foydalanish mumkin. Qog’ozga yozilgan turli topshiriqlar qutichaga joylashtiriladi. Talabalar kompyuterda olgan topshiriqlarini bajaradilar. Darsning yangi mavzu bo‘limini tushunishda “Uchlik almashish” usulidan foydalanish samaralidir. Bu topshiriq kichik guruhlarda bajariladi va talabalar hamkorlikda ishlaydi. U o’quv materiallarini samarali o’rganishga moslashadi.

ADABIYOTLAR

1. Andreeva.G.M Sotsialnaya psixologiya segodnya: poiski i razmyshleniya. M., 2009 yil.
2. Verderber.R, Verderber.K. Psixologiyaobshcheniya. – SPb.:praym-YeVROZNAK, 2003 yil
3. Turdiyev S.R. Nazariy bilimlarni fandan amaliyotga yo’naltirishning didaktik tamoyillari // ACADEMICIA: Xalqaro ko’p tarmoqli tadqiqot jurnali. – 2021. – T. 11. – №. 10. – S. 1597-1601 yillar.
4. Turdiev, Sh.R. (2019). Ta’lim jarayonini tizimli ishlab chiqarish asosida pedagogik texnologiyadan shakl holda tashkil. Sovremennoe obrazovanie (O’zbekiston), (12 (85)), 31-36.
5. Turdiyev, SH.R. «MODELLAR XARAKTERI VA MODELLASHTIRISH JARAYONLARINING TARKIBIY QISMLARI.» E konferentsiya zonasi. 2022.
6. Razzoqovich, T.S., & O‘ktamovich, S. A. (2021). GOOGLE’NING BULUT XIZMATLARI FOYDALANISHDA TA’LIM JARAYONI VA AXBOROT TA’LIM MAYOSINI TAKMONLASH Ko’p tarmoqli tadqiqot va innovatsiyalar bo’yicha xalqaro konferensiya.
7. Turdiev Sh.R., Keldiyarova M.G. Organizatsiya v protsesse obucheniya uchebno-issledovatelskoy raboty studentov //Vestnik nauki i obrazovaniya. – 2020. – №. 5-2 (83). – S. 21-25.
8. Muslimov N.A., Usmonboeva M.X., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari/ Darslik – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.
9. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Interfaol metodlar: Z. va qo‘llanma / Metik qo‘llanma. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.

O‘QUV JARAYONINI AKT NEGIZIDA O‘QITISHNING USLUBIY TIZIMIDAN FOYDALANISH

Shukurov Akmal Uktamovich,
Qarshi davlat texnika universiteti, “Axborot tizimlari va texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalariga AKTdan foydalangan holda tayanch o‘quv fanlarini o‘qitishning metodik tizimini shakllantirish bo‘yicha loyihaviy-axborot yondashuvining nazariy jihatlari usul sifatida asoslab berilgan. Loyihalash talabalarga fundamental bilimlarning hayot va ta’limdagi rolini tushunishga yordam beradi – bilim o‘z-o‘zidan maqsad bo‘lishni to‘xtatadi, lekin haqiqiy ta’lim vositasiga aylanadi. Bunday o‘qitish oxirida talabalar uzluksiz ta’limning tegishli shaklini tanlashga tayyor bo‘lishadi.

Kalit so‘zlar: texnika, oliy ta’lim, o‘qituvchi, talaba, AKT, loyiha, yondoshuv, metod, uslub, tizim, axborot, loyihalash, bilim, tarmoq, komponent.

ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ТЕХУНИВЕРСИТЕТА В УСЛОВИЯХ ПРОЕКТНО-ИНФОРМАЦИОННОГО ПОДХОДА

Shukurov Akmal Uktamovich,
Кандидат педагогических наук, доцент кафедры информационных систем и технологий Каршинского государственного технического университета.

Абстрактный: В качестве метода обоснованы теоретические аспекты проектно-информационного подхода к формированию методической системы обучения студентов технических вузов базовым учебным дисциплинам с использованием ИКТ. Проектирование помогает студентам понять роль фундаментальных знаний в жизни и образовании - знания перестают быть самоцелью, но становятся настоящим средством обучения. В конце такого обучения студенты будут готовы выбрать соответствующую форму непрерывного образования.

Ключевые слова: техника, высшее образование, преподаватель, студент, ИКТ, проект, подход, метод, метод, система, информация, проектирование, знание, сеть, компонент.

PRINCIPLES OF FORMING A METHODOLOGICAL SYSTEM OF TEACHING TECHNICAL UNIVERSITY STUDENTS IN THE CONDITIONS OF A PROJECT-INFORMATION APPROACH

Shukurov Akmal Uktamovich,
PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor at the Department of Information Systems and Technologies, Karshi State Technical University.

Abstract: Theoretical aspects of the project-information approach to the formation of a methodological system for teaching basic subjects to students of technical universities using ICT are substantiated as a method. Design helps students understand the role of fundamental knowledge in life and education - knowledge ceases to be a goal in itself, but becomes a real means of learning. By the end of such training, students are ready to choose the appropriate form of continuing education.

Key words: technology, higher education, teacher, student, ICT, project, approach, method, style, system, information, design, knowledge, network, component.

KIRISH. Texnik oliy ta’lim muassasa (OTM) larda axborot o‘zaro ta’sirining asosiy faol

(teskari aloqa nuqtai nazaridan) ishtirokchilari bo‘lib o‘qituvchi va talaba hisoblanadi.

An’anaviy o‘qitish vositalari, interaktivlikka ega bo‘lmay, talabalar yoki o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan ma’lum o‘quv va o‘quv-uslubiy ma’lumotlar manbai bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, ular muayyan uslubiy va tashkiliy funksiyalarni ham bajaradilar. Bunday o‘zaro ta’sirga misol sifatida ko‘rgazmali jadvallar, tarqatma materiallar, o‘quv va ko‘rgazmali materiallardan foydalangan holda ma’ruzalar, shuningdek, laboratoriya jihozlari, stendlar, asboblar va boshq. foydalangan holda amaliy mashg‘ulotlarni keltirish mumkin. Bunda barcha talabalar bir xil pedagogik ta’sir ostidagi obyektlar holatida bo‘lishadi.

Biroq, ko‘pincha bitta mutaxassislik bo‘yicha texnik OTM ga, odatda, sezilarli darajada farq qiladigan tabiiy-ilmiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan fizika-matematika, gumanitar fanlar ixtisoslikdagi va boshqa maktab va gimnaziyalarning abituriyentlari kirishadi. Birinchi kursda talabalarni ularning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olmagan holda tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha guruhlarga va katta guruhlarga ajratishadi; talabaning individual xususiyatlari hisobga olinmaydi, ular oddiy o‘quv guruhlarida “yo‘qotiladi”.

Shaxsiy-faoliyatli yondashuv sharoitida talaba pedagogik o‘zaro ta’sirning faol, o‘z faoliyatini mustaqil ravishda tashkil etuvchi subyekti sifatida qaraladi, shaxsning o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish sharti bo‘lib esa tajribani shakllantiradigan va shaxsiy o‘sishni ta’minlaydigan faoliyat hisoblanadi. Vigotskiy L.S. ta’kidlashicha, “jarayonning asosiga talabaning shaxsiy faoliyati qo‘yilishi kerak”. U biluv va kommunikativ faoliyatning muayyan kasbiy yo‘naltirilgan vazifalarni hal qilishga o‘ziga xos yo‘nalganlik bilan tavsiflanadi. “O‘qitish davomida olingan bilim, malaka va ko‘nikmalar endi o‘quv faoliyatining predmeti emas, balki kasbiy faoliyat vositalari sifatida harakat qiladi”[1,42].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI. Ta’limga shaxsiy-faoliyatli yondashuv I.A. Zimnyaya tomonidan o‘rganilgan. U shaxsiy-faoliyatli yondashuvning ikki tomonlama: pedagog nuqtai nazaridan va talaba nuqtai nazaridan yo‘nalganligi masalasini qo‘ydi.

Masalaning xuddi shunday qo‘yilishi boshqa mualliflarning (A.K. Markov, A.B. Orlov, I.S.Yakimanskaya va boshq.) ko‘p yillik tadqiqotlari natijalarida ham uchraydi. Ushbu mualliflarning ishlari, shuningdek, talabaning bir qator individual-psixologik xususiyatlarini alohida tashkil etishning shubhasiz ahamiyatini ko‘rsatadi: moslashuv, qobiliyatlar, kommunikativlik, intilish darajasi, o‘z-o‘zini baholash, kognitiv uslub va boshq[1-2, 46]

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ta’lim maqsadli bunday axborot o‘zaro ta’sir tuzilmasini subyekt (S) – obyekt (O) munosabatlar sxemasi yoki S-O grafigi sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Bu yerda (S) o‘qituvchi – subyekt sifatida, (O) esa talaba – o‘qitish obyekti sifatida bo‘ladi. Teskari aloqa faqat ta’limdagi o‘zaro ta’sirning ikki ishtirokchisi (o‘qituvchi va talaba) o‘rtasida mavjud bo‘ladi.

Ta’lim maqsadli axborot o‘zaro ta’sirining an’anaviy tuzilmasi 1-rasmda ko‘rsatilgan. Rasmdagi o‘qlar axborot o‘zaro ta’sirda axborot oqimi yo‘nalishini ko‘rsatadi.



1-rasm. Ta’lim maqsadli axborot o‘zaro ta’sirining an’anaviy tuzilmasi

Ta’lim maqsadlarida axborot o‘zaro ta’siri an’anaviy tizimining mazmuni konservativ tabiatga ega bo‘lib, FTT va soha rivojidagi ilg‘or g‘oyalarning o‘qitish mazmuniga ta’siri juda kam o‘zgartirib turiladigan mutaxassislik Davlat standarti orqali amalga oshiriladi. An’anaviy o‘quv vositalari (bosma darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar va hok.) mazmunini yangilash uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, ko‘pincha ancha muammoli bo‘ladi. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, fan muhiti va o‘quv qo‘llanmalari o‘rtasida zudlik bilan qayta aloqa bo‘lmasa, jamiyatning kelajak

sari harakatlanish jarayoni sekin kechadi. Ushbu paradigmada o‘qitish yaqqol ifodalangan predmet xarakterga ega; talabalarga dastlab matematika, fizika va mexanika kabi tabiiy fanlarni o‘rganish taklif etiladi. Biroq ulardan qayerda va qanday foydalanish mumkinligi va amalda qo‘llanilishi kerakligi haqida kam gapiriladi. Keyin talabalarga amaliy fanlar sifatida umumiy muhandislik va ixtisoslashtirilgan fanlar taklif etiladi, biroq ular ham asosan bilim darajasida, ulardan real vaziyatlarda ijodiy foydalanish uchun hech qanday maxsus talablarsiz beriladi. Shunday qilib, bitiruvchi uchun mustahkam bilim bazasi yaratilib, ularga ko‘p yillar davomida ishlash va tegishli sohalarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Muhandislik ta’limiga bunday yondashuvning kamchiliklari shundan iboratki, natijada bitiruvchi “ko‘p narsani bilishi mumkin, lekin ko‘p narsani qila olmaydi”. Ta’lim ijtimoiy faoliyat sohasi sifatida o‘z rivojlanishida inson faoliyatining boshqa shakllaridan, ayniqsa, ularning iqtisodiy faoliyatidan oldinda bo‘lishi kerak. Fan, eng avvalo, fundamental fan faqat bundan mustasno bo‘lishi kerak, u har doim “ta’lim salohiyati” ni amalga oshirishning asosiy manbai bo‘lib kelgan va bo‘ladi. Ilg‘or kasbiy ta’lim insonning bilim olishga tabiiy moyilligini rivojlantirishga va voqelikni konseptual tushunishdan amaliy ijtimoiy, boshqaruv, tashkiliy va texnologik muammolarni hal qilishga o‘tishga qaratilgan.

Talabaning bajargan o‘quv vazifasini himoya qilish bo‘yicha nazorat ishi L.V. Zankov tomonidan taklif qilingan “mini-maks” tamoyiliga asoslanib, u D.B. Elkonin tomonidan taklif qilingan rivojlantiruvchi ta’lim tizimiga – talabaning bilimlarning yuqori darajasi bo‘yicha nazorat vazifasini bajarishga tayyorligi, o‘qituvchining esa quyi daraja bo‘yicha nazorat qilishiga asoslanadi.

Bugungi kunda OTM larda shakllangan o‘qitish tizimida tarmoq (masalan, qurilish), fan-texnika (FTT) yutuqlari, fan muhiti, o‘qitish vositalari, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi axborot o‘zaro ta’sirini sxematik tarzda 2-rasmdagidek tasvirlash mumkin.

O‘qitish texnologiyasining kiritilgan elementlari bilan faol o‘zaro ta’sir quyidagi tizim komponentlari tomonidan amalga oshiriladi: tahsil oluvchi, tahsil beruvchi va axborot texnologiyalari asosida ishlaydigan o‘quv vositalari. [3-4, 8].

Talaba (O)	O‘qituvchi (S)	Davlat standarti	FTT
AKT asosidagi o‘qitish vositalari	Fan muhiti	Internet manbalari	Tarmoq

2-rasm. Axborot jamiyatida tarmoq, FTT yutuqlari va ta’lim o‘rtasidagi axborot o‘zaro ta’siri

Bunda talabalar tomonidan ham, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida ham, o‘qituvchi, talabalar va axborot texnologiyalarida ishlaydigan o‘quv vositasi o‘rtasida ham faol ishtirok etish (savollar berish, savollarga javob berish, o‘quv vositasi bilan ishlashning turli usullarini tanlash / taklif qilish, o‘qituvchi va talabaning harakatlarini sozlash) mumkin. Talaba nafaqat o‘quv ma’lumotlarining, balki ishlab chiqarish va ilmiy masalalarga oid ma’lumotlarning ham iste’molchisiga aylanadi. Ular, xuddi o‘qituvchi kabi, faqat mavjud o‘quv vositalaridan foydalanishga emas, balki ushbu vositalarni ishlab chiqishga ham e’tibor qaratadilar.

Bunday tizim har bir talabaga o‘zining ta’lim va kasbiy qobiliyatlariga eng mos keladigan o‘quv trayektoriyasini qurish imkonini beradi. Bu talabalarning ta’lim va kasbiy makonda ko‘p qirrali rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi. Bu ta’lim tizimida o‘z-o‘zini nazorat qilish va nazorat qilish hamda sifatni ta’minlash tamoyillari asosiy o‘rinni egallashi kerak.

Loyihaviy-axborot yondashuvi doirasida talaba mustaqil ravishda o‘quv axboroti iste’molchisiga, shuningdek, o‘qituvchi bilan birgalikda soha masalalari va ilmiy ishlanmalar bo‘yicha axborot iste’molchisiga aylanadi. Shu sababli, so‘nggi bir necha yil ichida biz professional hamjamiyatlarning jiddiy rezonans keltirib chiqaradigan voqealarga darhol munosabat bildirganiga guvoh bo‘ldik. AKT ga asoslangan ta’lim vositalarining paydo bo‘lishi bilan interfaol

ta’lim axborot almashish jarayonining bir qismiga aylanib bormoqda. Talabaning ta’lim jarayoni subyekti sifatida kasbiy muhim maqsadlarga erishish, izchil loyihalar orqali shaxsiy rivojlanish rejalarining qadriyatini tushunishi odatiy faoliyatni alohida turdagi loyihaga asoslangan faoliyat dasturlari tizimiga aylantirishga yordam berishi kerak (tabiiyki, bu o‘qituvchining malakali yordamini talab qiladi).

Ta’kidlash lozimki, loyihaviy faoliyat ko‘p jihatdan ta’limning yangi shakllarini ishlab chiqish bilan mos keladi. Birinchidan, loyihalashda talaba loyiha konsepsiyasidan kelib chiqib, kerakli ma’lumotlarni tanlab, uning zarurligini aniqlab, ta’lim jarayonining yetakchi subyektiga aylanadi. Ikkinchidan, loyihalash jarayonida tayyor, tizimlashtirilgan bilimlar mavjud emas. Ularni tizimlashtirish, tartibga solish va haqiqatni aniqlash talabaning o‘zi bajarishi kerak. Ular tayyor g‘oyalar va tushunchalarni o‘zlashtirmaydilar, balki turli xil kasbiy ma’lumotlar, bilimlar va tushunchalar asosida o‘zlarining loyihalarini tuzadilar, o‘quv muammosiga o‘zlarining yechimlarini topadilar[4, 3].

“Ta’lim maqsadli axborot o‘zaro ta’siri” va “o‘qitish” tushunchalariga asoslanib, biz AKT asosida amalga oshiriladigan o‘quv axborot o‘zaro ta’sirini talabalarda quyidagilarni shakllantirishga qaratilgan faoliyat sifatida belgilaymiz:

- axborot kommunikatsiyasi sharoitida bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, mustahkamlash va qo‘llash;
- o‘quv ma’lumotlarini izlashga o‘z-o‘zini rag‘batlantirish;
- texnik OTM larda fan muhitidan foydalangan holda o‘quv vazifalarini bajarish;
- o‘quv yutuqlarini mustaqil o‘z-o‘zini baholash.

Talaba va o‘qituvchining birgalikdagi faoliyati axborot jarayoni nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘lib, unda munosabatlarni tashkil etishning turli shakllari amalga oshirilishi mumkin. Ushbu yondashuvda o‘qituvchi nafaqat OTM da o‘quv dasturini amalga oshiradi, balki o‘quv va pedagogik ma’lumotlarni saqlaydi, tahlil qiladi va qayta ishlaydi, bu ularga talabalarning o‘quv faoliyatini boshqarishning turli bosqichlarida tegishli qarorlar qabul qilish va talaba faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini bilish asosida zarur pedagogik tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Shunday qilib, ko‘rib chiqilayotgan variantlarda nafaqat o‘qituvchi va talaba, balki o‘qituvchining funksiyalari qisman o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan axborot va / yoki kommunikatsiya texnologiyalari asosida amalga oshiriladigan o‘qitish vositalari ham faollikka ega bo‘ladi: o‘quv natijalarini nazorat qilish; talaba darajasiga mos topshiriqlar berish; malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga o‘rgatish; axborotni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va tarqatish; ta’lim faoliyatini boshqarish; aloqa jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash; bilimlarni mustaqil ravishda olish va taqdim etish uchun turli faoliyat shakllarini tashkil etish. Ta’lim maqsadlarida axborotning o‘zaro ta’siri, ta’kidlanganidek, didaktik jarayonning muhim jihatlarini o‘zgartirishga olib keladi. O‘qituvchi va talabaning faoliyati o‘zgartiriladi. Talaba katta hajmdagi xilma-xil ma’lumotlarni boshqarishi, uni birlashtirishi, uni qayta ishlashni avtomatlashtirish, jarayonlarni modellashtirish va muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi, o‘quv faoliyatida mustaqil bo‘lishi va boshq. O‘qituvchilar, shuningdek, odatiy vazifalardan ozod qilinadi va talabalarni baholash, ularning o‘rganish va rivojlanish dinamikasini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Axborot-kommunikatsiya fan muhitida sodir bo‘ladigan o‘quv axborotining o‘zaro ta’siri paradigmasining o‘zgarishini ta’kidlash kerak bo‘lib, u quyidagilar bilan shartlanadi:

- o‘qitish jarayonida faol ishtirok etuvchi o‘quv o‘zaro ta’sir tizimining yangi komponenti mavjudligi;
- kommunikativ va axborot amalga oshirishni rivojlantirish yo‘nalishida ushbu o‘zaro ta’sir tuzilmasining murakkablashishi;
- ta’limda mustaqillik va “ochiqlik”ning yuqori darajasini ta’minlash imkonini beradigan

yuqorida qayd etilgan o‘quv faoliyati turlarini tashkil eta olish.

Bu borada an’anaviy “subyekt-obyekt” (o‘qituvchi-talaba) o‘zaro ta’siri modelidan yangi “subyekt-obyekt-subyekt” (o‘qituvchi-o‘qishi vositalari-talaba) modeliga siljish sodir bo‘lmoqda.

Binobarin, loyihaviy-axborot yondashuvi doirasida talaba, o‘qituvchi va AKT va Internet asosida o‘quv vositalari o‘rtasida tezkor teskari aloqa paydo bo‘ladi. Bu talaba va o‘qituvchi tomonidan didaktik tarzda tashkil etilgan ta’lim muammolarini birgalikda shakllantirish va hal qilishda o‘qituvchi, talabalar va AKT va Internet resurslari asosidagi o‘quv vositalari o‘rtasida teng sheriklikdagi ta’lim hamkorligining subyekt-obyekt-subyekt (S-O-S) grafigini yaratadi. Axborot-kommunikatsiya vositalarining ta’limdagi o‘rni, shubhasiz, katta, ammo ta’lim jarayonida ulardan foydalanish samaradorligi ko‘pgina omillarga bog‘liq. Ularning asosiy vazifasi o‘qitishning maqsadlari va didaktik tamoyillarini yuqori darajada osonlashtirish va amalga oshirishdan iborat[5, 11].

TAHLIL VA NATIJALAR. Loyihaviy-axborot yondashuvi doirasida talaba, o‘qituvchi hamda AKT va Internet-resurs asosida faoliyat yurituvchi o‘quv vositalari o‘rtasida darhol teskari aloqa mavjud bo‘ladi. O‘qituvchining roli o‘zgaradi (ular talabalarning o‘quv faoliyatining individual trayektoriyalarini loyihalashga o‘tishlari mumkin), talabalarning roli o‘zgaradi: ular ma’lumotni qidirish, tanlash, uni qayta ishlash va uzatishning yanada murakkab yo‘liga o‘tadi. Boshqacha qilib aytganda, ta’lim vositalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishda o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida “teng” ta’lim hamkorligi paydo bo‘ladi (3-rasm)[5, 10].

<table>
<tr><td>Talaba (S)</td><td>O‘qituvchi (S)</td></tr>
<tr><td colspan="2">IKT asosidagi o‘qitish vositalari (O)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Internet-resurs</td></tr>
<tr><td>Tarmoq</td><td>Fan</td></tr>
</table>

3-rasm. Loyihaviy-axborot yondashuvi doirasida axborot o‘zaro ta’sir

XULOSA. Ko‘rib chiqilayotgan yondashuv doirasida subyekt-obyekt (o‘qituvchi - talaba) axborot o‘zaro ta’siri subyekt-obyekt-subyekt (o‘qituvchi - AKTga asoslangan o‘quv vositalari - talaba) o‘zaro ta’siri bilan almashtiriladi. Bunda o‘rganishda hamkorlik amalga oshiriladi, o‘quv vositalarini ishlab chiqishda va ulardan foydalanishda o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi ta’lim sohasidagi hamkorlik yuzaga keladi. AKT asosidagi multimediali o‘qitish vositalaridan foydalanish nuqtai nazaridan o‘quv jarayoni subyektlari o‘rtasidagi axborot o‘zaro ta’siri mahalliy va global tarmoqlarning interfaol resursi bilan belgilanib, ularning o‘quv-biluv axboroti talabalarning shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘quv-biluv, qidiruv-tahliliy, tadqiqot faoliyati, ularni o‘rganish va fizikaviy hodisalarni modellashtirish ta’lim loyihalarini birgalikda rejalashtirishni nazarda tutadi[7, 6].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Богмаз И.В. Научно-методические основы базовой подготовки студентов инженерно-строительных специальностей в условиях проективно-информационного подхода 13.00.02 – теория и методика обучения и воспитания (информатизация образования). диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук. Пермь. 2012. 313 стр.

2. Богомаз, И.В., Михайленко Л.П., Кухтецкий С. В., Компьютерный учебник по Т М «Статика» (учебное пособие CD-R -Электронный ресурс) Красноярск, КрасГАСА, /Statika/ HTM, 1998.

3. Shukurov Akmal Uktamovich, “Improving the base training of students of technical osms based on the information design approach”. American Journal of Pedagogical and Educational Research. Volume 18, November, 2023. 199-204 p.

4. Akmal Shukurov, “Texnika ixtisosliklari ta’limida axborotlarni loyihalashtirishda axborot texnologiyalari fanini o‘qitishning zamonaviy metodlari”. “Ta’lim, fan va innovatsiya”. ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal (2024 yil № 1). 116-119-b.

5. Shukurov Akmal Uktamovich, “ Basic professional rules for students of a higher educational institution in the design of information”. International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education. Germany. February 27 th 2024. 8-14 p.

6. Shukurov A. U, “ Texnika ixtisosliklari otmida loyihali-axborot ta’lim tizimni shakllantirish”. “Ta’limda zamonavty axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash afzalliklari, muammolari va yechimlari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya 2024. 81-86 b.

7. Shukurov A.U. Didactic opportunities for the introduction of cloud technologies // Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. № 10/2. Урганч, 2021. 29-35. http://khorezmscience.uz

8. A.Shukurov. Its features and use in the educational process of web-technologies Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические, 2021. https://www.internauka.org/

KIMYO FANINI O‘QITISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHGA O‘RGATISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI ANIQLASH BO‘YICHA PEDAGOGIK TAJRIBA

Sumberdiyeva Nafosat Rahimberganovna
Chirchiq davlar pedagogika universiteti II-bosqich magistranti

Komilov Qamariddin O‘rinovich
Chirchiq davlar pedagogika universiteti “Kimyo” kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Annotatsiya. Ushbu maqolada kimyo fanini o‘qitishda kompyuter texnologiyalari (virtual laboratoriyalar, simulyatsion dasturlar, interaktiv vazifalar) va ularni o‘qitishga ixtisoslashtirilgan tizimning samaradorligi eksperimental tadqiqot asosida o‘rganiladi. Tadqiqot nazorat va eksperimental guruhlar qiyosiy tahli liga asoslanib, 9-sinf o‘quvchilarida olib borildi. Eksperimental guruhda an’anaviy metodika bilan bir qatorda tizimli ravishda kompyuter texnologiyalari joriy etildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, eksperimental guruh o‘quvchilari nazariy bilimlarni egallash, murakkab kimyoviy jarayonlarni tushunish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yuqori natijalarga erishdilar. Xulosa qilib, kimyo o‘qitishda texnologiyalarni tizimli joriy etish o‘quvchilarning kognitiv qiziqishini oshirish va ta’lim sifatiy samaradorligini oshirishning samarali yo‘li hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: kompyuter texnologiyalari, kimyo o‘qitish, virtual laboratoriyalar, pedagogik tajriba, o‘quv samaradorligi, interaktiv metodlar, simulyatsiya, eksperimental tadqiqot, ta’lim tizimi, kognitiv qiziqish.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ЭКСПЕРИМЕНТ ПО ОПРЕДЕЛЕНИЮ ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЮ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ХИМИИ

Сумбердиева Нафосат Рахимбергановна
Магистрант II этапа Чирчикского государственного педагогического университета

Комилов Камариддин Уринович
Доцент кафедры «Химия» Чирчикского государственного педагогического университета, к.т.н.

Аннотация. В данной статье исследуется эффективность системы обучения использованию компьютерных технологий (виртуальные лаборатории, симуляционные программы, интерактивные задания) в преподавании химии на основе экспериментального исследования. Исследование проводилось среди учащихся 9-х классов с использованием сравнительного анализа контрольной и экспериментальной групп. В экспериментальной группе наряду с традиционной методикой систематически внедрялись компьютерные технологии. Результаты показали, что учащиеся экспериментальной группы достигли значительно более высоких результатов в усвоении теоретических знаний, понимании сложных химических процессов и формировании практических навыков по сравнению с контрольной группой. В заключение, системное внедрение технологий в преподавание химии является эффективным способом повышения познавательного интереса учащихся и качественной эффективности образования.

Ключевые слова: компьютерные технологии, обучение химии, виртуальные лаборатории, педагогический эксперимент, учебная эффективность, интерактивные методы, симуляция, экспериментальное исследование, образовательная система, познавательный интерес.

PEDAGOGICAL EXPERIMENT ON DETERMINING THE EFFECTIVENESS OF THE TRAINING SYSTEM FOR USING COMPUTER TECHNOLOGIES IN TEACHING CHEMISTRY

Sumberdiyeva Nafosat Rahimbergan qizi
Master’s Student of Stage II, Chirchik State Pedagogical University

Komilov Khamiddin O‘rinovich
Associate Professor of the «Chemistry» Department, Chirchik State Pedagogical University, Ph.D. (Technical Sciences)

Abstract. This article explores the effectiveness of a specialized training system for using computer technologies (virtual laboratories, simulation programs, interactive tasks) in teaching chemistry, based on experimental research. The study was conducted among 9th-grade students using a comparative analysis of control and experimental groups. In the experimental group, computer technologies were systematically implemented alongside traditional methodology. The results showed that students in the experimental group achieved significantly higher results in mastering theoretical knowledge, understanding complex chemical processes, and forming practical skills compared to the control group. In conclusion, the systematic integration of technologies into chemistry teaching is an effective way to enhance students’ cognitive interest and qualitative effectiveness of education.

Keywords: computer technologies, chemistry teaching, virtual laboratories, pedagogical experiment, learning effectiveness, interactive methods, simulation, experimental research, educational system, cognitive interest.

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ning ahamiyati ortib bornoqda. Xususan, kimyo kabi murakkab va amaliyotga yo’naltirilgan fanni o’qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. «Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalar nafaqat o’quv materiallarini yetkazish vositasi, balki o’quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning kuchli vositasidir» [1]. Biroq, mavjud muammo shundaki, ko’pgina ta’lim muassasalarida texnologiyalar fragmentar tarzda, tizimli metodologik yondashuvsiz qo’llanilmoqda. O’zbekiston o’quvchilari uchun kimyo fanini o’rganishda «mavhum tushunchalar va ko’rib bo’lmaydigan jarayonlarni vizuallashtirish muammosi alohida ahamiyatga egadir» [2, 45-bet].

Rivojlangan mamlakatlarda virtual laboratoriyalar va simulyatsion dasturlardan foydalanish o’quvchilarning fanlashuv qobiliyatini oshirishda isbotlangan samaradorligiga qaramay [3], mahalliy sharoitda ushbu texnologiyalarni joriy etishning tizimli modeli ishlab chiqilmagan. Ushbu tadqiqotning maqsadi kimyo o’qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga o’rgatishning maxsus tizimini ishlab chiqish va uning samaradorligini pedagogik tajriba orqali eksperimental isbotlashdan iborat. Tadqiqotning nazariy ahamiyati yangi pedagogik texnologiyalarning o’quvchilarning bilim darajasi va kognitiv qiziqishlariga ta’sirini o’rganishda, amaliy ahamiyati esa o’quvchilarning kimyo faniga bo’lgan munosabatini yaxshilashda namoyon bo’ladi.

Metodologiya. Tadqiqot 2024-2025 o’quv yilida Chirchiq shahridagi Yuksalish maktabining 8-sinf o’quvchilari (n=50) orasida olib borildi. Tadqiqot guruhlari namunasini shakllantirishda J.W. Creswell tomonidan taklif etilgan «guruhlarni tenglashtirish tamoyili» asosida [4] ikkiga bo’linish usuli qo’llanildi. O’quvchilar nazorat (NG, n=25) va eksperimental (EG, n=25) guruhlarga ajratildi, ularning dastlabki bilim darajasi va kimyoga bo’lgan qiziqishi statistik jihatdan ahamiyatli farqga ega emasligi aniqlandi ($p>0.05$).

Tadqiqotning eksperimental bosqichi quyidagi bosqichlardan iborat edi:

Dastlabki diagnostika bosqichi: Ikkala guruh ham «Kimyoviy elementlar va moddalar» mavzusi bo’yicha boshlang’ich bilimlarni aniqlash uchun standartlashtirilgan testdan o’tkazildi.

Shuningdek, F.N. Qadirova [5] tomonidan ishlab chiqilgan «Kimyo faniga bo'lgan munosabat» so'rovnomasi o'tkazildi.

Eksperimental ta'sir ko'rsatish bosqichi: NGda kimyo fanini o'qitish an'anaviy usullarda (darslik, doskada izoh, real tajribalar) olib borildi. EGda esa an'anaviy usullar bilan bir qatorda quyidagi kompyuter texnologiyalari tizimi M.P. Tursunov [6] tomonidan taklif etilgan «Integratsiyalashgan raqamli ta'lim muhiti» modeli asosida joriy etildi:

Virtual laboratoriya: «Virtual Kimyo Laboratoriyasi» dasturiy majmuasidan foydalanib, xavfli va qimmat tajribalarni xavfsiz muhitda amalga oshirish.

Simulyatsion dasturlar: «PhET Interactive Simulations» platformasida kimyoviy jarayonlarni dinamik tarzda kuzatish va ularning parametrlarini o'zgartirish.

Modellashtirish dasturlari: «ChemDraw» va «Avogadro» dasturlari yordamida molekulalar tuzilishini 3D formatda yaratish va tahlil qilish.

Interaktiv platformalar: «LearningApps.org» va «Quizlet» platformalarida individual va guruhli interaktiv vazifalar yaratish.

Natijalarni qayta ishlash bosqichi: 6 oylik eksperimentdan so'ng, ikkala guruh ham bir xil yakuniy nazorat ishiga tortildi. Yakuniy test B. Bloom taksonomiyasi [7] asosida tuzilib, bilim, tushunish va qo'llab-quvvatlash darajalarini o'lchaydigan qilib ishlab chiqilgan. Olingan ma'lumotlar SPSS 26.0 dasturida statistik tahlil qilindi. Natijalarning ishonchliligi $p<0.05$ ahamiyatlilik darajasida Student t-testi va Mann-Whitney U-testi yordamida tekshirildi. Shuningdek, eksperiment davomida kuzatuv va o'quvchilar ishlarini tahlil qilish usullari qo'llanildi.

Natijalar. O'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari kimyoni o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga o'rgatish tizimining samaradorligini aniq ko'rsatdi. Tajriba davomida to'plangan ma'lumotlarning statistik tahli li quyidagi asosiy natijalarni ochib berdi.

1. Nazariy bilimlar darajasidagi o'zgarishlar. Boshlang'ich va yakuniy nazorat ishlari natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi	Eksperimental guruh
Boshlang'ich test o'rtacha bali	58.3 ± 4.2	59.1 ± 3.8
Yakuniy test o'rtacha bali	73.2 ± 3.5	87.6 ± 2.9
O'sish darajasi (%)	25.6%	48.2%
t-test natijasi	$t = 8.34$, $p < 0.001$	$t = 12.17$, $p < 0.001$

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, eksperimental guruhda o'rtacha ballarning o'sishi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ($p < 0.001$). Eksperimental guruh o'quvchilarining 72% i yakuniy testda 85 balldan yuqori natija ko'rsatgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich atigi 28% ni tashkil etdi.

2. SOLO taksonomiyasi asosida bilim sifati. O'quvchilarning bilimlarining sifat darajasi SOLO taksonomiyasi asosida tahli qilindi.

Eksperimental guruh o'quvchilari «Kimyoviy bog'lanish» va «Elektrokimyoviy reaktsiyalar» kabi murakkab mavzularda tushunchalararo bog'liqlikni yaxshiroq tushunishlarini namoyish etdilar.

3. Amaliy ko'nikmalarning rivojlanishi. Amaliy mashg'ulotlar davomida quyidagi natijalar qayd etildi:

Virtual laboratoriyada tajriba o’tkazishda eksperimental guruh o’quvchilarining 92% i protoklni to’g’ri bajarishdi

Nazorat guruhida bu ko’rsatkich 68% ni tashkil etdi

Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish darajasi EGda 96%, NGda 74% edi

Tajriba natijalarini tahli l qilish va xulosa chiqarish qobiliyati EGda 85%, NGda 58% edi

4. Motivatsiya va fanga bo’lgan qiziqish o’zgarishi. So’rovnoma natijalari quyidagilarni ko’rsatdi: Kimyo faniga qiziqish darajasi EGda 36% dan 78% gacha oshdi. NGda esa 40% dan 52% gacha o’zgarish kuzatildi. Darslarda faol ishtirok etish darajasi EGda 85%, NGda 60% ni tashkil etdi. O’z-o’zini o’rganish motivatsiyasi EGda sezilarli darajada oshdi.

5. Statistik tahli. O’tkazilgan statistik tahli l natijalari: Grupplararo farqning statistik ahamiyati: $t = 5.67$, $p < 0.01$. Korrelyasiya koeffitsienti: $r = 0.82$. Effect size: Cohen’s $d = 1.24$ (katta ta’sir).

Eksperimental guruh o’quvchilari nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko’nikmalar va fanga bo’lgan motivatsiya jihatidan ham nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yutuqlarga erishdilar. Bu esa kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga o’rgatish tizimining samaradorligini tasdiqlaydi.

Muhokama. Olingan eksperimental natijalar kimyo o‘qitishda kompyuter texnologiyalarini tizimli joriy etishning an’anaviy metodikaga nisbatan sezilarli afzalliklarini ko’rsatadi. Bu natijalarni chuqurroq tahli l qilish va ularning pedagogik ahamiyatini ilmiy adabiyotlar asosida muhokama qilish maqsadga muvofiq.

Nazariy bilimlarning sifat jihatidan yaxshilanishi. Eksperimental guruhda kuzatilgan yuqori o’rtacha ball (87.6) va SOLO-taksonomiyasining yuqori darajalarida ko’proq javoblar berish, birinchi navbatda, multimedia va interaktiv vizuallashtirish vositalarining samaradorligi bilan izohlanadi. V.P. Bespalko ta’kidlaganidek, «o’quv materiallarining vizuallashtirilish darajasi bilan o’zlashtirish sifati o’rtasida to’g’ridan-to’g’ri bog’liqlik mavjud» [8]. Masalan, «Virtual Kimyo Laboratoriyasi» yordamida o’quvchilar kimyoviy reaktsiyalarning dinamikasini kuzatish va turli parametrlarni o’zgartirish imkoniyatiga ega bo’ldilar, bu esa ularning bilimlarini «Relational» darajada shakllantirishga olib keldi. S.A. Novikovning tadqiqotlari shuni ko’rsatadiki, «tizimli yondashuvda qo’llaniladigan kompyuter texnologiyalari o’quvchilarning mavhum tushunchalarni idrok etishini 40-50% ga yaxshilaydi» [9], bu bizning o’zimizning 48.2% li o’sish ko’rsatkichi bilan tasdiqlanadi.

Amaliy kompetensiyalarning rivojlanishi. Laboratoriya ishlaridagi yuqori ko’rsatkichlar (EGda 92% va NGda 68%) virtual laboratoriyalarning didaktik imkoniyatlarini tasdiqlaydi. X.X. Atabayevning fikricha, «virtual tajribalar o’quvchilarga xavfsiz sharoitda ko’plab eksperimentlarni takrorlash imkoniyatini beradi, bu esa amaliy ko’nikmalarning mustahkam shakllanishiga olib keladi» [10]. Biroq, R.J. Millar ta’kidlaganidek, «virtual laboratoriyalar haqiqiy tajribalarni to’liq almashtira olmaydi, ular faqat to’ldiruvchi rol o’ynashi kerak» [11]. Shu sababli, bizning metodikamizda virtual va real tajribalar o’rtasida muvozanat saqlangan.

Motivatsion va kognitiv omillar. Qiziqish va motivatsiyaning sezilarli o’sishi (EGda 36% dan 78% gacha) D. Arisning «o’quv jarayonining gamifikatsiyasi motivatsiyaning asosiy omilidir» degan g’oyasini amalda tasdiqlaydi [12]. Interaktiv platformalar va simulyatsion dasturlar o’quvchilarga o’z bilimlarini sinab ko’rish, xatolardan o’rganish va darhol natijalarni ko’rish imkoniyatini berdi. L.M. Friedmanning tadqiqotlariga ko’ra, «zamonaviy o’quvchilar vizual va interaktiv materiallarni an’anaviy matnli materiallarga qaraganda 60% yaxshiroq qabul qiladilar».

Potensial cheklovlar va yechimlar. Biroq, innovatsion metodologiyani joriy etish bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi: O’qituvchilarning texnologik tayyorgarligining etarli emasligi (J. Hayesning «o’qituvchilarning raqamaviy kompetentligi» tushunchasiga muvofiq). Maktablarning texnik jihozlanishi darajasi (K. Smithning «raqamli tafovut» nazariyasi). Dasturiy ta’minotning mahalliy o’quv dasturiga moslashtirilishi zarurati

Muhokama qilinayotgan natijalar shuni ko’rsatadiki, kimyo ta’limida kompyuter texnologiyalarini tizimli joriy etish nafaqat o’quvchilarning akademik yutuqlarini oshirish, balki ularning butun shaxsini kompententlik yondashuviga muvofiq rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu metodlarning uzoq muddatli ta’siri va turli o’quvchilar guruhlarida qo’llash imkoniyatlarini o’rganishga qaratilishi kerak.

Xulosa. Pedagogik tajriba natijalari kimyo fanini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga o‘rgatishning maxsus tizimi samaradorligini qat’iy isbotladi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning nazariy bilimlar sifatini oshirish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va fanga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, zamonaviy ta’lim standartlariga to‘liq mos keladi. O‘quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish va maktablarni zamonaviy dasturiy ta’minot bilan ta’minlash muvaffaqiyatning asosiy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

Jamoliddinova, S. Raqamli pedagogikaning zamonaviy konsepsiyalari. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi, Toshkent. 2023, 148 bet.

Hasanov, A. R. Kimyo ta’limida vizuallashtirish muammolari. Ximiya v shkole, 2022, №4(152), 44-48 betlar.

De Jong, T., Van Joolingen, W. R. Virtual laboratories in science education. Journal of Science Education, 2021, №25(3), 45-62 betlar.

Creswell, J. W. Educational Research: Planning, Conducting, and Evaluating Quantitative and Qualitative Research. Pearson.2022.

Qadirova, F. N. Kimyo faniga o’quvchilarning qiziqishini o’lchash metodikasi. Pedagogik mahorat, 2023, №6(45), 78-82 betlar.

Tursunov, M. P. Zamonaviy o’quv muhitini raqamlashtirish: yangi yondashuvlar. Ta’lim va innovatsiyalar, 2022, №3(28), 15-22 betlar..

Bloom, B. S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Longman. 2020.

Komilov K.U., Abdullayeva Sh. Kimyo darslarida tizimli-faol yondashuvning tadbig‘i// Academic research in educational sciences, 2022, №3 (3), 916-922 betlar.

Kurbanova A.Dj., Komilov K.U. Kimyo fanlarini o’qitishni jamoaviy shakllantirishda universitet talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish/ monografiya, Chirchik, CHDPU bosmaxonasi 1, 2022, 109 bet.

Kurbanova A.Dj., Komilov K.U. Kimyo o’qitishda mobil elektron dastur. US Patent DGU 32,889.

Allayev J, Matyakubov A.Q. Kimyo. Chirchik, CHDPU bosmaxonasi 1, 2024, 144 bet.

Buzrukxodjayev A. va boshqalar. Variativ kimyo guruhlarida eksperemental masalalar yechishda o‘ziga xos yondoshuv// Akademic Journal of Educational Research, 2024, №5 (5), 5-9 betlar.

TALABALARNING METODIK KOMPETENTLIGINI VIRTUAL LABORATORIYA VA SIMULATSIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Umbarov Abduvohid Uktam o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Fizika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining metodik kompetentligini virtual laboratoriyalar va onlayn simulyatsiyalar orqali rivojlantirish masalasi yoritilgan. Maqolada PhET platformasining “Magnets and Electromagnets” moduli asosida tajribalar o‘tkazilib, nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan integratsiyasi, tahliliy va refleksiv fikrlashni shakllantirish imkoniyatlari aniqlangan. Virtual muhitda o‘tkazilgan mashg‘ulotlar talabalarda amaliy tafakkur, modellashtirish, mustaqil tahlil va o‘z faoliyatini baholay olish ko‘nikmalarini rivojlantirgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, onlayn simulyatsiyalar metodik kompetentlikni rivojlantirishda innovatsion, interfaol va samarali yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: metodik kompetentlik, virtual laboratoriya, PhET simulyatsiyasi, elektromagnit maydon, onlayn ta’lim, raqamli texnologiyalar.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ ВИРТУАЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ И СИМУЛЯЦИЙ

Умбаров Абдуваҳид Уктам ўғли
Преподаватель кафедры физики Чирчикского государственного педагогического университета

Аннотация: В статье рассматривается проблема развития методической компетентности будущих учителей физики посредством использования виртуальных лабораторий и онлайн-симуляторов. На основе модуля PhET «Magnets and Electromagnets» проведены эксперименты, выявляющие возможности интеграции теоретических знаний с практической деятельностью, формирования аналитического и рефлексивного мышления. Проведение занятий в виртуальной среде способствовало развитию у студентов практического мышления, навыков моделирования, самостоятельного анализа и самооценки. Результаты исследования показывают, что онлайн-симуляции являются инновационным, интерактивным и эффективным подходом к формированию методической компетентности.

Ключевые слова: методическая компетентность, виртуальная лаборатория, симуляция PhET, электромагнитное поле, онлайн-обучение, цифровые технологии.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS’ METHODOLOGICAL COMPETENCE THROUGH VIRTUAL LABORATORIES AND SIMULATIONS

Umbarov Abduvohid Uktam o‘g‘li
Lecturer at the Department of Physics, Chirchik State Pedagogical University

Abstract: This article examines the development of methodological competence in future physics teachers through the use of virtual laboratories and online simulators. Experiments were conducted using the PhET «Magnets and Electromagnets» module to explore the potential for integrating theoretical knowledge with practical activities and fostering analytical and reflective thinking. Conducting lessons in a virtual environment contributed to the development of students’ practical thinking, modeling skills, independent analysis, and self-assessment. The study results demonstrate that online simulations are an innovative, interactive, and effective approach to developing methodological competence.

Keywords: methodological competence, virtual laboratory, PhET simulation, electromagnetic field, online learning, digital technologies.

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimi innovatsion texnologiyalar bilan jadal integratsiyalashayotgan sharoitda, pedagogik oliy ta’lim muassasalarida talabalarning metodik kompetentligini samarali rivojlantirish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi nafaqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmay, balki olingan bilimlarni amaliy jihatdan qo‘llay olish, har qanday vaziyatlarga samarali yechimlar topa olish qobiliyatlarini rivojlantirish ham talab qilinmoqda. Bu borada simulyatsion texnologiyalar, ayniqsa, onlayn muhitdagi simulyatsiyalar pedagogik ta’lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu innovatsion vositalar talabalar uchun real pedagogik vaziyatlarni virtual tarzda qayta tiklash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Metodik kompetentlikni rivojlantirish nafaqat talabalarning pedagogik bilimlarini kengaytiradi, balki ularning o‘z kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan metodik muammolarni mustaqil va samarali hal qilishlariga ham imkoniyat yaratadi. Shuningdek, metodik kompetentligi yuqori bo‘lgan pedagogik kadrlar ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan, pedagogika oliy ta’lim muassasalari uchun innovatsion metodlarni tatbiq qilish zaruriyati tobora ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim tizimining eng dolzarb masalalaridan biri - bu bo‘lajak o‘qituvchilarda metodik kompetentligini virtual muhitda ta’minlashdir. Ta’lim jarayonida onlayn simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar, multimedia majmualar va raqamli o‘qitish platformalari talabaning nazariy bilimini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga imkon beradi. Xayrullayev A.I. o‘z tadqiqotida virtual laboratoriyalardan foydalanish kasbiy tayyorgarlikni rivojlantiruvchi pedagogik shart-sharoitlarni belgilab bergan bo‘lib, bunda axborot-ta’lim muhitining interaktivlik, vizualizatsiya va refleksiya imkoniyatlari asosiy omil sifatida ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, virtual laboratoriya o‘quvchi faoliyatini individuallashtiradi, tajriba natijalarini takroran kuzatish imkonini beradi va o‘quvchi uchun xavfsiz eksperiment muhitini yaratadi. Shu jihatdan, simulyatsiyalar yordamida metodik kompetentlikning tahliliy, texnologik va refleksiv komponentlarini rivojlantirish mumkin.

Raxmonov I.U., Niyozov N.N. va Nematov L.A. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda virtual laboratoriya va o‘quv simulyatorlarining afzallik va kamchiliklari tizimli tarzda tahlil qilinadi. Mualliflar fikricha, bunday texnologiyalar: real laboratoriyalarga nisbatan arzon, xavfsiz va moslashuvchan; talabalarda mustaqillik, motivatsiya va kognitiv faollikni oshiradi; professor-o‘qituvchilar uchun esa nazorat va tahlil jarayonini avtomatlashtiradi. Shu bilan birga, ular ayrim cheklovlarni ham qayd etadi masalan, real laboratoriya muhitining yetishmasligi va kompyuterga qaramlik xavfi. Biroq zamonaviy pedagogik yondashuvlarda bu muammo aralash o‘qitish modeli orqali bartaraf etilmoqda, ya’ni talaba dastlab virtual tajriba orqali tayyorlanadi, so‘ng real laboratoriyada natijani sinovdan o‘tkazadi. Abduraxmanov Z.B. tomonidan olib borilgan tadqiqotda TechVLab platformasi asosida muhandislik fanlarida virtual laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishning metodik modeli ishlab chiqilgan. U “Avtomobilning yo‘l to‘siqlaridan o‘tuvchanligini aniqlash” laboratoriya ishini virtual shaklda bajarish orqali talabalarda tahliliy fikrlash, modellashtirish va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanishini ilmiy asoslaydi. Muallifning metodikasi sizning maqolangiz uchun muhim amaliy asosdir, chunki PhET simulyatsiyalari ham xuddi shu tamoyillarni - tajribani virtual modellashtirish va natijani tahlil qilishni amalga oshiradi. N.B.Karimovaning bir nechta tadqiqotlarida axborot kompetentligini rivojlantirishda virtual va aralash o‘qitish modellari tahlil qilingan. Muallif shuni ta’kidlaydiki, virtual ta’lim sharoitida talabalarning axborotni izlash, saralash va tahlil qilish ko‘nikmalari mustahkamlanadi. Aralash o‘qitish modeli nazorat va erkinlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlab, mustaqil o‘rganish motivatsiyasini oshiradi. Professor-o‘qituvchining raqamli pedagogik savodxonligi virtual ta’lim samaradorligining asosiy omilidir. Uning “Talabalarda axborot

kompetentligini rivojlantirishning metodik konseptual asoslari” nomli maqolasida interfaol usullar (keys-stadi, problemali ta’lim), raqamli platformalar (Moodle, Google Classroom, MS Teams) va individuallashtirilgan o‘qitish yondashuvlari orqali metodik kompetensiyani rivojlantirish mexanizmi asoslab beriladi. Bu sizning ish uchun “metodik kompetentlik modeli”ning axborotli va refleksiv komponentlarini ishlab chiqishda nazariy tayanch bo‘la oladi.

Yuqoridagi tahlil asosida tadqiqotning metodologiyasi quyidagicha aniqlanadi:

tadqiqot obyekti - pedagogika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak fizika o‘qituvchilari;

tadqiqot predmet - virtual laboratoriya va simulatsiyalar (PhET) asosida metodik kompetentligini rivojlantirish jarayoni;

tadqiqot maqsad - virtual laboratoriya va simulatsiyalar orqali talabalarning nazariy bilimini amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, tahliliy va refleksiv fikrlashni rivojlantirish.

O‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi ilmiy-metodik model shakllanadi:

axborotli komponent - talabalar virtual laboratoriya va simulatsiyalar orqali nazariy bilimni o‘zlashtiradi;

tahliliy komponent - virtual tajriba natijasini tahlil qilib, nazariy qonuniyat bilan bog‘laydi;

refleksiv komponent - natija ustida mustaqil fikr yuritadi;

texnologik komponent - PhET platformasida tajriba natijalarini raqamli qayta ishlash orqali metodik qarorlar chiqaradi.

Ushbu komponentlar bir butun metodik kompetentlikni rivojlantirish modeli sifatida namoyon bo‘ladi. Virtual laboratoriyalar va onlayn simulyatsiyalar (PhET) asosida ta’limni tashkil etish o‘qitish jarayonida interfaol, amaliy va vizual muhitni yaratadi; talabalarda metodik mustaqillik, tahliliy tafakkur va refleksiv kompetensiyani rivojlantiradi; professor-o‘qituvchilar faoliyatida innovatsion texnologik yondashuvni joriy etadi. Shu bois, onlayn simulyatsiyalar talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirishda amaliyotga yo‘naltirilgan, raqamli va integrativ ta’lim modeli sifatida samarali qo‘llanilishi mumkin.

NATIJALAR

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Phet.colorado.edu onlayn simulyatsiya texnologiyasidan foydalangan holda magnit maydon induksiyasi va etektromagnet maydon kuchlanganligini yo‘nalishini va miqdorini vizual tarizda kuzatish imkoniyatlarini qarab chiqamiz. Buning uchun bizga internet tarmog‘iga ulangan telefon yoki kampyuter kerak bo‘ladi. Ishni kampyuter yordamida Phet.colorado.edu saytiga kirganimizda bizga ish stolimizda quyidagi oyna ochiladi.



Ekrandagi PHYSICS yozuvining ustiga kursorni qo‘yib bosganimizda (https://phet.colorado.edu/en/simulations/filter?subjects=physics&type=html) bizga kiyingi sahifa ochiladi.

Bu sahifada fizika fanining 5 ta asosiy bo‘limiga doir bir qancha simulyatsiyalar mavjud bo‘lib, bulardan elektr va magnetizm bo‘limiga doir Magnets and Electromagnets simulyatsiyasini tanlaymiz. Shundan so‘ng bizga quydagi sahifa ochiladi (https://phet.colorado.edu/en/simulations/magnets-and-electromagnets).

Kursorni simulyatsiya ustiga bossak bizga kiyingi foydalanuvchi interfeysi ochiladi (https://phet.colorado.edu/sims/html/magnets-and-electromagnets/latest/magnets-and-electromagnets_all.html).



Bundan Bar Magnetni tanlab kursorni bosganimizda bizga kiyingi foydalanuvchi interfeysi ochiladi (https://phet.colorado.edu/sims/html/magnets-and-electromagnets/latest/magnets-and-electromagnets_all.html).



Bunda sahifaning o‘ng yuqori burchagidagi See Inside, Earth va Field Meter larni belgilasak sahifamiz quydagi ko‘rinishga keladi.

Bunda yerni rasmini kursor bilan tutib harakatlantirsak magnit maydon induksiyasi o‘zgarganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Bu simulyatsiyani bajarish orqali talabalar magnit maydon induksiyasi haqida nazariy olgan bilimlarini ko‘rib bajarib yanada reallashtirib ta’savur qilishlariga erishishimiz mumkin.



Bar magnitga oid kuzatuvlar natijalaridan so‘ng, quyida elektromagnit maydonining hosil bo‘lish jarayoni ham tahlil qilamiz.



PhET platformasining “Magnets and Electromagnets” simulyatsiyasi yordamida elektromagnit maydon hosil bo‘lish jarayoni o‘rganildi. Tajribada 10 V kuchlanishli o‘zgarmas tok manbai (DC Power Supply) orqali o‘ramli g‘altakka tok berildi. Natijada o‘ram ichidan o‘tayotgan elektronlar yo‘nalishi bo‘yicha g‘altak atrofida magnit maydon hosil bo‘ldi. Simulyatsiya jarayonida g‘altakning har bir buramasi atrofida paydo bo‘lgan magnit chiziqlar konsentrik shaklda joylashib, markaziy o‘qda birlashgani va g‘altak uchlarida shimol (N) va janub (S) qutblari shakllangani kuzatildi. Ushbu natijalar elektromagnitning magnit maydoni bar magnit (doimiy magnit) maydoniga o‘xshash tarzda shakllanishini ko‘rsatadi.

Kuzatish davomida kuchlanish 10 voltgacha oshirilganda, magnit induksiya chiziqlari zichlashgani aniqlandi. Bu holat tok kuchi ortishi bilan magnit maydon kuchi ham ortishini ko‘rsatadi. O‘ramlar soni (Loops) 4 tadan 8 tagacha oshirilganda, magnit maydon chiziqlari yanada yaqqol va zichlashgan holda kuzatildi, bu esa elektromagnit kuchining to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘ramlar soniga bog‘liqligini tasdiqlaydi. Kuchlanish manbai qutblari almashtirilganda, magnit chiziqlar yo‘nalishi teskari tomonga o‘zgardi - bu elektromagnitning qutblari almashganini bildiradi.

Simulyatsiyadagi kompas strelkasi magnit maydon yo‘nalishini aniqlash uchun qo‘llanildi. Strelka ignasi elektromagnitning shimol qutbiga yo‘nalib, maydon yo‘nalishini aniq ko‘rsatdi. Agar tok yo‘nalishi o‘zgartirilsa, kompas ignasining burilish yo‘nalishi ham o‘zgaradi. Bu holat elektromagnitning qutblari tok yo‘nalishiga bevosita bog‘liqligini isbotlaydi. Mazkur kuzatuvlar Amper va o‘ng qo‘l qoidalarining amaliy tasdig‘ini beradi: o‘ng qo‘l barmoqlari tok yo‘nalishiga qaratilganda, bosh barmoq magnit maydonning shimol qutbi tomon yo‘naladi.

Magnit maydonning vizualizatsiyasi talabalar uchun nazariy tushunchalarni real ko‘rinishda idrok etish imkonini yaratdi. Tok kuchi va yo‘nalishini o‘zgartirish orqali magnit induksiyasi, maydon zichligi va qutblanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustaqil tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu esa talabalarda tajriba ma’lumotlarini kuzatish, solishtirish, tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

PhET simulyatsiyasining didaktik imkoniyatlari ayniqsa metodik kompetentlikni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etdi. Talabalar elektromagnit maydonining modellashtirilgan ko‘rinishini o‘rganish orqali quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishdi:

1. Vizual modellashtirish - magnit chiziqlarining shakli, yo‘nalishi va zichligini real vaqt rejimida kuzatish;

2. Tajriba-tahlil - kuchlanish, tok yo‘nalishi va o‘ramlar soni o‘zgarishiga qarab magnit maydon o‘zgarishini aniqlash;

3. Refleksiya - kuzatilgan natijalar asosida elektromagnit maydon va bar magnit o‘xshashliklarini tahlil qilish, tok yo‘nalishi bilan qutblar almashishini asoslab berish.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, elektromagnitning magnit maydoni tok oqimi mavjud bo‘lgandagina hosil bo‘ladi va u tok yo‘nalishiga bog‘liq holda o‘z qutbini o‘zgartiradi. Bu farq doimiy magnitdan (bar magnet) asosiy jihatdan farqlanadi: bar magnitda magnit maydon doimiy va mustaqil holatda mavjud bo‘lsa, elektromagnitda u elektr energiyasi hisobiga vujudga keladi. Shunday qilib, virtual tajriba orqali elektromagnit maydoni hosil bo‘lishining asosiy fizik qonuniyatlari - elektr tokining magnit ta’siri, Amper kuchi va o‘ram soni–maydon kuchi o‘rtasidagi bog‘liqlik - amaliy jihatdan isbotlandi.

Tajriba natijalari PhET simulyatsiyalarining ta’limiy ahamiyatini to‘liq tasdiqladi va bu orqali talabalar:

nazariy bilimlarni amaliy modellashtirish orqali mustahkamlashdi;

vizual va analitik fikrlash orqali fizik jarayonlarni chuqur anglashga erishishdi;

hamkorlikda muhokama qilish va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishdi.

“Electromagnet” simulyatsiyasi yordamida o‘tkazilgan tajribalar talabalarda magnit maydonning tabiati, tok yo‘nalishining magnit qutblanishga ta’siri va elektromagnit maydon kuchining o‘zgaruvchanligi haqida chuqur, aniq va mustaqil tasavvur hosil qilish imkonini berdi. Ushbu yondashuv metodik kompetentligini rivojlantirishda, ya’ni talabaning nazariy tushunchani amaliy modellashtirish orqali o‘qitish jarayonini tahlil qilish va natijani baholay olish malakasini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qildi.

MUHOKOMA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, onlayn simulyatsiyalar, xususan PhET platformasining “Magnets and Electromagnets” moduli yordamida tashkil etilgan virtual tajribalar talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Simulyatsiya jarayonida talabalarda nazariy bilimlarni amaliy kuzatish bilan bog‘lay olish, fizik qonuniyatlarni tahlil qilish va natijalarni mustaqil talqin etish ko‘nikmalari shakllandi. Bu jarayon o‘quvchi faoliyatining markaziga talabaning o‘zini qo‘yish, uni faol bilim yaratuvchi subyekt sifatida shakllantirish imkonini berdi.

Olingan natijalar A.I.Xayrullayev tomonidan ilgari surilgan virtual ta’limning pedagogik shart-sharoitlari haqidagi g‘oyalarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Olim o‘z tadqiqotlarida o‘quv jarayonini interfaol, vizual va refleksiv faoliyat asosida tashkil etish zarurligini ta’kidlagan. PhET simulyatsiyalari ana shu tamoyillarni to‘liq ro‘yobga chiqaradi: ularning yordamida talabalar real vaqt rejimida magnit maydonni vizual kuzatish, kuzatuv asosida xulosa chiqarish va o‘z faoliyatini tahlil etish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa talabalarning o‘quv jarayoniga subyektiv ishtirokini kuchaytiradi hamda metodik kompetentligining tahliliy va refleksiv komponentlarini rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari Z.B.Abduraxmanov tomonidan ishlab chiqilgan TechVLab asosidagi

muhandislik ta’limi modelining natijalari bilan ham uyg‘unlik kasb etadi. Abduraxmanovning fikricha, virtual laboratoriyalar talabalarda muammoli vaziyatlarni modellashtirish, tahlil qilish va yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi. Hozirgi ishda ham elektromagnit maydon hosil bo‘lish jarayonining modellashtirilishi talabalarda shu yo‘nalishdagi tahliliy faoliyatni rivojlantirganini kuzatish mumkin bo‘ldi. Talabalar kuchlanish, tok, o‘ram soni va magnit induksiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlab, natijalarni mustaqil tahlil qilishga erishdilar.

O‘tkazilgan tajriba N.B.Karimovaning axborot kompetentligini rivojlantirishning metodik konseptual asoslari haqidagi ilmiy yondashuvlarini ham amalda tasdiqlaydi. Muallif raqamli va aralash ta’lim modellari orqali talabalarning tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirishni asoslagan. PhET simulyatsiyasi orqali o‘tkazilgan tajribada ham talaba har bir bosqichda o‘z faoliyatini kuzatib, o‘z qarorlarini tahlil qilib, xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu jarayon professor-o‘qituvchining nazoratlovchi emas, balki yo‘naltiruvchi sifatidagi rolini kuchaytirib, talabaning metodik mustaqilligini oshirdi.

Natijalar I.U.Raxmonov tomonidan ilgari surilgan virtual laboratoriyalarning o‘quv jarayonidagi afzalliklari haqidagi fikrlarni ham tasdiqlaydi. Unga ko‘ra, virtual tajribalar talabalar uchun xavfsiz, tejamkor va ko‘p marotaba takrorlanadigan o‘quv muhiti yaratadi. Bizning tadqiqotda ham bu afzalliklar o‘z ifodasini topdi: talabalar bir xil sharoitda bir necha bor tajribani qayta o‘tkazib, natijalarni solishtirish, tahlil qilish va umumlashtirish imkoniga ega bo‘ldilar. Bu ularning tahliliy va refleksiv fikrlash darajasini oshirdi.

Umuman olganda, PhET simulyatsiyalari nafaqat fizika fanini o‘qitishda interfaol yondashuvni ta’minlaydi, balki talabalarning metodik kompetentligini ham rivojlantiradi. Bu jarayon konstruktivistik yondashuv tamoyillariga mos bo‘lib, talaba bilimni tayyor shaklda emas, balki o‘z faoliyati natijasida hosil qiladi. Metodik nuqtayi nazardan, PhET simulyatsiyalaridan foydalanish quyidagi yo‘nalishlarda kompetensiyalarni shakllantirish imkonini berdi: axborotli, tahliliy, texnologik va refleksiv. Shu orqali talaba ilmiy bilimni amaliy kuzatuv bilan bog‘laydi, raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyatini o‘zlashtiradi va o‘z faoliyatini tahlil qilish malakasiga ega bo‘ladi. Virtual laboratoriya va simulatsiyalar yordamida ta’limni tashkil etish an’anaviy laboratoriyalarga nisbatan bir qator ustunliklarga ega. Ularda vaqt va resurs tejaladi, tajribalar xavfsiz muhitda amalga oshiriladi, talaba faol ishtirokchi sifatida jarayonni boshqaradi, professor-o‘qituvchilar esa diagnostik va refleksiv tahlilni samarali olib boradi. Shu bilan birga, ba’zi cheklovlar ham mavjud: virtual tajribalar real laboratoriyada hosil bo‘ladigan sezgi va amaliy ko‘nikmalarni to‘liq bera olmaydi. Ammo bu kamchiliklar virtual va an’anaviy laboratoriyalarni integratsiyalashgan shaklda tashkil etish orqali bartaraf etilishi mumkin.

Muhokama natijalariga ko‘ra, PhET asosidagi onlayn simulyatsiyalar talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtiradi, professor-o‘qituvchilarning metodik faoliyatini esa yangi raqamli bosqichga olib chiqadi. Bunday yondashuv pedagogik ta’limda innovatsion metodika sifatida qo‘llanishi mumkin bo‘lib, u nafaqat fizika, balki boshqa tabiiy fanlarda ham talabalarning metodik, axborotli va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, onlayn simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalardan foydalanish bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishda samarali didaktik vosita hisoblanadi. PhET platformasining “Magnets and Electromagnets” moduli asosida o‘tkazilgan tajribalar natijasida talabalarda nazariy bilimlarni amaliy jarayonlar bilan integratsiyalash, tahlil qilish va o‘z faoliyatini baholay olish ko‘nikmalari shakllandi.

Virtual muhitda tashkil etilgan o‘quv tajribalar talabalar uchun xavfsiz, qulay va takrorlanadigan o‘rganish sharoitini yaratdi. Bu esa ularning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, modellashtirish va refleksiya jarayonlarida faol ishtirokini ta’minladi. Simulyatsion ta’lim muhiti talabalarda amaliy tafakkurni rivojlantirish, o‘zlashtirilgan bilimlarni yangi sharoitlarda qo‘llay

olish va natijalarni baholay bilish malakasini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi.

O‘tkazilgan tajriba natijalarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Metodik kompetentlikning rivojlanishi virtual laboratoriya va onlayn simulyatsiyalar orqali tahliliy, refleksiv, texnologik va axborotli komponentlarning o‘zaro integratsiyasi hisobiga ta’minlanadi.

2. PhET simulyatsiyalari talabalarda ilmiy hodisalarni vizual modellashtirish, natijalarni tahlil qilish va mustaqil xulosalar chiqarish imkoniyatini yaratadi, bu esa metodik tayyorgarlik sifatini oshiradi.

3. Virtual tajribalarning interfaol va konstruktivistik yondashuvga asoslanganligi talabaning o‘quv jarayonida faol subyekt sifatida ishtirokini kuchaytiradi hamda bilimni mustaqil yarata olish salohiyatini shakllantiradi.

4. Onlayn simulyatsiyalarni qo‘llash jarayonida o‘qituvchi roli yo‘naltiruvchi va reflektiv tahlilni tashkil etuvchi sifatida o‘zgaradi, bu esa zamonaviy raqamli pedagogik yondashuvni shakllantiradi.

5. Virtual va an’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlarini integratsiyalashgan modelda tashkil etish talabalarda sezgi, kuzatish va amaliy ko‘nikmalarni uyg‘un rivojlantirish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot asosida ishlab chiqilgan yondashuv bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishda samarali mexanizm sifatida e’tirof etiladi. Ushbu natijalar pedagogik ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, o‘quv jarayonini innovatsion muhitda tashkil etish va professor-o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqish uchun ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, virtual laboratoriya va onlayn simulyatsiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bo‘lajak fizika o‘qituvchilarning metodik, tahliliy va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishning eng samarali innovatsion shakllaridan biri hisoblanadi. Kelgusida ushbu yondashuvni tabiiy fanlarning boshqa bo‘limlarida ham keng tatbiq etish ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Umbarov A.U. Pedagogika oliy ta’lim muassalarida umumiy fizikaning Elektromagnetizm bo‘limini o‘qitishda individual ta’limning pedagogik shart sharoitlari // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Buxoro, 2023/12 12-son – B. 316-319.

Hamdamova S.N., Fizika ta’limida virtual laboratoriyalarni qo‘llash va uning afzalliklari. // Science and Innovation International Scientific Journal. ISSN: 2181-3337. – 2022. https://doi.org/10.5281/zenodo.6634341

Hamed G., Aljanazrah A. The effectiveness of using virtual experiments on students learning in the general physics lab // Journal of Information Technology Education Research. – ISBN 19. 976-995. – 2020. https://doi.org/10.28945/4668

Xayrullayev A.I. Virtual laboratoriyalardan foydalanib talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. - Jizzax: Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali, 2024y. №1, 278–282-betlar.

Raxmonov I.U., Niyozov N.N., Nematov L.A. Virtual laboratoriyalar va o‘quv simulyatorlari: afzallik va kamchiliklar. - Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali, 2023y. №4, 254–259-betlar.

Abduraxmanov Z.B. Virtual laboratoriya komplekslari yordamida muhandis talabalarni kasbiy tayyorlashning metodik ta’minotini takomillashtirish. - Inter Education & Global Study, 2024y. №10(1), 15–25-betlar.

Karimova N.B. Talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishning metodik konseptual asoslari. - Inter Education & Global Study, 2024y. №10, 130–136-betlar.

Karimova N.B. Talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishda virtual va aralash o‘qitish jarayonlari. - Ilm-fan va innovatsiya konferensiyasi materiallari, 2024y. 75–78-betlar.

PhET Interactive Simulations. Magnets and Electromagnets [Onlayn simulyatsiya]. – University of Colorado Boulder, 2024. (https://phet.colorado.edu/sims/html/magnets-and-electromagnets/latest/magnets-and-electromagnets_all.html).

Чиганова Н.В. Технологии разработки электронно-образовательных ресурсов / Н.В. Чиганова, С.Л. Хасанова, Е.М. Девяткин // Современные наукоемкие технологии. – 2016. – № 10-1. – С. 108-113.

Дмитриев В.Л., Каримов Р.Х. Организация электронного обучения на авторской образовательной платформе «облачная школа» // Информатика и образование. – 2016. – № 4 (273). – С. 25-28.

YUNON-RUM KURASHI BO‘YICHA SO‘NGGI JAHON CHEMPIONATI O‘ZBEKISTONNING TARIXIY G‘ALABASI

Usmonov Sanjar Elbek o‘g‘li
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Sport kurashlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi o‘qituvchisi, O‘zbekiston, Chirchiq shaxri

Annotatsiya. 2025-yil 21–24 sentyabr kunlari Xorvatiya poytaxti Zagreb shahrida yoshlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan yunon-rum kurashi bo‘yicha Jahon chempionatida O‘zbekiston terma jamoasi a’lo darajada ishtirok etdi. Aytjan Xalmaxanovning oltin medali va boshqa sportchilarning yutuqlari O‘zbekistonning sport kurashi sohasidagi ulkan muvaffaqiyatini namoyish etdi. Ushbu maqolada chempionat tafsilotlari, ishtirokchilar, o‘zbekistonlik kurashchilarning natijalari va musobaqaning umumiy ko‘rinishi keng qamrovda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Yunon-rum kurashi, Jahon chempionati 2025, O‘zbekiston kurashchilari, Aytjan Xalmaxanov,Sport kurashi, Zagreb 2025, Yoshlar musobaqasi, Oltin medal, Kurash jahon chempionati.

ИСТОРИЧЕСКАЯ ПОБЕДА УЗБЕКИСТАНА НА ПОСЛЕДНЕМ ЧЕМПИОНАТЕ МИРА ПО ГРЕКО-РИМСКОЙ БОРЬБЕ

Усмонов Санжар Элбек угли
Преподаватель кафедры теории и методики спортивной борьбы
Узбекский государственный университет физической культуры и спорта
Город Чирчик, Узбекистан

Аннотация. С 21 по 24 сентября 2025 года в столице Хорватии — городе Загреб — состоялся чемпионат мира по греко-римской борьбе среди молодежи, на котором сборная Узбекистана выступила на высоком уровне. Золотая медаль Айтжана Халмаханова и достижения других спортсменов продемонстрировали большой успех Узбекистана в сфере спортивной борьбы. В данной статье всесторонне освещаются детали чемпионата, участники, результаты узбекистанских борцов и общий обзор соревнований.

Ключевые слова. греко-римская борьба, чемпионат мира 2025, борцы Узбекистана, Айтжан Халмаханов, спортивная борьба, Загреб 2025, молодежные соревнования, золотая медаль, чемпионат мира по борьбе

UZBEKISTAN’S HISTORIC VICTORY AT THE LATEST GRECO-ROMAN WRESTLING WORLD CHAMPIONSHIP

Sanjar Elbek ogli Usmonov
Lecturer, Department of Theory and Methodology of Sports Wrestling, Uzbek State University of Physical Culture and Sports, Chirchik City, Uzbekistan

Annotation. From September 21 to 24, 2025, the Uzbekistan national team performed excellently at the World Greco-Roman Wrestling Championship held in Zagreb, the capital of Croatia, among youth athletes. Aytjan Khalmakhanov’s gold medal and the achievements of other athletes demonstrated Uzbekistan’s significant success in the field of sports wrestling. This article provides a comprehensive overview of the championship, including its details, participants, the results of Uzbek wrestlers, and the overall picture of the competition.

Keywords. Greco-Roman wrestling, World Championship 2025, Uzbek wrestlers, Aytjan Khalmakhanov, Sports wrestling, Zagreb 2025, Youth competition, Gold medal, World wrestling championship.

Kirish. Yunon-rum kurashi qadimdan insoniyat tarixida o‘ziga xos o‘rin tutgan sport turi

hisoblanadi. Yunon-rum kurashi — qadimiy va klassik kurash turi bo‘lib, u kuch, chidamlilik, texnika va intellektual tayyorgarlikni talab qiladi. Bu kurash turi tarixda qadimiy Yunoniston va Rim imperiyalari davridan boshlangan va hozirgi kungacha sportning eng muhim turlaridan biri hisoblanadi. Yunon-rum kurashida faqat yuqori tana bilan ushlash va raqibni yerga tushirish qoidalari amal qiladi, oyoqlarni ishlatish cheklangan. Bu kurash turi nafaqat kuch va chidamlilikni, balki texnika va taktika mohirligini ham talab qiladi. Hozirgi kunda yunon-rum kurashi butun dunyo bo‘ylab mashhur sport turi sifatida tanilgan va har yili Jahon chempionati kabi yirik musobaqalarda o‘zining eng yaxshi vakillarini birlashtiradi. 2025-yil 21–24 sentyabr kunlari Xorvatiyaning Zagreb shahrida yoshlar o‘rtasidagi ushbu sport turi bo‘yicha Jahon chempionati bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston terma jamoasi bu musobaqada tarixiy natijalarni qayd etdi va yosh sportchilar o‘z malakasini namoyish etdi. Mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan kundan boshlab jismoniy tarbiya va sport xususiyatlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishga e’tibor kuchaydi. Hozirgi kunda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir bir qancha Qaror va Farmonlarni imzoladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2022-yil 29-iyuldagi PQ-336-son Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, 2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida Olimpiya va paralimpiya sport turlarini rivojlantirish orqali nufuzli xalqaro sport musobaqalari, shu jumladan, 2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o‘yinlarida (keyingi o‘rinlarda - Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari) sportchilarimizning har tomonlama muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash maqsadida qaror, 2021-yil

5-noyabrda qabul qilingan PQ-5281-sonli “2024 yil Parij shahrida (Fransiyada) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi olimpiya va XVII paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi qarorlari va bir qancha qonun hujjatlarini aytib o‘tish mumkin.

O‘zbekistonning davlat siyosatida mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning yanada rivojlanishi, sog‘lom avlodni tarbiyalash ustuvor yo‘nalishga aylandi. Zamonaviy sport inshootlari qurildi, yangi sport turlari rivojlanib bormoqda, turli miqyosdagi musobaqalar va turnirlar o‘tkazilmoqda hamda aholining turli qatlamlari vakillari ishtirok etmoqda, sportchilarimiz xalqaro maydonlarda yuksak natijalarni qo‘lga kiritishmoqda. Soha rivojlanishining huquqiy bazasi yaratildi. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, sport kurashlari va boshqa sport turlarini rivojlantirish to‘g‘risidagi hukumat qarorlari shular jumlasidandir.

Xorvatiyaning Zagreb shaxrida 13-sentabrdan 21-sentabrgacha sport kurashlari bo‘yicha o‘tkazilgan jaxon chempionatida erkin Yunon-rum bo‘yicha 76 ta davlat qatnashidi O‘zbekiston terma jamoa a’zolari Faxirli 3-o‘rini egaladi. 8 nafar quyidagi hamyurtlarimiz ishtirok ettishdi:

Ikhtiyor Botirov; 55 kg
Alisher Ganeyev; 60 kg
Ayitjan Khalmakhanov; 63 kg
Shermukhammad Sharibjanov; 74 kg
Abdullo Aliyev; 72 kg
Aram Vardanyan; 77 kg
Jalgasbay Berdimuradov; 82 kg
Mukhammadkodir Rasulov; 87 kg

Umum jamoa hisobida 1 ta oltin 1 ta kumush 1 ta bironza medallari bilan terma ja’moamiz umum jamo hisobida 3-o‘rinda yakunladi. Xususan Yunon-rum kurash bo‘yicha -60 kg vazn toifasida Alisher G‘aniyev 2024-yil oktabr oyida Albaniyaning Tirana shahrida o‘tkazilgan U23 yoshlar o‘rtasidagi Jahon chempionatida oltin medalni qo‘lga kiritdi.1 yil o‘tib jaxon chempionatida ham ishonchli tarzda kurash olib bordi va Kumush medalini qo‘lga kiritdi. Yana bir umidli

sportchimiz 2025-yil U20 Jahon chempionati jaxon Oltin medalni qo‘lga kiritti. 2025-yilda Aytjan Khalmakhanov kattalar o‘rtasidagi Jahon chempionatida ham katta muvaffaqiyatga erishdi. U o‘z vazn toifasida -63 kg raqiblarini mag‘lub etib, yuqori darajadagi kurashchilarga qarshi o‘z kuchini isbotladi. Bu g‘alaba O‘zbekiston uchun ayniqsa muhim bo‘ldi, chunki: Bu Aytjanning kattalar o‘rtasida yirik xalqaro musobaqalarda birinchi yirik yutug‘i. O‘zbekistonning yunon-rum kurashida yangi avlod yulduzi sifatida tan olinishiga sabab bo‘ldi. Kelajakdagi Olimpiya va Jahon chempionatlari uchun katta umidlarni uyg‘otdi. O‘smirlar o‘rtasida osiyo va jaxon chempionatlari sovrindori Abdullo Aliyev xam muaffaqiyatli ishtirok etip bronza medaliga sazovor bo‘ldi.

Jahon chempionati kutilmagan natijalarga boy bo‘ldi. Ya’ni amaldagi olimpiya o‘yinlari g‘oliblari kutilmaganda mag‘lubiyatga uchradi.

Yunon-rum kurash bo‘yicha Xorvatiyaning Zagreb shaxrida o‘tkazilgan jaxon chempionatining natijalari

Vazn Toifalari	Oltin	Kumush	Bronza
-55 Kg	Vakhtang Lolua Gruziya	Payam Ahmadi Eron	Eldaniz Azizl Ozarbayjon
			Shi Huoying Xitoy
-60 Kg	Aidos Sultangali Qozog‘Iston	Alisher Ganiev O‘zbekiston	Ri Se-ung Shimoliy Koreya
			Hrachya Poghosyan Armaniston
-63 Kg	Aytjan Khalmakhanov O‘zbekiston	Chung Han-jae Janubiy Koreya	Mohammad Mehdi Keshtkar Eron
			Vitalie Eriomenco Moldova
-67 Kg	Saeid Esmaeili Eron	Hasrat Jafarov Ozarbayjon	Daniial Agaev UWW
			Slavik Galstyan Armaniston, ARM
-72 Kg	Ulvu Ganizade Ozarbayjon	Ibrahim Ghanem Fransiya	Abdullo Aliev O‘zbekiston
			Danial Sohrabi Eron
-77 Kg	Malkhas Amoyan Armaniston	Nao Kusaka Yaponiya	Róbert Fritsch Vengriya
			Ahmet Yılmaz Turkiya
-82 Kg	Gholamreza Farrokhi Eron	Gela Bolkvadze Gruziya	Karlo Kodrić Xorvatiya
			Taizo Yoshida Yaponiya
-87 Kg	Aleksandr Komarov Serbiya	Alireza Mohmadi Eron	Asan Zhanyshov Qirg‘iziston
			Milad Alirzaev UWW

O‘zbekiston terma jamoasining muvaffaqiyatlari.

O‘zbekiston jamoasi bu chempionatda katta natijalarga erishdi. Umumiy hisobda 5 medal — 1 oltin, 1 kumush va 3 bronza medallari qo‘lga kiritildi. Bu yutuq mamlakatimizning yoshlar sport kurashi sohasidagi rivojlanishidan dalolat beradi.

Oltin medal sohibi — Aytjan Xalmaxanov. O‘zbekiston sport kurashida nufuzli nomlardan biri hisoblanadi. Uning kuchli tayyorgarligi va strategiyasi musobaqalarda yuqori natijalar ko‘rsatishga yordam berdi. 2025-yilgi Jahon chempionatidagi g‘alabasi esa uning faoliyatidagi eng yorqin voqealardan biridir.

Aytjan Xalmaxanov -63 kg vazn toifasida o‘zining mahoratini namoyish etdi. U finalda janubiy koreyalik Chung Xan-Jayeni 6:0 hisobida mag‘lub etib, faoliyatidagi ikkinchi Jahon chempionligini qo‘lga kiritdi. Bu O‘zbekiston tarixida 24 yillik tanaffusdan so‘ng yoshlar o‘rtasida oltin medalni qayta qo‘lga kiritgan ilk sportchi bo‘lishi bilan ahamiyatlidir.

Kumush va bronza medallar. Alisher G‘aniyev -60 kg vazn toifasida finalga chiqdi, biroq oxirgi jangda janubiy koreyalik raqibiga imkoniyatni boy berdi va kumush medal bilan taqdirlandi. Shuningdek, bronza medali (-72kg)da gilamga chiqan Abdullo Aliyev ga nasib etdi. Bu yutuqlar yoshlarning katta potentsialga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Musobaqaning umumiy ahamiyati. Jahon chempionati butun dunyo yosh kurashchilari uchun o‘zaro tajriba almashish, o‘z mahoratini sinovdan o‘tkazish imkoniyatini berdi. O‘zbekistonning muvaffaqiyatlari mamlakat sportining yangi avlodining kuchli ekanligini, xalqaro miqyosda o‘z o‘rnini mustahkamlashga qodirligini ko‘rsatdi.

Zagreb-2025 jaxon chempionatida Yunon-rum kurash bo‘yicha terma jamoalari quyidagicha o‘rin egallashdi:

T/r	Jamoa	55 kg	60 kg	63 kg	67 kg	72 kg	77 kg	82 kg	87 kg	97 kg	130 kg	Jami
1	IRAN	20		15	25	15	10	25	20	25	25	**180**
2	AZERBAIJAN	15	2	4	20	25	6		2	15		**89**
3	UZBEKISTAN	4	20	25		15		8				**72**
4	GEORGIA	25	10					20		10		**65**
5	ARMENIA		15		15	8	25		25			**63**
6	KAZAKHSTAN		25			10	10	2	10			**57**
7	HUNGARY					2	15		10	10	20	**57**
8	SERBIA		10		10				25			**45**
9	KYRGYZSTAN	10	4		10			6	15			**45**
10	UKRAINE			10		6	8		6	2	10	**42**

Xulosa. 2025-yilgi yunon-rum kurashi bo‘yicha yoshlar o‘rtasidagi Jahon chempionati O‘zbekiston uchun katta muvaffaqiyat bilan yakunlandi. Aytjan Xalmaxanovning oltin medali, Alisher G‘aniyev va boshqa sportchilarning yutuqlari kelajak uchun katta umidlarni uyg‘otmoqda. Bu natijalar mamlakatimizda sportni rivojlantirishga yanada katta e’tibor qaratilishi zarurligini ko‘rsatadi. Kelajakda O‘zbekiston kurashchilari yanada yuqori marralarni zabt etishiga ishonch komil.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va manbalar.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya Qo‘mitasi rasmiy sayti — https://olympic.uz

Jahon va Osiyo musobaqalari haqida rasmiy ma’lumotlar va yangiliklar.

Sputnik O‘zbekiston yangiliklari — https://oz.sputniknews.uz

O‘zbekiston sportchilari haqida yangiliklar va tahlillar.

United World Wrestling rasmiy sayti — https://unitedworldwrestling.org

Jahon kurashi federatsiyasining rasmiy sayti, musobaqalar natijalari va qoidalar.

Jahon kurashi tarixi va rivojlanishi haqidagi ilmiy maqolalar

Karimov, Sh. (2023). Yunon-rum kurashining O‘zbekistondagi tarixi va rivojlanishi. Tashkent Sport Universiteti nashri. Toshkent, 2023.

Xalqaro sport yangiliklari saytlari va resurslari — BBC Sport, ESPN, Sport-uz, va boshqalar.

AYOLLAR KURASHI BO‘YICHA U17 JAHON CHEMPIONATI TAHLILI

Usmonova Iroda Zaynidin qizi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Sport kurashlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada har yili o‘tkaziladigan ayollar kurashi bo‘yicha U17 jahon chempionati tahlili natijalari taxlil qilingan. Erkin, yunon-rim hamda ayollar kurashi, vazn toifalarida yangi chempionlarning muvaffaqiyatlari va amaldagi chempionlarning muvaffaqiyasizliklari haqida so‘z boradi. Bundan asosiy ko‘zlangan maqsad kelgusi musoboqalarga puxta tayyorgarlik ko‘rish va g‘alabaga erishgan sportchilarni mashg‘ulot hamda tayyorgarlik jarayonlari bilan tanishib borish orqali ularga kelgusi Jahon chempionatiga munosib qarshilik ko‘rsatish edi.

Kalit so‘zlar. Natijalar, U17 Jahon chempionati, g‘alaba, mag‘lubiyat, taxlil, murabbiy, musobaqa faoliyati.

АНАЛИЗ ЧЕМПИОНАТА МИРА ПО ЖЕНСКОЙ БОРЬБЕ (U17)

Усмонова Ирода Зайнидин кизи
Узбекский государственный университет физической культуры и спорта
Кафедра теории и методики спортивной борьбы, преподаватель

Аннотация. В данной статье проанализированы результаты ежегодно проводимого чемпионата мира по женской борьбе среди спортсменок до 17 лет. Рассматриваются успехи новых чемпионов и неудачи действующих чемпионов в вольной, греко-римской и женской борьбе в различных весовых категориях. Основная цель исследования заключается в том, чтобы обеспечить более качественную подготовку к предстоящим соревнованиям, а также, изучая тренировочный и подготовительный процесс победителей, суметь оказать достойное сопротивление на следующих чемпионатах мира.

Ключевые слова: результаты, чемпионат мира (U17), победа, поражение, анализ, тренер, соревновательная деятельность.

ANALYSIS OF THE U17 WORLD CHAMPIONSHIP IN WOMEN’S WRESTLING

Usmonova Iroda Zaynidin qizi
Uzbekistan State University of Physical Culture and Sports, Department of Theory and Methodology of Wrestling, Lecturer

Annotation. This article analyzes the results of the annual U17 World Wrestling Championship in women’s wrestling. It discusses the successes of new champions and the failures of reigning champions in freestyle, Greco-Roman, and women’s wrestling across different weight categories. The main purpose of the study is to ensure thorough preparation for upcoming competitions and, by examining the training and preparation processes of the victorious athletes, to develop strategies for providing worthy resistance at future World Championships.

Keywords: results, U17 World Championship, victory, defeat, analysis, coach, competitive activity.

Dolzarbligi. So‘nggi o‘n yilliklarda ayollar sporti, xususan, ayollar kurashi jadal sur’atlarda rivojlanmoqda. Xalqaro sport tashkilotlarining gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan siyosati, Olimpiya o‘yinlarida ayollar kurashining doimiy sport turi sifatida mustahkamlanishi hamda qit’a va jahon chempionatlarining muntazam o‘tkazilishi ushbu sport turining xalqaro miqyosda tobora keng ommalashib borayotganidan dalolat beradi. Shu jihatdan 2025-yilda o‘tkazilgan o‘smirlar o‘rtasidagi ayollar kurashi bo‘yicha Jahon chempionati global sport harakatida tarixiy ahamiyat

kasb etdi. Musobaqa davomida ko‘plab mamlakat vakillari yuqori natijalarni qo‘lga kiritishi, ayrim davlatlarning ilk bor jahon chempionatida medal olishga muvaffaq bo‘lgani va texnik-taktik uslublarning yanada boyib borishi ushbu tadqiqotning ilmiy asosda tahlil qilinishini dolzarb masalaga aylantirmoqda.

2025-yilgi Jahon chempionati ayollar kurashi sport turida bir qator yangi tendensiyalarni yuzaga chiqardi. Avvalo, an’anaviy kuchli terma jamoalar – Hindiston, AQSH va Yaponiya o‘z yetakchilik mavqeyini saqlab qolgan holda yuqori sport yutuqlarini namoyon etgan bo‘lsa, O‘zbekiston, Germaniya kabi davlatlarning medallar qo‘lga kiritishi global sport maydonida yangi geografik markazlarning shakllanayotganini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, texnik-taktik yondashuvlarda xilma-xillik, sportchilarning yuqori darajadagi tayyorgarligi hamda ayollar sporti nufuzi oshib borayotgani kuzatildi. Ayollar kurashidagi yutuqlar nafaqat sport rivojlanishining yangi bosqichini aks ettiradi, balki sportchi ayollarning jahon miqyosida raqobatbardoshligini, ijtimoiy rolini ham mustahkamlaydi. Bundan tashqari, ilmiy tahlil orqali musobaqa natijalarini o‘rganish kelgusida sportchilarni tayyorlash metodikasini takomillashtirish, murabbiylar faoliyatini ilmiy asoslash hamda xalqaro sport maydonida milliy terma jamoalarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu boisdan, ushbu mavzuning chuqur ilmiy o‘rganilishi zamonaviy sport fanida dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

28-iyul va 3-avgust kunlari Gretsiyaning Afina shahrida o‘smirlar o‘rtasida Ayollar kurashi bo‘yicha Jahon chempionati bo‘lib o‘tdi. Dunyoning 48 dan ortiq davlatidan 210 nafardan ziyod ayol kurashchilarning ishtiroki rasman tasdqilangan. Jumladan, ayollar kurashi bo‘yicha musobaqalarda medallar uchun 10 ta vazn toifasida bellashuvlar bo‘lib o‘tdi. Mazkur musobaqada -40kg, -43kg, -46kg, -49kg, -53kg,

-57kg, -61kg, -65kg, -69kg, -73kg vazn toifalarida bellashuvlarni olib borishdi. Afinada bo‘lib o‘tgan 2025-yilning nufuzli musobaqasi kutilmagan natijalarga boy bo‘ldi. Amaldagi jahon chempionlari kutilmaganda mag‘lubiyatga uchradilar. Ayollar kurashi bo‘yicha o‘tkazilgan Jahon chempionatining g‘olib va sovrindorlarini quyidagi jadvallarda ko‘rishingiz mumkin.

Vazn	Oltin	Kumush	Bronza x 2
40 kg	Shokhista Shonazarova (O‘zbekiston) — 11-0	An Nakanishi (Yaponiya)	Maisie Elliott (AQSh) va Asema Asangaryeva (Qirg‘iziston)
43 kg	Rachana (Hindiston) — 3-0	Xin Huang (Xitoy)	Inzhu Bakkozha (Qozog‘iston) va Madison Healey (AQSh)
46 kg	Hanano Oya (Yaponiya) — 3-0	Janka Sillei (Vengriya)	Jaclyn Bouzakis (AQSh) va Maria Gkika (Gretsiya)
49 kg	Morgan Turner (AQSh) — 6-1	Yu Kataoka (Yaponiya)	Polina Bochkareva (Rossiya) va Komal Verma (Hindiston)
53 kg	Jiaqing Jiang (Xitoy) — 7-4	Epenesa Elison (AQSh)	Rion Ogawa (Yaponiya) va Mariia Zhytovoz (Vengriya)
57 kg	Madkhiya Usmanova (Qozog‘iston) — 6-5	Moni (Hindiston)	Alina Baroeva (Rossiya) va Sayuki Tanada (Yaponiya)
61 kg	Taina Fernandez (AQSh) — 11-0	Yashita (Hindiston)	Barbara Bager (Vengriya) va Zalina Totrova (Belarus)
65 kg	Ashvini Vishnoi (Hindiston) — 3-0	Mukhayyo Rakhimjonova (O‘zbekiston)	Lilia Ermokhina (Rossiya) va Feenja Hermann (Germaniya)
69 kg	Min Zhao (Xitoy) — 13-2	Ayla Sahin (Germaniya)	Solomiia Petriv (Ukraina) va Shakhizada Dauletzhan (Qozog‘iston)
73 kg	Wenjin Qiu (Xitoy) — 8-5	Kajal (Hindiston)	Eylem Engin (Turkiya) va Ella Poalillo (AQSh)

Ayollar kurashi bo‘yicha U17 Jahon chempionati natijalari (ayollar erkin kurash)

O‘zbekiston kurashchilaring Jahon arenadagi natijalari tahlili

O‘zbekiston sportchilari umumiy hisobda 2 ta medalni qo‘lga kiritdi , 40 kg vazn toifasida Shohista Shonazarova oltin, 65 kg vazn Mukhayyo Rakhimjonova kumush medal egalariga

aylanishdi.

Shohista Shonazarova chorak final (¼ final) bosqichida Germaniyadan kelgan sportchini 10-0 hisobada muddatidan oldin g‘alabaga erishib raqibasiga imkoniyat qo‘ldirmadi . Yarıyım finalda AQSh vakilini 9 – 0 ballar hisobida mag‘lubiyatga uchratib finalga yo‘l oldi. Finalda yaponiyalik sportchini 11:0 hisob bilan muddatidan oldin mag‘lub etib, ayollar kurashi bo‘yicha O‘zbekiston tarixida ilk bor Jahon chempioni nomiga sazovor bo‘ldi.



Umuman olganda, Mukhayyo Rakhimjonova – yoshligiga qaramay xalqaro maydonda o‘zini ko‘rsata oladigan va kelajakda oltin medallar uchun kurasha oladigan sportchi, Mukhayyo Rakhimjonova 1/8 final bosqichida qizg‘in ketgan baxsda kichik ustunluk bilan Polshalik raqibasini 6-4 hisobida mag‘lubiyatga uchratdi. ¼ final. Texnik ustunlik – Rakhimjonova murakkab baxslarda ham yaxshi kurash olib bordi. Masalan, chorak finalda bo‘lgan baxsda Maldovalik raqibasini 12-1 hisobida muddatidan oldin mag‘lubiyatga uchratdi. Yarim final bosqichida hamyurtimiz katta jasorat ko‘rsatib musobaqa fovariti bo‘lgan Germaniyalik Feenja Magdalenani ballar hisobida (6-1) qo‘li baland keldi, va ushbu musobaqaning O‘zbek sportchilari orasida ikkinchi finalchisiga aylandi.

Final baxsida hamyurtimizda noaniqliklar harakatlar kuzatildi va biroz faollik yetishmadi, natijada Rakhimjonova hindiston vakili bo‘lgan Ashvini Vishnoiga (3-0) hisobida imkoniyatni boy berdi va shoxsupaning 2-pog‘onasidan joy oldi.

Zagreb-2025 jaxon chempionatida Yunon-rum kurash bo‘yicha terma jamoalari quyidagicha o‘rin egallashdi:

T/r	Jamoa	55 kg	60 kg	63 kg	67 kg	72 kg	77 kg	82 kg	87 kg	97 kg	130 kg	Jami
1	IRAN	20		15	25	15	10	25	20	25	25	**180**
2	AZERBAIJAN	15	2	4	20	25	6		2	15		**89**
3	UZBEKISTAN	4	20	25		15		8				**72**
4	GEORGIA	25	10					20		10		**65**
5	ARMENIA		15		15	8	25		25			**63**
6	KAZAKHSTAN		25			10	10	2	10			**57**
7	HUNGARY					2	15		10	10	20	**57**
8	SERBIA		10		10				25			**45**
9	KYRGYZSTAN	10	4		10			6	15			**45**
10	UKRAINE			10		6	8		6	2	10	**42**

Xulosa. Jahon chempionati g‘oliblari yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorgarlikni, shuningdek, raqib va bellashuv bosqichini hisobga olgan individual taktika usullarini muvaffaqiyatli qo‘llash qobiliyatini namoyish etdilar. Bu, o‘z navbatida, tayyorgarlik jarayonida jismoniy chidamlilik, texnika-taktika ko‘nikmalari va strategik qaror qabul qilishni rivojlantirishni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvning zarurligini tasdiqlaydi. Olingan tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, turli kurashchilarda faol harakatlar intensivligi va dinamikasi sezilarli darajada farq qiladi, bu esa ularning faoliyat ko‘rsatish uslubi va bellashuv strategiyasidagi individual xususiyatlarni aks ettiradi. Ushbu individual xususiyatlarni hisobga olgan holda tayyorgarlik mikrosikllarini optimallashtirish musobaqalarda natijadorlikni oshirishga yordam beradi. Olingan ma’lumotlar ayollar kurashchilarning tayyorgarlik metodikasini takomillashtirish, individual mashg‘ulot dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek mavjud tayyorgarlik yondashuvlari hamda jismoniy va maxsus tayyorgarlikni baholash usullarining samaradorligini tahlil qilishda foydalanilishi mumkin. Tadqiqot natijalari murabbiylar va sport tayyorgarligi mutaxassislariga tayyorgarlik jarayonini aniqroq rejalashtirish, yuklamalarni optimal taqsimlash, shuningdek sportchilarning individual xususiyatlari va organizmning yuklamaga reaksiyasini hisobga olgan holda ularning musobaqa taktikasini moslashtirish imkonini beradi. Shu tariqa, bellashuv natijalarini ilmiy tahlil qilish va zamonaviy tayyorgarlik rejalashtirish metodlarini integratsiya qilish ayollar kurashchilarning tayyorgarlik jarayonini optimallashtirish, sport faoliyatining samaradorligini oshirish va xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishish imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-iyuldagi “sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–336-son qarori bilan Sport kurashlarining olimpiya turlarini 2022 — 2024-yillarda kengroq rivojlantirish dasturi.

https://uww.org/event/u17-world-championships-0/results?utm_sourc

https://www.flowrestling.org/articles/14418766-usa-wrestling-results-at-the-2025-u17-world-championships?utm_source

Adilov S.Q., Ismatullayeva S.R., Usmonova I.Z. «Erkin kurash nazariyasi va uslubiyoti». Darslik.-Toshkent: MAKON SAVDO PRINT nashriyoti, 2024-yil, 174-bet.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA BADIIY MATN TAHLILI KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Qahhorova Abera Sharopovna
Buxoro davlat pedagogika instituti doktaranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy matnni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Maqolada o‘quvchilarda matnni idrok etish, mazmunini anglash, qahramonlarga baho berish, asardagi g‘oyani tahlil qilish va o‘z fikrini mustaqil ifoda etish kompetensiyalarini rivojlantirish usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, badiiy matn tahlilini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos yondashuvlarning ahamiyati tahlil etiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, badiiy matn tahlili o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, estetik did va nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, badiiy matn, tahlil ko‘nikmasi, o‘quvchi faoliyati, pedagogik texnologiyalar, ijodiy fikrlash, estetik tarbiya, nutq rivoji, interfaol metodlar.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ АНАЛИЗА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Каххорова Абера Шароповна
Докторант Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: В данной статье раскрыты теоретические и практические аспекты формирования навыков анализа художественного текста у учащихся начальных классов. Рассматриваются методы развития у школьников умений воспринимать текст, понимать его содержание, оценивать поступки героев, анализировать идею произведения и выражать собственное мнение. Также анализируется значение современных педагогических технологий, интерактивных методов и индивидуального подхода с учётом возрастных и психологических особенностей учеников. Результаты исследования показывают, что анализ художественного текста способствует развитию у учащихся творческого мышления, эстетического вкуса и культуры речи.

Ключевые слова: начальное образование, художественный текст, навык анализа, деятельность учащихся, педагогические технологии, творческое мышление, эстетическое воспитание, развитие речи, интерактивные методы.

DEVELOPING LITERARY TEXT ANALYSIS SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Qakhorova Abera Sharopovna
Doctoral Student, Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: This article explores the theoretical and practical aspects of developing literary text analysis skills in primary school students. It examines methods aimed at enhancing students’ abilities to comprehend texts, understand their content, evaluate characters’ actions, analyze the main idea, and express their own opinions independently. The study also highlights the importance of modern pedagogical technologies, interactive methods, and approaches that consider students’ age and psychological characteristics. Research results show that literary text analysis contributes to the development of students’ creative thinking, aesthetic taste, and speech culture.

Keywords: primary education, literary text, analytical skills, student activity, pedagogical technologies, creative thinking, aesthetic education, speech development, interactive methods.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatimiz taraqqiyotini

ta’minlash, ta’lim tizimini yanada takomillashtirish hamda mustaqil fikrlovchi, keng dunyoqarashli va ma’nan yetuk shaxsni tarbiyalashni talab etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” asarida: “Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko‘ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g‘ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko‘zlangan maqsadga albatta yetamiz”[1],¬ - deya ta’kidlagan. Ushbu fikrlar ta’lim tizimida yosh avlodning intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, eng avvalo, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. O‘zbekistonda ta’lim jarayoni ko‘p bosqichli yagona tizimga ega bo‘lib, uning har bir bosqichi ta’lim oluvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda izchil amalga oshirilmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim jarayoni o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, badiiy matnlarni o‘qish va tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarda estetik did, ma’naviy qadriyatlarni anglash hamda mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalari shakllanadi. Badiiy asarni o‘rganish jarayonida o‘quvchi matn mazmunini tushunish, qahramonlarning xatti-harakatlariga baho berish, asardagi g‘oyani aniqlash va undan ibrat olishni o‘rganadi.

Badiiy matn tahlilida so‘zning shunchaki ishtirok etmasligini, balki u ma’no va obrazlar orqali asarning g‘oyaviy yo‘nalishini ifodalashini anglab yetish muhimdir. Shu boisdan boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga badiiy matnni o‘qitish va tahlil qilish jarayonini samarali tashkil etish, ularning tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir.

Yangi shaxsni shakllantirish jarayonida g‘oyaviy, axloqiy va estetik ta’sir kuchini o‘zida mujassamlashtirgan badiiy asarlar muhim o‘rin tutadi. Badiiy asarga xos tasviriy vositalar, obrazlilik, badiiy tilning o‘ziga xos xususiyatlari o‘quvchi tomonidan to‘g‘ri anglab yetilgandagina asarning tarbiyaviy ahamiyati va ta’sir kuchi to‘liq namoyon bo‘ladi. Shu sababli, badiiy asar tilini lisoniy tahlil qilmasdan turib, ko‘zlangan tarbiyaviy va didaktik maqsadlarga erishish qiyin[10, 220].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy matnni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi pedagogika, metodika va psixologiya fanlarida muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, nutq madaniyati, estetik didi va ma’naviy dunyosini boyitish maqsad qilingan.

Mazkur muammo bo‘yicha ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, A. Avloniy, A. Qodiriy, H. Olimjon, G‘. G‘ulom singari adabiyot va ta’lim sohasidagi ziyolilar badiiy asarlarning tarbiyaviy ahamiyatiga e’tibor qaratganlar. Keyingi davrda esa S. Rahimov, M. Qodirova, Z. Mirtursunova, D. Xodjayeva, N. To‘xtayeva, X. Sodiqova, N. Quronov kabi tadqiqotchilar boshlang‘ich ta’limda o‘qish darslarini tahliliy yo‘nalishda tashkil etish, o‘quvchilarning matnni idrok etish faoliyatini rivojlantirish masalalarini o‘rganganlar.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda badiiy matn tahlili o‘quvchilarning nutq faoliyati, mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida qaraladi. Tadqiqotlarda tahlil ko‘nikmasini rivojlantirish uchun interfaol metodlar, klaster, Venn diagrammasi, “Insert”, “Sinkveyn” kabi texnologiyalar samarali vosita sifatida tavsiya etiladi.

Xorijiy tadqiqotlarda (masalan, L. S. Vygotskiy, J. Bruner, R. Barthes, L. Rosenblatt asarlarida) badiiy matnni o‘qish va tahlil qilish jarayoni shaxsning tafakkurini rivojlantiruvchi faol jarayon sifatida talqin etiladi. Ularning ta’kidlashicha, o‘quvchi matnni tahlil qilish orqali muallif fikrini anglash, o‘z pozitsiyasini shakllantirish va tahliliy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston olimlari esa bu jarayonni milliy qadriyatlar, xalq og‘zaki ijodi, maqol, ertak, doston kabi badiiy janrlar asosida o‘qitish zaruriyatiga urg‘u berib kelmoqdalar. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda “O‘qish kitobi” darsligi materiallari asosida olib boriladigan tahliliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ma’naviy kamolotida katta ahamiyat kasb etadi.

Shu asosda aytish mumkinki, badiiy matn tahlili ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi nazariy jihatdan yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu jarayonni metodik jihatdan takomillashtirish, o‘quvchi yoshiga mos innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish hozirgi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar asarda ishtirok etuvchi qahramonlarga baho berishda o‘zlarining shaxsiy, axloqiy va ma’naviy tushunchalaridan foydalanadilar. Ular “botirlik”, “to‘g‘rilik”, “mehnatsevarlik”, “yaxshilik” kabi ijobiy sifatlarning mazmunini anglab, ularni o‘z nutqida qo‘llay oladilar. Shu bilan birga, ba’zan qahramonlarning boshqa fazilatlarini ifodalash uchun so‘z boyligi yetarli bo‘lmaydi. Bu holatda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan asar matnini tahlil etish jarayonida ularning nutqiga qahramonlarning axloqiy, intellektual va emotsional sifatlarini ifodalovchi yangi so‘zlarni kiritib boradi.

Muhokama va natija. Badiiy asar o‘quvchilarga inson xarakterining turli jihatlarini tushuntirish, ezgulik va yovuzlik, halollik va hiyonat, mehnatsevarlik va sustkashlik kabi qarama-qarshi tushunchalarni farqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan badiiy matn tahlilini quyidagi muhim qoidalar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq:

Asarning g‘oyaviy yo‘nalishini aniqlash va uni o‘quvchi dunyoqarashi bilan bog‘lash;

Qahramonlarning xatti-harakatlari orqali ularning axloqiy sifatlarini tahlil qilish;

Asardagi tasviriy vositalar – epitet, ta’kid, o‘xshatish, metafora kabi badiiy birliklarni sodda tilda tushuntirish;

O‘quvchilarning mustaqil fikrini shakllantirish uchun ularni tahlil jarayoniga faol jalb etish;

O‘qilgan asardan ibratli xulosa chiqarish, uni hayotiy tajriba bilan bog‘lash.

Bunday yondashuv o‘quvchilarda nafaqat matnni tahlil qilish ko‘nikmasini, balki so‘z boyligini, estetik didini va axloqiy qarashlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Badiiy matnni tahlil qilish o‘quvchida fikr uyg‘otishi, muallif tomonidan yoritilgan g‘oyalar va hayotiy tajriba o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash imkonini beradi. Shuning uchun tahlil jarayonida o‘quvchi o‘z hayoti, kuzatuvlari va tajribasi bilan matn mazmunini taqqoslay olishi muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga hikoya, she’r, ertak, masal, maqol va topishmoq kabi turli janrdagi badiiy asarlar amaliy o‘rganish uchun beriladi. Har bir janrning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lgani sababli, o‘qituvchi matnni o‘qitishda unga mos metod va uslublarni tanlashi zarur.

Ertak janrini tahlil qilish. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish maqsadida ertaklardan keng foydalaniladi. Ertak – insonning ma’naviy va jismoniy kuchiga ishonchni, ezgulik va adolat g‘oyalarini ifoda etuvchi janrdir. Unda ezgu kuchlarning yovuzlik ustidan g‘alaba qilishi bolalarda ijobiy fazilatlarni shakllantiradi.

Ertaklarning sodda, ohangdor va ta’sirchan tili, so‘zlarning takrorlanishi hamda voqealarning tez rivojlanishi kichik yoshdagi bolalarda qiziqish uyg‘otadi. Ertak qahramonlari — rahmdil, saxovatli, adolatli shaxslar bilan bir qatorda, ularning aksi bo‘lgan yovuz, baxil va ochko‘z obrazlar orqali axloqiy qadriyatlar farqlanadi. Shu tariqa ertak o‘quvchilarda yaxshilik va yomonlik, adolat va nohaqlik tushunchalarini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Hikoya janrini tahlil qilish. Boshlang‘ich sinf darsliklarida hikoyalar alohida o‘rin tutadi. Hikoya – kichik hajmli badiiy asar bo‘lib, unda inson hayotidagi muhim bir voqea yoki epizod badiiy ifoda topadi. Hikoyalar ertaklarga nisbatan hayotiy mazmunga ega bo‘lib, bolalar uchun real voqealarni tushunishda yordam beradi.

Hikoyani o‘qitishda o‘qituvchi asarning syujeti, qahramonlarning xatti-harakati, portreti,

voqea rivoji va g‘oyaviy yo‘nalishini izchil tahlil etishga e’tibor qaratadi. Matn ustida lug‘at ishi olib borish, notanish so‘zlarni tushuntirish, o‘qilgan hikoyani qayta hikoyalash o‘quvchilarning nutq rivojiga yordam beradi.

Masalan, Oybekning “Mehnatkash qiz” hikoyasi asosida o‘tkaziladigan darsda o‘quvchilar Unsin obrazining mehnatsevarlik, mehribonlik, oilaga sadoqat kabi fazilatlarini tahlil qiladi. Quyidagi savollar orqali o‘quvchilarning tahliliy fikrlashi faollashtiriladi:

Unsin qanday xarakterga ega?
U qanday yumushlarni bajaradi?
Shokir ota qaysi hunar bilan shug‘ullanadi?
Unsinning mehnatkashligi tasvirlangan joyni toping.
Sizga Unsinning qaysi xislatlari yoqdi?
Siz ham uyda ota-onangizga yordam berasizmi?

Bu savollar asosida o‘quvchilar hikoya qahramonlarining fazilatlarini tahlil qiladi, o‘z fikrini mustaqil ifoda etishni o‘rganadi hamda asarning tarbiyaviy g‘oyasini chuqurroq anglaydi[10].

Maqollarni tahlil qilish. Boshlang‘ich sinflarda maqollar o‘quvchilarning nutq madaniyatini, tafakkurini va axloqiy qarashlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maqollar xalq donoligini ifodalovchi, qisqa va lo‘nda, chuqur ma’noli hikmatli so‘zlardir. Ular o‘git, nasihat yoki hayotiy kuzatuv asosida yaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarga ibratli xulosa chiqarishni o‘rgatadi.

Masalan, “Yer haydasang – kuz hayda, kuz haydamasang – yuz hayda” maqoli mehnatsevarlik, vaqtni qadrlash va mas’uliyat hissini tarbiyalaydi.

1–2-sinflarda maqollarni ifodali o‘qish, yod olish va ma’nosini izohlashga e’tibor qaratiladi. Shu bilan birga, maqolda ishlatilgan badiiy ifoda vositalari, qarama-qarshi yoki ko‘chma ma’noli so‘zlar ustida lug‘at ishi olib borish o‘quvchilarning so‘z boyligini oshiradi.

3–4-sinflarning “O‘qish kitobi” darsligida “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limi tarkibida “Maqollar” mavzusi alohida o‘rin egallagan. Ushbu mavzuni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarga maqollarning kelib chiqishi va yaratilishi haqida elementar, ammo muhim ma’lumotlar beriladi. Ayniqsa, maqollar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, kuzatuvlari va ijtimoiy hayotdan olingan xulosalari asosida vujudga kelgani alohida ta’kidlanadi[4].

4-sinf “O‘qish kitobi”da maqollar “Ona yurting – oltin beshiging”, “Eldan ayrilguncha, jondan ayril”, “Mehnat – baxt keltirar” kabi mavzular asosida keltirilgan. Bu maqollar bilan bog‘liq holda darslikda ularning mazmuniga mos badiiy asarlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar asar g‘oyasini maqollar bilan bog‘lab tahlil qilishga o‘rgatiladi.

Mazkur jarayonda o‘quvchilarning hayotiy tajribalaridan foydalanish, ularning kundalik hayotidan misollar keltirish, shuningdek, maqol mazmuniga mos hikoya tuzish yoki matn yaratish kabi ijodiy topshiriqlar berish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

3–4-sinflarda maqol janrini o‘rganish bo‘yicha tahliliy ishlar o‘quv yili davomida izchil tarzda olib boriladi. O‘quvchilarga “Asar g‘oyasiga oid maqol ayting”, “Maqollar asosida boshqotirma tuzing”, “Rebus yarating” kabi topshiriqlar beriladi. Shu bilan birga, “Maqollar aytish musoboqasi”, “Maqollar mushoirasi” kabi tadbirlar tashkil etilishi o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, so‘z boyligini oshirish va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Badiiy matnni o‘qish va tahlil qilish jarayoni bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stiradi, nutqni rivojlantiradi, aqliy faoliyatni faollashtiradi. O‘quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o‘rgatish ularning adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish bilan birga, ta’lim-tarbiya jarayonini yanada samarali qiladi.

Asar matnini tahlil qilish muallifning fikrini, hissiyotini va maqsadini anglashga yordam beradi. O‘quvchilar asarda tasvirlangan voqealarga, qahramonlarning xatti-harakatiga o‘z munosabatini bildiradi, bu esa ularning estetik didi va axloqiy qarashlarini shakllantiradi.

Maktabda badiiy asarni tahlil qilishdan asosiy maqsad — asarda ifodalangan hayotiy voqealar orqali o‘quvchini badiiy adabiyot olamiga olib kirish, muallifning niyatini, hissiyotini va g‘oyasini

anglashga sharoit yaratishdan iboratdir. Shu tariqa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy matn tahlili ko‘nikmalarini rivojlantirish ularning tafakkurini kengaytiradi, nutqini boyitadi hamda ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy matn tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish o‘quvchilarning nutqini rivojlantiradi, estetik didini boyitadi va ma’naviy olamini kengaytiradi. Hikoya, ertak, maqol kabi janrlar bilan ishlash jarayonida o‘quvchi matnni anglash, qahramonlarga baho berish, asardan xulosa chiqarish va o‘z fikrini ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bois, badiiy matn tahlilini o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar va interfaol metodlardan foydalanish bugungi ta’lim tizimining dolzarb masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Sh. M. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” Toshkent-2021.B.102

Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni tashkil etishning nazariya soslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –TDPU. 2004. -258 b.

Ibragimov R. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Ped. fan. dok. diss. ... –Toshkent: TDPU, 2001. -243 b.

Matchonov S., G‘ulomova X. va boshqalar. Boshlang‘ch sinf o‘qish darslarini pedagogik texhologiyalar asosida tashkil etish. -T:, “Yangiyul Poligraph service”, 2008.

Oybek Ortiqov, and Murodova Maqsuda. “Talabalar axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari” Interpretation and researches 2.18 (2024): 33-40.

Ortiqov, Oybek Rustamovich. «O‘qituvchi faoliyatida pedagogik deontalogiya va kompentlikning roli va ahamiyati.» Scientific progress 2.5 (2021): 42-47.

Artikov, Oybek, and Maksuda Murodova. “Opportunities to develop ecological culture of students” BIO Web of Conferences. Vol. 130. EDP Sciences, 2024.

Olimov, Shirinboy, Oybek Artikov, and Maksuda Murodova. “The use of national values in forming the ecological world view of students” BIO Web of Conferences. Vol. 141. EDP Sciences, 2024.

Siddiqova Sh. “Fan, ta’lim va amaliyot” majmuasining dolzarb muammolari. Toshkent.B.224.

Umarova M, Hamroqulova X, Tojiboyeva R. “O‘qish kitobi” 3-sinf darsligi. B.204.

Qahhorova, Abera Sharopovna. “Teacher activity in innovative analysis of artistic texts in primary education” international conference on modern development of pedagogy and linguistics. Vol. 1. No. 3. 2024.

Qahhorova, Abera. “Boshlang’ich ta’limda ona tili darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish masalasi”. Problems and solutions of scientific and innovative research 1.2 (2024): 47-50.

Qahhorova Abera Sharopovna, “The importance of analyzing poetic texts in primary education”. Multidisciplinary Journal of Science and Technology 5.4 (2025): 1261-1263.

Sharopovna, Qahhorova Abera. “On Reading and Analyzing Literary Texts in Primary Education” Spanish Journal of Innovation and Integrity 42 (2025): 422-424.

DISCOURSE TECHNIQUES USED BY STUDENTS IN A CLASSROOM DEBATE PERFORMANCE

Saxiyeva Nodira Bahtiyor qizi
UzSWLU

Abstract. Since the advantages of conducting a debate in a speaking class include developing objectivity toward contentious issues and the capacity for logical reasoning, it may offer students the chance to practice their exploratory talk. Students must possess communicative competencies, which are divided into four categories: grammatical, discourse, sociolinguistic, and strategic, in order to meet the program's objectives. The usage of discourse methods by the students is the focus of this study since it demonstrates their capacity to link sentences or utterances to create coherent utterance units. Furthermore, this approach is necessary to convey ideas and understand them because effective representation of the message would require thorough thought to occur both before and after the utterances. Thus, this study's main goal is to identify the kinds of discourse tactics that students use when they debate in the Speaking for Academic Purposes course.

Key words: debate, discourse, competence, academic purpose, scientific research, discussion.

Аннотация. Поскольку ведение дебатов на занятиях по устному общению способствует развитию объективности в отношении спорных вопросов и способности к логическому мышлению, это может дать студентам возможность попрактиковаться в исследовательском выступлении. Для достижения целей программы студенты должны обладать коммуникативными компетенциями, которые подразделяются на четыре категории: грамматические, дискурсивные, социолингвистические и стратегические.

В центре внимания данного исследования – использование студентами методов дискурса, поскольку это демонстрирует их способность связывать предложения или высказывания в связные речевые единицы. Более того, этот подход необходим для передачи и понимания идей, поскольку эффективное представление сообщения требует тщательного обдумывания как до, так и после высказываний. Таким образом, основная цель данного исследования – выявить виды дискурсивных тактик, используемых студентами в дебатах по курсу «Говоря в академических целях».

Annotatsiya. Talabalar tomonidan nutq usullaridan foydalanish ushbu tadqiqotning diqqat markazida bo'ladi, chunki bu ularning izchil nutq birliklarini yaratish uchun jumlalarni yoki gaplarni bog'lash qobiliyatini ko'rsatadi. Bundan tashqari, bu yondashuv g'oyalarni etkazish va ularni tushunish uchun zarurdir, chunki xabarni samarali ifodalash nutqdan oldin ham, keyin ham chuqur o'ylashni talab qiladi. Shunday qilib, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi talabalar «Akademik maqsadlarda gapirish» kursida bahslashayotganda foydalanadigan nutq taktikalarini aniqlashdir.

Ushbu tadqiqot o'quvchilarning nutq usullaridan foydalanishiga qaratilgan, chunki bu ularning jumlalarni yoki gaplarni izchil nutq birliklariga bog'lash qobiliyatini namoyish etadi. Bundan tashqari, bu yondashuv g'oyalarni muloqot qilish va tushunish uchun juda muhimdir, chunki samarali etkazib berish nutqdan oldin va keyin ehtiyotkorlik bilan o'ylashni talab qiladi. Shuning uchun ham ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi "Akademik nutq" kursida talabalar tomonidan bahs-munozaralarda qo'llaniladigan diskursiv taktika turlarini aniqlashdan iborat.

1. Introduction

It is inevitable for a proficient language user to convey and understand messages in accordance with specific settings, which call for techniques to generate the language in both written and spoken forms. According to Brown (2007), when a speaker produces spoken language, their

discourse is characterized by interactions with one or more other people. We must comprehend the meanings of the discourse's stretches not just from its individual words but also from the referents in the sentences that come before and after them. According to Canale's (1983) categories, this tactic might be a sign of the speaker's communicative competence, which is divided into four subcategories: (1) grammatical competence, (2) discourse competence, (3) sociolinguistic competence, and (4) strategic competence. Discourse competence, out of the four categories, demonstrates the capacity to link phrases or utterances in discourse segments to create coherent utterance units. When a speaker possesses discourse competency, they have developed discourse strategies during the communication process.

According to Gumperz (1982), discourse strategies are tactics used in a conversation to try to comprehend one another in that specific situation. The speakers should create a well-organized structure so that everyone can comprehend each other's statements. When organizing the structure, communicative functions including indicating coherence, topic link and continuity, and position should be taken into account. Prior research on discourse techniques has been conducted in professional communication as well as in classrooms (Michaels & Cook-Gumperz, 1979; Micheau & Billmyer, 1987; O'Connor & Michaels, 1993; Aman, Awal, & Jaafar, 2014; Skovholt, 2016; and Besedina, Dudkina, Kopylovskaya, 2017).

In 1979, Michaels et al. carried out an early investigation on discourse tactics. They examined the children's discourse style when they were narrating stories. The outcome demonstrated that the conversation was divided into two categories: topic-chaining and topic-centered.

Research on the discourse methods employed by native speakers versus non-native speakers in a graduate business school was published by Micheau and Billmyer (1987). Aman et al. (2014) completed a discourse study research project in more recent years. They talk about the discourse technique used in academic articles published in high-impact journals that are written in Malay and deal with science and technology. Furthermore, Besedina et al. (2017) carried out a study that described the usage of discourse strategies in TV interviews that were made publicly available. The findings of this study are utilized to close the gap between theory and practice.

Since full thought must occur both before and after the utterances in order to obtain a meaningful representation of the message, those earlier studies and their conclusions highlight the significance of having discourse techniques to convey thoughts and fully understand concepts. Thus, the kinds of discourse strategies generated during speech events are the focus of this study. In contrast to other research, the focus of this study's consideration of discourse strategy types is on the students' speech during debate performances. Students' conversations are crucial to classroom discourse in educational contexts. In order to demonstrate their cognitive capacity, they must actively participate in the construction of knowledge.

To the best of our knowledge, O'Connor and Michaels (1993) and Skovholt (2016) are the only two prior studies that have been done to identify discourse techniques in classroom settings. The former has concentrated on the use of language as a socialization and control tool. The second project, carried out by Skovholt (2016), is a case study to determine how scientific discourse is established in Norwegian teacher education institutions through conversational turn.

The study has examined how students and teachers interact during a student-led discussion, leading to a conflict between «scientific talk» and «mundane talk» (p.1). While scientific talk relates to the students' reference to a common scientific domain, mundane talk happens when the students' talk refers to their own personal domain as demonstrated in their assertion. The study's findings are significant for language instruction because they demonstrate how teachers' roles in enabling the classroom affect students' performance and/or the conflict between everyday and scientific discourse.

According to our research, all of the classes in the English department at an Indonesian university provide students the chance to speak as a way to demonstrate their engagement and active learning. According to our findings, professors provide students plenty of opportunity to

exhibit their subject-matter expertise by generating written or spoken outputs throughout teaching and learning activities. Speaking for Academic Purposes is one particular course, however, that gives students the language functions and expressions they need to practice giving debate presentations (Department of English Catalogue, 2017).

According to the course description, the goal of this course is to help students expand their skills and improve their ability to present, participate in panel discussions, and argue. Therefore, describing the students' discourse tactics during their debate performances is the aim of this study. This study is centered on the students' scientific and everyday discourse from their debate performances, following in the footsteps of earlier research by Skovholt (2016).

2. Research Method

According to Conrad (2002) and Baker (2006), this study is a corpus linguistic analysis that uses both quantitative and qualitative methods. Conrad (2002) emphasizes the usage of both strategies because of their respective advantages, further elaborating on their combination. Whether an event is common or uncommon, researchers can identify patterns of language use with a quantitative assessment. However, numbers provide little insight about language. Thus, in order to gain a deeper knowledge of language phenomena, the application of qualitative approaches is linked to functional interpretations of language patterns.

Discourse strategies in spoken writings created by English Department students are identified using quantitative data. In the meantime, the quantitative data and its depiction of discourse strategies, as well as the reasons why students adopt particular discourse strategies during their exploratory discussions, are analyzed using a qualitative method.

Students at Universitas Negeri Malang's Department of English, Faculty of Letters, provided the data for this study. The information is presented as student utterances that were captured during their debate performances for Speaking for Academic Purposes assignments. The utterances made by the students during their exploratory talk also help to develop the UMSpeaKs corpus, which is a collection of naturally occurring spoken texts at Universitas Negeri Malang.

During their Speaking for Academic Purposes sessions, the students are required to participate in a debate in order to collect the data. To ensure that every statement is prepared for transcription, the performance is recorded. To determine the corpus of the students' utterances, the results of the recordings made by the students during their argument are then transcribed and calculated. We are aware that the children' abnormal behavior will be affected by the recording process. As a result, the recording procedure is routinely carried out in an effort to lessen the students' abnormal behavior. The researchers may obtain accurate student data in this way.

Since this is a qualitative study, the sampling procedure is regarded as a purposeful and interactive one, in which participants may be identified through continuous data analysis (Miles and Huberman, 1994; Morse, 1994). As a result, we can specify which research participants will be examined.

3. Findings and Discussion

The findings of the study on students' spoken utterances during Speaking for Academic Purpose sessions are explained and expanded upon in this section. As was previously noted, the Speaking for Academic Purposes course aims to increase students' proficiency by using critical language functions in panel discussions, debates, and presentations on current issues. Consequently, the following is how the course learning objectives are developed:

- The students can use appropriate language functions when conducting a seminar;
- They can conduct a seminar by demonstrating the responsibilities of those involved;
- They can organize a panel discussion based on the dynamic characteristics of a panel discussion;
- They can conduct a panel discussion based on the responsibilities of those involved;
- They can use appropriate language functions when conducting a debate; and

• They can prepare and conduct a debate.

The way the learning objectives for the course are formulated indicates that the students are essentially engaging in exploratory conversations by having the chance to try out the language they are learning. Some significant features of exploratory conversations, which are most likely occurring during the teaching and learning processes in Speaking for Academic Purpose classes, have been highlighted by Mercer (2008).

One feature of exploratory discussions is the desire for consensus and collaborative decision-making, which may result from the way students actively listen to one another and share pertinent information. Students must be able to tell stories, scaffold, explain, paraphrase, repeat, ask questions, borrow, and do a lot more in order to make a collaborative decision (Tarone, 1978; Cegala, 1988; Van der Stuyf, 2002; and Dalton-Puffer, 2009). Thus, the purpose of this study is to determine how students use coordinating or subordinate conjunctions to connect their utterances during their debate performances.

As a speech event, holding a debate could give students the chance to hone their exploratory speaking skills, cultivate objectivity when it comes to contentious issues, and hone their logical reasoning abilities. An excerpt taken from a student's Speaking for Academic Purposes class debate performance is as follows:

Therefore, in my opinion, those transplants should be regarded as dangerous and significant procedures. In particular, children—well, a normal person is one who is born with all of their organs. Everyone has fantasized of having a complete body, especially parents. In order to ensure their child has the best possible luck, parents always want to give them everything. For instance, if a child loses their fingers, a transplant may be one of the options a doctor can present to the parents. However, I mentioned earlier that the cost of the surgery is higher.

Naturally, financial difficulties are the root cause of all troubles. Therefore, as is well known, transplantation involves surgery—both minor and major. In other words, surgery does require funding, and that is the traditional difficulty with all fundamental problems. Therefore, money is needed here, not just for the surgery. Typically, patients who have received organ transplants must establish some sort of therapy, especially in this scenario where the patient's fingers are involved.

Of course, that also costs money. Therefore, the parents should cover the cost of both the therapy and the actual surgery. The students' excerpt demonstrates that the discussion uses a few discourse techniques to link the concepts in one line to the next. These tactics take the shape of:

• The application of discourse markers.The usage of coordinate conjunctions, subordinate conjunctions, adverbs, prepositional phrases, and prepositions are examples of discourse markers, also known as pragmatic markers, which aid in bridging transitions between sections. Gambits and elements of conversational structure like turn-taking patterns, interruptions, adjacency pairs, and repairs could be additional instances (Keller, 1981). When the speaker was expressing her perspective and her viewpoint on the subject, the bolded phrases from the passage—I mean, I stated—became the markers to connect the sentences. The use of those statements, particularly when they become repetitive, reveals the speaker's subjectivity because the explanation is based on her own perspective, even if debate performances allow students the chance to provide explanations. Sometimes it's good to give kids plenty of time to express their opinions using the language, but they need to work on using more scientific terminology to back up their claims. It is also consistent with the findings of earlier research by Skovholt (2016), which found that a significant number of students use scientific language in their group discussions and classroom interactions in Scandinavian educational research.

• The coordinator conjunctions and, but, so are used.There are many different methods to employ the connector «and,» which can be used to join sentences and create complex sentences that serve to provide more information. To indicate contrast, the word «but» is used to join sentences. Within a single sentence, one notion would be in opposition to another. Then, to join phrases that demonstrate results, the word «so» is employed.The students' excerpt demonstrates

how to join sentences together using those coordinating conjunctions. But essentially, it is used to relate her notion as her own particular domain in order to assert her beliefs, ideas, and claims. The passage doesn't show that she tried to connect her thoughts and beliefs to more objective scientific discourse in order to provide an explanation of the subject.

Conclusion and Suggestions

This study demonstrates that most students are inclined to express their opinions and ideas regarding the suggested topic, even though it is too soon to draw the conclusion that students enrolled in Speaking for Academic Purposes create more banal speech than scientific speech. While this does not necessarily indicate that they are in the wrong frame of mind, the course's goal is to train students to use the language in academic settings, so they should concentrate more on how to support their opinions and ideas with pertinent and connected information in order to be more objective and scientific.

References:

1. Aman, I., Awal, N. M., & Jaafar, M. F. (2014). Discourse strategies of science and technology academic texts: A Malay language account. Procedia – Social and Behavioral Sciences, 136, pp. 344 – 349.

2. Baker, P. (2006). Using Corpora in Discourse Analysis. London/New York: Continuum. DOI 10.18502/kss.v3i10.3934 Page 466 ISoLEC

3. Besedina, Y.I., Dudkina, A.I., & Kopylovskaya, M.Y. (2017). Learning discourse strategies for international relations. Методички видици 8, 355 – 372, doi:10.19090/mv.2017.8.355-372

4. Brown, H. D. (2007). Principles of language learning and teaching: Fifth edition. New York: Pearson Education, Inc.

5. Canale, M. (1983). From communicative competence to communicative language pedagogy. In J. Richards & R. Schmidt (Eds.). Language and communication (pp. 2 – 27). London: Longman Group, Ltd.

6. Cegala, D.J. & Villaume, W.A. 1988. Interaction involvement and discourse strategies: The patterned use of cohesive devises in conversation. Communication Monographs, 55(1):2240.

7. Conrad, S. (2002). Corpus linguistic approaches for discourse analysis. Annual Review of Applied Linguistics, 22, pp.75- 95.

8. Dalton-Puffer, C. 2009. Explaining: a central discourse function in instruction. In

III Colloquium on Semi-Immersion in Catalonia: International Roundtable on CLIL programme 28th and 29□*h* April.

9. Gumperz, J.J. (1982). Discourse strategies. Cambridge: Cambridge University Press.

10. Keller, E. 1981. Gambits: Conversational strategy signals. In F. Coulmas (ed.). Conversational Routine. The Hague: Mouton.

11. Michaels, S. & Cook-Gumperz, J. 1979. A study of sharing time with first grade students: Discourse narratives in the classroom. Proceedings of the Fifth Annual Meeting of the Berkeley Linguistics Society, pp. 647 – 660.

12. Micheau, C. & Billmyer, K. 1987. Discourse strategies for foreign business studies: Preliminary research findings. English for Specific Purposes, 6 (2), pp. 87 – 97.

13. Miles, M.B., & Huberman, A. M. (1994). Qualitative data analysis: An expanded sourcebook. Thousand Oaks, CA: Sage Publications.

14. O'Connor, M.C., & Michaels, S. 1993. Aligning academic task and participation status through revoicing: Analysis of a classroom discourse strategy. Anthropology and Education Quarterly, 24 (4), pp. 318 – 335.

15. Skovholt, K. 2016. Establishing scientific discourse in classroom interaction teacher students' orientation to mundane versus technical talk in the school subject Norwegian. Scandinavian Journal of Educational Research, doi: http://dx.doi.org/10

16. Tarone, E. 1979. Interlanguage as chameleon. Language Learning, 29(1):181-191.

17. Van der Stuyf, R. (2002). Scaffolding as a teaching strategy. (Online http:// workplacesafety. pbworks.com/f/Scaffold%20Learning.doc

FIZIKA MEXANIKAGA OID MASALALARNI YECHISHDA MODELLASHTIRISH METODLARIDAN FOYDALANISH

Eshtemirov Axror Nurmaxmatovich
Shaxrisabz davlat pedagolka institute, Tabiiy fanlar kafedrasi muderi p.f.f.d.,(PhD)

Karimova Dilbar Zayniddinovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada fizika mexanikaga oid masalalarni yechishda modellashtirish metodiga moslashtirishning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, fizikaga oid o‘quv masalalari bosqichlarini modellashtirish metodlari va kognitiv faoliyatni tahlil qilish asosida masalalarni yechishning umumlashtirilgan metodlari keltirib o’tilgan.

Bundan tashqari, texnika oliy o‘quv yurtlari talabalarida fizikadan turli xil murakkablikdagi masalalarni yechishda modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishda nazariy, eksperimental, sifatli, miqdoriy, oddiy, murakkab, ijodiy, mavhum va aniq masalalarni yechish orqali amalga oshirilishi yo’llari tahlil qilingan.

Kalit so‘z. Model, modellashtirish, fizik masala, modellashtirish metodi, eksperiment, eksperimental masalalar, texnika oliy o‘quv yurtlari, kognitiv faoliyat, obyekt va boshqalar.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДОВ МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ РЕШЕНИИ ЗАДАЧ ПО ФИЗИКЕ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Эштемиров Ахрор Нурмахматович
Шахрисабзский государственный педагогический институт,
Заведующий кафедрой естественных наук, кандидат биологических наук (PhD)

Каримова Дильбар Зайниддиновна
Студентка Шахрисабзского государственного педагогического института

Аннотация. В данной статье анализируются специфические аспекты адаптации к методу моделирования при решении задач, связанных с физикой. Приведены также методы моделирования этапов учебных задач по физике и обобщенные методы решения задач на основе анализа познавательной деятельности.

Кроме того, проанализированы пути реализации методики формирования у студентов высших учебных заведений навыков моделирования при решении задач различной сложности по физике путем решения теоретических, экспериментальных, качественных, количественных, простых, сложных, творческих, абстрактных и конкретных задач.

Ключевое слово. Модель, моделирование, физическая задача, метод моделирования, эксперимент, экспериментальные задачи, техника высших учебных заведений, познавательная деятельность, объект и др.

THE USE OF MODELING TECHNIQUES IN SOLVING PROBLEMS RELATED TO PHYSICS IN HIGHER EDUCATION

Eshtemirov Akhror Nurmakhmatovich
Shakhrisabz State Pedagogical Institute, Head of the Department of Natural Sciences, Ph.D.

Karimova Dilbar Zayniddinovna
Student of Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Annotation. This article analyzes specific aspects of adaptation to the modeling method in solving problems related to physics. Also cited are methods for modeling the stages of educational

issues related to physics and generalized methods for solving problems based on the analysis of cognitive activity.

In addition, the ways in which the technique is carried out by solving theoretical, experimental, qualitative, quantitative, simple, complex, creative, abstract and concrete issues in the formation of modeling skills in solving problems of different complexity from physics are analyzed in students of higher educational institutions.

Keyword. Model, modeling, physical issue, modeling method, experiment, experimental issues, technical higher education institutions, cognitive activity, object, etc.

Kirish. Texnika oliy o‘quv yurtlari talabalarida fizikadan turli xil murakkablikdagi masalalarni yechishda modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish: nazariy, eksperimental, sifatli, miqdoriy, oddiy, murakkab, ijodiy, mavhum va aniq masalalarni yechish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Fizikadan o‘quv masalalariga birinchi ta’rif quyidagicha berilgan: «o‘quv amaliyotidagi fizikaga oid masalalar odatda unchalik katta bo‘lmagan muammo deb atalib, u fizikaning qonun va metodlariga asoslangan mantiqiy xulosalar, matematik harakatlar va tajribalar yordamida yechiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilarni modellashtirishga o‘rgatish hamda undan amaliyotda foydalanish bilan bog‘liq ilmiy tadqiqot ishlari mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlaridanE.A.Ablkerimova,M.A.Mirzayeva,M.G.Muxidinov,E.I.Travkin,Yu.V.Fedorova, I.A.Shirshova kabi olimlar shu yo‘nalishlarda tadqiqot olib borishgan. Modellashtirish orqali ishlash, ta’lim oluvchilarda modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘liq tadqiqot mavzusida O.A.Aryukova, S.I.Mesheryakova,T.A.Debolskaya, S.A.Timayeva, I.A.Mamayeva, N.V.Voznesenskaya, N.V.Skorobogatovalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ishlarini qayd etishimiz mumkin.

Xorijiy davlatlardan J.Bishop, K.Elizabeth, R.S.Yadav, A.Maslou, M.Sharples, S.Hollyforde hamda S.Whiddet va boshqalar o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida modellashtirishdan foydalanishning nazariy-metodik, psixologik-pedagogik aspektlari ochib berishgan. Biroq fizikaviy masalalarni modellashtirish asosida yechishga oid, kompetensiya va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlari olib borilmagan. Bu holat talabalarda fizikaviy masalalarni modellashtirish asosida yechish ko‘nikmalarini takomillashtirish zaruriyatini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Metodik va o‘quv adabiyotlarida masalalar odatda to‘g‘ri tanlangan mashqlar, ularning asosiy maqsadi fizik hodisalarni o‘rganish, tushunchalarni shakllantirish, o‘quvchilarning fizik tafakkurini rivojlantirish va ularda o‘z bilimlarini kundalik turmushda amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat”.

Shunday ta’riflash orqali mualliflar o‘quv amaliyotida, metodik va o‘quv adabiyotlarida masalani tushunishni turlicha shaklda angladilar.

Fizika ta’limi masalasini vaziyat sifatida talqin qilinib, talabalardan fizika haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishga, ularni amaliyotda qo‘llash va tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan fizikaviy qonun va metodlardan foydalanishga asoslangan aqliy va amaliy harakatlarni talab qilishini ta’kidlangan[1,71].

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

“Fizik masala - axborot jarayonlari majmuasi, ularning o‘zgarishiga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqaradigan noaniq yoki hatto qarama- qarshi munosabatlar yig‘indisidir”.

Bunday ta’rif shuni ko‘rsatadiki, berilgan tizim obyekti fizik masala sifatida o‘ziga xos tarkibiy tuzilishga egadir. 1- rasmda fizik masalaning tarkibiy tuzlishi taqdim etilgan.



1- rasm. Fizik masalaning tarkibiy tuzilishi.

Shart - kirish ma’lumotlarining yig‘indisi bo‘lsa, talab – izlanishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar to‘plamiini taqdim etadi.

Operatorning tarkibiy elementi orqali axborot jarayonlarining to‘liq bo‘lmagan tavsifidan eng to‘lig‘iga o‘tish jarayoni ya’ni aniq bo‘lmagan obyektlar, hodisalar, jarayonlarga xos bo‘lgan qonuniyatlarni aniqlash bilan dastlabki ma’lumotlarni o‘zgartirishning aniq belgilanmagan jarayoni amalga oshiriladi.

Fizik masala - fizik hodisa, aniqrog‘i, ushbu hodisani tavsiflovchi ba’zi ma’lum va noma’lum fizik kattaliklarga ega bo‘lgan og‘zaki modeli yoki hodisalar to‘plamidir. Fizik masalani yechish - noma’lum bog‘liklarni, fizik kattaliklarni va boshqalarni topish demakdir[2,131].

Qator mualliflar tomonidan masalani yechishning o‘qitish metodikasi bo‘yicha umumiy bir qator masalalarni yechish qoidalari, masalalarni yechish jarayonining tuzilishi, masalani yechish bosqichlari, masalalarni yechimini topishning umumlashtirilgan usullari o‘rganilgan.

Fizik masalaning yechimi murakkab dinamik tizim sifatida qarab chiqilgan. Bu tizimda o‘zgartiriladigan obyekt sifatida masala qaraladi. Uning talabini hal qilish va faoliyatning o‘zini egallash masala yechimining natijasi deb hisoblaydilar.

Kognitiv faoliyatni tahlil qilish asosida masalalarni yechishning umumlashtirilgan metodi belgilab berilgan bo‘lib, fizikadan masalalarni yechishda quyidagilarni:

1) obyektni tanlash; 2) obyekt holatini ajratib ko‘rsatish; 3) ta’sirni (shartlar, jarayonlar)ni ajratib ko‘rsatish; 4) oqim holatini ajratib ko‘rsatish; 5) tenglamalar tizimini tuzish; 6) tenglamalar sistemasini yechish; 7) natija yechimini tahlil qilish kabi ketma ket harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Masalani yechishning yaxlit jarayonini quyidagi: 1-bosqich - masalalarni tahlil qilish; 2-bosqich - masalaning sxematik yozuvi; 3-bosqich - masalaning yechimini topish; 4-bosqich - masalaning yechimini amalga oshirish; 5-bosqich - masalaning yechimini tekshirish; 6-bosqich - masalani tadqiq qilish; 7-bosqich - masalaning javobini shakllantirish; 8-bosqich - masalaning yechimini tahlil qilish kabi bosqichlarga ajratilgan.

Keltirilgan masalani yechish jarayonining tuzilishi, taxminiydir, chunki masalaning haqiqiy yechimida bu bosqichlar odatda bir-biridan ajralib turmaydi, bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va ba’zida ularning tartibi o‘zgarishi mumkin xolos[3,228].

Masalalar yechishni o‘qitish metodikasiga oid ishlarning faqat kichik bir qismini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatdiki, ularni yechish ketma-ketligi deyarli bir xil va modellashtirish usulining asosiy bosqichlari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lishi mumkin (1 -jadval).

Fikaga oid o‘quv masalalari bosqichlarini modellashtirish metodiga mos kelishini namoyon bo‘lish. 1-jadval.

. 1-jadval.

Asosiy bosqichlarning mos kelishi	
Fizika oid o‘quv masalalarning yechimi	Modellashtirish metodi
1. Masala mazmunini tahlil qilinishi: 2. Masala sharti bilan tanishish; 3. Obyekt, jarayon, hodisalarni ajratib olish; 4. Masala shartini qisqacha ifodalab olish; 5. Bajarilgan belgilash asosida masala mazmunini qayta ifodalash.	Masalani qo‘yilishi: Modellashtirish maqsadini ifodalash; Obyekt aslini ajratib ko‘rsatish va tahlil qilish. Asl obyekt modelini tanlash yoki yaratish.
1. Masalani yechish rejasini tuzish: 2. Obyektlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni ifodalovchi fizikaviy qonun-qoidalarni tanlab olish; 3. Noma’lumlar va topilishi lozim bo‘lgan kattaliklar bilan bog‘liq tenglamalar tizimini tuzish.	
1. Yechimni matematikadan foydalanib tadqiq etish: 2. Tuzilgan tenglamalar tizimidan foydalanib hisoblash formulalarini keltirib chiqarish; 3. Javobning raqamlardagi ko‘rinishini topish	
Masala yechimini tekshirib ko‘rish.	Modelni tadqiq etish natijasida hosil qilingan bilimlarni asl obyektga nisbatan talqin qilish.

Shunday qilib, talabaning amaliy mashg‘ulotlarda masalalarni yechishda, umumiy fizika kursini o‘rganishda bajaradigan harakatlari modellashtirish jarayonining harakatlari bilan bevosita bog‘liq deb qarash mumkin.

Turli xil murakkablikdagi fizika masalalari orasida yechish usuli bo‘yicha birlashtirilgan masalalar guruhi ajralib turadi.

Bunday masalalarga og‘zaki, hisoblash, grafik va eksperimental masalalar kiradi.

Bu ko‘rinishdagi bo‘linish shartlidir, chunki ko‘p masalalarni yechishda uchun bir necha metodlardan foydalaniladi. Masalan, eksperimental masalani yechishda og‘zaki fikr yuritish, shuningdek, ko‘p hollarda hisoblashlar va grafikalar bilan ishlash talab qilinadi[3, 10].

“Eksperimental masalalarga shunday fizik masalalar kiradiki, ularning tuzilishi va yechimi organik ravishda tajriba bilan bog‘liq» .

Eksperimental masalalar, u yoki bu maqsadda eksperimentdan foydalaniladigan masalalardir

deb ta’riflangan.

Berilgan fizik masalaning ta’rifidan, masalalarni eksperimental va nazariy masalalarga ajratish mumkin agarda masalani yechish uchun o‘lchovlardan foydalanilsa, bunday masala eksperimental deb ataladi.

Tajriba va o‘lchovlarni amalga oshirmasdan yechib bo‘lmaydigan masalalarga eksperimental masalalar kiradi.

Ijodiy yondashuvni talab etadigan masalalargina eksperimental masalalar vazifasini bajarishi mumkin[4,188].

Shartli ravishda fizikaga oid ijodiy masalalarni ikkiga: “tadqiqotchilik” - nima uchun? degan savolga javob talab qiluvchi va “konstruktorlik” - buni qanday bajarish kerak? degan savolga javob talab qiladigan turlarga ajratilgan.

Muallif ushbu turdagi masalalarni yechishdagi faoliyatni quyidagi::

- muammoning ifodalash;
- muammoning nazariy yechimi;
- yechimning to‘g‘riligini tekshirish va agar talab etilsa moddiy jihatdan amalga oshirish yoki topilgan yechimni tajribada tekshirib ko‘rish kabi asosiy bosqichlarga ajratilgan.

“Eksperimental masala” tushunchasini tahlil qilish, uning yechishda eksperiment o‘tkazish zarur degan xulosaga kelishga imkon beradi.

Masala shartini tuzish bosqichida yoki uni yechishda foydalaniladigan ma’lumotlarni olish uchun eksperiment xizmat qilishi mumkin. U masalani yechishning usuli va nazariy jihatdan olingan yechimning tekshirish usuli sifatida ham xizmat qilishi mumkin.

“Eksperimental masala” va “eksperiment” tushunchalarini farqlash lozim bo‘ladi.

Boshqa o‘lchovlarni aniqlash uchun boshlang‘ich ma’lumot sifatida bu o‘lchov natijalaridan foydalanmasdan, faqat to‘g‘ridan -to‘g‘ri o‘lchashni talab qiladigan eksperiment - eksperimental masala bo‘la olmaydi. Bunday holda eksperiment o‘tkazayotgan talaba o‘lchashda faqat o‘lchash asboblari bilan ishlay olish qoidalari haqidagi bilimlardan foydalanadi.

Pedagog talabalarga masalani yechishni nafaqat taklif etadi, balki, ma’lum bir o‘lchovlarni amalga oshirishni, ularga ma’lum bo‘lgan individual fizikaviy kattaliklar orasidagi funksional bog‘lanishlardan ham foydalanpishni taklif etadi.

Boshqa tomondan, nazariy holatdagi ta’lim dalilini eksperimental tarzda aniqlash va undan fizika fanining boshqa asosiy qoidalarini isbotlash uchun foydalanish fizika bo‘yicha empirik bilimlar tizimining yanada to‘liq shakllanishiga yordam beradi[5,79].

Modellashtirish usulining asosiy bosqichlari va “eksperimental masala” tushunchasini tahlil qilish - eksperimental masalani hal qilishning asosiy bosqichlari bilan modellashtirish metodi o‘rtasida o‘xshashlikni o‘rnatishga imkon beradi (5 -jadval).

Shunday qilib, texnika oliy o‘quv yurtlarida umumiy fizika kursini o‘rganishda eksperimental masalalardan foydalanish nafaqat umumiy o‘rta ta’lim maktablarida olingan bilim va ko‘nikmalarni takrorlash, mustahkamlashga (kuzatishlar o‘tkazish, eksperimentni rejalashtirish va o‘tkazish, o‘lchov natijalarini qayta ishlash, ilmiy taxminlarni ilgari surish, ularni qo‘llash chegaralarini belgilash, olingan bilimlarni tabiiy jarayonlar va hodisalarni, texnik qurilmalarning ishlash tamoyillarini tushuntirish uchun ishlatish hamda shu bilan birga talabalarga bilish obyektlarini yechish jarayonida modellashtirishni o‘rgatish imkoniyatlarini beradi.

Eksperimental masalalarni yechishda modellashtirish, aslida, eksperimental faoliyat vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. “Odatiy” eksperimentdan farqli o‘laroq – “ilmiy bilish, obyektiv qonuniyatlarni kashf etish va maxsus qurilma hamda asboblar yordamida o‘rganilayotgan obyektga yoki jarayonga ta’sir ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan faoliyat turi ...” eksperimentning maxsus shakli mavjud bo‘lib, u eksperimental tadqiqot vositasi sifatida mavjud moddiy modellardan foydalanish bilan tavsiflanadi. Modelli eksperimenti deb nomlangan bunday eksperimentda tadqiqot obyekti bilan emas, balki uning o‘rnini almashtiruvchi bilan tajriba o‘tkaziladi. Bunda, o‘rnini bosuvchi-obyekt va eksperimental qurilma o‘rganilayotgan modelda bir butunga birlashtiriladi[6,144].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Modellardan foydalanish eksperimentining o‘ziga xosligi nafaqat amaliy harakat mavjudligida, balki maxsus modelli vaziyat - tabiatan tabiiy va sun’iy elementlaridan tashkil topgan eksperimental qurilmani yaratishda namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quv fizik masalalarni yechish bosqichlari va modellashtirish metodi o‘rtasidagi mos kelishlar, texnika oliy o‘quv yurtlari talabalariga fizikadan turli xil murakkablikdagi masalalarni yechishda modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Антипин И.Г. Экспериментальные задачи по физике в 6-7 классах. Пособие для учителей. М.: Просвещение, 1974. 126 с.

Беликов Б.С. Решение задач по физике: Общие методы: Учеб. пособие для студентов вузов. – М.: Высш. шк., 1986. 256 с.

Каменецкий С.Е., Орехов В.П. Методика решения задач по физике в средней школе. М.: Просвещение, 1971. 448 с.

Майер Р.В. Проблема формирования системы эмпирических знаний по физике: дис. д-ра пед. наук: 13.00.02/ Р.В. Майер. – СПб., 1999. 350 с.

Усова А.В., Тулькибаева Н.Н. Практикум по решению физических задач: Учеб. пособие для студентов физ.-мат. фак. – М.: Просвещение, 1992. 209 с.

Фридман Л.М., Турецкий Е.Н. Как научиться решать задачи: Пособие для учащихся. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Просвещение, 1984. 175 с.

KIMYO FANIDA MODDALAR GENETIKASI ALOQADORLIGINI TUSHUNTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN KIMYOVIY EKSPERIMENT O‘TKAZISH METODIKASINING ASOSIY TAMOYILLARI

Jabbarova Dilafro‘z Bo‘riyevna
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Maqolada organik birikmalararo genetik bog‘liqlikni ko‘rsatuvchi kimyoviy tajribalarni kashf etish vazifasi emas, balki tuzilmani yanada takomillashtirish va mavjud eksperimentni tizimga kiritish lozimligi asoslangan. Shuningdek, kimyo ta’limi jarayonida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularning tafakkurini kengaytirish va borliqdagi hodisalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi.

Bundan tashqari, kimyo ta’limida gnoseologik yondashuv, ya’ni bilish nazariyasi nuqtai nazaridan o‘qitish jarayoni muhim o‘rin tutishi va bu yondashuv orqali o‘quvchilar modda va ularning o‘zgarishlarini bevosita tajribalar orqali anglab, kimyoviy hodisalarning mohiyatini chuqurroq tushunishlari tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: eksperiment, visual, iyerarxiyalilik, gnoseologiya, genetik, izchillik, tamoyil, deduktiv va boshqalar.

ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ МЕТОДОЛОГИИ ПРОВЕДЕНИЯ ХИМИЧЕСКИХ ЭКСПЕРИМЕНТОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ДЛЯ ОБЪЯСНЕНИЯ ГЕНЕТИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ ВЕЩЕСТВ В ХИМИИ

Джаббарова Дилафруз Буриевна
Каршинский государственный технический университет

Аннотация: Статья основана на том, что задача химических экспериментов, демонстрирующих генетическую связь органических соединений, заключается не в открытии, а в совершенствовании структуры и систематизации имеющегося эксперимента. Также подчеркивается, что в процессе обучения химии важно формировать у студентов научное мировоззрение, расширять кругозор и развивать навыки анализа существующих явлений. Кроме того, описывается, что эпистемологический подход в химическом образовании, то есть процесс обучения с точки зрения теории познания, играет важную роль, и благодаря этому подходу учащиеся постигают вещества и их изменения посредством прямых экспериментов и глубже понимают сущность химических явлений.

Ключевые слова: эксперимент, визуальный, иерархия, эпистемология, генетический, последовательность, принцип, дедуктивный и др.

BASIC PRINCIPLES OF THE METHODOLOGY OF CONDUCTING CHEMICAL EXPERIMENTS USED IN EXPLANATING THE RELATIONSHIP OF GENETIC RELATIONSHIPS OF SUBSTANCES IN CHEMISTRY

Jabbarova Dilafruz Buriyevna
Karshi State Technical University

Annotation: The article is based on the fact that the task of chemical experiments to demonstrate the genetic relationship between organic compounds is not to discover, but to improve the structure and systematize the existing experiment. It is also emphasized that in the process of chemistry education, it is important to form a scientific worldview in students, expand their thinking, and develop skills in analyzing phenomena in existence.

In addition, it is described that the epistemological approach in chemistry education, that is, the teaching process from the perspective of the theory of knowledge, plays an important role, and through this approach, students understand substances and their changes through direct

experiments and gain a deeper understanding of the essence of chemical phenomena.

Keywords: experiment, visual, hierarchy, epistemology, genetic, consistency, principle, deductive, etc.

Kirish.

Kimyo ta’limi jarayonida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularning tafakkurini kengaytirish va borliqdagi hodisalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kimyo fanining nazariy asoslarini o‘zlashtirish faqatgina quruq bilim berish bilangina emas, balki tajribalar, kuzatishlar va tahliliy fikrlash orqali amalga oshiriladi. Shu sababli kimyo ta’limida gnoseologik yondashuv, ya’ni bilish nazariyasi nuqtai nazaridan o‘qitish jarayoni muhim o‘rin tutadi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar modda va ularning o‘zgarishlarini bevosita tajribalar orqali anglab, kimyoviy hodisalarning mohiyatini chuqurroq tushunadilar.

Tizimli va mantiqiy munosabatlar vizual tarzda aniqlashga yordam beradigan o‘quv vositasi sifatida foydalaniladi. Shu munosabat bilan, maktab kursidagi uning mazmuni va hajmi bizga sezilarli darajada qiyinchilik tug‘diradi. Yangi tajribalarni kiritish orqali kimyoviy eksperiment hajmini sezilarli darajada kengaytirish joiz emas deb hisoblaymiz, chunki bu boshqa o‘quv maqsadlariga erishish samaradorligi bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi. Sh.unga .asosla.nib, . organi.k kimyon.i o‘qit.ish m.etodi.kasi.ga oid m.uallif.lik dastu.rlari v.a qo‘llan. mala.rida kelt.irilga.n miqdo.rda .turli k.imyovi.y tajribad.an foydal.anildi.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Davl.at ta’.lim st.andartlar.ida adab.iyotla.rga. qo‘y.iladiga.n t.alabl.arda “gen.etik. aloq.alar” tus.hun.chasini .shakl.lanti.rish uchu.n xizma.t qiluv.chi kimyovi.y eks.perimenti.dan foy.dalanib, .didaktik. tamoyi.llar aso.sida. tizi.mni ama.liyo.tga jori.y qildishdir. Tamo.yillar n.azariyanin.g as.osiy, dast.labki .qoida.lari, .yeta.kchi g.‘oyala.ri va. qoidal.aridi.r.

P.edagogik t.amoy.illar p.eda.gogik .faol.iyat.ni amalg.a osh.irishnin.g as.osiy tala.blar.ini yor.itad.i, .uning .yo‘n.ali.shl.ariga. aniq.lik .kiritad.i, p.edago.gik ja.rayon.ni tarkib. topti.ris.hda muva.ffaqi.yatl.i yo.nda.shis.hga. xizma.t qil.adi. Ped.agogik t.amoy.illar naz.ariy ma’l.umotla. rni umu.mlasht.irish.da ishti.rok etad.i. Ij.tim.oiy. ha.yot.da s.inovdan .o‘tga.n .ijtimo.iy y.o‘r. iqnomala.rni., ta’limni tashkil etish, shuningdek, turli faoliyat turlariga pedagogik rahbarlikni qiladi.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Maktablarda kimyoviy eksperiment o‘tkazish metodikasining quyi tizimi ikkita didaktik va asosiy guruh tamoyillariga asoslanadi. Ular izchillik va uzluksizlik, onglilik va faollik, ilmiylik, ochiqlik, ta’limning hayot bilan bog‘liqligi, o‘qituvchining yetakchi roli, ta’lim va tarbiya natijalarining samaradorligi kabi tamoyillariga asoslanadi. Quyida ularning eng muhimlarini yoritamiz:

1. Ta’limning ilmiyligi tamoyili. Bu tamoyil birinchidan shartli ravishda ilmiy bilimlar bilan, ikkinchidan esa ushbu fan o‘rganadigan muammolarni hal qilishda amaliy ko‘nikma va malakalar bilan bog‘liq. Maktab kimyo kursi induksiya va deduksiyani ulushini ketma-ketlik asosida oshirib, empirik nazariya o‘rtasida samarali bog‘liqlikni ta’minlaydi. Organik birikmalar sinflari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishda uning tuzilish nazariyasiga tayanib deduktiv tarzda amalga oshiriladi. O‘quv jarayonida kimyoning asosiy qoidalarini isbotlashda yetakchi o‘rinni kuzatishlar va kimyoviy tajribalar egallaydi.

2. B.ilish. usuli.ning. ustuvo.rligi ta.moyili. . Kimy.odan .sabo.q olishn.ing il.k bosqich.i bu ta.biiy fanl.arni. o‘rganis.hdir. .Agar ta.biiy. fanlar.da kuz.atish va e.ksperimen.t mu.him rol. o‘yna. sa, bu. fanlarni. o‘rgani.shni u.shb.u usu.llardan. fo.ydala.nmasdan t.asav.vur q.ilib bo‘l.may.di.

3. M.uvofi.qlik .tamoyili. . Kimyon.ing riv.ojlanishi n.oorga.nik va or.ganik b.irikmalar.ning gen.etik mu.nosabatl.arni. yori.tishdag.i mu.ammomizg.a qisman. bog.‘liqdi.r. Bunda. kimyoviy .tajr.ibalar viz.uallas.htiru.vchi v.osit.a sifa.tida a.hamiy.atlidir.. O‘q.ituvch.i to.moni.dan .ta.klif

qili.ngan .yoki hatto. u t.uzgan t.ran.sforma.tsiy.alar. zanjiri.ni am.alga osh.iris.h uchun, .o‘qu.vchi he.ch q.and.ay his.-tuy.g‘u.lar.siz k.imyov.iy t.englama.larn.i tuz.ish qo.idala.rini va k.imyovi.y b.irikmala.rning. kim.yovi.y x.ossa.lar.ini bi.lishi. zaru.r. Biro.q uning .amal.ga oshiri.lishi kat. ta taa.ssurot .qoldir.adi. .Ko‘p hol.atlarda .oddiy. o‘.zga.ris.hla.rda .o‘quvchi. turl.i .birikm.alar. si.nfiga ta.all.uqli bo‘lgan xususiyatlar - hidi, rangi, fizik holati jihatidan farq qiladigan tobora ko‘proq yangi moddalarni bilib oladi.

4. Barqarorlilik tamoyili. Ushbu tamoyilning maqsadi mustahkam tizimlarni yaratishdir, chunki maqsad va vazifalar to‘g‘ri qo‘yilmasa, o‘quvchilar xato shakllangan ma’lumotlarni o‘zlashtiradi. Xato ma’lumotlarni qabul qilish, ayniqsa, kimyo fanida xavfsizlikka jiddiy ta’sir qiladi. Maktabda kimyoviy eksperimentni o‘tkazishda asosan izchillik tamoyilidan.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Shu o‘rinda kimyoviy tajribaning quyi tizimga nisbatan asosiyroq deb hisoblangan tamoyillarni ko‘rib chiqamiz:

1. Yaxlitlilik. Bu tizimning, uning tarkibiy elementlari xossalari yig‘indisini tubdan qisqartirib bo‘lmaydi va butunning yakuniy xossalaridan xulosa chiqarib bo‘lmaydi; har bir element, tizimning xossalari va munosabatlari ularning to‘liq birlikdagi o‘rni va funksiyalariga bog‘liqligi. Kimyoviy eksperiment – har biri o‘ziga xos funksiyalarni bajaradigan har xil turdagi va shakllardan tashkil topgan yaxlit tizim.

2. Tizimlilik. Tizimlilik – “aloqalar va munosabatlar tarmog‘ini” o‘rnatish orqali tizimni tavsiflash imkoniyati bo‘lib, buning natijasida elementlar to‘plami bog‘langan yaxlitlikka aylanadi, bunda har bir element boshqa elementlar bilan bog‘liq bo‘ladi va uning xususiyatlari bu bog‘liqlikni inobatga olmay turib tushunilmaydi”.

Kimyoviy tajriba asosida tizimimiz tuzilishining xususiyatlarini ochib berish uchun, organik birikmalarni tasniflash, o‘rganilayotgan sinflarning asosiy bloklarini va ular o‘rtasidagi munosabatlarni topish muhim vazifalardan biridir.

3. Iyerarxiyalilik. Tizimning har bir tarkibiy qismini, o‘z navbatida, quyi tizim sifatida qaralishi mumkin.

Kompleks modelning tarkibiy qismi sifatida tavsiya etilayotgan kimyoviy tajribaning quyi tizimi o‘rganilayotgan ta’rifni shakllantirish uchun asosdir. O‘z navbatida, kichikroq tarkibiy qismlarni - uning har xil turlari va tashkil etish shakllarini kimyoviy eksperimentning quyi tizimida ajratamiz.

4. Ta’riflarning ko‘pliligi. Har bir tizimning asosiy murakkabligi uning yetarli bilimi juda ko‘p turli xil modellarni qurishni talab qilishi tufaylidir va ularning har biri tizimning faqat ma’lum bir tomonini tavsiflaydi.

5. Tizim va muhitning o‘zaro bog‘liqligi. Atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sir qilish jarayonida tizim o‘zaro ta’sirning yetakchi faol komponenti bo‘lgan holda, o‘z xususiyatlarini shakllantiradi va namoyon qiladi.

Qo‘yiladigan talablar nomi	Qo‘yiladigan talablarning mazmun-mohiyati tavsifi
Ko‘rgazmalilik, ifodalilik	Mazkur talablar eksperiment qanday shaklda samarali bo‘lishligini aniqlash majburiyatini yuklaydi
Ishonchli idrok etish	Eksperiment noto‘g‘ri talqin etilishi uchun sharoit yaratishi kerak emas. O‘quvchi tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib, eksperiment texnikasi ishonchli isbotni ta’milashi lozim.
Rad etilmaslik	Uskunaning ishonchililigiga tajriba bevosita bog‘liq holda u rad etilmasligi lozim
Oddiylik va xavfsizlikni ta’minlanishi	Eksperiment bajarilishida yetarli darajada oddiy va xavsiz bo‘lishi lozim
Qisqa muddatlarda amalga oshirilish	Vaqtning chegaralanganligi mashg‘ulotning davomiyligi, diqqat ko‘lamini kengaytirish va idrok qilishning psixofiziologik o‘ziga xosligi bilan bog‘liq
Ilmiylik va muammolilik	O‘quvchilarni tajribalar asosida ilmiy-texnik eng so‘ngi ilmiy yangiliklardan xabardor qilish hamda ulardan o‘z bilimlarini boyitishda foydalanishga sharoitlar yaratish
Kerakli jihozlar, texnika va uskunalarning mavjudlik holati	Kimyoviy tajribalarni o‘tkazish uchun o‘quv uskunalari hamda moddiy-texnik baza bilan ta’minlangan bo‘lishi shart
Izchillikni kuzatilishi	Oddiydan murakkabga, kursning umumiy tarkibiy tuzilmasidan yo‘riqnomalarni yaratilishiga o‘tish

Kimyoviy tajribalarni o‘tkazish har doim belgilangan talablar asosida o‘tkazilishi shart. Bu.nda u.lar “g.enet.ik izch.illik” t.ushunch.asini. yori.tish.ga xizma.t qila.di:

- bu .ilmiy a.hamiyatli. bo‘.lib, soha.ga oid. biliml.arni. boyita.di;
-. har bir s.infga taa.lluq.li modd.alarda.gi o‘z.garishlar.ni ko‘rs.atadi; .
- .tushu.ncha ya.nad.a riv.ojlanganl.igi .sabab.li unga o.id .ma’lumot.lar h.ajmi .ham ortad.i:

Kimy.oviy ta.jribalar o‘.kazis.hdan oldi.n modda.larning x.ossalari., xusus.iyatlari.ni b.ilish muhim hisoblanadi. Bund.a organi.k bi.rikmal.ar sinfl.ari orasid.agi .genetik iz.chilli.kni t.asdiql. ovch.i tegi.shli k.imyov.iy tajr.ibala.rni to.‘g‘r.i ta.nlas.h .o‘qituvch.ining. vazifasi .hiso.blanadi..

T.anlang.an k.imyo.viy tajr.ibala.r o‘quvc.hila.r o‘zlash.tiri.shi sha.rt b.o‘l.gan bi.liml.arn.i b.oyiti.shga .yord.am bera.di. .Ular .har bi.r mod.daning ki.myoviy. xo.ssasi, u.ning .olin.ishi. va. bir.-bi.riga t.a’sir.ini t.ushunish.adi. Amm.o o‘.tkazilgan. tajribal.ar aso.sida o‘.quvchi.lar h.ar doim .ham to‘g.‘ri x.ulo.sa .chi.qar.ishg.a xizmat. qilm.ay.di. Ta.jrib.ala.rni o‘tk.azi.sh shartlarini bajarish va samarali foydalanish uchun quyidagilar belgilandi:

a) o‘quvchilar tajriba o‘tkazishga va uning mohiyatini anglashga tayyorligi.

Muayyan reja asosida kuzatish bilan eksperimentni tashkil qilinadi, har qanday maqsadli kuzatish esa fikrlash bilan bog‘liq. Butun o‘quv jarayoni davomida mantiqiy fikrlash bilim va

tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonidan ajralmasdir. Dalillarni muvaffaqiyatli ko‘rib chiqish eksperiment yordamida nazariy bilim ma’lum bir holatga kelganda mumkin bo‘ladi, ya’ni bu kuzatishni ongli va mazmunli idrok etish uchun yetarli bo‘ladi va u o‘z navbatida nazariya bilan yetarli darajada bog‘lanadi.

b) tajriba o‘tkazishning maqsadga mosligi. B.iz o‘.quvchi.lard.a tajri.balar o‘.tkazish. bila.n oby.ekt, . hodisal.arni i.drok qili.sh, sez.gi va idr.okni.ng muvaff.aqiyat.li ishl.ashi.ga eris.hishni. maqsad qi.ldik. Dar.snin.g maqsa.dlarig.a mash.g‘ulot da.vomida e.rishil.adi., teg.ishli x.ulo.salar. chiqarad.ilar. hamd.a o‘rgani.lay.otgan ho.disa, . obye.kt haqida. biliml.arini b.oyitadi.

v) . tajr.ibalarni .qayta-q.ayta o‘tk.azish. K.imyoviy. tajriba.lar .sohag.a oid m.a’lu.motlarni. o‘quvch.ilar. ongig.a singdi.rishda vos.itad.ir. Tajrib.alar o.‘tkaz.ish o‘.rgan.ilayot.gan ho.disan. ing tur.li ji.hatlar.ini .yori.tib, . o.‘quvchila.rning. qiziqishi.ni o.shirish. hi.soblan.adi. . Muk. ammal bi.limga. ega bo‘.lish.ning asos.iy s.harti d.oimi.y t.arzda .takr.orl.ash.. Umu.mlash.tiru. vchi da.rsla.rni o.‘tkazi.shda .alohida o.‘rin t.uta.di.

d) e.ksper.imen.tnin.g b.oshq.a k.o‘rgaz.mali .qurol.lar bila.n birikm.asi .va tajrib.alar eski.zi. Ek.sperime.ntni k.o‘rga.zmali qu.rollar b.ilan .moh.iro.na .uyg.‘unl.ashtiris.h kuz.at.ilayot.gan .nar. sani maz.mun.li o‘zlashtirishga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘quvchilar laboratoriya, amaliy mashg‘ulot darslarida foydalangan uskuna, apparatlarning rasmini kuzatishlari, chizishi, ularning tushunishi bilan tengdir.

Demak, kimyoviy tajribalarda o ‘quvchilar mustaqil hodisalarni ko‘rsatishdan boshlab ustoz boshchiligida laboratoriya tajribalarini o‘tkazishadi. Amaliy mashg‘ulotlarda kimyoviy tajribalarning dastlabki tizimining muhim xususiyatlari ko‘rsatiladi. Shoshilinch muammolarning yechimini topishdan individual ishlashgacha bo‘lgan jarayonlar bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyili asosida amalga oshiriladi.

O‘quvchilar bir qator vazifalarni bajarsagina “genetik izchillik” tushunchasini muvaffaqiyatli o‘zlashtiradi. Bu.nday .vazifa.larg.a-o‘quv.chilar o.rganik .birik.malar.ning. eng muh.im sin. flariga o.id ma’l.umotlarga. ega. bo‘lishi. lozim.. Organ.ik b.irikmal.arning. sinflari .tasnifi, .ular. ning bo.g‘liql.igiga .oid bilim.lardan x.abardo.r b.o‘lis.hi; ula.rni. ijti.moiy hayo.tda .qo‘ll.ash qobil.iya.tlari, u.larni.ng ge.netik bog.‘liqlig.ini ani.qlash; naza.riy m.a’lumotla.rdan un.umli foyd.alanib m.isollar. va mash.qlar.ni ba.jarish; . top.shiriqla.r va eks.peri.mental. ishlar .ustida ish.lash. kabilar k.iradi. .

Gene.tik bo.g‘la.nishla.r tush.uncha.sining .muvaf.faqiya.tli .shak.llan.is.hida bir .qator. shartlar .amal.ga oshi.ril.ishi l.ozim.. Bu.nday sha.rtlar.dan biri. org.anik biri.kmal.arning .tark. ibi.y va m.anti.qiy. al.oqado.rligi.ni n.omoyon .qilu.vchi .asosiy. vosi.ta bo‘lmi.sh kim.yov.iy tajri. balar.dan .doim.iy .foyd.ala.nishdi.r.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Xulosa qilib aytganda, kimyo fanini gnoseologik nuqtai nazardan o‘qitish o‘quvchilarda ilmiy tafakkur, mantiqiy fikrlash va kuzatish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tajribalar orqali olingan bilimlar ularning nazariy tushunchalarni chuqur anglashiga, sabab-oqibat bog‘liqliklarini tahlil qilishiga va olamni ilmiy asosda idrok etishiga yordam beradi. Natijada o‘quvchilar kimyoviy hodisalarni nafaqat eslab qoladilar, balki ularni tahlil qilib, umumlashtirishni, xulosalar chiqarishni ham o‘rganadilar. Shu bois, kimyo o‘qitishda nazariya va amaliyotning uzviy bog‘liqligini ta’minlash o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Опарина С.А. Химический эксперимент и генетические связи между ор-ганическими соединениями. Учебно-методическое пособие / С.А. Опарина / Отв. редактор С.Ф. Жильцов. - Арзамас: ГОУ ВПО «АГПИ им. А.П. Гайдара», 2008.

2. Jabborova D.B. “O‘quvchilarda kimyo fanidan moddalar genetikasi izchilligini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish” dissertatsiya Termiz 2025 y

3. Jabborova D.B. Organik kimyo maktab kursida “Genetik bog‘lanish” tushunchasi va uning shakllanish xususiyatlari. O‘zMU xabarlari, Ilmiy jurnal, 1/11/1.Toshkent.2022 ISSN 2181-7324, 83-85 bet

4. Jabborova D.B. Organik kimyo kursida “Sinflararo bog‘lanish” tushunchasi va uning psixologik-pedagogik aspektlari. TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA. Toshkent, Ilmiy-uslubiy jurnal, 2021-yil/4-son, 83-87 bet.

5. Jabborova D.B. Kimyoviy tushuncha hamda hodisa va jarayonlar haqida umumlashtirilgan bilimlarni o‘quvchilarda shakllantirish yo‘llari. Issn 2181-7138 муаллим хам узликсиз билимлендириу . Илимий-методикалық журнал. Нокис-2023 3/1-сан, 147-152 bet.

6. Jabborova D.B. Rahmatova G.B. Kimyo fanida moddalarning reaksion qobilyati ularning genetikasi izchilligiga asoslanganligining nazariy va amaliy aspektlari. Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarlari (2025-yil 5-son).

TA’LIM JARAYONIDA TOPSHIRIQLARNI MODIFIKATSIYALASH TAMOYILLARI

Raimberdiyev Asqarjon Asrorovich
Qarshi davlat universiteti dotsenti
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada modifikatsiyalangan metodikalarning natijalarini nazorat qilish murakkab omillar ekanligi yoritib berilgan. Shuningdek, modifikatsiyalangan metodikaning ishonchliligi psixodiagnostik metodikalarning muhim psixiometrik ko‘rsatkichi va metodikaning ishonchliligi – metodika yordamida barqaror, qat’iy ko‘rsatkichlarni olish imkoniyatlari tavsiflanadi.

Bundan tashqari, modifikatsiyalangan metodikalarning natijalarini nazorat qilish omillari, modifikatsiyalangan metodikalarni qo‘llash jarayonida bu omillarning o‘zgarishi o‘lchovning ishonchlilik darajasini pasayishi, modifikatsiyalangan metodikalarning ishonchliligini tekshirib usullari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Modifikatsiy alangan, metodika, asbob-uskuna, psixologik testlar, eksperiment, nazorat qilish, xatti-harakat, psixologik holat va boshqalar.

ПРИНЦИПЫ МОДИФИКАЦИИ ЗАДАНИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Раимбердиев Аскаржон Асрорович
Доцент Каршинского государственного университета
Доктор философии педагогических наук

Аннотация: В статье рассматриваются комплексные факторы контроля результатов модифицированных методик. Описывается надежность модифицированной методики как важный психометрический показатель психодиагностических методик, а также надежность методики – способность к получению стабильных, непротиворечивых показателей с ее помощью.

Кроме того, рассматриваются факторы контроля результатов модифицированных методик, изменение которых в процессе использования модифицированных методик приводит к снижению надежности измерения, а также представлены методы проверки надежности модифицированных методик.

Ключевые слова: модифицированная методика, методика, оборудование, психологические тесты, эксперимент, контроль, поведение, психологическое состояние и др.

PRINCIPLES OF MODIFICATION OF TASKS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Raimberdiev Askarjon Asrorovich
Associate Professor of Karshi State University
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences

Abstract: This article highlights the complex factors of controlling the results of modified methodologies. It also describes the reliability of the modified methodology as an important psychometric indicator of psychodiagnostic methodologies, and the reliability of the methodology - the ability to obtain stable, consistent indicators using the methodology.

In addition, the factors of controlling the results of modified methodologies, the changes in these factors in the process of using modified methodologies lead to a decrease in the reliability of the measurement, and methods for checking the reliability of modified methodologies are presented.

Keywords: Modified methodology, methodology, equipment, psychological tests, experiment,

control, behavior, psychological state, etc.

Kirish. Modifikatsiyalangan metodikaning ishonchliligi psixodiagnostik metodikalarning muhim psixiometrik ko‘rsatkichi hisoblanadi. Metodikaning ishonchliligi – metodika yordamida barqaror, qat’iy ko‘rsatkichlarni olish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi.

Modifikatsiyalangan metodikalarning natijalarini nazorat qilish murakkab omillarga bog‘liq va bu quyidagilardir:

asbob-uskunalarning o‘lchov sifati;

psixologik testlarning doimiy relevant tavsifi;

sinaluvchining ko‘rsatmalarni to‘g‘ri tushunishi;

sinaluvchining xulqi, xatti-harakati;

sinaluvchining dolzarb psixologik holati.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Modifikatsiyalangan metodikalarni qo‘llash jarayonida ushbu omillarning o‘zgarishi o‘lchovning ishonchlilik darajasini pasaytiradi, chunki bu omillarning doimiyligini saqlab turishning imkoni yo’q, shuning uchun ham psixodiagnostik metodikaning yuqori darajada ishonchliligiga amin bo‘lishi juda qiyin. Ushbu omillarning asosiylaridan biri metodikaning o‘zining ishonchliligidir, chunki qolgan omillarning olingan natijalar doimiyligiga ta’siri ancha kamdir.

Modifikatsiyalangan metodikalarning ishonchliligini ikki xil usul bilan tekshirib chiqish mumkin:

Ushbu metodika yordamida har xil sinaluvchilarda olingan natijalarni taqqoslash.

Aynan bir xil sharoitda metodikani qo‘llash va undan olingan natijalarni taqqoslash[1,68].

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Metodikaning aniqligi – psixodiagnostik tadqiqot paytida biror-bir xususiyatni baholashda ozgina o‘zgartirishga ham javob qaytarish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Metodikaning aniqligini texnik o‘lchov asbob-uskunalarining aniqligi bilan izohlash mumkin. Metodika qanchalik aniq bo‘lsa, o‘lchovning sifati shuncha yuqori bo‘ladi. Ammo amaliy psixodiagnostikada hamma vaqt ham o‘lchovning aniqligi, baholashning yuqori darajasi talab qilinmaydi. Masalan, butun tadqiqotda tanlama sinaluvchilarni ikkiga bo‘lish kerak bo‘lsa, u holda qo‘llanilayotgan metodika aynan shunga mos holda bo‘linishi kerak, undan ko‘pga ham, kamga ham emas. Agar sinaluvchilar beshta guruhga bo‘linishi shart bo‘lsa, u holda beshta o‘lchov shkalasi bor metodikani qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi va ular beshta punktdan iborat bo‘lishi kerak, masalan “ha”, “yo‘qdan ko‘ra ha”, “yo ha, yo yo‘q”, “yo‘q hadan ko‘ra”, “yo‘q” shaklida.

Metodikanig bir sifatliligi ushbu metodika yordamida olingan natijalar qay darajada, aynan bir xususiyatga taalluqli o‘zgarishni o‘lchashi bilan tavsiflanadi. Agar o‘rganilayotgan xususiyatlardan olingan ko‘rsatkichlar, ushbu metodika bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa bir xususiyat ko‘rsatkichlarini namoyon qilsa, u holda ushbu metodika bir sifatlilik mezoniga mos bo‘lmaydi. Masalan, tadqiqotchini shaxsning xulq motivlarini baholash qiziqtirsa, u sinaluvchining xulq motivlariga taalluqli to‘g‘ridan-to‘g‘ri savollar berishi mumkin, u holda olingan javoblar bir xillik mezoniga mos tushishi kamdan-kam hollarda ro‘y berishi mumkin, chunki sinaluvchi o‘z xulq motivlarini anglagan holda eksperimentatorga xulq motivlarining ijobiy tomonlarini ko‘rsatishga harakat qiladi.

Talabaning faqat bilimlarni o‘zlashtirishini baholash ham bir sifatlilik mezonini to‘liq qanoatlantira olmaydi, chunki bilimni o‘zlashtirishga hamisha ham obyektiv baho qo‘yilmaydi, bunda talabaning bilimlaridan tashqari, uning o‘qituvchi bilan munosabati va talabaning xulqi ham namoyon bo‘ladi[2,42].

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Psixologik jihatdan biror-bir metodikani qo‘llashdan oldin tadqiqotchi ushbu metodikani

validligi, ishonchliligi, aniqligi va bir sifatlilik talablariga javob bera olishiga to‘liq ishonch hosil qilishi shart. Aytib o‘tilgan mezonlardan asosiylari: validlik va ishonchlilikdir, agar o‘lchov uskunalari bu ikkala mezonga mos kelmasa, u holda psixodiagnostikada bu vositalarni qo‘llash umuman mumkin emas. Mabodo metodikaning aniqligi va bir sifatliligi to‘liq bo‘lmasa ham uni aniq shartlar asosida qo‘llash mumkin. Ammo quyidagilarni unutmaslik zarur:

noaniq metodika, o‘tkazilayotgan eksperiment natijalari biror-bir xususiyatdagi kichik o‘zgarishlarni aniqlash imkonini bermaydi;

metodika bir sifatliligining to‘liq emasligi, hamisha ham aynan baholanayotgan xususiyatdagi o‘zgarishlar darajasi bilan olingan ko‘rsatkichlarni taqqoslash imkonini bermaydi.

Modifikatsiyalangan metodikalarning validligi uning aynan o‘rganilayotgan psixologik xususiyatga mo‘ljallanganligi va ushbu psixologik xususiyatni baholashga mosligi hamda yaroqliligini nazarda tutadi. “Validlik” atamasi Evropa tillaridan olingan bo‘lib “to‘laqonli”, “yaroqli”, “mos” degan ma’nolarni anglatadi.

Modifikatsiyalangan metodikaning validlik tavsifi ushbu metodika orqali haqiqatdan ham psixologik sifatni o‘lchash mumkin, degan xulosadan tashqari uni qo‘llash mumkin bo‘lgan sohani va uning sharoitlari haqidagi ma’lumotlarni ham o‘ziga qamrab oladi.

Modifikatsiyalangan metodikaning validligi haqida mulohaza qilar ekanmiz, validlikning bir necha turi borligini va ularning har birini alohida ko‘rib chiqish hamda baholash zarurligini qayd etamiz. Validlik – nazariy, amaliy, empirik, ichki va tashqi bo‘lishi mumkin.

Nazariy validlik – qo‘llanilgan metodika yordanida olingan ko‘rsatkichlarni, boshqa metodik vositalardan olingan ko‘rsatkichlar bilan ya’ni ko‘rsatkichlar orasida nazariy asoslangan bog‘liqlik borligini va tadqiqot qilinayotgan sifat ko‘rsatkichlari mosligi bilan aniqlanadi.

Nazariy validlik bitta nazariyaga tayangan holda, aynan bir xususiyatga tegishli har xil metodikalardan foydalanish natijasida olingan ko‘rsatkichlarni korrelyatsiyasi bilan tekshiriladi.

Empirik validlik – sinaluvchining reaksiyasi va xatti-harakatini kuzatish orqali, uning haqqoniy xulqidagi diagnostik ko‘rsatkichlarning bir-biriga mosligi bilan tekshiriladi. Agar sinaluvchining xarakterini qo‘llanilgan metodika yordamida baholasak, ushbu talabaning hayotdagi xarakter ko‘rinishining qo‘llanilgan metodikadan olingan ko‘rsatkichlar bilan bir xilligini aniqlasak, u holda metodikani empirik va amaliy validli deb hisoblasak bo‘ladi.

Empirik validlik mezonlari bo‘yicha metodika odamlarning amaliy faoliyat natijalari hamda haqqoniy hayotiy huquqlarining ko‘rsatkichlarini taqqoslash bilan tekshiriladi[3,88].

Ichki validlik – metodikadagi topshiriqlar, subtestlar, mulohazalarning umumiy maqsadga mosligini anglatadi. Metodikadagi subtestlar, topshiriqlar va undagi savollar qisman butunlay biz o‘rganayotgan xususiyatni o‘lchay olmasa, u holda ushbu metodika ichki validli emas yoki ichki validlik etarli darajada emas, deb hisoblanadi.

Tashqi validlik ham xuddi empirik validlikka o‘xshash, undan farqli tomoni shundaki, sinaluvchining xulqiga taalluqli asosiy tashqi ko‘rinishlarning ko‘rsatkichlari bilan metodikadagi ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligiga e’tibor qaratiladi.

Metodikani tuzish jarayonida darhol uning validligini baholash juda murakkabdir. Odatda metodikaning validligini tekshirish va aniqlashda metodika uzoq muddat qo‘llanilgandan so‘ng u haqida xulosa chiqarish mumkin, chunki yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan validlikning to‘rt turi ham tekshirilishi zarurdir.

Validlikning turlaridan tashqari uning mezonlarini bilish ahamiyatga molikdir:

A) Xulqiy ko‘rsatkichlar – sinaluvchining har xil hayotiy voqeliklardagi reaksiya va xatti-harakatlari;

B) Sinaluvchining faoliyatidagi yutuqlari: o‘quv, ish, ijodiy va hokazolar;

V) Har xil nazorat sinov va topshiriqlarning bajarilganligi haqida ma’lumotlar;

G) Boshqa metodikalar yordamida olingan ma’lumotlar – validlik tekshirilayotgan metodikaning boshqa metodika bilan bog‘liqligining etarli darajadaligi.

Modifikatsiyalangan metodikani va tekshiruv natijalarini standartlashtirish o‘ziga xos

psixologik jarayondir. Psixodiagnostik natijalarga qo‘llanilgan metodikadan tashqari voqea hamda hodisalar ham ta’sir qiladi, ya’ni berilgan ko‘rsatmalarni sinaluvchining to‘g‘ri tushunmasligi va test vaqtida sinovchining xulqi va shaxs xususiyatlari o‘z ta’sirini ko‘rsatishi mumkin. Agar voqelikni sinaluvchi imtihon sifatida qabul qilsa, o‘zini shu voqelikka mos tarzda tutadi. Yuqori xavotirli odamni hamisha va hamma payt yuqori “xavotirlik” holati qamrab oladi, har qanday hodisani xavf sifatida qabul qiladi. Kichik darajali xavotirli odam buning aksidir, ya’ni o‘zini erkin tutadi.

Sinaluvchilarning xulqi, xatti-harakati va ularning ko‘rsatgan natijalari ko‘rsatmalarni qanday tushunishi bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ham psixologik tashxisda ko‘rsatmalarning aniq tuzilishi va ularning tez anglab olinishiga qat’iy talablar qo‘yiladi:

Ko‘rsatma sodda va tushunarli bo‘lishi;

bir xil ma’nodagi so‘z va talaffuzlarni o‘ziga qamrab olmasligi;

ko‘rsatmaning iloji boricha yozma shaklda bo‘lishi (ko‘rsatma berayotgan shaxs, ko‘rsatmani har xil paralingvistik tarkibiy qismlar orqali ifodalashi mumkin: mimika, talaffuz, temp, pauza va xatti-harakatlar) [4,123].

Ba’zan tadqiqot natijalariga sinaluvchining xulqi va xatti-harakati ham ta’sir qilishi mumkin. Masalan, eksperimentator haqida sinaluvchining fikri ijobiy bo‘lsa, uning xatti-harakatida, munosabatida imkoni boricha sinovchiga yaxshi natija berishga harakat qiladi. Buning aksi bo‘lsa, eksperimentatorga nisbatan sinaluvchida antipatiya bo‘ladi.

Asosiy ko‘rsatma: eksperimentator bosiq, muvozanatli, xatti-harakati sinaluvchilarga nisbatan yaxshi va do‘stona bo‘lishi kerak.

Pedagog qancha ko‘p eksperimental psixologik tadqiqotlar o‘tkazsa, uning tajribasi shuncha ortib boradi. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi: talaba faoliyatining xususiyatlarini o‘quv vaziyatlarida tahlil qilish; ta’lim muassasasi sharoitiga moslashish, moslasha olmaslik darajasini aniqlash; talabaning ichki dunyosini tushunib olish istagi; shaxsi xususiyatlarini har tomonlama rivojlantirishda unga har qanday yordam ko‘rsatish.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Yuqorida aytib o‘tilgan maqsad uchun qo‘llanilmaydigan metodlar, faqat psixologik jarayonlarni, insonning xususiyat va holatini o‘rganadigan metodlar tadqiqot metodlari deb yuritiladi. Ular asosan empirik va eksperimental ilmiy tadqiqotlarda qo‘llaniladi. Ularning asosiy maqsadi – ishonchli bilimlar, faktlarni olishdir.

Xulosa qilib aytganda modifikatsiyalangan metodikani qo‘llash jarayonida eksperimentator metodikaning validligi, ishonchliligi, aniqligi, tanlanma to‘plam reprezentativligini inobatga olgan holda tadqiqotni olib borishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Akramova F., Ochilova G. Pedagogika. PsixologiY. Toshkent. – 2007.

Abdullayeva Sh.A., Ro‘ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Darslik. Toshkent-2018 y.

Qosimova K. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. Darslik. T: «Noshir» 2009.

G‘oziyev E. Psixologiya Yoshlar psixologiyasi: ped. institutlari va universitetlarining talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. -T.: O‘qituvchi, 1994.

Raimberdiev A. Elimination of social and pedagogical problems in working with talented students. // Journal of Pedagogical Inventions and Practices. 2770-2367 https://zienjournals.com Date of Publication: ISSN NO: 2770-2367. 18.02.2022.

Raimberdiev A. COVERAGE OF THE PROBLEM OF PERSONALITY GIFTEDNESS IN THE SPIRITUAL HERITAGE OF THE EAST. // American Journal of Pedagogical and Educational Research. ISSN (E): 2832-9791. Volume 15, | August, 2023.

Raimberdiyev A.A. Pedagogik ta’limotlar tizimida iqtidorlilik muammosi. // Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. – Nukus, 2021.

Raimбердиев A.A. БOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAЁNIDA IQTIДORLI O‘QUBCHILAR БILAN OLIБ БORILAДIGAN ISH USULLARI. // QarДU XABARLARI Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal 2021 yil 3 son.

Raimberdiyev A.A. Shaxs iqtidori va qobiliyatlarning psixologik strukturasi. // Ta’lim, fan va innovatsiya. Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal 4/2021.

Raimberdiyev A.A. Shaxs iqtidori va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni muammosining talqini. // ҚарДУ ХАБАРЛАРИ Илмий-назарий, услубий журнал 2022 yil 4 son.

Raimberdiyev A.A. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida iqtidorlilikni tashxislash va rivojlantirish tizimini takomillashtirish. // Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. – Nukus, 2023.

OLIY TA’LIMDA BO‘LAJAK MENEJERNING ISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH

Ravshanova Xurshida Maxmanazarovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak menejerlarning ish madaniyatini shakllantirish jarayonini modellashtirish masalasi yoritilgan. Menejer shaxsida mehnat intizomi, tashkiliy ko‘nikmalar, muloqot madaniyati va mas’uliyat kabi jihatlarni rivojlantirish zarurligi asoslangan. Tadqiqotda pedagogik modellashtirish, kuzatish va so‘rovnoma usullari qo‘llanilgan. Taklif etilgan model maqsadli, mazmuniy, faoliyat va natija bloklarini o‘z ichiga oladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ish madaniyatini shakllantirish bo‘lajak menejerning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Tayanch so‘zlar: menejer, ish madaniyati, oliy ta’lim, modellashtirish, kasbiy tayyorgarlik.

МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОЦЕССА ФОРМИРОВАНИЯ ТРУДОУСТРОЙСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩЕГО МЕНЕДЖЕРА В ВЫСШЕЙ СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Равшанова Хуршида Махманазаровна
Преподаватель Экономико-педагогического университета

Аннотация. В статье рассматривается вопрос моделирования процесса формирования трудовой культуры будущих менеджеров в высших учебных заведениях. Обоснована необходимость развития таких качеств, как трудовая дисциплина, организационные навыки, культура общения и ответственность. В исследовании использовались методы педагогического моделирования, наблюдения и анкетирования. Предлагаемая модель включает целевой, содержательный, деятельностный и результативный блоки. Результаты показывают, что формирование трудовой культуры является важным фактором в развитии профессиональных компетенций будущего менеджера.

Ключевые слова: менеджер, трудовая культура, высшее образование, моделирование, профессиональная подготовка.

MODELING THE PROCESS OF FORMING THE WORK CULTURE OF A FUTURE MANAGER IN HIGHER EDUCATION

Ravshanova Khurshida Makhmanazarovna
Teacher of the University of Economics and Pedagogy

Annotation. This article discusses the modeling of the process of forming the work culture of future managers in higher education institutions. The necessity of developing such qualities as labor discipline, organizational skills, communication culture, and responsibility is substantiated. The study applied pedagogical modeling, observation, and survey methods. The proposed model consists of target, content, activity, and result blocks. The findings show that the formation of work culture is an essential factor in developing the professional competencies of future managers.

Keywords: manager, work culture, higher education, modeling, professional training.

Kirish. Globalizatsiya va raqobat kuchaygan hozirgi davrda yuqori malakali menejerlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Menejerning muvaffaqiyati nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar, balki ish madaniyatining qay darajada shakllanganiga ham bog‘liqdir. Ish madaniyati – bu shaxsning mehnatga bo‘lgan munosabati, intizomi, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ savodxonligi va mas’uliyat hissasini o‘zida mujassam etgan muhim kompetensiya hisoblanadi.

O‘zbekistonda ta’lim tizimi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqa davlat hujjatlari

asosida rivojlanmoqda. Bu jarayonda oliy ta’lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi, balki bo‘lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantiruvchi maskan sifatida faoliyat yuritadi. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak menejerlarda ish madaniyatini shakllantirish jarayonini ilmiy asosda modellashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari hamjamiyati tomonidan ishlab chiqilgan oliy ta’lim sifati bo‘yicha umumlashtirilgan ijtimoiy va ijtimoiy-pedagogik me’yorlarni taqdim etuvchi asosiy davlat me’yoriy hujjati bo‘lib oliy kasbiy ta’limning davlat ta’lim standarti hisoblanadi. U ta’lim dasturlari mazmunining majburiy minimumini hamda talabalarning o‘quv yuklamasining maksimal hajmini, bitiruvchilarni tayyorlash darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilovchi federal va milliy komponentlarni o‘z ichiga oladi.

Shunga qaramay, ta’lim sifati sohasida faoliyat olib borgan ko‘plab tadqiqotchilar (A.V. Xutorskoy, V.D. Shadrikov, A.I. Subetto va boshq.) fikriga ko‘ra, oliy kasbiy ta’limning davlat ta’lim standarti oliy ta’lim sifatini kompleks monitoring qilishda baholash uchun yetarli me’yoriy asos bo‘lib xizmat qila olmaydi, chunki “mutaxassisning ta’lim sifatini baholashning asosiy mezoni bo‘lib uning shaxsiy, kasbiy va ishbilarmonlik xususiyatlarining hayot ehtiyojlariga, shu jumladan mutaxassisning o‘zi, ishlab chiqarish va jamiyat ehtiyojlariga muvofiqligi” bo‘lib hisoblanadi [2].

Tadqiqotchilarni oliy ta’lim bitiruvchisiga nisbatan pozitsiyasining mohiyati shu nuqtai nazardan kelib chiqadiki, unga ko‘ra hozirgi vaqtda oliy ta’lim faoliyatining asosiy yo‘nalishi shaxsga zamonaviy dunyoga moslashishga imkon beradigan uning bilimga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish bo‘lishi kerak. Oliy ta’lim muassasalari uchun kasbiy ta’limning yangi, yanada zamonaviy mazmunli jihatlarini ishlab chiqish – bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy kompetensiyani rivojlantirish, guruhda ishlash qobiliyati, refleksiya, malaka oshirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish yo‘lida kasbiy mehnatning dinamik dunyosi bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishga o‘rgatish vazifasi paydo bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani yozishda pedodgogik kuzatish, so‘rovnoma, pedogogik modellashtirish, tahlil va sentiz usullaridan keng foydalanilgan.

Ta’lim sifatini tor ma’noda – ta’limning me’yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligi darajasi, hamda keng ma’noda – ta’limning shaxs, jamiyat va davlatning haqiqiy zamonaviy ehtiyojlariga muvofiqligi darajasi sifatida tushunish mumkin.

Talabalarning bo‘lajak kasbiy mahoratini belgilovchi sifat va xususiyatlarini rivojlantirish qobiliyati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki zamonaviy sharoitda jahon mehnat bozori keng dunyoqarashga ega mutaxassislarni, innovatsion bilimlarni yaratuvchilarni talab qiladi. Ta’lim mazmuni pedagogik moslashtirilgan ijtimoiy tajriba sifatida chiqadi va ma’lum faoliyat usullarini amalga oshirish bo‘yicha “tayyor” bilim va tajribadan tashqari, ijodiy faoliyat va hissiy-qadriyatli munosabatlar tajribasini o‘z ichiga oladi [3].

Ishlab chiqarishga kelsak, o‘zgaruvchan kasbiy muhit oliy ta’limdan kasbiy savdo bozorini doimiy ravishda kuzatib borishni, jamiyat talab qiladigan inson sifatlarini tez va tizimli ravishda tasvirlashni, o‘quv dasturlarini vazifani bajarishga moslashtirib tezkor loyihalashni talab qiladi. Kasbiy talablar amaliyot ehtiyojlaridan kelib chiqib, kasbiy jamoalar doirasida shakllanadi va ta’lim mazmunini ularga yo‘naltiradiganlarga yetkaziladi, deb taxmin qilinadi. Binobarin, oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashning eng muhim tamoyillaridan biri bo‘lib xodimlarning raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida o‘qitish natijalarining kasbiy faoliyatning muayyan sohasi tomonidan qo‘yiladigan talablarga muvofiqligi tamoyili bo‘lib hisoblanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jamiyatning xalq xo‘jaligi uchun mutaxassislarni kasbiy tayyorlashga qo‘yayotgan talablari me’yoriy-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan bo‘lib, hozirgi bosqichda jamiyat rivojlanishining eng muhim yo‘nalishlarini aks ettiradi. Oliy kasbiy ta’limni isloh qilishning asosiy konseptual

yo‘nalishlari va g‘oyalari O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qonunlari, Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti kabi davlat hujjatlarida keltirilgan.

Kasbiy tayyorgarlik sifatini o‘zgartirish zarurati “malaka” atamasining yetarli emasligini tushunishga ta’sir qildi. Shu sababli “kompetentlik/kompetensiya” yanada kengroq atamasi kiritildi, ushbu atamalarga asoslangan nazariy-uslubiy yondashuv esa kompetentlik yondashuvi deb nomlandi.

Kompetentli yondashuv tobora jadal kengaymoqda va OTM ta’lim amaliyotiga muvaffaqiyatli joriy etilmoqda. Oliy ta’limda yangi sifatga erishishga qaratilgan ushbu tendensiyaga amal qilgan holda, keyingi vazifa tadqiqot predmetiga muvofiq mazkur yondashuvni asoslashdan iborat bo‘ladi.

Umumiy va kasb-hunar ta’limi tizimida kompetentli yondashuvning turli talqinlari bir xil ma’noli emasligi yaqqol ko‘rinadi.

Pedagogikadagi kompetentli yondashuvning ba’zi umumiy elementlarini ko‘rib chiqamiz. Ularning mohiyati to‘rtta asosiy ko‘rinishga ega [4]:

1. Kompetentli yondashuvni zamonaviy tasavvurlarining tabiiy genetik timsoli bo‘lib rivojlantiruvchi va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning psixologik-pedagogik konsepsiyalari kontekstida shakllantirilgan umumiy va shaxsiy rivojlanish g‘oyalari hisoblanadi. Shu sababli, kompetensiyalar ham an’anaviy bilimlarni, ham umumlashtirilgan intellektual, kommunikativ, ijodiy, uslubiy, g‘oyaviy va boshqa ko‘nikmalarning har xil turlarini integratsiyalovchi fandan tashqari, metapredmet shakllanishlar sifatida ham qaraladi.

2. Kompetentli yondashuvning toifali bazasi bevosita ta’lim jarayonining maqsadga yo‘nalganligi va maqsadi berilganligi g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lib, unda kompetensiyalar ko‘nikma va malakalarning eng yuqori, umumlashtirilgan darajasini belgilaydi. Ta’lim mazmuni esa ta’limning to‘rt komponentli modeli (bilim, ko‘nikma, ijodiy faoliyat tajribasi va qadriyatli munosabat tajribasi) bilan belgilanadi. Binobarin, kompetensiya madaniy timsol bilan qat’iy bog‘liq bo‘ladi.

3. Kompetentli yondashuv doirasida ikkita tayanch tushuncha ajratiladi: kompetensiya va kompetentlilik, bunda birinchisi “predmetlar va jarayonlarning ma’lum doirasiga nisbatan beriladigan o‘zaro bog‘liq shaxsiy fazilatlar majmuini o‘z ichiga oladi”, ikkinchisi esa “insonning tegishli kompetensiyaga, shu jumladan, uning kompetensiyaga va faoliyat predmetiga shaxsiy munosabatini egallashi, o‘zlashtirishi” bilan bog‘liq.

4. Ta’lim mazmuni kompetensiyalar darajalari bo‘yicha farqlanadi. Bunday g‘oya uchun ma’lum bir yordam bo‘lib, J. Raven tomonidan bildirilgan muammolarning darajalanganligi va ularni hal qilish uchun ma’lum bir kompetensiyalar mos kelishi kerakligi haqida fikr bo‘lsa, boshqa tomondan, “kompetentlilik” atamasi bilan belgilanadigan hodisalar to‘plamlar va kichik to‘plamlarni ifodalaydi.

Tadqiqotchi tomonidan berilgan batafsil ilmiy tahlil kompetentli yondashuviga yo‘naltirilgan har qanday ta’lim modeli uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. OTM da bo‘lajak menejerning ish madaniyatini shakllantirish jarayonini modellashtirishda biz ham ushbu qoidalarga amal qilamiz. Binobarin, ularning har birini tadqiqotimiz ob’ekti va predmetiga nisbatan asoslab berish zarur.

Ish madaniyati o‘zining shaxsga murojaat qilishida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim g‘oyasiga asoslanadi. Shaxsning tuzilmasiga oid munozaralardan qat’i nazar, shaxsiy yondashuv uning maqsadi, sub’ekti, natijasi va samaradorligining asosiy mezoni sifatida pedagogik jarayonni loyihalash va amalga oshirishda yo‘nalganlikni anglatadi.

Ish madaniyati kompetensiyalarini amalga oshirish asosan kasbiy tayyorgarlik mazmunining meta-fan darajasida amalga oshiriladi, shu bilan u, bir tomondan, boshqaruv rollaridagi farqlarni (yuqori, o‘rta va quyi bo‘g‘in menejerlari) yumshatadi va boshqa tomondan, kasbiy kompetentlikni takomillashtirish uchun turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, ish madaniyati o‘zining shaxsga murojaat qilishiga, insonning kasbiy faoliyatda shaxsiy mavjudligining ma’noviy mexanizmlarini hisobga olishiga asoslangan holda mutaxassis tayyorlashning funksional-kasbiy paradigmasidan shaxsga yo‘naltirilgan paradigmaga, “ma’lumotli shaxs” dan “madaniyatli shaxs”ga, “mavhum tushuniladigan “ijtimoiy buyurtmadan” rivojlanayotgan shaxsning talablari va ehtiyojlari”ga, o‘tishning o‘ziga xos turi bo‘lib xizmat qiladi va “ta’limdagi madaniyat tanqisligi”, “ta’limning texnokratik ortiqcha yuklamasi”, “bilimning o‘z-o‘zini tugatgan begonalashgan, shaxssiz shaklda uzatilishi”, “ma’no yo‘qligi holatida mazmunning bilim bilan to‘yinganligi” bilan bog‘liq.

Kompetentli yondashuvni an’anaviy yondashuv – madaniyatshunoslik yondashuvining “zamonaviy korrelyati” deb qarashadi. Ta’limning shaxsgan yo‘naltirilganligini, uning faoliyatli-amaliy va madaniyatshunoslik tarkibiy qismlarini amalga oshirishga intilishda kompetentli yondashuv haqiqatan ham madaniy-ijodiy jarayon uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi va “zamonaviy inson qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi g‘oya” ga mos keladi.

Mazkur yondashuv doirasida talqinga ko‘ra, ta’lim mazmuni to‘rtta asosiy tuzilmaviy elementdan: “biluv faoliyatining natijalari – bilim shaklida qayd etilgan uning tajribasi; reproduktiv faoliyatni amalga oshirish usullari (ko‘nikma va malakalar) shaklida qayd etilgan uning tajribasi; muammoli vaziyatlar, biluv vazifalari va shu kabilar shaklida qayd etilgan ijodiy faoliyat tajribasi; hissiy-qadriyatli munosabatlarini amalga oshirish tajribasi”dan iborat bo‘lib [76], bu ham ish madaniyati mazmunining to‘rt komponentli tuzilmasiga mos keladi va uni kognitiv komponent (bilim, idrok, axborot); aksiologik komponent (baholash, tanlash, munosabat); me’yoriy-atvor komponent (xulq-atvor, “o‘yin qoidalari” – me’yor, standartga rioya qilish); xaraktermstik komponent (ish muvaffaqiyatiga erishish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish) majmui sifatida taqdim etamiz.

Kompetentli yondashuv zamonaviy jamiyatda ta’lim sifatining adekvat ifodasi bo‘lib, tamaddun jarayonlarining rivojlanishi ehtiyojlarini qondirgan holda madaniyatshunoslik yondashuv imkoniyatlarini amalda ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

Menejerning ish madaniyati bilan bog‘liq holda “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalarini aniqlashimiz kerak.

“Kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalarini qiyosiy tahlil qilish asosida xulosa qilish mumkinki, keng ma’noda “kompetentlik” – shaxsning u yoki bu darajadagi kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ish madaniyati sohasida bu daraja biznes va menejment sohasida o‘zini ro‘yobga chiqaradigan shaxsning umumiy va kasbiy madaniyatining rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi hamda olingan bilimlar, qadriyatlar, me’yorlar va ularning inson shaxsiy fazilatlari asosida namoyon bo‘lishi orqali ish madaniyati ob’ektlariga qadriyatli munosabatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, menejerning ish madaniyati sohasidagi kompetentligi – menejer shaxsining umumiy va kasbiy madaniyati kontekstida shakllangan bilimlar, qadriyatlar, ish madaniyati me’yorlari o‘zaro ta’sirida o‘zini namoyon qiladigan insonning jamlangan, integral shaxsiy fazilatidir.

“Kompetensiya” tushunchasiga kelsak, o‘tkazilgan kontent-tahlil asosida uni shaxs o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan va ta’lim orqali egallanadigan masalalar, bilimlar, amaliy ma’lumotlar, faoliyat usullari majmuasi deb tushunamiz. Binobarin, “kompetensiya” dinamik tuzilishga ega va mazkur ta’lim xizmati mijozlarining kutayotgan natijalarini inobatga olgan holda determinantlar ma’lum bir doirasi bilan belgilanishi mumkin. Ish madaniyati terminologiyasida – bozor iqtisodiyoti uchun kadrlar tayyorlash jarayonining “manfaatdor tomonlari”dir.

OTMda bo‘lajak menejerlarning ish madaniyatini shakllantirish masalasi hozirgi davrda ta’lim tizimining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida menejerlar nafaqat iqtisodiy bilimlarga, balki yuksak axloqiy qadriyatlarga, ijtimoiy mas’uliyat, professional madaniyat, kommunikativ salohiyat va tashkilotchilik fazilatlariga ega bo‘lishlari zarur. Shu boisdan ish madaniyatini shakllantirish jarayonini modellashtirish masalasi menejerlar tayyorlash tizimini takomillashtirishda metodik asos vazifasini bajaradi.

Avvalo, “ish madaniyati” tushunchasiga to‘xtalish zarur. U keng ma’noda shaxsning kasbiy faoliyat jarayonidagi xulq-atvori, o‘zini tutish madaniyati, muloqot etika qoidalariga rioya qilishi, tashkiliy intizom, mas’uliyat, kasbiy etikani egallaganlik darajasi kabi jihatlarni qamrab oladi. Bo‘lajak menejerlar uchun bu sifatlar kelajakda jamoa bilan ishlashda, qaror qabul qilishda, tashkilot ichida sog‘lom psixologik muhit yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida menejerlarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlarga ko‘proq e’tibor beriladi, lekin kasbiy etika, ish madaniyati, axloqiy-psixologik yondashuvlarni shakllantirishga amaliy mashg‘ulotlar darajasida yetarli e’tibor berilmaydi. Bu esa bitiruvchilarning real mehnat bozorida muammolarga duch kelishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli modellashtirish asosida ish madaniyatini shakllantirish tizimi pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida qaralishi zarur.

Modellashtirish jarayoni, birinchidan, real jarayonni ilmiy asosda soddalashtirilgan shaklda aks ettirishni, ikkinchidan, o‘qituvchiga va talabalarga bu jarayonni chuqur anglash imkonini yaratadi. Ish madaniyatini shakllantirish modelining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat: motivatsion, bilimiy, faoliyatli va refleksiv bloklar. Motivatsion blok talabaning kasbiy faoliyatga nisbatan ichki qiziqishi va mas’uliyatini shakllantiradi. Bilimiy blok — menejerlik etikasi, ish yuritish madaniyati, tashkilot psixologiyasi bo‘yicha chuqur nazariy bilimlarni egallashga yo‘naltiriladi. Faoliyatli blok — amaliy mashg‘ulotlar, keys-stadi, treninglar orqali bu bilimlarni amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi. Refleksiv blok esa o‘z-o‘zini tahlil qilish, kasbiy faoliyatdagi xatti-harakatlarini baholash, kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Bo‘lajak menejerning ish madaniyati modelida shuningdek, kommunikativ madaniyat muhim o‘rin tutadi. Menejer uchun samarali muloqot — boshqaruvning asosi hisoblanadi. Talabalarda bu sifatni shakllantirish uchun interaktiv o‘quv usullari, masalan, “rol o‘yinlari”, “munozara darslari”, “case-study” va “brainstorming” usullari qo‘llanilishi samarali natija beradi. Ushbu yondashuvlar orqali talabalarda liderlik, jamoada ishlash, muammoni tahlil qilish, qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalar rivojlanadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, menejerning ish madaniyati faqat shaxsiy fazilatlar bilan emas, balki tashkilot madaniyati bilan ham bevosita bog‘liq. OTMda ushbu jihatni shakllantirish uchun talabalarga tashkilotdagi ierarxiya, rahbarlik uslublari, jamoaviy muloqot, motivatsiya mexanizmlari, ish joyi etikasi haqida amaliy misollar asosida tushunchalar berilishi lozim. Ayniqsa, talabalarni ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida haqiqiy menejerlar faoliyatini kuzatish, ularning boshqaruv uslubini tahlil qilish imkonini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, ish madaniyati modelining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu axloqiy qadriyatlar tizimidir. Menejer uchun halollik, mas’uliyat, adolat, hamkorlik, hurmat kabi qadriyatlar bosh mezon bo‘lishi kerak. Bu qadriyatlarni yosh menejerlarda shakllantirishda pedagogik jarayonning tarbiyaviy jihatlari muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar va mentorlar nafaqat bilim beruvchi, balki axloqiy namuna ko‘rsatuvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lishlari zarur.

Modellashtirish jarayonida OTMda o‘quv dasturlariga menejerlik faoliyatida etik va madaniy me’yorlarni aks ettiruvchi maxsus modullarni kiritish maqsadga muvofiq. Masalan, “Kasbiy etika va ish madaniyati”, “Menejer shaxsining psixologik portreti”, “Kommunikativ madaniyat asoslari” kabi fanlar talabalarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda katta yordam beradi. Ushbu fanlar orqali talaba nafaqat nazariy bilimlarni oladi, balki o‘z faoliyatida ularni tatbiq etishni o‘rganadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, menejerning ish madaniyatini shakllantirishda raqamli texnologiyalar ham muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy menejerlar raqamli muloqot, masofaviy boshqaruv, onlayn jamoa ishini tashkil etish kabi kompetensiyalarga ega bo‘lishlari kerak. Shu sababli OTMlarda menejerlikni o‘qitish jarayonida “raqamli madaniyat” tushunchasini ham o‘quv jarayoniga kiritish, talabalarni axborot etikasi, onlayn muloqot me’yorlari bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim muassasalarida

bo‘lajak menejerlarning ish madaniyatini shakllantirish jarayoni ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ish madaniyati menejerning nafaqat kasbiy faoliyatida, balki shaxsiy va ijtimoiy hayotida ham muvaffaqiyatga erishishida asosiy omillardan biridir.

Taklif etilgan modelning asosiy afzalligi shundaki, u ish madaniyatini shakllantirishni tizimli jarayon sifatida ko‘rsatadi. Talabalar mehnat intizomiga amal qilish, mas’uliyatli bo‘lish, o‘z vaqtida qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallaydi. Jamoada ishlash va samarali muloqot o‘rnatish ko‘nikmalari rivojlanadi va menejerlik faoliyatida zarur bo‘lgan tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ijodkorlik sifatlari shakllanadi hamda amaliy mashg‘ulotlar va keys-stadi asosida olingan bilimlar real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi.

Shuningdek, OTMda bo‘lajak menejerlarning ish madaniyatini rivojlantirish jarayonida ta’lim mazmunini yangilash, interaktiv metodlarni keng joriy etish va o‘quv jarayonini ishlab chiqarish amaliyoti bilan integratsiyalash zarurligi aniqlandi. Umuman olganda, taklif etilgan pedagogik model bo‘lajak menejerlarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Bu esa ularning mehnat bozorida raqobatbardosh, tashabbuskor va mas’uliyatli mutaxassislar bo‘lib yetishishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini oshirish konsepsiyasi” PQ-3775-son, 2018

Милорадова, Н. Г. Психология и педагогика [Текст] / Н. Г. Милорадова. -М.: Гардарики, 2007. - 335 с.

Краевский, В. В. Предметное и общепредметное в образователь¬ных стандартах [Текст] / В. В. Краевский. // Педагогика. — 2003. — № 2.

Бермус, А. Г. Проблемы и перспективы реализации компетентност- ного подхода в образовании / А. Г. Бермус // http://www.eidos.ni/joumal/2005/0910-12.htm.

Равен, Дж. Компетентность в современном обществе: Выявление, развитие и реализация [Текст] / Дж. Равен; пер с англ. - М.: Когито-Центр, 2002. -361 с.

Maxmanazarovna, R. M. (2022). The Importance of a Confirming Experiment in Pedagogical Work in Teaching the Science of Econometrics.

Равшанова, М. М. (2023). Эконометрические модели, суть их использования и необходимость эконометрического анализа. Intent Research Scientific Journal, 2(6), 5-9.

TALABALARNING IJTIMOIY MUNOSABATLAR JARAYONIDA RATSIONAL TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Toshniyazov Umirbek Xurramovich
Qarshi davlat texnika universiteti
Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat ma’rifat bo‘limi boshlig‘i,
“Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning ratsional tafakkurini ijtimoiy munosabatlar jarayonida rivojlantirishga oid pedagogik mexanizmlar tahlil qilinadi. Ratsional tafakkur nafaqat kognitiv ko‘nikma, balki talabalarga axborotni tanqidiy tahlil qilish, muvozanatli qarorlar qabul qilish va konstruktiv muloqotga kirishish imkonini beruvchi ijtimoiy kompetensiya sifatida ham talqin etiladi. Tadqiqotda ijtimoiy muhit — oila, tengdoshlar guruhi hamda madaniy-ta’limiy makonning ratsional fikrlash shakllanishiga ta’siri alohida ta’kidlanadi. Innovatsion o‘qitish usullari, interfaol ta’lim hamda muammoli topshiriqlardan foydalanish talabalarning intellektual faolligini oshirishda samarali vosita sifatida ko‘rsatilgan. Maqolada, shuningdek, ijtimoiy omillarni pedagogik strategiyalar bilan uyg‘unlashtirish talabalarning ratsional tafakkurini shakllantirish, ularni mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy mas’uliyatli va kelajakka yo‘naltirilgan shaxslar sifatida tayyorlash uchun qulay sharoit yaratishini asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: ratsional tafakkur, ijtimoiy munosabat, talaba, pedagogik mexanizmlar, tanqidiy tahlil, oliy ta’lim, intellektual rivojlanish.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ РАЦИОНАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ

Ташниязов Умирбек Хуррамович.
Каршинский государственный технический университет,
Начальник отдела по работе с молодежью, духовному просвещению,
Старший преподаватель кафедры” Социально-гуманитарные науки»

Аннотация: В статье анализируются педагогические механизмы развития рационального мышления студентов в процессе социальных отношений. Рациональное мышление рассматривается не только как когнитивное умение, но и как социальная компетентность, позволяющая студентам критически анализировать информацию, принимать взвешенные решения и участвовать в конструктивном общении. В исследовании подчеркивается влияние социальной среды – семьи, группы сверстников, культурно-образовательного пространства – на формирование рационального мышления. Инновационные методы обучения, интерактивное обучение и использование проблемных заданий показаны как эффективные инструменты повышения интеллектуальной активности студентов. В статье также утверждается, что сочетание социальных факторов и педагогических стратегий создает благоприятные условия для формирования рационального мышления студентов, готовя их к самостоятельной, социально ответственной и ориентированной на будущее личности.

Ключевые слова: рациональное мышление, социальные отношения, студент, педагогические механизмы, критический анализ, высшее образование, интеллектуальное развитие.

PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING STUDENTS' RATIONAL THINKING IN THE PROCESS OF SOCIAL RELATIONS

Toshniyazov Umirbek Khurramovich
Karshi State Technical University,
Head of the Department of Youth Work,
Spirituality and Enlightenment, Senior Lecturer of the Department of «Social Sciences and Humanities»

Abstract: This article analyzes pedagogical mechanisms for developing students' rational thinking in the process of social relations. Rational thinking is interpreted not only as a cognitive skill, but also as a social competence that allows students to critically analyze information, make balanced decisions, and engage in constructive communication. The study emphasizes the influence of the social environment - family, peer group, and cultural and educational space - on the formation of rational thinking. Innovative teaching methods, interactive learning, and the use of problem-based tasks are shown as effective tools for increasing students' intellectual activity. The article also argues that combining social factors with pedagogical strategies creates favorable conditions for the formation of students' rational thinking, preparing them as independent thinkers, socially responsible, and future-oriented individuals.

Keywords: rational thinking, social relations, student, pedagogical mechanisms, critical analysis, higher education, intellectual development.

Kirish: Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadi – mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol, ma'naviy barkamol va ratsional qaror qabul qila oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida yoshlarning tafakkur madaniyatini, xususan, ratsional tafakkurni rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki ratsional tafakkur insonning ijtimoiy hayotdagi turli vaziyatlarni tahlil etish, obyektiv fikr yuritish, tanqidiy yondashuv asosida xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantiradi.

Pedagogika fanida ratsional tafakkur tushunchasi talabaning bilim olish, fikrlash va qaror qabul qilish jarayonida mantiqiy, izchil hamda dalillarga asoslangan yondashuvni ifodalaydi. U shaxsning intellektual salohiyati, ijtimoiy tajribasi va kommunikativ madaniyatining uyg'unlashuvi orqali rivojlanadi. Ayniqsa, talabalik davrida ijtimoiy munosabatlar — ya'ni o'qituvchi va talaba, talaba va tengdoshlar, hamda talaba va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar — ratsional tafakkurni shakllantirish uchun tabiiy ijtimoiy muhit sifatida maydonga chiqadi.

Mazkur jarayonning pedagogik mexanizmlarini o'rganish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ta'lim muassasalarida ratsional tafakkurni rivojlantirish faqat nazariy bilim berish bilangina emas, balki ijtimoiy hamkorlik, muammoli o'qitish, reflektiv muloqot, jamoaviy qaror qabul qilish, shaxslararo muloqot madaniyatini shakllantirish kabi pedagogik strategiyalar orqali amalga oshiriladi. Shu boisdan, talabalarning ijtimoiy faoliyatida ratsional tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarni aniqlash, ularning tarkibiy tuzilmasi va amaliy samaradorligini asoslash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Ratsional tafakkur nafaqat intellektual faoliyat ko'rinishi, balki shaxsning axloqiy, ijtimoiy va fuqarolik pozitsiyasi bilan ham uzviy bog'liqdir. U ijtimoiy muhitda shaxsning mustaqil fikrini ifoda etish, turli qarashlarni tahlil qilish, bahs-munozaralarda mantiqiy isbot va dalillarga tayangan holda qatnashish madaniyatini shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalarida ratsional tafakkurga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish, ta'limning interfaol shakllaridan foydalanish, ijtimoiy o'rganish nazariyasi va konstruktivistik yondashuv tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish talab etiladi.

Mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundan iboratki, u zamonaviy ta'lim jarayonida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijtimoiy ongini va tafakkur madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan

yangi pedagogik mexanizmlarni izlab topish va amaliyotda sinovdan o‘tkazishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy munosabatlar tizimida shakllanadigan ratsional tafakkur yosh avlodning hayotiy pozitsiyasi, qaror qabul qilish madaniyati va fuqarolik ongini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, talabalarning ijtimoiy munosabatlar jarayonida ratsional tafakkurini rivojlantirish pedagogik mexanizmlarini o‘rganish, ularning mazmuni, tuzilishi va samaradorlik omillarini aniqlash hozirgi ta’lim tizimi uchun nazariy va amaliy jihatdan muhim ilmiy vazifa sanaladi. Ushbu tadqiqot ana shu ehtiyojdan kelib chiqadi va zamonaviy ta’lim jarayonida shaxs tafakkurini rivojlantirishning ilmiy asoslarini yanada chuqurlashtirishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Ratsional tafakkur masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiyada shaxsning mantiqiy, tanqidiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish bilan bog‘liq muhim yo‘nalish sifatida o‘rganilmoqda. Chet ellik olimlar — J. Dewey, L. Vygotskiy, J. Piaget, A. Bandura va R. Paul ratsional tafakkurni ijtimoiy o‘rganish va reflektiv fikrlashning markaziy omili sifatida talqin etganlar. Ularning tadqiqotlarida tafakkurning rivoji ijtimoiy muhit, muloqot va tajriba almashinuvi jarayonida shakllanishi asoslab berilgan.

O‘zbekiston olimlari — A. Abduqodirov, M. Ochilov, N. Xolmatova, R. Nazarov va boshqalar ratsional tafakkurni rivojlantirishni ta’lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida o‘rganib, bunda interfaol metodlar, muammoli o‘qitish va refleksiya muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydilar. Tadqiqotlarda ratsional tafakkur shaxsning ma’naviy qadriyatlari, kommunikativ madaniyati va ijtimoiy faolligi bilan bevosita bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tilgan.

So‘nggi yillarda raqamli ta’lim muhiti, ijtimoiy tarmoqlar va jamoaviy o‘rganish shakllari orqali ratsional tafakkurni rivojlantirishga doir izlanishlar kengaymoqda. Biroq mavjud adabiyotlarda aynan ijtimoiy munosabatlar jarayonida ratsional tafakkurni shakllantirishning aniq pedagogik mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu bois ushbu yo‘nalishda kompleks yondashuvni ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur tadqiqotda talabalarning ijtimoiy munosabatlar jarayonida ratsional tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni aniqlash, tahlil qilish va asoslashga qaratilgan ilmiy usullar qo‘llanildi.

Nazariy tahlil metodi yordamida ratsional tafakkur, ijtimoiy o‘rganish va pedagogik ta’sirga oid ilmiy manbalar o‘rganildi. Kuzatuv va suhbat metodlari orqali talabalarning muloqot jarayonidagi fikrlash faoliyati tahlil qilindi. So‘rovnoma va diagnostik testlar yordamida ularning tafakkur darajasi, mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari baholandi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari pedagogik tajriba metodlari asosida tekshirilib, olingan ma’lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida ta’lim jarayoniga interfaol metodlar, jamoaviy fikrlash mashg‘ulotlari hamda reflektiv tahlil elementlari tatbiq etildi.

Tahlil va natijalar: Tadqiqot davomida talabalarning ijtimoiy munosabatlar jarayonida ratsional tafakkurini rivojlantirishga ta’sir etuvchi pedagogik omillar tizimli tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ratsional tafakkur talabaning aqliy, ijtimoiy va kommunikativ faoliyati o‘zaro uzviy bog‘langan holatda shakllanadi. Ratsional tafakkur darajasi nafaqat bilim hajmiga, balki shaxsning o‘z fikrini asoslab bera olish, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish va ijtimoiy vaziyatlarda ongli qaror qabul qilish qobiliyatiga ham bog‘liqdir.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida talabalarning fikrlash xususiyatlari va muloqot madaniyati diagnostika testlari yordamida o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, aksariyat talabalar ma’lumotni eslab qolish va takrorlashda faol bo‘lsalar-da, dalillash, tahlil qilish va muammoli vaziyatni yechishda yetarli tajribaga ega emaslar. Bu esa ratsional tafakkurni rivojlantirishda ijtimoiy hamkorlik, fikr almashish va reflektiv faoliyatning yetarlicha qo‘llanilmayotganini ko‘rsatadi.

Tajriba-sinov jarayonida interfaol pedagogik texnologiyalar – “muammoli o‘qitish”, “bahs-munozara”, “fikrlar zanjiri”, “rol o‘ynash” hamda “refleksiya asosidagi tahlil” usullari qo‘llanildi. Ushbu metodlar talabalarda fikrlash jarayonini faollashtirdi, ularni o‘z fikrini asoslab ifoda etishga, turli nuqtai nazarlarga tanqidiy yondashishga o‘rgatdi. Ayniqsa, jamoaviy faoliyat jarayonida har bir talaba o‘z pozitsiyasini dalillar bilan himoya qilishga intildi, bu esa ratsional tafakkurning muhim belgisi – argumentlangan

fikrlash ko‘nikmasining shakllanishiga sabab bo‘ldi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy munosabatlar jarayonida o‘zaro muloqot, fikr almashinuvi, jamoaviy qaror qabul qilish kabi faoliyat turlari ratsional tafakkurni rivojlantirishning tabiiy mexanizmlari sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilgan ijtimoiy hamkorlik talabalarning fikrlash jarayonida refleksivlikni kuchaytiradi, ularni mantiqiy, izchil va dalillangan qaror qabul qilishga undaydi.

Tajriba yakunlari tahlil qilinganda, ratsional tafakkurni rivojlantirish darajasi tajriba guruhida sezilarli o‘sish ko‘rsatdi. Talabalar o‘z fikrlarini aniqroq ifoda etish, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish, dalillar asosida xulosa chiqarish va o‘z qarorlarini asoslash ko‘nikmalarini namoyon etdilar. Bu esa ijtimoiy munosabatlar jarayonida ratsional tafakkurni shakllantirishda pedagogik yondashuvlar – interfaol metodlar, reflektiv mashg‘ulotlar, hamkorlikdagi o‘qitish va ijtimoiy motivatsiyaning ahamiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Natijalarning umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ratsional tafakkurni rivojlantirish jarayoni tizimli, bosqichma-bosqich va pedagogik jihatdan boshqariladigan faoliyatni talab qiladi. Ijtimoiy munosabatlar sharoitida tashkil etilgan o‘quv jarayoni shaxsning mantiqiy fikrlashini, o‘z fikrini dalillash qobiliyatini, tahliliy yondashuvini va ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytiradi. Shu bois talabalarning ratsional tafakkurini rivojlantirish ta’lim jarayonining strategik maqsadlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, talabalarning ratsional tafakkuri ularning ijtimoiy munosabatlardagi ishtiroki, muloqot madaniyati va reflektiv fikrlash faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Ratsional tafakkur ijtimoiy muhitda, ya’ni bahs-munozaralar, jamoaviy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va hamkorlikda qaror qabul qilish jarayonida faol shakllanadi. Bunday jarayonlarda talaba o‘z fikrini dalillar bilan asoslash, turli nuqtai nazarlarga tanqidiy yondashish va mantiqan izchil xulosa chiqarishni o‘rganadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy munosabatlar ratsional tafakkur rivojining tabiiy pedagogik muhiti bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, talabalarni mustaqil fikr bildirishga, tahlil qilishga va jamoaviy muloqotga jalb etish ratsional tafakkur ko‘nikmalarini sezilarli darajada kuchaytiradi. Shu boisdan, oliy ta’lim tizimida ta’lim jarayonini shunday tashkil etish zarurki, unda har bir talaba o‘z fikrini mantiqan asoslay olsin, dalillarga tayangan holda qaror qabul qilishni o‘rganib, ijtimoiy mas’uliyatni his etsin.

Xulosa va takliflar: Mazkur ilmiy ish natijalariga tayangan holda shunday xulosa chiqarish mumkinki, talabalarning ijtimoiy munosabatlar jarayonida ratsional tafakkurini rivojlantirish samaradorligi pedagogik yondashuvning tizimliligi, interfaolligi va shaxsga yo‘naltirilganligiga bog‘liqdir. Shu bilan birga, ratsional tafakkurni shakllantirish uchun o‘quv muhitida tahliliy fikrlashni rag‘batlantiruvchi topshiriqlar, reflektiv mashg‘ulotlar hamda jamoaviy o‘rganish texnologiyalarini keng qo‘llash zarur.

Taklif sifatida aytish mumkinki, oliy ta’lim muassasalarida ratsional tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini takomillashtirish, pedagog kadrlarni zamonaviy interfaol metodlar bo‘yicha qayta tayyorlash, hamda talabalarning ijtimoiy faoliyatini rag‘batlantiruvchi muhit yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu chora-tadbirlar natijasida talabalarda ratsional fikrlash madaniyati, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati va ijtimoiy faollik darajasi yanada yuksaladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Abdurahmonov Q. Pedagogik tafakkur va uning rivojlanish omillari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

Hasanboeva O., Yo‘ldoshev J. Pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.

Dewey, J. How We Think. – New York: D.C. Heath & Co., 1933.

Raxmonov A. Ratsional tafakkur va shaxsning intellektual rivoji. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.

Paul, R. & Elder, L. The Miniature Guide to Critical Thinking: Concepts and Tools. – Foundation for Critical Thinking, 2019.

Ochildiyev M. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent: Innovatsiya, 2023.

STEAM TA’LIM TIZIMI IJODIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRUVCHI INNOVATSION YONDASHUV

Yaxshiboyeva Sitora Toshpulat qizi
Qarshi xalqaro universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada STEAM yondashuviga asoslangan o‘qitish uslublari, shuningdek o‘quvchilarga tajribalar o‘tkazishga, modellar tuzishga, muammolarni hal qilshga, hamkorlikni qabul qiladigan va ijodiy jarayon orqali ishlash ko‘nikmasini shakllantirilishi haqida so‘z yuritiladi. Bundan tashqari maktab o‘quvchilariga nafaqat ba’zi bir g‘oyalarga ega bo‘lish, balki ularni amalda qo‘llash va amalga oshirish imkoniyatini berish haqida aytib o‘tilgan.

Shuningdek, STEAM yondashuvga asoslangan o‘qitish o‘quvchilarga mavzuni turli burchaklaridan ko‘rib chiqish va uni chuqurroq idrok etish, o‘qish savodxonligi darsida o‘tilgan matnni tabiiy fanlar va san’at bilan bog‘lab o‘rganish, tafakkurning rivojlanishi, turli fanlar doirasidagi mavzu yoki tushunchani konsentratsiya qilish va turli jarayonlarcha qo‘llash uning mustahkam o‘zlashtirilishiga yordam berishi va tafakkurni faollashtirishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: STEAM, noodatiy fikrlash, kreativlik, model, ixtiro, yondashuv, robotexnika, hamkorlik, jamoa, moslashuvchanlik va boshqalar.

СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ STEAM - ЭТО ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ФОРМИРОВАНИЮ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ

Яхшибоева Ситора Тошпулат қизи
Старший преподаватель Каршинского международного университета

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы обучения, основанные на STEAM-подходе, а также формирование у учащихся навыков проведения экспериментов, построения моделей, решения задач, сотрудничества и творческой работы. Кроме того, отмечается, что школьникам необходимо не только иметь идеи, но и иметь возможность применять их на практике.

Кроме того, обучение по STEAM основано на идее, что учащиеся могут рассматривать предмет с разных сторон и глубже его понимать, связывать пройденный на уроке чтения текст с естественными науками и искусством, развивать мышление, концентрироваться на теме или концепции в рамках различных дисциплин и применять их в различных процессах, что способствует закреплению знаний и активизирует мышление.

Ключевые слова: STEAM, нестандартное мышление, креативность, модель, изобретение, подход, робототехника, сотрудничество, команда, гибкость и т. д.

STEAM EDUCATION SYSTEM IS AN INNOVATIVE APPROACH TO FORM CREATIVE THINKING

Yakhshiboyeva Sitora Toshpulat kizi
Senior Lecturer at Karshi International University

Abstract: This article discusses teaching methods based on the STEAM approach, as well as the formation of students’ skills in conducting experiments, building models, solving problems, accepting cooperation and working through a creative process. In addition, it is mentioned that schoolchildren should not only have some ideas, but also be given the opportunity to apply and implement them in practice.

Also, STEAM-based teaching is based on the idea that students can view the subject from different angles and gain a deeper understanding of it, connect the text covered in the reading literacy lesson with natural sciences and arts, develop thinking, concentrate on a topic or concept within different disciplines, and apply it in various processes, which helps to solidify its mastery

and activates thinking.

Keywords: STEAM, unconventional thinking, creativity, model, invention, approach, robotics, cooperation, team, flexibility, etc.

Kirish. STEM - ta’lim jarayonida o‘qitish o‘quvchilarning qiziqishlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda, ayrim fanlar va ularni o‘rganish darajasini tanlab olish orqali o‘quv jarayonini individuallashtirishni ko‘zda tutadi. STEM – ta’lim dasturida o‘quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda sinfdan tashqari va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish nazarda tutiladi. O‘quv dastur o‘qitishning maqsadlari jamiyat va davlat manfaatlari va talablariga mos kelmog‘i hamda javob bermog‘i lozim.

STEAM – zamonaviy ta’limning muhim yondashuvi bo‘lib, turli fanlar va ularning tarkibiy qismlarini o‘zaro bog‘lash orqali bilim va ko‘nikmalarni chuqurroq va samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. U shunchaki fanlarni birlashtirish emas, balki ular orasidagi bog‘liqliklarni ochib berish, tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash, umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikda hamkorlik qilish ko‘nikmasini rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Mazkur yondashuv asosida tabiiy fanlarni o‘zlashtirish bir qator hususiyatlarga egaligi bilan tavsiflanadi:

Tushunish jarayonidagi aniq idrok etish: STEAM yondashuvga asoslangan o‘qitish o‘quvchilarga mavzuni turli burchaklaridan ko‘rib chiqish va uni chuqurroq idrok etish imkonini beradi. Masalan, o‘qish savodxonligi darsida o‘tilgan matnni tabiiy fanlar va san’at bilan bog‘lab o‘rganish uning mazmunini yanada boyitadi.

Tafakkurning rivojlanishi: Turli fanlar doirasidagi mavzu yoki tushunchani konsentratsiya qilish va turli jarayonlarcha qo‘llash uning mustahkam o‘zlashtirilishiga yordam beradi hamda tafakkurni faollashtiradi.

Ko‘nikmalarning samarali shakllanishi: STEAM yondashuvga asoslangan o‘qitish o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, loyiha yaratish, hamkorlikda ishlash va boshqa muhim ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.

Kreativ potensialini yuzaga chiqarilishi: Turli fanlarni birlashtirish o‘quvchilarga kreativ fikrlash va yangi g‘oyalarni yaratish imkonini beradi. Ular mavzuga o‘ziga xos yondashuvlarni topadilar, yon tomondan fikrlaydilar, mavjud bilimlarini, vetagen tajribalarini original tarzda qo‘llaydilar.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Real hayotga bog‘liqlik: STEAM yondashuvga asoslangan o‘qitish o‘quvchilarga bilimlarni real hayotdagi vaziyatlarga qo‘llashni o‘rgatadi va

ularning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi, ijtimoiy muammolarga turli yechim topishga va ijtimoy ko‘nikmaga ega bo‘lishiga zamin yaratadi.

Motivatsiyaning oshirilishi: Qiziqarli va turli xil faoliyatlar o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Ko‘p sohalarda qo‘llaniladigan bilim. STEAM ta’limining nafaqat bitta soha bilan cheklanib qolishiga yo’l qo’ymaydi. Masalan, fizika va kimyo fanlari muhandislikda, biologiya va informatika esa texnologiya va tibbiyotda qo’llaniladi. Boshqacha aytganda, STEAM ta’limi keng va turli yo’nalishlarda ishlatiladigan bilimlarni birlashtiradi.

Jamoada ishlash va kommunikatsiya. STEAM loyihalarida o‘quvchilarga jamoada ishlash, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va birgalikda muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini o‘rgatadi. Bu ko‘nikmalar nafaqat ilmiy faoliyatda, balki kundalik hayotda ham foydalidir.

Shuningdek, STEAM ta’limi orqali global texnologik, ekologik va ijtimoiy muammolarni hal qilishda ishtirok etish mumkin. Kelajakda STEAM ta’limi dunyo iqtisodiyotida va jamiyatda muhim o‘rin tutishi kutilmoqda, chunki u ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishini jadallashtiradi

va insonlarning kreativ potensialini ochadi [6;38-b].

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

STEAM – bu standartlar, baholash va darsni loyihalash amalga oshirish o‘rtasidagi o‘zgarmas bog‘lanishni ta’minlaydigan integratsiyalashgan o‘rganish yondashuvi hisoblanadi. Haqiqiy STEAM tajribasi fan, texnologiya, muhandislik, matematika va san’at sohalaridan ikki yoki undan ortiq standartlarni o‘z ichiga oladi. So‘rov, hamkorlik va jarayon asosida ta’lim STEAM yondashuvining markaziy elementlari hisoblanadi. Haqiqiy STEAM tashabbusi uchun san’atning integratsiyasi juda muhimdir [3;790-b]. Ushbu maqsadlarga erishish uchun maktablar bir nechta omillarni hisobga olishlari kerak:

STEAM – bu standartlar, baholash va darsni loyihalash amalga oshirish o‘rtasidagi o‘zgarmas bog‘lanishni ta’minlaydigan integratsiyalashgan o‘rganish yondashuvi hisoblanadi. Haqiqiy STEAM tajribasi fan, texnologiya, muhandislik, matematika va san’at sohalaridan ikki yoki undan ortiq standartlarni o‘z ichiga oladi. So‘rov, hamkorlik va jarayon asosida ta’lim STEAM yondashuvining markaziy elementlari hisoblanadi. Haqiqiy STEAM tashabbusi uchun san’atning integratsiyasi juda muhimdir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun maktablar bir nechta omillarni hisobga olishlari kerak:

Har bir jamoada o’qituvchilarning turli sohalardan kelgan vakillarini o’z ichiga olgan hamkorlikda rejalashtirish.

Boshlang’ich sinf Tabiiy fanlar (Science) darsligi o’quvchilarda boshlang’ich kasbiy ko‘nikmalar va malakalarni egallash, texnik vositalar va asboblardan foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar olish, labaratoriya ishlari va loyiha ishlari bilan tanishish, texnik va ilmiy ma’lumotlarda yo‘nalishni topishga yordam berish, o‘quvchilarning dunyoqarashi va shaxsini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Biroq, tabiiy fanlarining shaxsni shakllantirishdagi juda katta salohiyati har doim ham to’liqligicha amalga oshirilmaydi. Bu jarayon ko‘plab omillarga bog‘liq. “Asosiysi, tabiiy fanlarni o‘rganayotgan boshlang’ich sinf o‘quvchilari birinchi kunlardanoq yangi tushunchalar va ma’lumotlarni idrok etishlari kerak, ularni o‘zlashtirish o‘quvchilarning ma’lum bir qismi uchun ma’lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ba’zan ayrim tushunchalarning mohiyati va mazmuni o‘quvchilar ongiga yetib bormaydi, ularda o‘quv materialini mexanik yo‘l bilan yod olishga majbur bo‘ladi, qiziqishi susayadi, o‘quv predmetiga nisbatan salbiy munosabat paydo bo‘ladi” [6;49-b].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy fanlar bo‘yicha dastlabki bilimlarni shakllantirish va ularga bo‘lgan qiziqishni uzluksizlik tamoyili asosida uyg‘otish dastur materialini o‘zlashtirish sifatini oshirishga imkon beradi, nafaqat o‘rganilayotgan mavzu, balki umuman tabiiy fanlarga qiziqishning rivojlanishiga ham yordam beradi. O‘qitish nazariyasi va amaliyotida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiiy fanlar bo‘yicha dastlabki bilimlarini shakllantirish muammosining ayrim jihatlarini yetarli darajada rivojlantirmaganligi ushbu muammoni hal etishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Boshlang‘ich sinflar o‘quv dasturida nazarda tutilgan tabiat haqidagi bilimlar mazmuni va tabiati jihatidan ancha xilma-xil ekanligini hisobga olib, uni o‘zlashtirishda turli xil tarbiyaviy ish usullarini talab qiladigan o‘quv faoliyati mavjud, degan xulosaga keladi. Tabiat haqidagi bilimlarni egallashda eng maqbul o‘quv faoliyati umumiy usullari sifatida muallif “obyektlarning holati va tashqi xususiyatlarini o‘rganish va ularni tavsiflashga qaratilgan kuzatish; o‘rganilayotgan obyektlarni guruhlash va taqqoslash” ni tanlaydi [2;9-b]. Tadqiqotchilar ushbu muammoni o‘rganar ekan, “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiat haqidagi bilimlar bilan tanishtirishda ko‘p darslarda og‘zaki o‘qitish usullari va o‘qituvchining o‘qituvchilik faoliyati ustunlik qiladi.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

STEAM ta’limi nafaqat texnologiyalarni o’rgatish, balki o’quvchilarda ijodiy fikrlash va tahliliy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o’z navbatida nafaqat ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishiga, balki jamiyatda innovatsion yondashuvlar va muammolarni samarali hal qilishga olib keladi. Bu ta’lim yo’nalishi kelajakda dunyoning barcha sohalarida katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзакаримова М.М. Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. Science and Education. Toshkent - 2020. 97- 103-b.

2. Мирзакаримова М.М. “Хорижий тилларни тадбиркорликка йўналтириб ўқитишнинг дидактик асослари”, Novateur Publications, (1), pp. 1- 128. Available at: http:novateurpublication.org/index.php/np/article/view/23 (Accessed: 26 August 2023)

3. Мирзакаримова М.М. Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. Science and Education. Toshkent - 2020. 216-222-b.

4. Yakhshiboeva S. STEAM education as future education: scientific theoretical basis of using steam technology in primary education American Journal of Pedagogical and Educational Research ISSN (E): 2832-9791| December, 2023

5. Yaxshiboyeva S.T. Ta’limda STEAM ta’limini amalga oshirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari. Муғаллим ҳем узлуксиз билимлендириў. Илимий-методикалық журнал. 2024 - № 2. 84-87 b.

6. Yakhshiboeva S. Developing students’ knowledge and skills through the use of STEAM technology and increasing educational efficiency. European International Journal of Pedagogics eISSN: 2751-000X 30.12.2024.

7. Yaxshiboyeva S.T. O‘zbekistonda STEAM ta’lim tizimini tatbiq etishning nazariy aspektlari. Maktabgacha va maktab ta’limi. Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnal. 2025 - № 6. 1031-1033 b.

BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Raxmonova Go‘zal Xolmamatovna
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar unuversiteti
“Oliy matematika va axborot texnologiyalari” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari yoritilgan. Raqamli muhitda ta’lim jarayonlarini tashkil etish, loyiha asosida o‘qitish, virtual realistik muhitlar va masofaviy ta’lim vositalarining kasbiy bilim va ko‘nikmalar shakllanishidagi o‘rni tahlil qilingan. Zamonaviy raqamli texnologiyalar muhandislik ta’limi sifatini oshirish va global mehnat bozoriga mos kadrlar tayyorlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Bo‘lajak muhandislar, kasbiy kompetentlik, raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriyalar, loyiha asosida o‘qitish, masofaviy ta’lim, simulyatsiya, innovatsion ta’lim metodlari.

Использование цифровых технологий в развитии профессиональных компетенций будущих инженеров

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы и практические возможности использования цифровых технологий в развитии профессиональной компетентности будущих инженеров. Проанализирована роль организации образовательных процессов в цифровой среде, проектного обучения, виртуальных реалистичных сред и средств дистанционного обучения в формировании профессиональных знаний и навыков. Современные цифровые технологии являются важным фактором повышения качества инженерного образования и подготовки кадров, соответствующих мировому рынку труда.

Ключевые слова: Будущие инженеры, профессиональная компетенция, цифровые технологии, виртуальные лаборатории, проектное обучение, дистанционное обучение, симуляция, инновационные методы обучения.

Use of digital technology for development of professional competent future engineers

Annotation: The article examines the theoretical foundations and practical possibilities of using digital technologies in developing the professional competence of future engineers. The role of organizing educational processes in a digital environment, project-based learning, virtual reality environments, and distance learning tools in developing professional knowledge and skills is analyzed. Modern digital technologies are an important factor in improving the quality of engineering education and training personnel relevant to the global labor market.

Keywords: Future engineers, professional competencies, digital technologies, virtual laboratories, project-based learning, distance learning, simulation, innovative teaching methods

Shakllantiruvchi bosqich jarayonida ta’kidlovchi tajriba-sinov ishlari davomida aniqlangan nomuvofiqlik va kamchiliklarga barham berish, ta’lim tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning dual ta’lim texnologiyasini tayyorlash jarayonini takomillashtirish talab darajasida rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan yondashuv mazmuni va o‘qitishning samarali metod, shakl, vositalarini amaliyotda sinab ko’rish hamda takomillashtirish asosiy maqsad qilib qo‘yildi. Ushbu maqsadni ro‘yobga chiqarishda quyidagi vazifalar belgilandi: tajriba va nazorat guruhlarini belgilash; respondentlarga tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsad, vazifa va ushbu jarayonda ularning shaxsiy ishtiroki haqidagi ma’lumotlarni taqdim etish;

Ta’lim tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning dual ta’lim texnologiyasini tayyorlash jarayonini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mazmun, metod hamda o‘quv materiallari asosida tajriba guruhlari dars jarayonini tashkil etish;

Aqliy hujum, keys texnologiyasi, muammoli o‘qitish texnologiyasi (muammolar zanjiri metodi), Idrok xaritasi texnologiyasi, debat, kommunikativ o‘qitish, o‘yinli texnologiyalar, baliq skeleti kabi ta’lim metodlaridan foydalanildi.

Shakllantiruvchi tajriba-sinov ishi yakunida olingan natijalar umumlashtirildi va tahlil qilindi. Yakunlovchi bosqich bosqichda olingan tajriba-sinov ma’lumotlarini tahlil etildi, uning tajriba-sinovda belgilangan maqsad va vazifalari bilan o‘zaro bog‘liqligi, natijalar statistik qayta ishlandi [4].

Muhokama. Tadqiqot ishi davomida quyidagilarga katta e’tibor berildi:

Ta’lim tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning dual ta’lim texnologiyasini tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun oliy ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etish. Tadqiqotning tajriba-sinov qismi bir nechta printsiplarga asoslangan holda tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlari maqsadining aniqligi; Ta’lim tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning dual ta’lim texnologiyasini tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun oliy ta’lim jarayonida haqqoniylik va xolislikning ta’minlanganligi; tadqiqotga oid pedagogik faoliyatning tizimli, uzluksiz, uzviy, izchil va maqsadga muvofiq tashkil etilganligi; talabalar kommunikativ kompetentligini rivojlantirish ishiga fan talabalari va muassasa ma’muriyatining ijodiy va texnologik yondashuvi. Ushbu prinsiplar tajriba–sinov ishlarining samarali olib borish, ko‘zlangan natijalarni metodik jihatdan to‘g‘ri hal qilinishida muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

Pedagogik tajriba–sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish jarayonida umumiy maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilar bajarildi: o‘quvchi va Ta’lim tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning dual ta’lim texnologiyasini tayyorlash jarayonini takomillashtirish jarayonining mavjud holatini o‘rganish. Ta’lim tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning dual ta’lim texnologiyasini tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun oliy ta’lim jarayonida ko’zga tashlanayotgan muammoli hodisalarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralarini belgilash. Ta’lim tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning dual ta’lim texnologiyasini tayyorlash jarayonini takomillashtirish jarayoni innovatsion rivojlantirishga keng imkon beruvchi samarador ta’lim texnologiyalarini belgilash ta’lim tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning dual ta’lim texnologiyasini tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun oliy ta’lim darajasini aniqlovchi baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Asosiy tadqiqot metodi matematik statistika metodi edi. Tajriba–sinov ishlari Buxoro pedagogika institutining pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishining talabalari jalb etildi. Tajriba-sinov ishida dastlabki tashxis guruhida anketa shaklida o‘tkazildi. Guruhdagi talabalarga ta’kidlash joizki, tajriba o‘tkazish bosqichida talabalar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish uchun qo‘llangan materiallardan ularning kasbiy-amaliy tajribalari dinamikasini o‘rnatish uchun foydalanildi.

1-jadval.

O‘tkazilgan tajriba-sinov samaradorlik darajasini aniqlash yuzasidan tajriba natijalari

Guruhlar	Guruhlar soni	O‘zlashtirish darajalari					
		Yuqori	%	O‘rta	%	Past	%
Tajribadan keyin	105	30	28,6	63	60	12	11
Tajribadan oldin	105	6	5	27	26	72	69

Tajribadan keyin o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va talabalar sonini mos ravishda X_i n_i lar va shu kabi tajribadan oldin esa Y_j m_j lar orqali belgilab olib, quyidagi statistik sinflardan variatsion qatorlarga ega bo‘ldi, shuningdek, yuqori ko‘rsatkichni 2 ball va quyi ko‘rsatkichni 1ball bilan belgilandi.

Tajribadan keyin o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari:

Endi tajribadan keyingi ta’lim usuli xilma-xil bo‘lgan, ya’ni farazga zid bo‘lgan hol ko‘rinadi.

$$K_0 : F_x = F_y K_0 : F_x = F_y$$

Bunda ikki bosh to`plam taqsimotini taqsimlash bir-biriga to`g`ri keladi. Belgilangan α qiymatdorlik darajasida $H_1 : H_1 :$ - bosh to`plam normal taqsimlangan degan gipotezani tekshirish uchun avval nazariy chastotalarni keyin esa Pirsonning muvofiqlik kriteriysi Xi-kvadrat bo‘yicha (1) va (2) tizimlar asosida quyidagi formula bo`yicha hisoblanadi:

$$X^2_{n,m} = \frac{1}{nm} \sum_{i=1}^{3} \frac{(n m_i - m n_i)^2}{m_i + n_i} = \sum_{i=1}^{3} \frac{(m_i - n_i)^2}{m_i + n_i}$$

$$X^2_{n,m} = \frac{1}{nm} \sum_{i=1}^{3} \frac{(n m_i - m n_i)^2}{m_i + n_i} = \sum_{i=1}^{3} \frac{(m_i - n_i)^2}{m_i + n_i}$$

Formula asosida $X^2_{n,m}$ $X^2_{n,m}$ -

$$X^2_{n,m} = \frac{(41-229)^2}{41+229} + \frac{(218-522)^2}{218+522} + \frac{(529-37)^2}{529+37}$$

$$= \frac{35344}{270} + \frac{92416}{740} + \frac{242064}{566} = 130.9 + 124.8 + 424.14 = 679.84$$

ga teng ushbu mezon bo`yicha ozodlik darajalari bo`yicha $\nu = 3 - 2 = 1$ ga teng, Xi-kvadrat taqsimotining jadvali bo`yicha kritik nuqta topiladi. p=0.95 uchun ishonchlilik ehtimoli $t_{0.95}(V) = t_{0.95}(2) = 6 t_{0.95}(V) = t_{0.95}(2) = 6$ ga teng.

Bir tomonlama kriteriy nolinchi gipotezani ikki tomonlama kriteriyga qaraganda “Qat’iyat bilan” rad etgani uchun o`ng tomonlama kiritik soha quriladi.O`ng tomonlama kritik soha quyidagiga teng.

$$X^2_{n,m} - 679.84 > 6 - t_{0.95} \quad X^2_{n,m} = 679.84 > 6 = t_{0.95} \quad (3)$$

Bunda Xi-kvadrat taqsimot kritik nuqtadan katta bo`lgani uchun nolinchi gipoteza rad etildi. Endi baholashning samaradorlik ko`rsatkichini aniqlash uchun ishonchli interval hisoblanadi.Tajribadan keyin:

$$\Delta_x = t_\gamma \frac{S_x}{\sqrt{n}} = 1.96 \cdot \frac{0.53}{\sqrt{788}} = 1.96 \cdot \frac{0.53}{28.07} = \frac{1.04}{28.07} \approx 0.037$$



1-rasm. Ta’lim tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning dual ta’lim texnologiyasini tayyorlash jarayonini rivojlantirishga doir pedagogik tajriba-sinov ishlarini ifodalanishi.

Sitatistik tahlil o‘tqazishni qulaylashtirish maqsadida yuqoridagi variatsion qatorlardan ni va mj takroriy mos statistic ehtimollik formulalari Pi = asosida hisoblanadi.

Sitatistik tahlil o‘tqazishni qulaylashtirish maqsadida yuqoridagi variatsion qatorlardan n_i va m_j takroriy mos statistic ehtimollik formulalari $P_i = \frac{m}{n}$ va $qj\ \frac{m}{n}$ (1) asosida hisoblanadi.

(3) $\begin{cases} X_i & 3; & 2; & 1; \\ n_i & 0{,}29; & 0{,}66; & 0{,}05; \end{cases} \begin{cases} X_i & 3; & 2; & 1; \\ n_i & 0{,}29; & 0{,}66; & 0{,}05; \end{cases} \quad \sum_{i=1}^{4} p_i = 1 \sum_{i=1}^{4} p_i = 1$

(4) $\begin{cases} Y_j & 3; & 2; & 1; \\ m_j & 0{,}05; & 0{,}28; & 0{,}67; \end{cases} \begin{cases} Y_j & 3; & 2; & 1; \\ m_j & 0{,}05; & 0{,}28; & 0{,}67; \end{cases} \quad \sum_{i=1}^{4} q_i = 1 \sum_{i=1}^{4} q_i = 1$

Statistik tahlilni tajribadan keyin va tajribadan oldin natijalar bo’yicha o‘rtacha o’zlashtirishlarni hisoblab, qiyoslashdan boshlandi. O’rtacha o’zlashtirish ko’rsatkichlari quyidagi natijalarni berdi.

$$\bar{X} = \sum_{i=1}^{n=3} P_i\, X_i = 0{,}29 * 3 + 0{,}66 * 2 + 0{,}05 * 1 = 0{,}87 + 1{,}32 + 0{,}05 = 2{,}24$$

$$\bar{X}\,\% = \frac{2{,}24}{3} * 100\% = 74{,}6\%$$

Foizda

1. $\begin{cases} x; & 3; & 2; & 1 \\ n; & 30; & 63; & 12 \end{cases} \begin{cases} x; & 3; & 2; & 1 \\ n; & 30; & 63; & 12 \end{cases} \quad n = \sum_{i=1}^{3} n\,; = 105$
2. $\begin{matrix} y; & 3; & 2; & 1 \\ m; & 6; & 27; & 72 \end{matrix} \begin{matrix} y; & 3; & 2; & 1 \\ m; & 6; & 27; & 72 \end{matrix} \quad m = \sum_{i=1}^{3} m\,; = 105$

Tajribadan keying ko‘rsatkichlari

$$\bar{x} = \sum_{i=1}^{n=3} p;\, x_i = 0{,}29 * 3 + 0{,}6 * 2 + 0{,}1 * 1 = 0{,}87 + 1{,}2 + 0{,}1 = 2{,}17$$

$$\bar{x}\,\% = \frac{2{,}17}{3} * 100\,\% = 72{,}3\,\%$$

Tajribadan oldingi ko‘rsatkichlari

$$\bar{y} = \sum_{n=i}^{n=3} p; y; = 0{,}05 * 3 + 0{,}28 * 2 + 0{,}72 * 1 = 1{,}43$$

$$\bar{y}\,\% = \frac{1{,}43}{3} * 100\,\% = 47{,}7\,\%$$

Bundan standart xatoliklar

$S_x = \sqrt{0{,}4} = 0{,}63 S_x = \sqrt{0{,}4} = 0{,}63\ S_y = \sqrt{0{,}25} = 0{,}5$ ni hisoblaymiz.

Student funksiyasi taqsimot jadvalidan ikki tomonlama me’zonning kritik nuqtasi

$$t_1 - \frac{(1-p)}{2}(k) = t_{0{,}975}$$

Endi baholashning samaradorlik ko‘rsatkichini aniqlash uchun ishonchli interval topiladi.

Tajribadan keyin:

$$\bar{x} - \frac{t_{kp} * s_x}{\sqrt{n}} \le a_x \le \bar{x} + \frac{t_{kp} * s_x}{\sqrt{n}}\ ; \bar{x} - \frac{t_{kp} * s_x}{\sqrt{n}} \le a_x \le \bar{x} + \frac{t_{kp} * s_x}{\sqrt{n}}\ ;$$

$$\bar{y} - \frac{t_{kp} * s_y}{\sqrt{n}} \le a_y \le \bar{x} + \frac{t_{kp} * s_y}{\sqrt{n}} \bar{y} - \frac{t_{kp} * s_y}{\sqrt{n}} \le a_y \le \bar{x} + \frac{t_{kp} * s_y}{\sqrt{n}}$$

$$2{,}17 - 2{,}17 - 0{,}12 \le \le a_x a_x \le \le 2{,}17 + 0{,}12$$

$$2{,}05 \le 2{,}05 \le a_x a_x \le \le 2{,}39$$

$$1{,}43 - 1{,}43 - 0{,}36 \le \le a_y a_y \le \le 1{,}43 + 0{,}36$$

$$1{,}7 \le 1{,}7 \le a_y a_y \le \le 1{,}87$$

Bu geometrik tasvirlanadi

(/////////////////) (/////////////////)

1,07 1,87 2,05 2,39

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko’rsatkichlar hisoblandi.

Tajribadan keyin o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va talabalar sonini mos ravishda X_i n_i lar va shu kabi tajribadan oldin esa Y_j m_j lar orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variatsion qatorlarga ega bo'ldi, shuningdek, yuqori ko‘rsatkichni 3 ball, o‘rta ko‘rsatkichni 2 ball va quyi ko‘rsatkichni 1 ball bilan belgilandi [5,6].

Ko‘rib turganimizdek, tajribani aniqlash davomida qayd etilgan ta’lim tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning dual ta’lim texnologiyasini tayyorlash jarayonini takomillashtirish jarayoni darajasi yetarli emas, bu esa, talabalar bilan mavjud pedagogik o‘zaro munosabat an’analariga bog‘liq. Ta’kidlash joizki, tajriba o‘tkazish bosqichida talabalar o‘rtasida Anketa so‘rovnomasini o‘tkazish uchun qo‘llangan materiallardan ularning amaliy tajribalari dinamikasini o‘rganish uchun foydalanildi. Talabalarning kasbiy malakasini o‘rganish uchun so‘rovnomalarni ishlab chiqqandan so‘ng tendentsiyalar baholandi [7].

Tajribaning dastlabki bosqichidagi ushbu anketalar biz kutgan natijalarni berdi va tajribada aksariyat ishtirokchilarning kommunikativ faoliyatga yo‘naltirilgan pedagogik tajribasi shakllanmaganligi haqidagi taxtalamiz. Aniqlangan tajriba ma’lumotlarini umumlashtirish tajriba–sinovning shakllanuvchi komponentlarini belgilashga imkon berdi. Tajriba guruhi ta’lim tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning dual ta’lim texnologiyasini tayyorlash jarayonini takomillashtirish jarayoni rivojlantirish jarayonida qo‘llanilgan pedagogik o‘zaro munosabatlarning innovatsion shakllari va usullari o‘quvchining amaliy ko‘nikmalarida sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, tajriba ishtirokchilarining metodik kompetensiyalari rivojlanganligi, ularning intilishida namoyon bo‘lib boshladi [8,9].

Ushbu ko‘rsatkichlardan ma’lum bo‘ldiki, tajriba guruhidagi talabalarning ijtimoiy faollik ko‘rsatkichi nazorat guruhinikidan yuqori. Nazorat va tajriba guruhlari ko‘rsatkichlarining bir oz farqiga qaramay, biz foydalangan tajriba guruhi talabalarining ijtimoiy faolligi o‘sishini, avvalo, tadqiqot amaliyotida ta’kidlangan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim bilan bog‘landi. Yakuniy attestatsiyada talabalar taqdim etilgan matnlarni tahlil qilishda (og‘zaki javob, interv’yu, referat taqdimoti, insho elementlari bilan taqdimot matni) tajriba–nazorat guruhlari ta’lim tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning dual ta’lim texnologiyasini tayyorlash jarayonini takomillashtirish jarayoni darajasi oshganiga amin bo‘lindi. Talabalar o‘z muallifligida yozilgan matnni qabul qiluvchiga yetkazish, niyatni bildirish, mulohaza yoki xulosani oqilona ifoda etish, matn tarkibini og‘zaki va yozma javob bilan taqdim etish qobiliyatini namoyish etishdi [10].

Xulosa. Ta’lim tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning dual ta’lim texnologiyasini rivojlantirishning ilmi-nazariy asoslari va uning metodologik mohiyati turli ilmiy yo‘nalishdagi tahlillar hamda tadqiqotlar misolida isbotlanadi. Ta’lim tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning dual ta’lim texnologiyasini rivojlantirishga yo’naltirilgan pedagogik o‘zaro munosabatlar pedagogik omillari sifatida namoyon bo‘lishi kerak. Ta’lim tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning dual ta’lim texnologiyasini rivojlantirishni shakl, metod va vositalaridan foydalanishga sharoit yaratish lozim. Tajribaning dastlabki bosqichidagi ushbu anketalar biz kutgan natijalarni berdi va tajribada aksariyat ishtirokchilarning. Ta’lim tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning dual ta’lim texnologiyasini jarayonini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tajribasi shakllanmaganligi haqidagi ilmiy farazimiz tasdiqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yilning 28 yanvar kuni maktab ta’limini rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishda so‘zlagan nutqidan. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, № 20 (542). 2022 yil 28 yanvar.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (23.09.2020) // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313-son.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora- tadbirlari haqida.” VM-163 son. T.: - 2021 yil 29 mart.

Aleksey Kobilev. “Dual ta’limga o‘tish masalalari”. M.: - 2012.01.04

Bosch, G. (2010). Zur Zukunft der dualen Berufsausbildung in Deutschland. In G. Bosch, S. Krone, & D. Langer (Eds.), Das duale Berufsbildungssystem in Deutschland (pp. 37–61). Wiesbaden: Verlag für Sozialwissenschaften.

Г.А.Клуева. Педагогическое технологии в модели дуального обучения. – Пермь. 2015.

Germaniyadagi kasbiy ta’limning ikki tomonlama tizimi asosida “Dual ta’limga asoslangan yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarning talablariga javob beradigan ishchilarni tayyorlash” loyihasi.: Moskva, 2015, 110-113 bet.

Mavlonova R.A. Umumiy pedagogika. Darslik. T-2018y 529 b.

Rossiya Federasiyasi Strategik tashabbuslar Agentligi (ASI)ning Qarori. “Dual ta’limga asoslangan yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarning talablariga javob beradigan ishchilarni tayyorlash.” № 4. Moskva, 2013 yil.

Safarova R., Yusupova F. va b. O‘quvchilarning bilish faoliyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlarini loyihalashning nazariy-amaliy asoslari. – T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2012. – 118 b.

MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA ONLAYN TA’LIM PLATFORMALARI ORQALI TALABALARNING MANTIQIY FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Eshimbetov Jo‘rabek Reyimboyevich
Toshkent gumanitar fanlar universiteti, Aniq va ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
https://orcid.org/ 0009-0006-2546-5906

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli platformalar orqali matematika fanini o‘qitishning afzalliklari va muammolari, shuningdek ularning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Talabalarning masofadan turib mustaqil o‘rganishini qo‘llab-quvvatlashda bu platformalarning o‘rni va samaradorligi yoritilgan. Shu bilan birga, maqolada raqamli platformalar matematika ta’limidagi mavjud muammolarni bartaraf etish, o‘quvchilarning fan bo‘yicha tayanch bilimlarini mustahkamlash hamda ularni texnologiyalarga asoslangan o‘quv muhitida kelajak kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ahamiyati ochib berilgan. Maqolada olib borilgan tadqiqotlar asosida matematika o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning rivojlanish tendensiyalari, pedagogik imkoniyatlari va samaradorlik omillari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: onlayn platforma, interfaol ta’lim muhiti, raqamli texnologiyalar, masofaviy ta’lim, dasturiy ta’minot, adaptiv tizim, ta’lim algoritmlari, matematika o‘qitish metodikasi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ОНЛАЙН-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ

Эшимбетов Журабек Рейимбаевич,
Ташкентский университет гуманитарных наук, Преподаватель кафедры точных и социальных наук

Аннотация. В данной статье проанализированы преимущества и проблемы преподавания математики с использованием цифровых образовательных платформ, а также рассмотрены их основные особенности. Раскрыта роль и эффективность данных платформ в поддержке самостоятельного обучения студентов в дистанционном формате. Кроме того, в статье показано значение цифровых платформ в преодолении существующих проблем математического образования, укреплении базовых знаний обучающихся и их подготовке к будущей профессиональной деятельности в технологически ориентированной образовательной среде. На основе проведённых исследований определены тенденции развития, педагогические возможности и факторы эффективности применения цифровых технологий в процессе преподавания математики.

Ключевые слова: онлайн-платформа, интерактивная образовательная среда, цифровые технологии, дистанционное обучение, программное обеспечение, адаптивная система, алгоритмы обучения, методика преподавания математики.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS’ LOGICAL THINKING IN TEACHING MATHEMATICS THROUGH ONLINE LEARNING PLATFORMS

Eshimbetov Jurabek,
Tashkent university of humanities, Lecturer at the Department of Exact and Social Sciences

Abstract. This analyzes the advantages and challenges of teaching mathematics through digital platforms, as well as their distinctive features. The role and effectiveness of these platforms in supporting students’ independent learning in a distance format are highlighted. In addition, the

paper reveals the significance of digital platforms in addressing existing issues in mathematics education, strengthening students’ fundamental knowledge of the subject, and preparing them for future professional activities within a technology-based learning environment. Based on the conducted research, the article examines the development trends, pedagogical opportunities, and efficiency factors of using digital technologies in the process of teaching mathematics.

Keywords: online platform, interactive learning environment, digital technologies, distance education, software, adaptive system, learning algorithms, methodology of teaching mathematics.

Kirish. So‘nggi yillarda matematika fanini o‘qitish va o‘rganish jarayonida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi o‘qituvchilarga ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirish hamda ularning mustaqil bilim olishini qo‘llab-quvvatlash imkonini bermoqda. Ayniqsa, interfaol va dinamik ta’lim muhitini yaratish uchun onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish kengayib bormoqda.

Bunday platformalar nafaqat talabalarga murakkab matematik tushunchalarni yanada chuqurroq va tizimli ravishda anglashga yordam beradi, balki an’anaviy pedagogik usullarni ham tubdan o‘zgartiradi. Onlayn platformalarni matematika ta’limiga integratsiya qilish orqali o‘qituvchilar real vaqt rejimida o‘quv materiallarini taqdim etish, video darsliklar, virtual mashg‘ulotlar va elektron qo‘llanmalar orqali darslarni qiziqarli hamda samarali tashkil etish imkoniga ega bo‘lmoqda.

Natijada, o‘quvchilar yangi mavzularni mustaqil o‘rganishga ko‘proq qiziqish bildiradi, chuqur tushunishga intiladi va bu ularning mantiqiy tafakkurini shakllantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Sinfning tashkiliy tuzilmasi an’anaviy shaklda qolayotgan bo‘lsada, matematika ta’limida qo‘llanilayotgan vositalar va metodlar sezilarli darajada yangilanmoqda. Bugungi kunda kompyuterlar va internetga keng kirish imkoniyati mavjudligi sababli raqamli resurslarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi barqaror tus olgan.

Ilgari matematika ta’limida asosan an’anaviy doska, chop etilgan materiallar va kalkulyatorlardan foydalanilgan bo‘lsa, hozirgi murakkab platformalar, dasturiy ta’minotlar hamda mobil ilovalar yordamida darslarni tashkil etishning samaradorligi ortib bormoqda. Bu esa matematika ta’limida yangi pedagogik yondashuvlar va metodik modellarni ishlab chiqishni talab etmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ayniqsa, COVID-2019 pandemiyasi davrida masofaviy ta’limning jadal rivojlanishi matematika ta’limida raqamli platformalardan foydalanish jarayonini keskin faollashtirdi. Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar ko‘pincha o‘quvchilarning dars jarayonidagi ishtirokini oshirish, tushunishni chuqurlashtirish hamda o‘zlashtirish samaradorligini yuksaltirish vositasi sifatida qo‘llanilmoqda. Platformalar orqali matematik tushunchalar, vizualizatsiya va simulyatsiyalarni ko‘rsatish, interfaol mashg‘ulotlar tashkil etish imkoniyati yaratilgani tufayli matematika fanini o‘qitish yanada qiziqarli va samarali tus oldi.

Raqamli platformalarning keng tarqalishi, ayniqsa, chekka hududlardagi yoki turli shahar va ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan talabalar uchun ham qulaylik yaratdi. Malakali o‘qituvchilar tomonidan tayyorlangan video darslar, elektron qo‘llanmalar va onlayn mashg‘ulotlar yordamida o‘quvchilar istalgan joyda va istalgan vaqtda o‘quv materiallaridan samarali foydalanish imkoniga ega bo‘ldilar. An’anaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilar murakkab tushunchalarni qayta-qayta ko‘rib chiqish yoki mustaqil ravishda chuqurlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, raqamli platformalar bu borada sezilarli afzallik beradi. O‘quvchilar materiallarni qayta ko‘rib chiqish, videolarni to‘xtatish yoki tezlashtirish, matnlarni tarjima qilish va audio formatlardan foydalanish orqali ta’lim olishlari mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, raqamli ta’lim vositalari turli qobiliyat va til darajasiga ega bo‘lgan o‘quvchilarni ham qamrab oladi, bu esa matematika ta’limida inklyuziylikni ta’minlaydi. Raqamli platformalarning yana bir muhim jihati – adaptivlik bo‘lib, ular o‘quvchilarning individual o‘zlashtirish xususiyatlariga mos ravishda sozlanishi mumkin. Ko‘pgina matematik platformalarda o‘quvchilarning bilim darajasini baholash, topshiriqlarning murakkablik darajasini avtomatik

tarzda moslashtirish imkoniyati mavjud. Bu esa talabalarga murakkabroq mavzularga o‘tishdan avval asosiy tushunchalarni mustahkamlash imkonini beradi.

Muhokama va natijalar. Masalan, Khan Academy, Moodle, Coursera, Quizizz va GeoGebra kabi onlayn platformalar talabalarning individual bilim darajasi, ilgari erishgan ko‘rsatkichlari va o‘zlashtirish tezligiga asoslangan holda moslashtirilgan mashg‘ulotlar va ta’lim yo‘llarini taklif etadi.

Khan Academy – notijorat tashkilot sifatida dunyo bo‘ylab bepul va sifatli resurslarini taqdim etishni maqsad qilgan. Platforma real vaqt rejimida talabalarning topshiriqlardagi xatolarni aniqlaydi, tezkor fikr-mulohazalar beradi hamda individual o‘rganish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Shuningdek, o‘qituvchilar talabalarning rivojlanish dinamikasini kuzatib, aralashuv zarur bo‘lgan sohalarni aniqlash imkoniga ega bo‘ladi. Bu jarayon real vaqtdagi teskari aloqa tizimi orqali o‘quvchilarning bilimidagi bo‘shliqlarni tezda aniqlab, ta’limni qayta yo‘naltirishga sharoit yaratadi.



1-rasm. Khan Academy o‘quv platformasi

Ushbu platformaga kirish uchun smartfonlar, planshetlar va kompyuterlar kabi turli xil qurilmalar va https://uz.khanacademy.org/ link orqali kirish imkoniga ega bo‘ladilar. Khan Academy o‘quv platformasiga foydalanuvchining shaxsiy pochta manzili orqali kiriladi. Ro‘yxatga olish tugatilgandan keyin ushbu platformadan foydalanish mumkin (1-rasm).

Ushbu foydalanish oynasining chap burchagida joylashgan “kash et” tugmasi bosilganda quyidagi bo‘limlar ochiladi. Ushbu bo‘lim orqali istalgan yo‘nalish bo‘yicha kirish mumkin. Masalan, “Matematika” bo‘limi orqali “Matematik analiz asoslari” tanlanganda quyidagi oyna ochiladi (2-rasm):



2-rasm. Matematik analiz asoslari bo‘limi



3-rasm. Trigonometriya bo‘limi

Ushbu bo‘lim o‘z ichiga ko‘plab mavzularni qamrab olgan bo‘lib, har bir mavzu bo‘yicha har xil topshiriqlar va video darsliklardan foydalanish mumkin (3-rasm).

Masalan, “Teskari trigonometrik funksiyani hisoblash” mavzusini ochib ko‘rsak, quyidagi oyna hosil bo‘ladi (4-rasm).



4-rasm. Teskari trigonometrik funksiyani hisoblash mavzusi

Moodle platformasi asosan oliy ta’lim muassasalarida keng qo‘llaniladi. U o‘qituvchilarga kurs tarkibini modullarga bo‘lib tuzish, test va topshiriqlarni avtomatik baholash, forumlar orqali muloqat olib boorish va talabalar faoliyatini monitoring qilish imkoniyatini beradi. Bu platforma matematika fanidagi nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni integratsiyalash, shuningdek, mantiqiy fikrlashni bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun qulay metodik asos yaratadi (5-rasm).



5-rasm. Moodle o‘quv platformasi

Coursera esa dunyoning yetakchi universitetlari tomonidan ishlab chiqilgan kurslar orqali chuqurlashtirilgan ta’lim imkoniyatlarini taqdim etadi. Talabalar murakkab matematik mavzular bo‘yicha video darslar, interfaol topshiriqlar va forumlardagi ilmiy muhokamalarda ishtirok etish orqali o‘z bilimlarini mustahkamlashadi. Bu platforma ayniqsa yuqori darajadagi matematik tahlil, ehtimollar nazariyasi va algoritmik tafakkurni rivojlantirishda foydalidir (6-rasm).



6-rasm. Coursera o‘quv platformasi

GeoGebra esa matematik tushunchalarni vizual ko‘rinishda talabalarga yetkazish, grafiklar va geometrik obyektlar bilan real vaqt rejimida ishlash imkonini beradi. Bu platforma ayniqsa analitik geometriya, funksiyalar, hosila va integral kabi mavzularda mantiqiy bog‘lanishlarni shakllantirishga samarali hisoblanadi (7-rasm).

Ushbu platformalarning barchasi real vaqt rejimida teskari aloqa imkoniyatlarini taqdim etadi. Talabalar faoliyatini monitoring qiladi va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘qituvchiga metodik yordam beradi. Smartfon, planshet va kompyuter kabi turli qurilmalarda ishlashi tufayli talabalar istalgan joyda va istalgan vaqtda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa matematika ta’limini shaxsiylashtirilgan, moslashuvchan va samarali jarayonga aylantiradi.



7-rasm. GeoGebra o‘quv platformasi

Raqamli platformalarni matematika ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali yondashuvlaridan biri bu – aralash (blended learning) modelidir. Ushbu modelda talabalarning mustaqil uy sharoitida onlayn darslar, video ma’ruzalar va interfaol topshiriqlar orqali tayyorgarlik ko‘rishi hamda auditoriyada o‘qituvchi bilan birgalikda muammolarni tahlil qilish, mashq bajarish va chuqurlashtirilgan faoliyat olib borishi uyg‘unlashtiriladi. Natijada, talabalar tez o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi, dars vaqti esa ko‘proq interfaol muhokama va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Aralash ta’lim modeli ayniqsa matematika fanida yuqori samaradorlik beradi, chunki u talabalarga murakkab mavzularni tushunishda mustaqil tayyorgarlik ko‘rish imkonini yaratadi. O‘qituvchi esa real vaqt rejimida individual yordam ko‘rsatish, bilimdagi bo‘shliqlarni aniqlash va tuzatish strategiyalarini taklif qilish imkoniga ega bo‘ladi. Talabalar darsdan tashqarida onlayn materiallar bilan ishlash orqali tayanch tushunchalarni shakllantiradi, bu esa dars jarayonida chuqur tahlilga e’tibor qaratish imkonini beradi.

Masalan, Khan Academy platformasi yordamida talabalar uy sharoitida interfaol darslarni

ko‘rib chiqib, ularni qayta ko‘rish, mashqlarni mustaqil bajarish, xatolarini aniqlash va tuzatish imkoniga ega bo‘ladi. Guruh loyihalari va amaliy topshiriqlar jarayonida esa olingan bilimlar mustahkamlanadi. Platformaning gamifikatsiya elementlari talabalarni rag‘batlantiradi va matematika faniga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Bundan tashqari, Moodle, Coursera, Quizizz va GeoGebra platformalari ham aralash ta’lim modelida keng qo‘llaniladi. Moodle orqali o‘qituvchilar dars modullarini tuzish, test va topshiriqlarni baholash, teskari aloqa berish imkoniga ega bo‘ladi. Coursera esa chuqurlashtirilgan nazariy kurslar, forum muhokamalari va video ma’ruzalar orqali bilimni boyitadi. Quizizz gamifikatsiyalangan testlar orqali talabalarni faol ishtirok etishga undaydi. GeoGebra esa matematik tushunchalarni vizual ko‘rinishda tushuntirish imkonini beradi.

Shu tarzda, aralash ta’lim modeli raqamli platormalar yordamida an’anaviy darslarni interfaol, shaxsga yo‘naltirilgan va samarali ta’lim jarayoniga aylantiradi. Bu yondashuv, ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi yoki internetga barqaror ulanish imkoniga ega bo‘lgan talabalar uchun teng imkoniyatlar yaratadi. Raqamli vositalar yordamida murakkab mavzularni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish, xatolar ustida ishlash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, matematika fanini o‘qitishda raqamli va elektron ta’lim dasturlaridan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish samaradorligini oshirish, ta’lim natijalarini yaxshilash va ularning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu dasturlar yordamida o‘quvchilarning bilim salohiyati oshadi, mantiqiy tafakkuri rivojlanadi hamda matematik tushunchalarni anglash qobiliyati mustahkamlanadi.

Elektron va onlayn dasturlar orqali matematika fanini o‘qitishning ta’siri tobora kengayib bormoqda. Bunday vositalar o‘quvchilarning shaxsiylashtirilgan, interfaol va raqamli asosdagi ta’lim muhitida faol ishtirok etishga imkon yaratadi. Natijada o‘qituvchi o‘quvchi faoliyatini kuzatib borishi, xatolarni tezda aniqlashi va individual yondashuvni amalga oshirishi mumkin.

Texnologik rivojlanish jarayoni davom etar ekan, elektron ta’lim dasturlari matematika o‘qitish metodikasini tubdan o‘zgartirmoqda. Endilikda onlayn platformalar yordamida qimmatli o‘quv resurslaridan foydalanish, interfaol mashg‘ulotlarda ishtirok etish va tajribaviy topshiriqlarni bajarish imkoniyati yanada kengaymoqda.

Bugungi kunda bunday platformalarning aksariyati butunlay bepul bo‘lib, ularni istalgan joyda va istalgan vaqtda qo‘llash mumkin. Bu holat o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv va o‘z ustida ishlash madaniyatini shakllantiradi. Shuningdek, raqamli platformalar orqali ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlash, o‘qitish samaradorligini oshirish va kelajakda kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.

Umuman olganda, matematika ta’limida onlayn va elektron resurslardan foydalanish-zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini, mustaqil ishlash ko‘nikmasini va o‘zlashtirish sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni, 2020 yil.

3. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does gamification work? - A literature review of empirical studies on gamification. Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences, 3025 - 3034. https://doi.org/10.1109/HICSS.2014.377.

4. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence unleashed: An argument for AI in education. Pearson Education. https://doi.org/10.1017/CBO9781107415324.004.

5. Karsenti, T. (2019). Mobile learning in early childhood education: Promoting cognitive and social development. Journal of Early Childhood Research, 17(1), 3–12. https://doi.org/10.1177/1476718X18808112.

6. Azizxo‘jayev A.A. Ta’limda raqamli texnologiyalar, Toshkent: Fan, 2022.

7. UNESCO (2021). Digital Learning Competency Framework.
8. Kurbonov J., Allayorova S. (2023) Zamonaviy darsda raqamli vositalardan foydalanish.
9. Зиёмуҳамедов Б.Ж., Абдуллаева Ш. (2009) – Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Т.: O‘zbekiston.
10. Хўжаев А. (2018) – Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – TDIU nashriyoti.
11. Мирзаев Ш., Шарипова М. (2017) – Matematika o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya.
12. Drake, S.M., & Reid, J.L. (2018) – Integrated Curriculum in the Twenty-First Century. – Routledge.
13. Otten, M., Van den Heuvel-Panhuizen, M., Veldhuis, M. (2019) The balance model for teaching linear equations: A systematic literature review. International Journal of STEM Education. https://doi.org/10.1186/s40594-019-0183-2.
14. Ní Shé, C., Ní Fhloinn, E., & Mac an Bhaird, C. (2023) Student Engagement with Technology-Enhanced Resources in Mathematics in Higher Education: A Review. Mathematics. https://doi.org/10.3390/math11030787.
15. Aliyu J., Osman S., Kumar J. A., Jamil M. (2023) The design and development of a learning strategy to enhance students’ engagement in simultaneous equations: An evaluation viewpoint. Journal of Technology and Science Education. 13(1), 36-52. https://doi.org/10.3926/jotse.1691.

YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLAR VA VATANPARVARLIK RUHINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Bozorov Aziz Oblokulovich
Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘i.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhining o‘zaro bog‘liqligi ilmiy-pedagogik hamda psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Unda milliy qadriyatlarning yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni, vatanparvarlik tuyg‘usining shaxs kamolotiga ta’siri va ularning o‘zaro uyg‘unlashgan holda tarbiyaviy jarayonni boyitish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish orqali ularning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik ruhini kuchaytirish, ijtimoiy faolligini oshirish hamda jamiyat taraqqiyotiga mas’uliyat bilan yondashuvchi shaxs sifatida shakllantirishning samarali metodlari ochib beriladi. Maqolada ta’lim jarayonida milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlik tarbiyasini yo‘lga qo‘yishning innovatsion yondashuvlari, pedagogik shart-sharoitlar va psixologik omillar tahlil qilinib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Natijada yoshlarning milliy g‘ururini, fuqarolik mas’uliyatini va Vatanga sadoqatini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan xulosalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, ma’naviyat, g‘urur, psixologik yondashuv, pedagogik tizim, fuqarolik, mas’uliyat, o‘zlikni anglash, milliy o‘zlik, tarbiya, ta’lim, shaxs kamoloti, innovatsion metodlar.

ВЗАИМОСВЯЗЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ДУХА ПАТРИОТИЗМА В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

Бозоров Азиз Облокулович
Начальник факультета военного образования Бухарского государственного педагогического института.

Annotation: This article analyzes the interrelation between national values and the spirit of patriotism in youth education from both pedagogical and psychological perspectives. It highlights the role of national values in shaping the worldview of the younger generation, the influence of patriotism on personal development, and the ways these two concepts complement each other in enriching the educational process. The study emphasizes that instilling national values in young minds strengthens their moral immunity, enhances their patriotic spirit, increases social activity, and fosters responsible citizens who contribute to the development of society. Furthermore, the article explores innovative approaches, pedagogical conditions, and psychological factors that promote patriotism education based on national values within the learning process. As a result, it presents scientifically grounded conclusions and practical recommendations aimed at strengthening young people’s national pride, civic responsibility, and devotion to their homeland.

Keywords: national values, patriotism, youth education, spirituality, pride, psychological approach, pedagogical system, citizenship, responsibility, self-awareness, national identity, upbringing, education, personal development, innovative methods.

THE INTERCONNECTION BETWEEN NATIONAL VALUES AND THE SPIRIT OF PATRIOTISM IN THE UPBRINGING OF YOUTH

Bozorov Aziz Oblokulovich
Head of the Faculty of Military Education at Bukhara State Pedagogical Institute.

Аннотация: В данной статье анализируется взаимосвязь между национальными ценностями и духом патриотизма в воспитании молодежи с педагогической и

психологической точек зрения. Раскрывается роль национальных ценностей в формировании мировоззрения подрастающего поколения, влияние патриотизма на развитие личности, а также то, как эти два понятия взаимно дополняют друг друга, обогащая воспитательный процесс. Подчеркивается, что внедрение национальных ценностей в сознание молодежи способствует укреплению их духовного иммунитета, развитию патриотических чувств, повышению социальной активности и формированию ответственных граждан, готовых внести вклад в развитие общества. Кроме того, в статье рассматриваются инновационные подходы, педагогические условия и психологические факторы, обеспечивающие эффективное воспитание патриотизма на основе национальных ценностей в образовательном процессе. В заключение представлены научно обоснованные выводы и практические рекомендации, направленные на укрепление национальной гордости, гражданской ответственности и преданности Родине среди молодежи.

Ключевые слова: национальные ценности, патриотизм, воспитание молодежи, духовность, гордость, психологический подход, педагогическая система, гражданственность, ответственность, самосознание, национальная идентичность, воспитание, образование, развитие личности, инновационные методы.

Kirish: Milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhining uyg‘unligi jamiyat taraqqiyotining eng muhim tayanchi hisoblanadi. Har bir xalqning tarixiy xotirasi, milliy an’analari, urf-odatlari va ma’naviy merosi yosh avlod ongida g‘urur, iftixor va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini shakllantiruvchi asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, bugungi globallashuv davrida yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarni tiklash, ularni zamon ruhiga mos holda rivojlantirish hamda vatanparvarlikni mustahkamlash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ma’naviy ildizlardan uzilgan, milliy o‘zlikni anglamagan yosh avlodni tarbiyalash jamiyatning barqaror taraqqiyotiga xavf soladi. Shuning uchun ham ta’lim va tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar negizida vatanparvarlik ruhini singdirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Yoshlar ongida vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish, avvalo, ularning o‘z xalqining tarixi, madaniyati, buyuk allomalari, qahramonlari, adabiy va ma’naviy merosi bilan tanishishidan boshlanadi. Bu jarayonda ta’lim tizimi, oila, jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari hamda madaniyat muassasalari muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, o‘qituvchilarning shaxsiy namunasi, ularning dars jarayonida milliy qadriyatlarga tayangan holda yoshlarning tafakkurini, hissiy olamini va ijtimoiy faolligini shakllantirishdagi roli beqiyosdir. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yosh avlodning ma’naviy yo‘lboshchisi sifatida ularning qalbiga milliy iftixor, mehnatsevarlik, halollik, fidoyilik, Vatanga muhabbat tuyg‘ularini singdiradi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatiga oid davlat dasturlari va hujjatlarda milliy qadriyatlarga sodiqlik va vatanparvarlikni shakllantirishga alohida e’tibor berilmoqda. “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi, “Ma’naviyat va ma’rifat” markazining faoliyati, “Yoshlar ittifoqi” tashabbuslari, ta’lim muassasalarida o‘tkazilayotgan “Vatan – muqaddas, uni himoya qilish sharafli burch” mavzusidagi tadbirlar shular jumlasidandir. Ushbu tashabbuslarning barchasi yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni o‘z xalqining haqiqiy farzandi sifatida shakllantirishga qaratilgan[1].

Milliy qadriyatlar nafaqat tarixiy meros, balki jamiyatni birlashtiruvchi kuch, millatning o‘zligini asrovchi ma’naviy negizdir. Aynan shu qadriyatlar yoshlar ongida vatanparvarlik ruhini uyg‘otadi, ularni el-yurt ravnaqi yo‘lida mas’uliyat bilan yashashga undaydi. Vatanparvarlik esa o‘z navbatida milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirishga turtki beradi. Shu tariqa, bu ikki tushuncha – milliy qadriyat va vatanparvarlik – bir-birini to‘ldiruvchi, ajralmas jarayon sifatida qaraladi. Ularni uyg‘un holda yoshlar ongiga singdirish orqali komil insonni tarbiyalash mumkin. Komil inson esa faqat bilimli bo‘lib qolmay, balki ma’naviy barkamol, o‘zligini anglagan, yurt ravnaqi uchun fidokorona xizmat qiladigan shaxsdir.

Psixologik nuqtayi nazardan qaraganda, vatanparvarlik tuyg‘usi yoshlarning o‘zligini anglash

jarayonida shakllanadi. Bu jarayon oila muhitida, ta’lim jarayonida va ijtimoiy muloqotda mustahkamlanadi. Bola o‘zini jamiyatning bir bo‘lagi sifatida his etgan sayin, uning Vatanga bo‘lgan muhabbati, g‘ururi, mas’uliyati ortadi. Shuning uchun pedagoglar o‘quvchilarda ijobiy milliy identifikatsiyani shakllantirish, ularni xalqining tarixiy qadriyatlari bilan tanishtirish, mustaqil fikrlash va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishlari zarur[6].

Xulosa qilib aytganda, yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhining o‘zaro bog‘liqligi inson kamolotining ajralmas qismidir. Bu jarayonni chuqur anglagan taqdirdagina biz mustahkam milliy tafakkurga, ma’naviy yuksaklikka ega, Vatan ravnaqi uchun mas’uliyat bilan yashaydigan yoshlarni tarbiyalashimiz mumkin. Shu bois, har bir pedagog, psixolog, ota-ona va jamiyat vakili yoshlarning qalbida milliy g‘urur va vatanparvarlik urug‘ini ekish uchun mas’uldir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar Milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhini shakllantirishga oid adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur mavzu nafaqat pedagogika va psixologiya fanlari kesimida, balki sotsiologiya, falsafa, tarix, madaniyatshunoslik kabi fanlar doirasida ham keng o‘rganilgan. Turli manbalarda milliy qadriyatlarning shaxs rivojlanishidagi o‘rni, vatanparvarlikni tarbiyalash mexanizmlari, yoshlarning ma’naviy dunyoqarashiga ta’sir etuvchi psixologik omillar va pedagogik yondashuvlar tizimli tarzda yoritilgan. Jumladan, Sharq mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi allomalar asarlarida vatanparvarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik va insoniylik qadriyatlari tarbiyaning markaziy g‘oyasi sifatida talqin qilingan. Ular ta’lim jarayonini faqat bilim berish emas, balki insonni ma’naviy barkamol, vataniga sadoqatli shaxs sifatida shakllantirish yo‘li deb bilganlar[2].

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish masalasi ko‘plab pedagogik va psixologik tadqiqotlarning markaziga aylandi. O‘zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar orasida A. Avloniy, A. Qodiriy, H. Olimjon, G‘. G‘ulom, M. Oripov, O. Yoqubov kabi ziyolilarning asarlari yoshlarni milliy g‘urur, Vatanga muhabbat, xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim manba sifatida e’tirof etiladi. Mustaqillikdan keyingi davrda esa milliy qadriyatlarni qayta tiklash va vatanparvarlikni tarbiyalash bo‘yicha yangi ilmiy konsepsiyalar shakllandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonuni, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun hamda “Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarashli yoshlar davlati” tamoyillari milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya tizimini mustahkamlashga qaratilgan[[5].

Zamonaviy adabiyotlarda milliy qadriyat va vatanparvarlik tushunchalari shaxsning ma’naviy-axloqiy rivojlanishining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Psixologik yondashuvlarda bu jarayon shaxsning ichki motivatsiyasi, o‘zini jamiyat a’zosi sifatida anglash darajasi, milliy identifikatsiyasi bilan bevosita bog‘liq ekanligi qayd etiladi. Milliy qadriyatlar shaxsning emotsional-motivatsion sohasini boyitadi, vatanparvarlik esa uning ijtimoiy faolligini oshiradi. Pedagogik adabiyotlarda esa bu ikki tushuncha o‘zaro integratsiyada – ya’ni ta’lim-tarbiya tizimi orqali yoshlarning dunyoqarashini shakllantiruvchi yagona g‘oyaviy-axloqiy tizim sifatida qaraladi. Masalan, G‘. Shoumarov, N. Komilov, R. Ochilov, Sh. Turaev, D. Abdullayeva kabi olimlarning ilmiy ishlarida yoshlar ongida vatanparvarlikni shakllantirishning metodologik asoslari, o‘qituvchi shaxsining namunasining o‘rni, psixologik rag‘batlantirish usullari chuqur yoritilgan[7].

Shuningdek, xorijiy manbalarda ham vatanparvarlik tarbiyasi masalasiga keng e’tibor qaratilgan. Masalan, amerikalik pedagoglar J. Dewey, L. Kohlberg, E. Eriksonlar ta’limda fuqarolik ongini rivojlantirish, shaxsiy mas’uliyatni shakllantirish orqali vatanparvarlikni kuchaytirish yo‘llarini asoslab bergan. Rossiyalik olimlar N. Losev, A. Makarenko, V. Sukhomlinskiy va D. Ushinskiylarning asarlarida esa tarbiyaning milliy mazmuni, oila va maktabning vatanparvarlik tarbiyasidagi o‘rni chuqur tahlil etilgan. Ularning fikricha, shaxsning Vatanga sodiqligi, milliy qadriyatlariga hurmati bolalikdan boshlab oilaviy muhitda shakllanadi va maktab ta’limi orqali

mustahkamlanadi[3].

Metodologik jihatdan qaraganda, yoshlar ongida milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhini shakllantirish jarayoni kompleks yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayon psixologik-pedagogik, ma’naviy-ma’rifiy va ijtimoiy-sotsiologik omillar uyg‘unligida amalga oshiriladi. Tadqiqot metodlari sifatida kuzatish, suhbat, test, so‘rovnoma, tajriba-sinov ishlari, pedagogik eksperiment, tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kuzatish metodi orqali o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga munosabati, vatanparvarlik hissi, ijtimoiy faolligi o‘rganiladi. Suhbat va so‘rovnomalar yordamida esa ularning fikrlari, qadriyat tizimi, shaxsiy motivlari aniqlanadi. Pedagogik eksperiment orqali milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy dasturlarning samaradorligi baholanadi.

Psixologik metodlar orasida proektiv testlar, assotsiativ metodlar, emotsional-axloqiy baholash usullari keng qo‘llaniladi. Bu usullar yordamida yoshlarning Vatanga nisbatan his-tuyg‘ulari, milliy o‘zlikni anglash darajasi, o‘z xalqiga sodiqlik va faxr hissi o‘lchanadi. Shu bilan birga, kontent-tahlil usuli orqali o‘quv materiallari, darsliklar, adabiy asarlar va ommaviy axborot vositalarida milliy qadriyatlarning qanday aks etgani o‘rganiladi. Statistik tahlil metodlari esa olingan ma’lumotlarni umumlashtirish, ularning ishonchliligini baholash va natijalarni ilmiy asoslash imkonini beradi[4].

Metodik yondashuvlarda muhim jihatlardan biri – integrativ va interaktiv metodlardan foydalanishdir. Masalan, milliy qadriyatlarni o‘rganishda interfaol darslar, munozaralar, rolli o‘yinlar, tarixiy manbalar asosida tahliliy mashg‘ulotlar o‘tkazish samarali natijalar beradi. Vatanparvarlik ruhini mustahkamlash uchun esa “Men kimman?”, “Mening yurtim – mening faxrim”, “Ajdodlar izidan” kabi loyihaviy faoliyatlar, tarixiy joylarga ekskursiyalar, shaxsiy kuzatuv va ijodiy ishlar tashkil etiladi. Bu metodlar yoshlarning emotsional ishtirokini kuchaytiradi, milliy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlar va vatanparvarlikni shakllantirishda oila, maktab va jamiyatning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlarda milliy g‘ururni oilaviy an’analar orqali mustahkamlasa, pedagoglar bu jarayonni ta’lim-tarbiyaning mazmuni orqali rivojlantiradilar. Jamiyat esa yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, milliy qadriyatlarni targ‘ib etuvchi muhit yaratish orqali bu jarayonga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, metodik asosda tarbiya jarayonini tashkil etishda tizimli, bosqichma-bosqich va uzluksizlik tamoyillariga amal qilish zarur.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodlari milliy qadriyatlar hamda vatanparvarlik ruhini shakllantirishning murakkab, ammo zarur jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Bu borada ilmiy asoslangan yondashuvlar, interaktiv metodlar va milliy ruhiyatga tayangan pedagogik faoliyat muhim o‘rin tutadi. Natijada yoshlar o‘z xalqining boy madaniyatiga hurmat bilan qaraydigan, milliy g‘urur va vatanparvarlikni hayotiy pozitsiyasiga aylantirgan shaxs sifatida kamol topadilar.

Natijalar. Olib borilgan adabiyotlar tahlili va tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhining o‘zaro bog‘liqligi chuqur psixologik-pedagogik jarayon bo‘lib, u shaxsning dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Natijalar tahliliga ko‘ra, milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya tizimi yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlaydi, ularni ijtimoiy jihatdan faol, mas’uliyatli, Vatanga sodiq va milliy g‘urur bilan yashaydigan shaxs sifatida shakllantiradi. Tadqiqotlar jarayonida yoshlarning vatanparvarlik darajasini aniqlash uchun o‘tkazilgan so‘rovnoma va psixologik testlar natijasida ularning ko‘pchiligi o‘z xalqining tarixi, madaniyati va urf-odatlariga nisbatan ijobiy munosabatda ekanligi ma’lum bo‘ldi, biroq ayrim yoshlar orasida milliy o‘zlikni anglashda yuzaki qarashlar ham uchrashi aniqlangan. Bu esa, pedagogik faoliyatda yanada chuqurroq, tizimli va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, o‘qituvchilarning shaxsiy namunasi, ularning dars jarayonida

milliy qadriyatlarni integratsiya qilish ko‘nikmalari va psixologik yondashuvlar samaradorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi dars davomida milliy tarix, xalq qahramonlari, madaniy meros haqida misollar keltirib, o‘quvchilarda faxr va g‘urur tuyg‘ularini uyg‘otganida, ularning Vatanga sadoqati yanada mustahkamlanadi. Pedagogik kuzatishlar natijasida aniqlanishicha, milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan interfaol mashg‘ulotlar (munozaralar, rolli o‘yinlar, loyihaviy ishlar) yoshlarning emotsional ishtirokini kuchaytirgan, ularning milliy identifikatsiyasini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Psixologik testlar natijalariga ko‘ra, milliy qadriyatlar bilan muntazam tanishib borayotgan o‘quvchilarda o‘z xalqiga nisbatan ijobiy emotsional munosabat, faxr hissi, ijtimoiy javobgarlik va o‘zligini anglash darajasi yuqori bo‘lgan. Bu esa, qadriyatlar orqali vatanparvarlikni shakllantirishning psixologik asoslari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rsatadi. Tadqiqotda qatnashgan yoshlarning 78 foizi milliy qadriyatlar haqida yetarli bilimga ega ekanini bildirgan, 15 foizi esa bu borada qo‘shimcha tushunchalarga muhtojligini qayd etgan. Shu bilan birga, respondentlarning 85 foizi vatanparvarlikni yoshlar tarbiyasining ajralmas qismi deb hisoblagan, bu esa tarbiyaviy jarayonlarda milliy g‘oyalar ustuvorligini tasdiqlaydi.

Pedagogik eksperimentlar natijalarida milliy qadriyatlarga asoslangan darslar o‘quvchilarda yuqori motivatsiya, ijtimoiy faollik va jamoaviylikni rivojlantirganligi aniqlandi. Xususan, vatanparvarlik mavzusida o‘tkazilgan suhbatlar, bahs-munozaralar va loyihaviy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning shaxsiy fikrlash darajasi, o‘z fikrini ifodalash qobiliyati va mas’uliyat hissi oshgan. Bu holat milliy qadriyatlarga tayanilgan pedagogik yondashuvlarning samaradorligini ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘quvchilarning o‘z xalqiga, madaniyatiga va davlat ramzlariga nisbatan hurmat bilan qarashlari kuchaygan, bu esa ularning fuqarolik ongini yuksaltirgan.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, vatanparvarlikni shakllantirishda oila, maktab va jamiyat o‘rtasidagi uzviy hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar farzandlarga o‘z xalqining tarixiy qadriyatlarini oilaviy muhitda singdirgan hollarda, maktab bu jarayonni tizimli tarzda davom ettiradi, jamiyat esa bu qadriyatlarni mustahkamlovchi ijtimoiy muhit yaratadi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalarining ijobiy ta’siri ham ahamiyatli bo‘lib, ular yoshlar ongida milliy g‘ururni kuchaytirish, vatanparvarlik timsollarini targ‘ib etish orqali tarbiyaviy jarayonni boyitadi.

Natijalar shuni ham ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlikni shakllantirishda innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish an’anaviy yondashuvlarga nisbatan yuqori natija beradi. Xususan, interaktiv usullar – “Fikrlar auksioni”, “Tafakkur xaritasi”, “Qahramonlar izidan” kabi faoliyatlar o‘quvchilarning milliy iftixor hissini uyg‘otib, ularni mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuvga o‘rgatgan. Shuningdek, tarbiyaviy jarayonlarda milliy musiqalar, adabiyot namunalari, xalq og‘zaki ijodi, tarixiy manbalar bilan ishlash o‘quvchilarda vatanparvarlikni yanada chuqurroq his qilishga yordam bergan.

Umuman olganda, natijalar shuni tasdiqlaydiki, milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhining uyg‘unligi yoshlarning ma’naviy kamoloti, fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyati va ijtimoiy faolligini oshiradi. Ushbu uyg‘unlik asosida shakllangan tarbiya tizimi yoshlarni milliy g‘ururga, yurt ravnaqiga hissa qo‘shishga undaydi. Shu bois, pedagogik-psixologik faoliyatda milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuvni tizimlashtirish, zamonaviy metodlar bilan boyitish, yoshlarning psixologik ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularni Vatanga sodiq, millat g‘ururini ifodalovchi shaxs sifatida tarbiyalash eng muhim natijalardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Natijalar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, milliy qadriyatlar va vatanparvarlik bir-birini to‘ldiruvchi, o‘zaro mustahkamlovchi tushunchalardir. Ularni uyg‘un holda ta’lim-tarbiya jarayoniga singdirish nafaqat shaxsning, balki butun jamiyatning ma’naviy yuksalishiga xizmat qiladi. Shu sababli, kelgusida pedagogik faoliyatda bu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni kengaytirish, milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlikni shakllantirishning yangi metodlarini ishlab chiqish zarur deb hisoblanadi.

Muhokama. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhining o‘zaro bog‘liqligi chuqur pedagogik va psixologik

ahamiyatga ega jarayondir. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, milliy qadriyatlar – bu xalqning tarixiy tajribasi, madaniy merosi, ma’naviy boyligi va axloqiy me’yorlarini o‘zida mujassam etgan tizim bo‘lib, u yoshlarning tafakkuri, emotsional holati va ijtimoiy pozitsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Vatanparvarlik esa aynan shu qadriyatlarga asoslanadi va shaxsda o‘z millatiga sadoqat, yurt ravnaqiga mas’uliyat hissini kuchaytiradi. Shu bois, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi — milliy qadriyat vatanparvarlikning manbai bo‘lsa, vatanparvarlik milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirishga turtki beradi.

Muhokama davomida aniqlangan muhim jihatlardan biri shundaki, hozirgi globallashuv davrida yoshlar ongida milliy qadriyatlarni saqlab qolish masalasi dolzarb tus olmoqda. Internet, axborot oqimlari, xorijiy madaniyatlarning keng tarqalishi natijasida ayrim yoshlar orasida milliy identifikatsiya susayib borayotganligi kuzatilmoqda. Shu sababli pedagogik jarayonni faqat nazariy bilim berish bilan cheklash emas, balki amaliy, hissiy va interaktiv shakllarda tashkil etish zarur. Yoshlar o‘z xalqining tarixini nafaqat o‘qib, balki his qilib, unga nisbatan faxr tuyg‘usini kechirishlari lozim. Bu esa, o‘qituvchilardan chuqur milliy tafakkur, metodik mahorat va zamonaviy psixologik yondashuvlarni talab etadi.

Muhokama doirasida yana bir e’tiborli jihat — oilaning o‘rni alohida ta’kidlanadi. Oila – shaxsning ilk tarbiya maskani sifatida milliy qadriyatlarni singdirishning asosiy manbai hisoblanadi. Ota-onaning munosabati, oiladagi muhit, kundalik urf-odatlar va an’analar farzand ongida Vatanga sadoqat, milliy iftixor, o‘zligini anglash hissini uyg‘otadi. Shu sababli, maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash samaradorligini oshiradi.

Pedagogik muhokama natijalariga ko‘ra, milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan tarbiyaviy darslar o‘quvchilarda yuqori darajadagi motivatsiya, milliy g‘urur, ijtimoiy faollikni oshirgan. Bu esa ta’lim tizimida interfaol va integrativ metodlardan foydalanishning ahamiyatini tasdiqlaydi. Xususan, tarixiy shaxslar hayoti, milliy bayramlar, xalq og‘zaki ijodi, adabiyot va san’at namunalarini o‘rganish yoshlar uchun milliy iftixor manbai bo‘lib xizmat qilgan. Biroq ayrim holatlarda dars jarayonlarida bu mavzularga yuzaki yondashish, faqat tantanali shakldagi bayonotlar bilan cheklanib qolish ham kuzatiladi, bu esa tarbiyaviy ta’sirning chuqurligini kamaytiradi. Shu sababli, pedagoglar milliy qadriyatlarni yoshlar shaxsiy tajribasi, his-tuyg‘ulari bilan bog‘lashga, ularni faol ishtirokchi sifatida jalb etishga intilishlari kerak.

Muhokama yakunida shuni ta’kidlash joizki, milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhining uyg‘unligi shaxsni ma’naviy yetuk, ijtimoiy mas’uliyatli va Vatanga sodiq inson sifatida shakllantirishning eng muhim omilidir. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar milliy o‘zlikni anglashni chuqurlashtirish, yoshlarning psixologik ehtiyojlarini inobatga olgan holda tarbiyaviy ishlarni tizimlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Demak, vatanparvarlik tarbiyasi faqat shior darajasida emas, balki har bir ta’lim bosqichida, har bir dars va hayotiy tajribada uzluksiz amalga oshirilishi lozim. Shu tariqa, yoshlar o‘z xalqining g‘ururli merosini asrab-avaylab, uni kelajak avlodlarga yetkazuvchi ma’naviy poydevorga aylanishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilov N. Ma’naviyat falsafasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Turaev Sh. Pedagogika asoslari: Nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1992.
4. Shoumarov G‘., Ochilov R. Milliy qadriyatlar va tarbiya nazariyasi. – Toshkent: TDPU, 2018.
5. Qodirov A. Ta’lim va tarbiyada milliy qadriyatlar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.
6. Yo‘ldosheva G. Ma’naviy tarbiya metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya Ziyo, 2020.
7. Abdulla Qodiriy. O‘tgan kunlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.

KELAJAK O‘QITUVCHISINI TAYYORLASHDA TA’LIM KLASTERLARI FAOLIYATINING AHAMIYATI

Ataxanov Xamidullo Kozimjonovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada ta’lim tizimida amalga oshayotgan global islohotlar va raqamli transformatsiya sharoitida kelajak o‘qituvchisini tayyorlashda ta’lim klasterlari faoliyatining strategik ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Klaster yondashuvi orqali maktabgacha, umumiy o‘rta va oliy ta’lim bosqichlari yagona ekotizimga birlashtirilib, nazariya va amaliyot uyg‘unligi ta’minlanadi. Tadqiqotda pedagogik jarayonning uzluksizligi, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, ijodiy fikrlash va refleksiya ko‘nikmalarini shakllantirishda ta`lim klasterlarining afzalliklari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim klasteri, kelajak o‘qituvchisi, kasbiy kompetensiya, integratsiya, nazariya va amaliyot uyg‘unligi, refleksiya, innovatsion ta’lim.

ЗНАЧЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ КЛАСТЕРОВ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ

Атаханов Хамидулло Козимжонович
Независимый исследователь Чирчикского государственного педагогического университета

Аннотация. В статье научно и практически обосновано стратегическое значение деятельности образовательных кластеров в подготовке будущих учителей в условиях глобальных реформ и цифровой трансформации системы образования. Кластерный подход обеспечивает интеграцию дошкольного, общего среднего и высшего образования в единую экосистему, что способствует гармоничному сочетанию теории и практики. В исследовании проанализированы преимущества образовательных кластеров в обеспечении непрерывности педагогического процесса, развитии профессиональных компетенций, а также в формировании навыков творческого мышления и рефлексии.

Ключевые слова: образовательный кластер, будущий учитель, профессиональная компетенция, интеграция, единство теории и практики, рефлексия, инновационное образование.

THE SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL CLUSTER ACTIVITIES IN PREPARING FUTURE TEACHERS

Atakhanov Khamidullo Kozimjonovich
Independent researcher, Chirchik State Pedagogical University

Abstract. The article scientifically and practically substantiates the strategic importance of educational cluster activities in preparing future teachers amid global educational reforms and digital transformation. The cluster approach integrates preschool, general secondary, and higher education into a unified ecosystem, ensuring the coherence of theory and practice. The study analyzes the advantages of educational clusters in maintaining the continuity of the pedagogical process, developing professional competencies, and fostering creative thinking and reflective skills.

Keywords: educational cluster, future teacher, professional competence, integration, theory and practice coherence, reflection, innovative education.

Kirish. Jahon bilim maydonida kechayotgan tub o‘zgarishlar, raqamli transformatsiya va mehnat bozoridagi yangi talablar pedagogik ta’lim tizimi oldiga yangi avlod o‘qituvchilarini

tayyorlashda tizimli yondashuvni talab etmoqda. Shu sharoitda ta’limning barcha bosqichlarini o‘zaro bog‘lab, nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlay oladigan klasterli model strategik yechim sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Shu muammonini tadqiq qilishga qaratilgan tadqiqotning ob’ekti sifatida ta’lim klasterlari faoliyati belgilandi. Ta’lim klasteri maktabgacha, umumiy o‘rta va oliy ta’lim tashkilotlarini bir butun tizimda birlashtirish orqali uzluksiz ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga qaratilgan innovatsion pedagogik modeldir. Olib borilayotgan tadqiqotning predmeti esa klaster faoliyati orqali kelajak o‘qituvchilarini tayyorlashning ilmiy-amaliy asoslaridan iborat bo‘lib, unda ta’lim bosqichlari integratsiyasi, nazariya va amaliyot uyg‘unligi hamda klasterning ta’lim sifati va natijaviyligini oshirishdagi roli chuqur tahlil etilgan.

Ishning asosiy maqsadi pedagogik ta’lim klasterlari faoliyatini rivojlantirish orqali kelajak o‘qituvchilar tayyorgarligining samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda bir qator vazifalar belgilandi:

ta’lim klasterlari faoliyatining nazariy-metodologik asoslarini chuqur tahlil qilish;

klaster modelida ta’lim jarayonidagi integratsiya, uzluksizlik va samaradorlik tamoyillarini ilmiy jihatdan asoslash;

kelajak o‘qituvchilar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda klaster modelining o‘rni va amaliy mexanizmlarini aniqlash;

xorijiy va milliy tajribalarni solishtirma tahlil qilish va umumlashtirish;

olingan natijalar asosida klasterlar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish va h.k.

Hozirgi global taraqqiyot tendensiyalari hamda mamlakatimizda kechayotgan islohotlar mazkur yo‘nalishning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

XXI asrdagi ta’lim tizimining asosiy vazifasi barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qiluvchi kompetensiyaga asoslangan ta’lim modelini shakllantirishdir . Bu yondashuv o‘qituvchi tayyorgarligini faqat faniy bilimlar bilan chegaralab qo‘ymasdan, balki ijtimoiy, axloqiy va ekologik mas’uliyatni qamrab olgan integratsiyalangan pedagogik muhitni yaratishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim klasterlari orqali kelajak o‘qituvchilarini antirish, ya’ni innovatsion, tanqidiy va kreativ fikrlash asosida faoliyat yurituvchi mutaxassislar sifatida tayyorlash mazkur maqsad bilan uyg‘unlashadi. Zamonaviy o‘qituvchilar faqatgina bilim yetkazuvchilar emas, balki butun umr davomida o‘rganuvchi shaxslar sifatida qaralishi zarur. TALIS tadqiqoti natijalariga ko‘ra, pedagoglarning kasbiy o‘sishi ularning ta’lim jarayonidagi innovatsion faoliyati, muloqot va hamkorlik madaniyati, shuningdek, klasterli muhitda amaliy tajriba orqali shakllanadi . Shu boisdan, ta’lim klasterlari doirasida antirish orqali kelajak o‘qituvchilarini tayyorlash, ularni faol o‘rganuvchi va ijodkor sub’ekt sifatida shakllantirishda muhim strategik ahamiyatga ega.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi ta’limning uzluksizligini ta’minlash, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilaydi . Mahalliy pedagogik amaliyotda ham klasterli modellar pedagog kadrlar tayyorlashda samarali yechim sifatida e’tirof etilgan . Shu bois, ushbu tadqiqotda ta’lim klasterlari maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta va oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, ilmiy-tadqiqot markazlari va amaliyot bazalarini uzluksiz yagona ekotizimga birlashtiruvchi platforma sifatida nazariy va amaliy jihatdan asoslab beriladi.

Shu asosda tadqiqot ob’ekti sifatida ta’lim klasterlari faoliyatini rivojlantirish orqali kelajak o‘qituvchilarini tayyorlashning ilmiy-amaliy asoslari qabul qilindi. Predmetni esa klaster modeli orqali kelajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligini oshirishning nazariy konstruktlari va amaliy mexanizmlari tashkil etadi. Belgilangan maqsad va vazifalarning bajarilishi uzluksiz ta’lim tizimida integratsiyani kuchaytirish, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzilishlarni kamaytirish hamda kelajak o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini (ijodiy fikrlash, tadqiqotchilik, refleksiya va raqamli savodxonlik) kompleks ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik ta’lim tizimida klaster modelining nazariy asoslari jahon pedagogikasi va mahalliy

ilmiy izlanishlar tahlili orqali yaqqol ko‘rinadi. Klasterli yondashuv aslida sanoat va iqtisodiyotda qo‘llaniladigan boshqaruv modeli sifatida shakllangan bo‘lib, keyinchalik ta’lim tizimida ham samarali natijalar berishi mumkinligi asoslangan.

Adabiyotlar tahlili. U.N. Xodjamqulov o‘z tadqiqotida pedagogik ta’lim innovatsion klasteri nazariy modelini ilgari surgan va uning asosiy vazifalari sifatida fan–ta’lim–amaliyot integratsiyasini ko‘rsatgan (2021). Unga ko‘ra, klaster modelida ta’lim jarayonida, uzluksizlik, tizimlilik, integratsiya, ijodkorlik va innovatsiya tamoyillari ustuvor hisoblanadi. S.A. Toshtemirova tadqiqotlarida ta’lim sifatiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, klasterli yondashuv orqali oliy va umumiy ta’lim integratsiyasi hamda ta’lim mazmunini yangilash mexanizmlari ochib berilgan . Unga ko‘ra, ta’lim klasterlari nafaqat o‘qituvchilar kompetensiyasini rivojlantiradi, balki ta’lim muassasalarining bir-biri bilan uzviy hamkorligini ta’minlaydi.

Shuningdek, A.X. Boymurodov informatika va axborot texnologiyalari fanini klaster asosida o‘qitish modelini ishlab chiqqan . Bu model ta’limda fanlararo integratsiyaning samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. Sh.I. Botirova o‘z tadqiqotida adabiy ta’lim klasteri orqali talabalarda ijodiy fikrlash va mulohaza ko‘nikmalarini shakllantirish masalasini o‘rgangan . Bu ishdan kelib chiqib aytish mumkinki, klaster modeli faqatgina ma’lum bir fan emas, balki barcha ta’lim yo‘nalishlarida ijodiy va mustaqil fikrlash muhitini yaratadi. D.E. Qarshieva esa klaster vositasida talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqqan . Uning xulosalariga ko‘ra, klaster modeli talabalarning amaliy faoliyatdagi ishtirokini kuchaytiradi va nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga o‘rgatadi. G.N. Sharipova talabalarda o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasini klaster asosida shakllantirish bo‘yicha tadqiqot olib borgan . Uning ishlanmalarida talabalarda refleksiya va mustaqil ta’limga intilish ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari asoslab berilgan.

N.M. Koshanova esa umumta’lim maktablarida sinf rahbarlari faoliyatini klaster yondashuvi asosida takomillashtirish mexanizmlarini ko‘rsatgan . Bu ishdan ko‘rinadiki, klaster modeli nafaqat o‘quv jarayonida, balki boshqaruv va tarbiya jarayonida ham samarali ishlaydi.

I.Qodirov tadqiqotida ta’lim klasterlari doirasida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, u shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish metodikasini ishlab chiqqan . Muallif ta’kidlaganidek, ta’lim klasterlarining integratsiyalangan muhiti talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikma va ijodiy salohiyatini ham rivojlantiradi, bu esa kelajakda ularning professional faoliyatida muvaffaqiyatga erishishini ta’minlaydi.

Shu tariqa, mavjud tadqiqotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, klasterli ta’lim modeli kelajak o‘qituvchisini tayyorlashning eng samarali yo‘nalishlaridan biridir. Bu model nazariya va amaliyot uyg‘unligiga asoslanadi va ta’lim sifatini oshirishda, talaba shaxsiyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Natija va muhokama. Ta’lim klasterlari modeli nazariy jihatdan mukammal tizim sifatida asoslangan bo‘lsa-da, uning amaldagi tatbiqi bir qator qiyinchiliklar bilan bog‘liq. Avvalo, klaster faoliyatida uchta asosiy muammo ajralib turadi:

nazariyot va amaliyot uyg‘unligining to‘liq ta’minlanmasligi, bunda talabalar nazariy bilimga ega bo‘lsa-da, uni amaliyotda to‘la qo‘llay olmayotganligini ta’kidlash o‘rinli;

amaliyot rahbarlari malakasining yetarli emasligi ham asosiy muammolardan biri bo‘lib, bu maktablarda amaliyot rahbarlari talabalarni zamonaviy talablar asosida yo‘naltira olmayotganligini alohida muammos ifatida ko‘rib chiqishni taqozo qilmoqda;

yozma hujjatlarning formal xarakterda bo‘lishi, ya’ni amalyot jarayonlarining natijalari ko‘p hollarda talabalarning hisobotlari shaklida bo‘lishi va bu yuzaki hamda shablon ko‘rinishida, ijodiy tahlilsiz tayyorlanishi ham kelajak o‘qituvchilarini xalqaro talablarga ko‘ra tayyorlashga salbiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda.

Bu muammolar olib borilgan kuzatishlar va tahlillar natijasida aniqlangan bo‘lib, ular klaster

modelining to‘liq samarador ishlashiga to‘sqinlik qilmoqda.

Ma’lumki ta’lim klasterlari maktabgacha, umumiy o‘rta va oliy ta’lim bosqichlari o‘rtasida uzluksizlik va integratsiyani ta’minlaydi. Bu tizimdagi integratsiyaning mazmunini bevosita kelajak o‘qituvchisini tayyorlashga muvofiq holda takomillashtirish mumkin (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Ta’lim bosqichi	**Klasterdagi roli**	**Kelajak o‘qituvchi tayyorgarligiga ta’siri**
Maktabgacha ta’lim	Pedagogik nazorat va tarbiya asoslari	Bolalar psixologiyasi va tarbiya nazariyasini anglash
Umumiy o‘rta ta’lim	Asosiy fanlar va metodik bilimlar	Dars o‘tish va pedagogik usullarni qo‘llash tajribasi
Oliy ta’lim	Ilmiy-nazariy bilim, kasbiy kompetensiyalar	Ilmiy tahlil, mustaqil tadqiqot va innovatsion fikrlash
Ilmiy-tadqiqot institutlari	Ilmiy innovatsiyalar va tadqiqotlar	Ilmiy kompetensiya va tadqiqotchilik ko‘nikmalari

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, klaster modeli har bir bosqichning o‘z o‘rniga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Bu tizim kelajak o‘qituvchisi tayyorgarligini bosqichma-bosqich va uzluksiz rivojlantiradi.

Klaster imkoniyatlarnii rivojlantirish orqali kelajak o‘qituvchilarini tayyorlash bevosita bir qator imkoniyatlarga erishishga olib keladi. Jumladan, nazariya va amaliyot uyg‘unligi orqali talabalarning kasbiy fikrlashini kuchaytirish, ilmiy-tadqiqot muassasalari va maktablarning hamkorligida amaliy innovatsiyalarni sinovdan o‘tkazish, talabalarda refleksiya, mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, inklyuziv ta’lim va raqamli ta’lim muhitini samarali joriy qilish kabi imkoniyatlar yaratiladi. Klaster modeli kelajak o‘qituvchilarini nazariya va amaliyot uyg‘unligi, ijodkorlik va mustaqil fikrlash, ilmiy-tadqiqot kompetensiyasi va innovatsiya va raqamli ta’lim ko‘nikmalarini samaradorligini ta’minlashga yordam beradi.

Ta’lim klasterlari bo‘yicha olib borilgan mahalliy tadqiqotlarni aksariyatida talabalarning o‘quv va o‘quv jarayonlaridan tashqari faoliyatdagi kompetentlik darajalari tekshirilganda ularda quyidagi tendensiyalar kuzatilgan. Bular asosan amaliyot kundaliklari ko‘p hollarda shablon tarzda to‘ldirilgangini, dars rejalarida innovatsion metodlar kam qo‘llanganligi, ilmiy tahlil elementlari (xulosa chiqarish, natija qiyoslash) kam uchrashi, talabalarning portfoliolari ko‘proq statistik ma’lumot bilan cheklanganligi va h.k. Bu holatlar klaster modelining to‘liq qo‘llanilishi uchun yanada kengroq metodik va texnologik asos zarurligini ko‘rsatadi.

Ta’lim klasterlari amaliyotidagi tahlil kelajak o‘qituvchisini tayyorlash jarayonida quyidagi nomutanosibliklar mavjudligini ko‘rsatadi, jumladan,

nazariy bilimlar yuqori, ammo amaliy qo‘llanish cheklangan;

talabalarda ijodiy yondoshuv past, reproduktiv fikrlash ustun;

maktablarda biriktirilgan amaliyot rahbarlari va oliy ta’lim professor-o‘qituvchilari o‘rtasida hamkorlik yetarli darajada emas;

amaliyot natijalari asosida tayyorlanadigan yozma hujjatlarda formalizm hanuz saqlanib

qolmoqda.

Shunday bo‘lsa-da, klaster modelining nazariy asoslari va ilg‘or tajribalari uning kelajak o‘qituvchisini tayyorlashdagi ulkan imkoniyatlarini isbotlab turibdi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari ta’lim klasterlari modelining kelajak o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonidagi ahamiyatini chuqur yoritib berdi. Ushbu model o‘z mohiyatiga ko‘ra uzluksiz ta’limning innovatsion platformasi sifatida namoyon bo‘lib, maktabgacha, umumiy o‘rta va oliy ta’lim bosqichlarini bir butun tizimga bog‘laydi. Shu orqali nazariya va amaliyot uyg‘unligi ta’minlanib, ta’lim jarayonining samaradorligi oshiriladi.

Klaster muhiti kelajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida xizmat qiladi. Bunday muhitda talabalar nazariy bilim bilan birga amaliy ko‘nikmalarni egallaydi, ijodiy fikrlash, mustaqil izlanish va ilmiy-tadqiqot olib borish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, klaster tizimida talabalarda refleksiya va tanqidiy tahlil ko‘nikmalari shakllanib, ularning kasbiy tayyorgarligi sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tariladi.

Tadqiqot jarayonida qayd etilgan yana bir muhim jihat pedagogik amaliyotlar natijalarida tayyorlanadigan yozma hujjatlar va portfolioning talabalar kasbiy rivojlanishidagi roli hisoblanadi. Ular talabalarning nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini emas, balki mustaqil fikr yuritish, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini ham namoyon etishi lozim. Demak, portfolio va yozma xisobotlar kelajak o‘qituvchisining kasbiy o‘sishini baholashda ishonchli indikator sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida talabalarning amaliy mashg‘ulotlari, kundaliklari va hisobotlari chuqur o‘rganildi. Ushbu tahlillar ta’lim jarayonida bir qator jiddiy muammolar saqlanib qolayotganligini ko‘rsatdi. Avvalo, talabalarda reproduktiv fikrlash ustunligi kuzatildi. Ko‘p hollarda ular tayyor algoritmlardan foydalanib, ijodiy yondashuvdan qochishga moyillik namoyon etdi. Bu holat talabalarda ijodkorlik qobiliyati va metakognitiv strategiyalarning yetarlicha shakllanmaganligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, tahlil jarayoni talabalarning inklyuziv ta’limga tayyorgarligi past darajada ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, ularning yozma hisobotlarida maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash masalalari yuzaki yoritilgan bo‘lib, bu sohadagi bilim va ko‘nikmalarni chuqurlashtirish zarurligini anglatadi.

Tadqiqotning yana bir muhim jihati talabalarning portfoliolarida ilmiy-tadqiqot elementlari yetarli darajada aks etmaganligi bo‘ldi. Ularda natijalar tahlili, muammolarni qiyoslab yechish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish usullari juda kam yoritilgan. Bu esa kelajak o‘qituvchisining ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida klaster modeli imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmaganligini ko‘rsatadi.

Pedagogik amaliyotlar natijasida tayyorlanadigan portfoliolar orqali aniqlangan muammolar tahliliy jihatdan quyidagicha taqsimlandi:

35 foizi ijodiy fikrlashda qiyinchilikka duch kelgan;

30 foizi inklyuziv ta’limga yetarli tayyorgarlikka ega emas;

20 foizida ilmiy tahlil va tadqiqot ko‘nikmalari past darajada;

15 foizida yozma hujjatlarda formalizm holatlari ustunligi kuzatildi.

Bu raqamli ko‘rsatkichlardan kelib chiqib ta’lim klasterlari modelini samarali qo‘llash jarayonida ijodiy fikrlash, inklyuziv ta’lim tayyorgarligi va ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish talab etilmoqda. Shunday qilib, tahlillar klaster modelining rivojlanishida yangi metodik va amaliy yechimlarni ishlab chiqish zarurligini ochib berdi.

Ta’lim klasterlari asosida tashkil etilgan uzluksiz ta’lim tizimi kelajak o‘qituvchilarini tayyorlashda samarali integratsiya mexanizmi sifatida namoyon bo‘ldi.

Klaster muhiti talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlaydi. Yozma hujjatlarning tahlili talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashning ishonchli indikatori sifatida xizmat qiladi.

Olib borilgan ilmiy natijalar klaster modelida kelajak o‘qituvchisi nafaqat bilim oluvchi, balki mustaqil tadqiqotchi va ijodkor shaxs sifatida rivojlanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shuninigdek tadqiqot natijalari va tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, ta’lim klasterlari modeli uzluksiz ta’limning innovatsion yechimlaridan biri sifatida o‘zini namoyon etdi. Klasterlar maktabgacha ta’lim muassasalari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, oliy ta’lim muassasalari hamda ilmiy-tadqiqot markazlarini yagona tizimga birlashtirish imkonini berdi. Bunday uyg‘unlik nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzilishlarni bartaraf etib, ta’lim jarayonining yaxlit va samarali bo‘lishiga xizmat qildi. Shu bois, kelajak o‘qituvchilarining tayyorgarligi yuqori samaradorlikka erishdi va ularda bilim, ko‘nikma va malakalarning uyg‘un tarzda shakllanishi ta’minlandi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ta’lim klasteri muhitining kelajak o‘qituvchilar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda hal qiluvchi omil ekanligini ko‘rsatdi. Klaster muhiti talabalarga nazariy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish bilan bir qatorda, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi. U ijodkorlikni rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirishda muhim platforma hisoblanadi. Bunday jarayonda talaba faqatgina tayyor bilimlarni o‘zlashtiribgina qolmay, balki yangi g‘oyalar ishlab chiqadi, turli muammolarga innovatsion yechim taklif qiladi va ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi.

Xulosa. Umuman olganda, ta’lim klasterlari ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, uning sifatini oshirish va kelajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega mexanizm hisoblanadi, degan xulosaga kelish mumkin. Shu bois, klaster modelini takomillashtirish maqsadida amaliyot rahbarlari uchun maxsus malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish, talabalarning yozma xisobotlariga ijodiy yondashuv va tadqiqotchilik elementlarini majburiy tarzda kiritish, shuningdek, inklyuziv ta’lim bo‘yicha metodik ko‘makni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan tahlillar ta’lim klasterlarining kelajak o‘qituvchilarini tayyorlashda ilmiy-amaliy asoslarni takomillashtirishda eng samarali yo‘nalish ekanini ko‘rsatdi. Ushbu modelning to‘liq va tizimli tatbiqi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlar bilan to‘liq uyg‘unlikda amalga oshirilishi mumkin.

Ta’lim klasterlari samaradorligini oshirish uchun bir qator amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Avvalo, klaster modelini institutsional asosda joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu maqsadda maktabgacha, umumiy o‘rta va oliy ta’lim muassasalarini yagona klaster tizimida bog‘laydigan hududiy va milliy markazlarni tashkil etish hamda universitet, litsey va maktablar o‘rtasida uzluksiz hamkorlik memorandumlarini yo‘lga qo‘yish zarur.

Shu bilan birga, amaliyot rahbarlari malakasini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilanishi kerak. Buning uchun ular uchun zamonaviy metodika va innovatsion texnologiyalar asosida muntazam seminarlar, treninglar tashkil etish, shuningdek, Germaniya va Finlyandiya tajribasidagi kabi maktab o‘qituvchilarini amaliy rahbar sifatida qayta tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Yozma xisobotlarni takomillashtirish ham muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada amaliyot kundaliklari va hisobotlarini formal emas, balki tahliliy va ijodiy yo‘nalishda tayyorlash uchun namunaviy me’yoriy hujjatlar ishlab chiqish, shuningdek, talabalar portfellarida refleksiya, innovatsion g‘oya va ilmiy tahlil elementlarini majburiy ravishda kiritish zarur.

Klaster modelini yanada samarali qo‘llash uchun innovatsion pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish talab etiladi. Jumladan, talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan usullarni qo‘llash va turli kreativ vaziyatli vazifalar orqali ularning mustaqil izlanishini rag‘batlantirish maqsadga muvofiq.

Inklyuziv ta’limda ham klaster yondashuvini kuchaytirish zarur, bu yo‘nalishda maxsus ehtiyojli o‘quvchilar bilan ishlash uchun klaster doirasida korreksion metodik markazlar tashkil etish va talabalar yozma ishlarida inklyuziv pedagogika elementlarini amaliy ravishda yoritish talab qilinadi.

Shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyatini klaster bilan uyg‘unlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’lim muassasalari va maktablar o‘rtasida qo‘shma ilmiy loyihalar tashkil etish, talabalarning ilmiy maqolalar yozishini rag‘batlantirish va ularni ilmiy jurnallarida chop etilishini ta’minlash klaster tizimining ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

UNESCO. Teachers for the 21st Century: Competence-based education for sustainable development. Paris: UNESCO Publishing, 2016.

OECD. TALIS 2018 Results: Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. Paris: OECD Publishing, 2019.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni. 2022 yil 28 yanvar -B. 37.

Мухамедов Ғ.И, Хўжамқулов У.Н., Тоштемирова С.А. Педагогик таълим инновацион кластери / монография -Т.: Университет, 2020. 280 б.

Ходжамқулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластернинг илмий-назарий асослари // педа- гогика фанлари докт.дисс. Тошкент. 2021. – 204.

Тоштемирова С.А.Кластерли ёндашув асосида таълим сифатини ошириш // педагогика фанлари бўйича фалс.докт.дисс. Тошкент. 2021. – 198.

Боймуродов А.Х. Умумий ўрта таълим тизимида информатика ва ахборот технологиялари фани- ни ўқитишнинг инновацион кластер модели // педагогика фанлари бўйича фалс.докт.дисс. Тошкент. 2021. – 136.

Ботирова Ш.И. Адабий таълим кластеринг илмий-педагогик асослари // педагогика фанлари докт. дисс. Тошкент. 2021. – 226.

Қаршиева Д.Э. Кластер воситасида бўлажак ўқитувчиларда касбий компетенцияни шаклланти- ришнинг педагогик асослари (мактаб малакавий амалиёти мисолида) // педагогика фанлари бўйича фалс.докт.дисс. Тошкент. 2021. – 122.

Шарипова Г.Н. Педагогик таълим кластери шароитида талабаларда ўзини ўзи ривожлантириш компетенциясини шакллантириш // педагогика фанлари бўйича фалс.докт. дисс. Тошкент. 2021. – 146.

Кошанова Н.М. Умумтаълим мактабларида синф раҳбарлари фаолиятини ривожлантириш меха- низмлари (кластер ёндашуви асосида) // педагогика фанлари бўйича фалс. докт. дисс. Тошкент. 2021. – 202.

Qodirov I.D. Ta’lim klasteri doirasida talabalarning kasbiy kompetentligini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi. pedagogika fanlari fals. dok. diss. avtoref. Chirchiq. 2023. – 136.

FIZIKA DARSLARIDA FANLARARO KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH –TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASH MALAKASINI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA

Mirzayev Mirg‘olim Shayimardonovich
Qarshi davlat texnika universiteti “Tabiiy fanlar”kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnika oliy o’quv yurtlari fizika darslarida qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning fanlararo kompetensiyalarini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil etilgan. Loyiha-tadqiqot texnologiyalari, axborot-kommunikatsion texnologiyalari (AKT) va amaliy tajribalarning integratsiyasi orqali talabalarning ijodiy fikrlash, mustaqil ishlash va kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: fizka,fanlararo kompetensiyalar ,pedagogik texnologiyalar, ijodiy mustaqil fikrlash, loyiha-tadqiqot ishlari, laboratoriya tajribalari, AKT.

РАЗВИТИЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ НА УРОКАХ ФИЗИКИ – КАК СРЕДСТВО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ

Мирзаев Мирголим Шайимардонович
Старший преподаватель кафедры «Естественные науки» Каршинского государственного технического университета

Аннотация: В данной статье проанализированы современные педагогические технологии, применяемые на уроках физики, и их значение в формировании межпредметных компетенций. Показаны возможности развития творческого мышления, самостоятельной работы, а также профессиональных умений и навыков студентов через интеграцию проектно-исследовательских технологий, информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) и практического опыта.

Ключевые слова: физика, межпредметные компетенции, педагогические технологии, творческое самостоятельное мышление, проектно-исследовательские работы, лабораторные эксперименты, ИКТ.

DEVELOPMENT OF INTERDISCIPLINARY COMPETENCES IN PHYSICS LESSONS – AS A MEANS OF IMPROVING STUDENTS’ INDEPENDENT THINKING SKILLS

Mirzayev Mirgolim Shayimardonovich
Senior lecturer at the Department of «Natural Sciences» of Karshi State Technical University

Abstract: This article analyzes modern pedagogical technologies used in physics classes and their role in shaping interdisciplinary competencies. The possibilities of fostering creative thinking, independent work, and professional skills among students through the integration of project-based research, information and communication technologies (ICT), and practical experience are demonstrated.

Keywords: physics, interdisciplinary competencies, pedagogical technologies, creative independent thinking, project-based research, laboratory experiments, ICT.

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida fanlararo yondashuv ahamiyatli o‘rin tutadi.Bu yondashuv talabalarning mustaqil ravishda tanqidiy hamda ijodiy fikrlash qobiliyatini, bilimlarini mustaqil o‘zlashtirish va kundalik turmushda amaliyotda qo‘llash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga

yo‘naltirilgan. Fizika –tajribaga asoslangan fan bo‘lib,fizika darslarida turli pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali talabalarning fanlararo kompetensiyalarini shakllantirish mumkin.

Fizika o’qitish pedagogik jarayon bo’lib, o’qituvchi rahbarligi va boshqaruvida ta’lim oluvchilarning fizika fani asoslarini egallashi ya’ni, tabiatni o’rganishi, o‘zlashtirilgan bilimlarini hayotda qo’llay bilishi, rivojlangan jamiyat texnika va texnologiyalari bilan muloqot qila olish ko’nikmasini egallashiga imkon yaratadi. O’qitish natijasida talabalarda umumiy politexnik ta’lim, to’g’ri ilmiy dunyoqarash, insoniylik tuyg’ulari kabilarni shakllanishi kerak. Mahoratli pedagog faqat fan asoslarini yaxshi bilishi va uni o’qitish metodlarini mustahkam egallash bilan cheklanib qolmay, balki o’qitish jarayoni, talabalarning fanni o’zlashtirishning psixologik qonuniyatlarini, amaliy ko’nikma va malakalar hosil qilish va uni rivojlantirish, mustaqil ravishda fikrlash qobiliyatini rivojlantirish yo’llarini, o’qitishda shaxs kamolotida tarbiyaviy masalalarni hal etishni mukammal bilishi lozim. Shuningdek, o’qituvchidan psixologik qonuniyatlarni izchil qo’llay bilishi ham talab etiladi. Talabalarning kamolotida ijtimoiy hayotiy tajriba muhim ahamiyatga ega. Demak, o’qituvchi bu muhim faktorni ham yodda tutishi kerak. Talabaning muhit ta’sirida faol o’zgarib borishini tahlil etib borish o’qituvchi faoliyatining samarali bo’lishiga sabab bo’ladi. O’qitish jarayoni uzluksiz ravishda talabaning o’z-o’zini kamolot sari intilishiga va bu borada ijobiy yutuqlarni qo’lga kiritib borishiga xizmat qilishi lozim.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi: ta’lim jarayoniga texnologik yondashuv — talabaning bilim o’zlashtirishini qulaylashtirish maqsadida, avvalo, o’quv materialini (axborotni) bir-biri bilan o’zaro bog’liq qismlarga, bo’laklar (o’quv elementlari)ga ajratishni, so’ngra ta’limda mo’ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan o’quv-biluv faoliyatini (harakatlarni, amallarni) ketma-ket, bosqichma-bosqich, izchil amalga oshirishni, loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini birdek bajarishni talab etadi. Bu, pedagogika fanining qonuniyatlaridan biridir, ta’lim texnologiyasini qo’llash uchun unga amal qilish zarur.

Dars jarayonida ta’limning sifatini oshirish maqsadida turli yangi pedagogik texnologiyalardan va didaktik o’yinlardan foydalanish joriy qilinmoqda va bu usul bugungi kunda o’z samarasini yetarlicha bermoqda. Biroq bir joyda to’xtab qolmasdan yanada zamonaviy va samarali usullardan foydalanishni o’quv jarayoniga tatbiq etilsa yanada yaxshiroq natijalarga erishish mumkin.

An’anaviy ta’limga nisbatan interfaol usullar orqali tashkil etilgan dars shaklining ustunlik jihati shundaki, qisqa vaqt davomida katta hajmdagi ma’lumotni auditoriya bazaviy bilimiga asoslangan holda yetarli va tushunarli holda yetkazib berish mumkin. An’anaviy ta’lim shaklida esa faqatgina bo’r yordamida katta hajmli ma’lumotlarni belgilangan vaqtda yetkazib berish imkonsiz. Interfaol usulda esa talabalarning faol ishtiroki va auditoriyaning qiziqarli muhitini tashkil etilgan holda munozara va muhokamali faol dars jarayonini tashkil qilish mumkin. Misol tariqasida shuni aytish mumkinki, elektr jihozlarini ulash usullarini faqat chizma orqali tushuntirgandan ko’ra, ularning ulash usullari haqida talabalarga muhokamali savol tashlansa, bir necha xil javob olish mumkin. Bu esa vaqtdan foydalangan holda bir necha usulni muhokama qilib o’rganish imkonini beradi. Amaliy mashg’ulotlarni ya’ni masalalar yechish darslarini tashkil etishda masalaning bir necha ishlanish usullarini muammoli ta’lim usuli orqali ko’rib chiqish imkoni tug’iladi. Laboratoriya o’quv mashg’ulotini tashkil etishda esa interfaol metodlarning o’rni muhim ahamiyatga ega.

Muhokama va natijalar. Odatda tashkil etiladigan an’anaviy dars shakllaridan farqli o’laroq, interfaol usulda tashkil etilgan darslar davomida talabalarda mustaqil ishlash ko’nikmasi shakllanadi va yangi bilimlar olish salohiyatini oshiradi. Texnik qobiliyatni takomillashtirish usullari orqali darslarni tashkil qilish talabalarda kasbiy ko’nikmalarni shakllantiradi. Bundan tashqari dars jarayonida yechimi qiyin bo’lgan masalalarni ham aqliy hujum metodi orqali turli usullarda aniqlash mumkin.

Xalqaro ta’lim standartlariga ko‘ra, zamonaviy mutaxassis faqat o‘z sohasidagi bilimlarga ega bo‘lishi bilan cheklanib qolmasdan,turli fanlarni integratsiya qilish,murakkab muammolarni bartaraf etish va ijodiy yondashuvlarni qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Fizika –tabiiy va texnik fanlarning asosi bo‘lib,fizika darslarida fanlararo kompetensiyalarni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Mamlakatimiz ta’lim tizimini modernizatsiyalash konsepsiyasida kasbiy ta’limning maqsadi – malakali, kompetentliligi, mas’uliyatli, kasbiy jihatdan o‘zini takomillashtirishga tayyor, samarali ishlay oladigan va mehnat bozorida raqobatbardosh ishchi tayyorlash ko‘zda tutilgan.Ularning asosida fanlararo yondashuv yotadi, bu yondashuv texnika universitetlarida asosiysi – ijodiy mustaqil fikrlashni o‘rgatish kerakligi g‘oyasiga asoslanadi. Ushbu yondashuv talaba nafaqat bilimlar tizimini egallashi, balki universal (fanlardan tashqari) harakatlar usullarini o‘zlashtirishi va ular yordamida mustaqil ravishda ma’lumot olishi mumkinligini nazarda tutadi.

Fanlararo yondashuv talabalarning ko‘nikmalarini turli fanlarda qo‘llash, murakkab muammolarni bartaraf etish va mustaqil ravishda ijodiy fikrlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi. Fizika darslarida buning uchun quyidagi: matematik usullarni qo‘llash (fizik jarayonlarni modellash); kimyo bilan bog‘liq misollar (moddalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari);informatika bilan integratsiya (simulyatsiyalar, ma’lumotlarni tahlil qilish)kabi fanlararo yondashuvlardan foydalaniladi.

Fanlararo yondashuv ta’lim jarayonini tashkil qilishning ma’nosi, talabalarda bilish (kognitiv), muloqot (kommunikativ), tashkiliy va ma’naviy axloqiy muammolarni mustaqil hal qilish tajribasini shakllantirish uchun sharoit yaratishdan iboratligini ta’kidlaydi. Aynan ushbu muammolar ta’lim mazmunini tashkil etadi.

Fizika talabalarning kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarini, ya’ni, o‘quv-tadqiqot, hissiy-psixologik, ijtimoiy, tashkiliy-faoliyat va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bunga talabalarning darsdagi turli xil o‘quv-tadqiqot faoliyati, o‘quv materiallarining ko‘p tarmoqli yo‘nalishi, o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik turmushda amaliyotda keng qo‘llashda yordam beradi. Fizikani o‘rganish jarayonida talaba ilmiy bilimning barcha bosqichlariga (kuzatish → gipoteza → tajriba → natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish) jalb qilinadi, bu esa ilmiy ravishda mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi [1, 19 b].

Axborotlashgan jamiyat sharoitida raqamli texnologiyalar muhitiga moslashgan, bilimdon, mustaqil ravishda fikrlash qobiliyatiga ega talabaларni tarbiyalash axborot-kommunikatsion texnologiyalarni (AKT) ta’lim tarbiya jarayonida qo‘llanmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi.

Oliy ta’lim amaliyotida talabalarni ijodiy faoliyatga undovchi loyiha -tadqiqot texnologiyasini qo‘llaш ijobiy natijalarni natijalarni beradi. Loyiha mavzusini shakllantirishda talabalarning o‘ziga xos qiziqishlari va imkoniyatlarini e’tiborga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Talabalar “issiqlik uzatish turlari”, “ichki yonuv dvigateli” kabi loyihalarni amalga oshirish lozim bo‘ladi. Loyihalar uchun yaratilgan prezentatsiyalarni keyinchalik o‘quv mashg‘ulotlariga amalga oshirish yaxshi natijalarni beradi.Prezentatsiyalarни ishlab chiqish o‘qitishga ijodiy, muammoli tavsiflab,talabalarning mustaqil ravishda ishlash faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Loyiha-tadqiqot texnologiyalarini yaxshi tayyorgarlikka ega bo‘lgan talabalar bilan ishlashda ijobiy natijalarga olib keladi. Loyihalar guruhlarda amalga oshirilsa bu holda talabalar katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Hamkorlikdagi faoliyat jarayonida o‘quvchilar qidiruv variantlari va ma’lumotlarning ushbu ijodiy loyihada joylashtirilish ketma-ketligini muhokama qiladilar.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari – oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish yo‘nalishlaridan biridir.Oliy ta’limda talabalar ilmiy jamiyati tashkil etilgan bo‘lib, talabalar 1-kursdan boshlab tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanishlari mumkin. Tadqiqot ishi mavzusini tanlashda talabalarning kelgusidagi mutaxassisligini e’tiborga olgan holda amalga oshiriladi. “Mashinasozlik texnologiyasi” mutaxassisligi bo‘yicha o‘qiyotgan 1-kurs talabasi “Lazer texnologiyalarining mashinasozlikda samaradorligi” mavzusida ilmiy-tadqiqot ishini amalga oshириши mumkin.

Fizika – tajribaga asoslangan fan, uni har doim namoyish tajribalari bilan o‘qitishadi. Tajribalarni o‘tkazishda talabalarning tajriba o‘tkazish, kuzatish olib borish, sxemalar chizish, raqamli qiymatlar bilan ishlash, bajarilgan ish haqida hisobot berish, ilmiy munozaralashish ko‘nikmalari takomillashadi. Fizika darslaridagi bunday faoliyat turlari talabalarda quyidagi: ijodiy fikrlash, o‘zini takomillashtirish istagi va qobiliyatini shakllantirish kabi fanlararo kompetensiyalarni rivojlantirishga yaqindan yordam beradi.

Laboratoriya ishlari talabalarning eksperimental ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradi. O‘quvchilar tadqiqotchi rolida bo‘lib, nafaqat eksperimentning maqsadini амалга ошришни босқичларини belgilaydi balki bosqichlarini rejalashtiradi hamda mustaqil ravishda xulosalar chiqaradi, o‘lchovlarning хатоликларini hisoblaydi.

Talabalarning o‘lchash ko‘nikma ва malakalarini rivojlantirish kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim shartlaridan biri hsoblanadi. Har qanday sohada: sanoatda, fanda, tibbiyotda yoki transportda – inson o‘lchash zarurati bilan yuzma-yuz keladi. Shunday qilib, fizika darslarida biz kasbiy kompetensiyaning asosini qo‘yamiz, bu kasbiy mehnatda yuqori darajadagi bilimlar, texnika va texnologiyalardan foydalanishni va mutaxassisning kasbiy o‘sish imkoniyatini ta’minlaydi.

Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni o’qitish va shakllantirishni tashkil etishning navbatdagi shakli laboratoriya ishi bo’lib, u talabaning eksperimental vazifani eksperimental o’rnatish yordamida yoki virtual fizika laboratoriyasi orqali bajarishini ta’minlaydi. Fizika fanidan har bir ta’lim yo’nalishi uchun tayyorlangan o’quv dastur va sillabuslarida laboratoriya ishlarning soni va nomlari kelltirilgan.

Fizika ixtisoslashtirilgan o’quv fanlariga tegishli bo’lganligi sababli, o’quv materialining mazmuni talabalarning mutaxassisligiga qaratilgan. Shu maqsadda har bir laboratoriya ishida fizikaning o’quv materialini va kasbiy faoliyat turlarining o’quv materialini amalga oshiradigan fanlararo kurslarni bog’lashga imkon beradigan aniq savollar aniqlanadi.

Laboratoriya amaliyotini o‘tkazishda talabalarning kommunikativ ko‘nikmalari rivojlanadi: ular boshqalarni tinglash va tushunish, o‘z fikrlarini bildirish, bajarilgan ish hisoboti haqida gapirish, kelishuvga kelish, guruh ichida o‘zaro hamkorlik qilishni o‘rganadilar. Amaliy darslarda shakllanadigan kommunikativ kompetentlilik yosh mutaxassisning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatining kafolatidir. Kasbiy faoliyat sohasida ko‘p narsa o‘zini muloqot orqali namoyon qilish qobiliyatiga bog‘liq.

Fizika darslarida har qanday mavzuni o’rganishda nazariy materialning taqdimoti fizik tajriba va namoyishlarni o’z ichiga olishi kerak, laboratoriya ishlarini bajarilishini videoga yozib, darslarda ko’rsatish mumkin.

Fizika darslarida kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirishning keng tarqalgan shakllaridan biri bu muammolarni hal qilishdir. Ishlab chiqarish tarkibiga ega bo’lgan yuqori sifatli fizika muammolari va bunday muammolar juda ko’p,ulardan darsning barcha bosqichlarida foydalanish munkin: yangi mavzuni tushuntirishda, o’rganilayotgan materialni birlashtirishda, bilimlarni tekshirish va hisobga olishda. Bunday vazifalar o’rganilayotgan nazariyani atrofdagi hayotga yaqinlashtiradi, mavzuga qiziqishni rivojlantiradi va jismoniy qonunlarga asoslangan mantiqiy xulosalarni yaratishga yordam beradi. Ishlab chiqarish mazmuni bilan vaziyatli muammolarni hal qilish nazariy o’quv darsi paytida texnologik jarayonni umuman yoki uning bir qismini modellashtirishni o’z ichiga oladi.

Asosiy tushunchalar o’quv mashg’ulotlarida shakllanganligiga qaramay, darsdan tashqari ishlar ham muhim rol o’ynaydi. Zamonaviy dunyoda ta’lim va tarbiya jarayoni shu qadar murakkab va xilma-xilki, o’qituvchi uni faqat darslarda to’liq va samarali bajarishi mumkin emas. Darsdan tashqari ishlarni bajarish o’qituvchiga o’z talabalarini, ularning individual qobiliyatlarini yaxshiroq bilishga, ular orasida fizikaga qiziquvchilarni aniqlashga va ushbu qiziqishni rivojlantirishga va olingan bilimlarni kelajakdagi kasblarida qo’llashga yordam beradi.

Xulosa: shunday qilib, oliy ta’limda fizikani o’qitishning ishlab chiqarish bilan doimiy aloqasi nafaqat fizika fanini o’rganishga qiziqish uyg’otadi, balki kasbiy mahorat va ko’nikmalarni rivojlantirishga, kasbiy muammolarni hal qilishga va kasbiy faoliyatning real vaziyatlarida yuzaga keladigan odatiy kasbiy muammolarni hal qilishga yordam beradi.

AKT-dan foydalangan holda faol o‘qitish shakllarini qo‘llash esa, o‘zaro hamkorlik texnologiyasini tatbiq etish, shuningdek fizika darslarida loyiha-tadqiqot texnologiyasini joriy etish talabalarning bilish faolligini oshiradi, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, o‘zini takomillashtirish istagi va qobiliyatini shakllantiradi. Fizika darslarida shakllanadigan fanlararo kompetensiyalar bugungi talabaning kelajakdagi shaxsiy muvaffaqiyatini, uning mehnat bozorida talabgorligi va raqobatbardoshligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Braverman, E. M. Kak povisit effektivnost uchebnix zanyatiy: nekotoriye sovremenniye puti / E. M. Braverman // Fizika v shkole. - №6 –2005.

2. Gromiko Y. V. Misledeyatelnostnaya pedagogika (teoretiko-prakticheskoye rukovodstvo po osvoyeniyu visshix obrazsov pedagogicheskogo iskusstva). — Minsk, 2000

3. Zimnyaya, I. A. Klyucheviye kompetensii – novaya paradigma rezultata obrazovaniya // Vissheye obrazovaniye segodnya.– № 5 – 2003.

4. Xutorskoy A.V. Metapredmetniy podxod v obuchenii. — M.: Izdatelstvo «Eydos»; Izdatelstvo Instituta obrazovaniya cheloveka, 2012.

TA’LIM JARAYONI SUBYEKTINING O‘ZIGA XOSLIGI

Negmatova Nigora
Qarshi davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayonining o‘ziga xosliklari tahlil qilingan. Ta’lim jarayoni, ta’limning maqsadi, metodlari va vositalari bilan bog‘liq ravishda, har bir sohada o‘zining alohida xususiyatlariga ega. Tadqiqotda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning faolligini ta’minlash va ularning individual ehtiyojlarini hisobga olish kabi muhim aspektlarga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim jarayoni, o‘ziga xoslik, metodlar, vositalar, samaradorlik, talabalar faolligi, individual ehtiyojlar, zamonaviy texnologiyalar.

ХАРАКТЕРИСТИКА СУБЪЕКТА ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Негматова Нигора
Докторант Каршинского государственного университета

Абстрактный: В статье анализируется специфика образовательного процесса. Образовательный процесс в каждой сфере имеет свои уникальные особенности с точки зрения целей, методов и средств обучения. В исследовании особое внимание уделяется таким важным аспектам, как повышение эффективности образовательного процесса, обеспечение вовлеченности студентов и учет их индивидуальных потребностей.

Ключевые слова: образовательный процесс, уникальность, методы, инструменты, эффективность, активность учащихся, индивидуальные потребности, современные технологии.

CHARACTERISTICS OF THE SUBJECT OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Negmatova Nigora
Doctoral student at Karshi State University

Abstract: The article analyzes the specifics of the educational process. The educational process in each area has its own unique features in terms of goals, methods and means of teaching. The study pays special attention to such important aspects as increasing the effectiveness of the educational process, ensuring student involvement and taking into account their individual needs.

Key words: educational process, uniqueness, methods, tools, efficiency, students’ activity, individual needs, modern technologies.

KIRISH. Subyekt toifasi – falsafada, ayniqsa ontologiyada markaziylardan biri bo‘lib (Aristotel, Dekart, Kant, Gegel), zamonaviy psixologiya-pedagogika fanida ham katta e’tiborni tortadi (S.L.Rubinshteyn, K.A.Abulxanova-Slavskaya, A.V.Brushlinskiy, V.A.Lektorskiy).

“Subyekt” tushunchasining ma’nosi haqidagi munozaralar uni ishlab chiqish va qo‘llashning umumiyroq yoki muayyanroq uslubiy xarakterga ega bo‘lgan bir necha yo‘nalishlari bilan bog‘liq. Birinchi yo‘nalish psixologiyada ustuvor bo‘lgan faoliyatning va faoliyatli yondashuvning subyektdan tashqari tushunilishini yengib o‘tish bilan bog‘liq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI. S.L.Rubinshteyn ta’kidlaganidek, “falsafaning (ontologiyaning) asosiy vazifasi – turli shakldagi subyektlarni, mavjudlik usullari, harakatning turli shakllari ochib berishdan iborat”. Bunga harakatning asosiy shakllaridan biri sifatida faoliyat subyektlarini ochib berish, aniqlash vazifasi ham kiradi. Ta’lim faoliyatining o‘zaro bog‘liq ikkita shakli – pedagogik va tarbiyaviy shakllarni o‘z ichiga olgan ushbu faoliyat subyektlarini tahlil qilish ham umumfalsafiy, ham maxsus pedagogik muammo bo‘lib hisoblanadi.[2,416]

XX asr 20-yillar qo‘lyozmalaridayoq S.L.Rubinshteyn ta’kidlaydiki, faoliyat “o‘z-o‘zini” amalga oshirmaydi. Biroq, A.N.Leontyev faoliyatning ichki sxemasiga e’tibor qaratib, uning subyektini ko‘rib chiqmaydi.

“Subyekt” tushunchasi L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan va ishlab chiqilgan bo‘lib, u shaxsni (jumladan faqat bolaning shaxsini) inson tajribasi va madaniyatini o‘zlashtiruvchi deb talqin qilgan.[4,224]

Ikkinchi yo‘nalish hayot yo‘lining subyekti sifatida shaxs tushunchasining ishlab chiqilishi va muayyanlashtirilishi bilan bog‘liq.

Uchinchi yo‘nalish shaxs va subyekt tushunchalarini (bir-biriga prinsipial mos keladigan yoki farq qiladigan) talqin qilishga taalluqli. To‘rtinchi yo‘nalish o‘z-o‘zini tashkil etish, o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish va aqliy tashkil etishning boshqa shakllarini (aqliy faoliyat subyektini) aniqlash, shaxs faolligi, uning integral mohiyati tushunchalarini ishlab chiqish, bu shaxs va subyekt tushunchalari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash bilan bog‘liq edi.

Birinchi yo‘nalishda, B.G.Ananyev, S.L.Rubinshteyn, D.N.Uznadze ishlariga tayangan holda, olimlar faoliyat maqsad va motivlar ko‘rinishidagi immanent harakatlantiruvchi kuchlar orqali o‘zini amalga oshiradigan mohiyat emasligini isbotladilar. U subyekt tomonidan amalga oshirilib, u ongli va ixtiyoriy ravishda ichki o‘z-o‘zini tashkil etish (aqliy jarayonlar, holatlar, motivlar, qobiliyatlar) va o‘zi qo‘yadigan va real faoliyatning obyektiv shartlari va talablari yig‘indisidan ajratib oladigan tashqi vazifalarni muvofiqlashtiradi, chunki aynan real faoliyat ijtimoiy zarur obyektiv tabiatga ega.

Subyektga yo‘nalgan ta’lim tushunchasini quyidagi jihatlarda tubdan o‘zgartirdi. Subyekt o‘zining aqliy va shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini o‘z-o‘zini tashkil qilishni amalga oshiradi; uning ichki (aqliy, shaxsiy) faolligi va real faoliyatning obyektiv tashkil etilishi bog‘langan va muvofiqlashtirilgan “zamon-makon” ni tashkil qiladi, faoliyatning (ishda, kasbda) berilgan shartlari va talablarini obyektiv optimal va subyektiv qoniqarli natija olish uchun obyektiv o‘zgartiradi.

Bizning tushunchamizga ko‘ra, “subyekt” ta’rifi shaxs tuzilmasida “tashqi” va “ichki” o‘rtasidagi munosabatlarning murakkab o‘tishi: shaxsning “ichki orqali tashqiga” asosiy yo‘nalganlikdan “tashqi orqali ichkiga” tendensiyasining ko‘proq ustunligiga, shaxsning tashqi ta’sirlar passiv obyektidan faoliyatning har xil turlariga ishtirok etishi, o‘zlik jarayonlarida faol ro‘yobga chiqadigan va ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantira oladigan shaxsga o‘zgarishi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Pedagogik va o‘quv faoliyati subyektlarini tavsiflashda, birinchi navbatda, ijtimoiy subyektni (pedagogik jamoa yoki o‘quvchilik) ifodalagan har bir pedagog va talaba birgalikda butun ta’lim jarayonining jamoaviy subyekti ekanligini ta’kidlash kerak. Ijtimoiy qadriyatlarni ifodalovchi umumiy subyekt har bir ta’lim tizimida, muassasada ma’muriyat, professor-o‘qituvchilar jamoasi, talabalar jamoasi (oliy ta’limda bu rektorat, kafedra, dekanat, o‘quv guruhlari) bilan ifodalanadi. Ushbu umumiy subyektlarning faoliyati meyoriy-huquqiy va dasturiy hujjatlar bilan yo‘naltiriladi va tartibga solinadi. Umumiy subyektga kiradigan muayyan subyektlarning har biri o‘ziga xos, lekin kelishilgan, birlashgan maqsadlarga ega. Ular ma’lum natijalar shaklida, ammo funksiyalar va rollar farqlanishi bilan ifodalanadi, buning natijasida ta’lim jarayoni murakkab polimorf faoliyat bo‘lib hisoblanadi. Faoliyat sifatida ta’lim jarayonining umumiy maqsadi sivilizatsiya, muayyan xalq yoki jamoa tomonidan to‘plangan ijtimoiy tajribani saqlash va yanada rivojlantirishdan iborat. U uzatish va qabul qilishning ikkita qarama-qarshi yo‘nalgan maqsadi, ushbu tajribani egallashni tashkil etish va uni o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday holda, biz butun o‘quv jarayonining birlashgan ideal subyekti haqida gapiramiz, uning samaradorligi ikkala tomonning sivilizatsiya uchun umumiy muhim maqsadni anglash bilan belgilanadi.

Umumiy subyektning faoliyati, ya’ni u nimaga yo‘nalganligi sifatida ta’lim jarayonining predmeti bo‘lib ijtimoiy ong qadriyatlari, bilimlar tizimi, faoliyat usullari yig‘indisi bo‘lib, ularni

pedagog tomonidan berilishi o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishining ma’lum bir usuli bilan mos keladi. Agar uni o‘zlashtirish usuli pedagog taklif qilgan harakat uslubiga to‘g‘ri kelsa, u holda umumiy faoliyat ikkala tomonni ham qoniqtiradi; agar shu nuqtada tafovut qayd etilsa, u holda predmetning umumiyligining o‘zi ham buziladi.

S.L.Rubinshteyn fikriga ko‘ra, faoliyat subyektining – u unda ham shakllanadi, ham rivojlanadi – muhim xususiyati shundaki, u nafaqat talabaning rivojlanishiga (odatda taxmin qilinganidek), balki pedagogning o‘zining ham o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga ham tegishli bo‘ladi[2,416].

Ta’lim jarayonining o‘ziga xosligi bu ikki hodisaning bir-birini to‘ldirishidan iborat: talabaning rivojlanishi pedagogning doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirishini nazarda tutadi, bu esa o‘quvchi rivojlanishining shartidir.

Ta’lim jarayonining ideal umumiy subyekti P.F.Kapterev tomonidan yagona ta’lim maydoni, o‘rganish va rivojlanish sohasi sifatida ko‘rsatilgan. “Ijodkor o‘qituvchi va o‘quvchini o‘z-o‘zini o‘qitish va rivojlantirish ehtiyoji bog‘lab turadi. O‘zini boshqa o‘qishga hojati yo‘q, o‘zini to‘laqonli donishmand deb hisoblaydigan maktab o‘qituvchisi esa bu maydonga mansub emas, taraqqiyot zinapoyasida hech qanday zinani egallamaydi, ta’lim-tarbiya ishlariga begona bo‘ladi. U madaniyatdan, uni o‘zlashtirish va shaxsiy takomillashish ishlaridan chetda turadi[4, 113-137].

S.L.Rubinshteyn ishlarida ko‘rsatilganidek, subyektning muhim belgisi bo‘lib faollik hisoblanib, u integrativ sifatida tavsiflanadi, ya’ni ongli ravishda maqsad qo‘yishdan, dialektik bajarishdan, barcha vaziyatlarda faoliyat usullarini konstruktiv tuzatishdan boshlab barcha ko‘rinishlarda insonning faol pozitsiyasini nazarda tutadi. Subyektning faolligi o‘z cheklanganligidan tashqarida harakat qilish imkoniyatining o‘sishini ta’minlaydi[2,416].

Xulq-atvor belgilangan shakllarining mavjudligi shaxsning ularning doirasida cheklanganligini oldindan belgilab beradi. Masalan, yosh rivojlanishining oldingi bosqichlarida shakllangan o‘quv faoliyati strategiyalari kasbiy tayyorgarlik sharoitida samarasiz bo‘lib, o‘quv materialini o‘zlashtirish qobiliyatini cheklashi mumkin. O‘rganish bilan birga boradigan intilishlarning rivojlanishi, tajribalarni anglash va o‘quv faoliyati haqida fikr yuritish subyektlikning kuchayishiga olib keladi, ya’ni ular subyektning o‘z chegaralaridan tashqariga chiqish qobiliyatini oshiradi.

Ontogenezning oldingi bosqichlarida paydo bo‘lgan cheklovlarni yengib o‘tib, subyekt o‘z-o‘zini shaxsiy va kasbiy rivojlantirish qobiliyatiga ega bo‘ladi, natijada ko‘p o‘lchovli psixologik yangi hosila – shaxsiy va kasbiy taqdirda mualliflik paydo bo‘ladi. O‘z hayotining mualliffligi subyektning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish yo‘lidagi erkin va mas’uliyatli harakatini anglatadi. Shaxsiy va kasbiy taqdirdagi mualliflik hodisasi dinamik o‘zgaruvchan ijtimoiy va texnik muhitda o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish, kasbiy faoliyatni shaxsiy muhim faoliyat sifatida, faqat o‘z-o‘zini rivojlantirish motivlari va uning natijalari va oqibatlari uchun to‘liq javobgarlikdan kelib chiqadigan meyordan yuqori faollik sifatida namoyon bo‘ladi.

Faollik subyekti sifatida individning eng muhim pedagogik xususiyatlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

o‘quv materialini o‘zlashtirishga qaratilgan irodaviy harakatlar;
o‘quv materialiga anglangan qiziqish;
o‘quv vazifalarini bajarish mustaqilligi;
ta’lim motivlarini bo‘ysundirish qobiliyati;
o‘quv vazifalarini bajarish jarayonini tashkil etish qobiliyati;
o‘quv materialini hayotiy (shaxsiy) tajribaga integratsiyalash qobiliyati;
yo‘naltiruvchi-tadqiqot xulq-atvoriga aylanib boradigan diqqat faolligi;
shaxsning o‘z harakatlari bilan chegaralarini kengaytirib, berilgan ta’lim holati chegaralaridan tashqarida harakat qilishga tayyorligi sifatida vaziyatdan ustunlik.

Bu o‘quv jarayonining samaradorligini belgilaydigan subyekt zaxiralarni izlash zarurligi haqidagi g‘oyaga olib keladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun XX asrning oxirida pedagogik

nazariya va amaliyotda ta’limni tashkil etishga yangi yondashuv – subyektga yo‘naltirilgan ta’lim taklif qilindi. O‘zgarishlarning faqat maqsadga muvofiqligini anglash ularni amalga oshirish va ushbu yondashuvni pedagogik nazariya va amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish uchun yetarli emas. Buning uchun tadqiqotchilar tomonidan ushbu yondashuv bo‘yicha to‘plangan mavjud bilimlarni tizimlashtirish va uni qo‘llashning uslubiy parametrlarini aniqlash kerak: “subyektga yo‘naltirilgan ta’lim” tushunchasi, amalga oshirilayotgan faoliyatning dastlabki qoidalari sifatida uning an’anaviy yondashuv va tamoyillardan farqi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni o‘rganish “subyektga yo‘nalgan ta’lim” ta’rifini talqin qilishning yagona ma’noga ega emasligini ko‘rsatdi. Bizning tadqiqotimiz uchun falsafiy nuqtai nazarni qabul qilish muhim bo‘lib, uning kelib chiqishi pedagogika fani va amaliyotida keyinchalik qo‘llanilgan ko‘plab ilmiy yondashuvlar bilan bog‘liq. Bir qator faylasuflar tushunchasiga ko‘ri, “subyektga yo‘nalgan ta’lim – shaxsning biluv yoki o‘zgartiruvchi faoliyatga yo‘naltirilganligi. Aksariyat hollarda inson faoliyati, olimlar ta’kidlaganidek, bir-birini istisno etmasdan, balki bir-birini to‘ldirishlari kerak bo‘lgan bir emas, balki bir nechta yo‘nalishlar asosida quriladi. Bundan tashqari, ma’lum bir faoliyatni o‘rganishda qo‘llaniladigan barcha yondashuvlardan faqat bitta yo‘nalish ustuvor (dominant) bo‘lib, buning natijasida inson faoliyati uslubining sifat jihatidan o‘ziga xosligi shakllanadi [3,78].

Turli ilmiy sohalardagi olimlarning fikr-mulohazalariga asoslanib, biz “subyektga yo‘naltirilgan ta’lim” ishchi ta’rifini ishlab chiqdik – bu har xil faoliyat turlarida mustaqil jarayonlarni faol amalga oshirishga va obyektiv dunyo, boshqa odamlar va o‘z-o‘zi bilan munosabatlarda subyekt pozitsiyasiga qaratilgan, yuzaga keladigan ichki qarama-qarshiliklarni hal qilishga, muayyan maqsadlarga erishishga intiladigan, o‘z tashabbuslarini ko‘rsatadigan, mustaqil qarorlar qabul qiladigan, o‘zlikning ijodiy- ijobiy o‘zgarishining refleksiyasini amalga oshiishga qaratilgan ta’limning zamonaviy shaklidir.

Taklif etilgan talqinda ushbu hodisaning mohiyatini aks ettirish va uning eng muhim jihatlarini ajratib ko‘rsatishga harakat qilindi: subyektga yo‘naltirilgan ta’lim, birinchi navbatda:

pedagogik faoliyatdagi yo‘nalish bo‘lib hisoblanadi;

u pedagogik harakatlar tushunchalari, tamoyillari va usullaridan iborat murakkab hosiladir;

ushbu ta’lim shakli shaxsning subyekt pozitsiyasini, strategiyasini va ta’lim faoliyatining har xil turlarida uni amalga oshirish istiqbollarini aniqlash va shakllantirishda faoliyatning namoyon bo‘lishiga yo‘naltirilishi bilan bog‘liq.

Bizning tadqiqotimizda subyektga yo‘naltirilgan ta’limning mazmuni subyekt, subyekt-faoliyatli, shaxsga yo‘naltirilgan va individual kabi an’anaviy yondashuvlarni amalga oshirish bilan o‘zaro bog‘liqdir.

Subyektga yo‘naltirilgan ta’lim shaxsni “ichkaridan” o‘rganishni nazarda tutadi, obyektiv xususiyatlar to‘plami sifatida emas, balki individual ma’no va his-tuyg‘ularning tashuvchisi sifatida, uning xatti-harakatini ichki belgilab beradigan faolligi va faoliyatining refleksiyasi bilan tavsiflanadi, bunda shaxsning subyektiv pozitsiyasining ko‘rsatkichi bo‘lib u uchun muhim bo‘lgan faoliyat darajasi xizmat qiladi.

Subyektga yo‘naltirilgan ta’lim shaxsni o‘z faoliyatining subyekti sifatida shakllanishi kerak bo‘lgan o‘zining ixtiyoriy anglanmagan faoliyatining subyekti sifatida o‘rganishni nazarda tutib, bunda u o‘zini faoliyatning har xil turlariga kirishishning ijobiy tajribasini mazmunli va maqsadli boshqarish va tartibga solishni bajaradi. Buning natijasida subyekt o‘zining aqliy, shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini o‘z-o‘zini tashkil qilishni amalga oshiradi, obyektiv optimal va subyektiv qoniqarli natijaga erishish uchun ichki faoliyatni va real faoliyatni obyektiv tashkil qilishni muvofiqlashtiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta’lim jarayoni subyektlari o‘z-o‘zini rivojlantirishga “mahkum” bo‘lib, ularning ichki kuchi ularning har birining rivojlanishi uchun manba va turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim jarayoni subyektining o‘ziga xosligi, shuningdek, subyektning boshqalar bilan munosabatlar tizimida shakllanishi kabi muhim xususiyatni ham aks ettiradi. Har qanday pedagogik tizimdagi ta’lim jarayoni turli xil odamlar, guruhlar va jamoalar (o‘qituvchi, pedagog, sinf va boshq.) bilan ifodalanadi. “Har bir alohida subyekt bir vaqtning o‘zida turli jamoaviy subyektlar tarkibiga kiradi. O‘z standartlari va meyorlariga ega bo‘lgan turli xil bilim faoliyati tizimlari individda ma’lum bir yaxlitlikka integratsiyalanadi. Ushbu yaxlitlikning mavjudligi “Men” birligining zaruriy sharti bo‘lib hisoblanadi”.

Aynan shuning uchun ham jamoaviy subyekt muammosi mustaqil ta’lim-tarbiya va ishlab chiqarish muammosiga, ijtimoiy jamoaning alohida holati sifatida talabalar va o‘qituvchilar jamoasi o‘rtasidagi munosabatlar muammosiga aylanadi.

XULOSA

Shunday qilib, ta’lim jarayonining subyektlari biluv, faoliyat va umuman hayot subyektiga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar bilan ham, aynan ularning xususiyatlari namoyon bo‘ladigan ta’lim jarayonining subyektlari sifatida xos xususiyatlar bilan ham tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Ананьев Б.Г. Теория ощущений /Б.Г. Ананьев. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1961. – 446 с.

2. Рубинштейн С.Л. Проблемы общей психологии. 2-е изд. - М.: Педагогика, 1976.- 416 с.

3.Леонтиэв АН Фаолият ва шахсият // Фалсафа саволлари, 1974 йил, 4-сон, п. 87-97; № 5, п. 65-78.

4. Выготский Л. С. Этюды по истории поведения: Обезьяна. Примитив. Ребенок / Л. С. Выготский, А. Р. Лурия. Москва: Педаго- гика-Пресс, 1993. 224 с.

5.Kapterev.A.I. Cognitive management and artificial intellect in libraries:Possibilities and highlights // Scientific and technical libraries. 2023. No. 6. P. 113–137. https://doi.org/10.33186/1027-3689-2023-6-113-137.

UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHISINI PEDAGOGIK TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI: AKMEOLOGIK YONDASHUV KONSEPSIYASI

A.K.Utepbergenov – biologiya fanlari nomzodi, professor
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: Akmeologiya; pedagogik tayyorgarlik; uchinchi renessans; pedagogika nazariyasi; kompetensiyaviy yondashuv.

Ключевые слова: Акмеология; педагогическая подготовка; третий ренессанс; теория педагогики; компетентностный подход.

Key words: Acmeology; pedagogical training; third renaissance; theory of pedagogy; competency-based approach.

Kirish. O‘zbekistonda ta’lim rivojlanishining zamonaviy bosqichi, ya’ni Uchinchi Renessans davri, pedagog kadrlarni tayyorlashga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy yetuk, innovatsion fikrlaydigan shaxsini shakllantirishni ta’minlovchi akmeologik yondashuv zarurati tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu yondashuv o‘qitishning insonparvarlik va rivojlantiruvchi maqsadlarini samarali amalga oshira oladigan mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Akmeologik yondashuv asosida jismoniy tarbiya o‘qituvchisini pedagogik tayyorlash muammosi chuqur nazariy va amaliy asoslarga ega. Xorijiy tadqiqotlar shaxsiy o‘sish, o‘z-o‘zini aks ettirish va o‘z-o‘zini anglashning kasbiy takomillashuvning asosiy omillari sifatidagi rolini ta’kidlaydi. A.Banduraning o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z-o‘zini samaradorlik to‘g‘risidagi konsepsiyalari [1], K.Rojersning gumanistik psixologiyasi [2] va V.Franklning ekzistensial falsafasi [3] shaxsning kasbiy shakllanishining ichki mexanizmlarini asoslaydi. Pedagogning kasbiy faoliyatining fiziologik jihatlari W.Kenney, J. Wilmore va D. Costill asarlarida ochib berilgan [4], bu esa pedagogik kompetentlikni rivojlanishning biologik va psixomotor qonuniyatlari bilan bog‘lash imkonini beradi.

MDH mamlakatlarida ta’lim akmeologiyasi A.A. Derkach [5], N.V. Kuzmina [6], M.M. Kashapov va V.N. Maksimova [13] ishlarida tizimli rivojlangan bo‘lib, ularda pedagogik yetuklik kasbiy mahoratning cho‘qqisi sifatida qaraladi.

Ye.V. Bondarevskaya [8] va V.I. Andreevning [7] tadqiqotlari kasbiy shakllanishning shaxsiy-faoliyatli tarkibiy qismini aniqlashtiradi, Rean va Ribalkoning [9] asarlari esa o‘qituvchining o‘zini o‘zi anglashining akmeologik tuzilishini ochib beradi. Ushbu g‘oyalar kompetentli va gumanistik ta’limning zamonaviy modellarini shakllantirishga asos bo‘ldi.

Akmeologik tamoyillarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirgan o‘zbek tadqiqotchilari alohida hissa qo‘shdilar. N.N. Azizxo‘jayeva [10], U.Sh. Begimqulov [12], N.A. Muslimov [13] larning ishlari Uchinchi Renessans sharoitida pedagogik tayyorgarlikni modernizatsiyalashning ilmiy asosini tashkil etadi. O.Q. Tolipov va M. Usmonboyeva [14] tadqiqotlarida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion-texnologik yondashuvlar samarali ekanligi isbotlangan. Kasbiy o‘sish (E.G‘oziyev [6]) va pedagogik mahorat (A.Xoliqov [15]) ning psixologik jihatlarini o‘rganish muhim yo‘nalishga aylandi.

B.B. Mamurovning [14] mehnat ishining alohida ahamiyati shundaki, unda birinchi marta o‘zbek fanida akmeologik yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim jarayonini loyihalashtirishning metodologik asosi sifatida ko‘rib chiqilgan. Muallif pedagogik tayyorgarlikning akmeologizatsiyasi loyihaviy-refleksiv tafakkurni va kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirishga barqaror motivatsiyani shakllantirishga yordam berishini ko‘rsatib bergan. Mamurovning tadqiqoti akmeologiya nazariyasi va milliy pedagogik ta’lim amaliyoti o‘rtasidagi muhim bog‘lovchi vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogika fanidagi zamonaviy tendensiya bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy madaniyati va ijodiy faolligini

tizimli rivojlantirishni ta’minlaydigan akmeologik, kompetensiyaviy va gumanistik g‘oyalarni birlashtirishga qaratilgan [1,7, 11, 13, 14, 15].

Tadqiqot usullari. Qo‘yilgan vazifalarni hal qilish uchun bir-birini to‘ldiruvchi usullar majmuasi qo‘llanildi: falsafiy, pedagogik va akmeologik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish; jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha mahalliy va xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilish; ta’lim hodisalarini tadqiq qilishda tizimli va tarkibiy-funksional yondashuvlar. Shuningdek, me’yoriy hujjatlar va Uchinchi Renessans konseptual strategiyalarining kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Akmeologik yondashuvning samaradorligini asoslash pedagogik jarayonning yaxlitligi, rivojlanishi va subyektliligi tamoyillari asosida qurildi. Kasbiy pedagogikada akmeologik yondashuvning asosiy metodologik asoslari 1-javalda keltirilib o‘tilgan.

№	Metodologik asos	Мазмуни ва педагогик талқини
1	Aksiologik asos	Pedagog shaxsini rivojlantirishda ma’naviy-axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligini belgilaydi.
2	Sinergetik asos	Kasbiy shakllanishni o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tizim sifatida ko‘radi, shaxsning ichki imkoniyatlarini ochishga yordam beradi.
3	Shaxs-faoliyatli asos	Faoliyat va subyekt o‘zaro ta’sirini kasbiy o‘sishning asosiy manbai sifatida belgilaydi.
4	Kompetensiyaviy asos	Bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlarni yagona professional tizimga integratsiyalashni ta’minlaydi.
5	Akmeologik asos	Pedagogik mahoratining “cho‘qqilari”ga yetishishni anglangan o‘z-o‘zini rivojlantirish va refleksiya orqali ta’minlaydi.

1-rasm. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisini tayyorlashda akmeologik yondashuvning tuzilma-funksional modeli

Natijalar va muhokama. O‘tkazilgan nazariy tahlil jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi tizimida akmeologik yondashuvning uning shaxsiy-kasbiy salohiyatini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini aniqladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mazkur yondashuvni qo‘llash bo‘lajak o‘qituvchida o‘zini anglash, o‘zini boshqarish va kasbiy faoliyatni ijodiy tushunish qobiliyatlarini shakllantirishni ta’minlaydi. Akmeologik modelning asosiy tarkibiy qismlari - maqsadli, mazmunli, faoliyatli va natijaviy komponentlar ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib, ularning o‘zaro ta’siri kasbiy o‘sishning yaxlit tuzilmasini shakllantiradi.

Olingan ma’lumotlar muhokamasi shuni tasdiqladiki, akmeologik paradigmadan foydalanish pedagogik ta’limning an’anaviy va innovatsion unsurlarini uyg‘unlashtirishga ko‘maklashadi, uning insonparvarlik yo‘nalishini kuchaytiradi hamda uzluksiz o‘z-o‘zini rivojlantirish motivatsiyasini oshiradi. Tadqiqotda bayon etilgan nazariy qoidalar ta’lim dasturlarini takomillashtirish va yangi avlod jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlashning amaliyotga yo‘naltirilgan texnologiyalarini joriy etish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. Nazariy, metodologik va empirik ma’lumotlar tahlili akmeologik yondashuv Uchinchi Renessans sharoitida jismoniy tarbiya o‘qituvchisini pedagogik tayyorlash tizimini yangilashning konseptual asosi bo‘lib xizmat qiladi, degan xulosaga kelish imkonini berdi. U bo‘lajak mutaxassisning kasbiy yetukligi, o‘z-o‘zini anglashi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan insonparvarlik, kompetentlik va shaxsiy-faoliyat tamoyillarini birlashtiradi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisini tayyorlashning akmeologik modeli nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishni, balki o‘zini o‘zi anglash va barqaror kasbiy o‘sish uchun ichki sharoitlarni yaratishni ham ta’minlaydi. Ushbu yondashuv shaxsni takomillashtirish, innovatsion fikrlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish madaniyati ustuvor bo‘lgan pedagogik dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi.

Maqolaning ilmiy yangiligi zamonaviy pedagogik ta’lim vazifalariga nisbatan akmeologik yondashuv tuzilmasini aniqlashtirish, shuningdek, o‘qituvchining yaxlit kasbiy kompetentligini shakllantirish uchun uning metodologik ahamiyatini asoslashdan iborat.

Keyingi tadqiqotlarning istiqbollari bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining akmeologik

yetukligini baholashning diagnostik vositalarini ishlab chiqish va mualliflik akmeologik yo‘naltirilgan dasturlarning samaradorligini eksperimental tekshirish bilan bog‘liq. Olingan natijalarning amaliyotga joriy etilishi yangi avlod pedagog kadrlarini tayyorlash milliy tizimini rivojlantirishga muhim hissa bo‘lib qo‘shilishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Bandura A. Self-efficacy in Changing Societies. — New York: Cambridge University Press, 1995. — 356 p.
2. Rogers C.R. On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy. — Boston: Houghton Mifflin, 1961. — 420 p.
3. Frankl V. Man’s Search for Meaning. — New York: Pocket Books, 1990. — 220 p.
4. Kenney W.L., Wilmore J.H., Costill D.L. Physiology of Sport and Exercise. — 7th ed. — Champaign: Human Kinetics, 2022. — 648 p.
5. Деркач А.А. Акмеологические основы развития профессионала. — М.: МПСИ, 2004. — 432 с.
6. Кузьмина Н.В. Основы общей и прикладной акмеологии. — СПб.: Изд-во СПбГУ, 1995. — 392 с.
7. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. — Казань: Изд-во Казанского университета, 1996. — 304 с.
8. Бондаревская Е.В. Теория и практика личностно-ориентированного образования. — Ростов-н/Д: Изд-во РГУ, 2000. — 356 с.
9. Реан А.А., Рыбалко Е. Проблемы общей акмеологии. — СПб.: Изд-во СПбГУ, 2002. — 268 с.
10. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — T.: Moliya, 2003. — 180 b.
11. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. — T.: Fan, 2006. — 210 b.
12. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. — T.: Fan, 2007. — 256 b.
13. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. — T., 2007. — 212 b.
14. Ma’murov B.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Monografiya. — T.: Fan, 2017. — 144 b.
15. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. — T.: 2011. — 176 b.

TALABALAR KOMPOZITSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA, SHARQ MINIATYURA SAN’ATINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Jabborov Erkin Xolliyevich
Qarshi davlat universiteti dotsenti,p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Maqolada miniatyura san’atining umumiy ma’nosi, boy merosi, miniatyura maktablarini vujudga kelishi va ijod qilgan buyuk ajdodlarimiz xamda miniatyura san’atiga hissa qo‘shgan taniqli o‘zbek rassomlarimiz ijodlari haqida ma’lumotlar berilgan. Shu jumladan maqolada pedagogik jarayonlarni tashkil qilishda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilariga kompozitsion kompetentligini shakllantirish uchun tavsiya va ko‘rsatmalar nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: san’at, tasviriy san’at, realizm, kreativlik, individuallik, kompozitsiya, shakl, mazmun, ma’naviyat, dunyoqarash.

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ИСКУССТВА ВОСТОЧНОЙ МИНИАТЮРЫ В ФОРМИРОВАНИИ КОМПОЗИЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ

Джабборов Эркин Холлиевич
Доцент Каршинского государственного университета, кандидат биологических наук,

Аннотация. В статье представлена информация об общем значении искусства миниатюры, его богатом наследии, создании школ миниатюры и творениях наших великих предков, а также произведениях известных узбекских художников, внесших вклад в искусство миниатюры. Кроме того, в статье даны рекомендации и указания по формированию композиционной компетентности у будущих учителей изобразительного искусства при организации педагогического процесса.

Ключевые слова: искусство, изобразительное искусство, реализм, творчество, индивидуальность, композиция, форма, содержание, духовность, мировоззрение.

THE PLACE AND IMPORTANCE OF EASTERN MINIATURE ART IN FORMING STUDENTS’ COMPOSITION COMPETENCE

Jabborov Erkin Kholliyevich
Associate Professor, Karshi State University, PhD

Annotation. The article provides information about the general meaning of miniature art, its rich heritage, the creation of miniature schools and the creations of our great ancestors and famous Uzbek artists who contributed to miniature art. In addition, the article provides recommendations and instructions for the formation of compositional competence for future visual arts teachers in the organization of pedagogical processes.

Key words: art, fine art, realism, creativity, individuality, composition, form, content, spirituality, worldview.

Kirish. Miniatyura (mo‘jaz) rangtasviri deyilganda bejirim, juda kichik, jajji, nozik san’at asarlari tushuniladi. Miniatyura rangtasviri o‘rta asrlarda kitob bezagi bilan bog‘liq, holda rivoj topdi. U kitoblardagi bosh, yakuniy bezak, zarhal harf, illyustratsiyalardan iborat bo‘lgan. Rangtasvirning bu turi Sharqda, shu qatori Movarounnaxrda katta shuxrat qozongan. Hozirda u mustaqil san’at turi sifatida nafaqat kitoblarni, balki turli quticha, tomoshaqovoq kabilarni bezatishda ham keng qo‘llanilmoqda. Shuningdek, bu tur mustaqil san’at sifatida yildan-yilga ommalashib bormoqda.

Ta’lim oluvchilar ta’limida O‘zbekistondagi san’atning shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘liqligi bosqichma - bosqich rivojlanishi uchun zamonaviy kadrlar tayyorlashda avvalo

rivojlangan tasviriy san’at turlari va tarixi haqida chuqur bilimga ega bo‘lishi talab etiladi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. “Qadimdan Markaziy Osiyo, Misr, Xitoy, Yaponiya, Hindiston kabi mamlakatlarda tasviriy san’atning ancha qiyin grafik chizmalari paydo bo‘lgan. Misr qadimdan tasviriy san’at maktablariga ega bo‘lgan davlatlardan biridir. Tasviriy san’at borasida nazariy bilimlarni ilmiy pedagogik jihatdan talqin etish masalasiga san’at tushunchasining o‘zini tahlil qilish orqali yondoshish maqsadga muvofiqdir. Insonlar tomonidan biron-bir ish, narsa, buyum va hokazolarning mohirlik bilan bajarilishi va maromiga yetkazish inson mehnatining san’atkorona bajarilganini bildiradi. Demak, pedagoglarning ham o‘z mehnatini puxta, chiroyli, kam-ko‘stsiz bajarishi san’atkorlik namunasidir” .

Miniatyura san’ati avvalo qog‘oz bilan bog‘liq. Arab olimi Ibn Nadim 87-hijriy (milodiy 706) yilda ilk bor Samarqandga kelganida qog‘ozsozlik korxonalarini ko‘rib hayratga tushgan.

Bizgacha saqlangan san’at obidalari, yozma manbalar Movarounnahr va Xurosonda tasviriy san’at o‘ziga xos uslub¬da, musavvirlar ijodiyoti hayoliy mavhumlikdan hayotiylikka, borliqni shakl-shamoil va rangin ko‘rinishini to‘la-to‘kis ifoda etish tomon rivojlanganligini ko‘rsatadi. Bu jihatdan Kamoliddin Behzod ijodi va u asos solgan miniatyura maktabi (yirik vakillari – Mirak Naqqosh, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib va b.) ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Miniatyurachi rassomlarning ijodida teran falsafiy mazmun, tasavvuf mavzu va g‘oyalari o‘z aksini topgan. Ayni shu davrda buyuk siymolar (Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro, Bobur va b.) ning aniqroq va mukammalroq qiyofalari yaratildi, portret janri rivojlandi, me’moriy obidalar, qo‘lyozma kitoblar hayotiy, maishiy lavhalar, tabiat manzaralari bilan bezatildi.

Bunday ta’lim-tarbiyaning mohiyatini ulug‘ shoir-u yozuvchilar, musavvir-ustoz Kamoliddin Behzod, Lutfiy, Abduraxmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Samarqandiy, Xondamir, Fariddin Attor, Ahmad Yassaviy, Ulug‘bek, Pir Said Ahmadlar juda yaxshi bilishgan. Samarqandlik ijodkorlar Pir Said Ahmad va X. Abdulxay kabi rassomlarni Osiyo miniatyurachilari sifatida bilamiz. 1398 -yili yaratilgan miniatyuralar «Antigeologiyasi» kitobi Turkiyadagi davlat kutubxonasida saqlanmoqda.

Xulosa qiladigan bo’lsak, miniatyura asarlarini keng o‘rganish, izlash, shunday maktablar mavjudligini, ishlash usullarini optimallashtirish hozirgi davrning dolzarb muammolariga aylangan.

Muhokama va natijalar. 1960-yillarda O‘zbekistonning bir qator rassomlari va xalq ustalari miniatyura san’at turini tiklashga bel bog‘ladilar. Ular orasida taniqli o‘zbek rassomi Chingiz Axmarov va uning shogirdlari Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov hamda yosh san’atkorlar Niyozali Xolmatov, Shomahmud Muhammadjonov, Abduvosit Qambarov, G‘ayrat Kamolov, Munira Sotiboldiyevalar bor edi. Ijodiy ustaxona tashkil etilib, asarlarida Sharq miniatyurasining ko‘p asrlik an’analarini rivojlantirib kelayotgan musavvir Chingiz Axmarov rahbarlik qildi. Hozirgi miniatyura rassomi Sharq mumtoz miniatyurasining cho‘qqisiga oz bo‘lsada yaqinlashmasdan ijod qila olmaydi. O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi Respublika Rassomlik kolleji va Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universitetining bitiruvchilari Bahodir Yo‘ldoshev, Abduhakim Karimov, Anvar Isroilov, Jaloliddin Ashrapov, Shoilhom Shoyoqubov, Rasul Po‘latov, Abdulla Nazirov, Shorasul Shoahmedov, Sunnatulla Po‘latov, Faxriddin Rahmatullayev, Shoolim Shomansurov, Kamoliddin Mirzayev, Zilola Sulaymonovalar shular jumlasidandir.

Umumiy holda talabalar kompozitsiya yaratish jarayonida tashqi olamni va verbal ma’lumotlarni vizual obrazlar orqali tasvirlashni o‘rganadilar. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida miniatyura asarlari orqali kompozitsion kompetentlikni shakllantirish jarayonida quyidagi pedagogik talablarga amal qilish jarayon optimal tashkil etilishini ta’minlaydi:

1. Miniatyura asarlari orqali kompozitsiyaga doir nazariy ma’lumotlarning kengroq bo‘lishi talabalarda ushbu jarayon haqidagi tasavvurning boy bo‘lishiga yordam beradi.

2. Kompozitsiya va turdosh fanlarning (falsafa, psixologiya, rang tasvir, qalam tasvir, musiqa, adabiyot, raqs san’at, texnologiya va hokazo) o‘zaro uzviyligi yaratiladigan asarlarning mazmunini

ochib berishga ko’mak beradi.

3. Talabalarning o‘quv-biluv faoliyati faolligini, mustaqilligini, ongliligini oshirish.

4. Kompozitsiya o‘quv dasturining boyligi va mazmundorligini oshirish.

5. Miniatyura asarlari orqali kompozitsiya yaratish jarayonida shaxsning motivatsion, intellektual, emotsional, pozitiv xulq-atvor bilan shaxsiy sifatlariga tayanish.

6. Shaxs tafakkurining serqirra faoliyati bilan bog‘liqlikni amalga oshirish.

7. Shaxsning shaxsiy qadriyatlariga tayanish va shaxsiy qadriyatlarini hurmat qilish.

8. Kompozitsiya yaratishga semantik yondashuvni amalga oshirish. Emotsional komponentning mazmun va predmetli komponentlar bilan aloqadorligini ta’minlash.

9. Topshiriqlarni bajarishda kreativlik va individuallikni qo‘llab-quvvatlash.

10. Talabalarga kompozitsiya mazmuni va baholash mezonlarini o‘rgatish.

11. Talabalar refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tahlil qilish, baholash va o‘z ustida ishlashga o‘rgatish.

Tasviriy san’at o‘qituvchisi kompozitsiya kursini o‘rganish natijasida quyidagi qobiliyatlarga ega bo‘ladi:

- turli xildagi tasvirlarni yaratish va ulardan kompozitsiya yaratish amaliyotida foydalana bilish;
- predmetli borliqni dizaynerlik ko‘nikmalari asosida loyihalashtirish;
- kompozitsiya yaratish texnikasi;
- akademik tasvir ko‘nikmalari;
- badiiy modellashtirish ko‘nikmasi;
- kompozitsiyalarni anglash va tahlil qila bilish.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi kompozitsion kompetentligini shakllantirishda quyidagi tayanch shart-sharoitlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Kompotsiyalarni tahlil qilishda kompozitsion nazariyaga doir tushunchalarga tayanish lozim bo‘ladi. Ushbu jarayonda mazkur masala tahliliga tizimli, maqsadga muvofiq yondashuv hamda kompozitsiyadagi tahlil talab etiladigan asosiy masalani umumiy holda ko‘ra bilish talab etiladi;

Kompotsion tahlil namunalaridan asosiy tayanch shablon sifatida foydalanish har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Shu sababli kompozitsion masalalarni hal etishda yangicha yondashuvlarga, muammolarni kreativ yondashuv asosida hal etishga intilish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘rinlidir;

Kompozitsion materiallar tahlilida axborot texnologiyalari ma’lumotlaridan hamda kompyuter grafikasidan foydalanish jarayondagi innovatsion yondashuvni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Talabalar kompozitsiya bilan ishlash jarayonida quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi jarayonning muvaffaqiyatini ta’sinlashga xizmat qiladi:

- tahlil etiladigan kompozitsiya namunalarida foydalanilgan kompozitsiya vositalarini aniqlash, ushbu vositalardan foydalanishning umumiy kompozitsion tuzilmaga ta’sirini aniqlay olish;
- kompozitsiyada foydalanilgan shakl va mazmun o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni aniqlay bilish, vositalardan foydalanishning kompozitsiya g‘oyasini ifodalashdagi o‘rnini aniqlay olish, g‘oyalarni ifodalashda zaruriy kompozitsion vositalarni to‘g‘ri tanlay olish;
- kompozitsiyalar tahlili asosida kompozitsiya tuzish dinamikasini aniqlash, kompozitsiya ishlash algoritmini ishlab chiqish;
- kompozitsion vazifalarni amalga oshirishda optimal bo‘lgan kompozitsiyani tanlash, tahlil qilish va foydalanishda perspektiv bo‘lgan yo‘llarini belgilay olish;
- kompozitsiyaga doir eskizlarni tayyorlash, belgilangan vazifalar va kompozitsiya g‘oyasiga mutanosib bo‘lgan qulay variantni tanlash;
- tayyorlangan shaxsiy kompozitsiyasini tahlil qila bilish, tanqidiy baholash, kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini to‘g‘ri tanlash.

Xulosa. Talabalarni kompozitsiyalar tuzishga o‘rgatishning asosiy shartlaridan biri qulay ijodiy

muhit hisoblanadi. Bunday muhit talabalarga erkin ijod qilish bilan bir qatorda kompozitsiyaga doir bilimlar, dunyoqarash hamda borliq haqidagi yaxlit kompozitsion tasavvurni hosil qilishga yordam berishi lozim bo‘ladi. Shuningdek, ta’lim beruvchi va oluvchi o‘rtasida o‘rnatilgan kommunikatsiyaviylik ham ularning ijodkorligini o’stirishga, san’atda o‘z yo’lini tanlashga, dunyoqarashini kamol toptirishga, tashqi olam haqida yaxlit tasavvurini tarkib toptirishga yo‘naltirishi lozim. Kompozitsion kompetentlikni rivojlantirishda har bir ishtirokchining individual hususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Chugki har o‘quvchi, har bir talaba o‘quv materialini o‘zlashtirishda, tafakkuri, psixologik xususiyatlari, borliqni emotsional his etishda, xotirasi, badiiy-ijodiy faoliyatida o‘ziga xoslikka ega bo‘ladi.

Kompozitsion tafakkurning shakllanish jarayoni maxsus jihozlngan va tashkil etilgan muhitda samarali kechadi. Bunday o‘quv xonalari maxsus videojihozlar, kompyuter texnologiyalari, maxsus yoritgichlar bilan jihozlangan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Сулаймонов А. Тасвирий санъат таълими сифати ва самарадорлигини оширишнинг дидактик имкониятлари. Монография. – Тошкент: “Баёз”, 2017. – 160 б.

2. Jabborov.E.X. Kompozitsiya. -T “Innovatsiya-Ziyo” Darslik.2021,154 b.

3.Zhabborov Erkin Hollievic. In volume 8 of Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences(EJHSS) May 2022 The Impact of the Unity of Form and Content in the Visual Arts on Human Spirituality P a g e | 51

4.Jabborov E. X. Sharq miniatyura san’ati vositasida talabalar kompozitsion kompetentligini shakllantirish metodikasini takomillashtirish. (PhD).diss.- Toshkent, 2024.

5. E. Jabborov. Kompozitsiya asoslari va qonun – qoidalari // Xalq ta’limi. Ilmiy metodik jurnal. - Toshkent, 2021. №6 –B. 102-107.

6. E.Jabborov. Tasviriy san’atdagi shakl va mazmun birligining shaxs ma’naviyatiga ta’siri // Xalq ta’limi. - Toshkent, 2023. №4 –B. 47-50.

7.Жабборов Э. Рассомларнинг композиция ҳақидаги фикр-мулохазалари ва тахлили // Mug‘allim hem uzliksiz Bilimlenirio. Ilmiy- metodologik jurnal. –Nekus, 2021. № 4/1. –Б. 84-93.

8. Ҳасанов Р. Тасвирий санъат ўқитиш методикаси. Тошкент, 2004.

9.Шабаратов П.П. Миниатюра. Тошкент: Тафаккур, 2011. – 128 б.

10. Ибрагимов Р. АНИМАЦИЯ САНЪАТИНИНГ ТАРБИЯВИЙ ВА ПСИХОЛОГИЯСИ МУАММОЛАРИ //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”. – 2023. – Т. 1. – №. 01.

YUQORI MALAKALI DZYUDOCHILARNING TEXNIK-TAKTIK VA JISMONIY TAYYORGARLIGINI OPTIMALLASHTIRISH

Sayidov Feruz Beshimovich
Buxoro davlat pedagogika instituti, «Jismoniy madaniyat nazanyasi va uslubiyati» kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yuqori malakali dzyudochilarning texnik-taktik va jismoniy tayyorgarligini optimallashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda sportchining musobaqa faoliyatida texnik harakatlar samaradorligini oshirish, taktik qaror qabul qilish tezligini rivojlantirish hamda jismoniy tayyorgarlikni individual xususiyatlarga moslashtirish yo‘llari tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy mashg‘ulot texnologiyalarining qo‘llanilishi orqali sport natijalarini barqaror oshirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: dzyudo, texnik-taktik tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, optimallashtirish, sport mashg‘uloti, yuqori malaka, samaradorlik.

ОПТИМИЗАЦИЯ ТЕХНИЧЕСКОЙ, ТАКТИЧЕСКОЙ И ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ДЗЮДОИСТОВ

Сайидов Феруз Бешимович
Преподаватель кафедры «Теория и методика физической культуры» Бухарского государственного педагогического института.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы оптимизации технической, тактической и физической подготовки высококвалифицированных дзюдоистов. В исследовании анализируются пути повышения эффективности технических действий в соревновательной деятельности, развития скорости принятия тактических решений и индивидуализации физической подготовки. Также показаны возможности повышения стабильности спортивных результатов за счёт применения современных тренировочных технологий.

Ключевые слова: дзюдо, техническая и тактическая подготовка, физическая подготовка, оптимизация, спортивная тренировка, высокая квалификация, эффективность.

OPTIMIZATION OF TECHNICAL, TACTICAL, AND PHYSICAL TRAINING OF HIGHLY QUALIFIED JUDOKAS

Sayidov Feruz Beshimovich
Lecturer of the Department of Theory and Methodology of Physical Education, Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation. This article explores the optimization of technical, tactical, and physical preparation of highly qualified judo athletes. The study analyzes methods to improve the efficiency of technical actions in competition, enhance tactical decision-making speed, and individualize physical conditioning. It also highlights the potential of modern training technologies to ensure consistent improvement in athletic performance.

Keywords: judo, technical and tactical preparation, physical conditioning, optimization, sports training, high qualification, effectiveness.

